B.T.JURAYEV

PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK FANLARNI O‘QITISH METODIKASI

Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan oliy o‘quv yurtlarining 5110900- pedagogika va psixologiya sirtqi ta`lim yo‘nalishi talabalari uchun o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan.

“FAN VA TA`LIM”

Buxoro-2022

UO'K 378.013(075.8)
159.9(075.8)
KBK 74.58ya73
J 96
Jurayev, Bobomurod Tojiyevich.
Pedagogik va psixologik fanlarni o‘qitish metodikasi [Matn] : o'quv qo'llanma / B.T. Jurayev .- Buxoro : Fan va ta’lim, 2022. –326 b.
UO'K 378.013(075.8)
159.9(075.8)
KBK 74.58ya73

Ushbu o’quv qo’llanma 5110900- Pedagogika va psixologiya sirtqi ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda pedagogik fanlarni o‘qitish metodikasi fanining predmeti, maqsad va vazifalari, prinsiplari, ta’lim metodlarining tasnifi, pedagogik fanlarini o‘qitish jarayonida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanish, o‘quvchilarni bilim, ko‘nikma va malakalarini tashxis etish, psixologiya fanlarini o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari, psixologiya fanlarini o‘qitish shakl va metodlari, o‘qitishning interfaol metodlari, psixologiya fanidan bilimlarni baholash tiplari yoritilgan.

Mas’ul muharrir:
Olimov Sh.Sh.– BuxDU professori, pedagogika fanlari doktori

Taqrizchilar:
Adizov B.R. – BuxDU professori, pedagogika fanlari doktori
Gaffarov A.X. – BuxMTI dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

ISBN: 978-9943-8988-2-0

Ushbu o’quv qo’llanma Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022 yil “9” sentabrdagi “302”-sonli buyrug‘iga asosan nashr etishga ruxsat berildi.

© FAN VA TA`LIM NASHRIYOTI
© Jurayev Bobomurod Tojiyevich

KIRISH

Jahondagi oliy ta’lim o‘quv-tarbiya jarayonini kreativ yondashuv asosida boshqarish asosida bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy-ijtimoiy tayyorgarligini rivojlantirish masalasi dolzarb vazifalardan biriga aylangan. Zamonaviy oliy ta’lim tizimini kreativ yondashuv asosida o‘quv-tarbiya jarayonini boshqarish mexanizmlarini va ularni amaliyotga joriy etishning innovatsion tizimini yanada takomillashtirishni taqozo etmoqda. Shu jihatdan oliy ta’lim tizimida o‘quv-tarbiya jarayonini kreativ yondashuv asosida boshqarishning innovatsion texnologiyalarini yaratish, yangi bilimlarni yaratuvchi zamonaviy pedagogik jarayonlar asosida raqobatbardosh mutaxassis-kadrlarlarni tayyorlash imkoniyatlarini kengaytirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda oliy ta’lim tizimini modernizatsiyalash hamda rivojlangan mamlakatlar ta’lim standartlari talablariga har tomonlama javob beradigan raqobatbardosh, kreativ fikrlovchi mutaxassis-kadrlarni tayyorlashga qaratilgan o‘qitish jarayonini takomillashtirish zaruratini yuzaga kelmoqda. Oliy ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish, oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlashning maqsadli yo‘nalishlarini aniqlash, ayniqsa, oliy ta’lim tizimida o‘quv-tarbiya jarayonini sifatli tashkil etish dolzarb hisoblanadi. 2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida oliy ta’lim sifatini oshirish va olim ta’lim qamrovini kengaytirish, davlat oliy ta’lim muassasalariga akademik va moliyaviy mustaqillik berish, salohiyatli oliy ta’lim muassasasini QS va TNE xalqaro reytinglariga kiritish, erkin va ijodiy fikrlaydigan yoshlarni nufuzli xorijiy oliygohlarga o‘qishga yuborish ko‘lamini ikki baravarga oshirish kabi muhim vazifalar belgilangan[1].

Bo‘lajak pedagog mutaxassislarni zamon talablari asosida aqliy, axloqiy, intellektual, estetik va jismoniy jihatdan komil inson sifatida tarbiyalash “Pedagogika va psixologiya fanlarini o‘qitish metodikasi” fanining ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur fan orqali bo‘lajak mutaxassis o‘qituvchilar ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, yosh avlodga yuksak ma’naviy-axloqiy sifatlarni tarkib toptirishga doir ilmiy-nazariy, amaliy-metodik bilimlar, zarur ko‘nikma

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сонли Фармони // Ўзбекистон Республикаси Қонуни ҳужжатлар тўплами – Т.; 2022 – б.23.

va malakalar hajmini, o‘qituvchi shaxsida namoyon bo‘lishi lozim bo‘lgan umumkasbiy va shaxsiy fazilatlarni muvaffaqiyatli egallashlari kerak.

“Pedagogik va psixologik fanlarni o‘qitish metodikasi” o’quv qo’llanmasi mazmunida mutaxassislik fanlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik, milliy va jahon ta’lim tizimidagi ilg‘or g‘oyalarning uyg‘unligi, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi, zamonaviy ilm-fan, texnika, texnologiyalar taraqqiyotini o‘ziga aks ettirib, hozirgi zamon pedagogika fanining so‘nggi yutuqlari hamda uzoq yillar olib borgan ilmiy kuzatish va mazkur fanni o‘qitish tajribasiga tayanib, mazkur fanning ilmiy-metodik asoslari xususida fikr yuritilgan.

1-MAVZU. “PEDAGOGIK FANLARNI O‘QITISH METODIKASI” FANINING PREDMETI, MAQSAD VA VAZIFALARI

Tayanch so‘zlar: *fan, pedagogika, metod, metodika, o‘rgatish, o‘qitish, o‘rganish, ta’lim, o‘qitish metodikasi, bilim, ko‘nikma, malaka, predmet, maqsad, vazifa, fanlararo bog‘liqlik.*

1.1. Metodika tushunchasi.

Pedagogika fani o‘qituvchilarining mavjud amaliy tajribalari, shuningdek, oliy o‘quv yurtlari didaktikasi bo‘yicha individual tadqiqotlar pedagogika o‘qitish metodikasi bo‘yicha nazariy qoidalar, tamoyillar, qoidalar va tavsiyalarni tizimlashtirish imkonini berdi.

Metodika – muayyan voqea, hodisa va faoliyatga tegishli, qat’iy ketma-ketlikka (algoritmik xarakterga), ilgaridan o‘rnatilgan reja (qoida), tizimga aniq rioya qilish. Metodika biror vazifani maqsadga muvofiq ravishda bajarish, o‘tkazish usullari, yo‘llari majmuasidir.

Pedagogika fan sohasida ma’lum o‘quv fanini o‘qitish qonuniyatlarini tadqiq qiladi. Masalan, tillar metodikasi, matematika metodikasi, tarbiyaviy ishlar metodikasi va shu kabilar.

“Metodika” tushunchasi turli fanlarni o‘qitish bilan ham bog‘liklikda qo‘llanilib, ma’lum sohani o‘qitish jarayoni, mazmuni, qonuniyatlari, tamoyillari, shakl, metod va vositalari yig‘indisini o‘zida ifoda etadi. Pedagog olim A.M.Stolyarenkoning fikricha, “O‘quv fanlarini o‘qitish metodikasi ma’lum bir pedagogik vazifalarni hal etish bilan bog‘liq metod, metodik usullar, vosita va tashkiliy chora-tadbirlar majmuidir”[1].

G.M.Kodjaspirova, A.Yu.Kodjaspirovlarning fikricha, “O‘qitish metodikasi pedagogik faoliyatni amalga oshirishning aniq usullari, uslublari va texnikasidir”[2].

[1] Столяренко А.М. С81 Психология и педагогика: Учеб.пособие для вузов. — М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2004. - 423 с. ISBN 5-238-00259-9

[2] Коджаспирова Г. М., Коджаспиров А. Ю. Педагогический словарь. – Academia, 2005.

O‘qitish metodikasiga qo‘yiladigan zaruriy talablarga quyidagilar kiradi:

1) aniqlik;
2) asoslanganlik;
3) rejalashtirilgan harakatning maqsad va vazifalarga mosligi;
4) qayta ishlab chiqishga yo‘nalganlik;
5) hayot bilan uyg‘unlik;
6) natijaviylik.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib aytganda, o‘qitish metodikasi o‘zida quyidagilarni aks ettiradi:

- ta’limning maqsad va vazifalarini – ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi, tashkiliy;
- ta’limning qonuniyat va tamoyillarini;
- ta’lim mazmunini;
- ta’limni tashkil etishning asosiy va yordamchi shakllarini;
- ta’limning umumiy va xususiy metodlarini;
- o‘quv vositalari;
- o‘qitish natijasini.

Metodologiya (yunoncha. methodos — nazariya, ta'limot, bilish yoki tadqiqot yo‘li va logos — so‘z, tushuncha): 1) amaliy va nazariy faoliyatni qurish va tashkil etish yo‘llari va prinsiplar tizimi; 2) bilishning ilmiy metodi to‘g‘risidagi ta'limot; 3) u yoki bu fanda qo‘llaniladigan metodlar yig‘indisi ma'nolarini anglatadi.

Pedagogika fanining metodologiyasi — bu pedagogik borliqni o‘zgartirish va bilish jarayonlarini shakllari, metodlari va prinsiplari to‘g‘risidagi ta'limot.

Fan metodologiyasi tadqiqot komponentlarini tavsiflab, tadqiqot vazifalarini hal etish jarayonida harakatlar ketma-ketligi va bosqichlari to‘g‘risidagi tasavvurlarni shakllantirib, tadqiqotning metod hamda vositalari yig‘indisini, vazifalarini, tadqiqot obyekti va predmetini tavsiflaydi.

Demak, pedagogika fanini o’qitish metodikasi metodologiyasi fan metodologiyasining falsafiy va maxsus-ilmiy darajalariga asoslanadi. Shuni ta'kidlash kerakki, metodologiyaning barcha darajalari o'zaro bog'liq va bir-biriga bo'ysunadi, shuning uchun ular yaxlit tizimni tashkil qiladi.

Ana shu asosdan kelib chiqqan holda, quyida o‘qitish metodikasi mohiyatini yoritib beruvchi asosiy tushunchalarga izoh berib o‘tamiz:

1) o‘rgatish – o‘qitish maqsadini amalga oshirish bo‘yicha pedagogning tartiblangan faoliyati;

2) o‘rganish – anglash, mashq qilish, va egallangan tajribalar asosida xulq-atvor va faoliyatning yangi shakllarini egallash jarayoni, oldin egallanganlari o‘zgaradi;

3) o‘qitish – qo‘yilgan maqsadga erishishga yo‘naltirilgan pedagog bilan talabalarning tartiblangan o‘zaro harakati;

4) ta’lim – o‘qitish jarayonida egallanadigan bilim, ko‘nikma, malakalar, fikrlash usullari tizimi;

5) bilim – ma’lum bir fanni nazariy o‘zlashtirishni aks ettiradigan inson g‘oyalari yig‘indisi;

6) ko‘nikma – egallangan bilimlarning aniq xatti-harakatdagi ifodasi, o‘zlashtirilgan bilimlarni amaliyotga qo‘llash usullarini egallash;

7) malaka – avtomatlashgan, biror bir uchul bilan bexato bajarish, ko‘nikmaning takomillashgan darajasi;

8) maqsad – o‘qitishning nimaga qaratilganligi, uning kuchlari kelgusida qay yo‘sinda safarbar etilishi;

9) mazmun –o‘qitish jarayonida egallanishi lozim bo‘lgan ilmiy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalar, faoliyat, fikrlash usullari tizimi;

10) tashkil etish - qo‘yilgan maqsadni yaxshi amalga oshirish uchun unga zaruriy shaklni taqdim etadigan, aniq mezonlar bo‘yicha tartiblangan didaktik jarayon;

11) shakl - o‘quv jarayonining tashqi ifodasi, uning ichki mohiyati, mantig‘i, mazmuni uchun qobiq;

12) metod - o‘qitishning maqsad va vazifalariga erishish (amalga oshirish) yo‘li;

13) vosita - o‘quv jarayonining predmetli qo‘llab-quvvatlanishi, yangi materialni o‘zlashtirish jarayonida o‘qituvchi va talabalar tomonidan foydalaniladigan obyekt;

14) natija - o‘quv jarayonining so‘nggi mahsuli, belgilangan maqsadlarning amalga oshganlik darajasi.

15) metodik (uslubiy) ko‘rsatma – muayyan fanning o‘quv dasturi bo‘yicha kurs ishlari, loyihalar, laboratoriya mashg‘ulotlari va amaliy ishlarni bajarish tartibi aniq ko‘rsatilgan va batafsil ifodalangan, hamda ushbu fan bo‘yicha talabalarda zarur amaliy ko‘nikma va malakalar

hosil qilishga mo‘ljallangan ta’lim muassasasining ilmiy kengashi tavsiyasi asosida nashr etiladigan kichik hajmli qo‘llanma.

1.2. Pedagogik fanlarni o‘qitish metodikasi fanining predmeti, maqsad va vazifalari

Pedagogik fanlarni o'qitish metodikasining metodologik asoslarini aniqlashtirish uning obyekti, predmeti, maqsadi va vazifalari to'g'risida savollar tug'dirish imkonini berdi. O‘quv adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, pedagogika va pedagogika o‘qitish metodikasi darsliklarida bu masala bo‘yicha tushunchalar birligi mavjud emas.

O‘tgan asrning 60-yillarida klassik ta’rif keng tarqaldi: o‘quv predmeti metodikasi muayyan o‘quv predmetini o‘qitish qonuniyatlarini o‘rganuvchi pedagogika fanidir[1]. Ushbu yondashuv ko'plab tadqiqotchilar va amaliyotchilarni pedagogika o'qitish metodologiyasini shu nuqtai nazardan ko'rib chiqishga yo'naltirdi.

Keyinchalik pedagogika o'qitish metodikasi deb nomlandi:

-pedagogikani o`qitish o`rganishning umumiy qonuniyatlarini qo`llashning o`ziga xos xususiyatlarini o`rganuvchi predmet didaktikasi[2];

- pedagogikani o‘qitishga qo‘yiladigan me’yoriy talablar bo‘lgan metodik elementlar majmuini belgilovchi metodik tizim[3];

- barcha turdagi ta'lim muassasalarida o'quv fanini o'qitish va o'rganish qonuniyatlarini o'rganuvchi xususiy yoki fan metodologiyasi.

Yuqoridagi ta'riflardan ko'rinib turibdiki, tadqiqotchilar metodologiya obyekti sifatida o'quv fanini o'qitish jarayonini, o'quv jarayonining qonuniyatlari esa mavzuni ajratib ko'rsatadilar.

O'qitish metodikasi obyekti aslida fan ma’lumoti, tarbiyasi va ta'limi bilan belgilanadi. Ta'lim, tarbiya va rivojlanish asosan o'rganish jarayonida amalga oshiriladi, shuning uchun metodikaning obyekti fanni o'qitish jarayonidir, deb hisoblash mumkin. Shunday qilib, o’qitishning asosiy funksiyalari - ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi, funksiyalari: tashkiliy, strukturaviy, psixologik, integratsiya-differensiatsiya, maslahat, nazorat-diagnostika,

[1]Виненко В.Г. Общие основы педагогики: учеб. пособие /В.Г. Виненко. – М.: Издательско-торговая корпорация «Дашков и К», 2009. – 300с.

[2] Астафьева Л.С. Педагогика: учеб пособие /Л.С. Астафьева. – М.: Изд-во РУДН, 2010. – 121с.

[3] Виленский В.Я., Образцов П.И., Уман А.И. Технологии профессионально- ориентированного обучения в высшей школе: учеб. пособие /В.Я. Виленский и др. – М.: Пед. Об-во России, 2004. - 192с.

korreksion, refleksiv, fasilitatsion kabi funksiyalar bilan boy etish mumkin.

Ta'limiy funksiya - pedagogik bilim, ko'nikma va malakalar tizimini shakllantirish va ularni amaliyotda qo'llash uchun sharoit yaratish.

Rivojlantiruvchi funksiya talabalar shaxsining aqliy, hissiy, hissiy-irodaviy, motivatsion va kommunikativ sohalarini rivojlantirish uchun sharoit yaratadigan faol o'qitish usullaridan foydalangan holda amalga oshiriladi.

Tarbiyaviy funksiya o'quvchilarni turli xil faoliyat turlarini tashkil etish va joriy etishdan iborat bo'lib, ular davomida o'quvchilar shaxsining intellektual, hissiy va irodaviy fazilatlari, kasbiy va aksiologik qarashlari va e'tiqodlari, shuningdek, o'quv va kognitiv faoliyat motivlari shakllanadi.

Tashkiliy funksiya pedagogik fanlarni o'qitish mazmuni, hajmi va sifati bilan o'quvchilarning bilish faoliyati o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

O'qitishning **strukturaviy funksiyasi** har bir alohida dars uchun pedagogika bo'yicha o'quv materialini tartiblash va tizimlashtirishdan iborat.

Psixologik funksiya talabalarning ishlashi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishdir: odatdagi vaqt, tanish sinflar, ma'lum o'quv talablari va boshqalar - bularning barchasi ishga ijobiy munosabat va qulaylik hissi yaratadi.

Integratsiyalash-differensiallash funksiya o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatini tashkil etishdan iborat bo'lib, bunda har bir o'quvchining imkoniyatlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda faoliyatini individuallashtirish uchun sharoitlar yaratiladi.

Maslahat funksiyasi pedagogika bo'yicha guruh va individual maslahatlar o'tkazish, o'quv materialini o'zlashtirishda yordam berish, kerakli ma'lumotlarni taqdim etish, savollarga javob berish, o'quv ma'lumotlarini taqdim etish usullari, ta'til paytida ishlash bo'yicha maslahatlardan iborat.

Nazorat va diagnostika funksiyasi o'quvchilarning individual ehtiyojlari va imkoniyatlarini hisobga olish, o'quv materialini o'zlashtirish darajasi bo'yicha fikr-mulohazalarni bildirishdan iborat.

Korreksion funksiyasi o'quvchilarning o'quv faoliyatini nazorat qilish va baholash asosida tartibga solish va tuzatishni o'z ichiga oladi.

Refleksiv funksiya pedagogikani o'qitish jarayonida o'z harakatlarini tushunishga, boshqalarni (talabalar, hamkasblar) tushunishga, ularga yordam berishga, o'z harakatlarini boshqa subyektlarning harakatlari bilan muvofiqlashtirishga qaratilgan.

Fasilitatsion funksiya o'quvchilarga pedagogik bilimlarni o'zlashtirishga metodik, psixologik va texnik yordam berishdir.

Shunday qilib, an'anaviy o’qitish funksiyalari g'oyasi ham vaqt o'tishi bilan o'zgaradi. Ularning barchasi bir-biri bilan chambarchas bog'liq va bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Masalan, ta’limiy funksiya bilimlarni birlashtirish, sinfda o'quvchilarning evristik faoliyatini tashkil etish, modellashtirish, aks ettirish va boshqalarni o'z ichiga oladi. Shuning uchun metodikaning obyekti sifatida o'qituvchi va talabaning birgalikdagi faoliyati bilan ifodalanadigan o'quv jarayoni ko'rib chiqilishi mumkin, bu jarayon davomida ko'plab o'zaro bog'liq funksiyalar amalga oshiriladi.

Pedagogika o`qitish metodikasi predmetini bu fanni o`qitishning maqsadi va predmet mazmuni, metodlari, usullari, vositalari, shakllari va texnologiyalari tashkil etadi. Eng muhim element - bu pedagogika o'qitish maqsadi bo'lib, u boshqa barcha elementlarni (o'qitishning mazmuni, metodlari, usullari, vositalari, shakllari va texnologiyalari) belgilaydi. Barcha elementlarning munosabatlari diagramma sifatida ifodalanishi mumkin (1-rasm).



1-rasm. Pedagogik fanlarni o‘qitish metodikasi elementlarining o‘zaro bog`liqligi

Demak, pedagogik fanlarni o‘qitish metodikasi nazariya va amaliyotning uyg‘unligidir. Metodika pedagogik fanlarni o'qitish jarayonini tarkibiy qismlarini (o'qitish, o’rgatish, o'rganishning maqsadi, vazifalari, mazmuni, shakllari, usullari va texnologiyalari) yaxlit tizim asosida o'rganadi. Metodika pedagogikani o‘qitishning tamoyillari va qoidalarini, shakl va usullarini asoslashga xizmat qiladi.

Pedagogik fanlarni o‘qitish metodikasining obyekti o`qituvchi (talaba) va o`quvchilarning birgalikdagi faoliyati bilan ifodalanadigan o`quv jarayoni bo`lib, uning davomida o`quv jarayonining o`zaro bog`liq ko`plab funksiyalari amalga oshiriladi.

Pedagogik fanlarni o‘qitish metodikasining predmeti pedagogika o`qitish qonuniyatlari va tamoyillarini asoslash, shuningdek, o`qitishning maqsadi, vazifalari, mazmuni, shakllari va usullari, o`qituvchi va o`quvchilar faoliyatining birligidir.

Pedagogik fanlarni o‘qitish metodikasining vazifalari:

✓bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirish maqsadida fanning maqsadi, vazifalari, mazmuni, pedagogik fanlarni integratsiyalash yo‘llarini ilmiy asoslarini ishlab chiqish;

✓pedagogik fanlarni o’qitish jarayoni ular asosida quriladigan qonuniyatlar va didaktik tamoyillar masalasini hal etish;

✓o‘quvchi (talaba)larni o‘quv-tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish maqsadida pedagogik fanlarni o‘qitishning shakllari, metodlari, usullarini tanlash va tizimlashtirish;

✓pedagogik fanlarni o’qitishda to’plangan tajribani o’rganish, umumlashtirish va tizimlashtirish;

✓yangi (mualliflik) elementlarni modellashtirish va ularni pedagogik fanlarni o‘qitish jarayoniga joriy etish;

✓kasbiy pedagogik faoliyatda bo'lajak o'qituvchilarning ijodkorligini rag'batlantirish.

Shuni ta'kidlash kerakki, pedagogik fanlarni o'qitish metodikasi vazifalari dinamiklik bilan ajralib turadi va vaqti-vaqti bilan tuzatilishi

kerak, chunki ular pedagogika fanidagi ilmiy kashfiyotlar va amaliyot ehtiyojlari bilan bog'liq.

Shunday qilib, biz pedagogika o‘qitishning prinsipial yangicha yondashuvi bo‘lgan pedagogika o‘qitish metodikasining metodologik asoslarini ko‘rib chiqdik va bularning barchasi pedagogika kursining tuzilishi va mazmunini tavsiflashga o‘tishga imkon beradi. Bu keyingi bo'limda muhokama qilinadi.Shunday qilib, bu vazifalarni amalga oshirish orqali pedagogik fanlarni o‘qitishi metodikasi, bo‘lajak o‘qituvchi-tarbiyachilarda pedagogika nazariyasi va amalyotini puxta egallash, boy tarixiy-tarbiyaviy tajribalarni o‘rganib, o‘zlarida zamonaviy kasbiy, ma’naviy axloqiy, ijodiy-mahsuliy fazilatlarni shakllantirishga amaliy yordam ko‘rsatadi.

1.3. Pedagogik fanlarni o‘qitish metodikasi fanining boshqa fanlar bilan o‘zaro aloqasi

Pedagogik fanlarni o‘qitish metodikasi fan sifatida boshqa fanlarning nazariyalaridan ijodiy qo‘llash natijasida rivojlanadi. Pedagogik hodisa va jarayonlarni bilish va tadqiq qilishning umumiy yondashuvlarini falsafa ko‘rsatib beradi. Pedagogika sohasidagi tadqiqotchilar ta’lim va tarbiya mazmunini ishlab chiqishda, maqsadni belgilashda, uning metodologiyasini aniqlashda falsafiy bilimlar tizimiga tayanadilar.

Fiziologiya, anatomiya, psixologiya kabi inson to‘g‘risidagi fanlar inson shaxsini shakllanishi, qonuniyati va mohiyatini har tomonlama chuqur o‘rganishda yordam beradi. Pedagogika psixologik bilimlar asosida samarali o‘quv-tarbiyaviy tizimni yaratadi. Pedagogika va psixologiya fanlarining integratsiyalashuvi pedagogik psixologiya fanining paydo bo‘lishiga olib keldi. Pedagogika mustaqil, yetarli darajada rivojlangan, o‘zining alohida tadqiqot sohasiga ega bo‘lishiga qaramasdan boshqa fanlar bilan aloqada bo‘lmasdan mavjud bo‘la olmaydi. Tarbiyaviy faoliyat obyekti o‘suvchi, rivojlanuvchi inson bo‘lganligi sababli pedagogika birinchi navbatda insonni o‘rganuvchi fanlar bilan aloqada bo‘ladi. Insonni jamiyat a’zosi sifatida ijtimoiy fanlar, biologik evolutsiya natijasi sifatida tabiiy fanlar, ongli, fikrlovchi mavjudot sifatida psixologik fanlar o‘rganadi.

Pedagogik fanlarni o‘qitish metodikasi fanini ijtimoiy fanlar bilan aloqasini ko‘rib chiqamiz. Ijtimoiy fanlar tarbiya maqsadini va mohiyatini aniqlashga yordam beradi. Pedagogika ijtimoiy fanlardan

falsafa bilan uzviy bog‘liq. Falsafiy ta’limotlar pedagogikaning metodologik asosi hisoblanib, ta’lim va tarbiya maqsadini anglashga yordam beradi. Falsafiy qarashlar tizimidan (materialistik, ekzistensial, pragmatik, neopozitivistik v.b..) pedagogika tadqiqotchilari tayangan holda pedagogik izlanish yo‘nalishlarini belgilab, ta’lim jarayonini texnologik xususiyatlarini, maqsadini, mohiyatini aniqlaydilar. Pedagogika va falsafaga tegishli qator umumiy savol va muammolar mavjud bo‘lib, ularga quyidagilar kiradi:

– tarbiya maqsadi muammosi;

– dunyoqarashni shakllanishi muammosi;

– jamoa va shaxs aloqadorligi;

– bilish nazariyasi bilan bog‘liq gnoseologik muammolar.

Pedagogika shu bilan birgalikda falsafaning mustaqil sohalari etika va estetika bilan ham uzviy bog‘liqlikda rivojlanadi. Ular axloqiy, estetik tarbiya hamda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish kabi pedagogik vazifalarni hal etishda yordam beradi. Pedagogika aholining turli guruh va qatlamlari rivojlanishining asosiy tendensiyalarini, ijtimoiylashuv qonuniyatlarini, ijtimoiy muhitning insonga ta’sirini, shaxsning turli ijtimoiy institutlardagi tarbiyasini tadqiq qiluvchi sotsiologiya bilan uzviy bog‘liq. Pedagogika biologik fanlar bilan ham uzviy bog‘liq. Ular pedagogika va psixologiyaning tabiiy-ilmiy tayanchi hisoblanadi. Pedagogika rus fiziologlari I.M.Sechenov, I.P.Pavlovlarning birinchi va ikkinchi signallar tizimi, insonni ruhan rivojlanishi, tabiati, sezgi organlarining rivojlanishi va funksiyalari to‘g‘risidagi fundamental ishlariga tayanadi. Ayniqsa, ta’lim-tarbiya masalalarini hal etish, mehnat qilish va dam olish tartibini ishlab chiqish inson organizmi funksiyalari va xususiyatlari to‘g‘risidagi yosh fiziologiya, maktabdagi turli mashg‘ulotlarni tashkil etishning gigiyenik masalalarini o‘rganuvchi maktab gigiyenasi muhim rol o‘ynaydi.

Pedagogik va psixologik fanlarni o‘qitish metodikasi fani didaktika bilan bevosita aloqador. Didaktika va metodikaning umumiy tadqiqot obyekti – bu o'quv-tarbiya jarayonidir. Faqatgina farqi shundaki, didaktika bu jarayonni yaxlit o'rganadi va metodologiya - ma'lum bir ilmiy mavzuga bog'liq bo‘ladi. Bu fanlar o‘rtasidagi aloqaning xususiyatini umumiy nazariyaning aniq predmet materiali bo‘yicha amalga oshirishning muayyan shakliga aloqadorligi sifatida belgilash mumkin. Bu bog'liqlik har ikkala fanning kontseptual qismini tashkil

etuvchi asosiy kategoriyalarning umumiyligida namoyon bo'ladi, shuningdek asosiy o‘qitish tamoyillarida ham kuzatilishi mumkin.

Pedagogik fanlarni o‘qitish metodikasi fanining boshqa fanlar bilan aloqalari tahlil natijasida quyidagi bir-birini to‘ldirish shakllarini ifodalashimiz mumkin: boshqa fanlar tomonidan umumlashtirilgan, asosiy nazariya va g‘oyalardan pedagogikada ijodiy qo‘llash va foydalanish; boshqa fanlarda qo‘llaniladigan ilmiy tadqiqot metodlaridan (matematik modellashtirish, sotsiologik so‘rov) foydalanish; psixologiya, fiziologiya, sotsiologya va boshqa fanlarda olingan aniq natijalarni pedagogikada qo‘llash; kompleks tadqiqotlarda ishtirok etish.

1.4.Pedagogik fanlarni o‘qitish metodikasi fani prinsiplari

Pedagogik fanlarni o‘qitishning metodikasining prinsiplari o‘quv-tarbiya jarayonlarining tashkiliy-didaktik asoslariga qo‘yiladigan ijtimoiy-pedagogik talablarni, uni boshqarishda rioya qilinadigan meyorlar sifatida amal qiladi.

Fikrimizcha, pedagogika va psixologiya ta’lim yo‘nalishida o‘qitish metodikasining prinsiplarini belgilashda quyidagilarga asoslanadi:

1) pedagogik fanlar oldida jamiyat ehtiyoji va talablaridan kelib chiqqan maqsad va vazifalarni amalga oshirishi yo‘llari;

2) pedagogik fanlarini o‘qitish qonuniyatlari;

3) ta’lim muassasalarida pedagogik fanlarni o‘qitishning didaktik-metodik shart-sharoitlari.

O.Roziqov va boshqa “Didaktika” darsligi mualliflarining yozishlaricha “Prinsiplar umumdidaktik kategoriyalar bo‘lib, ular ta’limning barcha turlari (individlar, guruh, umumsinf), darajalari (boshlang‘ich, o‘rta, professional, oliy), su’ektlari (o‘qituvchilar, o‘quvchilar kollektivi) o‘quv-tarbiya jarayonlarining hamma komponentlari (ta’limning maqsadi, vazifasi, vositasi, mazmuni, metodlari, tashkiliy shakllari, natijalari)ga daxldor umumiy qoidalardir”[1].

Demak, prinsiplar umuman, jumladan pedagogika va psixologiya ta’lim yo‘nalishida o‘qitish metodikasining prinsiplari jamiyat ehtiyoj va talablari asosida pedagogika fanining maqsad,

[1] Roziqov O. va boshqalar “Didaktika” darsligi –T.: O‘zR F A “Fan”, 1997, 149-bet.

vazifalariga, o‘qitish qonunlariga, pedagogik fanlarni o‘qitishning didaktik-metodik shart-sharoitlariga va nihoyat umumdidaktik kategoriya sifatlariga ta’limning turlariga, darajalariga, subektlariga, o‘quv-tarbiya jarayonining komponentlariga daxldor qoidalar ekan, pedagogik fanlarni o‘qitish metodikasini o‘rgatishda ularga avval yaqin zaruriy holat hisoblanadi hamda oliy ta’limda ushbu fanni o‘rgatuvchilarni barcha barchasi bu prinsiplarni bilishlari lozim degan xulosa qilib chiqadi.

Pedagogika adabiyotlarni o‘rganish pedagogika va psixologiya ta’lim yo‘nalishida pedagogik fanlarni o‘qitish metodikasi o‘quv predmetining quyidagi prinsiplari tizimi mavjudligini asoslashga da’vat etdi.

1. Ilmiylik prinsipi.
2. Pedagogik fanlarni o‘qitishda nazariya va amaliyotning birligi prinsipi.
3. Pedagogika mazmunini o‘zlashtirishda zamonaviylik va milliylik prinsipi.
4. Pedagogika ma’lumotlarini bayon etishning tushunarliligi, izchilligi va tizimliligi prinsipi.
5. O‘qituvchi rahbarligida talabalarning ijodiy faolligi, mustaqilligi va tashabbuskorligini yo‘lga qo‘yish prinsipi.
6. Pedagogik ma’lumotlarni o‘rganishda ta’lim va tarbiya mazmunining o‘zaro bog‘liqligi prinsipi.
7. O‘qitishda didaktik vositalar majmui prinsipi.
8. Pedagogik fanlarni o‘qitishda o‘quv jarayonini maqbullashtirish prinsipi.
9. Pedagogik fanlarni o‘qitishda qo‘shimcha ma’lumotlarni tanlash prinsipi.

Pedagogika va psixologiya ta’lim yo‘nalishida pedagogik fanlarni o‘qitish **ilmiylik** prinsipiga asoslanadi. Har qanday ma’lumot ilmiy asosga ega bo‘lsagina taraqqiyotga hissa qo‘sha oladi. Zero, ilmiy bilim bu tajribada sinalgan, fan, texnika rivojini ta’minlab, svilizatsiyaning ilgarilashga mos kelishini ifodalaydi.

Ma’lumki, o‘qitishning ilmiylik prinsipi “fan-o‘quv predmeti” kesimida amalga oshadi. O‘quv predmeti fan asoslab bergan ma’lumotlar asosida ko‘riladi. Bunda ilmiy bilimlar borliqdagi qonuniyatlarni o‘zlashtirish, nazariy ma’lumotlarni anglash sari olib boradi. Chunki, ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan har bir o‘quv

predmeti, jumladan pedagogik fanlarni o‘qitish metodikasi o‘quv predmeti ham o‘ziga ta’luqli bo‘lgan fanning umumiy asoslaridan iborat bo‘lgan. Bunda fanda tushuncha va kategoriyalarning ko‘pligi, mazmunan boyligi, qo‘llanish doirasining kengligi bilan o‘quv predmetidan yuqori turadi. O‘quv predmeti esa ta’lim oluvchilarning yosh xususiyatlarini, real o‘quv imkoniyatlarini, qiziqishlari asosida yaratildi. Shuning uchun o‘quv predmetlaridagi ma’lumotlar ham ilmiylik prinsiplariga asoslangan deb aytish mumkin.

Ilmiylik prinsipida, ilmiy bilimlar, fan asoslarini egallash jarayonida ta’lim oluvchilarga aqliy qobiliyat, ijodiy tafakkur rivojlanadi, ilmiy dunyoqarash tarkib topa boradi. Shuning uchun pedagogika o‘rgatishda o‘qituvchi (talabalar) ilmiylik prinsipini qo‘llar ekan talabalar diqqatini ilmiy ko‘nikmalar, ularni kuzatishga, pedagogik voqelikdagi narsa va hodisalarni mohiyatini tahlil qilishga, aniq xulosalar chiqarishga o‘rgatishi lozim. Bu esa o‘quv fanining ilmiy mazmunini o‘zlashtirib olishga va kelgusida fanni chuqur egallab, uni o‘z faoliyatiga keng qo‘llashga yordam beradi.

Pedagogik fanlarni o‘qitishda **nazariya bilan amaliyotning birligi prinsipi** muhim ahamyat kasb etadi. Zero, bu pedagogika nazariyasidan egallagan bilimlari, amaliyotga tadbiq etish bilan bog‘liq holda olib borilishini ta’minlaydi. “Fan-ta’lim-ishlab chiqarish” kesimida yo‘lga qo‘yilishini talab etadi. Shu bilan birga bu prinsip pedagogika fanlaridan o‘zlashtirilgan bilimlarni shaxsiy qarashlari asosida voqelikdagi voqealarni tahlil qilishni nmazarda tutadi. Bu esa bilimlarni hayotga tadbiq etishda talablarning amaliy faoliyati mehnatini birlashtiradi hamda nazariy bilimini amaliy faoliyati uzviyligini ta’minlaydi.

Nazariya bilan amaliyotnig birligi g‘oyasi metodika fanining muhim xususiyatlaridan biri. Chunki bunda talabalar pedagogika fanlari nazariy ma’lumotlarini o‘quv tarbiya muassasalarida qo‘llashning mazmuni, metod va usullarini o‘rganib oladilar. Buni jonli amalga oshirish uchun talabalar maktabgacha ta’lim o‘quv yurtlariga, maktablarga, o‘rta maxsus va kasb hunar bilim yurtlariga ekskursiya uyshtiradilar, u yerlardagi mehnat jarayoni bilan tanishadilar va o‘zlari egallagan bilimlarni amaliy hodisalar bilan solishtiradi. Bunda nazariy malumotlar ifodalangan adabiyotlar bilan talabalarni takroriy tanishtirish mashg‘ulotlari muhim metodik ahamyat kasb etadi. Shuning nazariyaning amaliyot bilan bog‘liqligini ta’minlashda ilg‘or

pedagogik tajribalar yoritilgan audio, video ma’lumotlar ham shu natijaga erishishni ta’minlaydi.

Pedagogik fanlarni o‘qitish metodikasi o‘quv predmetining zamonaviylik prinsipi talabalarga bayon etilayotgan ma’lumotlar zamonaviy va milliy asosda bo‘lishini ta’minlaydi.

Ma’lumki, “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi munosabati bilan mamlakatda ta’lim tizimi jahon talablariga mos andoza va milliy asosda qurildi. Ta’lim muassasalarining uzluksizligi amalga oshirilishi natijasida, ularning moddiy texnika bazasi, o‘quv tarbiya jarayonlarining yuqori sifati o‘quv adabiyotlari va ilg‘or pedagogik texnologiya ta’minlandi. Endi bunday o‘quv yurtlarida ishlaydigan kadrlar zamonaviy bilimlarga ega bo‘lishlari lozim. Shuningdek maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi uchun tayyorlangan o‘quv fanlarining mazmuni milliy asosda ko‘rildi. Shunga asosan pedagogika va psixologiyada o‘qitiladigan pedagogika fanlarining mazmunidagi malumotlarni milliy xususiyatlar asosida aks ettirishda davr talabi bo‘lib qoldi. Bu esa o‘z navbatida mazkur fanni o‘qitishni milliy asosda qurishni taqozo qiladi.

Zamonaviy va milliylik ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi zamonaviy texnik qurilmalar, vositalar, o‘quv adabiyotlaridan o‘rinli maxsulli foydalanish taqdirdagina yuksak ma’naviy-axloqiy salohiyat va yuqori malakali insonlar bo‘lishini anglatadi. Pedagogik fanlarni o‘qitish metodikasining muhim prinsiplaridan yana biri ma’lumotlarning tushunarliligi, ularni bayon etishning izchilligi va tuzimliligidir. Asosan tushunarlilik ta’lim beruvchidan ma’lumotlarning hajmi qiyinlik darajasi ta’lim oluvchilarning yoshi, real o‘quv imkoniyati, individual xususiyatlarigha muvofiq bo‘lishi lozimligini uqtiradi. Prinsipga amal qilish jarayonida ta’lim beruvchi mavzu bo‘lim, savollarni o‘rganish vaqtini belgilashni yoddan chiqarmasligi zarur. Shunindek tushunarlilik prinsipi yangi tushuncha, darliklardagi hozirgi zamon fan, texnika yutuqlarini, terminlar hajmini, o‘rganayotgan muammoning o‘quv dasturidagi o‘rnini, o‘qitish metodlari va usullarini o‘qituvchi tomonidan aniq belgilanishi lozimligini talab qiladi.

O‘qitish jarayonida amal qilinishi lozim bo‘lgan individual xususiyatlarga o‘quvchilarning qiziqishlari, rivojlanish darajasi, his tuyg‘ulari, temperamenti, xarakter xususiyatlari, qobiliyati, mayli, turmush tarsi kiradi. Tushunarlilik prinsipi izchillik va tizimlilik

prinsipi bilan o‘zaro aloqadorlik tarzida qo‘llanilib, bunda masalalarni o‘rganishda a) ma’lumdan nomalumga; b) oddiydan murakkabga; v) aniqdan noaniqqa g) osondan qiyiga d) umumiydan xususiyga qoidalariga amal qilish asosida olib boriladi. Ta’limning izchillik prinsipiga Y.A.Komenskiy asos solgan, so‘ngra bu prinsiplar rus pedagogi K.D.Ushinskiy tomonidan rivojlantirilgan. Tajribaning ko‘rsatishicha izchil va tizimni bayon etilgan malumotlar ongli o‘zlashtiriladi, uzoq vaqt xotirada saqlanadi. Parcha-qism asosida bayon etilgan ma’lumotlarni o‘zlashtirish qiyin. Shuning uchun bilimlar izchilk muayyan tizim asosida bayon etilsa ular o‘zaro bog‘lanadi va ikkinchisi birinchisini to‘ldiradi. Shunga asosan bilimlarni o‘zaro bog‘liqlikda yaxlit muayyan izchillik, tizimlilik yo‘nalishida o‘rganish mukammal takomillashib boruvchi shaxsning shakllanishini amalga oshiradi. Izchillik va tizimlilik butun o‘quv tarbiya jarayonini aniq rejalashtirish darslarning ma’lumotlarini ratsional ta’minlashga yordam beradi, bilimlar tushunarli o‘zlashtiriladi, mantiqiy tafakkur rivojlanadi.

Pedagogik ma’lumotlarni o‘zlashtirishda talabalarning ijodiy faolligi mustaqilligi va tashabbuskorligi prinsipi fanda muhim ahamyat kasb etib gullab, xosilni ko‘p beruvchi daraxtga o‘xshaydi. Talaba pedagogika fanlari materiallarini ijodiy o‘zlashtirsa qo‘shimcha adabiyotlardan bilimlarni mustaqil to‘ldirsa albatta bu tashabbus ko‘rsatib mehnat qiladigan shaxs bo‘ladi. “kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ham nazarda tutilgan masalalardan biri talabalarda ijodiy faollikni mustaqillikni, tashabbuskorlikni shakllantirishi orqali malakali, maxoratli kadrlarni tayyorlash hisoblanadi. Mustaqillik o‘z yo‘nalishida ijodiy faollikni tarbiyalaydi, ijodiy faollik tashabbuskorlikka undaydi. Bular o‘zaro sabab va natija shaklida bog‘langan pedagogik hodisadir. Zero, “Haqiqiy mustaqillikga erishmagan joyda talabalarning ijodiy faollikni ” tashabbuskorligi to‘g‘risida gapirib bo‘lmaganidek, pedagogik fanlarni o‘qitishda metodika fani o‘z ta’lim oluvchilarida mustaqillikni ta’minlamay turib pedagogik bilimlarni ijodiy o‘zlashtirish faol va tashabbuskor bo‘lishni tarbiyalash murakkabdir. Darhaqiqat mustaqillik prinsipi davr ijtimoiy-iqtisodiy taraqiyot talab etayotgan prinsip hisoblanadi. Chunki, mustaqillik talabalarda erkin fikrlashni, ijodiy qobiliyatni, aqlan teranlilikni shakllantiradi.

Shuni ta’kidlash joizki, har qanday mustaqillik, mustaqil bilim olish aqliy faoliyatni shakllantiradi. Faollik shaxsiy intellektual faoliyat belgisi tarzida mustaqil bilim olishni o‘rgatadi. Shu jihatdan bu ikki prinsip pedagogika fanlari mazmunidagi ma’lumotlarni qo‘shimcha adabiyotlarda seminar mashg‘ulotlariga tayyorlanish, mustaqil ish bajarish, referat yozish, testlar tuzishda qo‘l keladi va ijodiy aqliy faoliyatning rivojlanishiga ko‘maklashadi.

Pedagogik fanlar ko‘p qirrali bo‘lib, ular yoshlarga ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotda shaxsiy kamolot, aqliy yetuklik, jismoniy barkamollik kabi ta’lim-tarbiya ma’lumotlaridan xabar beradi. Shu bois pedagogik fanlarni o‘qitish metodikasi ko‘proq ta’lim-tarbiyaning uzviy bog‘liqligiga e’tibor qaratib, pedagogik bilimlarni o‘rganish uchun ta’lim va tarbiya mazmunining o‘zaro bog‘liqligi prinsipiga amal qiladi. Chunonchi, bu prinsip talabalarga bilim berish, ularda ilmiy dunyoqarash, siyosiy ongliligini ijyimoiy faoliyatini, ma’naviy yetuklikni tarbiyalashdan iborat prinsip hisoblanib, bunda egallangan pedagogik bilim konikma, malakalarni ijtimoiy hayotda qo‘llashni o‘rgatadi va ta’lim oluvchilarning ham intellektual, ham jismoniy, ham ma’naviy jihatdan rivojlanishini ta’minlaydi.

Ta’lim va tarbiya uyg‘unligi o‘zaro bog‘liqligida, voqelikda, ayniqsa pedagogik voqelikdagi qonuniyatlarni o‘rganish hamda uning amaliy jihatlarini tarkib toptirishda namoyon bo‘ladi. Shu bois aytish mumkinki, ta’limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta’limdan ajratib bo‘lmaydi. Ular o‘zaro uzviy bog‘langan pedagogik hodisalardir.

Pedagogikada tarbiyalovchi ta’lim, rivojlantiruvchi tarbiya degan ibora ko‘p ishlatiladi. Buning mohiyati shundan iboratki har qanday ta’lim oluvchilarda axloqiy, estetik, jismoniy, mehnat ko‘nikmalarini, ilmiy dunyoqarash asoslarini tarbiyalash barobarinda, ularda aqliy qobiliyat, diqqat, xotira, tasavvur ijodiy tafakkurni rivojlantiradi va shaxsni har tomonlama kamol topgan inson bo‘lishini ta’minlaydi.

Ana shu bilish qobiliyatlarini rivojlantirish pedagogika va psixologiya ta’lim yo‘nalishida pedagogik fanlarni o‘qitish metodikasi o‘quv predmetining mashg‘ulotlarida ham amalga oshiriladi. Ko‘pgina mavzular va bo‘limlarni masalan, shaxs, ta’lim va tarbiya, ta’limning psixologik, fiziologik asoslari, shaxsning shakllanishi va rivojlanishi, o‘qitish uslublari, oila pedagogikasining nazariy, milliy va ilmiy asoslari, oilada bolalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ijtimoiy pedagogning oila bilan olib boradigan faoliyati, maktabgacha yoshdagi

bolaning sotsiumda rivojlanishi va shunga o‘xshash mavzularni o‘rganishda shaxs va uning rivojhlanishi milliy va ilmiy asoslar vatanparvarlik, ijtimoiy muhit, sotsium kabi termin hamda so‘z birliklarning mazmun-mohiyatini tushunishda talabalarda nutq boyligi, mantiqiy tafakkur, idrok, tasvvur, diqqatni ta’minlash kabi bilish jarayonlari rivojlanadi.

Shunday qilib tarbiyalovchi ta’lim va rivojlantiruvchi tarbiya talabalarga o‘quv mashg‘ulotlarini taqdim etish bilan birga ularning rivojlanishlari, shaxs bo‘lib shakllanishlarini ham takomillashtiradi. O‘qitish talaba shaxsini har tomonlama tarbiyalaydi: dunyoqarash ilmiylashadi, siyosiy onglilik, ijtimoiy faollik rivojlanadi, ma’naviy-axloqiy sifatlar ijtimoiylashadi bunda tarbiyalovchi ta’lim va rivojlantiruvchi tarbiya, o‘quv-tarbiyaning vazifalari mazmuni metodlari tashkil etilishida ta’lim beruvchining shaxsiy namunasi, bilimdonligi, o‘z kasbiga muhabbati, pedagogik mohirligi ma’naviy-axloqiy fazilatlari, ta’lim-tarbiya jarayoniga ijodiy yondashish va h.k. kasbiy xususiyatlari orqali hal etilishini yoddan chiqarmaslik kerak.

Ta’lim jarayonida o‘quvchi-ta’lablarning idroki va tasavvuriga, xotirasiga, ko‘rish orqali tafakkuriga his-tuyg‘usiga ta’sir ko‘rsatib, voqea va obektlar haqida aniq ma’lumotga ega bo‘lishga yordam beradigan ijodiy qobiliyatlarini mukammallashtiradi, bilim, ko‘nikma, malakalarini rivojlantirib, ularda tadqiqotlik ehtiyojlarini shakllanishiga yordam beradigan didaktik qurol mavjud buni pedagogik fanlarni o‘qitish metodikasi o‘quv fanida, bularni o‘qitishning didaktik vositalar majmui prinsipi deb yuritiladi.

Dahaqiqat, “Didaktik vositalar majmui-bu o‘qish, o‘qitish, tarbiyalashning ma’lum tartib muayyan yo‘nalish va bir butunlikni tashkil etgan o‘qyuv-tarbiya qurollarining yig‘indisi, jamlanmasi degan manoni anglatadi”. Ush bu prinsip didaktika fanida ko‘rgazmalilik prinsipi deb yuritiladi va ular o‘quv ma’lumotlarini bevosita idrok etish, eshitgan fikrlarini obrazlarda ko‘rish, ularni ongli idrok etish uchun xizmat qiladi.

Shuni e’tirof etib o‘tish joizki, ta’limda didaktik vositalardan foydalanish o‘qish, o‘qitishni jadallashtiradi. Chunki bunda eshitish katalizatorlari bilan ko‘rish ham ishtirok etadi, shuning uchun pedagogik fanlarni o‘qitish jarayonida qo‘llanadigan didaktik vositalar o‘quvchi-talabalarning bilim olish darajasini yuksaltirish ma’lumotlarni oson o‘zlashtirish mustaqil ijodiy o‘rganishni amalga

oshirish va ular tarbiyalanganligini takomillashtirish uchun katta imkoniyatlar manbai bo‘lib xizmat qilad. Didaktik vositalar majmuini ta’lim vositalari kontestida izohlagan pedagoglar A.Zunnunov, U.Mahkamovlar ta’lim vositalari o‘quvchilar uchun ta’lim jarayonida atrof muhitni chuqur anglashga yordam beradi. O‘quvchi uchun axborot negizi sifatida, ta’lim jarayonini tashkil qilishda va bilimni nazorat qilishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi[1], deb ta’kidlaydilar.

O‘qitishning didaktik vositalari, “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunning uzluksiz ta’lim oldiga qo‘ygan ijtimoiy pedagogik talablarni hal qilishga katta yordam bera oladi. Chunki ular o‘rganiladigan hodisa yoki obyekt haqida to‘liq va aniq axborot berish, shu bilan ta’lim sifatini oshirishga imkoniyat yaratish;

- Talabalarning ma’lumotlar mazmunini mustaqil o‘zlashtirishiga qiziqishini yuqori darajaga ko‘tarishga yordam berish;

- Ta’limning ko‘rgazmaligini oshirish asosida o‘quvchilar uchun qiyin bo‘lgan materialni tushunishni ta’minlash;

- Talabalar mehnatini unumdor qilish, shu asosda o‘quv materialini o‘rganishni jadallashtirish;

- Darsda talabalarning mustaqil ta’lim olishning amalga oshirishga erishishi masalalarni hal qilishga yaqindan yordam ko‘rsatadi.

O‘quv yurtlarida ta’limda pedagogik fanlarni o‘qitishda didaktik vositalar majmui prinsipi quyidagi vositalardan qamrovli foydalanish mumkinligini tavsiya qiladi.

A) Didaktik vositalarning o‘quv va o‘quv-uslubiy turlari (tabiiy ashyolar, kalma’ruzalar, fotografiya, ko‘rgazmali, plakatlar, diagrammalar, jadvallar, o‘quv qo‘llanmalar, delubit ko‘rsatmalar va h.k);

B) O‘qitishning texnik vositalari (dianozitivlar, o‘quv radiosi, o‘quv kinofilimlari elektron hisoblash mashinalari, o‘quv televideniyasi, disk, multimedia, video va audio magnitafonlar va h.k);

C) O‘qitishni zamonaviy axborot va kommunikativ vositalari (kompyuter, skaner, kserkislar, dasturli internet texnologiyasi, virtual stenular, ta’lim beruvchi dasturlar o‘quv qo‘llanmalar) elektron kutubxona;

Shunday qilib, o‘qitishning didaktik vositalari majmui prinsipi, talabalarning bilim faolligi, ijodiy qobiliyati, xotirasi, tafakkurini

[1] Mahkamov U.I., Xo’jayev B.Q., Tilabova N., Didaktika vositalar majmui. Toshkent 2009, 9-bet

rivojlanishi tezlashtirishga ularni ma’naviy-axloqiy yuksaklikka va texnik tafakkurining takomilashishini rivojlantiradi.

Pedagogik fanlarni o‘qitishda o‘quv jarayonini maqbullashtirish prinsipi. Bu prinsip har bir oliy o‘quv yurtlarida o‘qitiladigan pedagogika turlariga kiradigan fanlarning o‘zida xos tomonlarini inobatga olib fanni o‘qitish ishlarini tashkil etishni talab etadi. Bunda “Pedagogika nazariyasi va tarixi”, “Maktabgacha pedagogika”, “Oila pedagogikasi”, “Ijtimoiy pedagogika”, “Umumiy pedagogika” fanlar mazmunidagi mavzularning mazmunan butunligi, yaxlitligi, birligi ta’minlanadi.

Pedagogik fanlarni o‘qitish jarayonida o‘quv jarayonini maqbullashtirish prinsipi, muayyan tizimga mansubligi “Tizimlilik” tushunchasi bu o‘rinda ham ham ma’lum pedagogik turkum o‘quv fanini o‘qitish jarayoniga, umumiy o‘quv jarayoniga, jamlikni anglatadi. Bunda pedagogika fanlari bo‘yicha o‘zlashtirilgan bilimlar, pedagogika va psixologiya ta’lim yo‘nalishining negizidagi kerakli ma’lumotlar (bilimlar)ga ega bo‘liksh uchun qulay sharoit yaratish jarayoni yaratish sifatida e’tirof etiladi. Bu esa shu sohaning pedagogi jihatlari bo‘yicha nazariy va amaliy axborotlarni egallash, tarbiyachilik uchun xos faoliyatni bajarishga ham tturish, belgilangan vazifalarni o‘z vaqtida aninq amalga oshirishga yo‘naltiriladi.

Ikkinchi jihati shundaki, pedagogika fanlari mavzularini bir-biriga qiyoslash, o‘xshash, bir-birini to‘ldirishi tomonlarini anglab, egallayotgan kasb uchun muhimligini o‘rgatish maqsadini ko‘zda tutadi. Buni harbir talaba ongiga, shuuriga yetkazish oliy ta’lim pedagogining bosh vazifalaridir.

Pedagogik fanlarni o‘qitishda qo‘shimcha ma’lumotlarni tanlash prinsipi. Bu prinsip fanlar mazmunini chuqur egallagan bo‘lishi, bayon etilayotgan mavzu bo‘yicha yangi ma’lumotlarning davr, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot talablariga mos yoki mos emasligini aniqlash va ularni pedagogika fanlari yutuqlari, ilg‘or pedagogik talablar asosida to‘ldirish lozimligini nazarda tutadi. Bunday yondashuv pedagogik ta’lim samaradorligigga erishishi, o‘quv mashg‘ulotlari yangi axborotlar bilan boyitib, talabalarga aniq yetkazish, uning faolligini oshirish imkonini beradi.

Umumdidaktik qoidalar, tamoyillar nuqtai nazaridan pedagogik fanlarni o‘qitishda qo‘shimcha ma’lumotlarni tanlash, avvalo ma’lumot mazmundorligi ta’minlasa, ikkinchidan talabalar faolligini oshiradi,

pedagog va talabalarning mashg‘ulotda manbalar bilan ishlash malakasini, tadqiqotchilik qobiliyatini o‘stirishga yordam beradi. Ta’lim maqsadi oshadi, yangi bilimlarni, yangi manbalar bilan ishlash va qo‘shimcha ma’lumotlarni egallash ko‘nikmalari talabalarda tarkib topadi.

Shunday qilib tahlil etilgan bu pritsiplar oliy o‘quv yurtlarida pedagogik fanlarni o‘qitishni davr talablari asosida tashkillashtirishga, talabalarning pedagogik savodxonligini oshirishga, erishilgan yutuqlardan faxr va iftixor tuyg‘usini rivojlantirishga yordam beradi.

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savollar hamda topshiriqlar:

1.“Fan” va “predmet” tushunchalarining mohiyatini tushunring.

2. “Metodika” tushunchasining mohiyatini izohlang.

3. Zamonaviy sharoitda pedagogikaning o‘quv predmeti sifatidagi xususiyatlari nimada?

4. “Pedagogika o’qitish metodikasi metodikasi” tushunchasining mohiyatini kengaytiring.

Pedagogik fanlarni o’qitish metodikasining obyekti va predmeti nima?

5. Pedagogik fanlarni o’qitish metodikasining vazifalari nimalardan iborat?

6. Pedagogik fanlarni o‘qitish metodikasi uchun material tanlash va tizimlashtirishda ilmiy metodikaning o‘rni qanday?

7. Pedagogik fanlarni o`qitish metodikasining boshqa fanlar bilan aloqalarini chizma shaklida chizing. Chizmaga izoh bering, uni misollar bilan tavsiflang.

8. “Pedagogika ta’lim muassasalarida o’qitish fani sifatida” jadvalini to‘ldiring.

№	Ta’lim muassasalari tipi	Pedagogikaning maqsadi	Pedagogikaning vazifalari,	Pedagogikaning mazmuni
1	Kollej			
2	Institut			
3	Universitet			

2-MAVZU. PEDAGOGIK FANLAR VA ULARNING O‘ZIGA XOSLIKLARI

Tayanch so‘zlar: *pedagogika, tizim, rivojlanishi bosqichlari, o‘quv predmeti, pedagogik fanlar, pedagogika sohalari, pedagogikaning zamonaviy tarmoqlari, pedagogik g’oyalar.*

2.1. Pedagogik fanlar tizimi va ularning o‘zaro aloqasi

Zamonaviy sharoitda pedagogikaning asosiy vazifalari inson turmush tarzining barcha yo‘nalishlari (ijtimoiy, shaxsiy, siyosiy va boshqalari)da samarali pedagogik tizimlarni yaratishga yo‘naltirilgan. Tizim (sistema) – tartibga solingan, o‘zaro bog‘langan va ta’sir ko‘rsatib turadigan pedagogik hodisa; tartibga solingan tushunchalar yig‘indisidir. Tizim (sistema) –o‘zaro bog‘langan ko‘plab elementlar o‘rtasidagi mustahkam birlik va bog‘liqlik.

Pedagogik fanlar tizimiga quyidagilar kiradi:

1. **Umumiy pedagogika** – ta’lim va tarbiyaning asosiy qonuniyatlarini tadqiq qiladi.
2. **Yosh pedagogikasi** – turli yoshdagi bolalarni o‘qitish va tarbiyalashning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganadi. Maktabgacha pedagogika, maktab pedagogikasi, oliy maktab pedagogikasi, katta yoshdagilar pedagogikasi (andragogika)ga bo‘linadi.
3. **Maxsus pedagogika (defektologiya)** - aqliy, ruhiy, jismoniy rivojlanishida nuqsoni bor bolalarni o‘qitish va tarbiyalash qonuniyatlarini, prinsiplarini, maqsadini, mazmunini, metod va vositalarini hamda shaklini o‘rganuvchi fandir. Bu o‘z navbatida to‘rt yo‘nalishga bo‘linadi:

a) surdopedagogika – kar va soqov bolalarning ta’lim va tarbiyasi bilan shug‘ullanadi.

b) tiflopedagogika – ko‘zi ojizlarni bolalarning ta’lim va tarbiyasi bilan shug‘ullanadi.

s) oligofpenopedagogika – aqliy jihatdan zaif bolalarning ta’lim va tarbiyasi bilan shug‘ullanadi.

d) logopediya – nutqi yaxshi rivojlanmagan bolalarning ta’lim va tarbiyasi bilan shug‘ullanadi.

4. Metodika – pedagogika fani sohasida ma’lum o‘quv fanini o‘qitish qonuniyatlarini tadqiq qiladi. Masalan, tillar metodikasi, matematika metodikasi, tarbiyaviy ishlar metodikasi va shu kabilar.

5. Pedagogika tarixi – turli tarixiy davrlarda pedagogik g‘oyalarning va tarbiyaning taraqqiyotini o‘rganadi.

6. Ijtimoiy pedagogika – ijtimoiy munosabatlar jarayonlarida pedagogik g‘oyalarning tutgan o‘rni va roli, shaxsni ijtimoiy faoliyatga yo‘naltirish muammolarini o‘rganadi.

7. Qiyosiy pedagogika – turli mamlakatlarning ta’lim-tarbiya tizimini, maorif taraqqiyotini taqqoslashni o‘rganuvchi pedagogikaning mustaqil sohasidir.

8. Xalq pedagogikasi – turli xalq, millat va elatlarning xalq og‘zaki ijodidagi ta’lim-tarbiya to‘g‘risidagi pedagogik g‘oyalarning mohiyatini, mazmunini o‘rganuvchi pedagogikaning mustaqil sohasidir.

9. Pedagogik mahorat – bo‘lajak o‘qituvchilarning shaxsiy va kasbiy mahoratlarini oshirish, takomillashtirish muammolarini o‘rganadi.

Hozirgi davrda fanlar integratsiyasi jarayonida paydo bo‘lgan pedagogikaning zamonaviy tarmoqlari ham shakllanib, rivojlanib bormoqda.

Pedagogik aksiologiya - pedagogik yangiliklar, innovatsiyalarning pedagogik jamoatchilik tomonidan o‘zlashtirilish darajasini baholash, idrok etish haqidagi nazariy bilimlar.

Pedagogik akmeologiya – o‘qituvchining kasbiy faoliyatining eng yuksak bosqichiga etish muammolarini o‘rganuvchi fan.

Pedagogik riskologiya – pedagogik vaziyatlarda eng muhim qarorlar qabul qilish jarayonida tavakkalchilik xususiyatlarini o‘rganadi.

Pedagogik kvalimetriya – pedagogning faoliyat jarayonida erishadigan sifat va samaradorlik darajalarining o‘lchovi va mezonini o‘rganadi.

Neyropedagogika - inson miyasining ijodiy imkoniyatlarini aniqlash va amaliy (funktsional) rivojlantirish, shaxsda faoliyatga nisbatan faol, ongli munosabatni qaror toptirish, ijtimoiy xulq-atvorni psixologik korrektsiyalash, bolalar ruhiy rivojlanishni tashxislash va bashoratlashning yangi ilmiy dasturlari, samarali shakl va metodlarini, yangi turdagi maktabgacha ta’lim muassasalari faoliyatini tadqiq etadi.

Badiiy pedagogika- pedagogika va adabiyotni birlashtirishga asoslangan pedagogika fanining sohasi, ta’lim va inson taraqqiyoti qonunlarini badiiy adabiyot orqali o‘rganish.

Artpedagogika - san’at pedagogikasi bo‘lib nazariya va amaliyotni rivojlantirish bilan shug‘ullanadi, badiiy rivojlanish jarayonining nazariyasi va amaliyotini rivojlantirishni, badiiy-ijodiy va ijodiy faoliyat orqali individual madaniyatning asosini tashkil etadi. San’atni rivojlantirish orqali shaxslarni tarbiyalash, tayyorlash va rivojlantirish; badiiy madaniyatning asoslarini shakllantirish va turli xil badiiy faoliyat turlari bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni o‘zlashtirish.

Musiqiy pedagogika - musiqiy ta’lim va tarbiyaning samarali usullarini, shakllarini o‘rganish va rivojlantirish, shuningdek musiqa sohasida turli yo‘nalishlarda ijodiy ko‘nikmalarni, tajriba va amaliy malakalarni shakllantirish va rivojlantirishni o‘z ichiga olgan pedagogika fanining sohasi.

Harbiy pedagogika - harbiy pedagogik jarayonning qonuniyatlari, harbiy kadrlar va harbiy guruhlarni o‘qitish usullari, ularni muvaffaqiyatli jangovar operatsiyalar va harbiy-kasbiy faoliyat uchun tayyorlashga qaratilgan pedagogika fanining bir bo‘limi.

Mehnat pedagogikasi- asosan axloq tuzatish muassasalarida jinoyatchilarni tarbiyalash va qayta tarbiyalashning shart-sharoitlari va xususiyatlarini o‘rganadigan pedagogikaning sohasi.

Teatr pedagogikasi - zamonaviy pedagogikaning amaliy jihati bo‘lib, ta’lim jarayonida voqelik, yashash, shaxsiy ijodiy harakatlar va improvizatsiya tamoyillarini tatbiq etuvchi, intellektual, hissiy tuyg‘ularni aks ettiradigan fan.

Muzey pedagogikasi - muzeylarning madaniy va ma’rifiy faoliyatining xususiyatlari, ularning turli toifalari bo‘yicha shaxsga ta’sir o‘tkazish usullari, muzeylarning ta’lim muassasalari bilan o‘zaro munosabatini o‘rganadigan fan.

Turizm pedagogikasi - bu turizmning gumanitar va ijtimoiy funksiyalari kontekstida shaxsning tarbiyasi, ta’limi va rivojlanish jarayonlarini o‘rganadigan fan.

Tibbiy pedagogika - shaxsga psixologik-pedagogik va tibbiy ta’sir ko‘rsatishning zamonaviy vositalari va usullarini, inson ruhiyatining umumiy va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish to‘g‘risidagi fan.

Elektron pedagogika - pedagogik faoliyatda kerakli interaktiv o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarni yaratish qoidalari va texnologiyalari to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lish va o‘ziga kerakli fanlar bo‘yicha elektron interaktiv darsliklar mustaqil yaratish uchun amaliy ko‘nikmalar hosil qilish to‘g‘risidagi fan.



2.2. Pedagogika sohalarining o‘ziga xos xususiyatlari

Hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-siyosiy taraqiyot barcha sohalardagi fanlar kabi pedagogika fani va pedagogika o‘quv predmeti oldida barkamol inson shaxsini shakllantirish masalasini ham nazariy, ham amaliy jihatlardan ro‘yobga chiqarishni qo‘ymoqda. Ma’lumki, barkamol inson deganda aqliy va jismoniy faoliyatni uyg‘un holatda ifodasi tushuniladi, demak barkamol inson aqliy va jismoniy quvvatga ega bo‘lib sabr-toqat, mehr-shafqat, diyonat, shijoat, qatiyatlik, tadbirkorlik, ishbilarmonlik, hushyorlik, ehtiyotkorlik, jasorat, chidamlilik fazilatlarini yaxshi anglagan va o‘zida shakllantirishga intiluvchi shaxs hisoblanadi. Bunday inson yangi barpo etilayotgan jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirishga o‘z hissasini qo‘sha oladigan bunyodkor va tashkilodchisidir. Ma’lumki, bunday

inson pedagogik jarayonda shakllanib boradi. Zero, pedagogik jarayon tarbiya, ta’lim, ma’lumot olish sharoitida insonni barkamolikka undovchi, ko‘maklashuvchi ijtimoiy pedagogik hodisadir. Shu nuqtai nazardan hozirgi davr pedagogikasi yoshlar ma’naviy-axloqiy barkamolligini ta’minlashda tarbiya, ta’lim, ma’lumot olish jarayonlarining samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Shunday qilib pedagogika fan sifatida va o‘quv predmeti sifatida barkamol avlodni tarbiyalash, o‘qitish hamda ma’lumotli qilishning mazmuni maqsad va vazifasi shakllari, metodlari, usullari, vositalarini ta’lim muassasalariga pedagogik jarayonni boshqarish kabi masalalar tizimini muayyan izchillik, ketma-ketlik uyg‘unlikda amalga oshirish yo‘llari to‘g‘risidagi masalalarni o‘rganadi. Xo‘sh, tarbiya ta’lim, ma’lumot pedagogik jarayon rahbarlik va boshqarish nima? Ular qanday mazmunga ega tarbiya-ijtimoiy hodisa sifatida barkamol avlodni hayotga va mehnatga tayyorlash jamiyatni yanada rivojlantirish maqsadida katta avlodning kichik avlodga ijtimoiy tarixiy tajribalarni o‘rgatish, yoshlarni ma’naviy-axloqiy, jismoniy, estetik, huquqiy, ekologik fazilatlarni tarkib toptirish jarayonidir. Bu jarayonda inson ijtimoiy tarixiy tajribalarni o‘zlashtirish oldingi avlodning ma’naviy insoniy fazilatlarini egallash orqali shaxs bo‘lib shakllanadi va jamiyat taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shadi. Insonlardagi dunyoqarash, e’tiqod, diyonat, rahm shavqat, ezgulikni qabohatdan, yaxshilikni yomonlikdan, halollikni haromdan ajrata bilish tarbiya yordamida amalga oshadi.

Ta’lim shunday bilish jarayoniki unda o‘quvchilar o‘qituvchi yordami va rahnamoligida ilmiy bilimlar bilan qo‘llanadilar, amaliy ko‘nikma va malakalarga ega bo‘ladilar, aqliy va jismoniy kuchlarni rivojlantiradilar, dunyoqarashlarini, ma’naviy-axloqiy sifatlarini shakllantiradilar, hayotga va mehnatga tayyorlanadilar. Ma’lumot-bu tizimlashgan hamda umumlashgan bilim ko‘nikma va malakalar yig‘indisi. Bir so‘z bilan aytganda ta’lim tarbiyaning natijasi maxsuli. Bularning barchasi pedagogik jarayonda amalga oshadi va harakatga kiradi. Shu ma’noda pedagogik jarayon – bu yaxlit o‘quv tarbiya jarayoni, yaxlitligida tarbiya va ta’lim asosida ta’lim o‘gatuvchilar bilan ta’lim oluvchilarning hamkorligidagi ijodiy faoliyat yordamida har tomonlama kamol topgan shaxsni tarkib toptirishdir. Demak, mazkur jarayonni yo‘lga qo‘yishni ilmiy amaliy hal etishi yordamida tarbiya va ta’lim maqsadlarini to‘la amalga oshirish pedagogika fani va o‘quv predmetining bosh masalasi hisoblanadi. Shunga asosan

pedagogika ham fan sifatida ham o‘quv predmeti sifatida tarbiya va ta’lim ishlarining qonuniyatlari qoidalari sahllari usullari hamda vositalarning davr talablari asosida qanday bo‘lishi kerakligini belgilab berishni nazarda tutadi.

Pedagogik fanlarni o‘qitish metodikasi fan sifatida rivojlanishining asosiy bosqichlari. Pedagogika fanining rivojlanishi, shakllanishi kishilik jamiyatining shakllanishi va taraqqiyot tarixi bilan uzviy bog‘liq. Tarixni inson yaratdi u yaratganning inomi, talabalarning oliy mahsuli, siymosi, aql zakovat egasi sifatida tarixni yaratish, jamiyatni rivojlantirish ishlarining asoschisi va davomchisi bo‘lib qoldi. Bu zot yaratgandan so‘ng tabiat hodisalari tarqalish jarayonini o‘rganish, ulardan o‘z hayoti, turmushida oqilona foydalanishni o‘rgandi. Natijada inson asta-sekinlik bilan madaniylashdi, ijtimoiylashdi va o‘zining ma’naviy qadriyatlarini vujudga keltirib avloddan-avlodga, nasldan-naslga qoldirdi.

Mana shunday zotni hayotga tarbiyalash, yo‘naltirish va ijtimoiy taraqqiyotga munosib hissa qo‘shgan shaxs qilib tayyorlash maqsadida “Pedagogika” fani maydonga keldi. Dastlab, ibtidoiy jamiyatda kattalar o‘z farzandlarini o‘zlari bilan ergashtirib yurib, tabiat inomlarini yig‘ish, birga ov qilish, keyinchalik dehqonchilik bilan shug‘ullanish kabi ishlarni o‘rgatishi bilan shug‘ullandilar. So‘ngra bolalarga qabila boshliqlari va keksalar tomonidan turli tabiiy ofatlaridan himoyalanish, dehqonchilik qilish uchun tog‘onlar qurib suv jamg‘armalarini hosil qilish, kasalliklarni davolash, o‘z turmush tarzini yangilash, hayot kechirish uchun oziq ovqatlarning sarasini tanlash, chaylalar qurishga bo‘lgan hayotiy ehtiyoj o‘sib kelayotgan yosh avlodga keksalarning o‘z tajribalarini o‘rgatish zaruriyatini tug‘diradi.

Hayotiy ehtiyoj o‘sib kelayotgan yosh avlodga keksalarning o‘z tajribalarini o‘rgatish zaruriyatini tug‘dirdi, bu zaruriyat keksalar bilan yoshlarning bevosita mehnat faoliyatlari jarayonida amalga oshirila bordi. Shu tariqa pedagogikaning muhim tarkibiy qismlaruidan biri tarbiya va ularni yoshlarga tarkib toptiruvchi tarbiyachilar etishib chiqdi. Bu antik davrda ota-onalar va qabilaning keksa kishilari edi. Ular asosan yoshlarni tabiat inomlaridan foydalanish, tabiat injiqliklari bilan kurashish uy ro‘zg‘or ishlarini bajarish kishilar o‘rtasida axloq odonb munosabati o‘rgatish kabi sifatlarni ado etishga yo‘naltiradigan insonlar edilar. Shunday qilib tabiatga, o‘zaro munosabatlarga, o‘zini o‘rab turgan muhitga, qabila kishilariga elatga axloq-odob doirasida

muomalada bo‘lishni tushuntiruvchi bilimlar majmuasi donishmandlik pedagogikasi shakllandi. Bu pedagogika bolalarda elsevarlik, xalqparvarlik, mehnatsevarlik kabi ma’naviy-axloqiy sifatlarni o‘zaro uyg‘un holda amalga oshirishda katta xizmat qildi.

Tarixiy manbalarda ta’kidlanishicha dastlabki pedagogik qarashlar va ularni yoshlarga yetkazuvchi manbalar-maktablar tashkil etila boshlandi. Bu qadimgi sharqning Vavilon, Misr, Hindiston, g‘arbning Sparta, Afina shaharlarida paydo bo‘lib, insonlarda saxiylik, sofdillik, rostgo‘ylik, adolat kabi fazilatlarni shakllantirish uchun xizmat qildi. Bular mashhur “Avesto” (er. avval VII asr) va qadimgi Xitoyning Daoe maktabi (er.avval III asr), Qadimgi Gretsiyaning “Sparta ” “Afina ” (er.avvalgi III-II-asr)edi.

Shunga asosan “Pedagogika” so‘zi o‘z lug‘aviy ma’nosini yunoncha “payc”-bola, -“agogoc”- yetaklash aynan so‘zma-so‘z tarjimada “Paydagogoc” –ya’ni bola yetaklovchi ma’nosini anglatadi. Keyinchalik “Pedagogika” so‘zi kengroq va ilmiyroq ma’noda ya’ni “bolani hayotga yetaklash, tarbiyalash, o‘qitish, ma’lumotli qilish” fani sifatida yuritib, u tarbiya fani deb yuritila boshlandi. Shunga binoan pedagogika fanining predmeti qilib yosh avlodni tarbiya, ta’lim, ma’lumot sharoitida rivojlantirishi va shaxsiy sifatlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan yaxlit pedagogik jarayon deb qabul qilindi.

Ma’lumki, barcha ilmiy-nazariy sanalar hayot taqozosi bilan vujudga keladi. Ta’lim, tarbiya ma’lumot kishilar hayotida katta ahamyat kasb etish vaqti keldi. Endi jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda tez yoki tez rivojlanishi yosh avlodning tarbiya qay darajada qo‘yiganiga bog‘liq bo‘lmoqda. Shunga binoan, tarbiyaning jamiyat hayoti va taraqqiyoti katta ahamyat kasb etar ekan pedagogika fanining taraqqiyot bosqichlarini bilib olish juda muhim hisoblanadi. Buni quyidagi jadvalda kuzatish mumkin.

Pedagogik g’oyalarning rivojlanishi bosqichlari

Rivojlanish bosqichlari	Pedagogik g‘oyalarning asoslari	Pedagogik g‘oyalar va asarlar
1-bosqich	Xalq pedagogikasi maqollar, ertaklar, qo‘shiqlar, asotirlar, marosimlar, bayramlar, qadriyatlar va h. k	Mehnatsevarlik, hamjihatlik, mardlik, jasorat, insonparvarlik, kasb-hunar egallashga da’vat, halollik, poklik, diyonat, sharm-hayo, or-nomus, kamtarlik, fidoyilik, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, nogironlarga mehr-shafqat, el ozodligi va erki uchun mardonavor ko‘rashish, kelajakka ishonch
	“Avesto”, “Alpomish”, “Rustam” dostonlari, “Uch og‘ayni botirlar”, “Semurg‘”, “Oltin beshik”, “Kenja botir”, “Tohir va Zuhra”	Do‘stlik, ochiq ko‘ngililik, vafodorlik saxovatpeshalik, to‘g‘riso‘zlilik, ota-onani, ustozlarni, pirlarni ulug‘lash, tarixiy meros, udumlar, milliy, ma’naviy qadriyatlar, an’analarga hurmat va e’zozda bo‘lish, millat, xalq, haqida qayg‘urish va h.k.
2-bosqich (ilmiy tasvvufiy va dunyoviy ta’limotda pedagogik g‘oyalar IX-XIII asr)	Islom ta’limoti:	“Qur’oni Karim” “Hadisi Sharif”
	Imom Ismoil Buxoriy	“Al-jome as-sahih”, ”Al-adab al-mufrat”
	Imom at-Termiziy	“Sahihi Termiziy”, “Shamoili Muhammadiya”, “Sunan”
	Yusuf Hamadoniy Ahmad Yassaviy Xo‘ja Abduxoliq G‘ijduvoniy Najmiddin Kubro Bahouddin Naqshband	Kimki o‘z ko‘nglini shodmon qilmoqchi bo‘lsa, ma’rifat axli axvolidan xabar olib, suhbatlaridan bahramand bo‘lsin. “Faqrnoma”, “Rasoil”, “Devoni Hikmat” “Vasiyatnoma” “Halol yegil va shubhadan parhez etgil”, Hush dar dam nazar bar qadam. Safar dar vatan xilvat dar anjuman “Dilba yor-u dastba kor”

	Al-Xorazmiy Al-Farg‘oniy Abu Nasr Farobiy Abu Rayhon Beruniy Abu Ali ibn-Sino Yusuf Xos Hojib Maxmud Qoshg‘ariy Umar az-Zamaxshariy	“Al-Jabr Val-Muqobola”, “Kitob at-Tarix” “Kitob fi Usul ilim an-Nujum” “Aqil haqida risola”, “Baxt- saodatga erishuv haqida”, “Fozil odamlar shahri” “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, “Hindiston”, “Qonun Masudiy ”, “Saydana” “Donishnoma”, “Burch haqida risola”, “Solomon va Ibsol”, “Hikmat buloqlari”, “Yusuf qissasi”, “Tib qonunlari” “Qutadg‘u bilig”, “Devonu lug‘ati turk”, “Kitob Xosois ul-shariat ul-Ikrom” “Nushad-ul Mustataanis”
III-bosqich (XIV-XX asr)	Amir Temur Mirzo Ulug‘bek Alisher Navoiy Muhammad Bobur Xusayn Voiz Koshifiy Axmad Donish Abdurauf Fitrat Munavvarqori Abdurashidxonov Abdulla Avloniy	“Temurnoma”, ”Temur o‘gitlari” “Temur tuzuklari” “To‘rt ulus tarixi” “Mahbub ul-qulub”, “Xamsa” “Boburnoma”, “Xatti Boburiy” “Axloqi Muxsiniy”, “Futuvvatnomayi sultoniy yoxud juvonmardlik” “Navodir-ul vaqoe” “Munozara”, “Raxbari najot” “Adibi avval” (Birinchi adib), “Adibi soniy” (Ikkinchi adib) “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim”, “Turkiy guliston yoxud axloq”

Birinchi bosqichda pedagogik g‘oyalar dastlab xalq pedagogikasi sifatida rivojlandi. Bu xalq tomonidan yaratilgan miflar (xayoliy tushunchalar)da, maqollarda qo‘shiq-kuylarda, ertaklarda, rivoyatlarda, asotirlarda, hikoyatlarda, masalalarda, dostonlarda keyichalik “Avesto”, “O‘rxun Enasoy”(Enisey) yodgorliklar mazmu-nida pedagogik g‘oyalar, qarashlar o‘z ifodasini topgan. Bu masalada yoshlarni hayotga tayyorlash, ularni mardlikka, jasoratga, kasb-hunar egallashga da’vat, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, sharm-hayo, mehr-oqibat, or-nomus, poklik, halollik kabi tarbiyaviy pedagogik g‘oyalar ilgari suriladi.

Ikkinchi bosqichda pedagogika faniga oid qarashlar, gaplar diniy-falsafiy va falsafiy ta’limotda o‘z ifodasini topdi: “Quroni Karim”, “Hadislar”, Imom Ismoil Buxoriy, Muhammad Muso at-Termiziy asarlarida, tasavvuf ta’limoti namoyondalari Yusuf Hamadoniy,

Ahmad Yassaviy, Abduxoliq G‘ijduvoniy, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband va boshqalar. Dunyoviy-falsafiy ta’limot asoschilari al-Xorazmiy, al-Farobiy, Ahmad al-Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Qoshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib, Umar az-Zamaxshariylarning pedagogik g‘oyalarida amaliy-axloqiy faoliyat ustivorligi fikrlari ilgari suriladi. Sharq faylasuflari inson aql zakovati va qobiliyati taraqqiyotning bosh omili hisoblanadi deb bilib, aqlni yuksakka ko‘tardi va qobiliyatga ishondi. Barkamol avlodni ya’ni orif inson, fozil inson va komil inson tarbiyalash ularning yorqin orzusi bo‘ldi. Shu nuqtai nazardan Farobiy “Fozil odamlar shahri” asarida, jamiyatda kim bo‘lmayin, mansabi, mavqei, tutgan o‘rnidan qati nazar fozil kishi bo‘lmog‘i darkor, zero, bunday fuqaro o‘z davlatining barcha qonun-qoidalarini yaxshi biladigan, unga to‘la to‘kis amal qiladigan, fikrlaydigan, o‘z kasbining mahoratini egasi, kerak bo‘lganda xalq, Vatan uchun jon fido qilishga tayyor shaxs bo‘ladi deb bilgan. Biroq dunyo olimlari, xalqlarining barchasi ham shunday o‘ylayvermagan, bunga faqat madaniyatga, ma’rifatga, ma’naviyatga ega bo‘lgan ziyolilar, hukmdorlargina bunday donishmand fikr yurita olganlar. Fozillar shahrining axolisi o‘rtasida o‘zaro hurmat, ota-onalar va keksalar e’zozlash, sharqona mehr, shafqat, nazokat va ehtirom bo‘lgan.

Uchinchi bosqichda Markaziy Osiyoda ijtimoiy hayotning yuksalishi uchun madaniyat, ta’lim-tarbiya, maktablarni rivojlantirish taraqqiyotning bosh omili sifatida e’tirof e’tildi. Amir Temur, Mirzo Ulug‘beklar mamlakatni ma’rifat, ma’naviyatda deb bilib maktablar ochdilar, darsliklar yaratishni yo‘lga qo‘ydilar. Maktab va madrasalarda Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Kamoliddin Behzod, Husayn Voiz Koshifiy, Jaloliddin Davoniy, Zahiriddin Muhammad Boburning pedagogik g‘oyalari, ayniqsa, insonparvarlik, adolatparvarlik, elsevarlik g‘oyasi va nazariyasi keng targ‘ib etiladi.

Shuningdek, bu bosqichda “Kalila va Dimna” “Qobusnoma” “Nasihatnoma”, Firdavsiyning “Shohnoma”, Abdurahmon Jomiyning “Bo‘ston” va “Guliston”, Alisher Navoiyning “Maxbub- ul qulub”, Voiz Koshifiyning “Axloqi Muxsiniy”, Jaloliddin Davoniyning “Tariqayi tarbiyat ul-avlod”, “Axloqi Jaloliy “ kabi asarlarda axloqiy tarbiya usullari to‘g‘risida ilg‘or pedagogik g‘oyalar, qarashlar ifodalangan ular bugungi kun tarbiyashunosligi, aniqroq aytadigan bo‘lsak pedagogika fanining puxta zamin hisoblanadi.

G‘arbda Yan Amos Komenskiyning “Buyuk didaktika” asari, Pestalotsining rivojlantiruvchi ta’lim, Adolf Disterveg, Jan-Jak Russoning erkin ta’lim va tarbiya g‘oyalari, K.D Ushinskiyning “Pedagogik antropologiya” asarlarining yaratilishi pedagogika fanining mustaqil fan bo‘lib rivojlanishini ta’minladi.

To‘rtinchi bosqich- Chor Rossiyasi va sobiq sho‘rolar davri Turkistonda madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san’at, pedagogik fikr, maktab, ta’lim sohasidagi ishlarga o‘z siyosatini o‘tkazgan, milliy madaniyat, ma’rifat, pedagogik fikrlarni tazyiq ostiga olgan davrlarni o‘z ichiga oladi.

Chor mustamlakachilari XIX asrning ikkinchi yarmidan, sho‘rolar hukumati XX asrning 20-yillaridan to XX-asrning 90-yillariga qadar o‘lka madaniyati, ta’lim, fan, san’at, pedagogik g‘oyalari va turmush tarzini yevropacha qurishga intildilar va bunga ma’lum darajada erishdilar ham. Shunga qaramay o‘lkaning ilg‘or kishilari, ma’rifatparvarlari o‘zlaridan oldin o‘tgan ajdodlarining insonparvarlik, adolatparvarlik, pedagogik g‘oyalarni davom ettirdilar. Natijada XX-asrning boshlarida “Usuli jadid”, “Usuli savtiya” nomlari bilan yangi maktablar tashkil etildi. Bu maktablar uchun darsliklar yaratildi, ta’lim tarbiyani tashkil etish bo‘yicha pedagogik asarlar yozildi. Bular Ahmad Donish, Dilshod Otin, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Ishoqxon Ibrat, Abduqodir Shakuriy, Said Ahmad Siddiqiy va boshqalar edilar. Ayniqsa, Ahmad Donishning “Navodir-ul vaqoi”, Abdulla Avloniyning “Turkiy Guliston yoxud axloq”, Dilshod Otinning “Tarixi muhojiron”, Fitratning “O‘quv”, “Ona tili” darsliklari, Munavvarqori Abdurashidxonovning “Adibi avval”, “Adibi soniy” kitoblari, Hamzaning “Yengil adabiyot”, “O‘qish kitobi” kabi darsliklari, Ishoqxon Ibratning “Lug‘ati Sitta-al Sina”, “San’ati Ibrat qalami”, “Mirrajab Bandiy” o‘quv qo‘llanmalari, Abduqodir Shakuriyning “Jomi’ ul-hikoyat”, “Zubdat ul-ash’or” o‘qish kitoblari bu davr maorifi uchun muhim pedagogik asarlar sirasiga kiradi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Markaziy Osiyolik adabiyot namoyandalarining asarlarida odob-axloq, ta’lim-tarbiya, ilm olishga da’vatlar mavjud. Buni Furqat, Muqumiy, Avaz O‘tar, Zavqiy ijodida kuzatish mumkin. Furqat o‘zining “Gimnaziya”, “Ilm xosiyati”, “Vistavka xususida”, “Suvorov haqida” kabi asarlarida ilm xususiyatlari, ta’lim-tarbiya to‘g‘risida pedagogik fikrlarni bayon

etgan. Avaz O‘tar “Til” nomli she’rida ona tilini egallash, uni bilishning afzalikklari to‘g‘risida fikr yuritgan.

Xullas, o‘zbek pedagogikasining nazariyasi va tarixi shunday xilma-xil jarayonlar, oqimlar bilan rivojlanib, shakllanib keldi. To‘rtinchi bosqichning keyingi taraqiyoti sho‘rolar davri pedagogikasi nazariyasining rivojlanishi bilan bog‘langan. Chunki XX asrning 90-yillarigacha O‘zbekiston respublikasi sovet Ittifoqi degan davlat tarkibida edi.

Beshinchi bosqich-bu bosqich pedagogika fanlari to‘g‘risida so‘z yuritganda, uning yuksak ma’naviy yuksalishlar va umuminsoniy qadriyatlar asosida mustaqil vatanimizning milliy asosda rivojlanishini qamrab oladi.

Ma’lumki, mustaqillikka erishgandan so‘ng mamlakatimizda uzluksiz ta’limni milliy asosda qo‘rish uchun ikki marta (1992-yil 2-iyul va 1997-yil 29-avgust) “Ta’lim to‘g‘risida” Qonun qabul qilindi. Uzluksiz ta’lim, uning mazmuni yo‘nalishlari tarkibi, 29-avgust 1997-yilda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risidagi” Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” asosida rivojlanmoqda. Chunki, bu qonunlar jahon ta’limi yutuqlari va milliy tajribalarni o‘rganish, tahlil qilish asosida tuzilgan bo‘lib, ularning mazmuni mamlakatni ijtimiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy taraqqiy ettirishni nazarda tutib, yuksak ma’naviy axloqiy salohiyat, kasb-kor madaniyatiga ega bo‘lgan, ijodiy va ijtimoiy faollikni o‘zida shakllantirgan, ijtimoiy siyosiy hayotda to‘g‘ri yo‘lni tanlaydigan mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy vazifalarni hal qilishga qodir bo‘lgan kadrlarni tayyorlashning milliy tuzimini yaratishni nazarda tutilgan. Shunga asosan uzluksiz ta’lim tizimida faoliyat ko‘rsatadigan pedagogik xodimlar ta’lim tarbiya ishlarini islohot talabalari asosida tashkil qilishlari va ularga mustaqil respublikadagi “Pedagogika” fanlari yaqindan ham ilmiy-nazariy, ham amaliy jihatdan ko‘maklashishlari kerak. Shunga binoan respublikamiz pedagog olimlari pedagogika fanining asosiy kategoriyalari ta’lim-tarbiyaning O‘zbekiston xalqi ma’naviyatiga yaratuvchanlik xususiyatini shakllantirish omillari ekanligini inobatga olib pedagogika fanlari sohasi bo‘yicha darslik va qo‘llanmalar yaratdilar. Shular jumlasiga “O‘zbek pedagogikasi antalogiyasi” (1995) “Pedagogika tarixi”(1994) “O‘zbek pedagogikasi tarixi”(1997) “Pedagogika kursi” (1997) “O‘rta Osiyoda pedagogik fikr taraqiyotidan lavhalar” “Mustaqillik ma’naviyati va yoshlar tarbiyasi”

(1995) “An’anaviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi” “O‘quvchilar axloqiy madaniyatini shakllantirish muammolari ”, “Milliy tarbiya”, “Kasb-hunar kollejlari o‘quvchilarini ma’naviy-axloqiy tarbiyalash”, “Didaktika” (1997; 2016), “Oila pedagogikasi” (2007) “Oliy maktab pedagogikasi” (2008), “Pedagogika” (2010) “Pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish” “Pedagogika nazariyasi va tarixi” (2011) “Maktabgacha pedagogika” va boshqalarni ko‘rsatish mumkin.

“Talim ro‘g‘risida”gi Qonun vazifalarini bajarish “Pedagogika” fanlari oldida turgan muhim hodisa bo‘ldi. Zero, ilm fan, texnikaning tez rivojlanib borishi, yangi ijtimoiy ma’rifiy zaruriyatlarni paydo qildi. Natijada moddiy ishlab chiqarish, xom ashyoni qayta ishlash sohalari (qishloq xo‘jaligi, sanoat transport, maishiy xizmat ko‘rsatish va boshqalar)da mahsulot ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishga nisbatan texnologik yondashuv an’anasi yuzaga keldi, natijada hayot surati shiddatligida, axborotlar oqimi kengaydi. Bu hol axborotlarni tezkor sur’atga qabul qilib olish, ularni tahlil qilish, qayta ishlash, nazariy jihatdan umumlashtirish, xulosalash hamda o‘quvchiga yetkazib berishni yo‘lga qo‘yish ta’lim oldida turgan dolzarb muammolardan hisoblanadi. Ta’lim-tarbiya jarayoniga pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish yuqorida qayd etilgan dolzarb muammoni ijobiy hal etishga xizmat qiladi. Buni chuqur anglagan respublika pedagog olimlari ilg‘or pedagogik texnologiyalarni ta’lim tarbiya jarayoniga tadbiq etishning nazariy va amaliy jihatlarini yoritish bo‘yicha monografiya, o‘quv qo‘llanmalarini yozdilar va nashr etirdilar. Bularga M. Ochilovning “Yangi pedagogik texnologiyalar” (2000), N. Saidahmedovning “Yangi pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot” (2003), Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. “Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot” (2005), Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. “Pedagogika texnologiya asoslari” (2004), Xo‘jayev B.Q., Olimov Sh.Sh. “Yangi pedagogik texnologiyalar” (2004), Avliyoqulov N.H. “Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari” (2001), Ziyomuhammedov B., Abdullayeva Sh. “Ilg‘or pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot” va hokazolarni ko‘rsatish mumkin.

Ko‘rib o‘tganimizdek pedagogika fan sifatida besh bosqich asosida rivojlanib bordi. Barcha bosqichda pedagogikaning markazida inson va uning ta’lim tarbiyasi, shaxs sifatida shakllanishning muhim jihatlarini ko‘rsatib turibdi. Ma’lumki, har bir davlat o‘zining ijtimoiy-iqtisodiy,

ma’naviy-siyosiy taraqqiyotning kelajagini belgilar ekan, u, avvalo ma’naviy-axloqiy salohiyati yuksak, malakasi yuqori, har qanday qiyinchiliklarga bardosh bera oladigan kadrlarni tayyorlashni bosh maqsad qilib oladi va uning markaziga shaxsni hamda uning ma’naviy-axloqiy kamolotini qo‘yadi. Uning bunday yuksalishini uzluksiz ta’lim asosida birinchilardan bo‘lib ta’minlash lozimligi belgilangan. Uzluksiz ta’limning muvaffaqiyatini ta’minlashda pedagogikaning ham o‘quv predmeti, ham o‘quv fani sifatida roli ortdi. Bu fan hozirgi kunda ilmiy-amaliy, iqtisodiy, ma’naviy-axloqiy, tabiatni asrab-avaylash, kabi his-tuyg‘ularni insonlarda, avvalombor yoshlarga singdiruvchi tarbiya fani tarzida e’tirof etiladi.

Pedagogika fanining o‘quv predmeti sifatida rivojlanishi. XX asrdan boshlab sobiq sho‘rolar davrida pedagogika fani mamlakatda maktab ta’limni rivojlantiruvchi o‘quv predmeti sifatida pedagogika institutlari, universitetlarda, o‘qituvchi-tarbiyachilarni tayyorlaydigan o‘rta maxsus bilim yurtlarida jamiyat ma’naviy hayotini yuksaltiruvchi va yangi insonni shakllantirishga xizmat qiluvchi fan sifatida o‘qitila boshlandi. Chunki, bu davrda yangi sovet tizimi degan mamlakat xalq ta’limini qaytadan qurish va pedagogika xalq ta’limi tizimida faoliyat ko‘rsatuvchilarning ish mazmunini belgilaydigan fan bo‘lishi lozimligi mamlakat rahbariyati tomonidan belgilab berilgan edi. Chunki, bunda yoshlarni va kattalarni yangi jamiyat hayotida tayyorlashda xalq ta’limining maktab va unga yaqin bo‘lgan bog‘cha, maktabdan tashqari ta’lim-tarbiya muassasalari kabi zvenolari asosiy o‘rinni egallashlari lozim edi.

Shunga asosan pedagogika fani ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishi va amalga oshirishni o‘rganuvchi o‘quv predmeti sifatida rivojlandi. Bunday sharoitda qayd etilgan xalq ta’limi muassasalari talablariga javob beruvchi va ularning faoliyatini yo‘lga qo‘yishga ko‘maklashuvchi o‘quv adabiyotlarini tayyorlash zarur bo‘lib qoldi va o‘sha davrda xalq komissalari kengashi 1921-yilning avgustida o‘quv darsliklarini yaratish tartibi haqida qaror qabul qildi. Bu esa mamlakatda pedagogika o‘quv fanini yaratish uchun muhim turtki bo‘ldi. 1922-1925-yillarda pedagogika fanining turli yo‘nalishlari bo‘yicha, o‘ziga pedagogik g‘oyalarni ifodalagan kitoblar nashr etildi. Bular jumlasiga, P.P.Blonskiyning “Pedagogika” (1922), “Pedagogika asoslari” (1925), A.P.Pikkevichning “Zamonaviy maktabning asosiy muammolari”, “Pedagogikadan olti ma’ruza” (1924),

M.S.Grigorevskiyning “Pedagogikaga kirish” (1925) kabilar kiradi. Bu pedagogik adabiyotlar o‘zlarining muayyan kamchiliklari mavjudligiga qaramasdan pedagogikaning yangi yo‘llarini aks ettira oldi.

Pedagogika fanining shakllanishida 1927-1930-yillarda sobiq sho‘rolar davrida o‘tkazilgan pedagogik g‘oyalar munozaralari muhim ahamiyat kasb etdi. Bunday munozaralarga A.T.Kalashnikov, L.P.Blonskiy, A.P.Pinkevichlar faol ishtirok etdilar. Pedagoglar va xalq ta’limi xodimlarining bunday munozaralari sovet pedagogikasi deb nomlangan fanning rivojlanishiga hamda pedagogikaning o‘quv predmeti sifatida mazmunini aniqlashga katta yordam berdi. 1930-yilda VKP (B)ning “Boshlang‘ich majburiy ta’limni” mamlakatda joriy qilish to‘g‘risidagi qarori qabul qilingandan so‘ng boshlang‘ich maktablar uchun qisqa muddatli pedagogik kadrlarni tayyorlash kurslar ochilishi munosabati bilan pedagogika texnikumlari uchun V.N.Popov, A.T.Volner, A.T.Zenkolarning “Pedagoglar” darsligi (qisqa mudatli pedagog kadrlarni tayyorlash uchun, 1931) P.N.Shinebriyovning pedagogika texnikumlari uchun “Pedagogika” darsligi (1934) va M.M.Pisyorakning oliy pedagogika o‘quv yurtlari uchun “Pedagogika” darsligi (1934) nashr etildi va ta’lim muassasalarida o‘qitish boshlandi.

Pedagogikaning pedagogik kadrlar tayyorlovchi (universitetlar, institutlar, texnikumlar) o‘quv yurtlarida tarbiya, ta’lim, ma’lumot o‘quv predmeti sifatida o‘qitilishi XX asrning 50-80-yillarida mukammal rivojlandi. Bu davrlarda vatanimiz sho‘rolar hukumati tarkibida o‘quv yurtlarida bu o‘quv fanlaridan foydalandilar. Bular sirasiga S.A.Suxoamlinskiyning “Yosh avlodning axloqiy tarbiyasi” (1967), Danilov M.A. va Esipov B.P. “Didaktika” (1957 B.P.Esipov tahriri ostida), G.I.Shukinaning “Pedagogika” (1966), I.T.Ogoradnikovning “Pedagogika” (1968), T.A.Ilinaning “Pedagogika” (1969), N.I.Boldirov va boshqalarning “Pedagogika” (1968), M.V.Savinning “Pedagogika” (Pedagogika texnikumlari uchun 1978), N.A.Sorokinning “Didaktika” (1974) “Дидактика средней школы” (M.A. Danilov va M.N. Satkinlar 1975) “Педагогика: Учебний пособий для педучилищ” (S.P.Baranov, A.R.Bolotina, T.V.Volinova, V.A.Selastinin 1981) “Педагогика: учеб. пособи для студентов пед ин-тов. Под ред. Ю.К.Бабанского: 1983 va 1988”, “Общие основы педагогики” (Pod. red. F.F. Korolyova V.E Turman, 1967), I.F.Xarliyamovning “Pedagogika” (1990) “Дидактика средней школъ” (Под ред. M.H. Скаткина; 1982) va h.k. O‘zbekistonda

mustaqillik yillariga qadar akademik S.R.Rajabov tahriri ostida chop etilgan “Pedagogika” (1958-1980) darsligi asosida o‘qituvchi tarbiyachilarni tayyorlovchilar uchun pedagogika fani o‘quv predmeti sifatida o‘qitildi. Shuningdek, “Pedagogika” o‘quv fanining mazmunini to‘ldirish, mavzularning nazariy-amaliy yo‘nalishini kuchaytirish maqsadida turli mavzularning nomlari bilan o‘quv qo‘llanmalari hamda “Pedagogika tarixi” va “Хрестоматия по педагогика” (M.T.Bushkanes B.D Leuxin; 1976) kabi pedagoglarning o‘quv qo‘llanmalari ham chop etilganki, ular pedagogika fanini o‘quv predmeti sifatidagi mazmunini ilmiy-nazariy, amaliy-metodik jihatdan kuchaytirishga xizmat qiladi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizdagi demokratik islohotlar, erkin fuqarolik jamiyatini qurish yo‘lidagi harakatlar insonni yangidan kashf etish, uning imkoniyatlarini to‘la ro‘yobga chiqishi uchun shart-sharoitlar yaratish, endi ularning bu jarayonlarning ishtirokchilari emas, balki bunyodkorlari, tashkilotchilari bo‘lib qatnashishlari zaruriyati tug‘ulgan edi. Natijada mamlakat o‘quv yurtlari uchun qator pedagogik fanlar tizimi vujudga kela boshladi. Dastlab, pedagogika fanlari doktori, professori A.Munavvarov tahriri ostida 1996-yilda “Pedagogika” o‘quv qo‘llanmasi, I.Tursunov, U. Nishonaliyevlarning 1997-yilda “Pedagogika kursi” darsligi, pedagogika fanlari doktori, professor, Respublikada xizmat ko‘rsatgan o‘qituvchi N.R.G‘aybullayevning “Pedagogika” o‘quv qo‘llanmasi, K.Hoshimov, M.Inomova, S.Nishonova, R.Hasanovlarning 1996 yili “Pedagogika tarixi”, A.Zunnunovning “O‘zbek pedagogikasi tarixi” kabi pedagogik fanlar nashr etilib o‘quv muassasalarida o‘qitila boshlandi.

O‘zbekistonda “Pedagogika” fani, fan va o‘quv predmeti tarzida “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” qabul qilgandan so‘ng jadal rivojlanish bosqichiga o‘tdi. Qator darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari ta’lim-tarbiyaning dolzarb muammolari bo‘yicha risolalar, monografiyalar yaratildi. Jumladan, 2001-yilda R.Mavlonova tahriri ostida “Pedagogika” darsligi, 2002-yilda Sh.Abdullayeva va boshqalar hamkorligida “Pedagogika” o‘quv qo‘llanmasi, 2006-yilda J.Hasanboyev va boshqalar “Pedagogika” o‘quv qo‘llanmasi va shu mualliflar 2009-yilda yaratgan pedagogika, “Pedagogika tarixi”, 2011-yilda oliy ta’lim pedagogika oliygohlari talabalari uchun “Pedagogika” o‘quv darsligi, 2006-yilda “Pedagogika” o‘quv qo‘llanmasi A.Zunnunov va U. Mahkamovlarning oliy o‘quv

yurtlari uchun “Didaktika”, “O‘rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar” (1996), 2003-yilda Z.Ismoilovaning “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” o‘quv qo‘llanmasi, 2008-yilda shu muallifning “Pedagogika” o‘quv qo‘llanmasi 2009-yilda N.Egamberdiyevaning “Ijtimoiy pedagogika” o‘quv qo‘llanmasi, O.Hasanboyeva, D.Holiqov va boshqalar. “Oila pedagogikasi”, 2010-yilda M. To‘xtaxadjayeva, S.Nishonova va boshqalarning “Pedagogika nazariyasi” 2013-yilda Sh.Sodiqovaning maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalariga mo‘ljallangan “Maktabgacha pedagogika” darsligi yaratildiki, bular ta’lim tarbiyada ijtimoiy hayot jarayonining barcha jabhalarini qamrab olib, mamlakat yoshlarini barkamol insonlar, yetuk pedagogik kadrlar qilib tayyorlashda katta ijtimoiy prdagogik ahamyat kasb etmoqda. Shunday qilib tarixiy taraqqiyotda yangi hayot mazmuni sifatiy o‘zgarishlar ro‘y berayotgan bir davrda pedagogika nazariyasi va amaliyotini chuqur o‘zlashtirib boy tarixiy tarbiyaviy ta’limiy merosni mukammal egallab mamlakatda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatin asoslarini rivojlantirish ishlariga safarbar etmoqlari har bir pedagogning fuqarolik burji hisoblanadi.

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savollar hamda topshiriqlar:

1. Pedagogika fan sifatida rivojlanishining asosiy bosqichlarini ko‘rsating.

2. Pedagogika fanining o‘quv predmeti sifatida rivojlanishiga hissa qo‘shgan mutafakkirlarning ilmiy nazariyalarining asosiy g‘oyalarini ko‘rsating.

3. Hozirgi davr pedagogika fanida qanday masalalar yoritilgan?

4. Pedagogik fanlar tizimi haqida ma’lumot bering.

5. Pedagogik fanlarning o‘zaro aloqasini izohlang.

6. Pedagogika sohalarining o‘ziga xos xususiyatlari haqida tushuncha bering.

7. Maxsus pedagogika sohasi haqida ma’lumot bering.

8.Neyropedagogika nimani o‘rgatadi?

9. Pedagogik fanlar va ularning o‘zaro aloqasini “Klaster” metodi yordamida yoriting.

3-MAVZU. ZAMONAVIY DIDAKTIK KONSEPSIYALAR

Tayanch so‘zlar: *didaktik tizim, konsepsiya, an’anaviy didaktik tizim, progressiv didaktik tizim, zamonaviy didaktik tizim, ochiq ta’lim tizimi, hamkorlik pedagogikasi,an’anaviy yondashuv, ratsionalistik yondashuv, fenomenologik yondashuv, texnokratik yondashuv, ezoterik yondashuv.*

3.1. Rivojlantiruvchi ta’limning asosiy konsepsiyalari tavsifi

Didaktik konsepsiya (didaktik tizim) ta’limda o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatini tashkil etish maqsadi, mazmuni, vositalari, usullari, tashkiliy shakllari to‘g‘risidagi qarashlar (g‘oyalar) majmuidir. Didaktik tizim ta’limni amalga oshirishning yaxlit tarzda shakllangan tarkibi bo‘lib, u muayyan mavqe va nuqtai nazarlarga ega bo‘lgan o‘ziga xos mezonlar bilan farqlanuvchi pedagogik hodisa. Didaktik tizimlarni shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin: an’anaviy didaktik tizim, progressiv didaktik tizim, zamonaviy didaktik tizim.

An’anaviy didaktik tizim – namunali, hamma tomonidan e’tirof etilgan, umuminsoniy ma’naviyatlar darajasida tan olingan didaktik qarashlar majmuidir. Bu tizim nemis faylasufi va pedagogi I.Gerbart nomi bilan bog‘liq. Ushbu tizim etika (axloq) va psixologiya nazariyasiga tayanadi. Uning asosiy maqsadi kuchli iroda egasi bo‘lgan shaxsni shakllantirishdan iborat bo‘lgan. I.Gerbart tomonidan ishlab chiqilgan asosiy g‘oyalarga tarbiya nazariyasi asoslanishi kerak. Ular: 1) takomillashish g‘oyasi. Bu shaxsni shakllantirishning asosiy yo‘nalishlari va maqsadini o‘zida mujassamlashtirishi kerak; 2) xayrxohlik g‘oyasi. Bu o‘zaro kelishgan holda hamkorlik qilish va muloqotga kirishishga o‘z g‘oyalari va intilishlarini buysundirishni nazarda tutadi; 3) huquq g‘oyasi. Bunda har bir kishining huquq va burchlarini aniqlangan odamlar orasidagi munosabatni tartibga solish nazarda tutiladi; 4) haqqoniylik g‘oyasi. Mazkur g‘oyaga ko‘ra kimgadir nohaklikka asoslaigan harakatning amalga oshirilishi jazoga tortish bilan qoplanishi lozim; 5) ichki mustaqillik g‘oyasi. Bunda insonning irodaviy quvvatlarini tanlash va yo‘naltirish, uning o‘z shaxsiy yo‘nalishlari doirasida bo‘lishi kerak. I.Gerbart tomonidan ilgari surilgan didaktik tizimda ta’lim va tarbiya orasidagi aloqadorlik nazardan chetda qolgan. Uning tasavvuricha, ta’limning vazifasi

o‘quvchilarning intellektual va jismoniy rivojlanishlarini ta’minlashdan iborat. Ta’lim jarayoniga rahbarlik qilish o‘quv rejasi asosida o‘qituvchi tomonidan qat’iy tarzda amalga oshirilishi kerak. O‘quvchilar esa tartib-intizomga rioya qilgan holda o‘qituvchini so‘zsiz tinglashlari kerak, degan g‘oya ilgari suriladi. O‘qituvchi tomonidan amalga oshiriladigan harakatlar, birinchi navbatda, kuchli iroda egasini shakllantirishga yo‘naltirilishi lozim. O‘quvchilar esa o‘quv materiallari bayonini so‘zsiz tinglashlari va uni o‘zlashtirishlari kerak. Bu jarayonda o‘quvchilarga o‘z ijodiy layoqatlarini namoyon qilishlari uchun ruxsat berilmaydi. Mazkur tizim doirasida ayni bir guruhdagi o‘quvchilar teng hisoblangan, ya’ni har bir o‘quvchining o‘ziga xos xususiyatlari hisobga olinmagan. O‘qituvchi esa o‘quv jarayonini qo‘shimcha materiallar bilan boyitish huquqiga ega emas. Bu jarayonda intizomni qo‘llab-quvvatlash maqsadida cheklovlardan foydalanishga ruxsat berilgan, chegaralangan tarzda o‘quvchilar jazolangan. I.Gerbart tomonidan ilgari surilgan didaktik tizimda o‘quvchilarning amaliy ko‘nikma va malakalariga o‘rin ajratilmagan. Shuning uchun ham mazkur didaktik tizim o‘quvchilarni kundalik hayotiy faoliyatga tayyorlash imkoniyatiga ega emas edi.

Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, I.Gerbart tizimi o‘quv jarayonida samaradorlikni ta’minlash imkonini bermadi. Mazkur tizimdagi kamchiliklardan xulosa chiqargan holda mutaxassislar boshqa didaktik tizimni asoslashga muvaffaq bo‘lishdi.

Progressiv didaktik tizimlar. Didaktikaning keyingi taraqqiyoti XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida paydo bo‘lgan va pedagogikada “Yangi tarbiya” nomi bilan yuritilgan yo‘nalish bilan bog‘langan. Yangi tarbiya targ‘ibotchilari E.Demolen, S.Reudin, A.Ferer va boshqalar tashabbusi bilan an’anaviy maktablar o‘rniga tadbirkorlarni tarbiyalashga mo‘ljallangan pulli maktablar ochildi. Yangi maktablar shahar chekkasidagi internatlar shaklida tashkil etilgan bo‘lib, ularda aqliy ma’lumot san’at, gimnastika, qishloq xo‘jaligi va qo‘l mehnati ta’limi bilan qo‘shib olib boriladi. Yangi tarbiya tarafdorlari klassik didaktikani tanqid qila turib, XX asr maktabini “Mehnat maktabi”, “Ijtimoiy hayotda ishtirok etish maktabi”, “Bolalar 100 yiligiga munosib maktab”, deb atashdi. Ular ta’lim jarayonida asosiy e’tiborni o‘quvchiga qaratib, bir tomondan, mashhur fransuz gumanisti Jan Jak Russoning (1712-1778) “Hur tarbiya” to‘g‘risidagi g‘oyalarini yangi sharoitda rivojlantirishdi,

ikkinchi tomondan esa, o‘sha davrdagi mavjud pedotsentirizm nazariyasini yangi goyalar bilan boyitishdi.

Yangi tarbiya nazariyasi konsepsiyasi o‘z davrida progressiv va shu bilan birga, ziddiyatlarga boy pedagogik qarash edi. Bu nazariya tarafdorlari bolaning qiziqishlari, ehtiyojlari nuqtayi nazaridan maktab muammolarini hal qilishar, ta’limning mazmuni metodlari, vositalarini tanlashda o‘quvchining xususiyatlarini hisobga olishardi. Ularning tashabbusi bilan ilmiy ishlar sohasida pedagogik eksperiment qo‘llana boshlandi. Shu bilan birga, ular ta’limning izchilligi, o‘quv dasturlari, darsliklarining ta’limdagi rolini inkor etishigacha etib borishdi.

Yangi tarbiya tarafdorlari qarashlarida o‘ta so‘l fikrlar bilan birga ilg‘or, progressiv g‘oyalar ham mavjud edi: Gugo Gauding (1860-1923) an’anaviy “kitobiy bilimlar maktabini” bolalarda “ijodiy intilishlarni har tomonlama rivojlantirish” maktabiga aylantirish shiorini o‘rtaga tashladi; Ovidiy Dekroli (1871-1932) mavjud maktablarning an’anaviy prinsiplar doirasidan chiqa olmayotganini tanqid etib “hayot uchun va hayot orqali o‘qitish” maktabini yaratish muammosini kun tartibiga qo‘ydi; Eduard Klapared (1873-1940) dasturlar, darsliklarda o‘quvchilarning qiziqishlari, ehtiyojlari hisobga olinmaganligini qoralab, bolalar psixologiyasi va imkoniyatlariga mos maktab yaratish masalasini o‘rtaga tashladi; Genrix Rovid (1877-1944) amaldagi maktablarning hayotdan, ishlab chiqarishdan uzilib qolganini ta’kidlab, “Yangi faol maktab yaratish” g‘oyasini olg‘a surdi.

Yangi tarbiya tarafdorlari o‘z didaktik qarashlarida I.F.Gerbart va uning izdoshlari bilan munozara qilishar, ularni formalizm, rigorizm (qoida, prinsiplar doirasidan chiqa olmaslik), avtoritarizmda ayblashardi. Ana shunga ko‘ra, ular pedagogika tarixida “progressivistlar”-“ilg‘orchilar” nomini olishdi.

Djon Dyui (1895-1952). Boshqa progressivisitlarga o‘xshab taniqli amerika faylasufi, psixologi, pedagogi D.Dyui ham o‘z didaktik tizimini asoslashda I.F.Gerbart va uning izdoshlarining didaktik qarashlarini tanqid etishdan boshlagan edi. D.Dyuining yozishicha, an’anaviy maktab va unda ta’limni tashkil etish tajribasi qator kamchiliklarga ega: maktab faoliyati, binobarin, o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati ham qat’iy talablar, qoidalar, prinsiplar (rigorizmlar) chegarasidan chiqib keta olmaydi; ta’lim o‘quvchilar xotirasiga mo‘ljallab tashkil etilgani uchun bolalar tayyor bilimlarni o‘rganishadi, ularning qobiliyatlarini o‘stirish, ularda ijodkorlikni tarbiyalash

ikkinchi darajali hodisa sifatida qaraladi; ta’limda bolalarning faolligi, binobarin, tashabbuskorligi, qiziqishlari, intilishlari chegaralab qo‘yilgan; ma’lumot mazmuni va uni o‘zlashtirish jarayoni real ijtimoiy ehtiyojlarga mos kelmaydi; maktablarda hayot uchun foydali bilimlar o‘rgatilmaydi.

D.Dyuining didaktik qarashlari pragmatizm falsafasiga asoslangan edi, u bola uchun, ijtimoiy hayot uchun foydali bilimlarni haqiqat deb tushunardi. D.Dyui o‘zining falsafiy, didaktik mushohadalarida klassik haqiqatlarni ma’lum darajada inkor etgan, binobarin, ilmiy bilishni ikkinchi darajali hodisa sifatida kamsitgan, amaliyotni birinchi o‘ringa qo‘ygan pedagog edi. Bu D.Dyuining didaktik sistemasini ma’lum darajada chegaralanganini ham ko‘rsatadi.

D.Dyuining didaktik tizimi, garchand unda qator g‘ayriilmiy qarashlar bo‘lsa-da, eng ilg‘or yo‘nalish edi: u eng avvalo o‘z pedagogik qarashlarini maktab faoliyati bilan bog‘ladi. 1896-1902-yillarda Chikago shahrida maxsus maktab tashkil etdi. Bu “laboratoriya maktabi” deb atalardi; laboratoriyada ilmiy-tadqiqotlarni eksperimental usullar asosida olib bordi. U eksperimentni maktab hayotiga ilmiy-didaktik tadqiqotlarga olib kirgan birinchi pedagoglardan edi; D.Dyui o‘z didaktik qarashlarida o‘quvchini ta’lim jarayoni sub’yekti sifatida ajratadi. Uning fikricha, maktab bolalarni hayotga tayyorlash joyigina emas, shu bilan birga, u bolalarning faoliyat ko‘rsatish, yashash maskani hamdir.

D.Dyuining didaktik tizimida bolalarning individual va kollektiv faoliyatini qo‘shib olib borish g‘oyasi markaziy o‘rinni egallaydi. U amaliy mashg‘ulotlar, qo‘l mehnati xususiyatlarini tahlil etib, ta’limda o‘quvchining mavqeini, uning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish masalalarini o‘rganadi. Uning ta’kidlashicha, indivudual va kolektiv ishlarni qo‘shib olib borish yo‘li bilan ta’limda “tashkiliy hamkorlikka”erishish mumkin. Amaliy mashg‘ulotlarda faol ishtirok etish, deb qayd etgan edi. D.Dyui, bolalarning o‘rganilayotgan o‘quv predmetiga oid adabiyotlar ustida mustaqil ishlashni inkor etmaydi. Binobarin, D.Dyui o‘z didaktik tizimida bolalarning mustaqil ishlari, ularda mustaqillikni tarbiyalash muammolariga alohida e’tibor beradi.

D.Dyui “Kitobiy bilimlarga”, “bilimlarni tayyor holicha” o‘rganishga tamoman qarshi edi. U didaktika tarixida birinchilardan bo‘lib, muammoli ta’limni asoslagan didaktdir. D.Dyui fikriga ko‘ra, bilish va bilim turli aqliy qiyinchiliklarni hal etish, hayotida uchragan

qiyinchiliklarni bartaraf etishdir. Tafakkur narsa-hodisalar to‘g‘risida fikrlash muammolarini sezish, ularning mohiyatini anglash, qiyinchiliklar (masalan bilish jarayonidagi qiyinchiliklar) ni yengish natijasida pozitiv ziddiyatlarning rolini ilk bor asoslagan didakt ham D.Dyui edi.

Ta’lim jarayonidagi pozitiv (ijobiy) ziddiyatlar hozirgi didaktikaga ta’limni harakatlantiruvchi kuchlar (M.A. Danilov), bilish jarayonidagi to‘siq (L.M.Fridman), amaliy va bilish faoliyatidagi qarama-qarshiliklar (E.Lingard), ma’lum va noma’lum elementlar o‘rtasidagi munosabatlar (I.Y.Lerner), o‘rganilgan va o‘rganiladigan bilimlar o‘rtasidagi farq (M.I.Maxmutov) shaklida ta’riflanadi. Bulardan ko‘rinadiki hozirgi muammoli ta’lim nazariyasining otasi ham D.Dyui edi.

D.Dyui bolalar oldiga qo‘yiladigan muammolarning mohiyati, ta’lim jarayonidagi ziddiyatlarning xususiyatlariga asoslanib, o‘quv-tarbiya sharoitida o‘quv muammolaridan foydalanish metodikasini ham ishlab chiqdi. O‘quvchi muammoni qabul qila turib, o‘zi uchun yangilik ochishni fahimlashi, yangi bilimlarga ehtiyojini sezish zarur.

D.Dyuining ta’kidlashicha, tafakkur, tafakkur jarayonlari yashash uchun kurash jarayoni bo‘lib, u insonning taraqqiyot darajasini ham belgilaydi. Har qanday o‘quv muammosini hal etish, uning yozishicha, oldin qiyinchilikni sezish, so‘ngra qiyinchilikni bartaraf etish, oxirida qilingan ishni baholash bilan yakunlanadi. Ana shular ga ko‘ra, D.Dyui ta’limning quyidagicha yangi modelini yaratdi: ta’lim jarayonidagi qiyinchiliklarni sezish, qiyinchilikni aniqlash va chegaralash, qiyinchilikni bartaraf etishga oid farazni so‘z bilan shakllantirish, yangi xulosani qayd etish: xulosani tekshirish uchun tajribalar o‘tkazish. Demak, D.Dyui ta’lim jarayonida o‘quvchini bilishini olimning ilmiy bilishiga yaqinlashtirib tashkil etish g‘oyasini ko‘tarib chiqqan didaktdir.

D.Dyui tomonidan asoslangan didaktik tizim markazida o‘quvchi turadi. Ta’limning samaradorligi esa ularni bilish va faoliyatlarining jadallashishiga bog‘liq ekanligi isbotlangan. Ta’limning verbal metodlari I.Gerbart didaktikasida e’tibordan chetda qolgan edi, D. Dyui didaktikasida esa uiga alohida o‘rin ajratilgan. Bu jarayonda o‘qituvchi yordamchi, maslahatchi mavqeiga ega bo‘lib, o‘quv jarayoni yo‘nalishlarini belgilashga safarbar etilgan. D.Dyuining ta’biricha, bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish jarayoni o‘quvchilarning

amaliy faoliyatlari natijasidagina samarali kechishi mumkin. O‘quvchilarning muammolarni bartaraf etishlari uchun o‘qituvchi o‘quv rejasi bilan bogliq holda qulay sharoitlar yaratishi kerak. Qo‘yilgan muammolar esa o‘quvchilarning tayanch bilimlari va yosh xususiyatlariga mos kelishilozim. Muammolarni echish jarayonida o‘quvchilarning bir necha bosqichlarni o‘tishlari talab etiladi (muammolarni his etish, aniklash, taklif etilmagan echimlarni shakllantirish, mazkur echimlarni amalga oshirish, natijalarni taxdil qilish va b.).

Bogdan Navrochinskiy (1882-1974). D.Dyuining izdoshlaridan biri polyak didakti Bogdan Navrochinskiy edi. B.Navrochinskiy o‘z didaktik tadqiqotlarida I.F.Gerbart va D.Dyuining ta’limini tashkil etish modellarini o‘zaro taqqoslab darsni tashkil etishning ikki xil usulini ajratadi: darsni tashkil etishning gerbartcha usuli, darsni o‘tkazishning dyuicha usuli.

B.Navrochinskiy I.F.Gerbart va uning izdoshlari faoliyatini qisman o‘rganib, darsni tashkil etishning quyidagi bosqichlarni ajratadi: mavzuni o‘rganishda tayyorgarlik; faktik materiallar tahlili; o‘rganilgan va endi o‘rganiladigan haqiqatlar o‘rtasida bog‘lanishga kelish; bilimlarni taqqoslash.

B.Navrochinskiy, D.Dyui va uning izdoshlari faoliyatini o‘rganib darsni tashkil etishning quyidagi shaklini aniqlaydi: amaliy va nazariy qiyinchiliklar bilan to‘qnashish: muammoni shakllantirish uchun faktlarni idrok etish faktlararo aloqa asosida amaliy va nazariy farazni o‘rtaga tashlash: eksperiment, kuzatish asosida qo‘yilgan farazni isbotlash, qo‘yilgan farazning to‘g‘riligini tekshirish.

B.Navrochinskiy an’anaviy va progressiv didaktik tizimlarni taqqoslab o‘rganish natijasida darsni tashkil etishning quyidagicha yangi qolipini ishlab chiqdi: o‘quvchilarning amaliy va nazariy qiyinchiliklar bilan to‘qnashuvi: o‘rganiladigan asosiy masalani aniqlash: qo‘yilgan savolga javob topish va aytib berish chiqarilgan xulosa bo‘yicha mashq qilish.

Shunday qilib, B.Navrochinskiy muammoli ta’limini dars jarayoniga moslashtirish, uni maktab sharoitiga muvofiqlashtirish, o‘qitish jarayonini ilmiy izlanish jarayoniga yaqinlashtirish g‘oyasi uchun kurashgan progressiv didaktdir.

Selesten Frene (1896-1966). Mashhur fransuz pedagogi S.Frene maktabni bolalarga mofiqlashtirish g‘oyasini himoya qilgan didaktdir.

U ta’limning bolalarning mustaqil faoliyati sifatida sharhladi va bolalarning o‘z faoliyati, tajribasidan o‘tgan faktlar asosida o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil qilardi. S.Frene maktabida o‘rganiladigan bilimlarning mazmuni, ta’lim vositalari bolani o‘rab olgan muhitga ko‘ra belgilanadi. Maktabni bolalar faoliyat ko‘rsatadigan muassasaga aylantirish maqsadida to‘rtta laboratoriya, to‘rtta ustaxona tashkil etilgan.

S.Frene maktabi qoshida tashkil etilgan laboratoriyalarda quyidagicha ishlar bajarilgan: ma’lumotnoma, lug‘at, xaritalar ustida mustaqil ishlab, turli bilimlarni informatsiya shaklida to‘plash laboratoriyasi; hayvonlarni parvarish qilish, o‘simliklarni o‘stirish laboratoriyasi. Bu laboratoriyada bolalar turli kuzatishlar olib borib, natijalarni yozib borishgan; o‘lchash, bichish, chizish, turli mexanizmlar bilan ishlash laboratoriyasi; ximiya, fizika, biologiyadan tajribalar o‘tkazish laboratoriyasi.

S.Frene tashkil etgan ustaxonalar ham bolalarning mustaqil faoliyatiga asoslangan bo‘lib, ularda quyidagicha ishlar amalga oshirilgan: yigirish, to‘qish, tikish dastgohlarida ishlash, turli taomlarni tayyorlashga oid ustaxona: yog‘och, temirga ishlov berish ustaxonasi: badiiy faoliyatga oid ustaxona. Bu erda bolalar rasm chizish, musiqa, fotografiya, magnit lentalariga yozish ishlarini o‘rganishgan: tipografiya, poligrafiyaga oid ustaxonada bolalar o‘zlari uchun zarur kitob, risolalar, ko‘rsatma qurollarini tayyorlashgan, shunday qilib, S.Frene tashkil etgan maktab laboratoriya, sinflar esa informatsiya markazlari shaklini olgan edi.

S.Frene ustaxonalar, laboratoriyalar tajribasini umumlashtirib, ta’limning quyidagicha modelini yaratadi: sinab ko‘rish, xatolarni bartaraf etish bosqichi. Bu bosqichda bolalar o‘rganilayotgan muammo, narsa-hodisalar bilan bevosita muloqot qilishgan, o‘z faoliyatlaridagi to‘g‘ri xati-harakatlarini, faoliyat usullarini ajratib olishgan. Faoliyatni tartibga solish bosqichi. Bu bosqichda oldingi tajribalarda ajratilgan turli xati-harakatlar tartibga solingan. O‘yin vositasida ishlash bosqichi. Bu bosqichda bolalar o‘yin orqali hayotiy muammolarni yechgan, turli kasblarga oid faoliyat usullarini egallashgan.

S.Frenening pedagogik tizimida o‘quv-tarbiya ishlari o‘quv haftalari asosida rejalashtirilgan, haftalik rejalarini tuzish uchun bolalar o‘z sinflarida haftaning ma’lum kunida to‘planishgan. O‘quvchilar o‘quv dasturlarini mustaqil tahlil etib, o‘zlarini qiziqtirgan

muammolarni bir hafta uchun ajratib olishgan va hafta davomida o‘zlari tanlagan muammolar ustida o‘qituvchilar rahbarligida mustaqil ishlashgan. O‘quv haftasi oxirida bolalar o‘zlari bajargan va bajara olmagan ishlari to‘g‘risida hisobot berishgan. Shunday qilib, S.Frene tashkil etgan maktablarda o‘quv daturlari rejalari, ta’lim vositalari va uning tashkiliy formalari bolalarning mustaqil faoliyati asosida belgilangan.

Pragmatizm falsafasiga asoslangan progressiv didaktik tizimlarning qator yutuqlari bilan birga kamchiliklari ham mavjud edi: ta’limni o‘quvchilarning mustaqil faoliyati shaklida tashkil etish ko‘p vaqtni olardi. Bolalar axborot tanqisligi tufayli o‘sha davr fani,texnikasi, madaniyati, ishlab chiqarishning umumiy asoslari bilan to‘liq tanisha olmasdi: ta’lim bolalar tajribasidan o‘tgan faktlarni tahlil etish, xulosalar chiqarish yo‘li bilan tashkil etilgani sababli nazariy bilimlar ikkinchi darajali hodisa sifatida qaralardi: ta’limda turli-tuman emotsiyalar, bolalarning qiziqishlariga ko‘proq e’tibor berilardida, fan asoslarini tmizimli o‘rgatishga yetarli vaqt ajratilmasdi.

Yuqoridagi kamchiliklardan xalos bo‘lishning asosiy yo‘li psixologiya, pedagogika yutuqlari asosida didaktik hodisalarni sharhlashdir. Umuman, ta’lim, xususan, muammoli ta’lim masalalarini o‘rganishga, o‘z didaktik tizimlarini asoslashga polyak didakti Vinsenti Okon, rus didakti Issak Yakovlevich Lerner, tatar pedagogi Mirza Ismagilovich Maxmutov zamonaviy fan, ishlab chiqarish nuqtayi nazaridan yondashishdi. Bular to‘g‘risida keyingi faslda so‘z yuritiladi.

Xuddi shunday didaktik tizimlardan biri amerikalik faylasuf, psixolog hamda pedagog D.Dyui tomonidan ilgari surilgan. Bu tizim I.Gerbart tizimiga muqobil tarzda vujudga kelgan.

Shuning uchun ham u o‘quvchilarni ilmiy bilimlar bilan tizimli tarzda ta’miilash imkoniyatiga ega emas. va shu sababli ushbu tizim o‘quvchilarda qiyiichiliklarii bartaraf etish uchun muayyai izlanishlarni amalga oshirish ko‘iikmalarini etarlicha hosil qshsh olmaydi.

Zamonaviy didaktik tizim avvalgi har ikkala tizimning xatolarini chuqur tahlil qilish iatijasida vujudga kelgan. Shu bois u zamonaviy ped. amaliyotning asosini tashkil qiladi. Zamoiaviy didaktikaning ilg‘or yo‘nalishlaridan biri-ta’lim oluvchilarii kashfiyotlarni amalga oshirgan holda o‘qitishdan iborat.

Bunday tizim amerikalik psixolog va pedagog D. Brunner tomonidan ilgari surilgan. Mazkur didaktik tizimning asosini

o‘quvchilarning shaxsiy kashfiyotlarni amalga oshirgan holda bilimlarni o‘zlashtirishlariga erishish tashkil etadi. Bunda ular o‘zlari egallagan nazariy bilimlarga tayanishlari nazarda tutiladi. O‘qitishning bunday yo‘li o‘quvchilarni faol fikrlash, hukmlar chiqarish, o‘ylash, tajribalar o‘tkazish, faoliyati natijalarini shakllantirish va umushshshtirish, zarur ko‘nikma hamda malakalarni egallashlarini nazarda tutadi.

Zamonaviy didaktika bir qator o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Ulardan biri uning metodologik asosidir. Bu metodologiya fal. bilishning nazariy asoslariga tayanadi. O‘qitish metodlarini ishlab chikishda asosiy e’tibor shaxsni uyg‘un rivojlantirish nazariyasi va amaliyotiga qaratiladi.

Zamonaviy didaktik tizimlar “o‘qitish o‘qishga barobar” qolipi asosida yaratilgan bo‘lib, ularda o‘qitish va o‘qish faoliyatlarining o‘zaro kirishuvi, uyg‘unlashuvidan kelib chiqib didaktik hodisalar bayon etilgan. Bunday didaktik tizimlar sirasiga Y.K.Babanskiy, V.V.Krayevskiy kabi qator olimlarning ilmiy tadqiqotlari, amerikalik didaktlar asoslagan ochiq ta’lim tizimi, hamkorlik pedagogikasi kiradi.

Zamonaviy tizimlarda o‘qitish va o‘qish faoliyatlariga bir xil e’tibor beriladi, ular o‘rtasidagi sababiyatli va struktural bog‘lanishlar ajratiladi, ta’lim shirkat faoliyat sifatida tahlil etiladi, ta’lim zvenolari, sikllarini o‘qituvchi va o‘quvchilarning hamkorlikda qurishga e’tibor qaratiladi, didaktik hodisalar o‘qituvchi va o‘quvchining o‘zaro ta’siri nuqtayi nazaridan sharhlanadi.

Yuriy Konstantinovich Babanskiy (1927-1988). Y.K.Babanskiy 70-80-yillarda didaktika fani rivojiga, milliy pedagogik kadrlar tayyorlashga munosib hissa qo‘shgan gumanist pedagog. Uning didaktik tizimida ta’limni optimallashtirish nazariyasi alohida o‘rinni egallaydi. U didaktlar orasida birinchilardan bo‘lib, mavjud ta’lim tizimining kamchiliklarini payqadi, ta’limni har bir mintaqaning milliy xususiyatlari, madaniy va iqtisodiy rivojlanishi darajasidan kelib chiqib tashkil etish g‘oyasini himoya qildi.

Ta’limni optimallashtirish muammosini Y.K.Babanskiyning fikricha, o‘qituvchi va o‘quvchining o‘zaro ta’siri mohiyatidan kelib chiqib, ilmiy asoslash mumkin. Ta’limni optimallashtirish-o‘qituvchi va o‘quvchilarning vaqtini, ularning jismoniy hamda aqliy intilishlarini tejash maqsadida ma’lum sharoit uchun eng maqbul (samarador) ilmiy asoslangan variantni tanlash va shu variant asosida ta’limni amalga

oshirish demakdir. U optimallashtirish g‘oyasi asosida ta’limda o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatini o‘zaro uyg‘unlashtirish, bu ikkala faoliyatni bir-biriga muvofiqlashtirish metodikasini yaratdi. U didaktika tarixida birinchi bo‘lib ta’limni tizim sifatida tahlil etdi va uni “ijtimoiy talab-ta’lim jarayoni” tizimida o‘rgandi. Ana shu tizimga ko‘ra, Y.K.Babanskiy ta’lim jarayonining quyidagicha bo‘g‘inlarini ilmiy asosladi: o‘qituvchilarning ta’lim-maqsadi, vazifalarini o‘zlashtirishi, bolalarning real o‘qish imkoniyatlarini o‘rganishi (1); o‘quvchilar jamoasining tayyorgarligi, har bir o‘quvchining individual xususiyatlari asosida ta’lim mazmunini aniqlash (2); sinf jamoasining tayyorgarlik darajasi va o‘rganilayotgan o‘quv materialining xususiyatlari asosida ta’lim vositalari, usullari, tashkiliy shakllarini tanlash, ta’limni optimal rejalashtirish (3); o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro didaktik ta’siri, ta’limning harakati, uning ma’lum natija bilan yakunlanishi (4); Shu mavzuning o‘zlashtirilishini nazorat etish, bolalarning o‘z faoliyatini tekshirish (5); o‘qituvchi va o‘quvchilarning jamoa bo‘lib qilingan ishlarni tahlil etishi, bajarilmagan ishlar, hal etilmagan muammolarni belgilashi (6).

Ta’lim tizimida Y.K.Babanskiyning yozishicha, 4-bo‘g‘in “o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro didaktik ta’siri” hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Zero, ta’limning optimal varianti o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro didaktik ta’siriga ko‘ra belgilanadi, tanlangan variant asosida ta’lim amalga oshiriladi.

Y.K.Babanskiy o‘z didaktik tizimida ta’lim prinsiplari masalasini ham original bayon etgan edi. Uning yozishicha, ta’lim prinsiplari ta’lim jarayonining ma’lum nuqtayi nazari bilan daxldor: ta’limning ma’lumot, tarbiya va bolalar taraqqiyotiga yo‘nalganligi prinsipi ta’lim jarayoni maqsadiga ko‘ra belgilansa, bilimlarning ilmiyligi va tushunarliligi, sistemaliligi va izchilligi prinsiplari ma’lumot mazmuniga ko‘ra aniqlanadi.

Y.K.Babanskiy optimallashtirish nazariyasi g‘oyalaridan kelib chiqib, ta’limning qator prinsiplarini yangidan asosladi: ta’limda umumsinf, guruh va individual ishlarni optimal qo‘shib olib borish, ta’lim jarayonining samarali amal qilishi uchun optimal shart-sharoit yaratish, bolalarning o‘qishga qiziqishlarini har tomonlama rag‘batlantirish, qayta xotirlash va ijodiy ishlarning optimal bog‘liqligi. Bu prinsiplar Y.K.Babanskiy didaktik tizimida birinchi marta asoslangan edi.

Y.K.Babanskiy ta’lim metodlari masalasiga ham “o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro ta’siri” nuqtayi nazaridan yondashadi. Ta’lim metodlari ma’lumot, tarbiya va bolalar taraqqiyotiga yo‘nalgan. Ta’lim metodi, uning yozishicha, o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro bog‘liq faoliyatini tartibga solish usulidir. Ta’lim metodlarini yangicha talqin etish ularni yangicha tasnif etishga olib keldi: bolalarning o‘quv-biluv faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish metodlari. Bu metodlar, o‘z navbatida, to‘rtta guruhga ajraladi: bilimlarni og‘zaki bayon etish metodlari, induktiv va deduktiv metodlar, qayta xotiralash va muammoli izlanish metodlari, mustaqil ishlash metodlari; bolalar o‘qishini rag‘batlantirish metodlari. Bu metodlar ham o‘z navbatida ikki guruhga ajraladi: o‘qishga qiziqishini rag‘batlantirish metodlari, o‘qish-o‘rganishga oid burch, javobgarlikni tarbiyalash metodlari; ta’limni va o‘z-o‘zini nazorat etish metodlari. Bu metodlarni ham Y.K.Babanskiy uch guruhga ajratadi: og‘zaki nazorat va o‘z-o‘zini nazorat metodlari; yozma nazorat va o‘z-o‘zini nazorat metodlari; laboratoriya nazorati va o‘z-o‘zini nazorat metodlari.

Y.K.Babanskiy didaktika logikasini boyitgan olimlardan biridir. U didaktika tarixida birinchilardan bo‘lib “shaxsning real o‘qish imkoniyati” tushunchasini ilmiy asoslagan edi. Shaxsning real o‘qish imkoniyati keng tushuncha bo‘lib, quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: shaxsning o‘rgana olish layoqati, xotira va tafakkurning rivoji (1), shaxsda shakllangan muayyan malakalar: masalan, gapira olish, eshitganlarini,o‘qiganlarini so‘zlab bera olish (2), shaxsning o‘quv mehnatiga oid malakalari, masalan, o‘z faoliyatini rivojlantirish (3), shaxsning ishchanligini ta’minlay oladigan jismoniy taraqqiyot darajasi (4), shaxsning o‘qishga munosabati (5), o‘qishga ijobiy ta’sir eta oladigan shaxsiy tarbiyaviy sifatlar (6). Shaxsning real o‘qish imkoniyati tarbiyaga muhtoj. Y.K.Babanskiy shaxsning real o‘qish imkoniyati tushunchasi asosida ma’lumot mazmunini o‘zlashtirishning individual xarakterini isbotlagan edi.

Maxmutov Mirza Ismagilovich (1927). M.I.Maxmutovning muammoli ta’lim to‘g‘risidagi qarashlari uning ikkita kitobi “Muammoli ta’lim nazariyasi va amaliyoti” (Qozon, 1972), “Maktabda muammoli ta’limni tashkil etish” (Moskva, 1977)da umumlashtirilgan. “Biz ta’limning tipini aniqlashga,-deb yozgan edi M.I.Maxmutov, - o‘qituvchi va o‘quvchining o‘zaro ta’siri prinsipi nuqtayi nazaridan yondashamiz”: o‘qituvchining bilimlarni tayyor holda bayon qilishi

yoki bolalarning mustaqil faoliyatini tashkil etish yo‘li bilan bilimlarni o‘zlashtirishga qarab ta’limning-dogmatik, ko‘rgazmali bayon, muammoli tiplari ajratiladi.

Muammoli ta’lim zaminida bolalarning ijodiy faoliyati yotadi. Ijodiy faoliyat turlari asosida muammoli ta’limning uch ko‘rinishi ajratiladi: nazariy ijodkorlik-o‘quvchilarning o‘zlari uchun yangi qoida, qonuniyat, teoremani izlashi, topishi va asoslashi. Muammoli ta’limning bu ko‘rinishi nazariy xarakterdagi ijodiy topshiriqlarni yechish yo‘li bilan amal qiladi; amaliy ijodkorlik-o‘rganilgan bilimlarni yangi sharoitlarga tatbiq etish usulini egallash. Muammoli ta’limning bu ko‘rinishi amaliy xarakterdagi ijodiy topshiriqlarni echish yo‘li bilan amal qiladi; badiiy ijodkorlik-borliqni badiiy obrazlar vositasida aks ettirishdir. Muammoli ta’limning bu ko‘rinishi insho yozish, ma’lum mavzularda erkin ijod etish, rasm chizish, musiqa asari yaratish shaklida amal qiladi.

M.I.Maxmutovning fikricha, muammoli ta’limni dars jarayoniga moslashtirish uchun bolalarda mustaqil ishlash malakalarini rivojlantirmoq kerak. U mustaqil ishlash malakalari qatoriga quyidagilarni kiritadi: muammoni anglash; muammoni o‘z so‘zlari bilan aytib bera olish, uni qayta tuzish: muammoni hal qila olishga oid farazni qo‘ya bilish; farazni isbotlash usulni amaliyotga tatbiq eta olish. M.I.Maxmutov ta’limda o‘qituvchi va o‘quvchining o‘zaro ta’siri xususiyatlaridan kelib chiqib, muammoli ta’limning to‘rt xil darajasini belgilaydi; bolalarning odatdagi faolligi darajasidagi muammolilik o‘qituvchining tushuntirishi, tavsiyalari asosida qo‘yilgan muammoni hal etish; chegaralangan faollik darajasidagi muammolilik nazariy bilimlarni o‘qituvchi bayon etadi, o‘rganilgan bilimni yangi sharoitga tatbiq etishga oid topshiriqni bolalar mustaqil bajarishadi; mustaqil faollik darajasidagi muammolilik bola darslik ustida mustaqil ishlab bilimlarni o‘zlashtiradi; ijodiy faollik darajasidagi muammolilik-bu darajada muammoni bolalarning o‘zlari mustaqil tanlashadi va bajarishadi.

M.I.Maxmutov, ta’limda bolalarning mustaqillik darajasi, muammoli holat xususiyatlari asosida ta’limning quyidagicha modelini kashf etadi: muammoli holatning paydo bo‘lishi: bilishga oid qiyinchilikni sezish va muammoni qo‘yish; muammoni bajarish usulini tanlashga oid faraz; qo‘yilgan farazni isbotlash; muammoning bajarilishini tekshirish. M.I.Maxmutovning didaktik tizimida

ta’limning tashkiliy shakllari, ta’lim metodlari, vositalari, ma’lumot mazmuni inkor etilmaydi. Aksincha, muammoli ta’lim ta’limning maqsadi, vositalari, mazmuni, usullari, tashkiliy shakllariga moslashtiriladi.

Volodar Viktorovich Krayevskiy (1931). Didaktika fani tadqiqot predmetini o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro ta’siri nuqtayi nazaridan o‘rgangan olimlardan biri V.V.Krayevskiydir. O‘qitish va o‘qishning birligi ta’lim mohiyatini o‘zida aks ettirib, uning yaxlitligini ta’minlaydi, bu jarayondagi munosabatlar, bog‘lanishlarni aniqlaydi. O‘qitish va o‘qishning o‘zaro ta’siri, bog‘liqligi invariant xarakterda bo‘lib, u birlamchi hodisadir. O‘zaro ta’sir ta’lim paydo bo‘lgandan tortib to hozirgi kunlargacha o‘z ijtimoiy mohiyatini saqalb kelmoqda. Ta’limning borishi, uning amal qilishiida bir-biriga kirishadigan ikki faoliyat o‘qitish va o‘qish faoliyatlarining o‘zaro uyg‘unlashuvi, muvofiqlashuvi shart. Bu ikki faoliyatning o‘zaro ta’siridan uchinchi bir shirkat faoliyat ta’lim yuzaga keladi.

V.V.Krayevskiy ta’limning shirkat xarakteridan kelib chiqib, uning jarayoniy va mazmuniy tomonlarini ajratadi: o‘zaro ta’sir ma’lum vaqt ichida zuhur etadi, ma’lum akt, bosqichlarda amal qiladi. Uning boshlanishi, o‘rtasi va oxiri (natijasi) mavjud. Shuningdek, o‘zaro ta’sir ma’lum mazmun asosida yuz beradi. Ta’limga olib kirilgan o‘quv materiali ta’limning mazmuniy nuqtayi nazaridir.

Ta’limni yuzaga chiqaradigan faoliyatlar-o‘qitish va o‘qish bu jarayonning ikkala sub’yektiga daxldor. V.V.Krayevskiyning yozishicha, ta’lim jarayoni mohiyatini tushunish uchun o‘qitish va o‘qish faoliyatlarining xususiyatlarini anglash nihoyatda zarur.

O‘qitish-alohida olingan o‘qituvchi faoliyatining jami, uning xatti-harakatlari yig‘indisi emas. Aksincha, u o‘qitish ishlari bilan mashg‘ul shaxslarning barchasi uchun umumiy faoliyatdir. Yanada umumiylashtirib aytganda, o‘qitish bashariyat faoliyatining alohida sohasidir. Xuddi shunga o‘xshab, o‘qish ham alohida Vali yoki Vanyaning faoliyati emas. Aksincha, o‘qish ham o‘rganish, izlanish ishlari bilan mashg‘ul yoshlarning faoliyatidir. Shu tezislarga asoslanib, V.V.Kraeyvkiy o‘qitishni ham, o‘qishni ham jamoa (kollektiv) sub’yektlarning faoliyati sifatida sharhlaydi.

O‘qitish va o‘qishni ikki jamoa (kollektiv) suby’ekt faoliyati sifatida tavsiflash, o‘z navbatida, didatikada quyidagicha yangi qarashalarning shakllanishiga sabab bo‘ladi.

Birinchidan, didaktika alohida o‘qituvchining faoliyati bilan shug‘ullanmaydi. U o‘qitish ishlari bilan mashg‘ul barcha o‘qituvchilar faoliyatining umumiy tomonlarini o‘rganadi. Alohida olingan o‘qituvchining faoliyati, qobiliyati, tafakkuri, inidividual xususiyatlarini psixologiya o‘rganadi. Shuningdek, didaktika alohida o‘quvchining faoliyatini emas, aksincha, o‘qish ishlari bilan mashg‘ul yoshlar faoliyatining umumiy tomonlarini tadqiq qiladi. Ta’limning ruhiyaviy tomonlari (xotira, tafakkur, emotsiyalar va sh.k.)ni sharhlashda didaktika psixologiya fani yutuqlariga tayanadi. Psixologiya didaktika uchun amaliy fandir. Shularga ko‘ra, V.V.Krayevskiy ta’limga psixologik va didaktik yondashishining farqlarini chegaraladi.

Ikkinchidan, o‘qitish va o‘qish jamoa (kollektiv) sub’yektlar faoliyati sifatida o‘zaro uyg‘unlashib, uchinchi bir yaxlit faoliyatni-ta’limni yuzaga chiqaradi. Ta’limni tashkil etish, boshqarish, nazorat etishning asosiy prinsipi-subordinatsiya yagona prisip bo‘lmay qoldi. Ta’limda ikkala sub’yekt faoliyatini o‘zaro uyg‘unlashtirishning yana bir prinsipi koordinatsiyaning mavjudligini tan olish imkoniyati tug‘ildi. Ikkala sub’yekt faoliyati o‘zaro muvofiqlashgandagina ta’lim amalga oshadi. Demak, ta’limni o‘qituvchining o‘quvchi bilan birga qurishi, birga amalga oshirishi mumkinligi isbotlandi.

Uchinchidan, didaktikaning tadqiqot predmeti munozara bahsini yangicha sharhlash, uni ikki sub’yekt (o‘qitish o‘qishga barobar) faoliyatining o‘zaro uyg‘unlashuvi kontekstida qarash imkoniyati tug‘ildi. Didaktikaning munozara bahsini yangicha talqin etish V.V.Krayevkiyni ta’lim to‘g‘risida quyidagicha xulosalarni chiqarishga olib keldi: ta’lim-bu

-ma’lumotga, binobarin, ijtimoiy maqsadni amalga oshirishga yo‘nalgan,

-ilmiy asoslangan loyihalar (dastur, darslik va sh.k.) asosida amalga oshiriladigan,

-jarayoniy va mazmuniy nuqtayi nazarlarni o‘zida mujassamlashtirgan,

-turli munosabatlarni ta’lim, o‘qitish, o‘qish, ta’lim loyihasi kabi didaktik kategoriyalarda aks ettiradigan,

-jamoa (kollektiv) sub’yektlar faoliyatida yuzaga chiqaradigan,

- tadqiq qilish (o‘rganish) va qurish (tuzish) obyekti bo‘la oladigan faoliyatdir.

Ochiq ta’lim tizimi. Ochiq ta’lim tizimi XX asrning 60-70 yillarida dastlab Angliyada, keyinchalik Amerikada paydo bo‘ldi. Ochiq ta’lim tizimiga ko‘ra, bolalar o‘z tengdoshlari bilan bevosita muloqotda bo‘lishadi, o‘zlarini qiziqtirgan muammolarni birgalikda mustaqil tanlashadi, tanlangan muammoni hamkorlikda hal etishadi. Bu tizimda bolalarning o‘zaro yordami man etilmaydi, aksincha, ta’lim o‘zaro yordam, musobaqalashuv yo‘li bilan amalga oshiriladi. Ta’limni tashkil etish, boshqarishga shu yo‘sinda yondashuv o‘quvchilar o‘rtasidagi raqobatni yo‘qotadi, ularning bir-biriga hurmatini oshiradi.

Amerikalik olimlardan R.Xorvits, K.Karpenter o‘tkazgan ilmiy tadqiqotladra ochiq ta’lim tizimi klassik tizimlarga taqqoslab o‘rganilgan. Bu ikki xil yondashish bo‘yicha ishlagan o‘qituvchilar o‘z o‘quv predmetlari bo‘yicha bir xil o‘zlashtirish berishgan. Ammo ochiq ta’lim tizimi asosida o‘qigan yoshlar klassik tizimlar asosida tayyorlangan bolalarga nisbatan o‘z oldiga qo‘yilgan muammolarga ijodiy yondashishgan, ularda birga ishlash ishtiyoqi paydo bo‘lgan, mustaqillik yuqori darajada rivojlangan.

P.Massena, A.Xyustonlarning yozishicha, ochiq ta’lim tizimi bir to‘g‘ri chiziqning uchlarida joylashgan ikki xil metodikadir. Chiziqning bir uchida o‘qituvchining tushuntirishi, aytib berishi, qilib ko‘rsatishi, tavsiyalari asosida bajariladigan topshiriq tursa, ikkinchi uchida bolalarning o‘z xohishlari bo‘yicha tanlanadigan va mustaqil bajariladigan topshiriqlar turadi. To‘g‘ri chiziqning ikki uchi orasida ko‘p nuqtalar bo‘lganidek, bu ikki xil metodika o‘rtasida ta’limning juda ko‘p samarador variantlari, usullari, vositalari mavjud. O‘qituvchi bolalar oldiga o‘zi qo‘ygan yoki bolalar o‘z xohishi bo‘yicha tanlangan topshiriq mohiyatidan kelib chiqib, ta’limni turli yo‘llar bilan amalga oshiradi: topshiriqni bajarish usullari, yo‘llarini to‘liq tushuntiradi (1), ayrim topshiriqni bolalarning o‘zlariga mustaqil bajarish uchun beradi (2), boshqa bir variantda mustaqil ishning o‘ta murakkab qismini o‘zi tushuntirib, qolgan osonroq qismini hal etishni o‘quvchilarga buyuradi (3).

Sinfda o‘zaro yordam, hamkorlikni ta’minlash maqsadida bolalar guruhlarga ajratiladi. Dastur va darsliklar barcha o‘quvchilar uchun bir xil. Mashg‘ulotlar guruhlar o‘rtasida musobaqa, estafeta shaklida o‘tkaziladi. Har bir guruhda topshiriqlar bajarilgach, qilingan ishlarning natijasi birgalikda muhokama etiladi. Demak, ochiq ta’lim tizimi o‘zaro

bir-biriga bilim berish asosida amal qiladigan zamonaviy didaktik tizimdir.

Hamkorlik pedagogikasi. Hamkorlik pedagogikasi xx asrning 80-yillarining boshida sobiq SSSR hududida shakllangan bo‘lib,u ochiq ta’lim tizimining rivojlangan ko‘rinishdir. Hamkorlik pedagogikasi namoyondalari o‘z qarashlarini asoslash uchun klassik va progressiv didaktik tizimlarni tanqid etishadi: ta’limning asosiy harakatlantiruvchi kuchi o‘quvchidir. O‘qituvchi aytadi, so‘raydi, talab etadi, tanqid etadi, ma’qullaydi, qoralaydi, majbur etadi, tekshiradi; u doimo qat’iy, kulmaydi, bolalarga tabassum qilmaydi. O‘quvchilar o‘qituvchi aytgan ishlarni bajarishadi, ular ijrochilardir. O‘quvchi ijrochi rolida ishtirok etgan ta’lim jarayonida o‘quv-tarbiya ishlarining samaradorligini oshirish mumkin emas.

Hamkorlik pedagogikasi targ‘ibotchilari faoliyatida pedagogik nazariya va pedagoik amaliyotning qator jumboqli masalalari hal etildi: Sh.A.Amonashvili 6 yashar bolalarni o‘qitish tajribasi asosida ta’limda ijtimoiy qimmatga ega motivlarning rolini, ularning bola shaxsini rivojlanishidagi o‘rnini asosladi; S.N.Lisenkova boshlang‘ich sinf o‘quvchilari faoliyatini boshqarishning original usulini kashf etdi. U o‘qitgan boshlang‘ich sinflarda bolalar o‘quv mehnati sohasidagi o‘z yutuqlaridan sevinishadi, bolalar tayanch sxemalarga rioya qilishib, o‘zlarining yutuq va kamchiliklariga izoh berishadi; V.F.Shatalovning ilmiy-pedagogik va amaliy faoliyatida pedagogik jarayondagi eng mushkul masalalardan biri bolalarda har kuni aqliy mehnat bilan shug‘ullanish ko‘nikmasini shakllantirish muammosi hal etildi. U ishlagan sinflarda o‘quvchilarning o‘z shaxsiy shanini anglash, o‘z kuchi va qobiliyatiga qat’iy ishonchini hosil qilish, mustaqillikni shaxsiy sifatga aylantirish kabi didaktik muammolar ham amaliy, ham nazariy isbotlandi.

3.2.Shaxsni rivojlantiruvchi ta’lim nazariyasini ishlab chiqishga zamonaviy yondashuvlar

Bugungi kunda shaxsni rivojlantiruvchi ta’lim nazariyasi amaliyotida quyidagi yondashuvlari keng tarqalgan:

1. An’anaviy yondashuv (bilim).
2. Ratsionalistik (bixevioristik) yondashuv.
3. Fenomenologik (gumanistik) yondashuv.
4. Texnokratik yondashuv.
5. Ezoterik yondashuv.

Ayni vaqtda yuqorida ko‘rsatilgan ta’lim yondashuvlarini belgilashga nisbatan uch xil qarash mavjud:

1. Qadriyatli (aksiologik) — madaniyat inson hayotining mazmuni sifatida tushuniladi.

2. Faoliyatli asosan madaniyat moddiy va ma’naviy boyliklarini yaratishga yo‘naltirilgan faoliyatning sinalgan usullari sifatida talqin etiladi.

3. Shaxsiy— madaniyat muayyan shaxs timsolida namoyon bo‘ladi.

Madaniyatga nisbatan turli yondashuvlarning mavjudligi bir qator yondashuvlarning yaratilishiga zamin yaratadi.

Har bir yondashuv muayyan ta’limiy muammolarni hal etishga yo‘naltiriladi. Xususan:

- ijtimoiy institut sifatida o‘quv muassasalarining vazifalari;
- ta’limning samarali tizimi;
- o‘quv yurtlari oldida turgan eng muhim, ustuvor masala;
- ta’limning ijtimoiy ahamiyatli maqsadlari;
- muayyan bilim, ko‘nikma va malakalarning qimmatli hisoblanishi.

Ayni vaqtda quyidagi yondashuvlar mavjud:

1. Bilim olishning an’anaviy yondashuvi (J.Majo, L.Kro, J.Ka’el va boshqalar)

Unga ko‘ra ta’limning asosiy maqsadi — «Bilim, qanchalik qiyin bo‘lmasin bilim olish». An’anaviy yondashuv maktabning maqsadi yosh avlodga individual rivojlanishi hamda ijtimoiy tartibni saqlab qolishga yordam beruvchi madaniy meroslarning muhim elementlari — bilim, ko‘nikma va malakalar, ilg‘or g‘oyalar va qadriyatlami saqlab qolish hamda ularni yoshlarga etkazish muhim ekanligini yoritadi. Bilim olish yondashuvsining asosiy maqsadi: ta’lim olish, taraqqiyot va madaniyatning eng muhim elementlarini avloddan-avlodga etkazish.

2.Ratsionalistik (bixevioristik) yondashuv (P.Blum, R.Gane, B.Skinner va boshqalar). Ratsionalistik yondashuv diqqat markazida ta’lim mazmuni emas, balki o‘quvchilar tomonidan turli bilimlarning o‘zlashtirilishini ta’minlovchi samarali usullari yotadi. Ta’limning ratsionalistik modeli asosini B.Skinnerning ijtimoiy injeneriya bixevioristik (inglizcha *behavior* — xulqi) konsepsiyasi tashkil qiladi.

Maktabning maqsadi — o‘quvchilarda g‘arb madaniyati ijtimoiy qoidalari, talablari va ko‘zlagan maqsadlariga mos keladigan

moslashtiruvchi «xulqiy repertuar»ni shakllantirishdir. Shu bilan bir vaqtda, «xulqi» atamasi bilan «insonga xos hamma ta’sirlanishlar — uning fikrlari, sezgi va harakatlari» ifodalanadi (R.Tayler).

Bunda ta’limning asosiy metodlari, o‘rgatish, trening, test sinovlari, individual ta’lim, tuzatishlari bo‘lib qoladi. Buning oqibatida, ta’limninggina emas, balki dars berishning ham ijodiy xarakterini aniqlash muammosi muhokama qilinmaydi.

P.Blum barcha o‘quvchilar faqat o‘zlashtiribgina qolmay, balki muvaffaqiyatli o‘qishlari mumkin deb hisoblaydi. O‘quvchining optimal qobiliyatlari ma’lum sharoitlarda, o‘quvchiga ta’lim berish natijasi uning sur’ati bilan aniqlanadi. Olimning fikricha, ta’lim oluvchilarning 95 foizi ta’lim muddatlariga bo‘lgan cheklashlar olib tashlanganda o‘quv kursining butun mazmunini o‘zlashtirib olishga qodirlar. Ana shu nuqtayi nazardan o‘quvchilar tomonidan bilimlarning muvaffaqiyatli o‘zlashtirishini ta’minlovchi metodika ishlab chiqiladi, uning mohiyati quyidagichadir:

1. Butun sinf yoki kurs uchun to‘la o‘zlashtirish etaloni, mezonini aniq belgilab olish asosida, o‘qituvchi ta’lim yakunida erishilishi kerak bo‘lgan aniq natijalarning ro‘yxati va unga muvofiq keluvchi testlarni tuzadi.

2. O‘quv birliklari, ya’ni, o‘quv materiallarining yaxlit bo‘limlari ko‘rsatiladi, ularni o‘zlashtirish natijalari aniqlanadi, yakuniy bahoga ta’sir ko‘rsatmaydigan navbatdagi testlar tuziladi. Bu testlarning vazifalari — tuzatish, korreksiyalashdan iborat.

3. To‘la o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan har bir o‘quv kurs materiallarini o‘zlashtirish darajasini baholash uchun test sinovlarini o‘tkazish. Bu o‘rinda har bir o‘quvchiga baho va ta’lim maqsadlarining ahamiyatini tushuntirish muhim.

Predmetlarni bo‘sh va o‘rtacha o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarning qobiliyatlarini jadal rivojlantirish P.Blum konsepsiyasining asosiy mazmunini tashkil etadi.

Turli mamlakatlarning (Avstriya, Belgiya, AQSh va boshqalar) ta’lim tizimlari tajribasi ratsionalistik (bixevioristik) yondashuv g‘oyalariga muvofiq ish ko‘rilganda 70% o‘quvchilar yuqori natijalarni qayd etganliklarini ko‘rsatadi.

Yuqorida qayd etilgan ta’lim yo‘nalishlari o‘zida insonparvarlik g‘oyalarini ifoda etmagan, ular bola dunyoqarashining rivojlanishi,

shaxsning rivojlanishida shaxslararo munosabatlarning muhim o‘rin tutishini nazarda tutmaydi.

3. Gumanistik (fenomenologik) yondashuvga ko‘ra (A.Maslov, A.Kombs, K.Rodjers, L.S.Vigotskiy va boshqalar) ta’lim oluvchi erkin shaxs, ijtimoiy munosabatlar subekti sifatida o‘ziga xos rivojlanish imkoniyatlariga ega. Ular bolani rivojlantirish maqsadida uni shaxslararo munosabatlar jarayoniga yo‘naltiradi. Ta’limning fenomenologik (fenomen yunoncha «phainomenon» — hisoblangan, ya’ni, mashhur, alohida nodir odam) modeli o‘quvchilarning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olib, ularning talab va qiziqishlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lishni ko‘zda tutadi. Uning vakillari o‘quvchini nodir shaxs deb hisoblaydilar. Gumanistik yondashuv doirasida faoliyat olib boruvchi har bir ta’lim tizimi ijodiy rivojlanadi va o‘quvchi hamda o‘qituvchining erkinligi va ijodkorligini yoqlaydi.

Gumanistik yondashuv g‘oyalari 1991-yildan keyin respublika uzluksiz ta’lim tizimiga joriy etila boshlandi. Yondashuvning diqqat markazida o‘quvchining barkamol rivojlanishi, uning intellektual ehtiyojlari, “erkin fikrlaydigan shaxsni tarbiyalash” masalasining ijobiy hal etilishi yotadi. Ayni vaqtda, respublika ta’lim muassasalarida quyidagi g‘oyalarga amal qilinmoqda: “Demokratik jamiyatda bolalar, umuman har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi. Agar bolalar erkin fikrlashga o‘rganmasa, berilgan ta’lim samarasi past bo‘lishi muqarrar. ... Mustaqil fikrlash ham katta boylikdir”.

4. Ezoterik yondashuv (yunoncha “esoterikos” ichki, sirli, yashirin, faqatgina biluvchilar uchun mo‘ljallangan insonning dunyo bilan o‘zaro aloqalari yuksak darajalarini aks ettiradi). Modelning mohiyati haqiqat abadiy va o‘zgarmas, doimiy ekanligini ta’kidlashdan iborat. Yondashuv tarafdorlari haqiqatni bilib bo‘lmasligi, unga faqatgina fahmlash asosida erishish mumkinligini ta’kidlaydilar. Pedagogik faoliyatning oliy maqsadi koinot bilan muloqot, o‘quvchining tabiiy kuchlarini ozod etish va rivojlantirishdan iborat. Shu bilan biiga, o‘qituvchining himoyalash vazifasi muhimdir, u o‘quvchining mavjud imkoniyatlarini uni ma’naviy, jismoniy, psixik jihatdan rivojlantirishga yo‘naltiradi.

5. Ilmiy-texnik, texnokratik yondashuvning asosiy maqsadi amaliyotni takomillashtirish asosida ta’lim oluvchilarga “aniq” ilmiy bilimlarni berish va ularning o‘zlashtirilishini ta’minlashdir. Bilim

kuchdir, shu bois shaxs qimmati uning o‘rganish, bilim olish, imkoniyatlari bilan belgilanadi. Shaxs muayyan (o‘rtacha, standartlashtirilgan) bilim yoki xulq-atvor egasi bo‘lsagina qadriyat sifatida e’tirof etiladi degan g‘oya ushbu yondashuvning asosini tashkil etadi.

So‘nggi yillarda noinstitutsional yondashuv rivojlana boshladi. U ta’limni ijtimoiy institutlar, ya’ni, maktab va oliy ta’lim muassasalaridan tashqarida tashkil etish g‘oyasini ilgari suradi. Bu ta’lim “tabiatda” — Internet, “ochiq maktablar” — komputerlar vositasida ta’lim dasturlariga (masofadan o‘qitish) muvofiq o‘qitish samarali deya hisoblaydi.

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savollar hamda topshiriqlar:

1. Didaktik tizim nima?
2. An’anaviy didaktik tizimning mohiyatini izohlang.
3. Progressiv didaktik tizim haqida ma’lumot bering.
4. Zamonaviy didaktik tizimlari “o‘qitish=o‘qish” qolipiga ko‘ra tavsiflang.
5. Yu.K.Babanskiy, M.I.Maxmutov, V.V.Kraevskiylar asoslashgan didaktik tizimlarni o‘zaro taqqoslab, ularning barchasi uchun umumiy va har birining o‘ziga xos xususiyatlarini aytib bering.
6. Pedagogikada zamonaviy yondashuvlar haqida ma’lumot bering.
7. An’anaviy yondashuv (bilim)ni ta’riflang.
8. Ratsionalistik (bixevioristik) yondashuv nima?
9. Fenomenologik (gumanistik) yondashuvni izohlang.
10. Texnokratik va ezoterik yondashuvlar haqida ma’lumot bering.
11. Didaktikaning taraqqiyot bosqichlariga keltirilgan birikmalardan foydalanib referat tayyorlang.
a) o‘qitish > o‘qishdan
b) o‘qish > o‘qitishdan
v) o‘qitish = o‘qish

4-MAVZU. PEDAGOGIK FANLARNI O‘QITISH JARAYONI YAXLIT TIZIM SIFATIDA

Tayanch so‘zlar: *tizim, yaxlit tizim, ta’lim jarayoni, pedagogik jarayon, rivojlanish dinamikasi, o‘qituvchi faoliyati, o‘quvchi faoliyati, bilimlarni egallash bosqichlari.*

4.1. Pedagogik fanlarni o‘qitish jarayoni mohiyati va uning vazifalari.

Tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o‘zaro tashkiliy hamkorlikda faoliyat ko‘rsatuvchi barcha ko‘rinishdagi maktabgacha tarbiya, o‘rta umumiy ta’lim maktablari, o‘rta maxsus o‘quv yurtlari, oliy o‘quv yurtlari, maktabdan tashqari tarbiya muassasalarining o‘zaro uzviylikdagi bog‘liqlik pedagogik tizim deyiladi.

Tizim (mustaqil tushuncha sifatida) o‘zaro bog‘langan ko‘plab elementlar (tarkibiy qismlar) o‘rtasidagi mustahkam birlik va o‘zaro yaxlitlikdir. Demak, ta’lim yaxlit tizim sifatida ko‘plab o‘zaro bog‘liq quyidagi elementlarni o‘z ichiga oladi: ta’lim maqsadi, o‘quv axborotlari, o‘qituvchi va o‘quvchilarning ta’limiy faoliyatlari, uning shakllari, pedagogik muloqot vositalari, shuningdek, ta’lim jarayonini boshqarish usullari.

Ta’lim jarayoni yaxlit tizim sifatida quyidagicha namoyon bo‘ladi:

Pedagogik jarayonning rivojlanish dinamikasi uning ichki harakati, tarbiyachi bilan tarbiyalanuvchi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar xarakteriga, o‘zaro tahsir kuchiga bog‘liq.

Pedagogik jarayonni tashkil etishning o‘ziga xosligi: tarbiya obyekti bir vaqtning o‘zida tarbiya subyekti ham hisoblanadi. O‘zaro faollikka asoslangan pedagog va tarbiyalanuvchi o‘rtasidagi hamkorlik pedagogik o‘zaro ta’sir tushunchasini to‘laroq aks ettiradi.

Sub’ekt bilan obhekt o‘rtasida turli-tuman aloqalar mavjud:

Axborot xarakterida (o‘zaro axborotlar almashinib turish).

1. Tashkiliy faoliyat aloqalari (o‘zaro birgalikdagi faoliyat).
2. Kommunikativ aloqalar (muomala, munosabat).
3. Boshqaruv va o‘z-o‘zini boshqaruv aloqalari.

Pedagogik jarayonning asosiy elementlari: maqsad, vazifa, vosita va natija. Vosita keng mahnoda mazmun, shakl va usullarni o‘z ichiga

oladi. Pedagogik jarayonni harakatlantiruvchi kuchlar: qo‘yilgan talablar bilan tarbiyalanuvchi imkoniyatlari o‘rtasidagi ziddiyatlardir. Xuddi shu qarama-qarshilik rivojlanish uchun asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Ta’lim-tarbiya tizimida barcha maqsad va vazifalarni, shuningdek, uning tarkibiy qismlarini kompleks hal etishga yo‘naltirilgan jarayon yaxlit pedagogik jarayon sifatida qabul qilingan.

Yaxlit pedagogik jarayonning tashqi qonuniyatlari:

1. Pedagogik jarayonning maqsadi nafaqat ta’lim va tarbiya vazifalarini qamrab oladi, balki pedagogni ham, o‘quvchi shaxsini ham har tomonlama barkamol qilib rivojlantirishni o‘z ichiga oladi.

2. Yaxlit pedagogik jarayon, uning maqsad-vazifalari, mazmuni, shakl va metodlari jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlaridan kelib chiqadi va u jamiyatning mafkurasi va siyosatiga bog‘liq.

3. Pedagogik jarayonning maqsad va vazifalari nafaqat shaxs ehtiyojiga, balki uning imkoniyatlariga ham bog‘liq bo‘lib, bu uning tashqi belgilaridir.

Yaxlit pedagogik jarayonning ichki qonuniyatlari:

1. Ta’lim-tarbiya va rivojlanish o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik.
2. Tarbiya va o‘z-o‘zini tarbiyalash o‘rtasidagi bog‘liqlik.
3. Shaxs faoliyati bilan uning munosabati o‘rtasidagi bog‘liqlik.
4. Shaxs va jamoa o‘rtasidagi bog‘liqlik.
5. Shaxsning imkoniyatlari bilan pedagogik tahsir o‘rtasidagi bog‘liqlik.
6. Vazifa, mazmun, shakl va metodlar o‘rtasidagi bog‘liqlik.

3.Yaxlit pedagogik jarayon bosqichlari .

4.2.Ta’lim jarayonining tuzilishi

Jarayon sifatida ta’lim uch element (belgi) birikmasidan iborat: o‘qitish (o‘rgatuvchining ta’lim berish faoliyati), o‘qish (ta’lim oluvchining bilish faoliyati) va ta’limning mazmuni (ularning birgalikdagi o‘rganish obyekti).

O‘qitish, yoxud o‘rgatuvchi faoliyati, bilim oluvchilar faoliyatlarini boshqarish, ya’ni o‘quvchilarning o‘quv ishlarini uyushtirish, ularning bilish (idrok, xotira, diqqat, tafakkur, tasavvur) jarayonlariga rahbarlik qilish, nazorat uyushtirish, ma’naviy-axloqiy sifatlarini tarkib toptirishni nazarda tutadi.

O‘qish yoki o‘rganish, o‘quv faoliyati, bilim, ko‘nikma, malakalarni o‘zlashtirishning murakkab jarayoni bo‘lib, o‘quvchining aql-zakovati, irodaviy va jismoniy kuch-g‘ayrati, intilishlari asosida tarkib topadi va rivojlantiriladi.

O‘qitish jarayonining bu ikki elementa (o‘qitish va o‘qish) bir maqsad: ta’limning xilma-xil vositalari va metodlaridan foydalanib, o‘quv-tarbiya ishlarini jadallashtirish, ijtimoiy buyurtmani bajarishga qaratilgan. Shunga ko‘ra bu jarayonda shaxsning qobiliyatlari, fazilatlari, ma’naviy-axloqiy sifatlari, bilish qobiliyatlari (tafakkur, xotira, xayol, iroda va h.k.) rivojlanadi, bo‘lajak kasb egalarida tashabbuskorlik, ijodkorlik, tadbirkorlik, ishbilarmonlik shaklanadi va o‘quv mehnati madaniyati tarbiyalanadi.



Jadvaldan shu narsa ko‘zga tashlanadiki, yagona maqsad - shaxsni shakllantirishni amalga oshirish ta’lim-tarbiyaning tashkil etuvchilari ya’ni ularning barcha elementlari-ta’lim maqsadi, ta’lim vazifalari, ta’lim beruvchi, ta’lim oluvchi, ta’lim mazmuni, metodlari, shakllari, vositalari, mustaqil o‘quv topshiriqlari, mustaqil faoliyat, nazorat, o‘z- o‘zini nazorat orqali o‘z natijasiga erishiladi. Shunday ekan ta’lim-tarbiyani alohida elementlarga bo‘lib emas, balki yaxlit holda karash va amalga oshirish ta’lim-tarbiya jarayoni oldiga qo‘yilgan maqsadga erishishning yo‘lini yaqinlashtiradi. Chunki,

yuqorida kayd kilib o‘tganimizdek, voqelikdagi barcha narsalar yaxlit tizim sifatida bir-biriga chambarchas bog‘langan. Ulardan birortasining funksiyasi buzilsa, yoki birortasi ishlamay qolsa maqsadga erishilmaydi. Masalan, mashina dvigatelining yonilgi uzatgich tizimini olaylik, uning yonilg‘i uzatuvchi elementlaridan birortasi ishlamay qolsa, yoki yomon ishlasa dvigatel yonilgi bilan ta’minlanmaydi, natijada mashinaning o‘t oldirishi qiyinlashadi yoki o‘t olmaydi.

Tajriba shuni ko‘rsatmoqdaki, ta’lim jarayonining muhim elementlaridan biri ta’lim mazmuni qancha murakkablashtirilib, uni ta’lim oluvchilarga etkazish yo‘li aniqlashtirilsa, kuchli intellekt va yuksak ma’naviy salohiyatga ega bo‘lgan shaxsni shakllantirish osonlashadi. Bu ko‘p jihatdan yangi pedagogik texnologiyalarni loyihalash va ta’lim-tarbiya amaliyotiga tadbiq etish bilan uzviy bog‘likdir.

O‘qitish jarayonining tuzilishi



Jadvaldan shu narsa ko‘zga tashlanadiki, o‘quv jarayonida ta’lim maqsadlari va mazmuni umumiy tarzda qo‘yilmoqda va u ta’lim elementlari (o‘quv maqsadi, o‘qish, o‘qitish va baholash)ni belgilab bermoqda. Umumiy laqsad va mazmun, o‘quv maqsadlarini aniqlashtirish orqali ifodalanib, o‘qish, o‘qitish ishlari yo‘lga qo‘yilyapti va nihoyat bilim olayotganlarning o‘zlashtirish darajasi dastlabki sinovdan o‘tkazilyapti hamda yo‘l qo‘yilgan xatolarni tuzatish o‘quv maqsadi, o‘quvchi, o‘qituvchi diqqatiga havola etilib, o‘quv sohasi bo‘yicha bajariladigan ishlar tizimiga tuzatishlar kiritilyapti. Eng muhim xususiyat, o‘qish-o‘qitish jarayoniga tuzatish kirituvchi, teskari aloqa yo‘lga qo‘yilyapti. Bu an’anaviy ta’limda ko‘zda tutilmagan bo‘lib pedagogik texnologiyalarga akmeologik-yondashuvning o‘ziga xos xususiyati, ya’ni o‘quv jarayonining kafolatlangan natijaga erishish maqsadi amalga oshayapti.

Didaktika fanining nazariy asoslariga ko‘ra o‘quv jarayoni uchta bir- biri bilan bog‘lik o‘qitishning tarkibiy qismlaridan tashkil topgan: 1. Motivlar (M); 2. O‘quvchining o‘qish faoliyati (O‘F); 3. O‘qituvchining boshqaruvchilik faoliyati (BF). Shunday qilib, o‘quv jarayonini kuyidagi formula tarzida ifodalash mumkin. Buni oldindan rejalashtirish yoki o‘quv jarayonini loyihalashtirish deb ataydilar. Pedagogik texnologiyaning bu qismi amalda qo‘llanilganda ta’limning tabiatga uyg‘unlik qoidasiga asoslansa, ya’ni o‘qituvchining tabiiy xususiyatlari - qiziqishi, istak-xohishi, ehtiyoji, qobiliyati, aqliy kuchlari hisobga olinsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. O‘quv mashg‘ulotlarini loyihalashtirishda mazkur holat hisobga olinishi lozim.

4.3. O‘qitish va o‘qish jarayonlari tavsifi, o‘quv jarayonida ularning o‘zaro bog‘liqligi.

Didaktikaning bahs mavzusi o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatini, ularning vazifalarini, ular o‘rtasidagi munosabatlarni o‘quv jarayonining ishtirokchilari sifatida qarab chiqish hisoblanadi.

O‘qitish jarayonining mohiyati bilish jarayonining qarama-qarshiligidadir.

O‘qitish jarayoni deganda o‘quvchilarni bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirishga, ularning rivojlanishi va tarbiyasiga qaratilgan umumiy maqsadni amalga oshirish uchun o‘qituvchi va o‘quvchilarnnng birgalikdagi murakkab mehnati jarayoni tushuniladi.

Bilish nazariyasining birligi to‘g‘risidagi qoidaga amal qilgan tadqiqotchilar shuni tasdiqlab berdilarki, ta’lim jarayoni bilish jarayonining o‘ziga xos sharoitda sodir bo‘ladigan turli-tuman faoliyatlar ko‘rinishidir.

O‘quv jarayonida yangilik yaratish, ixtiro qilish talab qilinmaydi, balki tayyor bilimlarni ijodiy o‘zlashtirish yo‘lga qo‘yiladi. Ushbu jarayon zamirida olimlar tomonidan uzoq yillar davomida olib borilgan tadqiqotlar natijalarini tezkor bilish jarayoni yotadi. Bilimlarning juda ko‘plab ko‘rinishlari o‘quvchilar tomonidan, bevosita o‘rganilmaydi, balki o‘qituvchi yordamida tezkor bilish yo‘llaridan foydalangan holda amalga oshiriladi.

Haqiqatga etishish o‘ta murakkab dialektik jarayondir. Dialektikasiz bilishning o‘zi, uning rivojlanishi bo‘lmaydi. Bilishda jarayonlarning bog‘liqligi, Ya’ni ichki butunlik va ular elementlarining o‘zaro bog‘liqligi mavjud.

Lekin bilish dialektikasining mohiyati, eng avvalo, uning ichki qarama-qarshiligidadir. Dunyodagi barcha jarayonlar bilish shartlarida, ularning ichki harakatida, o‘z-o‘zining harakatida, barcha ziddiyatlarning o‘zaro bog‘liqligidadir. Shuningdek, bilish o‘zgaruvchanlikda, rivojlanishda, uzluksizlikda, sakrovchan, doimo bir ko‘rinishdan ikkinchi ko‘rinishga o‘tib turishda namoyon bo‘ladi.

O‘qitish jarayonini harakatlantiruvchi asosiy qarama-qarshiliklar doimiy murakkablashib, qiyinlashib borayotgan talablar bilan o‘quvchilar imkoniyatlari (bilim darajasi, rivojlanganligi, motivlar, usullarni egallash darajasi) o‘rtasidagi ziddiyatlardir. Bu qarama-qarshilik o‘zini mazmun (bilim, ko‘nikma)da, qo‘zg‘atuvchi usullar va operatsiyalar (bilish usullari)da namoyon etadi.

Bu qarama-qarshiliklar quyidagilardir:

1. O‘quvchilarning oldingi bilimlari darajasi bilan yangi bilimlar o‘rtasidagi;
2. Bilimlar bilan uni qo‘llash o‘rtasidagi;
3. Yangi qo‘yilayotgan talablar bilan oldin o‘quvchilarda mavjud bo‘lgan bilish va o‘qitishga munosabat o‘rtasidagi;
4. Yangi bilish vazifalarini hal etish uchun ilgari surilayotgan metodlar bilan oldin egallangan bilish usullari, yo‘llari o‘rtasidagi ziddiyatlar.

Har qanday bilish amaliy jarayonda ro‘y beradi, chunki amaliyot nazariy bilishdan yuqoridir, ya’ni u faqat umumiylik qiymatiga ega bo‘libgina qolmay, balki bevosita voqelik qiymatiga ham egadir. Jonli muloqotdan abstrakt tafakkurga va undan amaliyotga - haqiqatni bilishning, obektiv reallikni bilishning dialektik yo‘li mana shu.

Sezish ongning tashqi dunyo bilan bevosita bog‘lanishidir, tashqi ta’sir energiyasining ong faktiga aylanish jarayonidir.

Idrok voqelikdagi mavjud narsa va hodisalarning inson ongida yaxlit holicha aks etishidir.

Tasavvur sezgi va idrok qoldirgan iz bo‘lib, u bosh miya po‘stlog‘ining plastikligi tufayli odam ongida uzoq vaqt saqlanib qoladi.

O‘qituvchi faoliyatining vazifasi va tuzilishi.

Ta’lim muassasasi (umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb —hunar, oliy ta’lim muassasalari)da tashkil etiluvchi ta’lim jarayonida o‘quvchining faoliyati o‘qituvchi rahbarligi ostida kechadi.

O‘qituvchi faoliyatining vazifasn o‘quvchilarning ijtimoiy borliqni ongli va faol idrok etishga yo‘naltirilgan faoliyatlarini boshqariihan iboratdir.

Ta’lim jarayonini boshqarish quyidagi bosqichlardan iborat:

1) loyihalashtirish;
2) rejalashtarish:
2) tashkil etish:
3) boshqarish (rag‘batlantirish);
4) nazorat;
5) natijalarni baholash va tahlil qilish.

O‘qituvchi faoliyatini rejalashtirish bosqichi kalendar —tematik yoki darslar rejalarini tuzish bilan yakunlanadi.

Rejalar, reja —konspektlar yoki konspektlarni tuzish uchun uzoq, jiddiy ishlash kerak bo‘ladi. O‘qituvchi o‘quvchilarning tayyorgarliklari darajasi, ularning o‘quv imkoniyatlari, moddiy baza holati, shaxsiy (kasbiy) imkoniyatlarini o‘rganib chiqishi, o‘quv materiali mazmunini tanlab olishi, dare olib borish shakli va metodini o‘ylab chiqishi kerak bo‘ladi.

O‘quvchilar faoliyatini tashkil etish o‘quvchilar oldiga o‘quv masalalarini qo‘yishni va uni bajarish uchun imkoniyatlar yaratishdan iborat bo‘ladi.

4.4. O‘quvchilarning bilish faoliyati va uning tuzilishi

O‘quvchilar o‘quv idrok etish faoliyatlarini boshqarishga o‘rganib olish uchun bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni tuzilishini yaxshi tasavvur etish, o‘quvchilar tomonidan bilimlarning egallash bosqichlarini bilishi zarur: idrok etish. o‘quv materialini anglab etish. mustahkamlash. amaliy faoliyatida bilimlarini qo‘llash.

Birinchi bosqich idrok etish hisoblanadi. Psixologiyadan ma’lumki, idrok etish aniq maqsadga yo‘naltirilgan anglash jarayoni bo‘lib, u tanlash xususiyatiga ega. Shuning uchun birinchi navbatda o‘quvchilarga mavzuni, ya’ni, ularning nimani o‘rganishlari (masalani qo‘yish)ni tushuntirib berish kerak. Shu asosida o‘quv materiali bilan dastlabki tanishish amalga oshiriladi. U haqiqiy mavjud yoki hayoliy predmet, hodisa, vaziyatlarni kuzatish, mumkin bo‘lgan tajribalarni o‘tkazishdan iborat bo‘ladi. Birinchi bosqich o‘quvchi qaysi hodisa va voqealarni, predmetlarni o‘rganish haqida etarlicha tasavurga ega bo‘lganida va o‘quv masalasini tushunib etganda yakunlanadi.

Ikkinchi bosqich — o‘quv materialini anglab etish. U ma’lumotlaming nazariy jihatlarini ajratib olish va analiz qilishdan iborat. Bunda asosiy mazmunni to‘ish, tushunchani ajratib olish, ularning belgilarini asoslab berish, tushuntirish materialining xususiyatini aniqlab olish, misollar va tushuntiruvchi dalillar to‘plamini o‘rganib chiqish kerak. Bu vaziyatda bilimlar o‘rtasidagi tizimlilik muhim ahamiyatga ega. Unda o‘quvchi eng asosiy ikkinchi darajali hamda qo‘shimcha, tushuntiruvchi elementlarni ajratib ko‘rsatsin. O‘quvchi o‘quv masalasini echish usulini tushunsa, bilimlar o‘rtasidagi tizimni tushunib etsa ushbu bosqich yakunlangan sanaladi.

Uchinchi bosqich — eslab qolish va mustahkamlash. Bu bosqich o‘zlashtirilgan bilimlarini uzoq vaqt davomida saqlab qolishdan iborat. Unda idrok etish faoliyati ko‘proq mashqlar, mustaqil reproduktiv va ijodiy masalalar xususiyatiga ega bo‘ladi. Nazariy material, tushuncha, qoida, isbotlar turli xil mashqlarda takrorlanadi. O‘qituvchi o‘quvchilar to‘shiriqlarni tushunib bajarishlarini kuzatib borishi kerak. Ular matnlarni mexanik ko‘chirib olishlari, topshiriqlarni bajarishlari, qoida va tushunchalarni chuqur anglab etmay bajarishlari mumkin. Bosqich yakunida o‘quvqhilar nazariy materiallarni biladilar va ulardan mashqlarni bajarish, masalani echish, teoremani isbotlashda foydalanishni biladilar. Ularda o‘quv malakalari va ko‘nikmalari shakllantirilgan bo‘ladi.

To‘rtinchi bosqich bilim. ko‘nikma va malakalarni amaliy faoliyatda faollashdan iborat bo‘ladi. Bilimlarini qo‘llash o‘rganilayotgan materialning mazmuniy xususiyatiga qarab, faoliyat turli shakllari va - ko‘rinishlarida amalga oshirilishi mumkin. Bu o‘quv mashqlari, laboratoriya ishlari, tadqiqot topshiriqlari, maktab er maydonidagi ishlar bo‘lishi mumkin. Bilimlarni egallab olish bosqichlari sxematik ko‘rinishi quyidagichadir:

Bilimlarni egallash bosqichlari



Ta’lim va tarbiya obyekti va subyekti.

Subyekt bilan obyekt o‘rtasida turli-tuman aloqalar mavjud: o‘qituvchi va o‘quvchilarning ta’lim jarayonidagi faoliyatlari. O‘qituvchi faoliyatining vazifasi va tuzilishi. Ta’lim muassasasi (umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar, oliy ta’lim muassasalari)da, tashkil etiluvchi ta’lim jarayonida o‘quvchining faoliyati o‘qituvchi rahbarligi ostida kechadi. O‘qituvchi faoliyatining vazifasi o‘quvchilarning ijtimoiy borliqni ongli va faol idrok etishga yo‘naltirilgan faoliyatlarini boshqarishdan iboratdir.

ccuyidagi bosqichlardan iborat:

1) loyihalashtirish;
2) rejalashtirish;
3) tashkil etish;
4) boshqarish (rag‘batlantirish);
5) nazorat;
6) natijalarni baholash va tahlil qilish.

Ta’lim jarayonini loyihalashtirish uning umumiy maqsadi, mazmuni o‘quv maqsadlari o‘qish, o‘qitish, o‘zlashtirishni baholash, tuzatishlar kiritishdir. O‘qituvchi faoliyatini rejalashtirish bosqichi kalendar-tematik yoki darslar rejalarini tuzish bilan yakunlanadi. Rejalar, reja-konspektlar yoki konspektlarni tuzish uchun uzoq, jiddiy ishlash kerak bo‘ladi.. O‘qituvchi o‘quvchilarning tayyorliklari darajasi, ularning o‘quv imkoniyatlari, moddiy baza holati, shaxsiy (kasbiy) imkoniyatlarini o‘rganib chiqishi, o‘quv materiali mazmunini tanlab olishi, dars olib borish shakli va metodini o‘ylab chiqishi kerak bo‘ladi.

O‘quvchilar faoliyatini tashkil etish o‘quvchilar oldiga o‘quv masalalarini qo‘yishni va uni bajarish uchun imkoniyatlar yaratishdan iborat bo‘ladi.

Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning faoliyati. Bilim olish faoliyatning o‘ziga xos ko‘rinishi sifatida muayyan tuzilish, rivojlanish va faoliyat qonunfyatlariga ega. Bilim olish borliqni idrok etish, o‘rganish, mashq iqilish va muayyan tajriba asosida xulq-atvor hamda faoliyat ko‘nikma, malakalarining mustahkamlanib, mavjud bilimlarning takomillashib, boyib borish jarayoni hisoblanadi. Bilim olishning muhim komponenti motiv. ya’ni, ta’limiy xarakterdagi harakat yoki faoliyatni tashkil etishga nisbatan rag‘batni his etish, ehtiyojning yuzaga kelishidir.

O‘qishning keyingi komponenti o‘quv harakatlari (operatsiyalari) sanalib, ular anglangan maqsadga binoan amalga oshiriladi. O‘quv harakatlari o‘quv jarayonini tashkil etishning barcha bosqichlarida namoyon bo‘ladi. Harakatlar tashqi (kuzatiladigan) va ichki (kuzatilmaydigan) ko‘rinishda bo‘lishi mumkin. Tashqi o‘quv harakatlariga predmetli harakatlar (yozish, rasm chizish, tajribalar o‘tkazish); perseptiv harakatlar (tinglash, fikrlash, kuzatish, sezish) hamda nutqdan foydalanish kiradi.

Ichki (mnemonik, yunonchadan «mnemonikon» — eslab qolish madaniyati) harakatlarga materialni eslab qolish, uni tartibga solish va tashkil etish, shuningdek, tasavvur va fikrlash harakatlari (intellektual) kiradi.

Har qanday bilimni o‘zlashtirishda o‘quvchilardan idrok etish madaniyatiga ega bo‘lish va o‘quv materialini anglab et ish talab etadi. Pedagogik jarayonda o‘quvchilar tomonidan ilmiy bilimlarning ma’nosini etarli darajada tushunmay, faqat tovushlar birligi sifatida qabul qilinishi va yodlab olinishi xavflidir.

O‘quvchilarni ilmiy bilimlarni ularning mohiyatini to‘la tushungan holda o‘zlashtirish shartlari bilan tanishtirib, ularga o‘zini o‘zi nazorat qilishning mohiyati va ahamiyatini tushuntirish maqsadga muvofiqdir.

O‘zini o‘zi nazorat qilishda o‘quvchilar ular qo‘llayotgan aqliy mehnat vositalarining samaradorligi, shuningdek, o‘z mehnati natijalarini baholashi kerak.

Natijalarni baholash. nazorat qilish va tahlil etish o‘quv harakatlarining ajralmas qismlari hisoblanadi. Ta’lim jarayonida o‘quvchi tomonidan o‘zini nazorat qilish, o‘zini baholash va o‘zini analiz qilishni amalga oshirish o‘qituvchining shunga o‘xshash o‘rgatuvchi harakatlarini kuzatish asosida shakllanadi. Bu harakatlarni shakllantirish o‘quvchilarni o‘z tengdoshlari faoliyatini kuzatishga jalb etish, o‘zaro nazoratni tashkil etish, o‘rnatilgan mezonlar asosida o‘z faoliyati natijalarini o‘zaro baholash va tahlil qilishga yordam beradi.

5.Yaxlit pedagogik jarayonni jadallashtirish

Lotincha Intensio tushunchasi - kuchaytirish, tezlatish degan mahnoni anglatadi.

Yaxlit pedagogik jarayonni jadallashtirish - vaqtning har bir bo‘lagi uchun ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirish demakdir.

Yaxlit pedagogik jarayonni jadallashtirish shartlari:

1. Pedagogik jarayoning maqsadga yo‘naltirilganligini

kuchaytirish, o‘quv-tarbiya tadbirlarida ilgari surilayotgan vazifalarning jiddiyligini oshirish bilan birga ularning shu sinfga, o‘quvchilarga, jamoaga qulayligini ham hisobga olish kerak.

2. O‘quvchilarning o‘qish, ijtimoiy, mehnat va boshqa faoliyati asoslarini chuqurlashtirish.

3. Eng zarur axborotlarni saqlagan holda mazkur sinf o‘quvchisiga yetkaziladigan axborot hajmini oshirish.

4. O‘quv, ijtimoiy mehnat va boshqa faoliyatlar tezligini oshirish.

5. O‘quvchilarning mustaqil bilish va ijtimoiy foydali faoliyatlarini aktivlashtiruvchi kompleks shakl va metodlarni joriy etish.

6. Axborot va ta’lim texnologiyalarini keng qo‘llash.

7. O‘quvchilarning mustaqil bilishini yo‘lga qo‘yish orqali o‘z-o‘zini tahlil qilish, o‘z-o‘ziga tahsir ko‘rsatish, majburiyat olish, baho bera olish, o‘z-o‘ziga hisob berishdan iborat usullardan unumli foydalanish ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirishga kuchli yordam beradi.

6. Yaxlit pedagogik jarayonni optimallashtirish.

Yaxlit pedagogik jarayonni o‘timallashtirish (lotincha optimus - eng mahqul) - eng qulay, eng mahqul degan mahnoni bildirib, keng mahnoda olib qaralganda, ushbu sharoit uchun har qanday vazifalarni hal etishning eng qulay, eng mahqul, to‘g‘ri variantlarini tanlash demakdir.

Mahlum mezonlar nuqtai nazaridan qaralganda, yaxlit pedagogik jarayonni o‘timallashtirish ushbu sharoit uchun ta’lim-tarbiyaning eng maqbul vazifa, mazmun, shakl va metodlarini ilmiy asoslangan holda tanlash va amalga oshirish deganidir.

Optimallashtirishda boshlang‘ich holatdan qaror qabul qilingungacha bo‘lgan jarayon quyidagi bosqichlarga bo‘linadi:

1. Qo‘yilgan vazifalarni hal etishning bir nechta variantlarini qarab chiqish.

2. Ushbu sharoit uchun tanlab olingan variantning asosliligini, zarurligini anglab etish.

3. Ushbu vazifalarni hal etish uchun tavsiya etilgan usullarning samaradorligini qiyosiy tahlil etish orqali anglash.

4. Taqdim etilgan variantlarni eng maqbul ikkita variantgacha qisqartirish.

5. Ikkalasini vaqt va samara nuqtai nazaridan taqqoslash.

6. Eng mahqul variantni o‘timallashtirish mezoni nuqtai nazardan

tanlash.

Lekin eng maqbul variantni tanlash o‘qituvchidan fikrlashning muammoli-tadqiqot usulidan foydalanishni taqozo etadi.

Ta’lim jarayonini o‘timallashtirishda uning mezoni faoliyatni to‘g‘ri baholashga yordam beradi.

O‘quvchi u yoki bu materialni o‘zining maksimal darajadagi imkoniyati doirasida o‘zlashtiradi (natijaga real erishish mumkin bo‘lgan imkoniyat). Bu esa, o‘z o‘rnida, o‘qitishni o‘timallashtirish uchun o‘quvchilarning real o‘quv imkoniyatlarini o‘rganishni talab etadi.

Real o‘quv imkoniyatlari ichki (sog‘liq, bilim darajasi, fikrlash qobiliyati, o‘qishga munosabat, mashuliyat hissi) va tashqi (oila, tengdoshlar, jamiyat tahsiri) sharoitlarning o‘zaro uzviyligida namoyon bo‘ladi.

O‘qituvchi bolaning bugungi real o‘quv imkoniyatlarini bilishigina emas, shuningdek, yaqin rivojlanish zonasini, Ya’ni yaqin rivojlanish imkoniyatlarini anglab etishi ham zarur bo‘ladi.

Shunday qilib, optimallashtirishning birinchi mezoniga ko‘ra, o‘quvchi shunday o‘zlashtirish darajasiga erishishi kerakki, ushbu daraja uning yaqin rivojlanish zonasidagi imkoniyatlariga to‘g‘ri kelsin.

Optimallashtirishning ikkinchi mezoni shuki, o‘quvchi va o‘qituvchi dars va uy mashg‘ulotlariga ajratilgan vaqtga qat’iy amal qilsinlar.

Tarbiyada birinchi mezon erishilgan natijaning qo‘yilgan maqsad va vazifalarga to‘g‘ri kelishida ifodalanadi.

Ikkinchi mezon tarbiyachining tarbiyalanuvchi uchun ajratilgan mehyorlarga qathiy amal qilishida ko‘rinadi.

O‘qituvchi amaliy faoliyatidagi pedagogik jarayonlarning asosiy komponentlarini optimallashtirish usullari tizimi quyidagicha:

1. Ta’lim-tarbiya jarayoni uchun eng mahqul (ratsional) vazifalar kompleksini tanlaydi.
2. Ushbu sinf xususiyatidan kelib chiqib, vazifalarni aniqlashtiradi.
3. Qo‘yilgan vazifalarni hal etish uchun zarur mazmun tanlaydi.
4. Ushbu mazmunni amalga oshirish uchun eng maqbul metod, shakl va vositalar tanlaydi.
5. Tezkor tarzda jarayonga o‘zgartirishlar kiritadi va unga ko‘ra metod, shakl va vositalarni o‘zgartiradi.
6. Qilingan ishlar chuqur va har tomonlama tahlil etiladi (natija va

vaqt nuqtai nazaridan).

7. Pedagogik jarayonni harakantiruvchi kuchlar.

Pedagogik jarayonning asosiy elementlari: maqsad, vazifa, vosita va natija. Vosita keng ma’noda mazmun, shakl va usullarni o‘z ichiga oladi. Pedagogik jarayonni harakatlantiruvchi kuchlar: qo‘yilgan talablar bilan tarbiyalanuvchi imkoniyatlari o‘rtasidagi ziddiyatlardir. Xuddi shu qarama-qarshilik rivojlanish uchun asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savollar hamda topshiriqlar:

1. “Pedagogik tizim” tushunchasiga ta’rif bering.

2. Pedagogik jarayonning alohida asosiy elimentlari nimalardan iborat?

3. Yaxlit pedagogik jarayonning ichki qonuniyatlarini izohlang.

4. Yaxlit pedagogik jarayonni optimallashtirish va uning asosiy shartlari nimalardan iborat.

5. O‘qitish va o‘qish jarayonlarni tavsilang.

6. Oquvchilarning bilish faoliyati va uning tuzilishi haqida ma’lumot bering.

7. Optimallashtirish nima?

8. Ta’lim jarayonini boshqarish bosqichlarini tushuntiring.

5-MAVZU. PEDAGOGIK FANLARNI O‘QITISH MAZMUNI

Tayanch so‘zlar: *ta’lim mazmuni, bilim,ko‘nikma, malaka, ko‘p predmetlilik, texnokratik yo‘nalishi, insonparvarlashtirish, integratsiya, standartlashtirish, ko‘p bosqichlilik, axborotlashtirish, individuallashtirish, ketma-ketlik, davlat ta’lim standartlari, o‘quv reja, dastur, darslik.*

5.1.Ta’im nazariya (konsepsiya)lari mazmuni

Ta’lim mazmuni- inson o‘qitish jarayonida egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar hajmi va xarakteri.[1]

Ta’lim mazmuni deganda ta’lim jarayonida o‘quvchilar o‘zlashtirishi kerak bo‘lgan ilmiy bilimlar tizimini, amaliy ko‘nikma va malakalarni hamda dunyoqarash va axloqiy-estetik g‘oyalarni tushunamiz - deb ta’kidlaydi I.F.Xarlamov.

Ta’lim mazmuni—yoshlarni ma’lumotli qilish, taraqqiy ettirish, tarbiyalash maqsadida ma’lumot mazmunidan tanlanib, ta’lim jarayoniga olib kirilgan bilim, ko‘nikma-malaka, faoliyat usullari hamda tabiat, jamiyat va tafakkur hodisalarini emotsional baholashga doir munosabatlardir degan qarashlarni O.Roziqov, B.Adizovlar ilgari suradilar.

An’anaviy pedagogikada formal va moddiy ta’lim nazariyasi keng tanilgan. Bu nazariyalarning mohiyati nima va o‘rta ta’lim mazmuniga qanday ta’sir etadi.

Formal ta’lim nazariyasiga Djon Lokk (XVII asr), Pestalotstsi, Kant va Gerbart (XVIII-XIX asrlar) asos solganlar. XVIII asrning oxirlarida didaktik formalizm nazariyasi (konsepsiyasi) vujudga keldi (bu nom E.SHmit va A.A.Nemeyerning “Prinsipi vospitaniya i obucheniya” asarida tilga olinadi). Konsepsiya tarafdorlari ta’limni o‘quvchilarning itidori va qiziqishlarini rivojlantiruvchi vositasi sifatida e’tirof etadilar. Keyinchalik bu ta’limot formal ta’lim nazariyasi sifatida shakllantirildi. Didaktik formalizm tarafdorlarining asosiy g‘oyasi qadimiy olim Geraklit tomonidan aytilgan (ko‘p bilim aqlni kuchaytirmaydi) fikrlariga asoslanadi. Keyinchalik bu g‘oyani I.Kant va I.G.Pestalotstsilar rivojlantirishdi. Ular o‘qitishning asosli

[1] Ж.Ҳасанбоев, Х.Тўрақулов, М.Ҳайдаров, О.Ҳасанбоева, Н.Усманов. Педагогика фанидан изоҳли луғат. Т.: “Фан ва технология”, 2009, 464-бет

maqsadi, eng avvalo, o‘quvchining iqtidorini rivojlantirish, o‘quvchining to‘g‘ri tafakkur yuritishini kuchaytirish bo‘lishi shart deb hisoblaydilar.

Ushbu nazariya tarafdorlari falsafiy ratsionalizm (lotinchada «rationalts» - aqlli)ga tayanadilar va bilim manbai aqldir, bilim faqat aqlning mustaqilligida tug‘iladi, shu bois ta’lim o‘quvchilarning ma’lum bilimlarni egallab olishlari emas, balki ularning aqlini o‘stirish, ya’ni, analiz, sintez, mantiqiy fikrlash layoqatlarini rivojlantirish kabi vazifani hal etishi zarur deb hisoblaydilar. Ularning fikricha, fikrlashni rivojlantirish vositasi tillar, ayniqsa, qadimiy yunon va lotin tili, shuningdek, matematikani o‘rganish lozim. Formal ta’lim elementlaridan hozirgi kunda ham foydalaniladi. Angliyadagi grammatik maktablarda ushbu nazariya g‘oyalari asosida ish ko‘riladi.

XVII asr oxiri – XIX asr boshlarida moddiy ta’lim nazariyasi jadal rivojladi. Nazariyaning paydo bo‘lishiga sanoat va uning ilmiy-texnik asoslari rivojlanishi asos bo‘lib xizmat qildi. Binobarin, sanoatning jadal rivojlanishi tabiiy fan, texnik va amaliy tayyorgarlikka ega bo‘lgan odamlarni tayyorlash masalasini kun tartibiga olib chiqdi. Pedagogi-psixologik tarixida bu nazariya (konsepsiya) didaktik materializm nazariyasi sifatida ham mashhurdir. Ushbu nazariya tarafdorlari (ularni “entsiklopedistlar” deb ham ataganlar), xususan, ingliz shoiri va tarixchisi Dj.Milton, nemis pedagogi N.B.Besedovlar maktabning asosiy maqsadi o‘quvchilarga bilimlar berish deb hisoblaganlar hamda o‘zlari o‘qitadigan fanga iloji boricha ko‘proq materiallarni kiritishga intilganlar. Maktab ta’limi mazmunini shakllantirishga bunday yondoshishning samarasi kam bo‘lib chiqdi, chunki o‘quvchilarga juda ko‘p axborotlar beriladi. Natijada axborotlar qisman va yuzaki o‘zlashtiriladi.

Bu nazariyaning boshqa tarafdorlari empirizm g‘oyalarini ilgari suradilar (lotincha “empiria” - tajriba). Faylasuf-empiristlar, xususan ingliz faylasufi G.Spenser (1820-1903 yillar) bilish tajriba chegarasidan chiqa olmaydi va bilim manbai faqat tajriba hisoblanadi, deya ta’kidlaydilar. Bundan quyidagi pedagogik xulosalar chihariladi: o‘quvchilarni asosan tabiiy-ilmiy bilimlar bilan qurollantirish kerak, ta’lim materiallarini tanlash uchun esa hayotga, kelajakda o‘quvchilarning amaliy faoliyatlari uchun zarur bo‘lgan bilimlarga murojaat qilish kerak. Moddiy ta’lim nazariyasi real yo‘nalish deb ataluvchi maktab ta’limi asosini tashkil etadi. Masalan, XIX asr oxirlari

XX asr boshlarida Rossiya, va Turkistonda real gimnaziya va real bilim yurtlarida o‘qitish qadimgi va g‘arbiy YEvropa tillarini o‘rganishga emas, balki tabiiy-ilmiy fanlar (matematika, fizika, ximiya va boshqalar) hamda amaliy xususiyatli fanlarni o‘zlashtirishga asoslangan.

Formal va moddiy ta’lim nazariyalarini K.D.Ushinskiy va A.Avloniylar juda asosli tanqid qiladilar. K.D.Ushinskiy bilimlarni o‘zlashtirishdan uzoq bo‘lgan formal deb ataluvchi rivojlanish o‘ylab topilgan yolg‘on deb aytadi. Har bir fan biror-bir boshqa narsa bilan emas, odamni o‘zining mazmuni bilan rivojlantirishini ta’kidlaydi. SHunday ekan, maktab faqatgina rivojlantiribgina qolmay, balki ularning keyingi faoliyatlarida foydali bo‘ladigan bilimlarni ham berishi kerak. O‘zbek pedagogi Abdulla Avloniy ham (1878-1934 yillar) ana shunday fikrni bildirgan. U o‘zining “Turkiy guliston yohud axloq” nomli asarida “... bilim bizning aqlimizni va bizninng xotiramizni qilich kabi o‘tkir qiladi. Bilim, fanni egallash taraqqiyot yo‘lida bizning ilgari qadam tashlashimiz shartidir.... Bilimsiz odam bu mevasiz daraxtga o‘xshaydi” deb yozadi. Shu bilan bir vaqtda A.Avloniy fanni o‘zlashtirishga faqatgina xayoliy amaliyoti uchun utilitar (foydali) yaroqliligi nuqtai nazaridan yondoshish mumkin emas deb hisoblaydi. U hayot bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq bo‘lmagan bilimlar ham bor va ular amaliy bilimlardan kam bo‘lmagan ahamiyatga ega deb hisoblaydi. Misol uchun qadimgi tarixdan amaliy faoliyatda foydalanib bo‘lmaydi, lekin uni o‘rganish kerak va foydalidir: uni (tarixni) bilish o‘quvchvilarning bilimlarini kengaytiradi, dunyoharashni shakllantiradi.

XX asr boshlarida chet el va ayniqsa amerika pedagogi-psixologiksida maktab ta’limi masalalari bo‘yicha pragmatik (yunoncha «pragma» – harakat, amaliyot) g‘oyasi keng tarqaldi. Pedagogi-psixologikda mashhur pragmatizm tarafdori Djon Dyun (1869-1952 yillar) maktab ta’limining o‘z konsepsiyasini yaratishga ko‘p urindi. Bu yo‘nalishlar vakillari (Dj.Dyun, G.Kershenshteyner) o‘qitish bu o‘quvchining “tajribasini qayta tashkil etish” uzluksiz jarayoni deb hisoblaydilar.

O‘qitishni Dyun kundalik hayotdan olingan amaliy masalalarni hal etishga oid bolalar faoliyatini tashkil etish sifatida tushunadi. Bu nazariyaning asosiy boshlang‘ich qoidalari quyidagilardan iborat deb hisoblangan: “Oldindan tuzilgan o‘quv kurslari kerak emas”, “O‘qitish

materiallarini bolaning tajribasidan olish kerak”, “Bola o‘qitishning sifati kabi miqdorini ham belgilashi kerak”, “Bajarish yordamida o‘qitish – maktabda asosiy metod”. SHunday qilib, Dyun maktabda ta’lim va alohida fanlar aniq belgilangan mazmuni zarurligini rad etadi, ilmiy ta’limni tan olmaydi va o‘qishni tor hamda o‘quvchilarning qiziqishlariga asoslangan praktitsizmidan iborat hisoblaydi.

Mazkur nazariya asosida uning izdoshi Uilyam Kilpatrik 20-yillarda “o‘qitishning loyihali tizimi” (yoki loyihalar metodi)ni ishlab chiqdi, uning mazmuni o‘z qiziqishlaridan kelib chiqib bolalar o‘qituvchi bilan birga qandaydir amaliy masalaning yechimini loyihalashtirishlaridan iborat. Misol uchun, o‘yinchoq uychaning qurilishi amaliy faoliyatga kiritiladi va uning davomida til, matematika, boshqa fanlari bo‘yicha u yoki bu ma’lumotlarni bilib oladilar. Bu nazariya ommaviy maktabda ta’lim darajasini pasaytirishi mumkinligini tushunish qiyin emas.

Amerikalik pedagoglar I.Adler, Dj.Brunner va boshqalar Dyun nazariyasi amerika maktablari rivojlanishini ortga tortganini aytadilar va ta’limni modernizatsiyalashtirish hamda takomillashtirish yo‘llarini izlaydilar.

Ko‘plab pedagoglar - A.Disterveg, K.D.Ushinskiy, M.Behbudiy va A.Avloniylar maktab ta’limiga taalluqli ko‘plab qimmatli g‘oyalarni ilgari surganlar. Ular xalq maktablari, yangi usulli maktabda ta’lim darajasini oshirish, tabiiy-ilmiy fanlar va gumanitar fanlar birligi tarafdori edilar.

Bugungi kunda turli ta’lim konsepsiyalari mavjud. Konsepsiyalardan biri ta’lim mazmunini ta’lim muassasalarida o‘rganiladigan fanning pedagogik moslashtirilgan asoslari sifatida talqin qiladilar. Bu yerda shaxsning ijodga qobiliyati, erkin tanlashni amalga oshira bilishi, odamlarga haqqoniy munosabatlarda bo‘lishi kabi sifatlari chetda qolib ketadi. Ushbu yondoshish o‘quvchilarni fan va ishlab chiharishga jalb etishga haratilgan, lekin demokratik jamiyatda mustaqil hayotga yo‘naltirishga emas. Amalda odam bu yerda ishlab chiharish omili sifatida ishtirok etadi (avtoritarizm).

Boshqa bir konsepsiya ta’lim mazmunini o‘quvchi o‘zlashtirishi kerak bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar majmui sifatida haraydi. Bu konsepsiya mualliflari bilim va malakalarni egallab olish odamga zamonaviy jamiyatda mos ravishda hayot kechirishga imkon beradi deb hisoblaydilar. Odamdan faqatgina u bilishi va bajara olishini talab etish

yetarli. Bunday holatda ta’limga talablar ham quyidagicha bo‘ladi: o‘sib kelayotgan avlodga ona tili. matematika, fizika va boshqa fanlar bo‘yicha bilim va malakalar berish zarur.

Milliy umumiy o‘rta ta’lim maktabi hozirgi zamon sharoitlarida rivojlanishi uchun bu yetarli emas. Jamiyatning o‘quvchilardan faqat ma’lum o‘quv fanlari mazmunini emas, balki ularda iroda kuchi, o‘z harakatlari uchun, jamiyat va mamlakat taqdiri uchun mas’uliyatli, atrof-muhitni himoya qilish; millatchilik va diniy aqidaparastlikka yo‘l qo‘ymaslik va shu kabi sifatlarni rivojlantirishni talab etadi.

Rossiya ta’lim akademiyasi haqiqiy a’zosi V.V.Krayevskiy tomonidan ilgari surilgan konsepsiyada qayd etilishicha, ta’limning asosiy ijtimoiy vazifasi ajdodlar tomonidan to‘plagan tajribalarni avlodlvrga uzatish hisoblanadi.

Mazkur konsepsiya mazmunida ta’lim mazmuni quyidagi to‘rtta tashkiliy elementlardan iborat bo‘ladi:

- idrok etish faoliyatini amalga oshirish usullari qayd etilgan shaklidagi idrok etish faoliyati (bilimlar);
- amaliy faoliyatni amalga oshirish usullari shaklida qayd etilgan amaliy faoliyat tajribasi (ko‘nikma va malakalar);
- muammoli vaziyatlar, nostandart vaziyatlarda yangi masalalarni hal etish shaklida (ijodiy faoliyat tajribasi);
- atrof-muhitga, bir-biriga, emotsional qadriyatli munosabatlar tajribasi, ya’ni, emotsional, axloqiy, estetik tarbiyalash.

Mazkur elementlar o‘zaro bog‘liq va bir-biriga asoslangandir. Mamlakalar bilimlarsiz bo‘lishi mumkin emas. Odamning ijodiy faoliyati bilimlar va ko‘nikmalar mazmunli ma’lum materialida amalga oshiriladi. Ma’naviy-axloqiy tarbiyalilik odam yashaydigan jamiyatining xulq ko‘nikma va malakalarini egallab olganligini ko‘zda tutadi. Ijtimoiy tajribaning bu elementlarini o‘zlashtirish odamga jamiyatda muvaffaqiyatli yashash, yaxshi bajaruvchi bo‘lish bilan birga mustaqil harakat qilish, jamiyatni o‘zgartira olish, ijtimoiy taraqqiyotga o‘z hissasini qo‘sha olishga imkon beradi. SHuning uchun umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi birinchi navbatda, hayotga tayyorlaydi, ikkinchidan, inson ushbu tartibga o‘z hissasini qo‘shish, xatto uni qayta tuzishga ham qodir bo‘ladi. Akademik V.V.Krayevskiyning konsepsiyasi o‘qituvchini o‘quvchilar ongida umuminsoniy va milliy qadriyatlar tizimi, odamlarga insonparvarlik

munosabatini shakllantirish, erkin fikrlovchi, barkamol rivojlangan shaxsni shakllantirishga haratilgan maxsus faoliyatga yo‘naltiradi.

5.2.Hozirgi zamon bosqichida ta’lim mazmunini belgilovchi muhim g‘oyalar (asoslar)

Ta’lim mazmuni – bu jamiyatning shaxsni ma’naviy rivojlanishi darajasiga qo‘yilgan talablar, jamiyatning ijtimoiy tajriba va madaniyatini aks ettirgan ijtimoiy buyurtmasi modelidir. Ijtimoiy tajriba quyidagi to‘rt element bilan tavsiflanadi:

- inson tabiat, jamiyat haqidagi bilimlari
- faoliyatning ko‘nikma, malaka va usullari;
- yangi vazifalarni hal etish bo‘yicha ijodiy faoliyat tajribasi;
- atrofdagilar bilan o‘zaro emotsional (hissiy) – qadriyatli munosabatlar tajribasi.

Shularga muvofiq zamonaviy didaktika g‘oyalariga ko‘ra ta’lim mazmunining tarkibida quyidagilar o‘z aksini topadi: 1) olam haqidagi bilimlar; 2) faoliyatni amalga oshirish usullari tajribasi; 3) ijodiy faoliyat tajribasi; 4) atrof-muhitga emotsional (hissiy) qadriyatli munosabat tajribasi.

Bilim va ko‘nikmalar ijodiy faoliyat asosi bo‘lib qolishi mumkin, lekin unga tayyorlikka kafolat bo‘la olmaydi. Ijodga, ta’limning o‘ziga xos turi sifatida maxsus o‘qitish kerak bo‘ladi. Atrof-muhitga emotsional-umumiy munosabatda bo‘lish u haqida bilish, lekin ularga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq bo‘lmaslikni nazarda tutadi. Uni rivojlantirish uchun o‘qitish jarayonida maxsus ishlash olib berish zarur.

Ilmiy asoslangan ta’lim mazmunini qanday aniqlash mumkin? Ta’lim mazmuniga nima ta’sir ko‘rsatadi? U nimaga bog‘liq bo‘ladi?

Ta’lim mazmunini aniqlovchi asosiy omillar quyidagilardan iborat bo‘ladi:

- fan, texnika, madaniyatning jamiyatda rivojlanganligi darajasi;
- ta’limning maqsad va vazifalari;
- o‘quvchilarning yoshi xususiyatlari;
- o‘quvchi shaxsining ehtiyojlari.

Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim mazmuni o‘quvchilarda atrof-muhit haqida umumiy tasavvurlarni hosil qilishi, ularni o‘zlarining amaliy faoliyatlari uchun zarur bo‘lgan bilimlarni izlashg va bu bilimlarni hayotiy muammolarni hal etishda qo‘llashga o‘rgatishi kerak. Ta’lim mazmuni o‘quv rejalari, o‘quv dasturlarida, darsliklarda

aks ettiriladi, XX asr 80-yillarida amaliy qo‘llanilgan o‘rta umumta’lim maktabi namunaviy o‘quv rejalari maktabni yangilash vazifalariga, o‘quv-tarbiyaviy jarayonni hozirgi zamon talablari asosida tashkil qilishga mos kelmas edi. Bu o‘quv rejasining eng asosiy kamchiligi – uni shakllantirishning haddan tashhari markazlashtirilishidir, bu esa maktablarning hammasi bir xil bo‘lishi, taklif etilayotgan ta’lim idealining bir xilligiga olib keladi, unda shaxs, jamiyat va davlatning turli ta’limiy talablari hisobga olinmaydi; ko‘p predmetlilik, o‘quvchilarga vazifalar ortiqchalik, og‘irlik qiladi va ta’lim mazmunining sun’iy qisqaligi, aralashligi yuzaga keladi; bu ta’limning texnokratik yo‘nalishi uning insonparvarlik va madaniy, badiiy-yaratuvchilik rolini yo‘qotishiga olib keladi. O‘quv rejasining ana shu va boshqa ko‘plab kamchiliklari didakt olimlar va amaliyotchilar tomonidan keskin va haqli ravishda tanqid qilindi.

Hozirgi sharoitda o‘rta maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun ta’lim mazmuni (o‘quv rejalari)ni ishlab chiqishda ta’lim mazmunida quyidagi g‘oyalar yetakchi o‘rin tutadi:

- insonparvarlashtirish;
- integratsiya;
- standartlashtirish;
- ko‘p bosqichlilik;
- axborotlashtirish;
- individuallashtirish;
- ketma-ketlik.

Ta’lim mazmunini insonparvarlashtirish ta’lim muassasasining o‘quvchiga e’tibor haratishi, uning shaxsi, xohish-istak va qiziqishlarini hurmat qilishi, birinchi navbatda o‘quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning mustaqil hayotda o‘z yo‘llarini topib olishlari uchun sharoit yaratishni ko‘zda tutadi. Insonparvarlashtirish gumanitar va tabiiy fanlarni optimal nisbatlarda bo‘lishi, matematik, biologik, texnik kurslar mazmunini insoniylik haqidagi bilimlar bilan boyitishni ko‘zda tutadi. Ta’lim mazmunida insonparvarlik g‘oyalarining aks etishi o‘quvchilarda fikrlash layoqatining shakllanishiga yordam beradi.

Ta’limni insonparvarlashtirish bu ta’lim tizimi va butun ta’lim jarayonini har bir inson huquqlarini hurmat qilish, pedagoglar o‘rtasida o‘zaro hurmatga asoslangan munosabatlarni rivojlantirish, ularning

sog‘liqlarini saqlash va mustahkamlash, shaxsiy qadr-qimmatlarining his etishlarini ta’minlash va shaxsiy imkoniyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ta’limni insonparvar (gumanitar)lashtirish yangi tayanch o‘quv rejasining ikkinchi muhim g‘oyasidir. Ta’limni gumanitarlashtirish birinchi navbatda tayanch o‘quv rejasida gumanitar fanlar hajmini oshirishda o‘z ifodasini topadi. Bu xususan estetik tarbiyani tashkil etishga o‘quv vaqtini ikki barobar ko‘paytirishga imkon beradi. Gumanitarlashtirish – bu ta’limning bosqichi va turidan qat’iy nazar asosiy ijtimoiy muammo - inson farovonligi muammosini hal etishga imkon beruvchi ta’lim mazmunini o‘zlashtirishga yo‘naltirishdir.

Ta’lim yangi mazmunini ishlab chiqishning uchinchi g‘oyasi – ta’limni differentsiyalashtirish. Bu yo‘nalish majburiy kurslar bilan birga katta sinflarda chuqurlashtirilgan va ixtisoslashtirilgan o‘qitish, fanlarni tanlash asosida olib borishni ko‘zda tutadi. Sinfda, sinflar o‘rtasida hamda turli yoshdagi o‘quv guruhlarida fakultativ kurslarni individual, guruhli mashg‘ulotlar hamda qiziqishlariga ko‘ra to‘garaklarni rivojlantirish ham ko‘zda tutiladi. Differentsatsiyalash – bu zamonaviy sharoitda ta’limni rivojlantirish umumiy yo‘nalishi hisoblanadi. Respublikada o‘tgan asrning 90-yillarida ta’limni differentsatsiyalash maqsadida ixtisoslashtirilgan maktablar va sinflar (fizika, ximiya, matematika, chet tillarini chuqur o‘rganish bilan) litseylar, gimnaziyalar ochildi.

Kurslarni integratsiyalashtirish ta’limning yangi mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan yana bir g‘oya o‘quvchilarda dunyoni yaxlit tasavvur qilish layoqatini rivojlantirishda umumlashtiruvchi, dunyoharashni shakllantirish imkonini beruvchi integrativ fanlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yangi yagona (tayanch) o‘quv rejasida integratsiyalash hisobiga o‘quv fanlari soni kamaytirildi, soatlarning umumiy hajmi ixchamlashtirildi. Xususan, “Tarix” fani umumiy tarix va O‘zbekiston xalqlari tarixiga asoslanadi.

Standartlashtirish – bu majburiy o‘quv fanlari to‘plamini soatlari aniq belgilangan hajmini belgilash. Ta’lim standartlari yordamida ta’lim muassasalarida o‘quv ishlarining normativlari moslashtiriladi, o‘quvchilar bilimlarini baholashning yagona mezonlari ishlab chiqiladi.

Ko‘p bosqichlilik – bu ta’limning har bir bosqichida o‘quvchining imkoniyat va qiziqishlari darajasiga javob bera oladigan bilim darajasiga erishish imkonini beruvchi ko‘p bosqichli ta’lim jarayonini tashkil etishdan iborat. Turli bosqichlarning har birida o‘qitishning yakuniy holati ta’limning sifatli yakunlanganligi hisoblanadi.

Fundamentallashtirish – shaxs (o‘quvchi)ni ijtimoiy faoliyatiga nazariy va amaliy jihatdan tayyorlashni kuchaytirish. Bu yerda maktab bo‘lsa ham, litsey, kollej yoki oliy o‘quv yurtining ta’lim tizimi, o‘quv rejasi, barcha fanlar bo‘yicha ilmiy-nazariy bilimlarni chuqur va tizimli o‘zlashtirishga alohida ahamiyat beriladi.

Ta’limni axborotlashtirish o‘quvchilarni o‘qitish jarayonida hisoblash texnikasi va axborot texnologiyalaridan ommaviy va keng foydalanish bilan bog‘liq bo‘ladi. Ta’limni axborotlashtirish oxirgi o‘n yillikda keng tarqaldi, buning boisi shuki, zamonaviy video-radiotexnika va kompyuterlarning ta’lim tizimida qo‘llanilishi mumkin bo‘lganligi hamda foydalanish nisbatan oddiyligidir.

Individuallashtirish ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchi va o‘qituvchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning hamma turlaridan foydalangan holda ularning individual xususiyatlarini hisobga olish va rivojlantirish demakdir.

Uzluksizlik jamiyat hayotining tez o‘zgarib borishi odamni doimiy ravishda ta’lim olish (mustaqil ta’lim olish)ga undovchi jarayon mohiyatini anglatadi.

5.3.Pedagogik fanlar mazmunini tanlab olish tamoyil va mezonlari

Pedagogika fanida shunday bir bo‘lim mavjudki u o‘quv tarbiya muassasalarida o‘qish, o‘qitish, bilim olish ishlarini yo‘lga qo‘yishning qonuniyatlarini, qoidalarini, prinsiplari, metodlari, usullari, shakllari va vositalarini o‘rganadi. Bu bo‘limni pedagogika fanida ta’lim nazariyasi deb ham, didaktika deb ham, yuritiladi. Ta’lim nazariyasi tushunchasiga nisbatan didaktika so‘zi kengroq ma’noga ega bo‘lib, ta’lim qonuniyatlari, qoidalari, ma’lumot, ta’lim mazmuni, ta’lim jarayoni va unda o‘qituvchi-o‘quvchi faoliyatining tuzilishini, ta’lim prinsiplarini, ta’lim modellari, turlari, metodlari, ta’limning tashkiliy shakllarini, vositalarini, ta,limni ommalashtirish va texnologiyalashtirish kabi masalalarni o‘rganadi va tadqiq qiladi. Shunga binoan “Didaktika” pedagogikaning mustaqil qismi bo‘lib,

o‘qitish va ta’lim berish muammolari bilan shug‘ullanadi hamda o‘qitish jarayonining umumiy qonuniyatlarini o‘rganadi.

Darhaqiqat didaktika so‘zi grekcha “didacticos” atamasidan olingan bo‘lib, “o‘qitish”, “o‘rgatish”, “ta’lim berish” kabi ma’nolarni anglatadi. Didaktika so‘zining ma’naviy tarjimasi “Ta’lim nazariyasi” demakdir. Didaktika ta’lim nazariyasi sifatida “qanday o‘qitish”, “nimani o‘qitish”, “qayerda o‘qitish” kabi masalalarni hal etishga harakat qiladi.

Manbalarga qaraganda didaktika atamasini birinchilardan bo‘lib nemis pedagogi Volfgang Radke taxminlari mavjud. Ammo ba’zi hollarda “Didaktika”ning atamasi chex pedagogi Yan Amos Komenskiy deb talqin qilinadi. Bu haqiqatga yaqin. Chunonchi didaktikaning ilmiy asoslari mazkur pedagog tomonidan 1633-yilga chex tilida, 1657-yilda lotin tiliga o‘girilgan “Buyuk didaktika” asarida yoritilgan. Shu ma’noda didaktika nomi ostida “Hammani hamma narsaga o‘rgatish san’ati” iborasi bitilgan.

Shunday qilib didaktika pedagogikaning muhim sohasi sifatida bilim, ko‘nikma, malakalarni, yosh avlodga yetkazishga oid qonuniyatlarni, bilim, ko‘nikma, malakalarni yosh avlod tomonidan o‘zlashtirish malakalarni o‘rganuvchi tarmog‘idir.

Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, fan, texnika texnologiyalarning rivojlanish darajasini inobatga olib, didaktika o‘zining o‘rganish predmetini yangidan ishlab chiqdi, bu o‘qitishning maqsadi (nega o‘qitiladi), yosh avlodni hayotga tayyorlash nuqtai nazaridan, o‘qitishning mazmuni (nimaga o‘rgatiladi), o‘qitishni tashkiliy shakllari va yo‘llari (qanday o‘qitish) kabi masalalarga javob beradi.

Shu kesimda didaktikaga bir mavzu borki, bu pedagogika va psixologiya ta’lim yo‘nalishida pedagogika fanlarini qanday o‘qitish, nimaga o‘qitish, nimani o‘qitish kabi savollarga javob beradi. Bu “Pedagogik fanlarni o‘qitish metodikasi”ning prinsiplari mavzusidir.

Xo‘sh prinsip nima? Uning mazmun-mohiyati nimadan iborat? Pedagogik fanlarni o‘qitish metodikasining prinsiplariga nimalar kiradi.

Avvalo, shuni takidlash joizki “Pedagogika” darsliklari va o‘qitish qo‘llanmalarida “Prinsip” so‘zi o‘rniga “Tamoyil” atamasi ishlatiladi. Masalan “Tarbiya tamoyillari”, “Ta’lim tamoyillari”, “Talim qonunlari va tamoyillari” va h.k. ko‘rinishida. Bizningcha bu maqsadga yaqin emas. Tarbiyalash, o‘qitish, o‘rgatish to‘g‘risida borar ekan, e’tibor

bosh g‘oya, bosh asos yoki talab to‘g‘risidagi ma’noga qaratilmog‘i lozim. Shu nuqtai nazardan gap “Pedagogik fanlarni o‘qitish metodikasi” tog‘risida borar ekan, bu fanni o‘qitishning asosiy g’oyasi nimadan iborat bo‘lishi va qanday talablarga javob berishini ifodalashi lozim. Shu ma’noda “tamoyil” o‘rniga “prinsip” so‘zini ishlatmoq maqulroq tuyuladi.

Endi e’tiborni “O‘zbek tilining izohli lug‘atiga bu iboralarga berilgan izohlarga qaratamiz. “Prinsip ⌈lot. principium-asos, negiz; ibtido⌋[1]. Biror nazariya, ta’limot, dunyoqarash, va sh.k.ning dastlabki asosiy qonun qoidasi; faoliyat uchun asos qilib olinadigan bosh g‘oya, qonun-qoida”.

“Tamoyil [ar.-tebranish, chayqalish; o‘zgarib turish; o‘zgaruvchanlik; moyillik] 1. Mayl, moyillik 2. Biror sohada tartib qoida, tusini olgan narsa, tadrijiy yo‘nalish”.

“Didaktika” o‘quv qo‘llanmasida qayd etilishicha “Prinsip-rahbar g‘oya asosiy qoida, xulqqa nisbatan asosiy talab”[2] .

Shuningdek, N. Saidahmedovning “Yangi pedagogik texnologiyalar” risolasida prinsip tushunchasiga shunday ta’rif beradiki; “Prinsip- lotincha “principium” so‘zidanolingan bo‘lib asos, dastlabki xolat, boshqaruvchi g‘oya, umumlashtirilgan talab kabi ma’nolarni anlatadi”.[3]

Demak, gap ta’lim-tarbiya, yoshlarni o‘qitish, ularga ta’lim berish, ma’lumotli qilish, shaxs sifatlarini shakllantirish to‘g‘risida borar ekan “prinsip” so‘zini qo‘llash fikrimizga aniqroq, dadilliroq bo‘ladi. Chunki ta’lim va tarbiya prinsiplari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bilan bog‘liq holda jamiyat ehtiyojlarini qondirishga, talab va vazifalarni bajarishga qaratilgan pedagogik hodisadir.

Biz oliy ta’limda pedagogik fanlarni o‘qitish metodikasining prinsiplari deganda mazkur fanlarni o‘qitish jarayonlarini tashkil etishi va amalga oshirishda o‘quv tarbiya mazmunini, shakllari, metodlarini tanlanishini begilaydigan dastlabki holatni, umumiy qoidalarni va talablarni tushunamiz.

---

[1] Qarang; o’zbek tilining izohli lug’ati. T.: “O’zbekiston milliy ensiklapediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006, 309-bet

[2] Zunnunov A. Mahkamov U. Didaktika: Oliy o‘quv yutrlari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma.- T.; “Sharq”, 2006, 36-bet

[3] Saidahmedovning N. Yangi pedagogik texnologiyalar nazariya va amaliyot. –T.: “Moliya” nashriyoti, 2003 82-bet.

Prinsiplarda ta’lim beruvchi va ta’lim o‘rganuvchiga o‘qitish jarayonida rioya qilishi lozim bo‘lgan talablar mujassamlashgan. Bu masalalar tanlangan o‘quv mavzusining mazmunidan kelib chiqib qo‘llaniladigan faoliyatning shakli, yo‘l-yo‘riqlari, vositalarini pedagogik jihatdan to‘g‘ri tanlanishini belgilaydi hamda ta’lim-tarbiya muvaffaqiyatni ta’minlaydi. Zero, metodika o‘quv predmetining prinsiplari ilmiy-amaliy dunyoqarashni, ma’naviy-axloqiylikni, mazmunli hamda oqilona ehtiyojlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan faoliyatni nazarda tutadi va yo‘lga qo‘yadi.

5.4.Pedagogik fanlar mazmunini belgilovchi me’yoriy hujjatlar. Davlat ta’lim standarti

Ta’lim mazmuni – belgilangan maqsadga muvofiq yo‘nalish va hajmiga ega bo‘ladi. U tegishli me’yoriy hujjatlar: davlat ta’lim standartlari, o‘quv reja, dasturlar shaklida rasmiylashtirib, o‘rnatilgan tartibda tasdiqlanadi[1].

Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartining maqsadi — umumiy o‘rta ta’lim tizimini mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish, ma’naviy barkamol va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan iborat.

Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartining vazifalari quyidagilardan iborat:

-umumiy o‘rta ta’lim mazmuni va sifatiga qo‘yiladigan talablarni belgilash;

-milliy, umuminsoniy va ma’naviy qadriyatlar asosida o‘quvchilarni tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish;

-o‘quv-tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining o‘quvchilari va bitiruvchilarining malakasiga qo‘yiladigan talablarni belgilash;

-kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta’lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta’minlash;

[1] Ж.Ҳасанбоев, Х.Тўрақулов, М.Ҳайдаров, О.Ҳасанбоева, Н.Усманов. Педагогика фанидан изоҳли луғат. Т.: “Фан ва технология”, 2009, 464-бет

-ta’lim va uning pirovard natijalari, o‘quvchilarning malaka talablarini egallaganlik darajasini tizimli baholash tartibini, shuningdek ta’lim-tarbiya faoliyati sifatini nazorat qilishning huquqiy asoslarini takomillashtirish;

-davlat ta’lim standartlari talablarining ta’lim sifati va kadrlar tayyorlashga qo‘yiladigan xalqaro talablarga muvofiqligini ta’minlash.

Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti quyidagi asosiy prinsiplarga asoslanadi:

- o‘quvchi shaxsi, uning intilishlari, qobiliyati va qiziqishlari ustuvorligi;
- umumiy o‘rta ta’lim mazmunining insonparvarligi;
- davlat ta’lim standartining ta’lim sohasidagi davlat va jamiyat talablariga, shaxs ehtiyojiga mosligi;
- umumiy o‘rta ta’limning boshqa ta’lim turlari va bosqichlari bilan uzluksizligi va ta’lim mazmunining uzviyligi;
- umumiy o‘rta ta’lim mazmunining respublikadagi barcha hududlarda birligi va yaxlitligi;
- umumiy o‘rta ta’limning mazmuni, shakli, vositalari va usullarini tanlashda innovatsiya texnologiyalariga asoslanilganligi;
- o‘quvchilarda fanlarni o‘rganish va ta’lim olishni davom ettirish uchun tayanch va fanlarga oid umumiy kompetentsiyalarni rivojlantirishning ta’minlanganligi;
- rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ta’lim sohasida me’yorlarni belgilash tajribasidan milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda foydalanish.

Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

- umumiy o‘rta ta’limning tayanch o‘quv rejasi;
- umumiy o‘rta ta’limning o‘quv dasturi;
- umumiy o‘rta ta’limning malaka talablari;
- baholash tizimi.

Umumiy o‘rta ta’limning tayanch o‘quv rejasi umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan o‘quv fanlari nomi, o‘quv yuklamasining minimal hajmi hamda ularning sinflar bo‘yicha taqsimoti belgilangan hujjat hisoblanadi.

Tayanch o‘quv reja umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining dars jadvalini ishlab chiqish uchun asos hisoblanadi.

Tayanch o‘quv reja umumta’lim fanlari bo‘yicha belgilangan ta’lim mazmunini o‘quvchiga yetkazish uchun ajratilgan o‘quv soatlari (davlat ixtiyoridagi va maktab ixtiyoridagi soatlar)ning minimal hajmini belgilaydi.

Umumiy o‘rta ta’limning o‘quv dasturi tayanch o‘quv rejaga muvofiq o‘quv fanlarining sinflar va mavzular bo‘yicha hajmi, mazmuni, o‘rganish ketma-ketligi va shakllantiriladigan kompetentsiyalari belgilangan hujjat hisoblanadi.

O‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

Umumiy o‘rta ta’limning malaka talablari umumta’lim fanlari bo‘yicha ta’lim mazmunining majburiy minimumi va yakuniy maqsadlariga, o‘quv yuklamalari hajmiga hamda ta’lim sifatiga qo‘yiladigan talablardan iborat bo‘lib, u quyidagilardan tashkil topadi:

bilim — o‘rganilgan ma’lumotlarni eslab qolish va qayta tushuntirib berish;

ko‘nikma — o‘rganilgan bilimlarni tanish vaziyatlarda qo‘llay olish;

malaka — o‘rganilgan bilim va shakllangan ko‘nikmalarni notanish vaziyatlarda qo‘llay olish va yangi bilimlar hosil qilish;

kompetentsiya — mavjud bilim, ko‘nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo‘llay olish qobiliyati.

Baholash tizimi — davlat ta’lim standarti bo‘yicha umumiy o‘rta ta’limning malaka talablarini o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishi darajasini hamda umumiy o‘rta ta’lim muassasasining faoliyati samaradorligini aniqlaydigan mezonlar majmuidan iborat.

Davlat ta’lim standartini joriy etish, shu jumladan umumta’lim fanlari bo‘yicha ta’lim mazmuni va sifatiga qo‘yiladigan minimal talablarni, umumiy o‘rta ta’lim muassasalari bitiruvchilariga qo‘yiladigan malaka talablarini tasdiqlash pedagogik tajriba-sinov ishlari muvaffaqiyatli yakunlanib, ularga ekspert baho berilgach amalga oshiriladi.

Umumiy o‘rta ta’lim sifatini nazorat qilishning turlari quyidagilardan iborat:

ichki nazorat — O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan tartib asosida umumiy o‘rta ta’lim muassasasining monitoring guruhi tomonidan amalga oshiriladi;

tashqi nazorat — ta’lim sohasidagi vakolatli davlat organlari, hududiy xalq ta’limi boshqaruvi organlari tomonidan amalga oshiriladi;

davlat-jamoatchilik nazorati — qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hududiy xalq ta’limi boshqaruvi organlari va nodavlat notijorat tashkilotlar hamkorligida amalga oshiriladi;

milliy va xalqaro darajada baholash — Hukumatning tegishli qarori hamda xalqaro shartnomalar asosida xalq ta’limi boshqaruvi organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar va xalqaro tashkilotlar hamkorligida amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasida ta’limning uzluksizligi, uzviyligi, o‘quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda quyidagi tayanch kompetentsiyalar shakllantiriladi.

Kommunikativ kompetentsiya — ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda birorta xorijiy tilda o‘zaro muloqotga kirisha olishni, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, ijtimoiy moslashuvchanlikni, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Axborotlar bilan ishlash kompetentsiyasi — mediamanbalardan zarur ma’lumotlarni izlab topa olishni, saralashni, qayta ishlashni, saqlashni, ulardan samarali foydalana olishni, ularning xavfsizligini ta’minlashni, media madaniyatga ega bo‘lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetentsiyasi — doimiy ravishda o‘z-o‘zini jismoniy, ma’naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayot davomida mustaqil o‘qib-o‘rganish, kognitivlik ko‘nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, o‘z xatti-harakatini muqobil baholash va mustaqil qaror qabul qila olish ko‘nikmalarini egallashni nazarda tutadi.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetentsiyasi — jamiyatda bo‘layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o‘zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala va huquqiy madaniyatga ega bo‘lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Milliy va umummadaniy kompetentsiya — vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga

e’tiqodli bo‘lish, badiiy va san’at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, madaniy qoidalarga va sog‘lom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetentsiyasi — aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarni tuza olish, kundalik faoliyatda turli diagramma, chizma va modellarni o‘qiy olish, inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan, qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan foydalana olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Mazkur kompetentsiyalar umumta’lim fanlari orqali o‘quvchilarda shakllantiriladi.

Shuningdek, har bir umumta’lim fanining mazmunidan kelib chiqqan holda o‘quvchilarda fanga oid umumiy kompetentsiyalar ham shakllantiriladi.

Darslik — davlat ta’lim standartlariga muvofiq o‘quv dasturi asosida didaktik, metodik, pedagogik-psixologik, estetik va gigienik talablarga javob beradigan, o‘quv fanining mavzulari to‘liq yoritilgan, uning asoslari mukammal o‘zlashtirilishiga qaratilgan, o‘quv fanining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda ta’lim oluvchilarning yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqiladigan, nazariy ma’lumotlardan tashqari amaliy-tajriba va sinov mashqlarini qamrab olgan kitob shaklidagi o‘quv nashri.

Mashq daftari — darslikning tarkibiy qismi hisoblanadigan, davlat ta’lim standartlariga muvofiq o‘quvchilar tomonidan egallangan bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlash hamda o‘quv fanining mavzulariga mos ravishda ishlab chiqilgan, mantiq va tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan (krossvordlar, boshqotirmalar, mantiqiy fikrlashga undovchi topshiriqlar va hokazo) topshiriqlardan iborat bo‘lgan didaktik vosita.

O‘qituvchi uchun metodik qo‘llanma — darslikdagi har bir mavzuni samarali o‘qitish metodikasi, qo‘shimcha sinov topshiriqlari va o‘qituvchining darsni qiziqarli tashkil etishiga oid boshqa metodik ko‘rsatmalar berilgan, har bir darsning maqsadi, darsda foydalaniladigan vositalar va ulardan foydalanish usullari, darsning mazmuni, amaliy mashg‘ulotlar, qo‘shimcha topshiriqlar va boshqalar haqida metodik ko‘rsatmalar aniq bayon qilingan kitob shaklidagi o‘quv nashri.

Darsliklarning multimediali ilovalari — axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida o‘quv faniga oid materiallarni davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturiga mos ravishda yorita oladigan, o‘quv fanini samarali o‘zlashtirishga, o‘quvchilarning mustaqil ta’lim olishiga ko‘maklashuvchi hamda video, ovoz, animatsiya, jadval, matn va lug‘atlarni o‘z ichiga olgan, bilimlarni nazoratdan o‘tkazish va mustahkamlashga yo‘naltirilgan, o‘quv fanining asosiy mazmunini boyitadigan qo‘shimcha materialga ega bo‘lgan yoki shu kabi manbalarga murojaatlarni o‘z ichiga olgan interaktiv elektron axborot-ta’lim resursi.

O‘quv-metodik majmualar davlat ta’lim standartlari, o‘quv reja va dasturlariga muvofiq, didaktik, metodik, pedagogik-psixologik, estetik va gigienik talablar asosida ishlab chiqilgan darslik, mashq daftari, o‘qituvchi uchun metodik qo‘llanma va darslikning multimediali ilovalarini o‘z ichiga oladi.

Pedagogika fanlari o'qituvchisining o'quv meyoriy hujjatlariga davlat ta’lim standarti, malaka talablari, o‘quv reja, ishchi o‘quv reja, fanning o‘quv dasturi, fanning ishchi o'quv dasturi, o'qituvchining fanga doir taqvimiy- mavzuiy rejasi, ma’ruza va amaliy mashg'ulotlar ishlanmasi, darslik, o'quv uslubiy majmua kabilar kiradi.

Malaka talablari **—** *uzluksiz ta’lim tegishli bosqichi bitiruvchisining umumiy bilim va kasb tayyorgarligi darajasiga qo’yiladigan talablar.*

O‘quv rejasi — oliy ta’limning muayyan bakalavriat ta’lim yo‘nalishi yoki magistratura mutaxassisligi bo‘yicha o‘quv faoliyati turlari, o‘quv fanlari va kurslarining tarkibi, ularni o‘rganishning izchilligi va soatlardagi hajmini belgilaydigan hujjat hisoblanadi.

O‘quv fani dasturi — ta’lim mazmuni, uning talabalar tomonidan o‘zlashtirilishining eng maqbul usullari, axborot manbalari ko‘rsatilgan normativ hujjatdir.

Fan dasturining asosiy maqsadi – davlat ta’lim standartlari va malaka talablarida bakalavr va magistrning bilimi, ko‘nikma va malakalariga qo‘yilgan talablarga muvofiq o‘quv rejaga kiritilgan muayyan fan tomonidan mehnat bozori talablariga javob beradigan mutaxassislarni sifatli tayyorlash uchun shakllantirilishi zarur bo‘lgan kompetensiyalar, bilim, ko‘nikma va malakalar majmuini belgilash, fan mazmuni va tarkibiy kismlarini tartibga solish.

Fan dasturining asosiy vazifalari:

– fanga oid o‘quv materiallar mazmuni va tuzilmasini maqbul holatga keltirish va optimallashtirish, mashg‘ulotlar mavzularining mantiqiy ketma-ketligini hamda boshqa fanlar bilan mazmuniy-mantiqiy bog‘liqligini ta’minlash;

– uzluksiz ta’lim tizimining ta’lim turlari o‘rtasidagi uzviylik va uzluksizligini, shuningdek, fanning mazmun va mavzulari boshqa ta’lim turlaridagi hamda turdosh yo‘nalishlardagi fanlarning mazmun va mavzulari bilan takrorlanmasligini ta’minlash;

– fanga oid jahondagi ilm-fan, texnika, texnologiyalarning so‘nggi yutuqlarini, ilg‘or horijiy tajribalarni keng yoritish va ularni hisobga olgan holda fan mavzularini shakllantirish;

– ta’lim shakli va o‘quv fanga ajratilgan vaqtga muvofiq o‘quv materiallarni mavzular va mashg‘ulotlar turlari bo‘yicha taqsimlash;

– fanni o‘zlashtirish, talabalarda fanga oid kompetensiyalarni, kasbiy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish uchun zarur o‘quv-uslubiy shartlar, o‘quv adabiyotlar va didaktik materiallarni belgilash;

– baholash vositalari yordamida talabalar bilimini nazorat qilish shakllarini belgilash.

Fan dasturi uning asosiy maqsadi va vazifalariga to‘liq amal qilingan holda ishlab chiqilishi talab etiladi.

Fan dasturlarining mazmuni va tarkibi. Fan dasturi ta’lim jarayonining muhim me’yoriy-uslubiy xujjati bo‘lib, unda o‘quv materiallar ma’ruza, seminar, kollokvium, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari, o‘quv va ishlab chiqarish amaliyotlari shaklida mantiqiy ketma-ketliklikda joriy etilishi, fanni o‘qitishda zarur hollarda kurs loyihasi, kurs ishi, mustaqil ish, chizma-hisob, ijodiy, laboratoriya va boshqa ishlar ularga ajratilgan vaqt me’yorlariga mosligini ta’minlagan holda qo‘llanilishi ko‘zda tutiladi.

Fan dasturi quyidagi **tarkibiy qismlardan** iboratdir:

– fan dasturining titul varag‘i va uning sirt tarafidagi ma’lumotlar;

– o‘quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta’lim dasturidagi o‘rni;

– o‘quv fanining maqsadi va vazifasi;

– asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari);

– amaliyot, seminar va laboratoriya mashg‘ulotlari bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar;

– mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar;

– o‘quv va ishlab chiqarish amaliyotlari;

– asosiy va qo‘shimcha o‘quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari.

Darslik – DTS, o‘quv dasturi, uslubiyati va didaktik talablari asosida belgilangan, milliy mafkura g‘oyalari singidirilgan, muayyan o‘quv fanining mavzulari to‘liq yoritilgan, tegishli fan asoslarini mukammal o‘zlashtirishga qaratilgan hamda turdosh ta’lim yo‘nalishlarida foydalanish imkoniyatlari hisobga olingan nashr.

Darslikni bu pedagogik tizimning axborotli modeli deb atash mumkin. Bunga sabab har bir o‘qituvchi darslikda ta’lim oluvchilar bajarilishi kerak bo‘lgan o‘quv jarayonining ma’lum bosqichlari ko‘rsatilgan bo‘lib, ta’lim oluvchilar uchun mavzularni o‘qib, undagi topshiriqlarni ma’lum harakatlar ko‘rinishida bajarishadi: tekshiradi, echadi, javob beradi va h.k. Bu harakatlar darslik matnlarida ochiq yoki yashirin shaklda berilishi mumkin.

Demak, darslik bu – muayyan o‘quv predmeti mazmunini o‘quv dasturida ko‘satilgan hajmda, didaktik talablarga muvofiq ravishda batafsil bayon qilingan kitob bo‘lib, uning **xarakterli xususiyati** darslik mazmunining o‘quv dasturi mazmuniga mos kelishidir.

Darslikdagi material bo‘limlar bo‘yicha taqsimlanadi. Har bir mavzu, muayyan bob, uning tarkibida bo‘lgan bandlar asosida ochib beriladi.

Darslikning kirish qismida fanning jamiyat va tabiatdagi o‘rni, roli va metodologik asosi, maqsadi, vazifalari va echimini kutayotgan muammolari, boshqa fanlar bilan bog‘liqligi, bo‘lajak mutaxassisning kasbiy faoliyatidagi ahamiyati haqidagi ma’lumotlar, fanga tegishgi soha yoki ishlab chiqarishning zamonaviy taraqqiyoti hamda talabaning fan bo‘yicha egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar yoritilishi talab qilinadi. Kirish tushunarli va qisqa bayon etilishi lozim.

Darslikning asosiy matni – bu ta’lim oluvchi tomonidan o‘rganilishi va o‘zlashtirishi majburiy bo‘lgan o‘quv axborotining asosiy manbai vazifasini bajaradi. Matnning mohiyatini asosiy tushunchalar, qonunlar, qoidalar, nazariyalar, mezonlar, tamoyillar va faoliyat usullari haqidagi bilimlar tashkil etadi.

Darslikdagi qo‘shimcha materiallar. Bu matnlar – asosiy matnda bayon qilingan holatlarni mustahkamlab va chuqurlashtirishga, kasbiy qobiliyatlarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi o‘quv materialini o‘z ichiga oladi. Qo‘shimcha matnlarga belgilashlar, hujjatlar (xrestomatik) materiallar, amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan

mashqlar, xulosalar, tavsiyalar, ma’lumotlar kiradi. Qo‘shimcha matnlar o‘quv materialini o‘zlashtirishga yordam berish bilan birga ijodkorlikka undovchi va tarbiyaviy funksiyalarni bajarishga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim.

Darslikning tushuntirish matni – o‘quv materialini tushunishga va chuqurroq o‘zlashtirishga mo‘ljallangan xususiy yozma tuzilma. Bu matnlar ta’lim oluvchilarning mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil qilishda muhim ahamiyatga ega. Tushuntiruvchi matnlarga izohlar, ilovalar, tayanch iboralar, tushuntirishlar, lug‘atlar, ramzlar va ko‘rsatkichlar kiradi. Bu matnlar tushunarli, qisqa va ma’lum tushunchani aniq shakllantiradigan bo‘lishi kerak.[1]

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savollar hamda topshiriqlar:

1. Ta’lim mazmuniga ta’rif bering.
2. Formal ta’lim nazariyasi haqida tushuncha bering.
3. Ta’lim mazmunini aniqlovchi asosiy omillar qaysilar?
4. Hozirgi sharoitda ta’lim mazmuni yetakchi g‘oyalarini tahlil qiling.
5. Ta’lim mazmunining barcha elementlari barcha bosqichlarda jamiyat, fan, madaniyat va shaxs rivojlanishi talablariga mos bo‘lishi tamoyilini izohlang.
6. Ta’limning yagona mazmunli va protsessual tomoni tamoyili haqida ma’lumot bering.
7. Ta’lim mazmunining yaxlit tuzilishi tamoyilini ta’riflang.
8. Ta’lim mazmunini insonparvarlashtirish tamoyiliga ta’rif bering.
9. Ta’lim mazmunini fundamentallashtirish tamoyilini izohlang.
10. Ta’limning mazmuni muntazamligi tamoyili nima?
11. Ta’lim mazmunining o‘quvchilar yoshlari imkoniyatlariga mosligi tamoyili haqida ma’lumot bering.
12. Pedagogik fanlar mazmunini belgilovchi me’yoriy hujjatlarni ayting .
13. Davlat ta’lim standarti nima?

[1] Ҳасанбоев Ж., Тўрақулов Х.А., Алқаров И., Усмонов Н.Ў., Исъянов Р.Г., Юзликаев Ф. Педагогика назарияси (Дидактика): Олий ўқув юртлари учун дарслик. – Тошкент: Фан ва технологиялар, 2011. 105-бет.

6-MAVZU. PEDAGOGIK FANLARNI O‘QITISH METOD VA VOSITALARI

Tayanch so‘zlar: *metod, ta’lim metodlari, axborotli namoyish etish metodi, mustaqil ish metodlari, ma’ruza, ma’ruza-bahs metodi, suhbat, laboratoriya metodi, manbalar bilan ishlash metodi,ta’lim vositalari.*

6.1. Ta’lim metodi va usullari tushunchalari

Pedagogika va psixologiya yo‘nalishida o‘qitiladigan fanlar bo‘lajak o‘qituvchilarga shu fanlar haqida ma’lumot berib mazkur kasbga tayyorlaydi. Bu ta’lim jarayonida amalga oshadi. Ma’lumki, ta’lim ikki yoqlama jarayon bo‘lib, ta’lim beruvchilar va o‘quvchilar faoliyatini qamrab oladi. Bu jarayonning samarali bo‘lishi ko‘p jihatdan ta’lim beruvchilar bilan ta’lim oluvchilar faoliyatining to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishi bilan tasvirlanadi. Bu yo‘lni pedagogika fanida o‘qitish metodlari deb atash va nomlash qabul qilingan. Chunonchi o‘qitish metodlarini faoliyatni amalga oshirish yo‘li bo‘lib, u ko‘zlangan maqsadga erishishiga olib boradi.

Darhaqiqat, “Metod” yunoncha “metodos” so‘zidan olingan bo‘lib, “tadqiqot yo‘li”, “usul” kabi ma’nolarni anglatadi va maqsadga erishish uchun ta’lim beruvchi bilan ta’lim oluvchining o‘zaro ta’limiy muloqotlarini, tadqiqotlari amalga oshirish uchun xizmat qiladi.

Ta’lim metodlarining mohiyati, ularga berilgan ta’riflarda o‘z izohini topa olgan. Zero, o‘qitish jarayonning mohiyati shu jarayon uchun xarakterli bo‘lgan va muayyan qonuniyatlarda namoyon bo‘ladigan ichki aloqa va munosabatlarni amalga oshirishga ko‘maklashuvchi usul, metod, so‘zlarda aks ettiriladi.

Keyingi davrlarda ilmiy pedagogik manbalarda “ta’lim metodlari” tushunchasida ko‘pgina ta’riflar berilgan bo‘lib, bu ta’riflarda o‘qitish jarayonida ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilar faoliyatini bir yo‘nalishda undovchi fikrlar qayd etilganki, ular to‘liq ma’noda “ta’lim metodlari” terminining mohiyatini to‘la ochib bera olishga qodir. Masalan, ta’lim metodlari o‘quv jarayonining murakkab tarkibiy unsuri (komponenti) bo‘lib, o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatini barcha yo‘nalishlarini yoritishda xizmat qiladi, ular o‘rtasida ko‘p sonli

aloqani va bog‘lanishlarni yuzaga keltiradi[1] deb yozgan edi professor G.I.Shukina. Bu ta’rifda ta’lim metodlarining mohiyati o‘qitish jarayonida o‘qituvchi bilan ta’lim oluvchilar faoliyatlarini yakka maqsad bo‘yicha tashkil qiladi hamda faoliyatning turli aloqadorlik va bog‘lanishlik holatini vujudga keltirishdaligi ochib berilgan.

Shuningdek, ta’lim metodlarining o‘qituvchini o‘rgatuvchanligi faoliyati asosida o‘quvchilar o‘quv mehnatini tashkillashtiruvchi hamda didaktik topshiriqlar yechimini topishga yo‘naltirilgan o‘quv-biluv faoliyati usullari jamigina ta’kidlovchi ta’rif ham mavjud. “Ta’lim metodlari deganda o‘qituvchining o‘rgatuvchanligi va o‘quvchilarning o‘quv materialini egallashga yo‘naltirilgan turli didaktik masalalar yechimini topishga oid o‘quv-bilish faoliyatlarini tashkil etish usullari tushuniladi”[2]

Shu nuqtai nazarda pedagogik turkum fanlarni o‘qitadigan o‘qituvchilar unutmasligi kerakki, qayd qilingan ta’riflarda ta’lim metodlari o‘quv jarayoni oldiga qo‘yilgan maqsadlarga erishish uchun o‘qituvchi - o‘quvchilar faoliyatini yagona yo‘nalishi nazariy va amaliy bilimlarni o‘zlashtirishiga yo‘naltirish yo‘llarini anglatishi nazarda tutilgan.

Ta’lim metodlari ko‘p hollarda o‘qitish jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchining faoliyati qanday tartibda bo‘lishini, o‘qitish jarayonini qanday tashkil etish va olib borish talabga muvofiqligini hamda bu jarayonda o‘quvchilarning o‘quv-bilish harakatlari qanday tashkillashtirilishi lozimligini ham bilib beradi.

Ma’lumki, o‘qituvchi ta’lim berish jarayonida insoniyat taraqqiyoti va tajribasida to‘plangan hamda bilimlar holatiga keltirilgan ma’lumotlarni bu ma’lumotylarni hali egallamagan o‘quvchining ongi o‘rtasida vositalik vazifasini bajaradi. Bunday holatda bola o‘qituvchining ko‘magisiz ijtimoiy tarixiy tajribalarni ifodalovchi barcha bilimlarni o‘zlashtirishga qodir emas. Bunday o‘qituvchining katta xizmati o‘quv meyorini bayon qilishga eng maqbul yo‘l, metod va usullarni tanlashda namoyon bo‘ladi. Ta’lim metodlari o‘quv materialini bayon qilishda va bolalar yaxshi bilib olishlariga qaratilgan o‘qituvchi va o‘quvchining o‘zaro hamkorlikdagi tartibli faoliyatlarining usullari ham hisoblanadi. “Ta’lim metodlari dastlab

[1] Qarang: Pedagogika: o’qituvchilartayyorlash va pedagogika fani ta’lim sohasi bakalavriat yo’nalishi uchun darslik.- T.: “O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2010, 125-bet.
[2] Харламов И.Ф. Педагогика: учеб. пос. 2- изд Высшая школа, 1990, 194-195-ст

pedagog ongida, muayyan yo‘nalishdagi faoliyatning umumlashgan tarzdagi ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Mazkur ko‘rinish amaliy faoliyatda o‘qituvchi va o‘quvchi hamkorligining o‘zaro bogliqligida o‘qitish va o‘qish vazifalarini aniq bajarishga yo‘naltirilgan harakatlar, amallar usullar birligida amalga oshiriladi. Metod boshqa ko‘rinishlarda namoyon bo‘lmaydi, buning sababi ta’lim metodi o‘zida umumiy holda faoliyatning didaktik modelini ifoda etadi”[1].

Shuni e’tirof etish joizki ta’lim metodlari tarkiban, o‘qitish va o‘qish usullaridan tashkil topgan. Bunda o‘qitish va o‘qish usullari metodning bir qismi bo‘lib, o‘quv vazifasini hal etishda metodning metodning ta’sirchanligi va natijaviyligini kengaytiradi. Masalan, o‘qituvchi og‘zaki bayon metodidan foydalanganda, tushuntirish yoki suhbat usulidan foydalanishi mumkin, o‘quvchi esa o‘qishda mustaqil ish yoki kitob bilan ishlash usulidan foydalanadi. Bunda bilimlarni og‘zaki bayon etish, tushuntirish, suhbat, mustaqil ish, kitob bilan ishlash kabilar usullar hisoblanib, ular yordamida didaktik vazifalar-bilimlarni o‘rgatishi, mustahkamlash, tadbiq qilish hal etiladi. Chunonchi, o‘qituvchi ijtimoiy tajribani o‘quvchilarga o‘rgatish talablaridan kelib chiqib, o‘z faoliyatini o‘quvchi-yoshlar faoliyatiga muvofiqlashtiradi. Bunda ta’lim metodlarini ta’lim usullari to‘ldiradigan bo‘lishi kerak, mabodo bunday bo‘lmasa, ta’lim metodlarining natijasi foydasiz narsaga aylanadi.

Ta’lim metodlari yana bir tomondan oliy o‘quv yurti talabalarining anatomik-fiziologik, biologik xususiyatlariga ham bog‘liqdir. Talabalarning bilim faoliyatini tashkil qilishda ularning yoshiga xos biologik rivojlanishni hisobga olish lozim. Chunki, ta’limning ko‘p jihatlari ishlash qobiliyati, jismoniy sog‘lik, aqliy o‘sish, kayfiyat, intellekt, gigiyenik shart-sharoitlar aynan biologik rivojlanish bilan bog‘liq. Oliy ta’lim talabalarining intellektini inobatga olib ta’lim metodlarini tanlash muhim ahamyat kasb etadi. Binobarin intellekt-bilish, tushunish, idrok qilish hisoblanib, yoshlarni aqliy qobiliyati fikrlashi, o‘qish-o‘rganishi ijtimoiy hayotni, muhitni, voqelikni aynan ongda aks ettirishni voqea hodisalarni oldindan ko‘ra bilish layoqatini ifodalaydi va turli muammolarni oqilona hal qilish, aniq qarorlar chiqarish, to‘g‘ri ish yuritishi uchun muhim ahamyat kasb etadi.

[1] Лернер И.Я. Дидактическая система методов обучения. –М.; «Знание» , 14-15-ст.

Demak, pedagogik fanlarni o‘qitish metodlari deyilganda, pedagogika va psixologiya ta’lim yo‘nalishida o‘qitiladigan pedagogik turkum fanlaridagi ma’lumotlarni o‘qitish jarayonida o‘qituvchi tomonidan bayon qilish, uzatish va ta’lim oluvchi(o‘quvchi)lar tomonidan bu ma’lumotlarni, nazariyalarni idroklash, o‘zlashtirish yo‘li deb tushunmoq kerak.

Pedagogika fanlarini pedagogika va psixologiya ta’lim kurslarida o‘qitish jarayonida ta’lim metodlarini optimal tanlashga erishish uchun, avvalo, o‘qituvchi ta’lim metodlarining nazariy va amaliy asoslarini, o‘quvchi yoshlarning yosh va individual ruhiy xususiyatlarini, ilmiy bilimlarni o‘zlashtirishdagi layoqatlarini, qiziqishlarini inobatga olgani bo‘lishi, tajribadan sinalgan metodlar bilan to‘la qurollangan, ulardan optimal foydalanish yo‘llarini mukammal egallagan bo‘lishlari lozim. Shuningdek, ta’lim metodlarini pedagogik fanlarni o‘qitish jarayonida optimal tanlash uchun ta’lim metodlari tasnifini chuqur egallagan bo‘lishlari talab etiladi.

6.2.Pedagogik fanlarni o‘qitish metodlarining tasnifi

Pedagogika va psixologiya ta’lim yo‘nalishida pedagogik fanlarni o‘qitish juda murakkab jarayon hisoblanib bu fanlarni o‘qitishda ta’lim metodlarining turli-tuman tasniflari mavjud. Didaktika fanida ta’lim metodlarini tasniflashning turli-tumanligi ta’lim jarayonida turlicha, yondashuvlarning maydonga kelganligi va bu yondashuvlarning qandaydir didaktik belgilarga qarab o‘qitish metodlarining tasniflanishiga yondashilganligidadir. Shu nuqtai nazardan ba’zi mutaxasislar ta’lim metodlarini tasnif etishda bilish manbalarini hisobga olishsa, ayrim mutaxasislar o‘qituvchi xususiyatlaridan kelib chiqishadi, uchinchi bir guruh olimlar esa o‘quvchilar faoliyatini faoliyatini e’tiborga olishadi. Ta’lim metodlariga bunday qarashlarning ko‘p rang-barang bo‘lishi tabiiy. Zero, ta’lim metodlari mazmunan boy hodisa bo‘lib, ular ma’lumot mazmuni bilan ham o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati bilan ham bilim va malakalar bilan ham, shuningdek, ijodiy qobiliyatlarni, munosabatlarni rivojlantirish bilan ham daxldor katigoriyadir. Qayd etilgan fikrlarga aytish mumkinki ananaviy didaktikada ta’lim metodlarini o‘quvchi bilim oladigan manbaga qarab ya’ni o‘qituvchi nutqi ko‘rgazma qurol, darslikni va qo‘shimcha materiallarni ta’lim manbai deb qabul qilish ta’lim metodlarini; og‘zaki bayon qilish metodlari (hikoya, ma’ruza, suhbat, tushuntirish

o‘qituvchining jonli nutqi, kitob bilan ishlash): ko‘rgazmali metodlar (namoyish qilish, tasviriy materiallar, ekskursiyalar va h.k.); amaliy metodlar (mashqlar, amaliy ishlar, laboratoriya ishlari va h.k.)ga bo‘lib tasniflaganlar(S.I.Peroveskiy, E.Ya.Golyan). Boshqa guruh olimlari (M.A.Danilov, B.P.Yesipov) ta’lim jarayonining muayyan qismlarida bajariladigan o‘quv vazifasining mazmunidan kelib chiqib ta’lim metodlarini bilimlarni o‘rganishga oid metodlar; bilish va ko‘nikmalarni shakllantirish metodlari; bilishni tadbiq etish metodlari; ijodiy ishlash metodlari; bilim va malakalarni mustahkamlash, hamda bilimlar va ko‘nikmalarni tekshirish metodlar. Taklif etilayotgan metodlar o‘quv mashg‘ulotlarining samarali bo‘lishi va tarbiyaviy vazifalarni hal etishga ko‘maklashadi.

Akademik Yu.K.Babanskiy ta’lim metodlarini uchta katta guruhga bo‘lib, tavsiflaydi.

1. O‘quvchilarning o‘quv-biluv faoliyatini tashkil qilishlari.
2. O‘quvchilarning o‘quv-biluv faoliyatini rag‘batlantirish metodlari.
3. O‘quvchilarning o‘quv-biluv faoliyatini nazorat va o‘z-o‘zini nazorat qilish metodlari.[1]

Yu.K.Babanskiy birinchi guruh metodlar jumlasiga, hikoya, o‘quv ma’ruzasi, suhbat, illyustryatsiya, namoyish qilish, o‘quv kinosi, induktiv-deduktiv, reproduktiv, muammoli-izlanish kabi ta’lim usullarini kiritadi va bu usullar yordamida o‘qituvchi asosan o‘quvchilar o‘quv-biluv faoliyatlarini yo‘lga qo‘yish orqali o‘quv materiallarini o‘qituvchi tomonidan bayon qilish va ularni o‘zlashtirishga jalb qilish lozimligini ta’kidlaydi. Bu jarayonda ikki shaxs ham o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatining hamkorligi yo‘lga qo‘yiladi.

Oliy o‘quv yurtlarida tahsil olayotganlar pedagogik turkum fanlarini o‘zlashtirishda keyingi faoliyatlarini inobatga olib, o‘quv-biluv faoliyatini tashkil etish metodlarining mazmun-mohiyatini chuqur anglab yetishlari talab etiladi. Zero, ta’lim metodi mazmunida har bir usul o‘ziga xos ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi faoliyatni yo‘lga qo‘yish, o‘quv materiallarini uzotish va ularni o‘zlashtirish yo‘llarini ko‘rsatishga xizmat qiladi. Masalan, o‘quv ma’ruza oliy ta’lim maktablarida ko‘p qo‘llaniladigan o‘quv ko‘rinishlaridan biri

[1] Педагогика: Учеб. пособий для студентов пед.ин-тов/под ред. Ю К Бабанского. –М.: Просвещение, 1983, 178-203 б

hisoblanib, unda o‘zaro ta’sir ta’lim beruvchining bayoni va ta’lim oluvchilarning tinglashlari, asosiy g‘oya va fanlarni yozib olishlari ko‘rinishida amalga oshadi. O‘qitish, o‘qish, o‘rganish samaradorligini oshirish uchun, ma’ruza jarayonida o‘qituvchi o‘z nutqini ko‘rgazma qurol, audio va video apparaturalar (qurilmalar), adabiyotlarda berilgan faktlar bilan uyg‘unlashtiradi. Bu jarayonda ma’ruzachi o‘z nutqini to‘xtatib, talabalarning ma’lumotlarini qabul qilish darajasini, ularning qiziqishi va xohishini oshirish maqsadida muammoli savollar, qiziqarli faktlar bilan murojat qilishni amalga oshirsa ayni muddao bo‘ladi. Bunda o‘quv-biluv faoliyatining barcha unsurlari-tinglash, ko‘rish, aniqlash, taqqoslash, fikr yuritish, mulohazani bayon qilish, amalga oshgan bo‘ladi. Shuningdek, mazkur guruhga kiruvchi barcha metodlar-ma’ruza, suhbat, tasvir, muammoli-izlanish, reproduktiv to‘siq qo‘llanilgan bo‘ladi.

O‘quv-biluv faoliyatini tashkil etishda deduktiv va induktiv metodlar ham muhiim ahamyatga ega. Zero, yangi o‘quv materialni o‘zlashtirish deduktiv va induktiv usullar yordamida amalga oshishi tajribada sinalgan. Pedagogik turkum fanlarini o‘qitishda, avvalo, o‘quv mavzularining umumiy, tomoni haqida, so‘ngra xususiy tomonlari izohlandi. Masalan, shaxs rivojlanishi, shakllanishi va ijtimoiylashuvi mavzusi o‘rganilganda dastlab shaxsning shakllanishiga ta’sir qiluvchi biologik omillar, ijtimoiy omillar, ta’lim tarbiyaning umumiy xususiyatlari yoritilib, so‘ngra har bir omilning bu jarayondagi ta’sir kuchi alohida qayd etiladi.

O‘qitish jarayonida talabalar o‘quv-biluv faoliyatini rag‘batlantirish metodlari tuzimiga o‘qishga qiziqishni motivlashtirish va rag‘batlantirish metodlari hamda o‘qishga burch va ma’suliyatni motivlashtirish va rag‘batlantirish metodlari kiritilgan. Ular tarkibiga bilish va qiziqishlarni shakllantirish, bilishga oid o‘yinlar, o‘quv munozaralari, o‘qishga ulgurish vaziyatini yaratish va o‘qishga burch va ma’lumotni rag‘batlantirish kabi usullar kiritilgan.

Mazkur metodlar ta’lim jarayonining samaradorligini ta’minlovchi muhim pedagogik hodisa sifatida o‘quvchilarning bilim olishga qiziqishlarini, rag‘batlarini bilim oluvchilarning mustaqil faoliyatlarini qamrab oladi.

O‘quv-biluv faoliyatlarini nazorat va o‘z-o‘zini nazorat metodlari og‘zaki nazorat metodlari, yozma nazorat metodlari, laboratoriya nazorat metodlari, o‘z-o‘zini nazorat metodlari turkumiga ajratgan

bo‘lib, ular ta’lim oluvchilar oldiga topshiriqlar qo‘yish va topshiriqlarni bajarish orqali o‘zlashtirilgan bilimlarning o‘zlashtirish darajasini aniqlashga xizmat qiladi.

Yu.K.Babanskiy taklif etgan metodlar ta’lim oluvchilarning o‘quv-bilish faoliyatlarini optimallashtiradi, o‘qitishning ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi funksiyalarini to‘la amalga oshishini ta’minlaydi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda chop etilgan pedagogika darsliklari va o‘quv qo‘llanmalarining “Ta’lim metodlari” bo‘limida XX asrning ikkinchi yarmida yaratilgan ta’lim metodlarining tasnifi to‘g‘risida so‘z boradi. Jumladan O.R.Roziqov va boshqalarning 1997-yilda chop etilgan “Didaktika” darsligida Ukraina olimlari V.F.Polamarchuk, V.I.Polamarchuk ta’lim metodlarini tasnif etishda uch masalani ta’lim manbalari bolalarning faollik va mustaqillik darajasi, o‘quv-bilishining borishidagi mantiqiy yo‘lni hisobga olish zarurligini uqtirishganligi qayd etildi. Shuningdek, S.G.Shapovalenkoning ta’lim metodlarini tasnif etishda ularning mantiqiy, mazmuniy, manbai, jarayoniy, ta’limiy boshqaruvchanlik xususiyatlarini hisobga olishni taklif etilganligi ko‘rsatiladi hamda ta’lim metodlari tasnifida bir vaqtda ta’lim manbalari va mantiqiylikni (N.M.Verzilin), ta’lim manbalari va o‘quvchilarning mustaqillik davrida darajasini (A.N.Alepsyuk, I.O.Zverov) mezon qilib olganligi tahlil etilgan.

2010-yilda o‘qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani sohasi uchun bakalavrlarga mo‘ljallab yozilgan, professor M.X.Toxtaxodjayevaning umumiy tahriri ostida chop etilgan “Pedagogika” darsligida pedagog N.S.Saidahmedov tomonidan taklif etilgan ta’lim metodlari tasnifi keltirilgan. Unda qayd etishicha N.S.Saidahmedov ta’lim metodlarini tasnif etishda didaktik jarayon nuqtai nazaridan yondashgan. “Ma’lumki-deb yoziladi darslikda,- didaktik jarayon har qanday pedagogik texnologiyaning asosi sifatida o‘zida quyidagi uchta komponentni mujassamlashtiradi.

1.Motivatsion

2.O‘quv faoliyati

3.Boshqaruv

Demak, didaktik jarayon tuzilmasiga mos holda ta’lim metodlarini quyidagi uch guruhga ajratish mumkin.

1.O‘qish va mehnatga rag‘batlantiruvchi hamda motivlashtirish metodlari

2.O‘quv-bilish faoliyatini boshqarish metodlari

3.O‘quv bilish faoliyatini boshqarish.

Bu guruhdagi metodlarning har biri kichik guruhlarga ajratilib tasniflangan[1].

O‘zbek olimlari A.Zunnunov va U.Mahkamovlar o‘zlarining “Didaktika” o‘quv qo‘llanmalarida[2] bilimni hayotga tadbiq etish metodlarining uch turini tavsiya qiladilar. Bular:

a) o‘quvchilar bilimini tekshirish va baholash metodlari

b) o‘quvchilarning o‘quv ishlarini muntazam kuzatib borish

v) o‘quvchilarning uy ishlarini tekshirish

Qayd etilgan birinchi guruh metodlariga mashq metodi, og‘zaki mashq, yozma mashq, grafik mashq, o‘quv mehnat mashqi, laboratoriya mashg‘uloti kabi metodlar kiradi. Ular egallagan nazariy mashg‘ulotlarni hayotga tadbiq etish, yoki bilimlarni ko‘nikma va malakalarga aylantirish maqsadi qo‘llaniladi. Bunga amaliyot ustuvorligi ta’minladi.

Ikkinchi guruh metodlari-og‘zaki, yakka frontal so‘rash, nazorat metodlaridan iborat bo‘lib, ular ta’lim oluvchilarda bilim o‘zlashtirish fikrlash, xotira, ko‘nikma, malaka hosil qilishga, bilim egallashga xohish, qobiliyat darajasini aniqlash uchun qo‘llaniladi.

O.R.Roziqov, S.Yu.Og‘ayev, M.M.Maxmudova, B.R.Adizovlar tomonidan yaratilgan va 1997-yilda “Fan” nashriyotidan chop etilgan “Didaktika” darsligida ta’lim metodlari o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati kontekstiga qarab chiqilib, o‘qitish usullari, o‘qish usullari deb tasniflanadi.[3] Darslikda rus pedagoglari tomonidan tasniflangan ta’lim metodlarining yangicha talablar asosida izohlanib, ta’lim metodlari o‘zaro ta’sirini tashkil etish, boshqarish va o‘zaro ta’sir natijasini nazorat etish nuqtai nazaridan tasniflanadi.

Ta’lim metodlarining o‘zaro ta’siri kesimida tasnif etilishi, ta’lim metodlarining yaxlit tizimini yaratilishi; ta’lim metodlari integrativ birligi ajratilishi; ta’lim metodlarining o‘qitish va o‘qish usullari

[1] Pedagogika (Pedagogika nazariyasi va tarixi): o’qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani bakalavriat yo’nalishi uchun darslik (M.X Taxtaxodjayeva, S. Nishonova, J. Xasanboyev, va boshqalar) –Toshkent, 2010, 138-139-betlar.

[2] Zunnunov A, Maxkamboyev U, Didaktika: Oily o’quv yurtlari talabalari uchun o’quv qo’llanma.-T.: “sharq” 2006, 67-70-betlar

[3] Roziqov O. R., Og’ayev S.Yu.“Didaktika” darslik. (oily o’quv yurtlari, asperantlar uchun).-Toshkent, “Fan” 1997, 184-205-betlar

tutashuvida shakllanishi, komillikka yondashuv va ta’lim metodlariga mazmuniy, jarayoniy tavsifi kontektida tahlil qilinadi.

Biz pedagogik fanlarni o‘qitishda keying davrlar (XX asrning 50-90-yillari va XXI asrning boshlari)da didaktika fanida yaratilgan metodlar tasnifining eng muhimlari to‘g‘risida fikr yuritdik. Ta’lim metodlari pedagogika fani singari tarixiy xarakterga ega. Chunonchi, o‘tmishda ham maktab, madrasa bo‘lib ularda o‘qitish o‘qish ishlari mavjud bo‘lgan. O‘qtuvchilar va o‘quvchilar o‘rtasida bilim olish muloqoti tashkil etilib, bunda o‘qitish-o‘qish usullari qo‘llanilgan. O‘qitish-o‘qish metodlari faqatgina XVII asrda o‘zining ilmiy asosiga ega bo‘ldi. Bunga Sharq mutafakkirlaridan Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Ibn Umar, Az-Zamaxshariy, Burhoniddin Zarnujiylarning metodlar tasnifida o‘rgatish, mashq qildirish, ilmga havas uyg‘otish kasb-hunarni egallash kabi mantiqiy bilish faoliyatini shakllantiruvchi, ko‘nikma va malakalarni tarkib toptiruvchi ko‘rsatmali tajriba, mustahkamlash, amalda qo‘llash, markaziy o‘rinda turadi.

Professor J. Hasanboyev va boshqalar tomonidan 2011-yilda chop etilgan “Pedagogika” darsligida[1] yuqorida zikr etilgan mutafakkirlarning ta’lim metodlari to‘g‘risidagi qarashlari bayon etilgan. Mazkur bayonga binoan Muhammad Muso al-Xorazmiy o‘tmishda qo‘llanilgan ta’lim metodlarini sintezlashtirishga harakat qilish, ko‘rgazmali-tajriba, savol-javob, malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish bilimlarni sinash metodlaridan keng foydalangan va shu metodlarni o‘qitish-o‘qish jarayoniga qo‘llashni tavsiya etgan.

Abu Rayhon Beruniy ilmiy bilimlarni egallashda ta’lim o‘rgatuvchilarga:

- ta’lim oluvchilarni zeriktirmaslik;
- bilim berishda bir xil narsani yoki bir xil fanni o‘rgatavermaslik kerak-bu dars jarayoniga qo‘yilgan talablarning biri;
- tahlil qilish va taqqoslash;
- uzviylik va izchillik;
- takrorlash;
- materialni ko‘rgazmali bayon qilish.

[1] . Hasanboyev J.va boshqalar . Pedagogika (pedagogika nazariyasi va tarixi) oily o’quv yurtlari uchun darslik. Toshkent: “Nashr” 2011, 362-363-betlar

Abu Nasr Forobiy asosan ta’limda barcha fanlarning nazariy asoslarini o‘rganishga, tarbiyada esa ma’naviy-axloqiy qoidalar, meyorlar, kasb-hunar o‘rgatishda amaliy masalalarga qaratilishi lozim. Bunda ta’lim tarbiyaning amaliy faoliyatini, nazariy faoliyat bilan uyg‘unlikda qo‘llash maqsadida nazariy metodlar, amaliy metodlardan foydalanish ta’kidlanadi. Shunga asosan ta’lim metodlari: ma’lumotlarni qabul qilish; ularni xotirada saqlash; tahlil qilish va fikrlash; xulosa qilishga ajratiladi.

Abu Ali ibn Sino bolalarni o‘quv-biluvga jalb etish uchun, yoshlikdan boshlab ularni kitob o‘qishga o‘rgatishni tavsiya qiladi. Talimda asosan kitob bilan ishlash, suhbat, fikrlarni anglash va tahlil qilish, tarbiya kabi usullardan foydalanish lozim deb biladi va bu usullar ta’lim oluvchida mustaqil, mantiqiy fikrni o‘stiradi deb ta’kidlaydi. Shunday qilib ta’lim metodlari o‘quv tarbiya jarayoning muhim unsurlaridan biri sifatida birinchidan ta’lim beruvchilarning o‘qitish, o‘rganish faoliyatlarini aniq maqsad sari yo‘naltirishga xizmat qiladi. Ikkinchidan ta’lim oluvchilarning o‘quv predmetlari ham fan asoslarini o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqishlari xohish istaklarini kuchaytirib, o‘quv-biluv faoliyatlarini faollashtiradi, uchinchidan, o‘quv materiallari mustaqil tahlil qilish, ijodiy o‘rganishga yo‘naltiradi. Buni talim metodlarini aniq tanlash, ulardan optimal foydalanmoqni o‘zlashtirish lozim.

6.3. Pedagogik fanlarni o‘qitish metodlari mohiyati

Pedagogik fanlarni o‘qitishda ta’lim metodlarini tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, tanlash o‘qituvchi imkoniyatlarini kengaytiradi, ta’lim o‘rganishda ta’lim oluvchilarning o‘quv-biluv faoliyatlarini faollashtiradigan ta’lim metodlarini tanlash muhim pedagogik hodisa hisoblanadi. Ta’lim metodlarini tanlash va optimal qo‘llashda o‘qituvchi muayyan tartib qoidalarga rioya qilishi lozim:

1. Tanlanayotgan metod o‘quv materiali mazmuniga muvofiq bo‘lishi, mavzuni murakkabligi, o‘rganilayotgan o‘quv material yuzasidan o‘quvchilarda ayrim hayotiy hodisalar mavjudligi, o‘quv materialining hajmini inobatga olish zarur. Mavzu o‘quvchilarning real o‘quv imkoniyatlariga muvofiq bo‘lishi talab etiladi. Shuningdek, o‘rganilayotgan material o‘quv jarayonining qaysi bosqichida turganligini va qanday aniq o‘quv hamda tarbiyaviy masalalar hal etilayotganligini aniq tasavvur qilish lozim. Mavzu o‘quvchilarning

o‘quv imkoniyatiga muvofiq kelsa, yani u shu mavzu yuzasidan qandaydir tushunchalarni egallagan bo‘lsalar, yoxud avvalgi o‘qish bosqichlarida o‘rganilayotgan o‘quv ma’lumoti yuzasidan muayyan tasavvurga ega bo‘lsalar, reproduktiv metodlar bilan muammoli bayon qilish metodlaridan foydalanish yaxshi samara beradi. Pedagogik turkum fanlardan, ayniqsa umumiy pedagogika, pedagogika tarixi, ijtimoiy pedagogika, oila pedagogikasi fanlarining ayrim mavzularini o‘tishda bu metodlardan foydalanish ma’qul. Talabalar yuqorida tilga olingan fanlarning qaysi bir bo‘limlari yuzasidan quyi bosqichlarida ayrim ma’lumotga ega bo‘lganlar. Masalan, 1-bosqichda “Pedagogika nazariyasi va tarixi” fanidagi “Shaxsning rivojlanishi, ijtimoiylashuvi va tarbiya”, 3-bosqichda “Oila pedagogikasi” fanidagi “Ota onaning tarbiyachilik faoliyati” 3-bosqichda “Ijtimoiy pedagogika” fanidagi “Bolaning rivojlanishiga ta’sir qiluvchi faktor” bo‘limidagi ma’lumotlar bir-biriga yaqin va bir-birini to‘ldiradi. Shu singari bo‘limlardagi mavzular bog‘lanishini ta’minlash zarur.

2. Qo‘llaniladigan ta’lim metodlari ta’lim prinsiplariga muvofiq kelishi lozim. Bunda tanlanadigan o‘qitish metodlari pedagogika fanlarining o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olib, ta’lim prinsiplarini amalga oshirishda real imkoniyat vujudga keltirilmog‘i darkor. Pedagogik fanlarni o‘qitishda talabalarga ta’lim-tarbiya berish, tarbiyalash, talaba shaxsini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi bunda nazariyaning amaliyot bilan, ilmiylikning puxtalik bilan mustaqillik va izchillik prinsiplariga bog‘liqlikda olb borilishi ta’lim metodi muvaffaqiyatini ta’minlaydi va o‘zlashtirishni kuchaytiradi. Shuningdek real o‘quv imkoniyatlarini inobatga olgan holda pedagogik ma’lumotlar-shaxs ta’lim, tarbiya, bilim oluvchilarning ijtimoiy kelib chiqishlari pedagogik jarayonning xos xususiyatlarini hamda bolaning rivojlanishiga ta’sir qiluvchi faktorlar, ota-onaning tarbiyachilik sanati; tarbiya va ma’naviyat, bolaning rivojlanishi, tarbiyaning nazariy ilmiy va milliy asoslari to‘g‘risidagi aniq ma’lumotlarni o‘zaro bog‘liqlikda o‘rgatish, pedagogika turkum fanlarini o‘qitishda tarixiylik va milliylikka asoslanishda reproduktiv, tadqiqiy-ijodiy, tadqiqot, muammoli o‘qitish, maqsadga muvofiq bo‘ladi

3. Ta’lim metodi mashg‘ulot turi, maqsadi va vazifalariga muvofiq bo‘lishi shart. Pedagogika fanlari ta’limiy, tarbiyaviy rivojlantiruvchi funksiyalar bilan ruhiy-ijtimoiy malakalar, aqliy qobiliyat, ijodiy tafakkur, o‘zini anglash, shaxs, faoliyat, ijtimoiylashuv, jamiyat, o‘zini

boshqarish, ma’naviy yuksalish kabilarni amalga oshirish pedagogika darslarining muhim vazifalaridan hisoblanadi. Buning uchun pedagogik turkum fanlar mashg‘ulotlarida bu funksiyalarni amalga oshirishga yaxlit bir tizim sifatida yondashishga yordam beradigan metodlarni qo‘llash kerak. Bu funksiya va maqsadlar yaxlitligini ta’minlashda namoyish-kuzatish, ma’ruza, suhbat metodlari bilan birga nazorat, o‘z-o‘zini nazorat metodlarini qo‘shib olib borish tavsiya etiladi.

4. Talabalarning o‘quv materialini o‘zlashtirish va qayta shug‘ullanishdagi faoliyatlarini faollashtiruvchi o‘qish motivlarini shakllantiruvchi, o‘quv axborotini egallashga qiziqish, tashabbusni, mustaqillikni va o‘z faoliyatidan qoniqish hosil qilishga undovchi metodlarni qo‘llash. Bunga uchun ta’limning muammoli, qisman izlanish va evristik, tadqiqotlilik, rag‘batlantirish metodlaridan foydalanish orqali erishiladi.

5. Qo‘llaniladigan metod o‘qituvchining o‘quv ishi sharoitlari va imkoniyatlari-mashg‘ulot o‘tkaziladigan xona va uning jihozlanishi, o‘quv asboblari, gigiyenik sharoitlar mavjudligi, yil fasli, kunning tarkibiy qismi, o‘quvchilarning o‘quv mashg‘ulotlarini o‘zlashtirishga tayyorligi va shu kabilarni inobatga olib tanlanishi lozim.

6. Qo‘llaniladigan metod o‘rganilayotgan mavzu xususiyatlariga muvofiq bo‘lgan taqdirda samarali bo‘lishni nazardan qoldirmaslik darkor. Masalan, “Pedagogikaning umumiy asoslari” bo‘limini o‘tishda, ko‘proq pedagogika fanining predmeti, metodologiyasi, drektiv va normativ hujjat (“Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, “Ta’lim sohasida davlat ta’lim standarti” vazirliklar, rektorat tomonidan fanni o‘qitishga qo‘yilgan talablar)ni inobatga olgan holda metod tanlash lozim. Buning uchun o‘qitishning tushuntirish-illyustrastsiya, muammoli bayon qilish, hikoya, suhbat, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish kabi metodlardan foydalanish maqul hisoblanadi.

7. Qo‘llaniladigan metod talabalarning real o‘quv imkoniyatlari o‘zlashtirish darajali, yosh va individual xususiyatlarni hisobga olgan holda tavsiya etiladi. Talabalarning real o‘quv imkoniyatlaridan kelib chiqib bir mashg‘ulotning o‘zida bir necha metoddan foydalanish mumkin. Masalan, o‘quvchi-talabalar tomonidan bilimlarni mustaqil o‘zlashtirishi bo‘sh bo‘lgan talabalar uchun reproduktiv, produktiv, qisman izlanish (evristik) metodlardan foydalanilssa yaxshi bo‘ladi.

Pedagogik fanlarni o‘qitishda ta’lim metodlarini optimal tanlash

Faoliyat ko‘rinishi	O‘qituvchi foliyati	
Metodlar	O‘quv materialini og‘zaki bayon etish metodlari	Ko‘rgazmalilik metodlari
Pedagogik fanlarni o‘qitishda qanday vazifalar qo‘yilsa ushbu metodni qo‘llash mumkin	Pedagogika ilmiga oid ma’lumotlarni avval, nazariy bilimlar tarzida, so‘ngra amaliy ko‘nikma va malahalarni egallashga zaruriyat yoki ehtiyoj tug‘iladi	Pedagogik fanlarni o‘qitishda pedagogik xodimlarni sinchkovlik bilan kuzatish va diqqatni o‘rganilayotgan obektga qaratish masalasini shakllantirish
Pedagogik fanlarni o‘qitishda o‘quv materiali mazmuni qanday bo‘lganda bu metod samara beradi	Pedagogika nazariyasiga oid o‘quv materiallarining hajmi katta bo‘lib, uni qisqa muddatda o‘zlashtirish imkoniyati bo‘lmasa, murakkablik tomoni katta bo‘ladi	O‘quv ma’lumotlari mazmunini ko‘rgazmali bayon etish ehtiyoji tug‘ilsa va o‘quv materialini ko‘rgazmasiz tushuntirish murakkab bo‘lsa
Talabalar qanday holatda bo‘lsa, pedagogik fanlarni o‘qitishda bu metodni qo‘llash effekti bo‘ladi	Talabalarni pedagogik tushunchalar, qonuniyatlar, qoidalarni, ta’lim tarbiya nazariyasi, pedagogika tarixi materiallarini mustaqilo‘zlashtirishga qiynalsa	Pedagogik fanlarni o‘qitishda foydalanilayotganko‘rgazmali namoyish, talaba o‘zlashtirishiga, kuchiga mos bo‘lsa
Pedagogika fanlari o‘qituvchisi qanday imkoniyatlarga ega bo‘lsa, bu metodni qo‘llash samarali bo‘ladi	Pedagogika fanlario‘qituvchisi og‘zaki bayon qilish metodlarini to‘g‘ri va aniq qo‘llay olish imkoniyatiga ega bo‘lib, bu metodlardan optimal foydalana olsa	Prdagogika fanlaridan yetarli miqdorda o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha ko‘rgazmali materiallar bo‘lsa, yoki ularni mustaqil tayyorlash imkoniyatiga ega bo‘lsa
Pedagogik turkum fanlarni o‘qitishda kutilayotgan natija	Bo‘lajak mutaxassislarni bolalar bilan ishlashda hikoya, suhbat, tushuntirishni mukammal egallaydi, kerak bo‘lganda ma’ruza qila oladi	O‘qituvchi ta’lim jarayonida ko‘rgazmali namoyishni mukammal egallagan, ularni o‘z o‘rniga qo‘llay oladi, kerak bo‘lganda ko‘rgazmali vosita yaratishga qodir

	Talabalar faoliyati		
Amaliy metodlar	Reproduktiv metodlar	Muammoli bayon qilish metodlari	Mustaqil ish metodlari
Ta’lim oluvchilarga amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish ehtiyoji tug‘ulsa	Ta’lim oluvchilarda nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarni xosil qilish. O‘tgan ma’lumotlarni xotirada yana bir bor tiklash	Nazariy pedagogik ma’lumot bilan amaliy ko‘nikma bir-biriga bog‘liq ravishda xosil qilish ehtiyoji vujudga kelsa	Talabalarda mustaqil faoliyatni takomillashtirish va o‘quv mehnati ko‘nikma xamda malakalarini xosil qilish
Mavzu mazmuni amaliy tushunchalar, mashqlar bajarish, tajriba o‘tkazishga mo‘ljallangan bo‘lsa	Pedagogikaga doir ma’lumotlarning mazmunini nihoyatda murakkab yoki nihoyatda oson bo‘lib, oldindan tanish bo‘lsa	Bayon etiladigan ma’lumot mazmuni muammoli bayonga mos bo‘lib, bosqichli ketma-ketlik prinsipi asosida berilgan bo‘lsa	Pedagogika fani mavzulari bo‘yicha qo‘shimcha manbalar mavjud bo‘lib, ular talabalar aqliy rivojlanishiga mos bo‘lsa
Talabalar amaliy ishlarni bajarishga to‘liq tayyor bo‘lib,shart sharoit mavjud bo‘lsa	Talabalarning real o‘quv imkoniyatlari mazkur mavzuni muammoli bayonni qabul qila olmasa	Talabalar pedagogik hodisalarni mustaqil tahlil qila olsa, muammoli vaziyatni mustaqil yozish kuchiga ega bo‘lsa	Talabalar mazkur pedagogika fani mavzusini musstaqil o‘rganishga tayyor bo‘lsa
Pedagogika fanlaridan amaliy mashg‘ulot o‘tkaish bo‘yicha o‘quv qo‘llanmalar kerakli amaliy jihozlar mavjud bo‘lsa	Pedagogik malumotlarni o‘zlashtirish uchun o‘qituvchida vaqt yetarli bo‘lmasa imkoniyat darajasi past bo‘lsa	Fan o‘qituvchisi muammoli vaziyatni yarata olsa, o‘quv materialini muammoli bayon etish shart-sharoiti bo‘lsa	Mustaqil o‘rganish uchun didaktik materiallae va o‘quvchi hamda pedagogda vaqt vaqt yetarli bo‘lsa

Amaliy mashg‘ulot o‘tkazish bo‘yicha malakaga ega va amaliy ishlar o‘tkazish uchun material tayyorlash malakasini egallash	Mavzu mazmunidagi ma’lumotlar xotirada qayta tiklangan bilim ko‘nikma malaka shakllangan	Talabalarning bilish faolligi mustaqil ijodiy faoliyati o‘sgan	Mustaqil bilim olish ko‘nikmalar shakllangan, ijodiy mustaqil faoliyat yurita olsa

Jadvaldan shu narsa ko‘zga tashlanayaptiki, pedagogika turkum fanlaridan dars beruvchi o‘qituvchi ta’lim metodlarini tanlashda o‘quv mashg‘uloti (nazariy va amaliy dars)ning maqsadi va vazifalari, o‘quv ma’lumotining mazmunidan, ta’lim oluvchilarning ilmiy bilimlarni darajalarini o‘zlashtirishga tayyorlik darajasidan va o‘zining real imkoniyatlaridan kelib chiqqan taqdirda faoliyat samarali bo‘ladi. Shuningdek, bu holat bo‘lajak mutaxasisning o‘z faoliyatiga qiziqishini oshishiga, bilim, ko‘nikma, malakalarning takomillashishiga olib keladi.

Amaliyotda qo‘llanilayotgan ta’lim metodlarining mazmuni

Oliy ta’lim maktablarining barchasida ta’limning eng ko‘p qo‘llaniladigan metodlariga – ma’ruza, suhbat, laboratoriya, muammoli bayon etish, munozara, manba bilan ishlash kabilar kiradi. Bu metodlar ta’lim jarayonida o‘qitish va o‘qish funksiyalarini bajaradi. Binobarin, o‘qituvchi pedagogik fanlarni o‘qitishga talaba-yoshlarga ijtimoiy tajribalarni o‘rgatishni ko‘p sonli tinglovchilar bilan ishlar ekan, asosan **ma’ruza** metodini qo‘llaydi. Ma’ruza metodi-bu o‘qituvchi tomonidan katta mazmundagi ma’lumotni og‘zaki tarzda mantiqiy izchillikda bayon qilish, talabalarning esa o‘quv materialini tinglash orqali idrok etishini nazarda tutadi. Bunda o‘qituvchi o‘quv ma’lumotlarini bayon qilar ekan, ularni ilmiy-nazariy jihatdan mukammal bilishi, o‘quv materiallarini, ilmiy bilimlarni hayotiy tajribalar bilan uyg‘unlashtirish, dastlab talabalarni tinglashga hamda idrok qilishga tayyorlashi lozim. Buning uchun ma’ruza boshlanishida va butun dars jarayonida turli xil usullardan keng foydalanishi ya’ni auditoriyaga muammoli, hayotiy savollar bilan murojaat qilishi, rasm, jadvallar, plakatlar, video materiallaridan kengroq foydalanish talab etiladi. Bunda ba’zan mimik va pantomimik irodalar, imkoniyatlarni ishlatish, tovush diapazoni

e’tiborda saqlash, ba’zan tez, ba’zan sekin, ba’zan baland-kuchli, ba’zan sekin-kuchsiz tovushda fikrini bayon eta olishi ham diqqatga sazovor. Bunda yana bir narsani nazardan qochirmaslik kerak, ma’ruza tinglovchi talabalar tafakkuriga, idrokiga, mo‘ljallab tashkil etilishi ma’qul.

Shunga asosan, ma’ruzada tajribada sinalgan va qo‘llanishda samara bera oladigan ta’limning **ma’ruza-bahs metodi** yaxshi natija berishi tabiiy, zero, ma’ruzadan ko‘zlangan asosiy maqsad talabalarda bilimni mustaqil ijodiy egallash qobiliyatini shakllantirishdir. Chunki, ma’ruzada talabalar mustaqil fikrlash, fikrlarni isbotlash va asoslashga o‘rganishlari lozim. Buning uchun ma’ruzachi dars boshlanishida talabalar oldiga ma’ruza mazmunidan kelib chiqib muammoni aniq belgilashi, uni talabalar o‘quv-biluv qobiliyatiga moslashtirishi holida talabalarni o‘z fikr-mulohazalarini isbotlashga tayyorlashlari lozim. Chunki, bu hol talabalarning ma’ruza mashg‘ulotiga bo‘lgan qiziqishi va bilishga ehtiyojini tarbiyalaydi. Bu esa talabani ta’lim obyektidan ta’lim subyektiga aylanishiga qo‘llashadi.

O.R.Roziqov va “Didaktika” darsligining boshqa muallifari ma’ruza metodini o‘qitish va o‘qish usullariga ajratib, undan foydalanish bir necha variantlarni taqdim etadilar.[1]

Ta’lim muassasalarida qo‘llaniladigan ma’ruza metodi, asosan talabalarga ya’ni bilim berish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, u murakkab masalalar, mavzularni o‘rganishda, muammoli mavzularni o‘qitishda va pedagogika o‘quv fanlari o‘rtasidagi bog‘lanishni o‘rganishigda farqlaniladi.

Ma’ruza metodining samarali, optimal qo‘llanilishi uchun, o‘qituvchi-lektor:

- Mavzuga oid asosiy va ularni bayon etish rejasini tuzish.
- Ma’ruza boshlanishida rejani talabalarga e’lon qilib, asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar ro‘yxatini e’lon qilishi;
- O‘quv materialini izchil, tizimli, o‘tilgan mavzu va kelgusi darsda o‘tilishi nazarda tutilgan mavzu bilan bog‘langan holda bayon etilishi;
- Ma’ruzaga talabalarning qiziqish, intilishi va ma’ruza samaradorligini oshirish maqsadida mavzuni hayotiy misollar, tajribadagi ishlar bilan bog‘lashi va kerakli joylarda talabalarga muammoli savollar bilan murojat qilish;

[1] Qarang: O.R Roziqov va boshqalar. Didaktikalar Darslik-T.: “Fan” 1997, 187-188-betlar

- Bayon talabalarga tushunarli, qiziqarli bo‘lishi uchun ko‘rgazmali, audio va video materiallardan unumli foydalanish;
- Rejada ko‘rsatilgan har bir punktni yakunlaganda, uni xulosalashi va ma’ruza yakunida umumiy xulosa uchun ma’lumotlarni belgilab qo‘yishi;
- Ma’ruza mavzusidagi eng muhim sonlar xotirada saqlanishi qiyin bo‘lgan ma’lumotlarni talabalarning yozuv daftarlariga qayd qilishlarini tavsiya etishi;
- Mavzu yuzasidagi xulosalarni turli o‘quv sharoitlarida tadbiq etishga oid ko‘rsatmalar berishi kabi qonun-qoidalarga amal qilishi talab etiladi.

Uzluksiz ta’lim tizimida qo‘llaniladigan ta’lim metodlarining yana biri **suhbat** metodidir. Bu metod bilim o‘zaro so‘zlashuv (dialog) yo‘li bilan o‘rganishga sabab asosan seminar mashg‘ulotlarida, talabalarning mustaqil ishi, referatlari, o‘quv konfersiyalarida qo‘llaniladi. Bu pedagog va talabaning faol, jonli savol-javob yo‘sinida qo‘llaniladigan o‘qitish-o‘qishning bir ko‘rinishi bo‘lib, savol-javob tarzida tashkil qilinadi.

O‘qituvchi suhbat metodini tashkil etishda turli o‘quv vazifalarni hal etadi. Jumladan: talabalarning nazariy bilimlarini o‘zlashtirganliklarini aniqlash, ma’lumotlarni umumlashtirishi va tizimlashtirish: yangi mavzuni o‘rganishda talaba tafakkurini boshqarish; talabalarning ijodiy qobiliyati, aqliy kuchi, intellektini rivojlantirish vaho kazolar. Shu bois suhbat metodida talabalar pedagog savollariga javob berish bilan o‘rganilayotgan mavzuda izohlangan ma’lumotlarni mantiqiy ketma-ketlikda o‘rganadi, fikr yuritadi, tahlil qiladi va fikrlarini nazariy jihatdan umumlashtiradi.

Pedagogik manbalarda ko‘rsatishicha suhbat metodi, o‘z mazmun mohiyatiga ko‘ra kirish suhbati, nazariy bilimlarni mustahkamlovchi, yangi bilimlarni ma’lum qiluvchi, tekshiruv suhbati, evristik suhbat. **Kirish** suhbati seminar mashg‘uloti dastlabki soatida qo‘llanilib, u o‘qituvchining talablarni mazkur fandan o‘tkaziladigan seminar mashg‘ulotning maqsad, vazifalarini, fan dasturidagi ushbu fanga qo‘yilgan pedagogik talablarni, seminar mashg‘ulotida ajratilgan vaqtni, seminar mavzulari va ularning rejalari bilan tanishtirishni nazarda tutadi. Yangi bilimlarni ma’lum qiluvchi suhbat o‘qitish-o‘qishning murakkab va ko‘p mehnat talab qiladiganlaridan biri bo‘lib,

nazariy bilimlarni izchil, o‘zaro aloqadorlikda, talabalarda ma’lum bo‘lgan faktlar, pedagogik hodisalarga asoslangan holda tashkil etiladi va o‘tkaziladi. Nazariy bilimlarni mustaqilovchi va umumlashtiruvchi suhbat, ma’ruzaga o‘rganilgan material bilan aloqa o‘rnatishiga yordam beradi. Masalan, shaxs ta’lim va tarbiya haqidagi bilimlarni mustaqillashga pedagog savollar berib, talabalarni ma’ruzaga o‘rganilgan shaxs taraqqiyotiga ta’sir qiluvchi omillar va ularda ta’lim-tarbiyaning yetakchilik rolining sabablarini, hayotiy misollar bilan ajratib ko‘rsatishga undaydi. **Tekshiruvchi** suhbat ma’ruza va seminar mashg‘ulotlarida egallangan bilimlarning haqqoniyligi, hajmi va hayotiyligini aniqlashga yordam beradi. Chunki bunday suhbat o‘tganlarni qayta xotirda tiklash, takrorlash va sistemalash ko‘rinishiga amalga oshiriladi. Evristik suhbat metodi o‘quv ma’lumotini ijodiy, topqirlik yo‘li bilan qo‘llanilganligi sababli, u talabalar tafakkurida mo‘ljallangan. Bunda o‘qituvchi-talaba faoliyati uyg‘unligi asosida mantiqiy tafakkur rivojlantirilishiga erishiladi. Umuman, suhbat metodining mohiyati shundaki u:

- Talabalarning ijodiy, mantiqiy fikrlashini yo‘lga qo‘yadi;
- Talabalar faolligini oshirishga, xotira va nutqning rivojlanishiga yordam beradi;
- Talabalarning muayyan ko‘rinishdagi mustaqilliklari yo‘lga qo‘yiladi;
- Talabalarda ijodiy qobiliyat rivojlanib axloqiy va estetik dunyoqarashlari rivojlanadi.

Laboratoriya metodi.

Pedagogika fani mashg‘ulotlarida laboratoriya metodidan foydalaniladi. Bu metod asosan pedagogik hodisalarni tajriba qilishda qo‘llaniladi. Bu pedagog rahbarligida o‘tkaziladigan talabaning mustaqil faoliyati. Laboratoriya metodi og‘zaki bayon qilish metodlarining boshqa turlari ya’ni tushuntirish, mashq bajarish, ta’lim tarbiya usullarini amalda qo‘llash kabi pedagogik epizodlarda qo‘llaniladi. Masalan, kichik tarbiyachilik, o‘qituvchining dars o‘tish mahorati, maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy malakalarini shakllantirish, bog‘chaga o‘yin mashg‘uloti kabi pedagogik voqealarni laboratoriya metodidan foydalanib o‘tkaziladi. Chunki, bu metod ta’lim oluvchi talabaga o‘qituvchi pedagog tomonidan oldindan

rejalashtirilgan voqea bo‘yicha tajriba o‘tkazish tavsiya etiladi. Shu vaziyat yordamida nazariy ma’lumotlarni tajribada sinab, amaliy ko‘nikmaga ega bo‘linadi. Laboratoriya metodidan foydalanilganda, laboratoriya mashg‘uloti mavzusi, uning mazmuni, foydalanadigan adabiyotlar talabalarga oldindan tavsiya qilinadi, uni bajarish uchun ko‘rsatmalar beriladi.

Manbalar bilan ishlash metodi. Ma’lumki, nazariy mashg‘ulotlar jarayonida, barcha axborotlar, ma’lumotlarni talaba xotirasida saqlab qolmaydi va esda saqlashi ham qiyin. Shuning uchun talabaga nazariy bilimlar bo‘yicha asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar tavsiya etiladi. Mazkur tavsiya bo‘yicha talabalar nazariy mavzuda ko‘zda tutilgan masalalarni mustaqil o‘rganadilar. Buning uchun talaba mavzu bo‘yicha fundamental hodisalarni saqlab qolgan bo‘lmasalar va mustaqil ish jarayonida bu xolatlarni yangi ma’lumotlar bilan to‘ldirishlari lozim. Asosiy adabiyotlar va qo‘shimcha adabiyotlardan turlangan axborotlarni quyidagicha guruhlash mumkin; mustaqil egallangan yangi bilimlar, bilimlarni mustahkamlash va to‘ldirishbilimlarni amalda qo‘llashga tayyorlanish.

Talabalar topshirilgan vazifaga qarab, manbalar bilan ishlashda quyidagicha yo‘l tutishi mumkin; a) manbalardan eng muhim va kerakli ma’lumotlarni yozib olish; b) tuzilgan reja bo‘yicha konspekt tuzish; v) kerak bo‘lgan qo‘llash uchun muhim belgilar shaklida bir yoki bir necha manbalar bo‘yicha o‘z fikr mulohazalarini bayon etish; g) ananaviy (mavzuning qisqa mazmuni) yozish, yangi mavzuning mazmuniga qisqa ta’rif berish vaho kazo. Bu ishlarni bajarish uchun pedagog talabaga ko‘rsatma berishi va mavzu rejasini tavsiya qilishi mumkin.

Talaba o‘qishi va kelgusida yaxshi mutaxasis bolishni istasa, albatta manbalar bilan ishlash malakasiga ega bo‘lish lozim. Chunki, bu uning butun hayoti va faoliyatida asqotadi.

6.4.Pedagogik fanlarni o‘qitish vositalari va ularning tasnifi

Ta’lim va tarbiya jarayonida qo‘llaniladigan sinf taxtasi va bo‘rdan tortib, elektron hisoblash mashinalarigacha bo‘lgan, o‘quvchi-talabalarga ma’lumotlarni chuqur anglashga yordam berishga

yo‘naltirilgan materiallar o‘qitish vositalarini anglatadi. B.Q.Xo‘jayev[1] ularni quyidagicha tasniflangan:



Ko‘rib turganimizdek bu materiallar turlicha bo‘lib, avvalo, ularning o‘ziga xos xususiyati, ta’lim-tarbiya jarayonidagi o‘rni bo‘yicha farqlash lozim. O‘qitishning didaktik vositalari yangi ma’lumotlarni o‘qituvchi tomonidan bayon qilish, o‘quvchilar tomonidan esa o‘zlashtirishning eng qulay manbai hisoblanadi.

Didaktika fanida o‘qitish metodlari va o‘qitish vositalarining o‘zaro bog‘ligi, biri birisiz mavjud bo‘lolmasligi va ko‘zlangan maqsadga erishishning qiyin bo‘lishi qayd etib o‘tiladi. Chunki, o‘qitish metodlari, o‘quvchi-talaba erishmoqchi bo‘lgan fan cho‘qqisiga ko‘tarilishining yo‘li bo‘lsa, o‘qitish vositalari mana shu yo‘lda o‘quvchi va o‘qituvchiga suyanchiq bo‘ladigan, yo‘lni shamchiroq singari yoritadigan «kompas», «xarita» sifatida ishtirok etadigan qurol hisoblanadi. Mabodo shu qurol bo‘lmasa, yoki o‘tmas, ishga yaroqsiz

[1] Xo`jayev B.Q. Didaktik vositalar majmui. –Buxoro. 2017.

bo‘lib qolgan bo‘lsa unda muddaoga erishish qiyin kechadi. Shuning uchun ta’lim-tarbiyada o‘qitish vositalari aniq maqsadga yo‘naltirilgan hodisadir. Ma’lumki, tabiat hodisalari, jamiyatda ro‘y beradigan voqealar inson ongi orqali o‘zlashtirilganda odam va tabiat, jamiyat o‘rtasida qandaydir aloqa o‘rnatiladi. Mana shu aloqa rolini ta’limda o‘qitishning didaktik vositalari bajaradi. Shunga asosan o‘qish, o‘qitish jarayonini «inson–o‘qitish vositalari –muhit (obyekt)» kontekstida izohlash pedagogikada qabul qilingan. O‘quv-tarbiya jarayonida bu vositalardan keng foydalanish o‘qitishning mukammalligini, ishonchliligini kuchaytirib, o‘rganuvchilarning obyekt voqealarini tushunib etishini oshiradi va bilim sifatini yaxshilaydi.

O‘qitishning texnika vositalari va ularning turlari.

Zamonaviy o‘qitish jarayonida qo‘llaniladigan didaktik vositalarning xilma-xilligini tasniflash va ularni qo‘llashda o‘quv jarayonining, shart-sharoitlarini inobatga olish maqsadga muvofiqdir. Hozirgi zamonda ta’lim va tarbiya imkoniyatlarini oshirishga yordam beradigan va ko‘p qo‘llaniladigan didaktik vositalar majmuining eng ko‘p tarqalgan turi–bu o‘qitishning texnika vositalaridir. O‘TV garchi ilmiy asosda qat’iy tavsiflangan texnika vositalari mavjud bo‘lmasada, ammo ularni tasniflashda pedagogikada ayrim yondashuvlar mavjud. O‘qitishning texnika vositalarining bunday guruhlanishi, avvalo, ularning sezgi organlariga, xotiraga, diqqatga ta’sirini va bajaradigan ish turini hamda ishlash prinsipining inobatga olinganligidadir. Bunda, O‘TVning avtomatlashtirilganlik darajasi, o‘qituvchilar tarkibi, texnika vositalarining tuzilishi, o‘quv jarayonida ularni qo‘llash imkoniyatlari e’tiborga olinmog‘i darkor. O‘qitishning texnik vositalari o‘quvchi-yoshlarning sezgi organlariga, diqqat va xotiraga ta’sirini inobatga olib, hamda O‘TV qo‘llash jarayonida, o‘qitishning oddiydan murakkabga, aniqdan noaniqqa tamoyili asosida ish tutishi va ularni o‘rganishda ham shu ketma–ketlikka rioya qilish muhim didaktik hodisa deb tavsiflanadi. endi ularni shu yo‘nalish bo‘yicha tasniflanishini ko‘rib chiqamiz.

1. **Ko‘rishga moslashtirilgan vizual (ekranli) vositalar.** Bu o‘quv–texnika vositalari o‘qitishning didaktik vositalar majmui orasida eng birinchilaridan biri hisoblanadi va o‘quv jarayonida ham eng ko‘p qo‘llaniladi. Chunki, ular oddiy bo‘lib foydalanish uchun eng qulay va ko‘p tarqalgan vositalardir. Bunday texnika vositalariga diapozitivlar, epidioskoplar, kodaskoplar, diafil’mlar, transparantlar, dioproek-torlar,

grafoproektorlar, fil’moskoplar, kinoproektorlar, videoproek-torlar kiradi. Ularning ishlash texnologiyasi deyarli bir xil bo‘lib, ular shisha, shaffof plyonkalarda yozilgan ma’lumotlar va axborotlarni ekranda proektsiyalab beradi. Fikrlar aniq, lo‘nda qilib bayon etilgan, ammo tovushsiz. Tovushli eshittirish orqali ma’lumotlarni idrok etish zamonaviy o‘quv radiosi, tovush yozuvchi va tovushni kuchaytirib beruvchi apparaturalar orqali amalga oshiriladi.

2. **Ko‘rish va eshitishga moslashtirilgan audiovizual vositalar. e**shitish va ko‘rish yordamida ma’lumotlarni idrok etish. Audiovizual vositalar yordamida amalga oshadi. Bularga kinofil’mlar, teleko‘rsatuvlar, videoyozuvlar, diafil’mlar, videomagnitafonlar taalluqli bo‘lib, ular videoproektorlar yordamida video axborotlarni proektsiyalab beradi. Bugungi kunda videomagnitafonlar, kinofil’mlar, televideniе o‘quv jarayonida keng qo‘llaniladigan didaktik vositalar sirasiga kirib qoldi.

Ilmiy-nazariy ma’lumotlar va maktab tajribasining ko‘rsatishicha o‘quv-ko‘rgazmali vositalar o‘qitishning didaktik vositalari majmui mazmunidagi eng oddiy, eng qulay va qo‘llash uchun har tomonlama oson hamda ko‘p tarqalgan vositalar hisoblanadi.

O‘qitishning o‘quv-ko‘rgazmali vositalarini ba’zan vizual, ya’ni o‘qitishning tovushsiz vositalari deb ham atashadi. Chunki, o‘quv-ko‘rgazmali vositalarda axborotlar (obyekt) tasvirlangan bo‘lib, ularda tovush bo‘lmaydi. Shuning uchun ham ularni faqat namoyish etish mumkin bo‘ladi.

O‘qitishning o‘quv-ko‘rgazmali vositalarini ko‘p qo‘llanishining yana bir sababi, ular oddiy maktab sharoitida ham tayyorlanishi mumkin. Ularda ma’lumotlar (obyekt) qisqa, lo‘nda, yo‘nalishli, bayon etiladi. Shuning uchun ulardan foydalanish, ularni qo‘llash va yaratish juda oson hisoblanadi. Shu o‘rinda e’tirof etish joizki, o‘quv-ko‘rgazmali vositalar muntazam faoliyatda bo‘lishi, o‘qituvchining mavzuli-ishchi rejasida o‘z ifodasini topishi uchun ta’lim muassasalarida o‘quv-ko‘rgazmalari vositalar kartotekasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Kartotekada o‘quv-ko‘rgazmali vositaning nomi, mavzuli-o‘quv dasturdagi mavzu raqami, qisqacha mazmuni ifodalanishi darkor. Chunki, bu vositadan aniq vaqtda, aniq mavzuda foydalanishni osonlashtiradi. O‘quv-ko‘rgazmali didaktik vositaning juda ko‘p turlari mavjud bo‘lib, ular o‘quv predmetlarining juda ko‘p jihatlarini, kunlik turmushimizdagi hodisotlarni, ishlab chiqarish

sohalaridagi ayrim lavhalarni aks ettiradi. Ulardan o‘rinli foydalanish o‘quv predmetining mazmunini qiziqarli, o‘quv ma’lumotlarini ta’sirchan, o‘quvchilar o‘zlashtirish jarayonini samarali qiladi. O‘quv-ko‘rgazmali vositalarini tor ma’noda ko‘rgazmali vositalar, kengroq ma’noda o‘qitishning didaktik vositalari deb atash qabul qilingan. Uning o‘ziga xos xususiyatlari, o‘quvchilarning ko‘rish organlariga ta’siri, ko‘rinish qoidalari, ma’lumotlarni bayon eta olish imkoniyati, axborotlar etkazish turi bo‘yicha quyidagicha guruhlash mumkin.



Jadvalda aks ettirilgan o‘quv-ko‘rgazmali vositalar, didaktik vositalar majmuidan o‘rin olgan muhim o‘quv vositalari hisoblanadi. Axborotni uzatish, muayyan ko‘rinishda izohlash nuqtai nazaridan natural o‘quv-ko‘rgazmali vositalar eng qulay va ko‘p qo‘llaniladigan vosita hisoblanadi. Chunki, ularni tabiiy holda ko‘rsatish imkoniyatlari katta. Ularni pechatli (chop etilgan) ko‘rsatmali vositalar to‘ldiradi. Ular mavjud va ularni ta’lim muassasasi sharoitida ham yasash mumkin. O‘qitishning hajmli ko‘rgazmali vositalari ko‘p tarqalgani hamda ularni yaratish imkoniyati mavjudligi uchun ham ular eng qulay o‘quv-ko‘rgazmali vosita sanaladi. Bugungi bozor iqtisodi sharoitida ulardan foydalanish faoliyat uchun samarali bo‘ladi. Proektsion ko‘rgazmali vositalar garchi texnika bilan bog‘liqlik tomoni bo‘lsada, ular ovozsiz namoyish etilganligi sababli ular ushbu guruhga kiritilgan.

Ularni ham tabiiy holatda uncha ko‘p mablag‘ sarflamasdan taxrlash va qo‘llash mumkin bo‘ladi. Qayd etib o‘tilgan, guruhlardan o‘rin olgan o‘quv-ko‘rgazmali vositalardan foydalanganda, birinchidan, o‘quv yurtining shart-sharoitidan kelib chiqish, ikkinchidan, o‘quvchilarning ushbu didaktik vositaga munosabatlarini inobatga olish va nihoyat, uchinchidan, ularning samaradorligiga va didaktik jarayonning muhim tamoyillariga tayanish lozim bo‘ladi. endi har bir guruhdagi o‘quv-ko‘rgazmali vositalar mazjmui bilan tanishib chiqamiz.

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savollar hamda topshiriqlar:

1. Pedagogik fanlarni o‘qitish metodlarning mohiyati va ahamyatini tushuntiring.
2. Pedagogik fanlarni o‘qitish metodlarning vazifalarini ayting.
3. Pedagogik fanlarni o‘qitishda qo‘llaniladigan metodlarga qo‘yiladigan asosiy didaktik talablarni izohlang.
4. Amaliyotda qo‘llanilayotgan o‘qitish metodlarining mazmuni nimalardan iborat?
5. Pedagogik fanlarni o‘qitish vositalari haqida ma’lumot bering.
6. Real ko‘rgazmali vositalarni tavsiflang.
7. Laboratoriya metodi nima?

7-MAVZU. PEDAGOGIK FANLARNI O‘QITISH SHAKLLARI

Tayanch so‘zlar:*o‘qitish shallari, individual, guruhiy, sinf-dars tizimi, Bell-Lankaster tizimi, an’anaviy yondashuv, noan’anaviy yondashuv, texnologik yondashuv, monolog, dialog, polelog, ma’ruza, kirish ma’ruzasi, mavzular bo‘yicha ma’ruza, umumlashtiruvchi ma’ruza, seminar, amaliy mashg‘ulot, laboratoriya mashg‘uloti, o‘quv konfrensiyasi va munozara mashg‘ulotlari*

7.1. Ta’lim turlari va shakllari tavsifi. Ta’limni tashkil etish tizimi

Ma’lumki, hozirgi oliy ta’lim maktablari oldiga turgan vazifalarning bajarilishi ko‘p jihatdan o‘quv fanlarining mazmuni, ular mazmunidagi mavzularni o‘qitish metodlari va o‘qitishning tashkiliy shakllari kabi didaktik komponentlarning aniq to‘planishi, ularda sifat va samaradorlik darajasining ta’minlanganligа bog‘liq. Zero, ular yordamida talabalar ilmiy bilimlar bilan qurollanadilar, dunyo-qarashlari rivojlanadi,o‘quv yurtining ideologik vazifasi bajariladi, jamiyatning ijtimoiy buyurtmasi hal etiladi.Talaba shaxsida g‘oyaviy-siyosiy, axloqiy-ma’naviy sifatlar tarkib topadi.

Biz oldingi mavzularda pedagogik fanlarni o‘qitishda ta’limning metodlari xususida fikr yuritgan edik. Endi uning tashkiliy shakllarini izohlash malakasini ko‘rib chiqishimiz talab etilmoqda. Chunonchi, har qanday ta’lim muassasasi kabi, oliy o‘quv yurtlarida ta’lim-tarbiya ishlarini davlat talablari darajasida tashkil etmay turib, jamiyat ehtiyoji-yuksak ma’naviy–axloqiy salohiyat,yuqori malakaga ega bo‘lgan mutaxassisni tarbiyalab bo‘lmaydi. Buning uchun esa o‘quv ishlarini davr talablari asosida tashkillashtirish, ularning amaliy yo‘nalishini jadallashtirish kerak. Bunga oliy ta’lim maktablari ta’lim–tarbiya jarayoning tashkiliy shakllari yordam ko‘rsatadi.

Xo‘sh ta’limning tashkiliy shakllari deganda nima nazarda tutiladi? U qanday didaktik hodisa? Shakl (lotincha forma-tashqi ko‘rinish, sirtqi qiyofa) ma’nosini anglatib qandaydir mazmunning tashqi ko‘rinishi, qiyofasini ifodalaydi. Fanda ta’lim shakllari deyilgan o‘qitish,o‘qish jarayonoda o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatining tashqi

koʻrinishi qurilishini ifodalovchi didaktik hodisa tushuniladi. Prafessor T.A.Ilina ta'kidlaganidek (u yoki bu) tashkiliy shakl oʻqitishning turli jamoaviy va individual koʻrinishini hamda oʻquvchilarning turli darajadagi mustaqilligini va oʻqituvchilarning ta'lim oluvchilar oʻqishiga rahbarlik qilishini oʻqitiishini ifodalaydi[1]. Demak, oliy ta'limda pedagog va talaba oʻquv munosabatlari oʻqitish- oʻqish faoliyatining tashqi koʻrinishini ifodalashi –ta'limning tashkiliy shakllari deb yuritiladi. Ta'lim nazariyasi va amaliyoti oʻz taraqqiyotida turli tuman oʻqitish shakllarini kasb etdi, ularning ayrimlari oʻz qimmatini yoʻqotmay takomillashib borgan boʻlsa, boshqalari keng tarqalib asta sekinlik bilan oʻz qimmatini yoʻqotib tarixga aylanib qoldi. Ta'limni tashkil qilishning tashkiliy shakllaridan individual oʻqitish boʻlib bir oʻqituvchi yakka oʻquvchi bilan oʻqitish shularini olib borgan. Jamiyat talablarining oʻsib borishi natijasida oʻqitishning individual- guruhiy shakli paydo boʻlib, oʻqituvchi uncha katta boʻlmagan guruh uchun alohida oʻquvchi bilan oʻqitish ishini olib borgan, bunda koʻproq oʻquvchining topshiriqlarni mustaqil bajarishi amalga oshgan. Induvidual-guruhiy oʻqitish ishlarining taraqqiyoti sinf-dars tizimining yaratilishiga asos boʻlgan. Bu ta'lim tizimi aniq yoshdagi oʻquvchilar tarkibiga, aniq vaqtda, oʻqituvchi rahbarligida mashgʻulot olib brogan. Uning nomi dars uslubi deyilgan, bu tizimning asoschisi va targʻibotchisi chex pedagogi Yan Amos Komenskiy edi (XVII asr).

XVIII oxiri XIX-asr boshlarida paydo boʻlib,keng tarqalgan oʻqitish shakllaridan biri oʻzaro oʻqitish (Bell-Lankaster tizimi)boʻldi. Bunda oʻqitish ishlari katta tarkibga ega boʻlgan, oʻquvchilar yaxshi oʻzlashtirish mavqeini egallagan oʻquvchining oʻqituvchi rahbarligida mashgʻulotlarni olib borishi bilan xarakterlanadi. Oʻquvchilarning koʻproq mustaqil bilim olishlarini ta'minlash yoʻlidagi izlanishlar XIX asr oxiri XX asr boshlarida AQSH maktablarida qollanilgan Dalton – reja oʻqitish shakli hisblanadi. Bunda oʻquv mashgʻuloti yakka koʻrinishda va individual holda kabinetlarda, laboratoriyalarda, kutubxonalarda maxsus tayyorlangan topshiriqlarni bajarishga yoʻnaltirildi.

[1] Ильина Т.А. Педагогика: Курс лекций: Учебное пособие для студентов пед. ин-тов. — М.: Просвещение, 1984. - 496 с.

Barcha qayd qilib o‘tilgan ta’lim shakllaridan hanuzgacha o‘zining qimmatini yo‘qotmagan, dunyoning barcha ta’lim muasasalarida keng qo‘llaniladigan sinf- dars tizimi hisiblanadi.

Professor N.X.Avliyoqulovning fikriga ko‘ra «sinf-dars tizimi o‘zining quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi.

-Yoshi va tayyorgarlik darajasi taxminan bir xil bo‘lgan talabalar sinflarini (guruhini) tashkil etadi.

- Sinfda (guruh, oqim) yagona o‘quv reja, yagona o‘quv dasturlari va yagona mashg‘ulotlar jadvali bilan shug‘ullanadi.

-Mashg‘ulotlarning asosiy birligi dars bo‘lib, u bitta fanning bitta mavzusiga bag‘ishlanadi va o‘qituvchi tomonidan boshqariladi.

- O‘quv kitoblari asosan uy ishlari uchun qo‘llaniladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning hozirgi bosqichi, jamiyat ehtiyojini fan-texnika yutuqlri oliy ta’lim muassasalarda o‘qitishning tashkiliy shakillarini mazmunan va tarkibidan o‘zgarishiga olib keldi. Ayniqsa, mamlakatimizda “Ta’lim to‘g‘risidagi” Qonun talablarni amalda bajarish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tasdiqlangan “Nizom”ga binoan oliy maktablarda o‘quv mashg‘ulotlarining ma’ruza, amalyot, seminar, amaliy mashg‘ulot, laboratoriya ishi, nazorat ishi, malakaviy bitiruv ishi, magistrlik desertatsiyasini tayyorlash kabi shakl-usullar joriy etilgan[1].

Shu o‘rinda e’tirof etish joizkiy, bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarida o‘quv-tarbiya ishlarini tashkil etishda quyidagi yondashuvlar ko‘zga tashlanmoqda:

a) An’anaviy yondashuv- o‘qitish, tarbiyalash o‘qish jarayonlarda pedagogik subyekt sifatida faoliyat yuritadi va yetakchilik mavqeida bo‘ladi, talabalar esa “obyekt” tarzida ishtirok etib passiv tinglovchi rolini bajaradi. Ilmiy-nazariy ma’lumotlarni yetkazib berish, ta’lim oluvchilar faoliyatini nazorat qilish, bilim ko‘nikma malaka darajalarini baholash pedagog tomonidan amalga oshiriladi. Talabaning mustaqilligi, tashabusi e’tibordan chetda qolgan. Bunday o‘qitish ishlari shakllariga- ma’ruza, seminar, laboratoriya, o‘quv ekskursiyasi, o‘quv konferensiyasi, amaliy mashg‘ulotlar, qo‘shimcha mashg‘ulotlar, amaliyot (pedagogik) kiradi.

[1] Avliyoqulov N.H. Zamonaviy o’qitish texnologiyalari. Toshkent. 2001. 11-bet.

b) Noan’anaviy yondashuv- ta’lim tarbiya jarayonida pedagog va talabalarning hamkorlikdagi faoliyatini yo‘lga qo‘yadigan,ta’lim oluvchilarning fikrlash qobilyati, ijodiy tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan, o‘quv mashg‘ulotining noan’anaviy (odatdan tashqari, belgilanmagan) tuzilishini ifodalaydigan o‘quv ishlarini shakli. Bunday mashg‘ulotlarga hamkorlikda ishlash darslari, musobaqa-tanlov darslari, mukammallashgan darslar, auksion darslar, matbuot yangiliklari darsi, dialog darslari, binary darslar, sinov darslar, baxtli voqea o‘yin darslari, ijodiy hisobot darslari, “Eud” darslari, baholash va qiyoslash darslari kabilarni kiritish mumkin.

v) Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalari yoki texnologik yondashuv- ta’lim tarbiya markaziga talaba shaxsi qo‘yilgan, uning aqliy qobilyatlarini rivojlantirish, tabiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishda shart-sharoitlar yaratishni (G.K.Selevko) nazarda tutgan o‘quv mashg‘ulotlari. Bunday o‘quv mashg‘ulotlarda talaba faoliyati o‘quv tarbiya jarayonida yetakchi o‘rin egallaydi. Ularning faollik, mustaqillik, erkin fikr yuritishlari, tashabuskorliklari qo‘llab quvvatlanadi. Pedagogning faoliyati esa yo‘l yo‘riq ko‘rsatish, zarur bo‘lganda maslahat berish, talabalar xatti-harakatini nazorat qilish va baholashdan iborat bo‘ladi. Bunday mashg‘ulotlarga muammoli o‘qitish, modulli o‘qitish, kichik guruhlarda ishlash,tabaqalashgan, mujassamlashgam, individuallashgan o‘qitish texnologiyalari, rivojlantiruvchi, faol,aqliy hujum, bilts o‘yin va boshqa o‘qitish texnologiyalari kiradi.

7.2. Pedagogik fanlarni o‘qitishning asosiy shakllari

Ta’lim islohoti talablariga ko‘ra oliy o‘quv yurtidagi pedagogik jarayonning asosiy maqsadi-bo‘lajak oliy ma’lumotli mutaxassislarda bilim, ko‘nikma, malakalar hosil qilish, ularni yuksak ma’naviy-axloqiy salohiyat, yuqori kasbiy mahorat egasi bo‘lishga ko‘maklashish-dir. Bundan tarbiyachilik va o‘qituvchilik ixtisosligiga tayyorlanayotganlar ham istisno emas. Bu pedagogik hodisa ta’lim jarayonida axborotlar almashinuvi orqali amalga oshadi.

Psixologiya fanlari doktori, professor V.M. Karimovaning ta’kidlashicha, bunday pedagogik muloqot jarayonidagi ma’lumotlar almashinuvi va monolog, dialog, polelog ko‘rinishida amalga oshiriladi.

Monolog-ma’ruzadagii oq’ituvchining tinglovchilar yoki o‘quvchi talabalar qarshisiga chiqib nutq so‘zlashi, darsni bayon etishidir.

Dialog- o‘quv mavzusi yoki muammoni guruh sharoitida o‘qituvchi bilan birgalikda va hamkorlikda muhokama qilish yo‘lidir.

Polelog- guruh ichidagi munozaradir. U tinglovchilar yoki o‘quvchilarning faolligini yanada oshirish, ulardagi ijodiy qobilyatlarni rivojlantirish maqsadida ishlatiladi.

Oliy ta’lim maktablarida ham yuqoridagi shakllar bilan o‘quv ishlari tashkil qilinmoqda.

Ma’ruza (o‘quv ma’ruzasi)-oliy o‘quv yurti pedagogik jarayonida eng ko‘p qo‘llaniladigan shakli bo‘lib unda ta’lim oluvchilarga maksimal darajada yangi ilmiy axborotlar berish, o‘quv materialini talabalar ongiga yetkazish nazarda tutiladi. Ma’ruzalarda talaba uchun zarur bo‘lgan kasbiy, ilmiy-nazariy ma’lumotlar bayon etiladi.

Oliy ta’limda pedagogika fanlaridan tashkil etiladigan ma’ruzalar pedagogik qonuniyatlar, g‘oyalar mazmunini nuqtai nazarlar mohiyatini ochib berishga, bilimlarni tizimlash va umumlashtirishga qaratiladi. Bunda ma’ruzani tinglay olish, asosiy g‘oyalar va muhim sanalar, fikrlarini yozib borish muhim hisoblanadi.

Ma’ruza jarayonida professor-o‘qituvchi bilan tinglovchi-talaba o‘rtasida jonli muloqot yuzaga keladi. Shuning uchun ma’ruzachi o‘z o‘quv predmetining ilmiy-nazariy asoslarini chuqur va mukammal bilishi, fandagi ma’lumotlarni qiziqarli, tushunarli, jonli qilib talabalarga yetkaza olish mahoratiga ega bo‘lishi talab etiladi. Ma’ruzada jonli muloqot tashkillashtirilganligi sababli talabalar ilmiy nazariy bilimlar olamiga kiradilar,o‘zlari uchun mavhum bo‘lgan pedagogik tushunchalarni mohiyatini tushunib oladilar. Bu hol ma’ruzachining o‘quv dasturidagi muhim ma’lumotlar, murakkab fikrlar mazmunini aniqlab, ochib berishi, farazlar mohiyatini izohlashi, talabalar oldiga muammolar qo‘yishi ularni mustaqil fikrlashga undashi yordamida ro‘y beradi.

Ma’ruzaning afzalligi shundaki u katta hajimdagi materialni qisqa mudatda, aniq izoh yordamida tinglovchiga yetkaza oladi va o‘quv ma’lumotlarini sistwmali bayon qilishni ta’minlaydi. Ilmiy pedagogik nazariya va amaliyot shundan darak beradiki, ma’ruzani ta’limiy va tarbiyaviy imkoniyatlarini ijobiy bo‘lishi ko‘p hollarda auditoriyada ma’ruzachi bilan tinglovchining aloqa o‘rnatishiga bog‘liq. Ma’ruzachi professor- o‘qituvchi va talaba - tinglovchining

auditoriyadagi hamkorlik va aloqa o‘rnatishning muhim shartlari mavjud. Ularni pedagog olim N.V.Savin uch guruhga ajratadi.

Birinchi guruhga ma’ruza mazmuni va tuzilishi bilan bog‘liq shart kiradi.

1. Ma’ruza mavzusini aniq rejalash va ko‘rish;
2. Ma’ruzani ilmiy informatsiyalarga boyitish;
3. Ma’ruzada fanning eng yangi yutuqlarini bayon etish;
4. Ma’ruza uchun o‘quv materialini puxta tayyorlash va uning mazmunini asosiy tushunchalar mohiyatini yoritishga qaratish;
5. Bayon etilayotgan o‘quv materialining darslikdagi izohini obyektiv baholash va qo‘shimcha ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish hamda ulardan o‘z o‘rnida foydalanish.

Ma’ruzachining talabalar bilan aloqasining ikkinchi sharti ma’ruza sifatiga taa’lluqli:

1. Ma’ruzachi mavqeining aniqligi uning g‘oyaviy va ilmiy ishonchi hamda bu ishonchning ma’ruza mazmuniga, fikrlar bayonida ifodalanishi.
2. Umumiy va ilmiy bilimdonlik, erkin axbarotlarni bayon etishi.
3. O‘z o‘quv faniga ishtiyoq va ilmiy ijodga qiziqish
4. Diktorlik mahorati, bilimdonlik va fikrlar boyligi, bayon etish malakasiga ega bo‘lish (ma’ruzada diqqatini turli obyektlarga taqsimlay olishi va uni butun mashg‘ulot davomida saqlay olishi, aqliy faoliyatini stimullash va h.k).
5. Nutq sifati: fikrni til orqali ifodalashi, nutqning yorqinligi, auditoriyada aniq eshitilishi, ifodali bayon etish.
6. Ma’ruza o‘qish tizimi: barcha kurs talabalarining o‘quv ma’lumatlarni to‘liq idrok qilish va ayrim yozuvlarni qayd qilish imkoniyatining yaratilishi
7. Talabalarga xayrixohlik bilan, munosabatda bo‘lish, munofiqlik, soxta obro‘ga ega bo‘lish izidan quvmaslik va h.k.

Ma’ruzachi va tinglovchining mashg‘ulotdagi aloqasining uchunchi sharti: ma’ruza vaqtini optimal taqsimlash o‘quv jarayoniga sifatli o‘quv ma’lumotini tanlash va uni o‘z vaqtida bayon etishi, ish sifatiga e’tibor qaratish,yordamchi vositalarni jalb eta olishi kiradi[1]. Ma’ruzalarda talabalarni o‘quv materialini idrok qilishga faolishtirokini

[1] Ochilov M., Ochilov N. Oliy maktab pedagogikasi (darslik) –T. “Aloqachi” , 2008,54-bet

tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.Buning uchun ma’ruza jarayonida talabalar oldiga muammoli savollar qo‘yish ularning fikrlarini tinglash,javoblarni izohlash, faktlar, misollardan foydalanish darkor.

Professor M.Ochilovning ta’kidlashicha oliy ta’lim maktablarida o‘qiladigan ma’ruzalar kirish ma’ruzasi, mavzular bo‘yicha ma’ruza, umumlashtiruvchi ma’ruzalardan iborat. Mualliflarning fikriga ko‘ra kirish ma’ruzasida o‘rganilayotgan oliy o‘quv yurtidagi fanlar tizimidagi o‘rni ya’ni agar “Umumiy pedagogika” fani bo‘yicha ikkinchi kursda ma’ruza o‘qilayotgan bo‘lsa, uning umumkasbiy fanlar tarkibidagi o‘rni, boshqa turdosh bo‘lmagan fanlar bilan aloqadorligi, bog‘liqligi, fan o‘rganadigan asosiy muammolar, kursning maqsadi, vazifalari,mutaxassislikda tutgan mavqei,metodik asoslari, tadqiqot metodlari, manbalari hamda fanning o‘ziga xos xususiyatlari bayon etiladi.

Mavzular bo‘yicha ma’ruzalarda o‘quv va ishchi dasturda ko‘rsatilgan vaqt doirasida o‘tkaziladi. Unga har bir mavzu bo‘yicha ma’lumotlar, ushbu mashg‘ulotlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi o‘rni, munozarali masalalar, qonunlar, muammoning mohiyati, tarixi, erishilganlik darajasi, nazariy va amaliy ahamiyati bayon etiladi. Umumlashtiruvchi, yakuniy ma’ruzalar, fanni o‘rganishning yakunida, yakuniy davlat attestatsiyasi oldidan o‘tkaziladi. Bunda fan bo‘yicha mavzulardagi ma’lumotlar umumlashtirilib, mavzular bo‘yicha sodir bo‘layotgan voqealar, yangiliklar, o‘zgarishlar, erishilgan yutuqlar to‘grisidagi axbarot beriladi. Shunday qilib, ma’ruza bugungi kunda oliy ta’lim maktablarida o‘qitishning asosiy shakllaridan biri edi va shunday bo‘lib qoladi. U ma’lumotlarni bayon qilishga katta hajmdagi axbarotni qamrab olganligi, vaqtni tejasi ko‘p sonli tinglovchilarni qamrab olganligi jihatlari bilan oliy o‘quv yurtlarida o‘qitish shakllarining muhim shakllari bo‘lib qoladi.


Ma’ruza bosqichlari
1.Tashkiliy qisim
Ma'ruza mavzusi bilan bog'liq bo'lmagan masalalarni e'lon qilish yoki hal qilish uchun ma'ruza boshlanishidan oldin amalga oshiriladi.
2.Talabalarning diqqatini jalb qilish.
Bu tinglovchilarni qiziqtiradigan va ijobiy munosabat yaratadigan bir nechta iboralarni o'z ichiga olgan ma'ruzaning boshlanishi
3. Yangi mavzuni yoritishga tayyorgarlik.
Ushbu bosqichda talabalarning bilimlari harakatga keltiriladi. Buning uchun o'tgan materialni qisqacha eslatiladi (odatda oldingi ma'ruzaning mavzusi yoki natijalari aytiladi), yangi ma'ruza mavzusi e'lon qilinadi va mavzuning o’tilgan mavzu bilan aloqadorligi ko’rsatiladi.
4. Kognitiv vazifalarni belgilash.
Ma’ruza rejasi, adabiyotlar ro'yxati va ma'ruza oxirida javob beradigan savollar yozib olish tavsiya etiladi.
5. Yangi materiallarni o'rgatish. Bu ma'ruzaning asosiy va eng uzun qismidir (kamida bir soat).
Ma’ruzachi o‘quv dasturidagi muhim ma’lumotlar, murakkab fikrlar mazmunini aniqlab, ochib beradi, farazlar mohiyatini izohlaydi, talabalar oldiga muammolar qo‘yadi ularni mustaqil fikrlashga undaydi.
6. Materialni mustahkamlash
Yaxshi o'qituvchi ma'ruzaning bu qismini hech qachon e'tiborsiz qoldirmaydi. Mustahkamlash ma'ruzada xulosalar yoki qisqacha takrorlashni o'z ichiga oladi. Mustahkamlash bosqichining vazifalari: * taqdim etilgan barcha materiallar umumlashtiriladi; * savollar beriladi; * keyingi mavzu bilan bog'lanadi; *talabalarning savollariga javob beriladi; * o’rganilgan material qaerda ishlatilishi mumkinligini ko'rsatiladi.
7. Mustaqil ta’lim va uyga vazifa berish
Tushuntirish beriladi va individual elementlarni kiritish tavsiya etiladi. Keyingi seminar shu asosda tashkil etilishi aytiladi.

Ma'ruza o'tkazishning umumiy metodik talablari

1. Ma’ruza mavzusini aniq rejalash va ko‘rish;
2. Ma’ruzani ilmiy informatsiyalarga boyitish;
3. Ma’ruzada fanning eng yangi yutuqlarini bayon etish;
4. Ma’ruza uchun o‘quv materialini puxta tayyorlash va uning mazmunini asosiy tushunchalar mohiyatini yoritishga qaratish;
5. Bayon etilayotgan o‘quv materialining darslikdagi izohini obyektiv baholash va qo‘shimcha ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish hamda ulardan o‘z o‘rnida foydalanish.
6. Ma’ruzachi mavqeining aniqligi uning g‘oyaviy va ilmiy ishonchi hamda bu ishonchning ma’ruza mazmuniga, fikrlar bayonida ifodalanishi.
7. Umumiy va ilmiy bilimdonlik, erkin axbarotlarni bayon etishi.
8. O‘z o‘quv faniga ishtiyoq va ilmiy ijodga qiziqish
9. Diktorlik mahorati, bilimdonlik va fikrlar boyligi, bayon etish malakasiga ega bo‘lish (ma’ruzada diqqatini turli obyektlarga taqsimlay olishi va uni butun mashg‘ulot davomida saqlay olishi, aqliy faoliyatini stimullash va h.k).
10. Nutq sifati: fikrni til orqali ifodalashi, nutqning yorqinligi, auditoriyada aniq eshitilishi, ifodali bayon etish.
11. Ma’ruza o‘qish tizimi: barcha kurs talabalarining o‘quv ma’lumatlarni to‘liq idrok qilish va ayrim yozuvlarni qayd qilish imkoniyatining yaratilishi
12. Talabalarga xayrixohlik bilan, munosabatda bo‘lish, munofiqlik, soxta obro‘ga ega bo‘lish izidan quvmaslik va h.k.
13. Yangi materiallarni o'rganish – bu ma'ruzaning yagona qismi emas, balki asosdir.
14. Ma'ruza muayyan mantiq va tempga ega bo‘lishi kerak.
15. O'quv jarayonining yaxlitligini yaratish uchun har bir ma'ruza mantiqan avvalgi va keyingi bilan bog'lanishi kerak.
16. Faqat yangi mavzuni taqdim etish bilan emas, balki uni o'rganishning har bir bosqichi xulosa bilan yakunlanishi kerak.
17. O'qituvchi barcha talabalarning fikrini inobatga olishi kerak. Ularning faoliyatini doimiy ravishda aniqlashi lozim
18. Ma'ruzani o'qiyotganda, darslikning tegishli sahifalari yoki xatboshilariga murojaat qilish kerak.

19. Ma’ruza matni, darslik va taqdimotni so‘zma-so‘z o‘qib bermaslik, balki keltirilgan materialni mazmunini tushuntirib berish.

Seminar va amaliy mashg‘ulotlar

Oliy o‘quv yurtlarida, pedagogik fanlarini o‘qitishda qo‘llaniladigan o‘qitish shakllarining yana bir shakli seminar mashg‘ulotidir. Agar ma’ruza katta patok (oqim)da o‘tkazilsa, seminar mashg‘uloti alohida guruhda o‘tkaziladigan o‘quv ishlarining bir shakli hisoblanib, talabalar o‘quv-biluv faoliyatlari, mustaqil bilim olishlari, ijodiy fikr yuritishlarini yo‘lga qo‘ya oladigan o‘qitish shakli hisoblanadi. Shuning uchun ham u oliy ta’lim maktabida olib boriladigan o‘qitish shaklining o‘ziga xos bir shakli hisoblanadi.

Seminar (lotincha seminarium) olimlarning muayyan ilmiy soha bo‘yicha ma’lumotlarni muhokama qilishning dastlabki shakli bo‘lgan. Keyinchalik ilmiy faoliyatlardan o‘quv jarayoniga ko‘chib, talabalarning ishchanligi, bilim darajasi fanga qiziquvchanligi, xarakteri, psixologiyasiga xos tomonlari aniqlash shakliga aylandi, hozirgi kunda seminar mashg‘uloti suhbat, ma’ruza bo‘yicha fikr almashish, rolli o‘yinlar shaklida o‘tkazish nazarda tutilgan.

Mashg‘ulotni seminar, ma’ruzada o‘tkazilishining muhim tomoni shundaki, unda o‘qituvchi ham talaba ham puxta tayyorgarlik ko‘radi. Har ikkala faoliyat egasi, manbalar bilan ishlash, seminar rejasida ko‘rsatlgan savollarga javoblar topishda asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar bilan tanashib chiqishlari lozim bo‘ladi. Seminar mashg‘ulotida o‘qituvchi va talaba mavzu bo‘yicha aniq rejani, uni hal qilish manbalarini o‘rganib, matn tayyorlaydilar, so‘zga chiqib fikrlarini asoslaydilar. Ma’ruza jarayonida o‘rganilgan nazariy ma’lumotlarning haqqoniyligini dalillash uchun imkon beradi.

Oliy ta’limda pedagogika turkum fanlaridan o‘tkazilayotgan seminar mashg‘ulotlari shundan dalolat bradiki, talabalar seminar mashg‘ulotiga tayyorgarlik kursi jarayonida buyuk pedagoglar asarlarini, pedagogika nazariyasi va tarixi ma’lumotlarni chuqur va ongli ravishda o‘zlashtirilishiga majbur bo‘ladilar va shundagina mavzuga doir masalalarning aniq egallaydilar, muhokamaga faol ishtirok etadilar.

Seminar mashg‘ulotlarining yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, unda jonli muloqot amalga oshadi, qarama-qarshi ziddiyatli fikrlar to‘qnashuvi, ularni talabaga muvofiq hal etish ishlari yo‘lga qo‘yiladi.

Shuning uchun seminar olib boruvchi o‘qituvchi auditoriyaga jonli muloqotni, bahs-munozara ishlarini, o‘z nuqtai nazarini dalilash, o‘zgalar fikrini tinglay olish, muhokamaga kirishish yo‘llarini aniq tanlashi lozim. Mashg‘ulotning yakunida o‘qituvchi umumiy xulosa yasab, seminar mashg‘ulotining borishi, ishtirokchilar faolligi yoki passivligini alohida qayd etib, navbatdagi seminar mashg‘ulotini o‘tkazish haqida tavsiyalar berish, o‘ylab ko‘rish, fikrlarni yanada to‘ldirish uchun savollar, masalalarni ilgari surish, maslahatlar berish, adabiyotlar ro‘yxatini e’lon qilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ma’ruza materiallarini chuqurroq o‘zlashtirish, o‘rganilgan pdagogik ma’lumotlarni amalda qo‘llay olish malakasini shakllantirish maqsadida **amaliy mashg‘ulotlar** tashkil qilinadi.

Dastlabki vaqtlarda amaliy mashg‘ulotlar darsning bir qismi hisoblanib, unga tayyorgarlik darsning o‘zida amalga oshirilgan. Keyinchalik pedagogik fanlarni o‘qitishda o‘qituvchi faoliyatini tashkil qilishning mustaqil sohasi sifatida o‘quv ishlarining bir shakliga aylandi.

Amaliy mashg‘ulotning o‘ziga xos tomoni o‘quv topshiriqlarining fan mazmunidagi o‘rni, o‘qituvchi va talaba faoliyatining tashkil etilishi bilan xarakterlansada, amaliy mashg‘ulotning vazifasi amaliy va juda tor asosda belgilanadi. U asosan ma’ruza, seminar mashg‘ulotlarda egallagan bilimlar bayon etilgan bilimlar bayon etilgan malumotlarni chuqur va puxta o‘rganishga talaba mustaqil ishining sifati va o‘zlashtirishning samarasini aniqlash bilimlarni ko‘nikma va malakaga aylantirish maqsadida tashkil qilinadi.

Hozirgi davrda ta’lim muassasalarida amaliy mashg‘ulotlarni tashkillashtirishning turli shakllarini tatbiq etish bo‘yicha faoliyat olib borilmoqda. Jumladan “Mening bo‘lajak kasbim”, “Dars o‘tmoqdaman”, “O‘quvchilar mening tassavurimda” nomi bilan o‘tkazilayotgan dars va o‘qituvchi faoliyatining o‘ziga mujasamlashtirilgan mashg‘ulot o‘quvchilar bilan o‘tkaziladigan ma’naviy-axloqiy mavzusidagi suhbat (tarbiya soati), “Men pedagogikani chuqur bilaman” (o‘yin darsi) mashg‘ulotlari talabalarda mustaqil ishlash, manbalardan muhimi topish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish, faktlar, ilmiy axbarotlar to‘plashga qiziqishni orttirmoqda. Shuningdek mazkur amaliy mashg‘ulotlarda talabalar o‘qituvchi rahbarligida sinf (guruh) mashg‘ulotini o‘tkazish, sinfda

ijtimoiy-foydali ishni tashkil qilish va o‘tkazish, dars va tarbiyaviy soatlarni rejalashtirish ishlarini amalga oshirmoqdalar.

Amaliy mashg‘ulotlar frontal, guruhiy (juft-juft), individual ko‘rinishda “aqliy hujum”, “Kichik guruhlarda ishlash”, “Tanqidiy fikrlarsh”, “Klaster” (tarmoqlar), “Munozara” va h.k interfaol usullarda o‘tilsa ko‘zlangan maqsadga erishish amalga oshadi.

Tajribaning ko‘rsatishicha amaliy mashg‘ulot maxsus jihozlangan kabinetlar, yoki o‘quv tarbiya muassasalarida o‘tkazilsa samaradorlik yanada oshadi. Chunki, bunda o‘qituvchi-talaba-o‘quvchi muloqoti amalga oshadi. Talabalar bunday mashg‘ulotlarda o‘zlarini yo o‘qituvchi, yo tarbiyachi, yo o‘quvchi- tarbiyalanuvchi o‘rniga qo‘yish, nazariya bilan amalyotni taqqoslash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa mashg‘ulot sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Seminar va amaliy mashg‘ulotlarning mazmundorligi va samaradorligi quyidagi talablar asosida qurilishi talab etiladi.

-Seminar yoki amaliy mashg‘ulotda talaba javobi, ma’ruzasi muayan ijtimoiy-ma’rifiy maqsadga yo‘nalgan bo‘lishi (muammoning qo‘yilishi, dolzarbligi, nazariya bilan amaliyotning bog‘liqligi ustuvor maqsadga ega bo‘lishi.

- Talaba ma’ruzasida fikrlarning mantiqiy ketma-ketlik, rejalilik, mukammalik va fikrlarning o‘zaro aloqadorlik tamoyili asosida tuzilganligi, asosiy va qo‘shimcha ma’lumotlarni ajratib ko‘rsatilishi, adabiyotlarni aniq tanlanganligi, va to‘g‘ri foydalanganligi.

- O‘quvchi- o‘quvchi –o‘qituvchi muloqotining to‘g‘ri tuzilishi, o‘quvchi talabaning kursdoshlari, o‘qituvchining tanqidiy fikriga xayrxohli, samimiyli, e’tirozli munosabatning ijobiyligi, muomilaga kirish madaniyatining mavjudligi.

- O‘quvchining axloqiy-madaniy harakatlari: o‘rinli, maqsadli bahslashishi, kursdoshi fikrini tinglay olishi, ma’lumotlarni taxlil qila olishi, fikrini lo‘nda, ixcham bayon etish va nuqtai nazarini dalillashning ijobiyligi.

- Talabaning mashg‘ulot jarayonidagi faolligi, mavzu rejasidagi har bir punktda o‘z fikrini ayta olishi, o‘ziga va o‘zgalar fikriga tanqidiy yondasha olishi.

Laboratoriya ishlari oliy ta’limda “Umumiy pedagogika” fanidan laboratoriya mashg‘uloti o‘tkaziladi. Bu mashg‘ulotda laboratoriya ishi, o‘qitishning interfaol metodini ko‘rish orqali peagogik

mashg‘ulotlar o‘tiladi, amaliy o‘yinlar o‘tkaziladi, masalalar yechiladi va h.k. masalan, “Ta’limni tashkil etish shakllari” mavzusi zamonaviy darslarni tashkil qilish, dars o‘quv-tarbiya ishlarini yaxlit tizimini ko‘rinishida pedagogik o‘yin darsi o‘tkazilishi mumkin. Bunda asosan talabalarda amaliy ko‘nikma va malakalar hosil qilish uchun laboratoriya ishini tashkil qilish nazarda tutilgan. Odatda laboratoriya ishlari “Umumiy pedagogika” fanining nazariy asoslari bo‘yicha ma’lumotlarni amalda qo‘llab, o‘quv mashg‘uloti, tarbiya soatlarni o‘tkazish to‘g‘risida ma’lumot berish, o‘qituvchilik-murabbiylik kasbini egallash yo‘llarini ko‘rsatish maqsadida tashkillashtiriladi.

Shu o‘rinda e’tibor etish joizki, laboratoriya mashg‘ulotlari izlanish xarakteri (tavsifi)ga ega bo‘lib, muayan pedagogik hodisani kuzatish, tajriba o‘tkazish, natijalarni tahlil qilish ko‘rinishidagi ishlarni yo‘lga qo‘yish uning xulosalarini umumiylashtirish, yakuniy mashg‘ulotlarni qo‘lga kiritish uchun ham qo‘llaniladi.

O‘quv konfrensiyasi va munozara mashg‘ulotlari. Pedagogik fanlarni o‘qitishda o‘quv konferensiyalari mashg‘ulotlarini tashkil-lashtirish oliy ta’lim muassalarida qo‘llaniladigan ta’limning muhim shakllaridan biri hisoblanadi. Odatda o‘quv konfrensiyasi fanning muayyan bo‘limi yoki katta hajmdagi mavzularni o‘rganishda yoki o‘rgangandan so‘ng o‘tkaziladigan o‘quv mashg‘ulotidir. Shuning uchun konferinsiya mavzulari o‘quv mavzusini takrorlash, qo‘shimcha darsliklardagi qayd etilgan masalalarni takrorlamasliklari lozim. Masalan, “Pedagogika tarixi” o‘qitilgandan so‘ng “Sharq muttafakir-lari ta’limotida ma’naviy –axloqiy tarbiya masalalari”, “Abdulla Avloniy jadid tarbiyashunosligining asoschisi”, “Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda pedagogika faning taraqqiyoti” va h.k. Mavzularda o‘quv konfrensiyasining boshqa o‘quv fanlaridan farqi shundaki, u bir necha fakultet ta’lim muassasalari talabalarni qamrab oladi. Unga talaba pedagog rahbarligida jiddiy tayyorgarlik ko‘radi, konfrensiya mavzusi va o‘zi tanlagan mavzu mohiyatidan kelib chiqib bir necha ilmiy, siyosiy, pedagogik, adabiyotlar bilan tanishib, muammoli masalalarni hal qilishga majbur bo‘ladi.

O‘quv konfrensiyalari pedagogika fanlarining eng dolzarb, jamiyat talablariga javob bera oladigan masalalar bilan to‘ldirilsa ayni muddao bo‘ladi. U talaba yoshlarni ijodkorlikka, tashabbusga, ilmiy izlanishga qiziqish,manbalar bilan aniq ishlashga o‘z fikri, nuqtai nazarini

asoslashga o‘rgatadi. Shuning uchun ham uni oliy ta’lim maktablarida o‘qitish ishlarining tashkiliy shakli sifatida o‘tkazish muhim ilmiy pedagogik axamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, pedagogika va psixologiya ta’lim yo‘nalishida pedagogika fanlaridan tashkil qilinadigan o‘quv ishlarining shakllari bo‘lajak tarbiyachi –murabbiylarda pedagogika fanlariga qiziqishni, kelajak kasbga qiziqish va havasni uyg‘otishga katta amaliy yordam ko‘rsatadi.

7.3.Pedagogik fanlarni o‘qitishning yordamchi shakllari

Ta'limning yordamchi shakllari: to‘garak, kolleklium,kurs ishi, malakaviy bitiruv ishi fakultativ mashg'ulot, o‘quv ekskursiyalari va boshqalar sanaladi.

Maktabdan tashqari mashg’ulotlarning asosiy va barqaror turlariga o‘qish jarayonining tarkibiy qismi sifatida qaraladigan, o‘quvchilarning mustaqil uy ishlari kiradi. Uning asosiy maqsadi – darsda o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarini kengaytirish, chuqurlashtirish, ularni esdan chiqarishning oldini olish, o‘quvchilarning individual layoqati, iste’dod va qobiliyatini rivojlantirishdan iborat. Bu ishlar o‘quv dasturi talablari, o‘quvchilarning qiziqish va ehtiyojlari hamda ularning rivojlanish darajalarini hisobga olib quriladi. O‘quvchilarning mustaqil uy ishlari ma’lum didaktik vazifalarni bajaradi. Chunonchi, darsda o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni mustahkamlash, sinfda ishlab chiqilgan o‘quv materialini kengaytirish va chuqurlashtirish, mashqlarni mustaqil bajarish ko‘nikmalarini shakllantirish, dasturli material doirasiga kiruvchi hajmda individual topshiriqlarni bajarish asosida mustaqil fikrlashini rivojlantirish, individual kuzatishlar, tajribalar, gerbariy, tabiiy namunalar, otkritkalar, rasmlar, gazeta va jurnal lavhalari statistik ma’lumotlar kabi o‘quv qo‘llanmalarini to‘plash va tayyorlash va boshqalar.

Darslarda pedagogning o‘quvchilar tomonidan uy vazifalarining halol bajarishlariga kam e’tibor berayotganliklari, ularni sinfda tekshirishga uninmasliklari, yaxshi o‘zlashtirayotgan o‘quvchilarni rag’batlantirib bormasliklari ta’lim amaliyotda keng tarqalgan kamchilik hisoblanadi. Uy vazifalarini tushuntirib berishga ko‘pincha vaqt yetmaydi, ular shoshilinch beriladi. Pedagoglar kamdan-kam

hollarda o‘quvchilar uy vazifasini bajarayotganda duch keladigan qiyinchiliklarini ko‘rsatib beradilar, ularni bartaraf etish yo‘lini esa ko‘rsatmaydilar. Natijasida mustaqil uy vazifalarining bajarilishi samarasiz bo‘lib qoldi.

Fan to‘garaklari yo‘nalishi, mazmuni, ish metodi, o‘qish vaqti va boshqa jihatlari bilan ajralib turadi. Ular o‘quvchilarning qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantirish, o‘qishga ijobiy munosabatni shakllantirishga yordam beradi.. To‘garaklar o‘qishni hayot bilan aloqasini kuchaytiradi, fanlararo bog’liqlikni rivojlantiradi. Fan to‘garaklarida o‘quvchilarning ishlari o‘quv jarayonini faollashtiradi, o‘qish sifatini oshirishga yordam beradi.

Ta’limning yordamchi shakllariga ekskursiyalar ham kiradi. Ular ommaviy, guruhli va kichik guruhli bo‘lishi mumkin. O‘quv ekskursiyalari alohida fanlar hamda bir qancha fanlar bo‘yicha ham rejalashtiriladi. Ekskursiyani muvaffaqiyatli o‘tkazish uchun o‘qituvchi unga puxta tayyorlanishi: obyekt va mashrut bilan oldindan tanishib chiqishi, to‘la rejani ishlab chiqishi, o‘quvchilarni bo‘lajak topshiriqlarni bajarishga jalb eta olishi kerak. Ekskursiya rejasida mavzu va maqsad, obyekt, u bilan tanishish tartibi, o‘quvchilar idrok etish faoliyatlarini tashkil etish, topshiriqni bajarish uchun zarur bo‘lgan vositalar va uskunalar, yakun yasash ko‘rsatiladi. Ekskursiyani o‘tkazish metodikasi mavzu, didaktik maqsad, o‘quvchilarning yoshi, ularning rivojlanishi hamda ekskursiya obyektiga bog’liq bo‘ladi.

Maktab o‘quv rejasi turli fakultativ va tanlovi bo‘yicha kurslarni tashkil etishni ko‘zda tutadi. Ular o‘quvchilar, ularning ota-onalari istak va qiziqishlarini hisobga olish bilan ishlab chiqiladi. Amaliyotda fermerlik, iqtisod, elektro va radiotexnika, elektronika, polimerlar ximiyasi, astrofizika, psixologiya, etika, antik tarix, botanika ba’zi sohalari, ikkinchi chet tili, etnografiya, stenografiya, kutubxona ishi, rassomchilik, musiqa kabi kurslarni fakultativ sifatida o‘rganiladi. Fakultativ va fanlarni ro‘yxatini aniqlashda faqat o‘quvchilar istaklari emas, balki ijtimoiy talablar va maktab imkoniyatidan kelib chiqiladi. Fakultativ va tanlovi bo‘yicha mashg’ulotlar majburiy va umumiy o‘rta ta’lim fanlari bilan uzviy bog’liqlikda o‘tkazilishi kerak.

Maslahat (konsultatsiya-o‘quv suhbati)ga talablar ko‘pincha o‘quvchilarning ma’lum o‘quv materiali yoki topshirig’i ustida mustaqil ishlashi sababli yuzaga keladi. Bunda ko‘proq o‘quvchi savol

beradi. To‘g’ri tashkil etilgan konsultatsiya o‘quvchilarga o‘quv materialini egallashda qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi. Konsultatsiya davomida o‘qituvchi o‘quvchilar faoliyatini u yoki bu masalani to‘g’ri tushunishga mustaqil keladigan, ular uchun qiyin topshiriqni tushunib oladigan qilib, o‘rganilayotgan materialni mohiyatini ochishga o‘rganadigan qilib yo‘naltiradi. Konsultatsiya o‘qituvchiga o‘quvchilar bilimlaridagi kamchiliklarni aniqlash, alohida e’tibor berishni talab etuvchi vaziyatlarga ularning diqqatini jalb etishga imkon beradi. To‘g’ri tashkil etilgan konsultatsiya o‘quvchilarda o‘zini nazorat qilish, bilimlarga tanqidiy ko‘z bilan qarashni tarbiyalaydi. O‘qimishlilik darajasini to‘g’ri aniqlashga yordam beradi.

Kurs ishining asosiy talab va shartlari. Oliy ta’lim muassasalarida pedagogika va psixologiya ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha kurs ishi yozish bitiruv malakaviy ish bajarishdan oldingi muhim bir tayyorlanish bosqichlaridan biridir.

Kurs ishi yozishdan maqsad quyidagilardan iborat:

– talabalarning pedagogika fanlarini o‘qitish metodikasi hamda kasbga yo‘naltirish va kasb tanlash asoslari fanini o‘rganishi uchun huquqiy-me’yoriy hujjatlar, ilmiy va o‘quv adabiyotlarni izlab topishi, o‘rganib chiqishi hamda ularni jamlab, xulosa qilishi;

– mustaqil ta’lim olish faoliyatini faollashtirish;

– amaliy materiallarni pedagogik tahlil qilish va ularga il-miy xulosa berish borasidagi malakasini oshirish;

– faktlar asosida to‘g’ri xulosa chiqarishni o‘rganish;

– dolzarb mavzularga taalluqli yangiliklar, adabiyotlar va man-balardan foydalanish;

– bitiruv malakaviy ishlarini yozishga tayyorlash.

Kurs ishini yozish va himoya qilish jarayoni quyidagi bosqich-lardan iborat:

1. Mavzu tanlash.

2. Foydalanish uchun zarur bo‘lgan adabiyotlarni izlab topish va ularning ro‘yxatini tuzish.

3. Kerakli hujjatlar asosida ma’lumotlarni tayyorlash va yig’ish.

4. Kurs ishi rejasini tuzish.

5. Rejaga mos bo‘lgan savollarni batafsil o‘rganish ma’lumot-larni tahlil qilish.

6. Olgan bilim va ko‘nikmalarini o‘rganish va tahlil natijasida batafsil, mantiqan to‘g’ri bayon qilish.

7. Kurs ishida keltirilgan ma’lumotlarni keng va tushunarli tahlil qilish.

8. Ilmiy rahbar tomonidan ko‘rsatilgan kamchiliklarni barta-raf etish va takliflarni e’tiborga olish.

9. Kurs ishini to‘g’ri rasmiylashtirish.

10. Kurs ishini himoya qilish.

Kurs ishi yozishdagi asosiy masalalardan biri, talabalar tomonidan uning mavzusini to‘g’ri tanlashdir. Hamma fanlarda bo‘lganidek Pedagogika fanlarini o‘qitish metodikasi fanidan yoziladigan kurs ishi mavzusi ham talabalar tomonidan mavzular ro‘yxatidan tanlanadi.

Talabalarning tanlagan mavzulari bir xil bo‘lib qolmasligi lozim. Ular uchun mavzu tanlash imkoniyati keng bo‘lishi uchun, tay-yorlangan mavzular ro‘yxati kurs ishi yozishi ko‘zda tutilgan tala-balar soniga nisbatan ikki barobar ko‘p bo‘lishi tavsiya etiladi.

Kurs ishi mavzulari ro‘yxati har yili kafedra tomonidan yangi va dolzarb muammolarni yoritishga asos bo‘ladigan mavzular bilan yangilanib turilishi va o‘quv yilining 1 oktyabriga qadar tanishish uchun talabalarga berilishi kerak.

Talabalar mavzu tanlashda o‘qituvchilar bilan maslahatlashishlari mumkin. U ro‘yxatdagi mavzulardan xohlaganini tanlash huquqiga ega. Bundan tashqari, talaba kurs ishi mavzulari ro‘yxatida bo‘lmagan, lekin pedagogika fanlarini o‘qitish metodikasi muammolarini ochishda muhim ahamiyat kasb etgan mavzularni taklif qilishi mumkin.

Har bir talaba bitta mavzu tanlash huquqiga ega. Mavzu tanlangandan so‘ng, kurs ishi ёzish masalasida albatta ilmiy rahbar bilan maslahatlashib olish kerak.

Kirish qismi – kurs ishining boshlang’ich qismi bo‘lib, ishning asosiy ma’nosini bayon qiladi. Unda kurs ishi mavzusi-ning dolzarbligi asoslanadi, izlanishning maqsadi va vazifalari, izlanish obyekti, predmeti hamda mavzuning ahamiyati va mohiyat-ga to‘xtaladi. Shu bilan birga, kurs ishi yozish uchun asos bo‘lgan amaliy ma’lumotlar manbalari aks ettiriladi.

Kirish qismdan so‘ng, asosiy qism shakllantiriladi. U bir nechta savollardan iborat bo‘lib, bunda asosan ushbu mavzuning asosiy mohiyati to‘liq va batafsil ochib beriladi.

Asosiy qismda ishning hamma savollari ochib beriladi. Avvalo, tanlangan mavzuning ijtimoiy-pedagogik mohiyati, ahamiyati, o‘quvchilar bilm, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilib borishning zarurligi, uning ta’lim samaradorligidagi o‘rni, shakllari, metodlari, vositalari tahliliy o‘rganiladi. Bunda mavzu bo‘yicha mavjud muammolar aniqlanadi va ushbu muammolarni bartarf etish yo‘llari izlab topiladi.

Kurs ishining har bir bo‘limi unga mos asoslar, qarorlar va xulosalar bilan yoritiladi. Kurs ishida, ilgari bajarilgan mustaqil ishlarning natijalari yoki boshqa mualliflarning (ilmiy ma’ruzalar va maqolalari, hisob-grafika ishlari va loyihalari, albatta, nomlari ko‘rsatilgan holda) ishlari aks ettirilishi yoki ulardan foydalanish mumkin.

Xulosa qismida mavzuni o‘rganish davomida talaba tomonidan amalga oshirilgan tahlil jarayonida shakllantirilgan xulosalar aks ettiriladi. Mavzuga oid zamonaviy asarlarda bayon etilgan tadqiq etilayotgan mavzuni takomillashtirish yuzasidan takliflar keltirib, shunga asosan talaba o‘z fikrini bayon etadi. Xulosa qismini ko‘pi bilan 2-3 varaq hajmda yozish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar qismida darslik, o‘quv qo‘llanma, uslubiy qo‘llanma, jurnal, tezislar to‘plami, huquqiy-me’yoriy huj-jatlar va internet saytlarining asosiy ma’lumot ko‘rsatkichlari (chop qilingan joyi va yili, nashriyot va boshqalar) ro‘yxati keltiri-ladi. Barcha ilmiy ishlarda, shuningdek, kurs ishida ham foydalanil-gan ma’lumotlar manbai va adabiyotlar ro‘yxatini keltirish maj-buriy shartlardan biridir. Foydalanilgan ada-biyotlar qismini ko‘pi bilan 2-3 varaq hajmda keltirish tavsiya etiladi.

Kurs ishini himoya qilish. Dekanat tomonidan kafedra bilan kelishilgan holda kurs ish-larini topshirish va himoya qilish reja jadvali ishlab chiqiladi va kurs ishini topshirish va himoya qilish muddatlari kafedra mudiri tomonidan o‘rnatilgan tartibda amalga oshiriladi.

Talaba tayyor bo‘lgan kurs ishini kafedra kotibasiga topshiradi. Kotiba ushbu kurs ishini ro‘yxatga olish ki-tobida ro‘yxatdan o‘tkazib, kurs ishi titul varag’iga ro‘yxatdan o‘t-kazilgan sana va ro‘yxat tartib raqamini yozadi. So‘ng ilmiy rah-barga topshiradi. Ilmiy rahbar kurs ishini ro‘yxatdan o‘tgan sana-dan boshlab bir hafta ichida ko‘rib chiqib, uni talab darajasida bajarilganligiga ishonch bildirgandan so‘ng, ishni

o‘z taqrizi (8-ilovaga qarang) bilan birga kafedraga taqdim etadi. Ilmiy rahbar tomonidan taqdim qilingan taqrizda talabaning faolligi, mavzuning dolzarbligi, maqsadi va vazifasi, qabul qilingan qarorlar-dagi yangiliklari, keltirilgan ma’lumotlarning tahlili, chi-qarilgan xulosa va takliflarning asosliligi va kurs ishining boshqa ijobiy tomonlari tavsiflanadi. Shu bilan birga, xato va kamchiliklari ham ko‘rsatiladi. Natijada, taqriz oxirida xulosa qilinadi, ya’ni kurs ishi himoyaga qo‘yilishi yoki qo‘yilmasligi ko‘rsatib o‘tiladi.

Kurs ishida qo‘pol xato-kamchiliklar bo‘lmasa, himoyaga tavsiya etiladi. Talaba ko‘rsatilgan xato-kamchiliklarni asoslash yoki to‘g‘rilash uchun kurs ishi himoyasigacha tayyorlanishi kerak. Agarda kurs ishida xato-kamchiliklar ko‘p bo‘lsa, ularni bartaraf etgandan so‘ng, himoyaga tavsiya etilishi ko‘rsatilgan bo‘lsa, u xolda xato-kamchiliklar bartaraf etilgandan so‘ng, ikkinchi marta yana himoyaga tavsiya etish uchun taqriz yoziladi.

Agarda talaba kurs ishini sababsiz o‘z vaqtida topshirmasa, kamchiliklar to‘liq bartaraf etilmasa, u holda ilmiy rahbar kurs ishi himoyaga qo‘yilmaydi deb yozma xulosa beradi.

Kotiba taqriz yozilgan kurs ishini topshirilgan kun bilan ro‘yxatdan o‘tkazib qo‘yishi kerak. Kurs ishlarini ro‘yxatga olish kitobida har bir guruhni alohida betga rasmiylashtirish tavsiya etiladi.

Kurs ishini himoya qilish kuni va himoyada qatnashuvchi komissiya tarkibi kafedra majlisida belgilanadi. Kurs ishi himoyasida qatnashuvchi komissiya tarkibi 3-5 ta a’zodan iborat bo‘ladi. Kurs ishi himoyasida komissiya tarkibidan kamida 3 ta azo bo‘lishi ta-lab etiladi.

Har bir talaba uchun kurs ishi himoyasi 10-15 daqiqa (5-7 daqiqagacha talaba ma’ruzasi, 5-10 daqiqagacha savol-javob) davom etadi. Talaba o‘z ma’ruzasida mavzu to‘g’risida qisqacha tushuncha berishi, ya’ni mavzuning dolzarbligi, muammosi, xulosa va taklif haqida to‘xtalishi zarur. Shuningdek, taqrizda ko‘rsatilgan kamchiliklar haqida to‘xtalishi kerak.

Himoyadan so‘ng, komissiya a’zolari yopiq majlis o‘tkazib, talabalarning ishini baholash qarorini qabul qiladi.

Komissiya a’zolari quydagicha qarorni qabul qilishi mumkin:

– kurs ishini himoya qilganligini bildiruvchi baho qo‘yilishi;

– himoyaga kiritilmagan bo‘lishi;

– «himoyaga kelmadi» bo‘lishi;

– himoyada qoniqarsiz baho olgan bo‘lishi;
– qayta himoya qilish uchun muddat berilishi;
– boshqa mavzuda qayta ishlab, himoya qilish tavsiya qilinishi.

Uzrli sabab bilan kurs ishini belgilangan muddatda himoya qilmagan talabalarga dekanning ruxsati bilan, komissiyasining ishi yakunlanishiga qadar, boshqa muddatlarda himoya qilishga ruxsat beriladi.

Pedagogika va psixologiya yo‘nalishida ta'lim oluvchilar tanlagan mavzusi bo‘yicha bitiruv malakaviy ishini asosan oliy ta'lim muassasasi sharoitida amalga oshiradi. Kafedra prfessor-o‘qituvchilari (maslahatchi) ilmiy rahbar etib tayinlanadi. Bitiruv malakaviy ishiga ilmiy darajaga ega mutaxassis rahbarlik qilishi mumkin. Ilmiy izlanish natijalari ilmiy maqolalar, tezislar yozish, respublika va xalqaro ilmiy anjumanlarda ishtirok etish va ma'ruza qilish orqali aprobatsiyadan o‘tadi.

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savollar hamda topshiriqlar:

1. *O‘qitish shakllari haqida tushuncha bering.*

2. *Oliy ta’limda o‘qitish asosan qaysi shakllarda olib boriladi?*

3. *Pedagogik fanlarni o‘qitishda qo‘llaniladigan ta’limning qaysi shakllaridan foydalaniladi?*

4. *Ma’ruza mashg’ulotini tashkil etish metodikasi haqida ma’lumot bering.*

5. *Ma’ruzaga doir talablarni aytib bering.*

6. *Seminar va amaliy mashg‘ulotlar haqida tushuncha bering.*

7. *Pedagogik fanlarni o‘qitishning yordamchi shakllari haqida ma’lumot bering.*

8. *Kurs ishi yozish tartibini tushuntiring.*

8-MAVZU. PEDAGOGIK FANLARNI O‘QITISHDA PEDAGOGIK VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Tayanch so‘zlar: *texnologiya, pedagogik texnologiya, innovatsiya, texnologik jarayon, texnologik operatsiya, texnologik xarita, texnologik rejim, tadqiqiy-ijodiy ta’lim texnalogiyasi, ishbilarmonlik o‘yinlari texnalogiyasi, muammoli o‘qitish texnalogiyasi, individuallashtirilgan ta’lim texnalogiyasi.*

8.1. Pedagogik fanlarni o‘qitishda pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanishning o‘ziga xosliklari

Demokratik, huquqiy davlat barpo etish va fuqarolik jamiyati asoslarini rivojlantirishning eng muhim masalalaridan biri mamlakatimiz ilmiy salohiyatini rivojlantirish masalasidir. Darhaqiqat, ilmiy salohiyatni taraqqiy ettirmay, mamlakatni iqtisodiy-siyosiy, ijtimoiy madaniy rivojlantirib bo‘lmaydi. Ilmiy salohiyat esa ta’lim-tarbiya vositasida yuksaladi. Shu sabab mustaqillikning dastlabki davridan boshlab mamlakatda barcha sohalar bo‘yicha tub islohotlar amalga oshirildi.

Zamonaviy texnologiya deyilganda zamon talablarini qondira oladigan, uni ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-siyosiy va madaniy-ma’rifiy taraqqiyotini tezlashtira oladigan texnologiyani tushunmoq darkor. Zero, zamonaviy texnologiya asosini **innovatsiya** (inglizcha innovation – yangilik, yangilik yaratish) termini tashkil etadi. Shu ma’noda innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda pedagog va talaba faoliyatiga o‘zgartirishlar, yangilik kiritishni anglatadi va o‘quvchi madaniyati hamda ta’lim ustuvorligini ta’minlaydi.

Chunonchi: a) mashg‘ulot davomida (nazariy, amaliy) o‘quvchilarning ijodiy munosabatini, ijod qilish, izlanishga da’vat etishi; bilim olishga nazariy mashg‘ulotlarni mustaqilegallashga qiziqishlarini uyg‘otishni ta’minlashga; talabani ta’lim obyektidan ta’lim subyektiga aylanishiga; b)mashg‘ulotda pedagog va talabaning doimiy hamkorlikda ishlashlarini yo‘lga qo‘yishini amalga oshiradi. Oqibatda o‘qituvchi va o‘quvchi-talabalarning qo‘yilgan maqsadga erishishi kafolatlandi.

Shunday qilib, zamonaviy o‘qitish texnologiyalari o‘zlashtirishni faollashtirib,maqsadga erishishni ta’minlaydigan, natijani kafolatlovchi texnologiya ekan, avvalo, uning nazariy va amaliy asoslarini yorituvchi tushunchalar “Texnologiya”, “Zamonaviy texnologiya”, “Zamonaviy o‘qitish texnologiyalar”ning mazmun-mohiyatini anglash, tushunib olish talab etiladi. Bu tushunchalarning mazmun-mohiyati, birinchidan bu tushunchalarga berilgan lug‘aviy izohlarda, ikkinchidan bu tushunchalarga berilgan ta’riflarda namoyon bo‘ladi.

“Texnologiya” so‘zi 1872 yilda fanga kiritildi va u yunoncha “texne” – mahorat, san’at hamda “logos”-fan, ta’limot tarzida ishlatila boshlandi va unga quyidagicha izoh berildi:

“-bu fan taklif etgan algoritm, vosita va yo‘llar tizimi bo‘lib, ishlatilganda oldindan belgilangan faoliyat natijalariga olib kelib, sifatli va miqdoriy mahsulot chiqishini ta’minlovchi jarayondir”[1].

Texnologiya tushuncha asosan ishlab chiqarishda ishlatiladi. Bundan texnololigik jarayon, texnologik operatsita, texnologik harita, texnologik rejim tushunchalari “Texnologiya” so‘zining mohiyatini yaratishda kalit rolini o‘ynaydi. Shundan **texnologik jarayon–** ishlab chiqariladigan mahsulotga ishlov berishning yagona jarayonini hosil qiluvchi texnologik operatsiyalarning yig‘indisidan iborat bo‘lsa, **texnologik operatsiya**– ishchi yomonidan o‘zining ish joyida bajariladigan, yakuniga yetkazilgan harakat ko‘rinishidagi jarayonning bir qismi deb ta’kidlaniladi.

Texnologik xarita- ma’lum bir mahsulotni ishlab chiqarish texnologik operatsiyalarini ketma-ketligini bayon qiluvchi texnik hujjatdir.

Texnologik rejim esa texnologik operatsiyalarni amalga oshirishni belgilovchi tartib bo‘lib, ma’lum bir mahsulotni ishlab chiqarishda bajariladigan opertatsiyalarning vaqti, shartlarini belgilaydi[2] deb qayd etiladi. Bu moddiy ishlab chiqarishni yaxshilash, takomillashtirish uchun texnologik jarayonni mukammallashtirish lozimligini uqtiradi. Bu jarayonni mukammallashtirish ilm-fan, texnika yutuqlariga tayanish, yuksak malakali mutaxasislarga ega bo‘lish, yirik

[1]Ibragimov X.I. Pedagogika-psixologiya – Toshkent, O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2007, 27-bet
[2]Qarang: Ta’lim samaradorligni oshirish yo’llari seminar-trening materiallari – Toshkent, 2002, 34-bet

moddiy mablag‘ mavjudligi bilan amalga oshishini tajriba ko‘rsatmoqda.

Xuddi shuningdek, bugungi taraqqiyot, fan-texnika rivoji kasbga tayyorlanayotgan bo‘lajak mutaxassislarning ham yuksak mahorat va malakaga ega bo‘lishi taqozo etadi.Buning uchun esa mutaxassislar tayyorlaydigan o‘quv yurtlari, umuman, uzluksiz ta’lim tizimidagi o‘quv-tarbiya jarayoning *pedagogik texnologiyalarga* tayanib tashkil etish zarurati tug‘ilmoqda. Chunki, bugungi kunda murakkab va serqirra texnika bilan ishlay oladigan, fanni va ishlab chiqarish jarayonini mufassal rivojlantira oladigan malakali kadrlar lozim bo‘lmoqda. Buning yagona sharti ta’lim tizimini texnologiyalashtirishdir. Bu deganimiz o‘qituvchi-pedgogning o‘qitish jarayonining unsurlari(shakl, metod, usul, vositalari)ni yaxlitligi, izchilligi, natijaviyligini ta’minlash yordamida o‘quvchi-talabalarga jamiyat uchun zarur bo‘lgan va oldindan loyihalashgan, ularda zamonaviy bilim, ko‘nikma, malakalarni singdirish demakdir.

Ma’lumki, ilmiy pedagogik nashrlarda qayd qilinishicha ta’lim jarayonini texnologiyalashtirish g‘oyasi XX asrning 30-50 yillarida G‘arbiy Yevropa va AQSH da o‘qitish uchun zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalangan holda didaktik amallarni muayyan izchillik hamda tizimlik asosida qo‘llash lozimligi tarzida talqin etilib, ular shaxs uchun zaruriy ijtimoiy sifatlarni tarkib toptirishga xizmat qiladi deb izohlandi. Shu tariqa dastlab, ta’limning texnik vositalarini qo‘llash “ta’lim texnologiyasi” sifatida e’tirof etilgan bo‘lsa, so‘ngra XX asrning 60 yillarida ta’limni dasturlash “ta’lim texnologiyasi” mohiyatini ochib beruvchi omil sifatida qarala boshlandi.

Shunday qilib, “Ta’lim texnologiyasi” nazariyasi XX asrning 30 yillarida, o‘quv mashg‘ulotlarini aniq va samarali tashkil etuvchi usul va vositalar vositasi XX asrning 50 yillarida ta’lim jarayoniga texnik vositalarni qo‘llash tarzida, XX asrning 60 yillarida dasturiy ta’lim ko‘rinishida tashkil etildi. Shu yillarda ta’lim texnologiyasi masalalarini taqiq etuvchi tashkilotlar hamda ilmiy jurnallar chop etila boshlandi[1].

Keyinchalik bu muammo MDH da, mamlakatimizda pedagog-olimlar tomonidan rivojlantirilib “Pedagogik texnologiya” atamasi

[1]Qarang: Tolipov O’.Q, Usmonova M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari – Toshkent, “Fan” 2006, 9-10 betlar.

bilan ta’lim va tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish masalasiga bag‘ishlandi va bu olimlar tomonidan “Pedagogik texnologiya” atamasiga berilgan ta’riflar yordamida zamonaviy pedagogik texnologiyalarning mazmun mohiyatini yoritishga harakat qilindi.

Shu o‘rinda e’tirof etish joizki, har qanday natijaga, yutuqqa inson faoliyati orqali erishiladi. Zero, V.P.Bespalko ta’kidlaganidek “Har qanday aoliyat yoki texnika san’atdir. San’at intuitsiyaga, texnologiya-fanga asoslanadi. Hamma narsa san’at bilan boshlanib, texnologiya bilan tugaydi va ana shunday boshlanadi”[1]. Demak, faoliyat samarali bo‘lishi, o‘qitish-o‘qish ko‘zlangan natijaga erishishi uchun ta’lim beruvchi va ta’lim o‘rganuvchi texnologiya bilan qurollanishi va uni san’at darajasida egallashi lozim. Shundagina ko‘zlangan marraga yetish, maqsadga erishish mumkin bo‘ladi.

Qayd etib o‘tilganidek ta’lim jarayoniga texnologik yondashish AQSH va G‘arbiy Yevropa pedagog olimlari hamda psixologlari B.Blum, J.Blok, N.G.Gronlund, D.Kratvol, J.Kerrol, L.Anderson, V.Gerlax, R.Gens va boshalar tomonidan kashf etildi. Bu muammo MDH mamlakatlari pedagog-olimlari tomonidan ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, ta’lim oluvchilarning muayyan sharoit va ajratilgan vaqtda aniq bilim olishlariga imkoniyat yaratish, mashg‘ulotni loyihalash hamda natijani oldindan kafolatlashga yo‘naltirilgan, qayta tiklanadigan pedagogik siklni o‘z mazmunicha qamrab olgan pedagogik texnologiyalarga asos solindi.

O‘.Q.Tolipov va M.Usmonboyevalarning ta’kidlashlaricha AQSH va G‘arbiy Yevropa mamlakatlarining oliy ta’lim maktablarida “Pedagogika” fani o‘qitilmaydi. Shu bois “Pedagogik faoliyat”, “pedagogik tizim”, shuningdek, ularga bog‘liq ravishda yuzaga keluvchi “Pedagogik texnologiya” tushunchasi ham iste’molda yo‘q. Ammo MDH (shu jumladan O‘zbekiston mamlakati)da o‘qituvchi-tarbiyachilar tayyorlaydigan oliy ta’lim muassasalarida shaxsni shakllantirish, uning kamolotini ta’minlashga yo‘naltirilgan ta’limiy hamda tarbiyaviy jarayonni qamrab oluvchi “Pedagogika” fani o‘qitiladi. Shu nuqtai nazardan shaxsning yetuk kamoloti ikki faoliyat - ta’limiy va tarbiyaviy faoliyat jarayonining samarasi sifatida namoyon bo‘lganligi inobatga olinib muammoga “Pedagogik texnologiya” tushunchasi qo‘llanilmoqda.

[1] Беспалко В.П. Слагаемые педагогической технологии. М, педагогика 1999, 5 бет

MDH mamlakatlari pedagog-olimlari V.P.Bespolko, V.M.Klarin, Yu.K.Babanskiy, V.A.Slastyonin, N.H.Avliyoqulov, N.S.Saidahmedov, I.F.Xarlamov, B.T.Pikachyov, S.K.Islamchulova, K.Z.Zaripov, T.K.Selevko, U.N.Nishonaliyev, B.L.Farberman, B.M.Monaxov, M.A.Choshanov, P.A.Yusyabichens, N.E.Shurnova, I.Ya.Lerner, B.G‘.Ziyomuhammadov, B.Q.Xo‘jayev, T.S.Nazarova, Sh.Sh.Olimov, T.Sokomoto, J.G‘.Yo‘ldoshev, M.Usmonboyeva va boshqalar tomonidan “Pedagogik texnologiya” nazariyasi hamda amaliyotiga asos solindi va rivojlantirildi. Bu pedagog-olimlar tomonidan pedagogik texnologiyalarga berilgan ta’riflar zamonaviy o‘qitish texnologiyalarining mazmun-mohiyatini ochib bera oladi.

MDH mamlakatlaridan o‘quv jarayoniga pedagogik texnologiya qo‘llash bo‘yicha birinchi harahat Rossiyada amalga oshirildi. Uning hayotda qo‘llanihi zarurligini V.P.Bespalko ilmiy asoslab berdi va pedagogik texnologiyani shunday ta’rifladi: “Pedagogik texnologiya – o‘qituvchi mahoratiga bog‘liq bo‘lmagan holda pedagogik faoliyat muvaffaqqiyatini kafolatlay oladigan hamda o‘quvchi shaxsini shakllantirishga yo‘naltirilgan jarayonning loyihasidir”. Bu ta’rifda pedagog o‘qitish jarayoni unsurlari(maqsad, vazifa, mazmun, shakllar, metodlar va h.k.)ni shunday loyihalaydiki, bunda bilim oluvchilar ta’lim vazifalarini mustaqil yechish imkoniyatiga ega bo‘lishlari qayd etiladi.

Akademik Yu.K.Babanskiyning ta’rifiga ko‘ra pedagogik texnologiya “O‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro bog‘langan va ta’lim maqsadini hal etishga yo‘naltirilgan faoliyatini tartibga soluvchi usul” deb qayd etilsa, akademik B.T.Lixachyov “O‘qitish(ta’lim)jarayonining shakl, metod, usul, yo‘l hamda tarbiyaviy vositalarining maxsus yig‘indisi va joylarini belgilab beruvchi psixologik tartiblar majmui, tashkiliy-uslubiy vositalari”-deb ta’riflanadi.

I.Ya. Lerner “Pedagogik texnologiya – o‘quvchilar harakatlarida aks etgan o‘qitish natijalari orqali ishonchli anglab olinadigan aniqlanadigan maqsadni ifodalaydi” deb pedagogik texnologiya mohiyatini ochib beradi.

M.B.Klarinning fikriga ko‘ra pedagogik texnologiya “Pedagogik maqsadlarga erishish yo‘lida foydalaniladigan barcha shaxsiy, uskunali

va metodologik vositalarning tizimli yig‘indisi va ularning amal qilish tartibi” deb ko‘rsatiladi.

Pedagogik adabiyotlarda pedagogik texnologiya berilgan boshqa ta’riflarda (I.L. Volkov, I.P.Pidkasenkiy, V.V.Yudin,M. CHashanov) ham mavjud bo‘lib, fikrimizga ularning birortasi BMT huzuridagi nufuzli tashkilot YUNESKOning ta’rificha “Pedagogik texnologiya mazmun mohiyatini yoritish darajasida emas, mazkur xalqaro tashkilot YUNESKOning ta’rifiga ko‘ra, “Ta’lim texnologiyasi – ta’lim modelarini optimallashtirish maqsadida, inson va texnika resurslari va ularning o‘zaro tasirini hisobga olgan holda, butun o‘qitish va bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini yaratish, qo‘llash va aniqlash tizimidir“[1]. Bu ta’rifda pedagogik texnologiya ta’limga tizimli yondashuvi ta’moyili asosida izohlanadi. Qolgan barcha keltirilgan ta’riflar pedagogik texnologiyaning mazmun-mohiyati o‘quv jarayonini loyihalash, tashkiliy –uslubiy vosita yig‘indisi sifatida qayd etiladi.

Respublika pedagog-olimlari oldida o‘qitish–o‘qish ishlarini jadallashtiradigan samarali va tejamli o‘quv –tarbiya jarayonini tashkil etishga ko‘maklashuvchi, qayta takrorlanadi, bilim oluvchilarning o‘quv – biluv faoliyatlarini ijodiy – texnikaviy tafakkur asosida tashkillashtiriladigan pedagogik jarayoni yaratish vazifasi qo‘yildi. Bu vazifani hal etishning yagona yo‘li pedagogik texnologiya deb e’tirof etildi va u respublikamiz ta’lim muassasalarida qo‘llanila boshlandi.

Xorijiy hamda MDH mamlakatlari pedagog- olimlari tomonidan ilmiy -nazariy va ilmiy-metodik jihatdan asoslangan pedagogik texnologiyalar o‘rganilib, unga e’tirof bildirish boshlandi .

Natijada mamlakatimizning pedagogik matbuotida “Yangi pedagogik texnologiya (Ochilov M.O., Sayidahmedov M.S.), “Ilg‘or pedagogik texnologiya” (Farberman B.R., Ziyomuhammedov B.) “Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari” (Avliyoqulov N.H., Abdukarimov H.) “Pedagogik texnologiya”(Azizxo‘jayeva N.N., Tolipov O‘.Q.,Usmonboyeva M.) va boshqa shu kabi nomlar bilan risolalar, o‘quv qo‘llanmalar chop etila boshlandi .

Bu risolalar va o‘quv qo‘llanmalardagi “Pedagogik texnologiya” tushunchasiga ta’riflar berilganki ular muayyan tarzda pedagogik texnologiya mazmun – mohiyatini ocha oladi. Jumladan, N.S. Sayidahmedov ta’rifiga ko‘ra “Pedagogik texnologiya- bu o‘qituvchi

(tarbiyachining o‘qitishi (tarbiya) vositalari yordamida o‘quvchi (talaba) larga muayyan sharoitda ta’sir ko‘rsatishi va aks ta’sir mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini jadal shakllantirishni kafolatlaydigan jarayondir”. Bu ta’rifda texnologik jarayon asos qilib olinib, bunda ishlab chiqarish jarayoni uchun kerakli bo‘lgan usul va vositalar muhim bo‘lgani kabi o‘qitish va tarbiyalashda ham bu vositalarning roli beqiyos bo‘lib, ularni o‘qituvchi (tarbiyachi) oldindan tanlay olishi va qo‘llashi, ta’lim – tarbiya unsurlaridan mukammal foydalana olishi talab etiladi .

B.L.Farberman fikriga ko‘ra, “Pedagogik texnologiya – ata’lim jarayoniga yangicha jarayon bo‘lib pedagogikada ijtimoiy muhandislik ong ifodasidir. Upedagogik jarayoni texnika vositalari va insonning texnikaviy tafakkuri asosida standart holga solib, unig optimal loyhasini tuzib chiqish bilan bog‘liq ijtimoiy hodisadir”. Ushbu ta’rifda pedagogik texnologiya o‘qituvchi – pedagogning mahorati va texnik tafakkur uyg‘unligida ta’lim- tarbiya vazifalarini hal etadigan ijtimoiy hodisa sifatida e’tirof etiladi.

M.Ochilov “Pedagogik texnologiyani tizimli texnologik yondashuvlar asosida ta’lim shakllarini qulaylashtirish, natijasini kafolatlash va obyektiv baholash hamda texnik vositalarining o‘zaro ta’sirini inobatga olib, ta’lim maqsadlarini oydinlashtirib, o‘qitish va bilim o‘zlashtirish jarayonlarida qo‘llanadigan usul va metodlar majmuasidir”, - deb ta’riflaydi. Bu ta’rifda pedagogik texnologiya ta’lim maqsadlarida erishishda o‘qitishning tashkiliy shaklarining eng muhimini faoliyatga qo‘llab, ta’limning metod va usullarini tanlab, o‘quvchi-talabalarni bilim bilan qurollantirish o‘zlashtirish sifatini yaxshilashga qaratilgan malum yondashuv deb qaraladi. Bunda ta’lim shakllari, metodlari va usullari yaxlit bir yig‘indisi keltirilib, faoliyatda qo‘llaniladigan ta’lim unsurlariga tizimli, mazmunli yondashuv tushuniladi.

Bunday qarash yapon olimi T.Sakomatoda ham ko‘zga tashlanadi. “Pedagogik texnologiya –bu tizimli fikr yuritish usulini pedagogikaga singdirish, boshqacha qilib aytganda, pedagogik jarayoni muayyan bir tizimga keltirishdir”.

B.Ziyomuxammedov, Sh.Abdullayevalar ham o‘quv jarayoniga tizimli yondashish nuqtayi nazridan qarab pedagogik texnologiya shunday ta’rif bergan “Pedagogik texnologiya – bu millat extiyojidan

kelib chiqan kishi ijtimoiy shartlarni samarali shakllantiruvchi va aniq maqsadga yo‘naltirilgan o‘quv jarayonini mazmuni sifatida ko‘rib, o‘qitishni tashkil qiluvchi qismlari bo‘lgach o‘qituvchi (pedagog)ning o‘qitish vositalari yordamida o‘quvchi (talaba)larga ma’lum bir sharoitda muayyan ketma –ketlikda ko‘rsatgan ta’rifini nazoratda tutuvchi va ta’lim natijasini baholab beruvchi texnologiyalashgan ta’limiy tadbirdir”.

Bulardan tashqari, o‘zbekistonlik yana bir guruh pedagok-olimlari (N.N.Azizxo‘jayeva, K.Z.Zaripov, O‘.Q.Tolipov, M.Usmonboyeva, B.Q.Xo‘jayev, Sh.Sh.Olimovlar)ning pedagogik texnologiya atamasiga bergan ta’riflari mavjudki, ularda pedagogik texnologiyalarning muayyan xususiyatlari, ta’lim-tarbiyaning o‘ziga xos jihatlari, pedagogik jarayon belgilari o‘z ifodasini pedagogik texnologiya nazariyasi va amaliyotidan topgan.

Pedagogik texnologiya – pedagogik faoliyatni bosqichma-bosqich amalga oshirib, ta’lim va shaxsning barkamol bo‘lishi, taraqqiy etishiga qaratilgan maqsadga erishishning tizimli loyihasidir (N.N.Azizxo‘jayeva).

- Pedagogik texnologiya izchil va ketma- ket amaliy faoliyatga, ta’lim – tarbiya jarayoniga avvalgi rejalashtirilgan maqsadni amalga oshirishga hamda ma’lum loyihani pedagogik tizim amaliyotiga qo‘llashdir (K.Zaripov);
- Pedagogik texnologiya muayyan loyiha asosida tashkil etiladigan, aniq maqsadga yo‘naltirilgan hamda ushbu maqsadning natijalanishini kafolotlovchi pedagogik faoliyat jarayonining mazmunidir (O‘.Tolipov, M.Usmonboyeva)[1].
- Pedagogik texnologiya – muayyan maqsad natijaviyligini ta’minlashga qaratilgan ta’lim – tarbiya jarayonining qoidalari, usullari, shakllari, vositalarining mukammaligini anglatuvchi bilimlar yig‘indisi yoki san’atdir (B.Xo‘jayev, Sh.Olimov).

Xorijiy davlatlar, MDH mamlakatlari, o‘zbekistonlik pedagog - olimlar tomonidan keltirilgan ta’riflarni ilmiy – pedagogik jihatdan tahlil qilish shu xulosaga olib keldiki, ularda pedagogik

[1] Pedagogika texnologiya mazmun mohiyatini ochish uchun keltirilgan ta’riflar quydagi manbalardan olindi : 1) Tolipov O’.Q Usmonboyeva M. Pedagogik texnologik tadbiqiy asoslari T. Fan , 2006, 2) Ta’lim samarodorligini oshirish yo’lari mavzusida seminar trening materiallari. Toshkent ,2002. 3) Saidaxmadov N. Yangi pedagogik texnologiyalar: nazarya va amalyot T- ‘’ Moliya ‘’ ,2003 , 6- bet

texnalogiyaning mazmun mohiyatini anglata oladi va ular hozirgi taraqqiyot bosqichida demokratik, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyat asoslarini rivojlantirish sharoitida ta’lim islohotlarini amalga oshirishning harakatlantiruvchi kuchi bo‘la oladi .

Shunday qilib, zamonaviy o‘qitishning texnologiyalarning, ijtimoiy-iqtisodiy taraqiyot ehtiyojlarni kelib chiqib, oliy ta’lim muassasalarning maktabdagi ta’limda pedagogika fanlarni o‘qitish va o‘rgatish jarayonini tartiblangan, o‘zaro uzviy bog‘langan yaxlitlikka keltirib, yuksak pedagogik malaka, bilim, ko‘nikma, malakaga ega bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qila oladigan e’tirofga qilish imkonini beradi.

8.2.Pedagogik fanlarni o‘qitishda pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanish yo‘llari

Pedagogik fanlarni o‘qitishda qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari. Pedagogik turkum fanlarini (pedagogika nazariyasi va tarixi, umumiy pedagogika, maktabgacha pedagogika, oila pedagogikasi, ijtimoiy pedagogika, pedagogik mahorat va.h.k.) o‘qitish “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun talablariga ko‘ra ta’limni jadallashtirish, ta’lim – tarbiya jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi mavqeyini o‘zgartirish, og‘zaki va yozma tafakkurga asoslangan ta’limdan taxnik tafakkurga o‘tish, ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarflamay qisqa vaqt ichida yuksak natijaga erishishga olib keluvchi ta’lim jarayoniga o‘tish bo‘lajak tarbiyachi- pedagoglarga yuksak kasbiy bilim berish bilan ular ma’naviy axloqiy barkamolligini ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishga ko‘maklashuvchi pedagogik tizim asosida olib borilsagina o‘z maqsadiga erishadi . V.P.Besnalkoning fikricha, pedagogik tizim bir butun o‘zaro bog‘liq yaxlit ijtimoiy-pedagogik hodisa bo‘lib : o‘quvchi (1); tarbiya maqsadi (umumiy va xususiy) (2); tarbiya mazmuni (3); o‘quv tarbiya jarayoni (4); o‘qituvchi yoki texnika vositalari (5); ta’lim-tarbiyaning tashkiliy shakllaridan (6) iborat.[1] Bu tizimni faoliyatga tadbiq etib qisqa vaqt oralig‘ida ta’lim oluvchilar faoliyatini nazorat qilish ular egallagan bilim,ko‘nikma, malakalar darajalarini baxolash,ularda kasbiy maxoratni singdirish pedagogdan katta maxorat

1 Bespalko B.P. Clagalmie pedagogikheskoy texnologiya M: Pedagogika 1989, 6-7 betlar.

va ilmiy-metodik saloxiyat talab etiladi. Buning uchun o‘qituvchi-tarbiyachi oldingi paragrifda ta’kidlaganimizdek o‘qitishning zamonaviy texnalogiyalarini mukammal egallashi lozim. Har bir ta’lim muassasasida faoliyat ko‘rsatuvchi pedagog zamonaviy o‘qitish texnalogiyalar bilan qurollanishi darkor. Chunki, “o‘qitish texnalogiyasi (natija sifatida) –didaktik jarayonning ilmiy loyihasi (modeli) bo‘lib, faliyat davomida pedagogik xarakatlar muvaffaqiyatini ta’minlaydi”[9]. Hozirgi kunda xorijiy, MDH mamlakatlarida hamda Respublikamiz ta’lim muassasalarida ko‘plab ta’lim texnalogiyalaridan foydalanishga va ularni ilmiy asoslashga intilishlar mavjud. Ayni vaqtda ta’lim muassasalarida (umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta’lim maktablari) da tadqiqiy-ijodiy ta’lim texnalogiyasi, ishbilarmonlik o‘yinlari texnalogiyasi, muammoli o‘qitish texnalogiyasi, individuallashtirilgan ta’lim texnalogiyasi, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnalogiyasi, modeli ta’lim texnalogiyasi, differensiyalashgan ta’lim texnalogiyasi, “Bumerang” texnalogiyasi, FSMU texnalogiyasi va masofaviy o‘qitish texnalogiyasi kabi o‘qqitish texnalogiyalarining ijodiy va samarali foydalanilmoqda. Shulardan ayrimlarining tashkiliy mazmuni ustida to‘xtalamiz.

Tadqiqiy-ijodiy ta’lim texnalogiyasi. Mazkur ta’lim texnalogi-yasi talabalarni izlanishga, mustaqil o‘qish–o‘rganishni tarkib toptirishga, ijodiy fikrlashga, muammolarni yechish qobiliyatini o‘stirishga, yangi bilim (tajribalar)ni tadqiqiy o‘zlashtirishga va ma’lumotlarni o‘zlashtirish yo‘llarini izlab toppish ko‘nikmalarini rivojlantirishni maqsad qilib qo‘ygan texnalogiya hisoblanadi. Bunday ta’lim texnologiyas faoliyatga mustaqillik berib, o‘quvchi(talaba)ni olsak ijodiy ishlashga yo‘naltiradi. Pedagogika faollari mazmunidagi zarur, kerakli, talab etilayatgan masalani talaba (o‘quvchi)ning o‘zi izlab topishga harakat qiladi. Bu harakatlar, izlanishlar albatta pedagog ta’lim o‘rgatuvchi tomonidan yo‘naltiradi, boshqariladi va rag‘batlantiriladi. Bunday talaba (o‘quvchi) ning mustaqiligi, tashabuskorligi, izlanuvchanligi pedagog tomonidan qo‘llab-quvatlansa, talabaning intilishi,qiziqishi, ijodiy fikrlashi rag‘batlantirib borilsa, tadqiqiy- ijodiy ta’lim texnologiyasi o‘z maqsadiga erishadi. Shuning uchun bu ta’lim texnologiyasi xozirgi ilmiy – pedagogik nazarya (maxsuldor) ta’lim texnologiya variyanti deb yuritilmoqda. Tajribalarning ko‘rsatishiga tatqiqiy ta’limda o‘qitish ishlarining

teatrlashgan rolli o‘yinlar, muamoli ma’ruzalar bahs – munozarali amaliy mashg‘ulotlar kabi ta’lim shaklari va aqliy xujum tanqidiy fikrlash, kichik guruxlarda ishlash, munozara kabi o‘qitish metodlarini qo‘llash orqali qo‘llanilishini nazarda tutadi.

Buning natijasida bilimlar talaba tomonidan mustaqil- ijodiy o‘zlashtirilganligi, o‘z fikr muloxazalari va guruhdoshlarining fikrlariga tanqidiy yondoshqanligi tufayli, talabada mustaqil, erkin mushohada yuritishi, ijodiy fikrlash, taxliliy yondoshishi rivojlanadi. Maskur texnologiyaning ta’limiy tarbiyaviy axamyati shundaki, u katta kuch, mablag‘ va texnika vositalarini qo‘lashni ta’lab etmaydi, ammo ta’lim oluvchilarda ma’lumotlar to‘plash, modellash, ularni sinovdan o‘tkazish, tatqiqiy, ijodiy tanqidiy mustaqil fikrlash, dalillar keltirish qarorlar qabul qilish munosabat bildirish, yangiliklarni qabul qilish va qo‘llash, axloqiylik, ma’naviyatlilik ijtimoiy ma’sulliyatlilik, intelektuallik ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois pedagogik turkum fanlarni maktabga ta’limga o‘qitishda unumli foydalanish maqsadga muofiq.

O‘yinli texnologiyalar. Bu texnologiya bilim oluvchilar faolligi va faoliyatni jadallashtirishga qaratilgan texnologiya hisoblanadi. Shu bois bu texnologiya o‘quvchi (talaba) larda faoliyatni jadallashtirish, faolligini oshirish, bilimlarni egallash, ko‘nikma va malakalrni shakllantirish o‘qishga qiziqish va havasni uyg‘otish kabi masalalarni qamrab oladi. Bunda talabaning o‘z – o‘zini to‘la ifoda etish, imkoniyatini ro‘yobga chiqarishi, ehtiyojini qondiruvchi, musobaqaga kirishi orqali amalga oshiriladi. O‘yin texnologiyasi bir necha turli bo‘lib, pedagogik o‘yin aqlliy rivojlanishni ta’minlaydi. Pedagogik o‘yin aniq qo‘yilgan maqsad va unga ta’luqli natija bilan farqlanib o‘quv – biluv yo‘nalishini belgilashi o‘yinning o‘ziga xos belgisi hisoblanadi .O‘yin jarayonida kutilgan natijaga asoslangan o‘quv tayyorgarligi faoliyatiga ega bo‘lish orqali amalga oshiriladi. Pedagogik nazaryada pedagogik o‘yinlarning tasnifi (klassifikatsiyasi) G.K.Selevko tomonidan tafsiya etilgan[1].

Pedagogik o‘yinlar tasnifi

Rasmga ko‘ra pedagogik o‘yinlar ta’lim jarayonining turli soxalarini qamrab oladi. SHunga binoan pedagogik o‘yini pedagogik

[1] Selevko T.K. Sovrimeniy obrazovatelni texnologiya - M ; “Narodniy obrazavani“ , 1998 ,53 –bet

fanlarni o‘qitishda o‘qituvchi –pedagog o‘quv jarayonida pedagogik o‘yinlarning o‘rnini, ta’limiy, tarbiyaviy axamyatini bilishi lozim. Aks holda bunday o‘yinlar natija bermasligi lozim.

Shu o‘rinda etirof etish joizki oliy, o‘rta maxsus kasb hunar maktablari o‘quvchilari pedagogika fanlarni o‘qitish bo‘yicha tashkil qilinadigan pedagogik o‘yinlar ta’limiy-tarbiyaviy, bilim oluvchi faoliyatni rivojlantiruvchi va ijtimoiy mavqeni amalga oshirishga yo‘naltirilgan,o‘rganilishi nazrda tutilgan o‘quv materialini nazariy – amaliy o‘zlashtirishga, mustahkamlashga va talabaning ijodiy amaliy qobilyatini o‘stirishga qaratilmog‘I darkor. Bu esa talabalarda turli vaziyat hamda holatlarda o‘quv ma’lumotlari mazmunini tushunib yetishi o‘rganishi va amalga oshirish imkonini beradi.

T.K.Selevkoning fikricha o‘quv jarayonida ishni o‘quvchilarning turli xilda ko‘rinishlari mavjud: imitatsion, operatsion, rolli o‘yinlar,ishchi teatr, ishxo va sosiodramalar.

Imitatatsion o‘yinlar. O‘quv mashg‘ulotda qandaydir tashkilot yoki korxona faoliyati imitatsiya qilinadi. Masalan: ishchi yig‘ilishi loyihani muxokama qilishi, suhbatdoshni tashkil qilishi va.ka. aniq insoning faoliyati muhiti, shart-sharoitlari,favqulotdagi voqea imitatsiya qilish mumkin.

Operatsion o‘yinlar. Bu o‘yinlar aniq operatsionlar masalan insho yozish, misollar yechish, targ‘ibot yuritish, tashviqot qilish kabi operatsiyalarni bajarish holatini ishlab chiqishga ko‘maklashadi .Operatsion o‘yinlarda ta’lim ma’lum jarayonlar modellashtiriladi.

Rolli o‘yinlar. Bu o‘yinlarda ma’lum bir insonning faoliyat jarayoni vazifa va majburiyatni bajarishga hatti- harakatlari, hokum intizomining texnikasi ishlab chiqildi. Bunda vaziyatlar rollarni taqsimlash vujudga keltiriladi va ularni bajarishga ixtiyoriy,erkin yondoshish yo‘lga qo‘yilib,samimiy muxit yaratiladi.

Ishchi teatr. Bu o‘yinda qandaydir vazifa va bu vaziyatda muayan bir insonnig qiyofasiga kirib, uning uning hatti- harakatlarini ruhiy xolatini , faoliyatga munosabatini namoyish etishning senarisi ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi . Bunda talabalar o‘z hatti-harakati, hulqini obyektiv baxolashi, o‘zgalar imkoniyatini inobatga olish, ular bilan aloqa o‘rnatish, ularning qiziqishlari, ehtiyojlari, faoliyatlariga buyruqbozlikdan cheklangan holda tasir ko‘rsatish muhim hisoblanadi.

Psixo va sotsiodrama. Bu o‘yin ishchi teatrdan bo‘lib, ijtimoiy ba psixologik masalalarni yechishi nazarda tutiladi. Bunday masalalarga jamoada yashash,unga moslashish, o‘zini idora eta olish,muamodagi ruxiy holatini his qila olishi, to‘g‘ri munosabat bildirilishi va baholash, o‘zgartira olishi,u bilan unumli muloqotga kirishish masalalar kiradi.[1]

Rolli o‘yinlarda “ayollar o‘lkasiga sayohat”, “ Denish manular ko‘chasi”, “O‘quv yurti o‘rtoqlik sudi”, “Isquvarlar ko‘chasi”, “Jumboq ko‘chasi “, kabi mavzular bo‘yicha tadbirlar o‘tkazish mumkin. Shunday qilib o‘yin texnologiayalari didaktik bilim faoliyati, prugazorini kengaytirish, bilim, ko‘nikma, malakalarni amalyotda qo‘llash, ummum o‘quv ko‘nikma va mehnat malakalarini rivojlantirish, tarbiyaviy (iroda mustaqillikni tarbiyalash, axloqiy, estetik, huquqiy va dunyoqarsh yo‘nalishidagi fazilatlarni shakllantirish, jamoatchillik, muloqotga kirisha olish komunikativ, hamkorlik faoliyatiga o‘rgatish va h.k), rivojlantiruvchi (diqqat, xotira, nutq, tafakkurni rivijlantirish malakasiga ega bo‘lish, xayol, fantaziya, o‘xshatishni topa olish, ijodiy qobilyat, optimal variantini topa olish, o‘quv faoliyati motivlarini o‘stirish), ijtimoiy (ijtimoiy, qimmatli hayot me’yorlariga ega bo‘lish, tashqi muhit sharoitiga moslashish, o‘z-o‘zini idora qilish, muammoni o‘rganish, psixoterapiyasi) maqsadli yo‘naltiruvchi vazifalar bajariladi. Bilimlar chuqurlashadi, mukamallashadi, ijtimoiy- iqtisodiy munosabatlarning uyushishi amalga oshadi, komil insonning fazilatlari tarkib topib boradi.

Muammoli ta’lim texnologiyasi. Pedagogik manbalarda qayd qilinishicha, muammoli o‘qitish texnologiyasi g‘oyasi yangi emas. O‘tmish pedagoglari bilim oluvchilar aqliy kuchlari, qobilyatlari, tafakkurini rivojlantirishga xizmat qila oladigan, o‘quvchi 9talaba)larga rohat va quvonch bahsh etadigan, bilish faoliyatlarini takomillashtiradigan o‘quv jarayonini qurush to‘g‘risida yillab izlandilar va uning yo‘llarini topishga intildilar (Ya.A.Komenskiy, Burxonidin Zarnutjiy, Az-Zamaxshariy, J.J.Russo, I.G.Pestolosiy, F.A.Disterberg, K.D.Ushinskiy, Abdulla Avloniy va hokazo) .

XX asrga kelib muammoli ta’lim jadal rivojlanish bosqichiga kirdi. Dastlab amerikalik filosof, pedagog, psixolog Dmon Doi, XX –asrning 30- yillarida ananaviy, dokmatik o‘qitishga qarshi faol, mustaqil

1 Селевко Т.К. « Совримений оброзавани телиний технология. –М:. “Народние оброзовани” 1998,57-58 ст

o‘qitishda o‘quvchilar amaliy faoliyatlarini rivojlantirishga yordam beruvchi muammoli o‘qitish g‘oyasini ilgari surdi. U o‘zining “Biz qanday fikrlaymiz“ risolasida, “ Tafakkur muammolarini yechish sharti” deb ta’riflaydi va tafakkurni rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin bo‘lgan ta’lim – muammoli o‘qitishi deb biladi.

Keyinchalik bu g‘oya amerikalik psixolog Djon Bruner va polshalik pedagog Vintensi Okon tomonidan, XX asrning 2- yarmida tatar pedagogi M.I.Maxmudov tomonidan rivojlantirildi. Bularning g‘oyasi mazmunida muammoli vaziyatni yaratish, muammolarni shakllantirish va bu muammolarni xal qilishga o‘quvchilar aqliy kuchlarini jalb qilishi yotadi.

Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarda fanlarni, jumladan, pedagogik turkum fanlarni o‘qitishda pedagog talablar oldida har bir fanning hususiyatidan kelib chiqib o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha muammolar qo‘ydi, ularni yechish uchun muammoli vaziyat yaratadi, bu vaziyatga talabani kiritadi va yechimini topishga talabani o‘zini yo‘naltiradi. Bunda talabalrning faol, ijodiy, mustaqil izlanuvchanlik faoliyati yotadi.

Shunday qilib, muammoli o‘qitish degandA, o‘quvchilarning faol mustaqil faoliyatlarini ko‘zda tutadigan, bilim ko‘nikma, malakalarini ijodiy o‘zlashtirishga qaratilgan pedagog tomonidan muammoli vaziyat yaratilib muammoni o‘qituvchi rahbarligida yechishga yo‘naltirilgan ta’lim tushuniladi.

Rus pedagoglari M.A.Danilov, V.P.Eshnov, I.Ya.Lerner, G.V.Pudrasev, M.I.Mahmudov va boshqalar muammoli o‘qitish rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyasi tiliga kirib muntazam ravishda ta’lim oluvchilarini izlanishga, mustaqil o‘rganishga yo‘llovchi, pedagog va talabaning o‘zaro hamkorligi muloqot vositasida ta’lim oluvchilarining bilim faoliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim deb takidlaydilar.

Muammoli o‘qitishning asosini muammoli vaziyat yaratish tashkil etadi. O‘qituvchi rahnamoligida muammoni yaratish, muammoli bayon qilish evristik suhbatlar tashkil etish muammoli topshiriqlarni bajarish natijasida talabalarda mustaqil izlanish ko‘nikmalari shakllanadi, ijodiy tafakur rivojlanadi, faol, erkin faoliyat tashkil topadi.

Yuqorida qayd qilganimizdek, muammoli o‘qitish texnologiyasining asosini muammoli vaziyat yaratish tashkil etadi .

Muammoli vaziyatda o‘quv muammosi, farazlar, ispotlar, izohlar, taxlil, sintez, mustaqil anglash, o‘rganishlar asosiy component hisoblanib, ular o‘quvchilarni yangi bilim, ko‘nikma, malakalr bilan qurollantirish aqliy faoliyatlarni egallashga qaratilganligi sababli o‘quv- bilim faoliyatini o‘stiradi va ijodiylashtiradi. Bu jarayonda o‘qituvchi yo‘naltiruvchi, yo‘lga soluvchi, muammoni bayon qiluvchi rolini bajaradi. Shunga ko‘ra, o‘qituvchi bayon etgan ma’lumotlar emas talabalar o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma, malaka haqiqiy hisoblanadi shuning uchun bu jarayonda talaba eshituvchi emas, muammoni hal qiluvchi faol bajaruvchi hisoblanadi.

Pedagogik fanlarni o‘qitishda muammoli ta’lim texnologiyasidan foydalanish bo‘lajak tarbiyachi- o‘qituvchilarda ijodiy tafakkur, mustaqil faolikni o‘stiradi muammoli vaziyatlarni yaratish va ularni yechish yo‘larini o‘rgatadi; vaziyatni turlicha yechish yo‘llari haqida tushuncha beradi, aynan bir hildagi pedagogik voqeallarga turlicha yondoshish haqida ma’lumot beradi.

Olib borilgan tajriba ishlarning natijalariga asoslanib, aytish mumkinki,pedagogika fanlarini muammoli o‘qitishda quyidagilarga rioya qilish lozim:

- Eng zarur muammoli ta’lim yordamida yechiladigan muhim mavzular tizimini ishlab chiqish;
- Turli o‘quv mashg‘ulotlari (ma’ruza, seminar, amaliy mashg‘ulotlar)da muammoli vaziyatlarni yaratishda, muammoli ta’limning o‘ziga xos pedagogik jihatlarida kelib chiqish ;
- Muammoli talimda talabalarning bilm darajasi, aqliy zakovati o‘zlashtirish meyorlarini inobatga olish;
- O‘z shaxsiy tajribasi, mahorati o‘quvchi –talabalrga tasir etish qiymatidan kelib chiqish v.h.k

Shundagina pedagogik fanlarni o‘qitishda muammoli o‘qitish texnologiyasidan maqsadli foydalanish amalga oshadi.

Modulli ta’lim texnologiyasi. Modelli o‘qitish g‘oyasining paydo bo‘lishi XX asrning 60 - o‘n yilligiga to‘g‘ri keladi. Bu texnologiyaning mohiyati shundagi, bunda ta’lim oluvchi unga tafsiya etilgan indivudial o‘quv dasturi, yani o‘zida mashg‘ulotning maqsadli rejasi, axborotlar banki va uning metodik ko‘rsatmasi asosida, didaktik vazifalarni bajarishga qaratilgan ta’lim oluvchining deyarli mutaqil yoki mustaqil ishlash rejasi. Bunda bilim oluvchi mustaqil ishlab o‘qituvchining

funksiya axborotchi – nazoratchilikdan iborat bo‘ladi . shuning uchun u faqat oliy ta’lim maktablarida qo‘llaniladi .

Yukavichens L.A. modulli o‘qitishni shunday ta’riflaydiki, “qo‘yilgan didaktik maqsadlarga erishishni taminlovchi, o‘quv ma’lumotini mantiqn tugallangan birligini, harakatlarning maqsadli dasturini va uslubiy talimotini o‘z ichiga olgan axborot bloki”.

Modulli ta’lim texnologiyasi asosini ta’limiy modul tashkil etib, o‘zida bilish faoliyati va kasbiy tayyorgarlikni o‘zida mujassamlashtiradi . modulli o‘qitish o‘quv materiallarini aniq modullarga ajratish har bir moduldagi o‘quv materiali mazmunan bir birini to‘ldirish, ketma- ketlikda izohlanishi bilan xarakterlanadi va didaktik maqsadga erishishni taminlaydi buning uchun quydagi pedagogik qoidalar bajarilishi talab etiladi:

- O‘quv materiali shunday qurulmog‘i lozimki , har bir ta’lim oluvchi oldida qo‘yilgan didaktik vazifani bajarish imkoniyatiga ega bo‘lsin ;
- O‘quv materialiga mos ta’lim komponentlari(shakl, metod, usulni qo‘yilgan vazifa, me’yorlar)ga qarab tanlanilishi hamda bilim oluvchilarning qobilyatlari, o‘quv-uslubiy material bilan ta’minlashni hisobga olish;
- Muayyan mutaxassislikka ega bo‘lish uchun zarur bo‘lgan, turdosh bo‘lgan fanlar ularning bo‘limlari (mavzulari) ni mujasamlashtiradigan tashkiliy- metodik bog‘lanishli modullardan iborat bo‘lishi lozim.

Shunga ko‘ra pedagogika fanlarni modulli texnologiya asosida o‘qitishda:

- Pedagogik ma’lumotlar tizimini tartiblashtirish ;
- Pedagogik fanlarning har biri mazmunidagi o‘quv materialini modulli dastur shaklida (makro –mikro modullar tarzida) ketma-ketlikda o‘qitishni loyihalash;
- Har bir fan mazmunidagi ma’lumotlarni qo‘shimcha axborot bilan taminlagan holda o‘quv materiallarini katta bo‘lmagan modullarni o‘zlashtirish asosida qurish.

Rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyasi. XX asrning 30 -60 yillarda yaratilgan ko‘pgina psixologik, pedagogik adabiyotlarda rivojlantiruvchi ta’lim konsepsiyasi to‘g‘risida so‘z yuritilib, ta’lim bola rivojlanishining muhim manbai ekanligi qayd etiladi

(A.S.Vigotiskiy, A.N.Leontev, S.A.Rubinshteyn, D.B.Elkoning, L.Ya.Galsring, E.V. Ilvinkov, L.V.Zankov, V.V.Davidov).

Ular g‘oyalariga ko‘ra inson va jamiyat ehtiyojlari asosida ta’lim shunday qurilmog‘i darkorki, u qisqa vaqtda maksimal rivojlanishni ta’minlasin. Shunga asosan rivojlantiruvchi ta’lim pedagogik ta’sir tizimida shaxs irsiy xususiyatlarining rivojlanishini tezlashtirish, yo‘naltirish, rag‘batlantirishning stimulidir. Masalaga shu nuqtai nazardan yondashganda rivojlantiruvchi ta’lim shaxsning qobilyatlarini, bilish kuchlarini, intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyasi hisoblanadi. G‘oya mazmunida bolaning psixik rivojlanishi, bilim, ko‘nikma, malakaning samarasi yaxshi bo‘ladi. Shuning uchun o‘qitish jarayonida bolaning psixik xususiyatlari, ichki imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish lozim. Buning uchun o‘qitish jarayonida ta’lim oluvchilarni turli faoliyatga jalb qilish, har xil didaktik o‘yinlar, munozara usullaridan, bolalar tasavvuri, tafakkuri, xotirasi, nutqini rivojlantiruvchi metodlardan foydalanish darkor.

Bunda, asosan, pedagogik fanlarni o‘qitishda ta’lim oluvchilarning fikrlash faoliyatlarini rivojlantiruvchi-ko‘rgazmali-harakatli, amaliy, ko‘rgazmali-tasvirli, mavhum-nazariy o‘qitish ishlarini qo‘llash, muammoli ma’ruza, evristik, tabaqalashgan, aqliy hujum usullaridan foydalanish talab etiladi.

“Bumerang” texnologiyasi. Mazkur texnologiya bir mashg‘ulot davomida o‘quv materialini chuqur va yaxlit holatda o‘rganish, ijodiy tushunib yetish. Erkin egallashga yo‘naltirilgan. U turli mazmun va xarakterga (muammoli, munozarali, turli mazmunli) ega bo‘lgan mavzularni o‘rganishga yaroqli bo‘lib, o‘z ichiga og‘zaki va yozma ish shakllarini qamrab oladi hamda bir mashg‘ulot davomida har bir ishtirokchining turli mashg‘ulotlarni bajarishi, navbat bilan o‘quvchi yoki o‘qituvchi rolida bo‘lishi, kerakli balni to‘plashiga imkoniyat beradi. “Buremang” texnologiyasi tanqidiy fikrlash, mantiqni shakllantirishga imkoniyat yaratadi: xotirani, g‘oyalarni, fikrlarni, dalillarni og‘zaki va yozma shakllarda bayon qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Ta’lim bilan bir qatorda mazkur metod tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi:

-jamoa bilan ishlash mahorati;

-muomalalik;

-xushfe’llik ;
-ko‘nikuvchanlik;
-o‘zgalar fikriga hurmat;
-faollik;
-rahbarlik sifatlarini shakllantirish;
-ishga ijodiy yondashish;
-o‘z faoliyatining samarali bo‘lishiga qiziqish;
-o‘zini xolis baholash.

Asosiy tushunchalar quyidagilar:

Ochiq savollar – bu savollar muomala, so‘zlashuvni davom ettirishga imkon beradi. Ularga qisqa, bir xil javob berish mumkin emas.

Yopiq savollar – bu savollar oldindan “ha” yoki “yo‘q” tipidagi to‘g‘ri, ochiq javoblarni berishni ko‘zda tutadi.

Kondalang so‘roq – bir-biriga guruhlab beriluvchi qisqa savollar qatori bo‘lib, bu o‘ziga xos axborotlar izlash hamda dalillarni, opponentlar pozitsiyasini aniqlash va muayyan qarorlar qabul qilish uchun ajoyib imkoniyatdir. Ko‘ndalang so‘roq paytida munozaraga kirishish mumkin emas. Bu vaqtda faqat savollar beriladi, munozaraga kirishilmaydi.

“Skarabey” texnologiyasi. “Skarabey” interaktiv texnologiya bo‘lib, u o‘quvchilarda fikriy bog‘liqlik, mantiq, xotiraning rivojlanishiga imkon yaratadi,qandaydir muammoni hal qilishda o‘z fikrini erkin va ochiq ifodalash mahoratini shakllantiradi. Mazkur texnologiya o‘quvchilarga mustaqil ravishda bilimning sifati va saviyasini xolis baholash, o‘rganilayotgan mavzu haqidagi tushuncha va tasavvurlarni aniqlash imkonini beradi. U ayni paytda, turli g‘oyalarni ifodalash hamda ular orasidagi bog‘liqliklarni aniqlashga imkon yaratadi. “Skarabey” texnologiyasi har tomonlama bo‘lib, undan o‘quv materialining turli bosqichlarini o‘rganishda foydalaniladi:

-boshida – o‘quv faoliyatini rag‘batlantirish sifatida (“Aqliy hujum”);

-mavzuni o‘rganish jarayonida – uning mohiyati, tuzilishi va mazmunini belgilash, ular orasidagi asosiy qismlar, tushunchalar, aloqalar xarakterini aniqlash, mavzuni yanada chuqurroq o‘rganish, yangi jihatlarini ko‘rsatish;

-oxirida – olingan bilimlarni mustahkamlash va yakunlash maqsadida.

“Skarabey” texnologiyasi o‘quvchilar tomonidan oson qabul qilinadi,chunki u faoliyatning fikrlash bilish xususiyatlari inobatga olingan holda ishlab chiqilga. U o‘quvchilar tajribasidan foydalanishni ko‘zda tutadi, reflektiv kuzatishlarni amalga oshiradi, faol ijodiy izlash va fikriy tajriba o‘tkazish imkoniyatlarga ega. Mazkur texnologiyaning ayrim afzalliklari sifatida idrok qilishni yengillashtiruvchi chizma shakllaridan foydalanishni ko‘rsatish mumkin.

“Skarabey “ alohida ishlarda,kichik guruhlarda hamda o‘quv jamoalarda qo‘lanilishi mumkin.

Ta’limdan tashqari mazkur metot tarbiyaviy harakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi:

-o‘zgalar fikriga hurmat;

-jamoa bilan ishlash maxorati;

-faolik;

-xushmuomalalik;

-ishga ijodiy yondashish;

-imkoniyatlarini ko‘rsatish ehtiyoji;

-o‘z qobilyatlari va imkoniyatlarini tekshirishga yordam beradi;

-“men” ligini ifodalashga imkon beradi;

-o‘z faoliyati natijalarga masulyat va qiziqish uyg‘otadi.

Asosiy tushunchalar quydagilar :

- Assosiasiya – mantiqiy bog‘liqlik bo‘lib, sezgilar,tasavvurlar, idrok qilish, g‘oyalar va boshqalar orasida xosil qiluvchi mantiqiy aloqadir.

- Zanjirlash (muayan tartib)- ahamiyati, muhimligi, mazmuni darajasiga qarab tartiblash.

O‘qituvchi va o‘quvchi talabaning maqsatli natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomoning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan, bunda o‘quvchi talabalarning bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiy tanlanadi masalan,natijaga erishish uchun balki kompuyuter bilan ishlash lozimdir,balki film, tarqatma material,chizma va plakatlar, turli adabiyotlar, axborot texnologiyasi kerak bo‘ladi, bular o‘qituvchi va o‘quvchi talabaga bog‘liq.

Shu bilan bir qatorda o‘qitish jarayoni oldindan loyihalashtirish zarur, bu jarayonda o‘qituvchi o‘quv predmetining o‘ziga xos tomonini joy va sharoitini, o‘quvchining imkoniyati va ehtiyojini hamda hamkorlikdagi faoliyatini tashkil eta olishni hisobga olishi kerak, shundagina kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin. Qisqa qilib aytganda o‘quvchi- talabani ta’limning markaziga olib chiqish kerak.

Shuningdek, mamlakatimizning uzluksiz ta’lim tuzimiga, ayniqsa oliy ta’lim muassasalarida, taraqqiyotning hozirgi bosqichida, “Tabaqalashtirilgan a’lim texnologiyasi”, “ Dasturlashtirilgan ta’lim texnologiyasi”, “Bilish o‘yin texnologiyasi”, “Forstu texnologiyasi”, “Masofali o‘qitish texnologiyasi” “Indivudiallashtirilgan”, “Kompuyuterni o‘qitish” kabi texnologiyalar ham keng qo‘llaniladi.[1]

Shunday qilib, ko‘rib o‘tilgan zamonaviy o‘qitish texnologiyalari o‘zida zamonaviy ta’lim shakllari majmuasi sifatida ta’lim beruvchida va ta’lim oluvchilarning hamkorlikdagi o‘quv faoliyatlarini tashkillashtirish, mujassamlashtirishni yo‘lga qo‘yadi va amalga oshiradi. Shu asosida oliy ta’lim maktablarida o‘qitiladigan pedagogik turkum fanlarni o‘qitishni jadallashtirish, mahsuldor (produktiv) qilish asosida talaba – yoshlarda erkin va mustaqil fikrlash, bilim doirasini kengaytirish, o‘z fikrini erkin, mazmunli bayon etish, jamoada o‘zini tuta bilish, jamoa ishlarida faol ishtirok etish, nutqi va muomila madaniyatini rivojlantiradi hamda takomillashtiradi zamonaviy o‘qitish texnologiyalarini qo‘llash jarayonida, ta’limning interaktiv metodlarni tadbiq etish masala yechishni osonlashtiradi .

Pedagogik fanlarni o‘qitish jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish

Axborot texnologiyalari rivojlangan hozirgi davrda dars o‘tishda qanday ta’lim vositalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, texnik vositalarni qo‘llab dars o‘tish o‘quvchi-talabalarning fanni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini orttirishga, berilayotgan axborotlarni chuqur o‘zlashtirishga katta yordam beradi.

---

1 Avliyoqulov N.Q. “Zamonaviy o’qitish texnologiyalari” . Toshkent. 2001, B.Q.Xo’jayev , SH.SH. Olimov “ Yangi pedagogic texnologiyalar”.

Maxsus vositalar, ma’lum bir masalani, mavzuni yoritishga qaratilgan maket, videofilm, kasseta, disk, disket kabilarni o‘z ichiga oladi.

Axborotni uzatish, tasvirlash nuqtayi nazaridan texnik vositalarni tasvirlovchi (kodoskop, proektor, diaprotsessor), tovushli (magnitofon, radio, audio kabilar), audio-video kompleksi, video-magnitofon, kompyuter kabilaiga bo‘lish mumkin.

Ta’lim jarayonini amalga oshirishda yordam beruvchi vositalar ta’lim vositalari deb ataladi.

Ta’lim vositalari real va texnik vositalar hamda chop etilgan o‘quv materiallarini o‘z ichiga oladi. Uning tarkibi quyidagicha bo‘ladi.

Real ta’lim vositalari, odatda, farmatsiya yo‘nalish bo‘yicha ta’lim olish jarayonida kam ishlatiladi, lekin texnik va chop etilgan o‘quv materiallari juda keng qo‘llaniladi.

Ta’lim vositalari bir-birini to‘ldiradi va dars jarayonida uyg‘unlashadi. Ta’lim vositalari talabalarning darsni tushunishi, mustaqil ishlashi, o‘quv jarayoniga faol qatnashishiga ko‘maklashadi.

Kodoskop, proektor shaffof plyonkadagi tasvir (slaydlar)ni ekranga tushirish, aks ettirish uchun qo‘llaniladigan jihoz hisoblanadi. U foydalanish uchun qulay, moslashuvchan vosita bo‘lib, bir marta tayyorlangan plyonkadan ko‘p marta foydalanish mumkin. Doska bo‘lmaganda zarur bo‘lgan narsalarni flomaster yordamida to‘ppa-to‘g‘ri yozib ko‘rsatiladi.

O‘qituvchi qaysi vositadan qachon foydalanishi, qanday vositani qo‘llashini darsning maqsadi, mazmunidan kelib chiqqan holda oldindan belgilab olishi kerak.

Dars o‘tishda keng qo‘llaniladigan nisbatan oddiy, bir auditoriyadan ikkinchisiga olib o‘tish oson texnik vosita kodoskop va proektor hisoblanadi. Hozirgi paytda kodoskopga nisbatan proektor ko‘proq ishlatiladi. Ulardan foydalanishdan avval uning bexato ishlashini, tozaligini, xonada rozetka bor-yo‘qligini tekshirish lozim.

Slaydlar taqdimot qilinishidan oldin tartib bilan mantiqiy ketma-ketlikda tayyorlab qo‘ygan ma’qul.

O‘qituvchi taqdimot jarayonida ekranga qarab emas, balki ta’lim oluvchilarga qarab, nutq tezligiga e’tibor bergan holda gapirishi lozim, ya’ni «ko‘z aloqasi»ni saqlab turishi kerak.

Boshqa vositalar kabi proektoming ham o‘ziga xos afzalliklari va kamchiliklari mavjud.

Kodoskop va proektor bilan ishlashning afzalliklari:

* dars jarayonida doimiy tasviriy kontakt yuz beradi;
* plyonkalar dars boshlanishiga qadar tayyor bo‘lishi mumkin;
* turli tarzda foydalanishni tashkil qilish mumkin,
* slaydlarni qo‘lda, fotonusxa, kompyuter yordamida tayyorlash va ulardan bir necha marta qaytadan foydalanish mumkin;
*kerak bo‘lmagan qismini yopib qo‘yish mumkin;
*rangli tasvirni qo‘llash mumkin;
*foydalanish oson, qulay joyga ko‘chirish mumkin.

Videoproektor albatta boshqa vositalarga nisbatan qimmat, undan foydalanish uchun ko‘nikma talab etiladi.

Hozirgi paytda o‘quv materiallari, axborotlarni ekranda ko‘rsatish imkoni vujudga kelishi va rivojlanishi bilan o‘quv jarayonida erishilgan yutuqdan foydalanish keng yoyilib bormoqda. Zamonaviy axborot texnologiyasi kompyuter texnikasi va aloqa vositalari sohasidagi yutuqlarga tayanadi. Ularning gurkirab rivoj-lanishi turli axborotlardan samarali foydalanishga qaratilgan jamiyatning rivojlanishiga turtki bo‘ldi.

Axborot texnologiyalari — bu odamlarning bilimlarini rivojlantiradigan, ularning texnika va ijtimoiy jarayonlarni boshqarish bo‘yicha imkoniyatlarini kengaytiradigan ma’lumotlarni tashkil etish, saqlash, ishlab chiqish, tiklash, uzatish usullari va texnik vositalaridir. Yana shuningdek, axborot texnologiyalari deganda, ma’lum bir maqsadga erishish uchun amalga oshiriladigan jarayonlar zanjiridan iborat yaratuvchi faoliyat tushuniladi.

Axborot texnologiyalari, birinchidan, axborotning sirkulatsiyasi va ishlov berish majmui, ikkinchidan, bu jarayonlarning tasviridir.

Zamonaviy axborot texnologiyalami o‘quv jarayoniga tatbiq etilishi ta’limda yangicha o‘quv metodlarini keng ravishda qo‘llashga imkoniyat yaratib beradi. Maxsus ixtisoslashtirilgan auditoriyalar, chunonchi, kompyuter, televizor, videomagnitofon bilan ta’minlangan auditoriyalarda dars o‘tish borgan sari ommalashib bormoqda. Hatto uni alohida videometod sifatida talqin etilmoqda. Avniqsa, o‘quv jarayoniga kompyuterning kirib kelishi barcha didaktik funksiyalarni muvafaqqiyatli bajarish imkoniga ega videometodni keng qo‘llash

imkonini beradi. Buning natijasida uni kompleks didaktik texnologiya deb ham atalmoqda. U:

* talabalarga o‘rganayotgan mavzusi, jarayon, faoliyat bo‘yicha to‘liq, ishonchli axborot berish;

*o‘quv jarayonida ko‘rgazmalilikning rolini oshirish;

*talaba,o‘quvchilarni xohish, talab, ehtiyojlari, qiziqishlarini qondirish;

*o‘qituvchining talabalarning bilimini, ko‘nikmalarini sinash bilan bog‘liq texnik ishlardan ozod qilish, samarali aloqa o‘rnatish;

* talabalarni o‘zlashtirishi bo‘yicha obyektiv hisobot, to‘la va uzluksiz uazoratni tashkil etish imkonini beradi.

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savollar hamda topshiriqlar:

1. Pedagogik texnologiya nima?
2. O‘qitish metodikasi va pedagogik texnologiyalarning farqli tomonlarini ko‘rsating.
3. Pedagogik fanlarni o‘qitishda qaysi ta’lim texnologiyalaridan foydalaniladi?
4. Pedagogik fanlarni o‘qitishda qo‘llaniladigan modulli o‘qitish texnologiyasini tushuntiring.
5. Pedagogik fanlarni o‘qitishda qaysi axborot texnologiyalaridan foydalaniladi?
6. Taqdimot tayyorlashning didaktik talablarini ayting?

9-MAVZU. PEDAGOGIK FANLARNI O‘QITISH JARAYONIDA O‘QUVCHILARNING BILIM, KO‘NIKMA VA MALAKALARINI TASHXIS ETISH

Tayanch so‘zlar: *diagnostika, tashxis, nazorat, hisobga olish, tekshirish, baholash, baholash mezonlari.*

9. 1.Ta’lim olganlikni tashxis etishning mohiyati.

Diagnostika (yunon tilida «dia»-shaffof, «gnosiss»-bilim degan ma’noni bildiradi) - o‘rganilayotgan obyekt yoki jarayon to‘g‘risidagi aniq ma’lumot olishning umumiy vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Diagnostikaning ahamiyatini meditsina nuqtayi nazaridan qarasak, kasallik belgilari va ulami kelib chiqish sabablari to‘g‘ri aniqlansa, davolanish natijasida bemor tuzalib ketishining kafolati oshadi. Xato diagnoz esa faqat shifokorlaming aqliy harakatini yo‘qqa chiqaribgina qolmay, balki kasalning tuzalish imkoniyatini ham susaytirishi mumkin. Tana a’zolari salomatligi to‘g‘risidagi aytilgan ushbu fikrlar ruhiy sog‘liqqa ham bevosita aloqadordir.Inson jismoniy rivojlanishini diagnoz qilish ancha oson kechadi, buning uchun ayrim mashqlar bajarilgach, uning natijasiga binoan xulosa chiqarish mumkin. Lekin ruhiy, ma’naviy, ijtimoiy rivojlanishni diagnostika qilish mashaqqatli faoliyatning mahsulasi hisoblanadi. Bu maqsadda qo‘llanayotgan metodikalar muayyan darajada murakkab bo‘lib, har doim ham to‘g‘ri natija beraveradi, deb xulosa chiqarish, shoshilinch qaror qabul qilish noxush oqibatlaiga olib keladi. Pedagogik amaliyotda pedagog-psixologlar va o‘qituvchilar shaxsning alohida sifatlarini o‘rganadilar, lekin olingan natijalarga asoslangan holda, rivojlanishning barcha tarkiblariga umumiy baho berishga har doim ham musharraf bo‘Iavermaydilar. Chunki tajriba uzluksizligini ta’minlash integrativ yondashishni taqozo etadi, ko‘p omillik tahlilgina uning yechimiga ijobiy ta’sir etadi, xolos.Ta’lim oluvchilarning shaxsiy-xarakterologik sifatlarini aniqlashning, hech bo‘lmaganda oddiy metodikasini egallash, uni tatbiq etish, kasbiy-pedagogik tayyorgarlikning muhim unsurlaridan biridir. Oliy va

o‘rta maxsus o‘quv maskanlari o‘qituvchilari ko‘pincha o‘quvchi-yoshlarning aqliy qobiliyatlarini o‘rganishga e’libor qaratadilar, ammo ulaming tarbiyalanganlik darajalarini (keng ma’noda) va xulqiy nuqsonlarini korreksiyalash muammolarining uzluksiz ta’lim tizimida yagona uzviylik va yaxlitlik nuqtai nazaridan talqin qilishga, uning yechimlarini topishga urinishmaydi. O‘quvchilar va talabalajning aqliy rivojlanishlari ko‘p jihatdan mustaqil fikrlashga, umumiy tarbiyalanganlik darajasiga bog‘liq. Ulaming tarbiyalanganlik darajasini diagnostika qilish, ma’navi-yma’rifiy rivojlanish xususiyatlarini o‘rganish, zarur bo‘lsa xulqiy nuqsonlarini bartaraf etish hozirgi davming muhim talablaridan biridir.

Ijtimoiy pedagogik diagnostika - pedagogik omillaming samaradorligini oshirish maqsadida shaxsga axloqiy, intellektual, estetik, jismoniy, sotsiologik, ekologik va ijtimoiy-psixologik ta’sir ko‘rsatish haqidagi axborotlaming majmuyi. Yoshlar jamoasidagi har bir shaxsning tarbiyalanganlik darajasini tashxis qilish uchun avvalambor «tarbiya» va «tarbiyalanganlik» atamasining tarkibiy qismlari, mezonlari nimalar bilan belgilanishini tushunish zarur.Jahon pedagogikasida «tarbiya» atamasi keng qamrovli tushuncha sifatida baholanganligi tufayli, uning mohiyati xususida turli nazariyalar mavjud. Tarbiyani kattalar (o‘qituvchilar, murabbiylar va ota-onalar)ning bolalarga ta’sir ko‘rsatish jarayoni sifatida tushunish eng ko‘p tarqalgan tendensiyadir. Bu o‘rinda kattalar to‘g‘ri deb hisoblaydigan, baholaydigan ideallar, maqsadlar, vazifalar, normalar va talablarga muvofiq tarzda ta’sir ko‘rsatish ko‘zda tutiladi, albatta.Tarbiyani bunday tushunish haqiqatga yaqinroq, biroq u bir tomonlama xususiyatga ega bo‘lib, mazkur jarayonning faqat muayyan qismini aks ettiradi, xolos. Tarbiyaga bunday ta’rif berishda bolaga kattalaming ta’siri yo‘naltirilgan obyekt sifatidagina qaraladi.

Pedagogik tashxislashning asosiy maqsadi ham tashabbuskor va mustaqil shaxslarni tarbiyalashni nazarda tutadigan bo‘lsa, u tarbiyalanuvchiga pedagogika jarayonida faol harakat qiluvchi subyekt rolini beradi.Bugungi kunda pedagogik nazariya va amaliyot muammolarini tadqiq qilish va yechimini topishda pedagogik diagnostika hamda korreksiya muhim ahamiyat kasb etadi.«Pedagogik diagnostika» atamasi ilk bor 1968-yili nemis olimi Karlxayns Ingenkamp tomonidan fanga kiritildi.

K. Klauer (Germaniya), V.Burk, Rollet (Angliya), S.D. Smirnova, I.V.Dubrovina (Rossiya) va boshqa bir qator olimlarning «pedagogik diagnostika»ning «psixologik diagnostika» zamirida tug‘ilganligini ta’kidlashlari, albatta, o‘rinsiz. Bir paytlari psixologik diagnostika biologiya va tibbiyotning tashxis modellarini andoza qilib olgani kabi pedagogik diagnostika ham zarur bo‘lganda psixologik ilmiy-tadqiqot metodlardan o‘z o‘mida foydalandi.

Pedagogik, psixologik, sotsiologik adabiyotlar tahlili tashxislashga turli qarashlar mavjudligini ko‘rsatdi. Bu pedagog shaxsining diagnostikasi (o‘zini-o‘zi tashxislash), ota-onalar, pedagoglar tomonidan o‘quvchilar jamoasini tashxislash; ma’muriyat, mutasaddi mutaxassislar va ta’lim bo‘limlari uslubiyotchilari tomonidan o‘quv dargoqining faoliyatini tashxislash va hokazolar bo‘lishi mumkin.

Pedagogik diagnostika o‘z mohiyatiga binoan korreksion tadbirlarni amalga oshirishni nazarda tutadi. «Korreksiya - deb ta’kidlaydi M. Quronov-hayotiy chekinishlarga uchragan bolalar va o‘smirlar bilan olib boriladigan aniq faoliyatdir»[1].

Bir qator olimlar: (R.S.Nemov, D.V.Olshanskiy, G.Broyer, G.Mattes) «Pedagogik korreksiya - tarbiya jarayonida yoshlaming ma’naviy-ma’rifiy sohalarda oldin yo‘l qo‘ygan nuqsonlarini bartaraf etish jarayonidir», - deb hisoblaydilar.

Fikrimizcha, korreksiyalash jarayoni-yoshlarning ongiga, his tuyg‘ulariga ta’sir etuvchi va turli ijobiy qobiliyatlari hamda shaxsiy fazilatlarni shakllantiruvchi faoliyat turidir.

Korreksiyalash ta’sirida ulaming g‘oyaviy, axloqiy, irodaviy, estetik xislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga nisbatan ilmiy qarashlari tizimi tarkib topadi, jismoniy kuch-quwatlari mustahkamlanadi va shu bilan birgalikda tarbiyaviy masalalar amalga oshiriladi.Korreksiya jarayonida yoshlarda jamiyatning shaxsga qo‘yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulq-atvor malaka va odatlari hosil qilinadi. Bunga erishish kezida yoshlarning ongiga (ta’lim jarayonida), hissiyotiga (darsda va sinfdan tashqari ish) K.Yung pedagogik diagnostikaga ta’rif bergan bir qator olimlarni tanqid ostiga olib, shunday fikrlami bildiradi:

[1] Quronov M., Qurboniyozova Z. Ijtimoiy pedagogika. T., «Universitet», 1994, 42-b.

«Pedagogik diagnostika (tashxislash) vazifalarini birvarakayiga klassifikatsiyalash (turkumlash)ni, bir paytning o‘zida amalga oshirishi mushkul, shu sababli pedagogik diagnostika atamasining mohiyatini belgilamasligi kerak. Pedagogik diagnostika dolzarb pedagogik qarorlami, hukmlarni chiqarishga bo‘lgan urinishlar majmuyidan iborat».

Rus olimi V.I.Zverev: «Pedagogik diagnostika - bu turli pedagogik vaziyatlami o‘rganish, aniqlash, ta’lim tizimi qatnashchilarining xilma-xil qobiliyatlari darajasini bilishdan iborat jarayon» (34,12), - degan fikmi ilgari suradi. Boshqa ms olimasi L. Denyakina: «Pedagogik diagnostika bu pedagogning o‘quv-tarbiyaviy jarayonni tashxislashda individual-malakaviy sifatlarini belgilovchi, «Pedagogik diagnostika o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish, mazmunini boyitish va attestatsiya uchun qo‘llaniladi».

Pedagogik diagnostika - pedagog shaxsining va u bilan muloqotga kirishuvchilaming pedagogik tizim natijalarini taqlil qilish, kafolatlash va tavsiyalar berish jarayoni.

Pedagogik diagnostika: birinchidan, individual ta’lim jarayonini qulaylashtirishi, ikkinchidan, jamiyat talabidan kelib chiqqan holda, ta’lim-tarbiya natijalarini to‘g‘ri aniqlashni taminlashi, kafolatlashi, uchinchidan, o‘ziga xos ta’lim yo‘nalishi va mutaxassislikni oqilona tanlashga yordam berishi kerak. Pedagogik diagnostika yordamida ma’naviy-ma’rifiy jarayon tahlil qilinadi va ta’lim-tarbiya natijalari aniqlanadi.Tashxislashda nafaqat ta’lim-tarbiya natijalarini sarhisob qilish, balki ularning o‘zgarish dinamikasini ham nazarda tutish lozim.Shakllanib borayotgan demokratik huquqiy davlatning yoshlarga nisbatan amalga oshirayotgan siyosati yigit va qizlarga o‘z qobiliyati va iste’dodini to‘la ro‘yobga chiqarishda, yangilanish va taraqqiyot jarayonlariga faolroq qo‘shilishga yordam berishdan iboratdir. Shu jihatdan ta’lim-tarbiya jarayonini diagnostika qilishga zarurat oshmoqda. Yoshlaming kamolot darajasini diagnostika qilishda va xulqi dagi nuqsonlami korreksiyalashda intellektual va tarbiyalanganlik darajasi orasidagi aloqadorlikni aniqlash, xalq pedagogikasi tajribalarini zamon talablari bilan uyg‘unlashtirish, ta’lim-tarbiya tizimini qulaylashtirish, komil inson fazilatlarini shaklllantirishga qaratilgan milliy qadriyatlar va ilg‘or metodikalar

uzluksiz ta’lim tizimida tahsil olayotgan yoshlaming tarbiyalanganlik darajasini takomillashtirishda muhim yo‘nalish sifatida qaralmoqda.

Tashxis – bu didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilash demak. Tashxissiz didaktik jarayonni sama-rali boshqarish, mavjud sharoit uchun optimal natijalarga erishish mumkin emas.

Ta’lim olganlikni tashxislash orqali erishil-gan natijalar va ta’lim olganlik ajratib olina-di. Shuningdek, ta’lim olganlik tashxislash vaqti-da belgilangan maqsadni amalga oshirish darajasi sifatida ham qaraladi. Didaktik tashxislashning ***maqsadi*** o‘quv jarayonida kechadigan barcha jihatlarni uning mahsuli bilan bog‘liq holda o‘z vaqtida aniqlash, baholash va tahlil qilishdan iborat.

9.2. O‘quv jarayonida nazorat va hisobga olish funksiyalari

Nazorat (ta’lim jarayonida) ta’lim oluvchining bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini aniqlash, o‘lchash va baholash jarayonini anglatadi. Aniqlash va o‘lchash esa ***tekshirish*** deb ataladi. O‘qituvchi o‘qi-tish bilan bir vaqtda o‘quvchilarning o‘rganilayotgan mavzuni qanday qilib idrok etishini, esda saqlash-ga xarakat qilishini va uni amalda qo‘llash malaka-larini egallashini hisobga olib borishi kerak. ***Hisobga olish*** – bu o‘qitishning muayyan bir davrida o‘quvchilar va o‘qituvchi faoliyatini umumlashtirib xulosalash.

Nazorat funksiyalari

1. Diagnostik funksiya.
2. Ta’limiy funksiya.
3. Tarbiyalovchi funksiya.
4. Rivojlantiruvchi funksiya.
5. Rag‘batlantiruvchi funksiya.
6. Korrektsiyalovchi funksiya

Tekshirishning bo‘g‘inlari (zvenolari)

Tekshirish tizimidagi *birinchi bo‘g‘in* ta’lim oluvchilarning bilim darajasini **oldindan aniqlash** hisoblanadi.

Bilimlarni tekshirishning *ikkinchi bo‘g‘ini* har bir mavzuni o‘zlashtirish jarayonidagi **joriy tekshirishdir**.

Takroriy tekshirish bilim, ko‘nikma va malakalarni tekshi-rishning **uchinchi bo‘g‘ini** sanalib, joriy tekshirish kabi mavzu-li bo‘lishi mumkin.

Tizimning *to‘rtinchi bo‘g‘ini* o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini yaxlit bo‘lim yoki kursning alohida mavzusi bo‘yicha **davriy tekshirish** hisoblanadi.

Tekshirishni tashkil etishda *beshinchi bo‘g‘in* ta’lim oluvchilarning, ta’lim jarayonining barcha bosqichlarida egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarini **yakuniy tekshirish va hisobga olishdir**.

Baholash va uning o‘ziga xosliklari

Tekshirishdan tashqari nazorat o‘z ichiga baholashni (jarayon sifatida) va bahoni (natija sifatida) ham oladi. ***Baholash*** deb bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘quv dasturida ko‘rsatilgan etalon (ko‘rstakich, qolip, o‘lcha-gich)lar bilan solishtirishni aytamiz. ***Baho*** deb baholashning ball shaklida ko‘rsatilgan son jihatdan o‘lchamiga aytiladi.

Bahoni amalda egallangan bilim, ko‘nikma va malakalar bi-lan davlat ta’lim standartiga ko‘ra o‘zlashtirilishi belgilan-gan bilim, ko‘nikma va malakalar umumiy hajmi o‘rtasidagi nisbat sifatida tushunish (ta’rif-lash)dan ta’lim darajasi-ning miqdoriy mazmuni kelib chiqadi. O‘zlashtirish (ta’lim samaradorligi) ko‘rsatkichi B=A/T*100% nisbat asosida hisoblanadi. Bunda:

B – o‘zlashtirish (ta’lim samaradorligi) bahosi;

A – amalda o‘zlashtirilgan bilim va malakalarning hajmi;

T – o‘zlashtirish uchun taklif etilgan bilim va malakalarning to‘liq hajmi.

Hisobga olish va uning o‘ziga xosliklari

O‘qituvchi o‘qitish bilan bir vaqtda talabalarning o‘rganilayot-gan mavzuni qanday qilib idrok etishini, esda saqlashga xarakat qilishini va uni amalda qo‘llash malakalarini egallashini hisob-ga olib borishi kerak. ***Hisobga olish*** – bu o‘qitishning muayyan bir davrida o‘quvchilar va o‘qituvchi faoliyatini umumlashtirib xulosa-lash.

Hisobga olish natijasida o‘qituvchi ham, talaba ham o‘zlari-ning keyingi bajaradigan ishlarining shaklini va mazmunini belgilaydi. O‘zlashtirishni hisobga olish talabalarning bilish faoliyatini rag‘batlantirib, ma’lum bir harakatlarni bajarish uchun uning irodasini tarbiyalaydi. Shuningdek, o‘zlashtirishni hisobga olish o‘qituvchining faoliyatni ham tashkil etadi. O‘qitish metodlari va shakllarining tabora takomillashuvi natijasida baho o‘qituvchining pedagogik mahorati

ko‘rsatkichiga aylanmoqda va o‘qituvchining o‘z malakasini oshirib borishida muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda.

Talabalarning o‘zlashtirish natijalarini hisobga olish

1) o‘quv dasturi asosida mavzu va bo‘limni o‘rganish-da talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalarini har tomonlama nazorat qilish;

2) har bir yakunlangan mavzu bo‘yicha talabalarning faoliyati to‘g‘risida to‘liq xulosa chiqarish;

3) o‘rtacha arifmetik ma’lumotlarga tayanibgina talabalarning o‘zlashtirish darajasini baholamaslik;

4) talabalarning mavjud bilimlariga aniq, bataf-sil ma’lumot (tavsif) berish uchun ularning bir necha o‘quv yilidagi statistik o‘zlashtirish ma’lumotlariga asoslanib tahlil etish.

9.3. Ta’lim olganlikni nazorat qilish va tashxislash tamoyillari. O‘quv faoliyati natijalarini hisobga olish turlari, shakl, va metodlari

Xolislik (obyektivlik) tashxis testlari (topshiriqlari, savollari), tashxis jarayoni mazmunining ilmiy asoslanganligi, pedagog-ning barcha ta’lim oluvchilarga do‘stona munosabati hamda bilim, malakalarni baholashning aniq ko‘rinishda belgilangan mezonlaridan iborat.

Tizimlilik (sistemalilik) tamoyilining talabi shundan iboratki, tashhislash nazoratini ta’lim jarayoni-ning barcha bosqichlarida – bilimlarni boshlang‘ich idrok etishdan to amalda qo‘llashgacha bo‘lgan bosqichlarida olib borish kerak.

Ko‘rgazmalilik (oshkoralik) tamoyili avvalo barcha ta’lim oluvchilarni aynan bir hil mezonlar bo‘yicha ochiq sinovdan o‘tkazishni anglatadi.

Nazorat turlari

Joriy nazorat o‘qituvchi tomonidan talabalarning xar bir o‘quv ishini muntazam nazorat qilishni hamda ularning o‘rganilgan mavzularni o‘zlashtirish bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini tekshirishni o‘z ichiga oladi.

Oraliq nazorat – bu talabalar tomonidan mazkur fanning muayyan bob yoki bo‘limlarining o‘zlashtirilganini tekshirish. Oraliq nazoratni

o‘qituvchi mashg‘ulotlar jadvali asosida mashg‘ulotda o‘quv materialining o‘ziga xos xususiyatini hisobga olgan xolda o‘tkazadi.

Yakuniy nazorat – sesmestr va davlat attestatsiyasi sinovlari singari turlarga bo‘linadi. Yakuniy nazorat og‘zaki, yozma, test hamda amaliy topshiriqlarni bajarish metodlari asosida o‘tkaziladi.

Nazorat shakllari

- nazoratning ommaviy (frontal) shaklida o‘qituvchi talabalarga materi-alning ma’lum bir hajmi bo‘yicha savol beradi, talabalar unga qisqa javob qaytaradi. Mazkur so‘rash ko‘pchilik talabani nazorat qilishni ta’minlaydi va butun guruhni faollashtiradi. Ammo bu nazoratni talabalarning bilim darajasini har tomonlama aniqlash uchun qo‘llab bo‘lmaydi.

- **nazoratning guruhli shakli**da talabalarning ma’lum bir qismi nazorat qilinadi. O‘qituvchi tomonidan talabalar guruhiga vazifa beriladi va uni shu guruh bajaradi. Lekin masalani hal qilishda boshqa talabalar ham qatnashi-shi mumkin. Guruh ishlayotgan paytda qolgan talabalar bo‘sh qolmaydi, ular o‘rtoqlarining bajargan ishlarini baholash uchun o‘z ustilarida ishlab o‘tiradi.

- **nazoratning individual shaklidan** har bir talabaning bilim, ko‘nikma va malakasi bilan mukammal tanishish uchun foydalaniladi. Nazoratning bu shaklida odatda talabalar javob berish uchun sinf taxtasi oldiga chaqiriladi.

- **nazoratning kombinatsiyalangan (biriktirilgan)shakli** individual nazoratni ommaviy va guruhli shakllar bilan birlashtirishni taqozo etadi. Bu nazoratni hajmi katta mavzularni barcha talabalardan so‘rash kerak bo‘lgan vaqtda foydalanadi. Har bir o‘quvchiga alohida topshiriq beriladi va bir vaqtda birnecha o‘quvchini tekshirish mumkin bo‘ladi.

- **o‘z-o‘zini nazorat qilish shakli** ta’lim jarayonida ichki aks aloqaning bo‘lishini ta’minlaydi. Nazoratning bu shakli psixologik mezonlarga asoslanadi. Uning samaradorligi o‘qituvchining kasbiy mahoratiga bog‘liq bo‘ladi.

Nazorat qilish metodlari

Og‘zaki tekshirish. Bu metod bilimlarni nazorat qilish va baholash-ning ancha keng tarqalgan an’anaviy usullaridan biridir. Og‘zaki tekshirishning mohiyati shunda ko‘rinadiki, o‘qituvchi talabalarga o‘rganilgan mavzuning mazmunidan kelib chiqib, savollar

beradi va ularni javob berishga undaydi. Ana shu tarzda ularning o‘zlashtirish darajasini aniqlaydi.

Yozma tekshirish – talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish va baholashning eng samarali usullaridan biri bo‘lib, ularning ijodiy qobiliyatlarini baholash imkonini beradi.

Amaliy topshiriqlarni bajarishga asoslangan tekshirish. Bajarilayotgan amaliy harakatlar (sport, mehnat harakatlari)ning to‘g‘riligini kuzatish yoki olingan natijalarga tayanishdan iborat bo‘lishi mumkin.

Uy vazifalarini tekshirish. O‘quvchilarning o‘zlashtirishini nazorat qilish uchun ularning uyga berilgan vazifalarni bajarishini tekshirish katta ahamiyatga ega.

Reyting deganda baholash, tartibga keltirish, klassifikatsiyalash, bironta hodisani oldindan belgilangan shkala bo‘yicha baholash tushuniladi. Reyting nazorati o‘quvchining ma’lum bir fandan reytingini aniqlaydi.

Shkalalash – aniq jarayonlarni raqamlar tizimi yordamida modellashtirish.

Reyting nazoratida o‘quvchilarning o‘quv faoli-yatini nazorat qilishning yuqorida keltirilgan metodlari bilan birga test metodidan ham sama-rali foydalanilmoqda.

Test – aniq maqsad asosida, muayyan holat darajasini sifat va miqdoriy ko‘rsatkichlarda belgilashga imkon beruvchi sinov vositasi.

Pedagogik amaliyotda testning bir qator afzalliklari ko‘zga tashlanadi. Ular quyidagilardir:

1) nazorat uchun vaqtning kam sarflanishi;

2) nazariy va amaliy bilim darajasini obyektiv sharoitda aniqlash imkonining mavjudligi;

3) bir vaqtning o‘zida ko‘p sonli o‘quvchilar bilan nazoratni tashkil etish mumkinligi;

4) bilim natijalarining o‘qituvchi tomonidan qisqa muddatda tekshirilishi;

5) barcha o‘quvchilarga bir xil murakkablikdagi savollar berilib, ular uchun bir xil sharoitning yaratilishi.

- Reyting tizimi yana bir qator afzalliklarga ega, chunonchi:

➢ ta’lim jarayonida baholash tizimi imkoniyatlarini kengaytirish;

➢ o‘quvchi bilimini eng adolatli mezonlar yordamida aniqlash;

- ta’limni standartlashtirish jarayoni uchun zarur imkoniyatlarni ochib berish;
- ta’lim standartlarida ko‘zda tutilgan o‘quv dasturiga kirgan majburiy ixtiyoriy mavzularning to‘laligicha o‘zlashtirilishi;
- o‘quvchilarda o‘z ustida mustaqil ishlash intilish, erkin fikr yuritish, bilimlarni egallashga nisbatan izchil yondashuv yuzaga keladi;
- o‘quvchilarda yomon baho olishga bo‘lgan qo‘rquv yo‘qolib, uning o‘rniga bilimlarni ixtiyoriy o‘zlashtirish, mavjud kamchilik va nuqsonlarni bartaraf etish yo‘lida mustaqil ishlash imkoniyati yaratiladi. Boshqacha aytganda, qo‘rquv o‘rniga intilish, rejalashtirish, harakat qilishga ehtiyoj tug‘iladi, o‘rganishga nisbatan qiziqish ortadi.

9.4. Bilim, ko‘nikma va malakalarni baholash mezonlari

Bilim, ko‘nikma va malakalarni baholash mezonlari hamma vaqt bahstalab mavzu bo‘lib kelgan. Shu bois u turli adabiyotlarda turlicha yoritilgan. Biroq mavjud qarashlarni umumlashtirib aytish mumkinki, o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini baholash mezonlari har bir fanning maqsad va vazifalari, shuningdek, sinf (guruh)dagi o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasiga tayangan holda belgilanadi. Shuningdek, baholash mezonlarini ishlab chiqishda o‘quvchilarning og’zaki javob berishlari, ko‘nikma va malakalariga alohida-alohida yondashiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta'lim vazirining 2018 yil 9 avgustdagi 19-2018-son buyrug’iga asosan “Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to‘g’risidagi” Nizom[1] ishlab chiqildi. Talabalar bilimini baholashda malakaviy amaliyot, kurs ishi, fan (fanlararo) davlat attestatsiyasi, bitiruv malakaviy ishi, shuningdek magistratura bosqichida ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik ishlar hamda magistrlik dissertatsiyasi bo‘yicha mazkur Nizomda belgilangan baholash mezonlari qo‘llaniladi.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish oraliq va yakuniy nazorat turlarini o‘tkazish orqali amalga oshiriladi.

Oraliq nazorat semestr davomida ishchi fan dasturining tegishli bo‘limi tugagandan keyin talabaning bilim va amaliy ko‘nikmalarini baholash maqsadida o‘quv mashg’ulotlari davomida o‘tkaziladi. Oraliq

[1] Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 26.09.2018 й., 10/18/3069/1965-сон

nazorat turi har bir fan bo‘yicha fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda 2 martagacha o‘tkazilishi mumkin.

Oraliq nazorat turini o‘tkazish shakli va muddati fanning xususiyati va fanga ajratilgan soatlardan kelib chiqib tegishli kafedra tomonidan belgilanadi.

Oraliq nazorat turining topshiriqlari tegishli kafedra professor-o‘qituvchilari tomonidan ishlab chiqiladi va mazkur kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadi.

Semestr davomida haftasiga 2 akademik soatdan kam bo‘lgan fanlar bo‘yicha oraliq nazorat turi o‘tkazilmaydi.

Talabaning amaliy, seminar, laboratoriya mashg’ulotlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishi, shuningdek uning ushbu mashg’ulotlardagi faolligi fan o‘qituvchisi tomonidan baholab boriladi. Talabani oraliq nazorat turi bo‘yicha baholashda, uning o‘quv mashg’ulotlari davomida olgan baholari inobatga olinadi.

Yakuniy nazorat turi semestr yakunida tegishli fan bo‘yicha talabaning nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarini o‘zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi. Yakuniy nazorat turini o‘tkazish shakli tegishli fan bo‘yicha kafedra tomonidan belgilanadi.

Yakuniy nazorat turi oliy ta'lim muassasasining tegishli fakultet dekani yoki o‘quv-uslubiy bo‘lim tomonidan ishlab chiqiladigan hamda o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor tomonidan tasdiqlanadigan Yakuniy nazorat turlarini o‘tkazish jadvaliga muvofiq o‘tkaziladi.

Talabalarning bilimi quyidagi mezonlar asosida:

talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo‘llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda — 5 (a'lo) baho;

talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo‘llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda — 4 (yaxshi) baho;

talaba olgan bilimini amalda qo‘llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda — 3 (qoniqarli) baho;

talaba fan dasturini o‘zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega emas deb topilganda — 2 (qoniqarsiz) baho bilan baholanadi.

Talabalar bilimini baholash 5 baholik tizimda amalga oshiriladi.

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savollar hamda topshiriqlar:

1. *Bilim, ko‘nikma va malaka tushunchalarini ta’riflang.*
2. *Ta’lim olganlikni tashxis etishning mohiyati nimadan iborat?*
3. *Ta’lim jarayonida nazorat va hisobga olish, ularning vazifalarini belgilang.*
4. *Ta’lim olganlikni nazorat qilish va tashxislash tamoyillarini ayting.*
5. *Qaysi nazorat turlari mavjud?*
6. *Baho funksiyalarini izohlang.*
7. *Baholash mezonlarini tushuniring.*
8. *Nazorat qilish metodlarini tasniflang.*

10-MAVZU. PSIXOLOGIYA FANLARINI O‘QITISH METODIKASINING PREDMETI

Tayanch so‘zlar: *psixologiya, psixologiya fanlari, o‘qitish metodikasi, qonuniyatlar, tamoyillar, oliy maktab.*

10.1.Psixologiya fanlarini o‘qitish metodikasining predmeti, maqsad va vazifalari

Psixologiya fanlarini o'qitish muammosi psixologiyani o'qitish nazariyasi va metodikasida eng muhim masalalardan biri hisoblanadi, chunki o'qitishning mazmuni, shakli va usullari ularga mos ravishda belgilanadi.

Psixologik-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish asosida psixologiyani o'rgatish ulkan tarixiy tajribaga ega ekanligi aniqlandi. Psixologiya fanlarini o‘qitishning tarixiy ildizlari psixologiya fanlari doktori V.N.Karandashevning darsligida etarli darajada ochib berilgan[1] . Olim turli xil tarixiy davrlarda psixologiyani o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganib chiqib, 18- 20-asrlarda psixologiyani o'qitish barqaror bo'lmaganligini ta'kidlaydi va ushbu hodisani tasdiqlovchi faktlarni keltiradi. V.N.Karandashev tomonidan o‘rganilgan psixologiyani o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, har bir tarixiy davrda psixologiyani o'qitishning maqsadlari jamiyat taraqqiyotining ijtimoiy-iqtisodiy holati, ehtiyojlari, ta'lim sifatiga qo'yiladigan talablar va fanning rivojlanish darajasi bilan belgilab qo'yilganligini ta'kidlashimiz mumkin.

Psixologiya fanlarini o'qitish metodikasi bo'yicha adabiyotlarning tahlili psixologiyani o'qitish maqsadlari o'zgaruvchanligi va bu sohada olimlarning turli xil yondashuvlari mavjudligini ko‘rsatdi.

18-20 asrlarda psixologiya falsafa kursi doirasida o'qitilib, axborot vazifasini bajardi. M.V. Popovning fikricha, bu davrda talabalarga psixologiyani o'qitishning maqsadi faqat ba'zi psixologik tushunchalar va toifalarni o'rganish edi.

Hozirgi vaqtda oliy o'quv yurtlarida psixologiyani o'qitishning maqsadi psixologiya o'qituvchilarining tayyorgarlik darajasi bilan belgilandi.

[1] Карандашев В.Н. Методика преподавания психологии - М. Спб 2007

V.N. Karandashevning ta’kidlanishicha "..universitetlarda psixologiyani o'qitish dasturlarini tuzishda aniq talablar yo'q edi, shuning uchun har bir o'qituvchi o'z qiziqishi va tayyorgarligi darajasiga qarab zarur deb hisoblagan ta’lim mazmunini belgiladi”. Shuning uchun psixologiyani o'qitishning maqsadi asosan mutaxassislarni nazariy jihatdan tayyorlash va eksperimental tadqiqotlar va empirik ish usullarini mukammal o'zlashtirishni ta'minlash edi.

Hozirgi vaqtda psixologiyani o'qitishning maqsadlari uning gumanitar fan sifatida mazmunining xususiyatlari bilan belgilanadi. Shu munosabat bilan, psixologiya fanlari doktori V.Ya.Lyudis ta'kidlaganidek, “psixologiyani o'qitishning maqsadi nazariy va amaliy bilimlarni hamda hayotning turli sharoitlarida odamlar bilan muloqot va o'zaro munosabatlarni o'rnatish usullarini egallashdir”.

Shunga asoslanib, psixologiyani o'qitish, idrok, xotirani o'rganish, taqqoslash, tasniflash va umumlashtirishni o'rganish uchun oddiy muammolarni echish bilan cheklanib qolmasligi kerak. Bu odamlarning harakatlarini anglash usullarini qo'llash, o'z hayot sharoitlarini o'zgartirish, intellektual faoliyatning psixologik jihatdan ancha murakkab turlarini o'zlashtirish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi kerak. V.N.Karandashev ham xuddi shu yondashuvga amal qiladi. Uning fikriga ko'ra, talabalarning psixologiya kursiga bo'lgan qiziqishi ularning psixologiya haqidagi gumanitar fan sifatida g'oyalari bilan bog'liq bo'lib, u o'quv maqsadlarini belgilashda va psixologiya bo'yicha o'quv kurslarining mazmunini tanlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shuning uchun psixologiyani o'qitishning maqsadi talabalarning psixologik ta'lim olishga yoki psixolog kasbini egallashga yo'naltirilganligi sifatida belgilanadi.

Yuqoridagi yondashuv bilan bir qatorda V.N.Karandashev yana bir yondashuvni qayd etadi, unga ko'ra psixologiyani o'qitishning maqsadlari ma'lum yo'nalishdagi ta'lim dasturlari doirasida o'rganilgan psixologiyaning turli sohalari xususiyatlarini hisobga olgan holda belgilanadi.

Psixologiya fanlari doktori B.T.Badmaev ham xuddi shu yondashuvga e'tibor qaratmoqda. U psixologiyani o'qitishda fundamental va amaliy psixologiya tarmoqlari tarkibining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi.

Shu nuqtai nazardan psixologiya fanini o‘qitishning maqsadi fundamental va amaliy psixologik bilimlarni o‘zlashtirishga, bu bilimlarni amaliy muammolarni hal qilish uchun qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirishga va tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak.

Fundamental psixologiya odamlarga xos bo'lgan aqliy hodisalarni, aqliy hayotning barcha sohalarida sodir bo'ladigan umumiy psixologik qonuniyatlarni o'rganishni o'z ichiga oladi.

Fundamental psixologiyaning tarmoqlariga umumiy psixologiya, shaxs psixologiyasi, differentsial psixologiya, psixofiziologiya, neyropsixologiya, ijtimoiy psixologiya, rivojlanish psixologiyasi, g'ayritabiiy rivojlanish psixologiyasi (yoki maxsus psixologiya), qiyosiy psixologiya va zoopsixologiya va boshqalar kiradi.

Amaliy psixologiya odamlar hayoti yoki kasbiy faoliyatining ayrim sohalariga xos bo'lgan psixologik muammolarni o'rganishni o'z ichiga oladi. Amaliy psixologiyaning tarmoqlariga ta'lim psixologiyasi, huquqiy psixologiya, iqtisodiy psixologiya, mehnat psixologiyasi, tibbiy psixologiya, badiiy psixologiya, din psixologiyasi, oilaviy psixologiya va boshqalar kiradi.

Rivojlanish psixologiyasini o'qitishning maqsadi - ontogenezda shaxsning aqliy rivojlanishini anglash va turli xil psixik jarayonlarning rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini o'rganish bo'yicha talabalarning malakasini shakllantirish.

Psixologiya tarixini o'qitish psixologiya rivojlanishidagi tarixiy bosqichlarni, turli tarixiy davrlardagi ilmiy kashfiyotlar bilan bog'liq voqealarni ochib berishga, psixologiya fanining hozirgi rivojlanish holatini tahlil qilishga qaratilgan.

Umumiy psixologiyani o'qitishning maqsadi psixologik fanlar tizimi mazmuni bilan tanishish uchun zarur bo'lgan psixika faoliyatining umumiy qonuniyatlarini o'zlashtirishdir.

Ijtimoiy psixologiyani o'qitishning maqsadi – odamlarning jamiyatda hamkorlikdagi ish faoliyatlari jarayoni davomida ularda hosil bo‘ladigan tasavvurlar, fikrlar, e’tiqodlar, g‘oyalar, his-tuyg‘ular, kechinmalar, turli xulq-atvor shakllarini o‘rganishdir.

Pedagogik psixologiyani o‘qitishdan maqsad – talabalarda kishiga ta’lim va tarbiya berishining psixologik qonuniyatlarini o‘rgatadi.

Yosh davr psixologiyasi – turli yoshdagi odamlarning tug‘ilgandan to umrining oxirigacha psixik rivojlanish jarayonini, shaxsning shakllanishi va o‘zaro munosabatlari qonuniyatlarini, individning yoshiga mos tarzda o‘zgarishi tamoyillarini o‘rganadi

Mehnat psixologiyasi – kishi iehgat faoliyatining psixologik xususiyatlarini, mehnatni ilmiy asosda tashkil etishning psixologik jixatlarini, qonuniyatlarini o‘rganadi

Muhandislik psixologiyasi – avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari operatorining faoliyatini, odam – texnika o‘rtasida funksiyalarni taqsimlash va muvofiqlashtirishning xususiyatlarini o‘rganadi.

Yuridik psixologiya – huquq tizimining amal qilishi bilan bog‘liq masalalarning psixologik asoslarini o‘rganadi

Harbiy psixologiya – kishining harbiy harakatlar sharoitida namoyon bo‘ladigan xulq – atvorini, zobitlar bilan oddiy askarlar o‘rtasidagi munosabatlarning psixologik jixatlarini o‘rganadi

Tibbiyot psixologiyasi – shifokor faoliyati psixologiyasini, bemor xulq – atvorining psixologik jixatlarini o‘rganadi.

Psixologiya fanlarini o'qitish metodikasining maqsadi ta'lim muassasalarida psixologik fanlarni o'qitishning maqsadi va mazmuni, shakllari va usullari to'g'risida bilimlar tizimini shakllantirishdir.

10.2. Psixologiya fanlarini o‘qitish metodikasining qonuniyatlari, o‘qitish tamoyillari

Oldingi paragrafda muhokama qilingan psixologiya fanlarini o‘qitishning belgilangan maqsadlariga yerishish uchun o‘qituvchi ma’lum qoida – tamoyillariga rioya qilishi kerak bo‘ladi.

Ta’lim tamoyillari o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishda g'oyalar, ilmiy asoslangan tavsiyalar, qoidalar, o'quv jarayonini tartibga soluvchi me'yorlardir.

Ta’lim tamoyillar nazariy va amaliy ta’limda maqsad, mazmun, metodlar, tashkil etish shakllari, o‘qitish vositalari va usullari, mehnat va tarbiyaviy faoliyat, ta’limning turli bosqichlari hamda pedagogik va mehnat jarayonlari, ta’lim oluvchilarning jamoaviy rivojlanishi va har birining alohida rivojlanishi o‘rtasidagi aloqadorliklarni aks ettiradi.

Ta’lim tamoyillarining tarixi shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchilar dars oldidan ko‘zlangan maqsadlariga ko‘p kuch va vaqt sarflamay aniq

yetishlari uchun, bir necha avlod olimlari izlanishlar olib borib, didaktika tamoyillari majmuasi yaratilishiga sababchi bo‘lgan. Bu sohadagi tajribalar shuni ko‘rsatadiki, qonuniyat turg‘un bo‘lib, ular asosida yaratilgan qonun va tamoyillar o‘zgarib turishi ham mumkin ekan. Ba’zi eski tamoyillar o‘rniga boshqa yangi tamoyillar kiritilishi mumkin ekan.

Psixologiya o‘qitish metodikasi psixologiya va didaktika fanlari asosida taraqqiy topgani uchun psixologiya o‘qituvchisi o‘z kasbiy faoliyatida o‘qitishning umumiy didaktik tamoyillariga asoslanishi lozim.

O‘quv adabiyotlarda olimlar yangi o'qitish tamoyillarini ishlab chiqishda Ya.A.Komenskiyning an'anaviy o'qitish tizimi tamoyillariga tayanishi qayd etilgan. U o'qitish mohiyati g'oyasiga asoslangan o'qitish tamoyillarining quyidagi tasnifini ishlab chiqdi:

1) onglilik va faollik prinsipi;

2) ko‘rgazmalilik prinsipi;

3) uzluksizlik va izchillik prinsipi;

4) mashq qilish va bilim, ko'nikmalarni mustahkamlash prinsipi.

Didaktika tadqiqotchilaridan ayrimlarining asarlarida turli tamoyillar tavsiya etilgan. Masalan, M.I.Skatkin uzluksiz ta’lim tamoyilini hisobga olib o‘qitishning mustaqil bilim olishga o‘tish tamoyili joriy etilishini taklif qiladi, shuningdek, o‘qishga ijobiy munosabatni shakllantirishga katta e’tibor berib, ta’lim ijobiy asosda olib borilishi tamoyilini maqsadga muvofiq deb biladi.

Yu.K.Babanskiy didaktikaning yangi yo‘nalishlaridan biri — optimallashtirish nazariyasini ishlab chiqib, mana shu nazariyaning amaliy yo‘nalishini aks ettiradigan uchta yangi tamoyilni tavsiya qiladi. Bular: 1) ta’limning og‘zaki, ko‘rsatmali va amaliy, reproduktiv va izlanishli, shuningdek, boshqa metodlari hamda usullarini to‘g‘ri birlashtirish; 2)ta’limning dars, darsdan tashqari, shuningdek umumsinf, guruhiy va yakka tartibdagi shakllarini to‘g‘ri birlashtirish; 3) ta’lim oluvchilarning o‘qishga ijobiy munosabatini kuchaytirish, ularda bilishga qiziqishni, bilimlarga ehtiyojni tarkib toptirishdan iboratdir.

Ta'lim muassasalarida psixologiyani o'qitishda I.V.Dubrovina quyidagi o'qitish tamoyillarini qo'llashni tavsiya qiladi:

- ilmiy o'qitish prinsipi;

- mavzular aro aloqadorlik tamoyili;
- nazariya va amaliyot o'rtasidagi bog'liqlik;
- ko‘rgazmalilik prinsipi;
- fanlararo muvofiqlashtirish prinsipi;
- mustaqillik va faollik prinsipi;
- mavjudlik prinsipi;
- bola va kattalar o'rtasidagi faol sub'ekt-sub'ektning o'zaro ta'siri prinsipi ;
- qiziqishni rag'batlantirish prinsipi;
- bag'rikenglik prinsipi;
- bolaning psixologiya bilimlarini anglash va o'zlashtirish qobiliyatiga so'zsiz ishonish prinsipi;
- o'quvchilarning bilimlari va aqliy rivojlanishi uchun o'qituvchining javobgarligi prinsipi.

G.A.Klyuchnikov va M.V.Popovalar psixologiyani o‘qitishni quyidagi prinsiplarni elgari suradilar:
- motivatsion tayyorlik prinsipi;
- rivojlanish prinsipi;
- sub'ektivlik prinsipi;
- psixologizatsiya tamoyili;
- psixologik g'oyalarni metaforizatsiya qilish;
- psixologik xavfsizlik

10.3.V.N.Karandashev bo‘yicha ta’lim tamoyillari

V.N.Karandashevning fikriga ko'ra, oliy o'quv yurtida psixologiyani o'qitish jarayonini tashkil qilish, o'qitishning quyidagi tamoyillariga amal qilish kerak.
- ilmiylik tamoyili;
- izchillik tamoyili;
- aqliy va hissiy birlik tamoyili;
- psixologiyaning fan va shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning birligi tamoyili;
- nazariy va empirik bilimlarning birligi tamoyili;
- tushunarlilik tamoyili;
- ko‘rgazmalilik tamoyili;
- mashg‘ulotlarda faollik tamoyili;
- hayot va amaliyot bilan bog‘liqlik tamoyili;

- ta’limning rivojlantiruvchi xarakteri tamoyili.

V. N. Karandashev tomonidan taklif etilgan ta’lim tamoyillarini batafsilroq ko‘rib chiqaylik.

Ilmiylik tamoyili o‘rganilayotgan o‘quv materiali ilmiy va amaliy psixologiyaning zamonaviy yutuqlariga, obyektiv ilmiy faktlar, nazariyalar va qonunlarga mos kelishini nazarda tutadi. Psixologiyani o'qitishda ilmiylik prinsipga rioya qilish shuni anglatadiki, talabaga berilgan ma'lumotlar dalillarga asoslangan bo'lishi lozim, bu psixologik tadqiqotning tegishli usullaridan foydalanish orqali erishiladi.

Izchillik tamoyili o'quv materialining ma'lum bir ketma-ketlik va mantiqiy asosda o'rganilishini nazarda tutadi. Shu bilan birga o‘quvchilarga turli psixologik nazariyalar, tushunchalar va qonuniyatlar munosabatlari ko‘rsatiladi. O‘rganilayotgan material mantiqiy bo‘limlar va mavzularga bo‘linadi, ular bilan ishlash tartibi va metodikasi belgilanadi, har bir mavzuda asosiy tushuncha va g‘oyalar yoritiladi hamda nazariyalar va faktlar o‘rtasidagi bog‘lanishlar o‘rnatiladi.

Aqliy va hissiy birlik tamoyili psixologik fakt va hodisalarga qiziqishni shakllantirishda muhim ahamiyatga yega. Bu tamoyilning amalga oshirilishi o‘quvchilarning o‘quv maqsadi, shu mavzuni o‘rganish zarurligi va uning shaxsiy yoki kasbiy ahamiyatini bilishlarini nazarda tutadi. Bu tamoyilga muvofiq, o‘qitish psixologiyasi nafaqat talabalarni ular uchun zarur va foydali yekanligini ishontirishga, balki hissiy jihatdan boy va informatsion o‘quv materialini tanlashga ham asoslanadi.

Psixologiyani fanga va shaxsga yo'naltirilgan **o'qitishning birligi tamoyili** psixologiya darslarini tashkil etishning fan va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlarining asosiy qoidalarini amalga oshirishni talab qiladi. Psixologiyani o'qitishda ushbu prinsipga rioya qilish taqdim etilgan o'quv materialining obyektivligini va talabalar uchun shaxsiy ahamiyatini talab qiladi.

Nazariy va empirik bilimlarning birligi tamoyili konkret va mavhumlikning birligi didaktik tamoyilini konkretlashtirishdan iborat. Bu tamoyilga muvofiq, psixologiyani o‘qitishda nazariy g‘oyalarning tavsifini, ularning mantiqiy asoslarini aniq yempirik faktlar, ularni ko‘rsatuvchi aniq misollar bilan oqilona birlashtirish zarur. Bu tamoyil

nazariy mulohazalarni aniq faktlar va misollar bilan tushuntirishni talab qiladi.

Tushunarlilik prinsipi - ta’lim mazmuni va metodlar talabalarning individual va yosh xususiyatlari, ehtiyojlari, rivojlanish, tayyorgarlik darajasi bilan o'zaro bog'liqligidir. Ushbu prinsipni amalga oshirish oddiydan murakkabga, osondan qiyinga, ma'lumdan noma'lumga o'tishni ta'minlaydi.

Ko‘rgazmalilik tamoyili tushunishning eng muhim psixologik asosi bo‘lgan ko‘rgazmali (obrazli) va og‘zaki mazmun birligini nazarda tutadi. Tasviriy obrazlar psixologiyani o‘qitishda muhim ahamiyatga ega bo‘lganligi sababli, bu tamoyilga muvofiq, axborotni ko‘rgazmali taqdim yetish va har xil ko‘rgazmali ravishdan (og‘zaki, badiiy, ko‘rgazmali, amaliy) foydalanish lozim.

Ko‘rgazmalilik tamoyili psixologiya fanlarini o‘qitishda o‘qitishda eng muhim hisoblanadi, bu yerda u vizualizatsiya tamoyili holatiga o‘tadi. Psixologiyani o‘qitishda ko‘rgazmalilik (vizualizatsiya)ni amalga oshirish o‘rganuvchiga taqdim etilgan axborotni yaxshiroq tushunish va eslab qolishga yordam beradi hamda miyaning murakkab narsani yaxlit sifatida idrok etish bo‘yicha imkoniyatlarini kengaytirishga imkon beradi.

Faollik tamoyili bilimlarning samarali o‘zlashtirilishi faol o‘quv-biluv faoliyatida yuz berishi kerak. Ushbu tamoyilni amalga oshirish psixologik bilimlarga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish, ta'limning dialogik shaklini rivojlantirish, o'qitishda muammoli yondashuvni qo'llash, o'qitishning amaliy usullaridan foydalanish (o'quv tajribalari, test sinovlari, psixologik treninglar va boshqalar shaklida) yordamida amalga oshiriladi.

Hayot va amaliyot bilan bog‘liqlik tamoyili psixologiya fanlarini o‘qitish jarayonini amaliyot bilan bog‘lab olib borish, darslar mavzusi bo‘yicha hayotiy misollar, faktlardan keng foydalanish, ta’lim oluvchilarning o‘rganayotgan bilimlarini turli hayotiy vaziyatlarda amalda qo‘llay oladigan bo‘lishlarini ta’minlab borishga xizmat qiladi.

Ta’limning rivojlantiruvchi xarakteri tamoyili o‘quv jarayonini birinchi navbatda o‘quvchi shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirishni nazarda tutadi. Ushbu tamoyilga muvofiq psixologiyani o'qitishning natijasi nafaqat psixologik nazariyalar, tushunchalar, aqliy qonuniyatlarni bilish, balki o'quvchilar shaxsining rivojlanishi, boshqa

odamlar va o'zining ichki dunyosini anglashi, o'z-o'zini bilish va o'zini rivojlantirish usullarini o'zlashtirish, ularning ta'lim va kognitiv faoliyatini takomillashtirish yo'llarini o'zlashtirishdir.

11.4. Eng muhim didaktik tamoyillar va oliy ta’limda o‘qitish tamoyillari

Pedagogika fanida aniqlangan va qo'llanib kelinayotgan ta’limning umumiy prinsiplariga oliy ta ’lim jarayonida ham amal qilinadi[1].

Bular:

— o‘quv dasturlari, darsliklardagi bilimlarni ongli o‘zlashtirish prinsipi;

— faollik prinsipi, talabaning faoliyatiga tayanib o ‘qitish prinsipi;

— oliy ta’limning mazmuni, shakl-usullari talabaning yosh xususiyatlariga mosligi;

— bilimlarni o‘zlashtirish va malakalami egallashda izchillik va tizimlilikka rioya qilish;

— ta’limning amaliyot bilan, ishlab chiqarish bilan chambarchas bog‘liqligi;

— ko‘rsatmalilik, axborot texnologiyalari va texnik vositalardan foydalanish prinsipi.

Psixologiya fanlarini o‘qitish tamoyillari va oliy ta’limda o‘qitish tamoyillari tahlili quyidagi xulosalarni chiqarishga imkon beradi:

1. Psixologik-pedagogik adabiyotlarda o'qitish tamoyillarining xilma-xil tasniflari mavjud bo'lib, bu ma'lum bir tarixiy davrda fan va ta'limning rivojlanish darajasi, talabalarning yoshi va individual xususiyatlari bilan bog'liq.

2. Psixologiyani o'qitishda o'qitishning umumiy didaktik tamoyillari bilan bir qatorda psixologlar tomonidan ishlab chiqilgan psixologiyani o'qitish tamoyillarini ham hisobga olish kerak.

3. O'qitish tamoyillarini tizimli ravishda amalga oshirish o'qituvchiga psixologiyani o'qitish jarayonini qonunlariga muvofiq ravishda tashkil etish, uning samaradorligini ta'minlash va belgilangan maqsadlarga erishish imkoniyatini beradi.

[1] M.Ochilov, N.Ochilova. Oliy maktab pedagogikasi. Darslik. -T., «Aloqachi», 2008, 7-bet,

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savollar hamda topshiriqlar:

1. Psixologiya fanlarini o‘qitish metodikasining predmeti haqida ma’lumot bering.

2. Psixologiya fanlarini o‘qitish metodikasining maqsad va vazifalarini tushuntiring.

3. Ta'lim tamoyillarining turlicha tasniflanishiga nima sabab bo'ldi?

4. Sizga ma'lum bo'lgan o'qitish tamoyillari tasniflarini sanab o'ting.

5. O'qitishning umumiy didaktik prinsiplari qaysilar?

6. Psixologiya kursini tuzishga qaysi tamoyillar asos bo‘ladi?

7. Psixologiya fanlarini o‘qitish metodikasining qaysi qonuniyatlari mavjud?

8. V.N.Karandashev ta’lim tamoyillarini tasnifini tushuntiring.

9. Oliy maktabda o‘qitish tamoyillari haqida ma’lumot bering.

10. Psixologiyani o'qitish jarayonida o'qitish tamoyillarini amalga oshirishning o'ziga xos xususiyati nimada?

11-MAVZU. DARS O‘QUV FAOLIYATINI TASHKIL ETISH SHAKLI SIFATIDA

Tayanch so‘zlar: *o‘quv faoliyati, dars, dars tiplari, aralash dars, yangi materiallarni o‘rganish darsi, bilimlarni mustahkamlash, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish darsi, umumlashtirish va tizimlashtirish, bilim, mahorat va ko‘nikmalarni nazorat qilish va tuzatish darsi*

11.1.O‘quv faoliyatini tashkil etish shakllari

Oliy va professional ta’lim muassasalarida psixologiyada o‘qitishning xilma-xil turlari va shakllari mavjud. Shu munosabat bilan oliy va o‘rta ta’lim uchun o‘qituvchi hisobga olishi kerak bo‘lgan muayyan terminologik an’analar mavjud.

Oliy ta’limda o'quv jarayonini tashkil etish ta’lim (mutaxassislik) yo'nalishi bo'yicha davlat ta'lim standarti, o‘quv reja, namunaviy fan dasturlari asosida tashkil etiladi. Oliy ta’lim muassasasi Nizomi asosida tamustaqil ravishda oliy o'quv yurti tomonidan ishlab chiqiladigan o'quv mashg'ulotlari jadvali (o‘quv jarayoni grafigi) bilan tartibga solinadi.

Talabalar kunduzgi, sirtqi, sirtqi (kechki) shaklda yoki tashqi o'qitish shaklida o'qitiladi.

Oliy o'quv yurtida o'quv yili 3 sentyabr kuni kunduzgi va sirtqi (kechki) talabalar uchun boshlanadi va ishchi o'quv dasturiga muvofiq tugaydi. U ikki semestrga bo'linadi. Semestr davomida o'quv mashg'ulotlari har xil omillarga qarab ozmi-ko'pmi barqaror bo'lishi mumkin bo'lgan haftalik jadval asosida tashkil etiladi. Akademik dars soatining davomiyligi universitet tomonidan belgilanadi, odatda mashg‘ulot davomiyligi 80 daqiqa bo‘ladi. Oliy ta’im nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni o'z ichiga oladi. Mashg‘ulotlar ta’lim muassasalarida o'qituvchining rahbarligi ostida o'tkazilishiga qarab ikki turga bo‘linadi: auditoriya mashg‘ulotlari va mustaqil ta’lim mashg‘ulotlari.

Auditoriya mashg‘ulotlarining asosiy turlari ma'ruzalar, seminarlar, amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya ishlari, konsultatsiyalar.

Talabalarning mustaqil o'quv faoliyati seminarlar va amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik, ilmiy adabiyotlarni o'rganish iishlarni o'z ichiga oladi. O‘quv ishlarining muhim turlariga ilmiy-tadqiqot ishlari,

referatlar yozish, kurs ishi va bitiruv malakaviy ishlarni yozish, malakaviy amaliyotlar ham kiradi. Oliy ta'lim muassasasi boshqa o'quv turlarini ham tashkil qilishi mumkin.

Har bir semestr oxirida yakuniy nazorat jarayonida talabalar semestr davomida o'qigan fanlari bo'yicha kreditlar va imtihonlarni topshiradilar.

Sirtqi o'qish shaklida talabalar o'quv dasturining o'quv materialini kunduzgi shaklda bo'lgani kabi bir xil hajmda o'rganadilar, ammo nazariy ta’limdan ko‘ra mustaqil ta’limning hajmi ko‘proq bo‘ladi. Sessiyalar har semestrda o'tkaziladi.

Psixologik fanlarini o‘qitishda **ma'ruza** o'qitishning monologik shakli hisoblanadi. An'anaviy ma'ruzalarning o'ziga xos xususiyati shundaki, o'qituvchi faol, talabalar nisbatan passiv, ularning faoliyatining tashqi ko'rinishlari juda kam (ular asosan tinglashadi). Ma'ruzaning an'anaviy funksiyalari: 1) axborot uzatish, 2) tizimlashtirish va 3) tushuntirish. O'qituvchi ma'ruza davomida yangi bilimlarni tizimli ravishda etkazadi, shuningdek, o'quv kursining eng qiyin masalalarini tushuntiradi. Ma'ruzalar ham rag'batlantiruvchi va rivojlantiruvchi funksiyaga (4) ega bo'lishi mumkin. Ma'ruzalar juda murakkab o'quv tshaklidir, shuning uchun ularni o'tkazish ko'pincha eng tajribali o'qituvchilarga topshiriladi. Ushbu turdagi mashg‘ulotlarni tayyorlash va o'tkazishda odatda yosh o'qituvchilar eng katta qiyinchiliklarga duch kelishadi.

Psixologiya fanlarini o‘qitishda **seminar** ma’ruzadan farqli ravishda, talabalarning o‘quv materialini muhokama qilishdagi ishtirokini o‘z ichiga oladi. Ularning faoliyat shakllari har xil bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, seminar mashg‘ulotida talabalar gapirishi va o‘qituvchi bu jarayonni boshqarishi zarur. O‘quv jarayonidagi seminarlar quyidagi vazifalarni bajaradi: 1) bilimlarni mustahkamlash; 2) bilimlarni kengaytirish; 3) mustaqil ish ko‘nikmalarini rivojlantirish; 4) aqliy faoliyatni rag‘batlantirish. Seminarlarda talabalar ma’ruza yoki kitoblardan olingan bilimlarni qayta hikoya qilish yoki muhokama qilish jarayonida mustahkamlash imkoniga ega bo‘ladilar. Seminar mashg‘ulotlariga tayyorgarlik ko‘rish axborotni mustaqil qidirish va qayta ishlash qobiliyatini rivojlantiradi. Talabalarning aqliy faoliyatini faollashtirish darajasiga qarab seminarlarni tashkil yetish shakllarini ikki turga bo‘lish mumkin: 1) reproduktiv va 2) produktiv.

Seminar mashg‘ulotlarni tashkil yetishning reproduktiv turi, birinchi navbatda, o‘quvchilarning eslab qobiliyatlarini faollashtirishadi. Talabalar o‘tilgan ma’ruza, darslik yoki boshqa manbalar asosida aniq o‘quv materialini yeslab qolishlari va qayta so‘zlab berishlari kerak bo‘ladi..

Seminar mashg‘ulotlarni tashkil yetishning produktiv turi o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini faollashtirishni o‘z ichiga oladi. Talabalar yeshitgan yoki o‘qigan materiallar va tayyorlagan savol va topshiriqlarni ma’lum bir tarzda taqqoslaydilar, tahlil qiladilar, umumlashtiradilar, tanqidiy baholaydilar va xulosa chiqaradilar.

Psixologiya fanidan **amaliy mashg‘ulot**, seminardan farqli ravishda,o‘quv materialini muhokama qilibgina qolmay, balki ma’lum amaliy vazifalarni bajarishni o‘z ichiga oladi. Bunday vazifalar tizimi ko‘pincha amaliyot deb ataladi. Psixologiya fanidan amaliy mashg‘ulotlar ta’lim jarayonida quyidagi vazifalarni bajarishi mumkin: 1) nazariy bilimlarni amaliyotda mustahkamlash; 2) tadqiqot ishlari ko‘nikmalarini o‘zlashtirish; 3) amaliy psixologik ishlar ko‘nikmalarini o‘zlashtirish; 4) nazariy bilimlardan amaliy muammolarni yechish uchun qo‘llash; 5) o‘z-o‘zini bilish; 6) o‘z-o‘zini rivojlantirish.

Amaliy mashg‘ulotlar uchun eng tipik vazifalar quyidagilardan iborat: 1) namoyish yeksperimenti; 2) individual vazifalar; 3) guruh vazifalari; 4) juftlik(kichik guruhlar)da tajriba; 5) psixologik muammolarni yechish; 6) munozara.

Laboratoriya ishi amaliy mashg‘ulot turlaridan biri hisoblanadi. Laboratoriya mashg‘ulotlarida maxsus uskuna va qurilmalardan foydalanish mumkin. Laboratoriya mashg‘ulotlari ko‘pincha, hissiyot, idrok, xotira va tafakkur kabi bilish jarayonlarini o‘rganishda o‘tkaziladi.

Konsultatsiya mashg‘ulot turi sifatida o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi suhbat bo‘lib, unda talabalar ta’lim jarayoni bilan bog‘liq ayrim masalalar yuzasidan o‘qituvchidan maslahat va tushuntirishlar so‘rashadi. Konsultatsiya talaba bilan yakka tartibda yoki o‘quvchilar guruhi bilan o‘tkazilishi mumkin. Konsultatsiya turli maqsadlarga ega bo‘lishi mumkin. Misol uchun, talabalarni imtihonlarga tayyorlash vaqtida konsultatsiyalar o‘tkaziladi va bu kurs bo‘yicha talabalar bilimini umumlashtirishga ko‘maklashadi. Referat, kurs ishi vabitiruv

malakaviy ishlarni yozishdan oldin ham konsultatsiyalar o‘tkazish mumkin.

Talabalarning mustaqil ta’limi adabiyotlarni mustaqil o‘qish, ma’ruza, seminar va amaliy mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ko‘rish, referat, kurs ishi va bitiruv malakaviy ishlarni tayyorlashni o‘z ichiga oladi. Ular mustaqil ta’lim olish faoliyati sifatida quyidagi maqsadlarga yo‘naltirilgan bo‘lishi mumkin:

1) ayrim mavzular bo‘yicha psixologik bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish;

2) amaliy masalalarni yechish uchun ushbu bilimlardan foydalanish ko‘nikmalarini o‘zlashtirish;

3) psixologik tadqiqot ko‘nikmalarini o‘zlashtirish;

4) amaliy psixologik ish ko‘nikmalarini o‘zlashtirish;

5) o‘z-o‘zini anglash va o‘z-o‘zini rivojlantirish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Ma’ruzaga tayyorgarlik. Istalgan fan mazmunini o‘zlashtirish fan bo‘yicha tayyorlangan ishchi dasturda belgilangan mavzularni aniq ketma-ketlikda o‘rganib, tahlil qilib borish orqali erishiladi. Professor-o‘qituvchilar tomonidan tayyorlangan o‘quv-uslubiy majmualar takibida mavzular bo‘yicha ma’ruzalar matnining mavjudligi,shuningdek ular tomonidan tayyorlangan darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar talabalarga bo‘lajak ma’ruza mazmunini anglash va ma’ruza jarayonida savollar bilan faol ishtirok etish imkoniyatini yuzaga keltiradi. Talabalarning 2 soatlik ma’ruza mashg’ulotiga tayyorgarlik vaqti 0,2 s dan kam bo‘lmasligi lozim.

Amaliy mashg’ulotga tayyorgarlik. Amaliy mashg’ulotlar - maxsus jihozlangan xona yoki alohida ajratilgan tajriba maydonida tashkil etilib, tahsil oluvchilarda ular tomonidan o‘zlashtirilgan nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llay olish ko‘nikma va malakalarini hosil qilishga yo‘naltirilgan ta’lim shakli. Amaliy mashg’ulotga tayyorgarlik o‘zida mustaqil faoliyatning: amaliy mashg’ulotni o‘tkazishning maqsad va vazifalari haqida aniq tassavurga ega bo‘lish, aqliy, tahliliy, ilmiy faoliyat ko‘nikmalarini ajratish kabi elementlarini qamrab oladi.

Amaliy mashg’ulotga tayyorlanishda talabalar uyda ilmiy hamda o‘quv adabiyotlardan foydalangan holda, mashg’ulot uchun mavzuga oid 3-4 ta tadqiqot vazifalarini belgilab olishlari zarur. Bu o‘z navbatida

amaliy mashg’ulotda bajarilishi lozim bo‘lgan ishlarni aniq ketma-ketlikda bajarish va maqsadga erishish imkoniyatini hosil qiladi.

Seminar mashg’ulotiga tayyorgarlik. Seminarga mustaqil tayyorgarlik quyidagilarga yo‘naltirilgan bo‘ladi:

- ilmiy yoki boshqa adabiyotlarni o‘rganish qobiliyatini rivojlantirishga;

-ba’zi masalalarni chuqurroq tushunishga doir qo‘shimcha axborotlarni izlashga;

-mavjud axborot manbalaridan mashg’ulot mavzusi bo‘yicha soha vakillari, olimlarning fikrlarini to‘g’ri tanlay olish va bibliografik me’yorlar asosida rasmiylashtirish ;

-tanlangan axborot manbalarini tahlil qila olish ko‘nikmalarini rivojlantirishga;

-muhokama qilinadigan savollar bo‘yicha o‘z chiqishlarini tayyorlash;

- muhokamada u yoki bu muammolarni tahlil qilishdagi turli fikrlarga nisbatan tezkor munosabatni bildirish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Seminar-konferensiyaga tayyorgarlik. Seminar-konferensiya semestr davomida 1-3 marta o‘tkaziladi. Chunki talabalar bu mustaqil ish faoliyatiga ma’lum vaqt davomida tayyorgarlik ko‘rishlarini taqozo etadi. Uni tashkil etishda seminar mashg’uloti hamda ilmiy konferensiya shakllari uyg’unlashadi. Bunda turli tadqiqodchilarning ma’lum bir yo‘nalish yoki muammo yuzasidan dokladlari tinglanadi. Seminar - konferensiyaga mustaqil tayyorgarlik ko‘rishda talabalardan muhokama qilinadigan muammoning nazariy jihatlari yoritilgan hamda eksperimental tadqiqotlar natijalari qayd etilgan 2-3 manba (monografiya, maqolalar) mazmunini o‘rganishlari talab etiladi.

So‘zga chiquvchi o‘z dokladi mavzusi bo‘yicha barcha beriladigan savollarga javob berishga tayyor bo‘lishi kerak. Har bir chiqishdan so‘ng turli tadqiqotchilar tomonidan taqdim etilgan ilmiy fikrlarning muhokamasi amalga oshiriladi.

Joriy, oraliq, yakuniy nazoratga tayyorgarlik. Ta’lim sohasida erishilgan yaxshi natijalar yoshlar tarbiyasiga ham ta’sir ko‘rsatadi, ularda ko‘tarinki ruh, o‘z kuchiga bo‘lgan ishonch va qiziqish paydo bo‘ladi. Shuning uchun ham ta’lim natijalarini nazorat qilish va baholash ta’lim tizimining ajralmas qismidir.

Har bir fan bo‘yicha talabalarning o‘quv faoliyatini nazorat qilish va baholash muntazam ravishda olib boriladi.

Joriy nazorat – bu ta’lim jarayonida talabalar tomonidan o‘quv dasturida belgilangan muayyan mavzularni o‘zlashtirilish bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini aniqlash, baholash shakli. Bu nazorat o‘qituvchi tomonidan o‘tkazilib, talabalarning bilim darajasini aniqlash fanning har bir mavzusi bo‘yicha kundalik ballar qo‘yib borishni nazarda tutadi.

Oraliq nazorat o‘quvchilar tomonidan o‘quv materialining muayyan bob yoki bo‘limlari bo‘yicha o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini aniqlash, baholash shakli.

Yakuniy nazorat – ta’lim oluvchilarning yarim yillik uchun belgilangan o‘quv materiallari bo‘yicha o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini aniqlash, baholash shakli bo‘lib, o‘rganilgan mavzular bo‘yicha yozma, og’zaki, test shaklida o‘tkaziladi.

Nazorat ishlariga mustaqil tayyorlanish talabalar uchun muhim hisoblanib, ular muayyan mavzular bo‘yicha qo‘shimcha internet materiallari, xorijiy adabiyotlardan foydalanishlari natijasida o‘rganilayotgan mavzu, bo‘lim, kurs bo‘yicha bilimlarni mustahkamlashga erishadilar.

Referat (lot. refere —axborot berish) - yangi ma’lumotlar va axborotlar olish maqsadida ilk manba matnini mustaqil o‘zgartirish hamda ijodiy anglash mahsuli hisoblanadi.

Referat turlari:

- referat-konspekt, ma’lum mavzu bo‘yicha faktik materialni bayon etish;
- referat-rezyume, aynan bir mavzuning asosiy tushunchalarini ifodalash;
- referat-obzor, ma’lum masala yuzasidan turli manbalar asosida har xil nuqtai nazarlarni taqqoslab ifodalash ;
- referat-doklad, muammoni obyektiv baholash
- referat-fragment, ilk manba mazmunini o‘zida aks ettiruvchi biron bir qism, bo‘lim yoki fragment(bo‘lak) ajratilib ifodalanadi

Referatni bajarish tartibi:

1) mavzuni tanlash

2)mavzu mazmunini o‘zida aks ettirgan manbalarni aniqlash;

3) manbalardan ajratib olingan materiallarni o‘rganish, tizimlashtirish va qayta ishlash;

4) rejani tuzish;

5) referatni yozish:

-tanlangan mavzuning dolzarbligini asoslash;

- referat tayyorlanayotgan matn (nomlanishi, qaerda va qachon chop etilgan) hamda avtori (F.I.O, mutaxassisligi, ilmiy darajasi va unvoni) haqidagi ma’lumotlarni taqdim etish;

-tanlangan mavzu muammosini shaklantirish;

-tanlangan mavzudagi asosiy tezislar va ularni asoslovchi g’oyalar mazmunini keltirish;

-referat maqsadidan kelib chiqgan holda rejalarda belgilangan muammolar bo‘yicha umumiy xulosalar chiqarish.

Referatni bajarish quyidagi natijalarga erishiladi :

-talabalar axborotlarni qabul qilish, tahlil etish, umumlashtirish hamda tizimlashtirish orqali ma’lum maqsadlarni qo‘yib, uning echimini izlash yo‘llarini tanlash ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.

- yozma hamda og’zaki nutqlarini mantiqiy to‘g’ri, asoslangan holda aniq bayon etish qobiliyatlarini rivojlantiradilar.

Kurs ishlari. Kurs ishi talabaning mustaqil ilmiy ishi bo‘lib, o‘quv rejasining maxsus va ixtisoslik fanlari bo‘yicha olingan amaliy ko‘nikma va tadqiqot natijalarini tanlangan mavzu doirasida aks ettirishi hisoblanadi. Kurs ishini yozishda talaba quyidagilarni ko‘rsatishi kerak: adabiyotlar bilan ishlash ko‘nikmalari, normativ-huquqiy va mavzu doirasidagi manbalarni tahlil qila olish va ongli xulosalar chiqara olish. Kurs ishini bajarilishini nazorat qilish, kurs ishi himoyasini ko‘rib chiqish va tashkil etish kafedra zimmasiga yuklatiladi. Talabalarga ilmiy maslahat va uslubiy yordam ko‘rsatish uchun kafedra ilmiy rahbar ajratadi, u kurs ishining tayyorlik darajasini belgilaydi.Tanlangan mavzu ustida ishlash talabadan tadqiqot metodologiyasi, ijodiy fikrlash, bahslashish va taqdimot mantiqi, muammoga shaxsiy munosabat, mehnatsevarlik va professionallik asoslarini bilishi talab etadi. Kurs ishini yozish jarayoni bir qator o‘zaro bog‘liq bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1. Mavzu tanlash va ish rejasini ishlab chiqish.
2. Adabiyotlarni to‘plash va o‘rganish.

3. Tanlangan mavzu bo‘yicha materiallarni ishlab chiqilgan rejaga muvofiq to‘plash va tahlil qilish.

4. Asosiy nazariy qoidalar, amaliy xulosalar va tavsiyalarni shakllantirish.

5. Kurs ishini rasmiylashtirish.

6. Ilmiy rahbar tomonidan taqriz berish.

7. Kurs ishini himoya qilish.

Pedagogika va psixologiya ta’lim yo‘nalishi 2-, 3-va 4-kurs talabalari psixologik fanlaridan kurs ishlarini bajarish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishi – oliy o‘quv yurti bakalavriatida talabalarni o‘qitishnining yakuniy bosqichidir. Bitiruv malakaviy ishida talabaning oliy o‘quv yurtida o‘qish davomida to‘plagan barcha nazariy va amaliy bilimlari yuzaga chiqadi, talabaning nazariy bilimlar bilan qurollanish darajasi, uning olgan bilimlari va ko‘nikmalarini ilmiy-ishlab chiqarish vazifalarini echishga qay darajada qo‘llay olishi namoyon bo‘ladi. Bitiruv malakaviy ishini bajarish talabadan universitetda olgan nazariy va amaliy bilimlardan foydalanishni talab etadi, talabaning o‘qish davomida olgan bilimlarini umumlashtirishga, chuqurlashtirishga va mustahkamlashga, ularni amaliyotga qo‘llashga imkon beradi.

Bitiruv malakaviy ishida aniq bir amaliy vazifani yechish vazifasi qo‘yilishi muhimdir. Bitiruv malakaviy ishida bir yoki bir-biri bilan bog‘langan bir nechta masalalarni chuqur tadqiq etish va tegishli tavsiyalarni ishlab chiqish talabaning muammoni mustaqil ko‘ra bilishi va hal eta olishga qodirligini ko‘rsatadi. Bitiruv malakaviy ishining sifati uning ilmiyligi, tanlangan mavzuning dolzarbligi, talabaning mustaqil ishga ijodiy yondoshish ko‘nikmalarini namoyon qila olishi bilan baholanadi.

Bitiruv malakaviy ishini bajarilish darajasi, sifat va undan ko‘rib chiqilgan masalalarning qanday darajada o‘zlashtirilganligiga ko‘ra Davlat Attestatsiya komissiyasi bitiruv malakaviy ishi muallifiga tegishli ixtisoslikni berish to‘g‘risidagi qaror qabul qiladi.

Bitiruv malakaviy ishini bajarish jarayonida talabalar quyidagilarga e’tibor berishi lozim:

- voqelikni o‘rganish va anglashning ilmiy usullaridan boxabar bo‘lish;

- mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar mohiyati va mazmunini chuqur anglash, davlatning ta’lim siyosati tamoyillari bilan yaqindan tanishish;

- ta’lim va tarbiya borasida qabul qilingan Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, me’yoriy-huquqiy hujjatlarni o‘rganib chiqish;

- ilmiy adabiyotlar va boshqa manbalar orqali o‘rganilayotgan masalaning mohiyatini chuqur anglab etish;

- mustaqil ilmiy-tadqiqotlar olib borish uslubiyoti bilan tanishish;

- aniq bir muassasa misolida mavzuni ochib berishga xizmat qiladigan barcha ma’lumotlarni to‘liq yig‘ish va qayta ishlash;

- ishda ilmiy-tadqiqot muassasalari tavsiyalari, ilg‘or tajribalar, mahalliy va xorijiy adabiyotlardan unumli foydalanish;

- ishning ilmiy saviyasi yuqori bo‘lishiga, mavzuning yetarlicha dolzarbligiga e’tibor berish;

- o‘rganilayotgan masalani aniq ochib berish, ishda ko‘chirmachilikka, keraksiz va ortiqcha ma’lumotlardan foydalanishga yo‘l qo‘ymaslik;

- boblar va bo‘limlarning mantiqan bog‘lanishiga e’tibor berish, fikrlarni qisqacha bayon etish orqali ishning hajmi ortib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik;

- masalani aniq dalillar va raqamlar yordamida tahlil etish, o‘z o‘rnida ishning mazmunidan kelib chiqadigan tavsiyalar va xulosalar bera olish;

- tavsiya etilayotgan echimlarning asoslanganligiga va samaradorligini baholash mezonlari bo‘lishiga e’tibor berish, ishning faqatgina faktlarni quruq bayon etishdan iborat bo‘lib qolishiga yo‘l qo‘ymaslik;

- ishda ko‘rgazmali vositalardan, ya’ni jadvallar, chizmalar, diagrammalar va grafiklardan unumli foydalanish;

- mavzu ustida maqsadga yo‘naltirilgan va tizimga solingan ish olib borish, bitiruv malakaviy ishini bajarish muddatlariga qat’iy rioya etish.

Bitiruv malakaviy ishida taklif va muloxazalar, xulosalar va amalga oshirilgan barcha hisob-kitoblarning to‘g‘riligi va sifati uchun talabalar ma’sul hisoblanadilar.

Pedagogika va psixologiya ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejalarida **malakaviy va pedagogik amaliyotlar** joy olgan.

Malakaviy amaliyot – bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashda o‘quv-pedagogik jarayonining asosiy qismi hisoblanadi. Malakaviy amaliyot namunaviy va ishchi o‘quv rejasiga mos ravishda amalga oshiriladi. Malakaviy amaliyotning mazmumni amaliyot turiga qarab, kafedrada ishlab chiqilgan dasturiga mos bo‘ladi. Malakaviy amaliyot o‘quv mashg‘ulotlaridan ajralgan holda tashkil etiladi. Malakaviy amaliyotni talabalar oliy ta'lim muassasasi bilan shartnoma tuzilgan tashkilotlarda o‘tashlari mumkin. Ayrim hollarda bitiruvchi kurs talabalari o‘zi ishlashni rejalashtirayotgan ta'lim muassasalarida faol malakaviy amaliyotni o‘tashlari mumkin. Talabalarning malakaviy amaliyotni o‘tash joylari oliy ta'lim muassasasi rektori tomonidan chiqarilgan buyruq asosida tashkil etiladi.

Malakaviy amaliyot maqsadi - bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash, olgan bilimlarini amaliyotda sinab ko‘rish, pedagogik va kasbiy faoliyat ma'suliyatini his etish va o‘z ustida ishlash ko‘nikmasini shakllantirish, shuningdek, tajribali mutaxassislarning ish faoliyatini o‘rganishdan iborat.

11.2. Dars tiplari. Maxmutov bo‘yicha dars tiplari

Zamonaviy maktablarda ta'limning tashkil etishning asosiy shakli dars hisoblanadi. Dars o‘quvchilarni nafaqat o‘quv-biluv faoliyatini samarali tashkillashni, balki o‘quvchilar faoliyatini rivojlantirish imkoniyatiga ham ega.

«Dars—aniq maqsadni ko‘zlab belgilangan vaqtda bir xil yoshdagi o‘quvchilar bilan o‘qituvchi rahbarligida olib boriladigan mashg‘ulotdir»-deb ta'kidlanadi Sh.Abdullayeva va boshqalarning o‘quv qo‘llanmasida.

O.Roziqov va boshqalar tomonidan yaratilgan “Didaktika” darsligida «Bir xil tayyorgarlikka ega, yoshlari teng o‘quvchilarning doimiy jamoasi bilan ma'lum xona, tartib, jadval asosida o‘tkaziladigan mashg‘ulotga dars deyiladi» —deb ta'kidlanadi.

Yuqoridagi ta'riflar tahlilidan ko‘rinadiki, darsning mohiyati, darsda o‘qituvchi va o‘quvchilarni o‘zaro ta'siri natijasida o‘quvchilar bilim, malaka, ko‘nikmalarni o‘zlashtiradi, qobiliyatlari rivojlanadi hamda darsda o‘qituvchining pedagogik mahorati shakllanadi. Dars ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, uning barcha komponentlari (darsning

maqsadi, mazmuni, metodi) o‘zaro aloqadordir.



Odatda dars quyidagi ta'lim shakllarini va tegishli didaktik vazifalarni hal qilishni o'z ichiga oladi:

1) uy vazifasini tekshirish va o‘tgan mavzuni takrorlash;

2) yangi o'quv materialini tushuntirish;

3) yangi materialni mustahkamlash.

Ushbu didaktik muammolarni hal qilish ketma-ketligi boshqacha bo'lishi mumkin. Kombinatsion (aralash) darsning an'anaviy rejasi quyidagi fikrlarni o'z ichiga oladi:

1) tashkiliy qism;

2) uy vazifasini tekshirish;

3) ilgari o'tgan materiallarni so'rsh;

4) yangi materiallarni o'rganish;

5) yangi materialni mustahkamlash;

6) uy vazifasi.

Har qanday darsning yaratilishi uning maqsadini aniq anglashdan boshlanadi.

Darsning maqsadi.

Pedagogik faoliyat obyekti bu o‘quvchilar faoliyati hisoblanadi, natijasi esa o‘quvchilarni o‘zlashtirganlik darajasidir. Zamonaviy maktabda darsning maqsadi aniq bo‘lishi zarur.

O‘qitishning umumiy nazariyasidan kelib chiqib, ta'lim nazariyasi darsga nisbatan bir qancha talablarni ta'riflaydi:

Maqsadning aniq qo‘yilishi.

Interfaol metodlardan foydalanish.

Ta'lim prinsiplariga amal qilish.

O‘quvchilarda motivni shakllantirish.

Darsda vaqtdan ratsional foydalanish.

Dars tipologiyasi — ta'lim nazariyasining murakkab didaktik vazifalaridan biridir. Zamonaviy didaktikada darslarni tasniflash uchun bir nechta yondashuvlar mavjud, ularning har biri o'ziga xos xususiyatga ega. M.A.Danilov, B.P.Yesipov, B.A.Onishuklar dars tiplarini didaktik maqsadga ko‘ra asoslaganlar va quyidagi dars tiplarini tasviya etganlar:

— kirish darslari;
— o‘quv materiali bilan tanishtirish darslari;
— qonun, qoida, tushunchalarni o‘zlashtirish darslari;
— o‘zlashtirilgan bilimlarni amaliyotda qo‘llash darslari;
— malakalarni shakllantirish darslari;
— takrorlash va umumlashtirish darslari;
— nazorat darslari;
— aralash darslar.

I.N.Kazansev darslarni ta'lim metodlarini qo‘llashga ko‘ra tiplarga ajratadi.

—ma'ruza-dars, suhbat-dars, ekskursiya-dars, kino-dars, mustaqil ishlash darsi.

M.I.Maxmutov[1] quyidagi dars tiplarini tavsiya etgan:

— Aralash dars;
— Yangi materiallarni o‘rganish darsi;
— Bilimlarni mustahkamlash, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish darsi;
— Umumlashtirish va tizimlashtirish darsi;
— Bilim, mahorat va ko‘nikmalarni nazorat qilish va tuzatish darsiyangi materialni o‘rganish darsi.

O‘qituvchi dars tipi qanday bo‘lishidan qat'i nazar, dars samarali bo‘lishi uchun uni tuzilishi haqida o‘ylashi zarur.

11.3. Aralash dars

Mavjud maktab amaliyotida eng keng tarqalgan dars tipi bu aralash (kombinatsiyalashgan) dars tipidir. Mazkur darsda turli xil didaktik vazifalar hal qilinishini inobatga olib "aralash" (kombinatsiyalashgan) deb nomlanadi. Kombinatsiyalashgan darsning taxminiy tuzilishi: uy

[1] Махмутов М. И. Современный урок. — 2-е изд. — М., 1985.

vazifalarini tekshirish va o‘quvchilar bilan savol-javob, yangi materialni o‘rganish, o‘zlashtirishini dastlabki tekshirish, mashq misollari davomida yangi bilimlarini mustahkamlash, ilgari o‘rganilganlarni suhbat ko‘rinishida takrorlash, o‘quvchilar bilimlarini tekshirish va baholash, uyga vazifa berish.

Aralash dars tipi quyidagi bosqichlardan iboratdir:

Tashkiliy bosqich. Didaktik vazifasi — o‘quvchilarni darsga tayyorlash. O‘tilganlarni takrorlash bosqichi. Didaktik vazifasi — tekshirish.

Aktiv o‘quv bilish faoliyatiga tayyorlash bosqichi. Didaktik vazifasi — o‘quvchilarni bilish faoliyatiga tayyorlash.

Yangi bilimlarni o‘zlashtirish bosqichi. Didaktik vazifasi — o‘quvchilarda hodisa, jarayon, tushunchalar to‘g‘risida tasavvurlarni shakllantirish.

O‘quvchilarni yangi materialni tushunganligini tekshirish bosqichi.

Bilimlarni mustahkamlash bosqichi. Didaktik vazifasi — bilimlarni o‘zlashtirish bo‘yicha o‘quvchilar faoliyatini tashkil etish.

Bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirish bosqichi.

Bilimlarni nazorat qilish bosqichi.

Uy vazifasi haqida axborot berish bosqichi.

Bosqichlar dars tiplariga qarab o‘zgarishi mumkin.

11.4. Yangi materiallarni o‘rganish darsi

O‘quvchilarning yangi materiallar bilan tanishish darsi yoki yangi bilimlarni berish (o‘rganish) darsi nisbatan keng doiradagi savollarni o‘z ichiga olgan va uni o‘rganishga ko‘p vaqtini talab qiluvchi, o‘quvchilarga tanish bo‘lmagan yangi material uning mazmuni bo‘lgan ta’lim jarayoni. Bunday darslarda uning mazmuni, aniq maqsadi va o‘quvchilarning mustaqil ish bajarishga tayyorgarliklariga harab ba’zi hollarda yangi materialni o‘zi bayon etadi. Boshqa hollarda esa – o‘qituvchi rahbarligi ostida o‘quvchilarning mustaqil ishlari olib boriladi, uchinchi holda – unisi ham bunisidan ham foydalaniladi. Yangi material bilan tanishish darsining tuzilishi: yangi materialni o‘rganish uchun asos bo‘lgan avvalgi materialni takrorlash, o‘qituvchining yangi materialni va darslik bilan ishlashni tushuntirishi, bilimlarni tushunishlarini tekshirish va dastlabki mustahkamlash, uyga vazifa berish.

Yangi materialni o'rganish shakllari quyidagilar bo'lishi mumkin:

♦ ma'ruza;

♦ o'quvchilarni alohida masalalarni muhokama qilishga jalb qilish bilan o'qituvchining tushuntirishi;

♦ evristik suhbat;

♦ darslik va boshqa manbalar bilan mustaqil ishlash;

♦ tajriba va eksperimentlarni tashkil etish va o'tkazish.

11.5. Bilimlarni mustahkamlash, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish darsi

Bilimlarni mustahkamlash darslarida o‘quv ishining asosiy mazmuni ilgari o‘zlashtirilgan bilimlarni mustahkam o‘zlashtirish maqsadida ularni ikkinchi bor tushunib olish hisoblanadi.

O‘quvchilar o‘z bilimlarini yangi manbalar bo‘yicha anglab oladilar va chuqurlashtiradilar yoki ularga ma’lum bo‘lgan qoidaga yangi masalalar yechadilar, ilgari olgan bilimlarini og’zaki va yozma takrorlaydilar yoki ilgari o‘rganganlarini yanada chuqurroq va mustahkam o‘zlashtirish maqsadida ulardan alohida masalalar bo‘yicha axborot beradilar. Tuzilishi bo‘yicha bunday darslar quyidagi bosqichlardan o‘tishni ko‘zda tutadi: uy vazifasini tekshirish, og’zaki va yozma mashqlarni bajarish, topshiriqni bajarishni tekshirish, uyga vazifa berish.

Ko‘nikma va malakalarni ishlab chiqish va mustahkam-lash darslari bilimlarni mustahkamlash darslari bilan bog’liqdir. Bu jarayon bir necha maxsus darslar jarayonida amalga oshiriladi. Boshqa darslarda yangi mavzularni o‘rganishda davom ettiriladi. SHu bilan birga avvaliga mashqni bajarish ishlari bolalar tomonidan o‘qituvchi yordamida va ular topshiriqni qanday tushunganlarini daslab jiddiy tekshirish bilan bajarilsa, keyinchalik esa qayerda qanday qoida qo‘llanilishini o‘quvchilarning o‘zlari belgilaydilar. Ular turli vaziyatlarda malaka va ko‘nikmalarini qo‘llash, shu jumladan, hayotiy amaliyotida qo‘llashni o‘zlashtirib olishlari kerak.

Ushbu darslarda hal qilinadigan asosiy didaktik vazifalar:

♦ yangi bilimlarni tizimlashtirish va umumlashtirish;

♦ ilgari olingan bilimlarni takrorlash va mustahkamlash;

♦ ilgari olingan bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish uchun bilimlarni amalda qo'llash;

♦ ko'nikma va malakalarni shakllantirish;

♦ o'quv materialini o'rganish va bilim, ko'nikma va malakalarni takomillashtirish jarayonini nazorat qilish[1] .

Ushbu tipdagi darslarning asosiy shakllari:

♦ mustaqil ish darslari (reproduktiv turi - og'zaki va yozma mashqlar);

♦ laboratoriya mashg'uloti;

♦ amaliy mashg'ulot darsi;

♦ dars-ekskursiya;

♦dars-seminar.

11.6. Umumlashtirish va tizimlashtirish darsi

Umumlashtiruvchi darslari (bilimlarini umumlashtirish va tizimlashtirishlar) ilgari o‘tilgan materialdan eng muhim savollari qayta takrorlanadigan va tizimlashtiriladigan, o‘quvchilar bilimlarida mavjud kamchiliklari to‘ldiriladigan va o‘rganilayotgan kursning muhim g’oyalari ochib beriladigan darslar hisoblanadi. Umumlashtiruvchi darslar mavzu, bo‘lim va o‘quv kurslarining yakunida o‘tkaziladi. Kirish va yakunlash darsning tarkibiy elementi hisoblanadi. Takrorlash va umumlashtirishning o‘zi hikoya, qisqacha xabarlar, darslikni o‘qib berish yoki o‘qituvchining o‘quvchilar bilan suhbatlashishi shaklida o‘tkazilishi mumkin.

11.7. Bilim, mahorat va ko‘nikmalarni nazorat qilish va tuzatish darsi

Bilim, mahorat va ko‘nikmalarni nazorat qilish va tuzatish darslari o‘qituvchiga o‘quvchilarning ma’lum sohadagi bilim, malaka va ko‘nikmalari shakllanganlik darajasi, o‘quv materialini egallashdagi kamchiliklarni aniqlash, shuningdek, navbatdagi topshiriqlarning bajarish yo‘llarini belgilab olishga yordam beradi. Tekshirish darslari o‘quvchidan ushbu mavzu bo‘yicha uning hamma bilim, ko‘nikma va malakalarini qo‘llashini talab etadi. Tekshirish og’zaki hamda yozma shaklda ham amalga oshirilishi mumkin.

Yuqorida ifodalangan hamma darslarning majburiy elementi tashkiliy va yakuniy bosqich hisoblanadi. Tashkiliy bosqich

[1] Педагогика: Учебник для студентов педагогических вузов и педагогических колледжей / Под ред. П. И. Пидкасистого. — М.: Педагогическое общество России, 2002, с. 337

maqsadlarni qo‘yish va ularni o‘quvchilar tomonidan qabul qilish sharoitlari ta’minlash, ish sharoitini yaratish, o‘quv faoliyati motivlarini dolzarblashtirish va materialni idrok etish, anglash, eslab qolish yuzasidan beriladigan ko‘rsatmalarni shakllantirishni ko‘zda tutadi. Darsga yakun yasash bosqichida maqsadlarga erishish qayd etiladi, ularga erishishda barcha yoki yakka o‘quvchilarning alohida ishtiroki belgilanadi, ishlari baholanadi va istiqbollari belgilanadi.

11.8. Darsga qo‘yiladigan talablar

Dars rivojlanishining asosiy tendentsiyalari darsga bo‘lgan talablarda o‘zining aniq ifodasini topadi.

Zamonaviy darslar quyidagi talablarga javob bera olishi lozim:

✓ fanning ilg’or yutuqlari, pedagogik texnologiyalardan foydalanish, darsni o‘quv-tarbiyaviy jarayon qonuniyatlari asosida tashkil etish;

✓ darsda barcha didaktik tamoyil va qoidalarning optimal nisbatlarini ta’minlash;

✓ o‘quvchilarning qiziqishlari, layoqati va talablarini hisobga olish asosida ular tomonidan bilimlarning puxta o‘zlashtirilishi uchun zarur sharoitlarni yaratish;

✓ o‘quvchilar anglab yetadigan fanlararo bog’liqliklarni o‘rnatish;

✓ ilgari o‘rganilgan bilim va malakalari, shuningdek, o‘quvchilarning rivojlanish darajasiga tayanish;

✓ shaxsning har tomonlama rivojlantirishni motivatsiyalash va faollashtirish;

✓ o‘quv-tarbiyaviy faoliyat barcha bosqichlarining mantiqiyligi va emotsionalligi;

✓ pedagogik vositalardan samarali foydalanish;

✓ zarur bilim, ko‘nikma va malakalar, fikrlash va faoliyat ratsional usullarini shakllantirish;

✓ mavjud bilimlarni doimo boyitib borish ehtiyojini yuzaga keltirish;

✓ har bir darsni puxta loyihalashtirish, rejalashtirish, tashhis va taxmin qilish.

Har bir dars quyidagi uchta asosiy maqsadga erishishga yo‘naltiriladi: o‘qitish, tarbiyalash, rivojlantirish. Ana shularni hisobga

olib darsga umumiy talablar didaktik, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi talablarda aniq ifodalanadi.

Didaktik (yoki ta’lim)iy talablarga har bir darsning ta’lim vazifalarini aniq belgilash, darsni axborotlar bilan boyitish, ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlarni hisobga olish bilan mazmunini optimallashtirish, idrok etish eng yangi texnologiyalarini kiritish, turli xildagi shakli, metodlari va ko‘rinishlaridan mos ravishda foydalanish, dars tuzilishini shakllantirishga ijodiy yondoshish, jamoaviy faoliyat usullari bilan birga o‘quvchilar mustaqil faoliyatlarini turli shakllaridan birga foydalanish, operativ qayta aloqani ta’minlash, amaliy nazorat va boshharuvni amalga oshirish, ilmiy mo‘ljal va darsni mahorat bilan o‘tkazishni ta’minlash kabilar kiradi.

Darsga nisbatan qo‘yilavdigan tarbiyaviy talablar o‘quv materialining tarbiyaviy imkoniyatlarini aniqlash, darsdagi faoliyat, aniq erishilishi mumkin bo‘lgan tarbiyaviy maqsadlarni shakllantirish va qo‘yish, faqat o‘quv ishlari maqsadlari va mazmunidan tabiiy ravishda kelib chiqadigan tarbiyaviy masalalarni belgilash, o‘quvchilarni umuminsoniy qadriyatlarda tarbiyalash, hayotiy muhim sifatlar (tirishqoqlik, tartiblilik, mas’uliyatlilik, intizomlilik, mustaqillik, ish bajarishga qobiliyatlilik, e’tiborlilik, halollik va boshqalar)ni shakllantirish, o‘quvchilarga diqqat-e’tiborli munosabatda bo‘lib, pedagogik odob talablariga amal qilish, o‘quvchilar bilan hamkorlik va ularning muvaffaqiyat qozonishlaridan manfaatdor bo‘lishdan iborat.

Barcha darslarda doim amalga oshirilib boriladigan rivojlantiruvchi talablarga o‘quvchilarda o‘quv-o‘rganish faoliyati ijobiy sifatlari, qiziqish, ijodiy tashabbuskorlik va faollik shakllantirish hamda rivojlantirish, o‘quvchilarning idrok etish imkoniyatlari darajasini o‘rganish, hisobga olish, “rivojlanishning yaqin zonasini loyihalashtirish”, “o‘zib ketish” darajasidagi o‘quv mashg’ulotlarini tashkil etish, rivojlanishidagi yangi o‘zgarishlarni rag’batlantirish, o‘quvchilarning intellektual, emotsional, ijtimoiy rivojlanishlaridagi «sakrash»larni oldindan ko‘ra bilish, boshlanayotgan o‘zgarishlarni hisobga olish asosida o‘quv mashg’ulotlarini operativ qayta qurish kabilar kiradi.

O'qituvchining psixologiya darslariga tayyorlanishi quyidagilardan iborat:

1) darsda foydalanish uchun ma'lumot materialini tanlash;

2) o‘quvchi-talabalar o'zlashtirishi kerak bo'lgan bilimlarni tashkil etuvchi asosiy faktlar, hodisalar, tushunchalar, qonuniyatlarni yoritish;

3) ushbu bilimlarni tushuntirish usullarini tanlash;

4) tushunchalar va qonuniyatlar uchun misollar va rasmlarni tanlash;

5) bilimlarni o'zlashtirish va mustahkamlashga qaratilgan amaliy faoliyat turlarini ishlab chiqish;

6) o'quvchilarning faoliyat turlarini rivojlantirish;

7) sinf va mustaqil ish uchun topshiriqlarni taqsimlash.

Psixologiya darsiga tayyorgarlik ko'rishning eng muhim vazifasi o'rganish predmeti bo'lgan bilimlarni tanlash va shakllantirishdir:

1) psixik hodisalar;

2) tushunchalar;

3) psixik hodisalarning aloqadorlik qonuniyati;

4) psixologik faktlar.

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savollar hamda topshiriqlar:

1. *O‘quv faoliyatini tashkil etish shakllarini izohlang.*
2. *Psixologik fanlarini o‘qitishda ma'ruza shaklini tushuntiring.*
3. *Seminar va amaliy mashg’ulotlarning o‘xshash va farqli jihatlarini ayting.*
4. *Laboratoriya mashg’uloti nima?*
5. *Ma’ruza, seminar va amaliy mashg’ulotlarga tayyorgarlik ko‘rish tartibini tushuntiring.*
6. *Referat nima?*
7. *Psixologiya fanidan yozilga kurs ishlarini o‘zlashtirilgan nazariy bilimlaringiz asosida tahlil qiling.*
8. *Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi nimalardan iborat?*
9. *Malakaviy amaliyot turlari haqida ma’lumot bering.*
10. *Dars nima?*
11. *I.N.Kazansev darslarni ta'lim metodlarini qo‘llashga ko‘ra qaysi tiplarga ajratgan?*
12. *M.I.Maxmutov qaysi dars tiplarini tavsiya etgan?*
13. *Darsga qo‘yiladigan talablarni izohlang.*

12-MAVZU. MA’RUZA MASHG‘ULOTI VA UNING MAZMUNI

Tayanch so‘zlar: *ma’ruza, ma’ruza mashg‘ulotining mazmuni, ma’ruzaning tuzilishi, ma’ruza o‘qishga qo‘yiladigan talablar, ma’ruza turlari, kirish, axborot, obzorli, muammoli, ma’ruza vizual aloqa, binar, ma’ruza konsultatsiya, ma’ruza konferensiya, ma’ruza funksiyalari.*

12.1. Ma’ruza mashg‘ulotining mazmuni

Ma’ruza yuqorida ta’kidlanganidek, oliy o‘quv yurti pedagogik jarayonida eng ko‘p qo‘llaniladigan shakli bo‘lib unda ta’lim oluvchilarga maksimal darajada yangi ilmiy axborotlar berish, o‘quv materialini talabalar ongiga yetkazish nazarda tutiladi. Ba'zan ma'ruza faqat monolog bo'lib qoladi va prinsipial jihatdan videotasvirga yozib olish mumkin. Biroq, bu usulni auditoriya sharoitida qo'llash noo‘rin. Ma'ruzachining videoyozuvga nisbatan katta ustunligi talabalarning fikr-mulohazalarini inobatga oladi va bu mashg‘ulot sifat va samaradorligiga kattta ta’sir o‘tkaziladi. O'qituvchi va talabalarning o'zaro ta'sir darajasi turlicha bo'lishi mumkin. Psixologik fanlardan ma'ruza mashg‘ulotlarining asosiy funksiyalarini ko'rib chiqamiz.

Yechilishi kerak bo'lgan vazifalarga qarab, olimlar ma'ruzaning turli funksiyalarini belgilaydilar. Psixolog N.U.Zaychenko ma'ruzaning maqsad va vazifalariga muvofiq quyidagi funksiyalarni belgilaydi: tashkil etish, yo'naltirish, rag'batlantirish, ishontirish, metodologik, boshqarish, rivojlantirish, tarbiyalash, ma'lumot berish.

Olimning fikricha **tashkiliy funksiya** “tarkibni barcha tashkiliy shakllarda ishlab chiqishga ajratish orqali” mavzuni o‘rganishni tashkil yetish imkonini beradi.

Yo‘naltiruvchi funksiya kasbiy va motivatsion yo‘nalishni asosiy tarkib manbalarini ko‘rib chiqish, ichki va tashqi turli nazariyalarni tahlil qilish orqali boshqaradi.

Rag'batlantiruvchi funksiya mavzuga qiziqishni uyg'otadi, boshqa manbalarni o'rganishga undaydi, psixologik nazariyalar va tushunchalarni jiddiy va chuqur o'rganishga bo'lgan qiziqishni oshiradi.

Ishontiruvchi funksiya, birinchi navbatda, bayonotlarni isbotlash orqali, eng aniq haqiqatlarning zaruriyati va ahamiyatini ko'rsatish orqali amalga oshiriladi.

Metodologik funksiya ilmiy tadqiqot metodlarini ochib berish orqali, ilmiy tadqiqot tamoyillari, shart-sharoitlari, yondashuvlari va metodlarini taqqoslash orqali talabalar tafakkurini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi.

Boshqarish funksiyasi bilish jarayonini pedagogik boshqarishda, talabalarning aqliy faoliyatini faollashtirishda namoyon bo‘ladi.

Rivojlantiruvchi funksiya o'quv vazifalarini belgilashni va ularni ongli ravishda bosqichma-bosqich hal qilishni amalga oshiradi, bu esa talabalar shaxsining intellektual shakllanishiga yordam beradi.

Tarbiyalash funksiyasi o'rganish mavzusiga nisbatan hissiy-baholovchi munosabatni uyg'otadi, ma'ruzachi bilan o'zaro aloqada ilmiy ma'lumotlarning taqdim etilgan hajmini bilish uchun chuqur ichki motivatsiyani shakllantiradi.

Axborot funksiyasi ilmiy faktlar va hodisalarni, ularning asosiy qoidalari va xulosalarini, qonunlari va qonuniyatlarini ularning izchil dalillarida ochib berish orqali o'quv mavzusining mantiqiy tuzilgan asosiy mazmunini taqdim etadi.

Psixolog V.N.Karandashevning fikriga ko‘ra, ma’ruzaning an’anaviy funksiyalari axborot, tizimlashtirish, tushuntirish va rivojlantirishdir.

1. Tarixiy jihatdan **axborot funksiyasi** asosiy bo'lgan. Dastlabki universitetlarda ma’ruzalarning asosiy maqsadi o‘qituvchi-professorlar tomonidan talabalarga yangi bilimlarni uzatish edi. Hozirgi kunda ko'plab o‘quv adabiyotlarning nashr bo‘lishi sababli ma'ruzalarning bu funksiyasi qisman o'z ahamiyatini yo'qotdi. Shu nuqtai nazardan darsliklardagi materialni talabalar mustaqil o‘qiy oladilar va mazkur materal o‘qituvchi tomonidan qayta so‘zlab berishi yehtimol o‘rinsizdir. Biroq, ma’ruzaning bu funksiyasi nashr etilgan adabiyotlarda mavjud bo'lmagan, ammo o‘qituvchi nuqtai nazaridan zarur bo'lgan o'quv materialini etkazishi ma'nosida o'z ahamiyatini saqlab qoladi. Darslik va o‘quv qo‘llanmalar hali chop etilmagan fanlar bo‘yicha maxsus kurslarni o‘qishda axborot funksiyasi dolzarbligicha qolmoqda.

2. Ma'ruzalarning ikkinchi muhim funksiyasi - **tizimlashtirish**. Ma'ruzada yangi bilimlar tizimli ravishda yetkaziladi. O'qituvchi tomonidan o'quv materialining ushbu fan bo'yicha izchil va tizimli taqdimoti talabalar uchun alohida ahamiyatga ega. Tizimlashtirish funksiyasi shundan iboratki, o'qituvchi ma'ruzalarda o'rganilayotgan mavzu haqida umumiy ma'lumot beradi, o'quvchilarga darslikni o'qiyotganda qaysi mavzular, bo'limlar, qism va tushunchalarga alohida e'tibor berishlari kerakligi, qaysi qo'shimcha manbalardan foydalanish maqsadga muvofiqligi to'g'risida ma'lumot beradi.

3. Ma'ruzalarning uchinchi fuksiyasi **tushuntirish**dir. Darslik va o‘quv qo‘llanmalarning alohida bo'limlari talabalar tushunishi qiyin bo'lgan tilda, uslub va sintaksis jihatdan murakkab bo'lgan tarzda taqdim etilishi va tushuntirishga oid misollar bo'lmasligi mumkin. Bu holda o'qituvchining maqsadi o'quv kursining eng qiyin savollari, tushunchalari, bo'limlarini tushuntirishdan iborat bo‘ladi. Buning uchun o'qituvchidan darslik va o‘quv qo‘llanmalarning alohida qismlarini boshqacha, tushunarli va qulayroq shaklda taqdim etish qobiliyati talab etiladi.

4. Ma'ruzalarning **rivojlantiruvchi** funksiyasi shundaki, talabalar nafaqat materialni esda saqlab qoladilar, balki ularning aqliy faoliyati ham rag'batlantiradi. Bunga o'qituvchi tomonidan ma'ruzalarda berilgan muammoli savollar, bilimlarini muammoli va munozara shaklida taqdim etish yordam beradi.

12.2. Ma’ruzaning tuzilishi, ma’ruza o‘qishga qo‘yiladigan talablar

Ma’ruza mashg‘ulotiga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazishning metodik jihatlarini ko‘rib chiqamiz.

Ma’ruza mavzulari dars davomida biroz o‘zgarishi mumkin bo‘lsada, ishchi dastur va mashg‘ulotlarning tematik-taqvimiy rejaga muvofiq belgilanadi. Har bir ma’ruzaning boshida o‘qituvchi o‘z mavzusini oldingi ma’ruza mavzusi bilan hamda butun kurs mazmuni bilan bog‘laydi. Ma’ruza yakuni keyingi ma’ruzaga "ko‘prik" ni taqdim yetishi kerak. Shu bilan birga, talabalarda o'rganilayotgan fan sohasi to'g'risida tizimli tushunchalarni shakllantirish muhimdir.

Ma’ruza materialini tanlash va tuzish uni tayyorlashning muhim qismi hisoblanadi. Ma’ruza rejasi ish dasturining tegishli bo‘limi

mazmuniga mos kelishi va uni ochib berishi lozim. Ma’ruza mazmuni vaqti o‘quv soati vaqtiga mos bo‘lishi kerak.

Ko'p hollarda o'qituvchi belgilangan ma'ruza vaqtidan ko'ra ko'proq material tayyorlaydi. Bunday holda, ikkilamchi vaziyat yuzaga keladi: biz materialni ko'rib chiqmasdan qoldirishimiz kerakmi yoki uni ko'rib chiqishni keyingi ma'ruzaga qoldirishimiz kerakmi? Bunday vaziyatlarda qanday qaror qabul qilish kerak? Bu oson savol emas. O‘quv materialining har bir fragmentining nisbiy ahamiyatini hisobga olish zarur. Ish dasturiga bunday tuzatishlar tabiiydir, ularni muvaffaqiyatsizliklar deb qabul qilmang, ular hatto kursni yaxshilashlari mumkin. Biroq, umuman olganda, siz tematik rejaga rioya qilishingiz kerak, chunki materialni keyingi sinflarga doimiy ravishda o‘tkazish butun ish dasturini amalga oshirishda progressiv kechikishga olib kelishi mumkin.

Ma’ruza amaliyotining ko‘rsatishicha, o‘qituvchilar odatda vaqtdan ko‘ra ko‘proq materialga ega bo‘ladilar. Yosh o‘qituvchining butun ma’ruza uchun yetarli materialga ega bo‘lmasligi odatiy qo‘rquvidan farqli o‘laroq, ko‘pincha u yetarli vaqtga ega emas. Auditoriyada qancha material ko‘rib chiqilishi mumkinligini aniq baholash - mashg‘ulotlarning bir maromda olib borishi va o‘qituvchining mahoratini belgilaydi.

Ma'ruza uchun qancha material tanlash kerak? Bu jihatdan Rojer Dominovskiy[1] ma'ruzaning bir akademik soati uchun uchta asosiy fikrni rejalashtirishni tavsiya qiladi. Albatta, ushbu qoidada istisnolar mavjud, chunki har bir bandda ko'p yoki kamroq kichik bandlar bo'lishi mumkin. Ma'ruza rejasini qayta loyihalashtirish uni tayyorlash jarayonining eng muhim qismi hisoblanadi.

Rejaning har bir asosiy bandini mantiqiy ketma-ketlikda bog'lab, bir nechta kichik bandlarga bo'lish kerak. Bu ma'ruza tarkibini yaxshilaydi va talabalar tomonidan materialni tizimli idrok etish, anglash va yodlashga yordam beradi. Materialni strukturalashda xotira va tafakkurning psixologik mexanizmlarini hisobga olish foydalidir.

O‘qituvchining darsni katta hajmdagi ma’lumotlar bilan to‘ldirishga intilishi har doim ham asosli bo‘lavermaydi. O'qituvchining maqsadi talabalarga u taqdim etgan materialni o'rganishda yordam berishdir. Bu materialni tushunish mumkin bo‘lgan

[1] Dominowski R. L. Teaching Undergraduates. — Mahwah, N.J.: Lawrence Erlbaum, 2002. p. 75

sur’atda taqdim yetishni anglatadi, talabalar tomonidan o‘qituvchiga va o‘qituvchi tomonidan talabalarga bir nechta savol berishlari mumkin, javoblar esa ma’ruza mazmunini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Ma’ruzaga tayyorgarlik ko‘rishda konspekt yozish ma’ruzachi uchun juda foydalidir. Ba'zi o'qituvchilar ma’ruzada aytmoqchi bo'lgan ma’lumotlarni to'liq matnini tayyorlashga harakat qilishadi. Ushbu tayyorgarlik usulining sababi odatda qo'rquvdir. Agar ma'ruzachi nima deyishni unutishdan qo'rqsa, to'liq matn ko'rinishidagi konspekt "himoya choyshabi" kabi ko'rinishi mumkin.[1]

Darhaqiqat, to'liq matn keyingi so'zlarni topish jarayoniga salbiy ta'sir qiladi, chunki haddan tashqari ko'p matn kerakli abzatsni topishni qiyinlashtiradi. Batafsil konspektni tayyorlashning yana bir sababi - bu aniqlikka intilish, taqdim etilgan materialning to‘g‘riligiga ishonch hosil qilishdir. Ushbu intilish diqqatni "so'zlarga" qaratadi, ma'ruzaning mohiyati esa u olib boradigan g'oyalarda yotadi. Darhaqiqat, fikrlarni har xil usulda ifodalash mumkin va talabalar ma'ruza mohiyatini chuqur anglashlari uchun ularning tushunishlari darajasida ifodalash muhimdir. Albatta, ba'zi tushunchalarni aniq belgilash va ulardan foydalanish kerak, shuning uchun ularning ta'riflarini konspektda yozish mantiqan to'g'ri keladi.

Ma'ruzaning to'liq matnini qamrab olgan konspektlar o‘qituvchini talabalarga o‘qib berishga undaydi. Barchamizga ma’lumki, bunday “o‘qib beriladigan” ma’ruzalarni tinglash nihoyatda zerikarli va tushunish qiyin bo‘ladi.

Eng foydali konspekt - bu kengaytirilgan reja bo'lib, u ierarxik ravishda tuziladi va asosiy fikrlar, mavzular, kerakli materiallar va tushunchalar o‘z aksini topadi. Reja ma’ruzaning asosiy g‘oyalarini umumlashtiruvchi ta’riflar, jadvallar, diagrammalar, grafiklar va iboralar bilan kengaytiriladi. Abstrakt kiritilgan detallar soni materialning o‘ziga va uning o‘qituvchiga qanchalik tanishligiga bog‘liq. Albatta, ma'ruza birinchi marta o'qilganda, batafsilroq ma'lumot talab etiladi. O'qituvchi ma'lum bir mavzu bo'yicha ma'ruza qilishda bir oz tajribaga ega bo'lganligi sababli, qayta ishlangan konspekt kamroq tafsilotlarni o'z ichiga olishi mumkin. Yagona so'zlar va qisqa iboralar uzun jumlalar o'rnini bosa boshlaydi; endi konspektga to'liq jumlalarni kiritish shart emas.

[1] Dominowski R. L. Teaching Undergraduates. — Mahwah, N.J.: Lawrence Erlbaum, 2002. p. 77

Konspekt ma'ruza mazmuniga qaratilgan bo‘lishi kerak; ushbu mazmunni ifoda etish vositalari ma'ruzaning o'zida tug'ilishi kerak. Ma'ruzada keltirilgan misollarni oldindan tayyorlash va konspektda aks ettirish muhimdir. Mavhum tushunchalarning o'ziga xos misollari puxta o'ylangan bo'lishi kerak. Misol keltirishda talabalarga ham konsepsiyani tavsiflash uchun zarur bo'lgan belgilarga, ham ahamiyatsiz bo'lgan belgilarga e'tibor qaratish lozim. Ikki yoki uchta misoldan foydalanish talabalarga konsepsiyaning muhim xususiyatlarini yaxshiroq aniqlash va umumlashtirishga yordam beradi. O'qituvchi ma’ruza jarayonida foydalanmoqchi bo'lgan illyustrativ, demonstrativ va tarqatma materiallarni ham oldindan tayyorlab quyishi kerak bo‘ladi.

Konspektni qo‘lyozma yoki kompyuterda yozishni o‘qituvchi o‘zi hal qiladi. Kompyuterda konspekt tayyorlash tezligi, qayta ishlash qulayligi bo‘yicha ham ko'pgina afzalliklarga ega. Bosma matnlarni o'qish osonroq. Ma'ruza mashg‘ulotini tashkil etishdan oldin, uni takrorlash foydalidir. So'zma-so'z matnni yodlash emas, balki ma’ruzada ochib berilishi kerak bo'lgan asosiy fikrlarni miyada takrorlash lozim. Ma’ruza matnini takrorlash yosh o'qituvchilar uchun nihoyatda foydali ekanligi tajribadan ma’lum va mazkur jarayon ma’ruza mashg‘uloti boshlashdan 10-15 daqiqa oldin amalga oshirilishi talab etiladi.

Ma’ruzaning boshlanishi va tugashi ko‘p jihatdan juda muhimdir. Yuqorida ta’kidlanganidek, ma'ruza boshida avvalgi ma'ruza mazmunini qisqacha ko'rib chiqish foydali bo'ladi. Bu ma'lumotni uzoq muddatli xotirada saqlashga va o'quv kursini tizimli idrok etishga yordam beradi. O‘tgan ma'ruza materiallari bo'yicha talabalardan qisqa og'zaki yoki yozma so'rov o'tkazish, ularga o‘tgan mavzu bo‘yicha qiziqarli savollar berish mumkin. Takrorlash jarayoni baholanishi yoki baholanmasligi unchalik muhim emas.

Yangi materialni bayon qilishdan oldin ma'ruzaning qisqacha rejasini berish, yangi mavzuni o‘tilgan mavzular bilan bog‘lash, uning eng muhim jihatlariga e'tibor qaratish foydalidir. Qiziqarli savol berish yoki yorqin misolni tasvirlash talabalarning diqqatini jalb qiladi. Ushbu kirish besh daqiqadan oshmasligi kerak. Albatta, ma'ruza materiali quyilgan savolga asosli javob berishi kerak.

Ma'ruza oxirida, materialning asosiy qismi taqdim etilganida, asosiy fikrlarni qisqacha takrorlash foydalidir. Bu darsning asosiy g'oyalarini bayon qilish, o'quvchilarga uning mazmuni to'g'risida bir nechta savollar berish yoki ularning savollariga javob berish bo'lishi mumkin. Dars oxirida o'qituvchi keyingi ma'ruza mavzusi haqida bir necha so'z aytishi mumkin. Afsuski, o'qituvchi ko'pincha bunga yetarli vaqt topa olmaydi.

Materialni tashkil qilish ma'ruzachining asosiy vazifasidir. O'qituvchi doimiy ravishda o'rganilayotgan mavzuni fanning umumiy ko'rinishi bilan bog'lab, talabalarga kurs mazmunining katta kartinasini ko'rishga yordam berishi mumkin. Jadval va diagrammalar tushunchalar o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadigan vosita hisoblanadi. Muayyan tezisni ochib beradigan fikrlarning raqamlangan ro'yxati talabalarga materialni eslab qolishlariga yordam beradi. Sinf taxtasida materialning kompozitsion joylashuvi (chap - o'ng, yuqori - pastki va h.k.) muhim rol o'ynaydi.

S.I.Gessen universitet kursining asosiy maqsadi shunchaki "dalillarni aytib berish" emas, balki "ilmiy bilish metodlarini" shakllantirishdan iborat deb hisoblagan.

Materialning mazmuni va taqdimotining qiyinchilik darajasini tanlash quyidagi mezonlar asosida bo‘lishi lozim:

♦ o'quv materialining mohiyati barcha talabalar uchun tushunarli bo'lishi kerak;

♦ ushbu mohiyatni sharhlash, tahlil qilish va asoslash ularning ko‘pchiligiga aniq bo‘lishi kerak;

Ma’ruza mazmuniga oid savollarni belgilash. Talabalar savolni eshitsalar, ularni javoblar haqida o'ylashga va boshqalarning javoblarini baholashga undaydi. Ushbu metod talabalarning faollashtiradi. O‘quv axborotining keyingi qismini taqdim yetishni boshlashdan oldin o‘qituvchi tegishli savol qo‘yishi, so‘ngra unga javob berish uchun o‘quv materialining keyingi taqdimotini o‘tkazishi mumkin. Ba’zan ritorik savollardan ham foydalansa bo‘laddi.

Talabalarning berilgan material haqidagi tushunchalarini tekshirish. O'qituvchi tomonidan taqdim etilgan materialni talabalar qanchalik chuqur anglaganligini ularlarning o'zlarini tutishlari va ko'zlarini ifodalashiga qarab bilib olishi mumkin. Faol talabalar biron narsani tushunmaganlarida savol berishlari mumkin. Biroq, bu holat

kamdan-kam uchraydi. Shuning uchun o‘qituvchi ma’ruzaning navbatdagi qismini ko‘rib chiqilgandan so‘ng talabalarni o‘z savollarini berishga taklif qilishi lozim bo‘ladi.

Ma'ruza davomida talabalar diqqatining barqarorligi o'zgaradi. Talabalar diqqatini barqarorlashtirish maqsadida vaqti-vaqti bilan (har 20-30 daqiqada) qiziqarli misol va yangi savol berishi yoki lerik chekinishlar qilishi mumkin.

Talabalar nafaqat ma'ruzani tinglashlari, balki uning mazmunini konspektlashtirib olishlari ham kerak bo‘ladi. Shu sababli, o'qituvchilar ba'zan darsda hech narsa yozmaydigan talabalarga nisbatan ishonchsiz munosabatda bo'lishadi, lekin ular ma'ruzachini diqqat bilan tinglashlari mumkin. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, talabalar ma’rzani konspektlashtirishlari kelajakda foydalanish uchun axborotni yaxshiroq eslab qolishlariga yordam beradi va uni faol qayta ishlashga hissa qo‘shishi mumkin. Har qanday holatda ham ma'ruzachi o'z ma'ruzasini yozib olish jarayonini boshqarishi kerak. Dastlabki mashg‘ulotlarda konspekt yozishni o'rgatish o'qituvchi uchun muhim vazifadir. Asosiy tushunchalarni, g'oyalarni doskaga yozish yoki boshqa proektsion vositalardan foydalangan holda namoyish qilish foydalidir, chunki bu nafaqat idrokni yaxshilashga yordam beradi, balki yozib olishni ham osonlashtiradi.

12.3. Ma’ruza turlari

Olimlar ma’ruzalarning xilma-xil turlarini ajratib ko‘rsatdilar. N.U.Zaychenkoning so'zlariga ko'ra ma'ruzaning quyidagi turlari mavjud:

- didaktik maqsadiga ko‘ra (kirish, tematik (joriy), yakuniy, umumiy, ma'ruza-konsultatsiyalar);
- umumiy maqsadiga ko‘ra (ta'limiy, tashviqot, targ‘ibot);
- tinglovchilarga ta'sir o'tkazish usuliga ko‘ra (hissiyotlar darajasida, tushunish darajasida, ishonch darajasida);
- mazmuni bo'yicha (akademik, ilmiy-ommabop);
- talabalarning kognitiv faolligi darajasi va ma'lumotni taqdim etish uslubiga ko'ra (axborotli, tavsiflovchi, tushuntiruvchi, muammoli, kontekstli, ikki kishilik ma’ruza, vizuallashtirilgan ma’ruza, oldindan rejalashtirilgan xatolar bilan ma’ruza, matbuot anjumani formatidagi ma’ruza).

Kirish (muqaddima) ma’ruzada kurs (bo‘lim, mavzu) ning ilm-fan tizimidagi o‘mi, ushbu materialni amaliyotda qoilash imkoniyatlari, kurs (bo‘lim, mavzu) mazmunini o‘i:ganish metodlari ochib beriladi. Bunday ma’ruzaning muhim xususiyati shundaki, unda o‘qituvchi asosiy masalaning u yoki bu tomonlarigagina to‘xtaladi va bu masalalar keyinchalik albatta detalma-detal yoritib beriladi.

Tematik ma’ruzaalar ayniqsa, keng tarqalgan. Bunday ma’ruza u yoki bu mavzuga bag‘ishlangan bo‘lib, unda faktlar, ulaming tahlillari, xulosalar mazmuni bayon qilinadi va konkret ilmiy qoidalar isbotlanadi.

Umumiy-yakuniy ma’ruza avval o‘rganilgan materiallami qaytadan umumlashtirishga qaratilgan bo‘ladi. Uning mazmuni awal bayon qilingan mazmunga o‘xshamaydi, balki talabalar tomonidan o ‘zlashtirilgan axborotlami yuksak abstraksiyalash bosqichida tizimga tushiriladi. Bunday ma’ruzalar talabalar bilimining chuqurlashiàiida va o‘quv fani metodologiyasini yaxshi tasawur qilishda alohida ahamiyatga molik bo‘ladi.

Ma’ruzalar, uni rejalashtirishdagi ustun turuvchi funksiyalarni amalga oshirish mazmuniga qarab ham quyidagi turlarga bo‘linishi mumkin[1]:

- axborot-tahliliy;
- muammoli;
- tashkiliy –yo‘naltiruvchi;
- ma’ruza-maslahat;
- ma’ruza –dialog;
- hodisaviy ma’ruza.

Ushbu ma’ruza turlari ichida muammoli ma’ruzalar alohida e’tiborga ega hisoblanadi. Bunda ma’ruzachi dastlab muammoli vaziyatni hosil qilishi, keyin muammoning mohiyati va tahlilini keltirishi va muammo yechimi bo‘yicha o‘z farazlarini bayon etishi lozim.

AQShda hozirgi kunda ma’ruza-panel amaliyotda ko‘plab qo‘llaniladi. Bunday ma’ruzalardagi munozara va bahslarda qo‘yilgan muammo yechimi bo‘yicha o‘z dunyoqarashi va fikriga ega bo‘lgan bir necha yuqori malakali ekspertlar ishtirok etishadi.

[1] О.Д.Рахимов, М.Сапаев, Назаров Б.Ф. Олий таълимда замонавий маърузалар. Услубий қўлланма. Қарши-2012й., 68 бет

Shuningdek, amaliyotda bir necha ma’ruzachilar ishtirokidagi ma’ruzalar, ya’ni har bir ma’ruzachi o‘z pozitsiyasiga (ma’ruzachi, ekspert, tanqidchi, mavzu bo‘yicha muammo tashlovchi va b.) ega bo‘lgan ma’ruzalar ham keng qo‘llaniladi.

Hodisaviy ma’ruza bu ma’ruzaning alohida janri bo‘lib, bunda ma’ruza ijtimoiy hodisa sifatida tushuniladi. Bunday ma’ruzalarga Nobel mukofoti sorvindorlarining ma’ruzalarini keltirish mumkin. Lekin, ta’lim jarayonida o‘qituvchi va talabaning birgalikdagi faoliyati davrida bunday ma’ruzalar tinglovchining shaxsiy his-tuyg‘ulariga ta’sir etishi, uning bilishga ehtiyojini rivojlantirishi, muammo bo‘yicha o‘z fikrlarini hosil qilishga va aniqlashtirishga sharoit yaratishi, o‘zining dunyoqarashi va fikrini uyg‘otib, uni bayon qilishga imkon berishi lozim.

Mini-ma’ruzalar – “kichik”, juda qisqa hajmdagi ma’ruzalar bo‘lib, unda mavzu bo‘yicha aniq, tayanch savollar va iboralarning qisqa mazmuni yoritiladi. Bunday ma’ruzalar ko‘pincha amaliy faoliyatni, ilmiy tadqiqotlarni boshlashdan oldin o‘tkaziladi.

Ochiq ma’ruzalar – muayyan fan bo‘yicha o‘quv dasturidagi mavzuni talabalar, shuningdek, shu mavzuga qiziqish bildirgan va maxsus taklif etilgan professor-o‘qituvchilar, olim va mutaxassislar auditoriyasida ma’ruza shaklida o‘tkaziladigan darslar ochiq ma’ruzalar deb ataladi. Ochiq ma’ruzalarni o‘tkazishdan maqsad professor-o‘qituvchilarni tegishli fan, texnika va texnologiyalari sohalari bo‘yicha jahonda erishilgan yutuq va yangiliklar bilan xabardor bo‘lishlariga erishish va ular asosida zamonaviy pedagogik va axborotkommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalangan holda ma’ruzalarni tayyorlash, o‘tkazish va shu tariqa ta’lim sifatini oshirish hamda tayyorlanadigan kadrlar raqobatbardoshligini ta’minlashdan iboratdir. Ochiq ma’ruzalarni o‘tkazish vazifalariga quyidagilar kiradi:

- talabalarga fandagi so‘nggi yutuq va yangiliklarni yetkazish;
- ta’lim sifatini boshqarishda fan, ishlab chiqarish va jamoatchilik ishtirokini ta’minlash;
- ilmiy-uslubiy jihatdan yetuk ma’ruzalarni targ‘ibot etish;
- yosh va bo‘lajak pedagog kadrlarning kasb mahoratini oshirish;

- ilmiy unvonga ega bo‘lgan professoro‘qituvchilarni, o‘z kasbiy mahoratlarini oshirish ustida muntazam ishlashlarini ta’minlash va ularda o‘quv jarayonidagi mas’uliyatlarini oshirish;

- yuqori saviyadagi ma’ruza mualliflarini rag‘batlantirish va taqdirlash.

Ochiq ma’ruzalar odatda, o‘z sohasi bo‘yicha taniqli yoki ilmiy maktab yaratgan, ilmiy daraja va unvonga ega bo‘lgan tajribali professor-o‘qituvchilar tomonidan ixtiyoriy ravishda o‘tkaziladi.

Zamonaviy ta’lim jarayoniga yangi guruhiy o‘qitish texnologiyalarini qo‘llanilishi, o‘z xususiyati bilan boshqa ma’ruzalardan farq qiluvchi mini –ma’ruzalarni yuzaga kelishiga olib keldi. Ushbu ma’ruza turi rivojlantiruvchi ta’lim yetakchi g‘oyasida (paradigmasi)da ham muhim o‘rin egallamoqda. Buning asosiy sabablaridan biri rivojlantiruvchi ta’limda talabalarning mustaqil ishlariga katta e’tibor qaratilishidadir. Bunda asosiy ma’ruza 15-30 minut bo‘lib, qolgan vaqt talabalarning mustaqil yoki guruhiy ishlashlari uchun ajratiladi.

Mini ma’ruzalar ham o‘z vazifasiga bog‘liq holda boshqa ma’ruzalar singari turlicha bo‘ladi. Ta’lim oluvchining mavzuni o‘zlashtirishdagi muammolari va qiyinchiliklariga bog‘liq holda mini-ma’ruzalarni quyidagi uch turga bo‘lish mumkin.

1. Ma’ruza-navigator. Mini ma’ruzaning birinchi vazifasi an’anaviy o‘qitish shaklidagi kirish ma’ruzasiga mos keladi. An’anaviy ma’ruzadagi kirish ma’ruzasida ma’ruzachi fan bo‘yicha umumiy ma’lumotlar berib, fanning bo‘limlari va ular o‘rtasidagi bog‘lanishlar, fanning umumiy maqsad va vazifalari, rivojlanish tarixi to‘g‘risida ma’lumotlar beradi. Rivojlantiruvchi ta’lim o‘qitish sikli modeliga asosan mini ma’ruza-navigatorda ma’ruzachining asosiy maqsadi nafaqat fanning mazmunini ochish va umumiy yo‘lyo‘riq berish, balki talabalar bilan birgalikdagi guruhiy faoliyat davomida fanning mohiyati va mazmunini yoritishdan iborat bo‘lishi lozim. Bunday ma’ruzalar mazmun-mohiyat jihatidan navigator hisoblanib, talabaga kelajakdagi faoliyatining rejasini ishlab chiqishga, mustaqil o‘rganishi lozim bo‘lgan masalalarni belgilab olishga imkon yaratadi. Shuningdek, talaba tomonidan mustaqil faoliyat chegarasi belgilab olinadi, shaxsiy va guruhiy mustaqil ishlar bo‘yicha talablar hamda topshiriqlar aniqlanadi. Ma’ruza-navigatorlar o‘qitish siklining boshida, talaba

mustaqil ishlashga o‘tishdan oldin, har bir o‘qitish fazasi boshida hamda fanni o‘rganish davomida savol yoki muammolar yuzaga kelganda tashkil etilishi mumkin.

2. Refleksiv ma’ruzalar. Rivojlantiruvchi ta’lim modeli bo‘yicha mini-ma’ruzaning ikkinchi vazifasi auditoriyadagi har bir talabani va butun guruhni mavzu bo‘yicha mutaqil fikrlashini ta’minlash hamda olgan bilimlar rivojlanishining keyingi bosqichiga yo‘naltirishdan iboratdir. Bunday ma’ruzalar refleksiv ma’ruzalar deb ataladi. Refleksiv ma’ruzada pedagog guruhdagi har bir talabaning bilim olish bo‘yicha shaxsiy rivojlanish qobiliyatini hisobga olib, quyidagi ta’limiy vazifalarni yechishni rejalashtiradi:

-guruhdagi qiyin o‘zlashtiruvchi ayrim talabalarni faollashtirish va keyingi bosqichda birgalikda faoliyat yurtishga yo‘naltirish;

- oldin o‘zlashtirilgan mazmun va faoliyat turi bo‘yicha muammoli savollarni tashlab, mavzu bo‘yicha bilimni chuqurlashtirishga imkon yaratish;

- talabalar bilimini rivojlanish pog‘onalari bo‘yicha o‘sishini ta’minlash.

Bunday ma’ruzada o‘qituvchi o‘rganiladigan mavzu bo‘yicha o‘z ruhiy olami, fikrlari hamda talabalarning shaxsiy hamda guruhli faoliyati tahlili yuzasidan vujudga kelgan muammolarni umumiy muhokama mazmuni sifatida o‘rtaga tashlaydi va buning uchun faoliyat refma’ruzasini tashkil etishning quyidagi usullaridan foydalanishni tavsiya etadi:

- tahlil - o‘tgan faoliyatni qayta qurish;

- tanqidiy tahlil - qarama-qarshiliklarni aniqlash usuli sifatida;

- oldin foydalanilgan uslub, vositalar va muammoli savollarni keltirib chiqarishni yetarli emasligi;

- me’yorlash - g‘oyalar va qarorlarni izlash asosi.

Refleksiv ma’ruzada har bir talabaning mavzu muhokamasi bo‘yicha shaxsan qatnashish samaradorligi ta’minlanadi va u tashlagan fikr, g‘oya yoki muammoli savol muhokama qilib boriladi. Bunday ma’ruzada pedagog har bir ishtirokchining hamda butun guruhning o‘zlashtirish darajasini qanday bosqichda ekanligini bilib boradi va uni ma’ruzani o‘zlashtirish loyihasi traektoriyasi bo‘yicha rivojlanishini ta’minlaydi.

Vositaviy ma’ruza. Mini-ma’ruzaning uchinchi vazifasi egallangan nazariy bilimlarni vositaga aylantirish, ya’ni ma’ruzalar davomida olingan bilimlardan aniq real sharoitdagi muammolarni hal etishda vosita sifatida foydalanishga oid ko‘nikma hosil qilishdan iboratdir.

Ma’lumki, inson dastlab ayrim axborotlarni odatiy, hayotiy deb bilim ontologiyasi sifatida qabul qiladi. An’anaviy ta’limda shu bilan ma’ruza o‘z funksiyasini bajarib bo‘ladi yoki ko‘pi bilan talaba olgan bilimlaridan standart hayotiy vazifalarni hal qilishda foydalanish malakasini egallaydi.

Talaba ushbu bilimlarning vositaviy ahamiyatini tushunib yetmaydi, ya’ni ushbu bilimlardan foydalanish chegarasini belgilab ololmaydi. Ta’lim modeliga kompetent yondoshishda pedagogning asosiy vazifasi talabaga faqat standart vazifalar yoki muammolar yechimi bo‘yicha bilim berish emas, balki olingan bilimlardan hayotda uchraydigan turli xil vaziyatlarda vosita sifatida foydalanish malakasini shakllantirishdan iboratdir.

Vositaviy mini-ma’ruzalar ma’ruzaning murakkab janri hisoblanib, ma’ruzachida kuchli rivojlangan uslubiy qobiliyat bo‘lishini talab etadi.

Muammoli ma’ruza. Muammoli ma’ruza tinglovchida ma’ruza mazmuniga nisbatan ilmiy-izlanish munosabatlarini yuzaga kelishiga imkoniyat yaratadi. Muammoli ma’ruzada ma’ruzachi va tinglovchilar hamkorligida amalga oshiriladigan kamida 3 ta maqsad mavjud bo‘ladi:

- tinglovchilar tomonidan nazariy bilimlarni o‘zlashtirish;
- nazariy va ilmiy fikrlashni rivojlantirish;
- bilim olish va kasbiy qobiliyatni shakllantirish.

Muammoli ma’ruzada ma’ruzachining asosiy vazifasi tinglovchilarda ilmiy fikrlash va dunyoqarashni shakllantirish bo‘lsa, tinglovchining asosiy vazifasi ma’ruzachi bilan dialog asosida o‘zi uchun yangi bilimlar, qonuniyatlar va munosabatlarni kashf etishdan iborat bo‘ladi.

Muammoli ma’ruzalarni olib borishni bir qancha usullari mavjud:

1. Mavzu mazmuni va materialini tushuntirmasdan oldin muammoli vaziyatlarni keltirib chiqarish. Muammoli vaziyat bu, tinglovchining bilish predmeti, obyekti bilan ilmiy izlanish, ixtirolar yaratish va yangi bilimlarni olishga yo‘naltirilgan fikran o‘zaro

ta’siridir. Muammoli vaziyatning oddiy belgilari mavjud bo‘lib, ular noaniq muammolar to‘g‘risida o‘z-o‘ziga savol berish, uni hal etish usullari va yo‘llarini izlab topishdan iboratdir.

2. Muammoli ma’ruzani olib borishning ikkinchi usuli fan va amaliyotga ma’lum bo‘lgan, lekin tinglovchi bilmagan qonuniyatlar yoki ixtirolar to‘g‘risida fikrlashga va “sub’ektiv” yangiliklar yaratishga yo‘naltirishdan iboratdir.

Muammoli ma’ruza mazmuni:

- amaliyot uchun juda muhim va o‘zlashtirish juda murakkab muammolar;
- ilmiy g‘oyalar va nazariyalarni mazmuni va ularni yuzaga kelish mantig‘i;
- g‘oyaga oid hodisalarni amaliyotda, hayotda uchrashi;
- tinglovchini tushunishi uchun qiyin savollar darajasi, ketma – ketligi bo‘yicha yoritish;
- tinglovchining bilish ehtiyojini hisobga olish;
- muammolar va vazifalarni asosiy va tashkil etuvchilar shaklida keltirish.

Muammoli ma’ruzada tinglovchining faollik shakllari:

- faol tinglash va tushunish;
- konspekt yuritib borish;
- konspektda savollarni shakllantirib borish;
- ma’ruzachiga savollar berish;
- ma’ruzachi bilan dialogda savollarga javob izlash.

Muammoli ma’ruzada dialog qanchalik ko‘p bo‘lsa, ma’ruzaning samarasi shuncha yuqori bo‘ladi. Muammoli ma’ruzaning mazmunida fanning yangi yutuqlari, uni amalda qo‘llashdagi obyektiv qarama-qarshiliklar keng yoritilishi lozim.

Axborotlarni oddiy o‘qib uzatishga asoslangan an’anaviy ma’ruzalar o‘rnini, rivojlantiruvchi ta’limda talabaning mustaqil bilim olishi va o‘z-o‘zini rivojlantirishga yo‘naltiruvchi ma’ruza-navigator (yo‘naltiruvchi), refleksiv va vositaviy, muammoli ma’ruzalar egallaydi. Ma’ruzalarning yana boshqa ko‘rinishlari, jumladan ma’ruza-panel, ma’ruza-tashviqot, ikki ma’ruzachi ishtirokidagi ma’ruzalar ma’ruza tashkiliy shaklining xususiy ko‘rinishi yoki takomillashgan varianti hisoblanadi.

Ma’ruza turini tanlashda o‘quv auditoriyasining texnik vositalar bilan jihozlanishi, tinglovchilar salohiyati (ular kimlar: o‘quvchilar, talabalar, magistrlar, stajorizlanuvchilar, oliy ma’lumotli xodimlar, olimlar va b.), ma’ruza maqsadi va mavzusi hisobga olinishi kerak.

Umuman olganda, ma’ruzaning quyidagi turlari mavjud:

1. Yo‘naltiruvchi ma’ruza – shaxsiy kompetentlikni rivojlantirish va ushbu predmet mazmunini o‘zlashtirish bo‘yicha ma’ruzachi bilan tinglovchining birgalikdagi faoliyatini (shaxsiy, guruhiy yoki jamoaviy) tashkil etishga yo‘naltirilgan ma’ruzalar.

2. Kirish ma’ruzasi - keyinchalik o‘rganiladigan materiallar bo‘yicha umumiy yo‘nalish beruvchi ma’ruza.

3. Refleksiv ma’ruzalar – oldin o‘zlashtirilgan mazmun va faoliyat usullari bo‘yicha muammolar hosil qilish, yangi mazmunni o‘zlashtirishda muammoli vaziyatlar keltirib chiqarishga qaratilgan ma’ruzalar.

4. Vositaviy ma’ruzalar – aniq muammolarni yechishda oldin o‘zlashtirilgan bilimlardan foydalanish bo‘yicha tasavvurlar hosil qilishga yo‘naltirilgan ma’ruzalar.

5. Umumlashtiruvchi ma’ruza – kurs yakunida barcha o‘rganilgan materiallar bo‘yicha qisqa xulosalar chiqarilib, tinglovchilar tomonidan materiallarni diqqat bilan tinglashlari, qabul qilishlari, tahlil qilib baholashlariga qaratilgan ma’ruza.

6. Axborot yoki “joriy” ma’ruza – u yoki bu axborotlarni yetkazishda foydalaniladigan ma’ruza.

7. Muammoli ma’ruza – real hayotdagi qarama-qarshiliklar odellashtiriladigan ma’ruza. Muammo nazariy va amaliy vaziyatlarni qarama-qarshiligi, ya’ni ayrim hollarda nazariya va amaliyotni bir-biriga to‘g‘ri kelmasligi shaklida talqin qilinadi, uning komponentlari va tashkil etuvchilari yoritiladi.

8. Juftlik (birgalikdagi) ma’ruza –ikki ma’ruzachi ishtirokidagi ma’ruza. Bunda har bir ma’ruzachi aniq rol o‘ynaydi. Masalan, biri ma’ruzachi sifatida ishtirok etsa, ikkinchisi tanqidchi, ekspert yoki muammolarni keltirib chiqaruvchi sifatida qatnashadi.

9. Ma’ruza - maslahat- tinglovchi tomonidan oldindan shakllantirilgan savollar bo‘yicha ma’ruza.

10. Matbuot –anjuman- ma’ruza – ma’ruza mazmuni tinglovchilar savollari asosida yaratiladi, lekin bir necha ma’ruzachilar tomonidan o‘tkaziladi.

11. Reja asosida xatolar kiritilgan ma’ruza – Bunday ma’ruzalarda ma’ruzachi rejali holda ataydan xatolarga yo‘l qo‘yib, tinglovchilarning diqqatini tortadi. Tinglovchilar tomonidan ma’ruza materiallarini diqqat bilan tinglashlari, qabul qilib o‘zlashtirishlari, tahlil qilib baholashlari, axborot mazmunidan erkin va tezkor foydalana olishlariga yo‘naltirilgan ma’ruza.

12. Ma’ruza-dialog – ma’ruza mazmuni bir qator savollar yordamida yetkaziladi va savollarga tinglovchilar tomonidan javob berishlari talab etiladi.

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savollar hamda topshiriqlar:

1. *Ma’ruza haqida ma’lumot bering.*
2. *Psixolog N.U.Zaychenko ma'ruzaning maqsad va vazifalariga muvofiq qaysi funksiyalarni ko‘rsatgan?*
3. *V.N.Karandashev ma'ruzaning qaysi funksiyalarni ko‘rsatgan? Ularni izohlang.*
4. *Ma’ruzaning tuzilishini tushuntiring.*
5. *Ma’ruza o‘qishga qaysi talablar mavjud?*
6. *Ma’ruza turlarini izohlang.*
7. *N.U.Zaychenko ma'ruzani qaysi turlarga ajratgan?*
8. *Muammoli ma’ruza haqida ma’lumot bering.*

13-MAVZU. PSIXOLOGIYA FANLARIDAN SEMINAR VA LABORATORIYA MASHG‘ULOTLARI

Tayan so‘zlar: *seminar mashg‘uloti, seminar turlari, seminar, amaliy, bahs munozara, seminar mashg‘ulotini tashkil qilish, seminar mashg‘ulotiga tayyorlanish, konspektlashtirish.*

13.1. Seminar mashg‘ulotining mohiyati va turlari

Psixologiya fanlarini o‘qitishda seminar mashg‘uloti – bu o‘qitishning dialogik shaklidir. Talabalar faollik darajasi turlicha bo‘lishi mumkin bo‘lsa-da, bilimlarni faol muhokama qilish jarayonida o‘rganish imkoniga yega. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, seminarlarda talabalar ma'ruzalarda yoki kitoblardan olgan bilimlarini qayta hikoya qilish yoki muhokama qilish jarayonida mustahkamlaydilar. Turli manbalar (nafaqat darsliklar) asosida mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ko‘rish va taqdimot qilish talabalarning kursga doir bilimlarini kengaytiradi.

Seminar, psixologiyani o'qitishning tashkiliy shakli sifatida, ma'ruzadan farqli o'laroq, o'quv materialini muhokama qilishda talabalarning ishtirokini o'z ichiga oladi.

Seminarlarning maqsadi:

1) talabalarning o'quv faoliyatini faollashtirish;

2) muammoning echimini ijodiy izlash;

3) kognitiv motivatsiyani rivojlantirish;

4) ijodkorlikni rivojlantirish;

5) kasbiy fazilatlar, bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish.

Vazifalar:

- aniq mavzular bo'yicha olingan nazariy bilimlarni umumlashtirish, tizimlashtirish, chuqurlashtirish, mustahkamlash;

- olgan bilimlarini amalda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish;

- intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish;

- kasbiy ahamiyatga ega fazilatlarni rivojlantirish.

Maqsad va vazifalarga qarab, o'quv jarayonidagi seminarlar quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1) bilimlarni mustahkamlash;

2) bilimlarni kengaytirish;

3) mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish;

4) intellektual faoliyatni rag'batlantirish.

Olimlar seminarlarning har xil turlarini ajratib ko'rsatadilar. B.S.Badmaev seminarni quyidagi turlarini ko‘rsatgan[1]:

1) seminar-praktikumlar (ushbu seminarlarda talabalar amaliy vaziyatli muammolarni hal qilishning turli variantlarini muhokama qiladilar, psixologik pozitsiyalarni argumentlar sifatida ilgari suradilar);

2) seminar-munozaralar (psixologik tadqiqotlarning turli usullarini muhokama qilishni o‘z ichiga oladi).

V.N.Karandashev seminarlarni **reproduktiv** va **produktiv** turlarga ajratilgan[2]:

Seminar mashg'ulotining reproduktiv turi talabalarning bilim qobiliyatini quyidagi metodlar yordamida faollashtirishni o'z ichiga oladi:

- ma'ruzalar, darsliklar yoki boshqa manbalar materiallari asosida o'quv materialini yodlash va aniq qayta hikoya qilish;
- o'z fikrini bildirish.

Reproduktiv turdagi seminarni o'tkazish, olimning fikriga ko'ra, quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- tashkiliy qism (mashg‘ulotda davomatni aniqlash);
- mashg‘ulotga tayyorgarlikni va tayyorgarlik jarayonida talabalar duch kelgan qiyinchiliklarni aniqlash;
- mashg‘ulotining asosiy savollarini shakllantirish va ularni talabalar tomonidan ochib berish;
- qo'shish va sharhlash, o'z fikrini bildirish.

Seminarni tashkil yetishning produktiv turi talabalarning bilish qobiliyatlarini taqqoslash, tahlil qilish, umumlashtirish va yeshitgan yoki o‘qigan o‘quv materialini baholash orqali faollashtirishni o‘z ichiga oladi. Seminarning bu turi davomida talabalar materialni muayyan manbadan ko‘chiribgina qolmay, balki ularning aqliy faoliyatini faollashtiruvchi savol va topshiriqlar taklif etiladi. Seminarning produktiv turini o‘tkazish muammoli vaziyatlarni yaratish, talabalar va o‘qituvchi o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni tashkil yetishni o‘z ichiga oladi.

---

[1] Бадмаев, Б.Ц. Методика преподавания психологии [Текст]: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений / Б.Ц. Бадмаев. – М.: Владос, 2001. – 304 с.

[2] Карандашев, В.Н. Методика преподавания психологии [Текст]: учеб. пособие / В.Н. Карандашев. – СПб.: Питер, 2008. с. 121

Psixolog N.U.Zaychenko quyidagi seminar turlarini aniqlaydi:

1) didaktik maqsadlariga ko‘ra (umumlashtirish seminari, o‘quv adabiyotlarini o'rganish bo'yicha seminar);

2) tashkiliy metodiga ko‘ra (seminar-munozara, seminar-tadqiqot, seminar-suhbat, seminar-konferensiya).

13.2. Seminar mashg‘ulotini tashkil qilish va o‘tkazish

O'qituvchini seminarga tayyorlash dars uchun mavzuni tanlash, uni rejalashtirish va savollar berish, adabiyotlarni tanlash, konspekt yozishdan iborat. Dars mavzulari kurs ishi dasturida rejalashtirilgan va turli mezonlarga asoslanib tanlanishi mumkin.

1. Seminarlarning mavzulari ma'ruza mavzularini takrorlashi mumkin, masalan, "Xotira", "Diqqat", "Tafakkur". Bunday holda, seminar ma'ruzada muhokama qilingan kursning tegishli qismini mustahkamlash, to'ldirish yoki ijodiy muhokama qilishga qaratilgan.

2. Seminarlarda ma'ruzalarda o'rganilmagan mavzular ko'rib chiqilishi mumkin. Maasalan, "Diqqat" mavzusi ma'ruzada o'rganilmasligi mumkin, ammo o‘quv adabiyotlarga asoslangan holda darsda muhokama qilinadi va shu orqali bilimlarni kengaytirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

3. Seminar mashg‘ulotining mavzulari tegishli bo'limning o'ziga xos jihatlarini aks ettirishi mumkin, masalan, "Xotiraning individual xususiyatlari va muvaffaqiyatli yodlash texnikasi". Bunday holda, dars tegishli bo'lim bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirishga qaratilgan bo'ladi.

13.3. O‘qituvchining seminar mashg‘ulotiga tayyorlanishi

O‘qituvchi seminarga tayyorlanishining muhim jihati - bu talabalarning fikrlash va muhokama uchun savollar qo‘yishdir. Mashg‘ulotni olib borish uchun qo‘yiladigan savollar soni va turiga bog‘liq. Ko‘pchilik o‘qituvchilar seminarga 3 tadan 5 tagacha savol topshirishni zarur deb hisoblaydilar. Ikki soatlik darsda ko'proq savollarni muhokama qilish mumkin emas deb taxmin qilinadi. Ushbu yondashuv reproduktiv tipdagi seminar uchun mos keladi. Biroq, ko'p narsa savollarning mohiyati va hajmiga bog'liq. Yana aniq savollar, shuningdek, taqqoslash (o‘xshashlik va farqlarni qidirish), tahlil, sintez, umumlashtirish, konkretlashtirish va natijaviylikka undaydigan

savollar boshqa vaqt sarflarini talab qilishi mumkin. Ba’zan bunday masalalar muhokamasini o‘z vaqtida rejalashtirish qiyin.

Adabiyotlarni seminar mashg‘uloti savollarini tanlashdan oldin aniqlash zarurdir. Zero, seminar mashg‘uloti savollariga javob topish talabalarning qanday adabiyotlarni o‘qishlariga bog‘liq. Adabiyotlarni tanlashning muhim jihati uning hajmini aniqlashdan iborat bo‘lib, talabalar tayyorgarlik darajasiga mos bo‘lishi kerak. Ba’zi o‘qituvchilar qancha ko‘p bo‘lsa, shuncha yaxshi prinsipidan foydalanadilar. Biroq, bu metodologik va psixologik nuqtai nazardan noto‘g‘ri yondashuv. Bu ijrochi talabalar orasida umidsizlikka olib keladi, chunki ular boshqa fanlar bo‘yicha seminar mashg‘ulotlariga tayyorgarlik ko‘radilar va ularga hamma narsa uchun yetarli vaqt yo‘q. Metodik jihatdan to'g'ri yondashuv o'quv dasturlariga asoslangan bo'lishi kerak. Bu shuni anglatadiki, talabaning seminarga tayyorgarlik muddati seminarning davomiyligidan sezilarli darajada farq qilmasligi kerak.

Seminar mashg‘uloti konspekti tarkibi:

1) mavzu;

2) savollar;

3) adabiyot;

4) talabalarning darsga tayyorgarligini tekshirish shakllari;

5) masalalarni muhokama qilishda talabalar ishini tashkil yetish shakllari;

6) dars yakunida erishiladigan natijalar.

13.4. Talabalarning seminar mashg‘ulotiga tayyorlanishi

Talabalarni seminar mashg‘ulotiga tayyorlanishi bu adabiyotlarni izlash, o'qish va yozuvlarni olib borishdir. Seminarda talabalarning adabiyot izlashdagi mustaqillik darajasi o'qituvchi topshiriqni qanday aniq tuzganligi bilan belgilanadi. Metodik jihatdan muhim material manbalarini ko'rsatish va tegishli ma'lumotlarni topish mumkin bo'lgan sahifalarni tavsiya qilish yoki tavsiya qilmaslik talabalarning tabiatiga bog'liq. Birinchi kurs talabalariga manbalar aniq ko‘rsatilishi kerak, chunki ularda mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalari unchalik shakllanmagan. Maxsus seminarlar doirasida katta kurs talabalariga o‘qish va tayyorlanishlari uchun adabiyotlar umuman tavsiya etilmasligi mumkin. Shu tariqa talabalarga adabiyotlar bilan mustaqil ishlash ko‘nikmasi shakllantiriladi.

Talabalarni seminarlarga tayyorlashda darslik va boshlang‘ich manbalarni o‘qish muhim ta’limiy vazifa hisoblanadi. Berilgan savollar bo‘yicha ma’lumotlarni mustaqil izlashga va tanlashga o‘rgatiladi. Shu bilan birga o‘qituvchi quyidagi metodik nuqtani hisobga olishi kerak: savollar qanchalik aniq bo‘lsa, talaba tomonidan manbalarni o‘rganish jarayoni shunchalik maqsadga muvofiq bo‘ladi. Samarali o‘qish har doim savollarga javob izlashdir, buning uchun kerakli ma’lumotlarni tanlashdir.

Kitob va maqolalarni konspektlashtirish seminarga tayyorgarlik ko‘rishda talabalarga beriladigan odatiy vazifadir. Biroq, uning samaradorligi har doim ham aniq emas. Yetarli tushunchaga ega bo‘lmagan talabalar asosiy manbalarning muhim qismlarini qayta yozadigan juda keng tarqalgan vaziyat. Konspektlashtirish samaradorligini oshirish uchun talabalarga mazkur faoliyatni to‘g‘ri amalga oshirish lozim:

* asosiy axborotni tanlash va uni ikkilamchi axborotdan ajratish;
* matnni leksik va sintaktik qayta ishlash;
* o‘qilgan materialni sxema va jadvallarda ifodalsh va tartiblash;
* o‘qilgan material asosida xulosalarni shakllantirish.

Faqatgina bu holatda, konspektni tayyorlash oddiy matnni qayta yozish emas, balki aksariyat o'qituvchilar kutgan ma'lumotni intellektual qayta ishlash bo'ladi, bu esa talabalarni birlamchi manbalar haqida eslatma olishga majbur qiladi.

13.5. Laboratoriya mashg‘ulotlarining mazmuni

O'qitish tajribasidan ma'lumki, talabalarning amaliy faoliyatining turli shakllari o'rganilayotgan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish va mustahkamlash kuchini sezilarli darajada oshiradi. Laboratoriya mashg'ulotlari aynan shu maqsadga xizmat qiladi. Laboratoriya mashg‘ulotlari talabalarni nazariy va amaliy tayyorlashning muhim qismini tashkil etadi.



Psixologiyadan laboratoriya mashg'ulotlarining asosiy vazifalari

Laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar turli didaktik maqsadlarga ega. Laboratoriya ishlarining etakchi didaktik maqsadi muayyan nazariyalarni eksperimental tasdiqlash va tekshirishdir. Amaliy mashg'ulotlarning asosiy didaktik maqsadi amaliy— kasbiy (muayyan harakatlarni amalga oshirish qobiliyati, kasbiy faoliyatda zarur bo'lgan operatsiyalar) yoki o'qitish (keyingi o'quv faoliyatida zarur bo'lgan o'quv vazifalarini hal qilish qobiliyati) ko'nikmalarni shakllantirishdir.

Albatta, ko'p hollarda ikkala didaktik maqsad ham bir-biri bilan chambarchas bog'liq, shuning uchun ba'zi mashg'ulotlar turlari laboratoriya-amaliy deb nomlanadi. Psixologiyadan laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar o'tkazish jarayonida:

1) talabalar, bir tomondan, nazariyalarning tasdig'ini topadilar, ma'lum qonuniyatlar va bog'liqliklar mavjudligiga ishonch hosil qiladilar;

2) boshqa tomondan, ular psixologik tadqiqotlarni tashkil qilish va o'tkazish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni, kuzatuv, taqqoslash, tahlil qilish, empirik tadqiqot ma'lumotlarini qayta ishlash, bog'liqliklarni aniqlash, xulosalar va umumlashtirishlar va tadqiqot natijalarini rasmiylashtirish qobiliyatlarini rivojlantiradilar.

Laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarning mazmuni va hajmini tanlashda quyidagilarga e’tibor berishi lozim:

1) o'zlashtirish uchun o'quv materialining murakkabligi;

2) mavzulararo va fanlarao aloqadorligi;

3) o'rganilayotgan nazariy qoidalarning kelgusi kasbiy faoliyat uchun ahamiyati;

4) o'quv ishlari to'plamida muayyan ishning o'rni;

5) o'quv intizomi mazmunining yaxlit qarashni shakllantirish uchun laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarning ahamiyati.

Psixologiyadan laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar uchun odatiy vazifalar:

1)Demonstratsion eksperiment;

2)individual topshiriqlar;

3)guruhiy topshiriqlar;

4)juftlikda (kichik guruhlarda) eksperiment o'tkazish;

5)psixologik muammolarni hal qilish;

6)guruh muhokamasi;

7)professional vazifalarni modellashtiruvchi ishbilarmonlik o'yinlar.

13.6. Laboratoriya mashg‘ulotlarining turlari, o‘tkazilish tartibi

Laboratoriya ishlari va amaliy mashg’ulotlarni bajarishda o'quv guruhi kichik guruhlarga bo'linadi, bu esa mashg’ulotlarni tashkil qilishda bir qator afzalliklari mavjud. O'qituvchida kichik guruhlar va alohida talabalar faoliyatini samarali boshqarish va ularning o'quv ishlarida o'z vaqtida yordam berish uchun ko'proq imkoniyatlar mavjud.

Ko'pgina laboratoriya ishlari maxsus jihozlangan o'quv laboratoriyalarida olib boriladi.

Mashg’ulot uchun topshiriqlar tarkibi shunday belgilangan bo'lishi kerakki, ular belgilangan vaqt ichida talabalarning ko'pchiligi tomonidan yuqori sifatli bajarilsin. Laboratoriya ishlariga va amaliy mashg'ulotlarga ajratilgan vaqtdan samarali foydalanish uchun tezroq ishlaydigan talabalar uchun qo'shimcha topshiriqlarni tanlash foydalidir.

Mashg’ulotning davomiyligi kamida ikki akademik soatni tashkil qiladi. Mashg’ulot rejasi odatda quyidagi fikrlarni o'z ichiga oladi:

1) talabalarni mashg’ulotga auditoriyadan tashqari mustaqil tayyorlash;

2) o'qituvchi tomonidan talabalarning mashg’ulotga nazariy tayyorgarligini tekshirish;

3) talabalarga laboratoriya va amaliy mashg’ulotlarni olib borish bo'yicha ko'rsatma berish;

4) amaliy vazifalarni bajarish;

5) ish natijalarini muhokama qilish;

6) bajarilgan ishlar to'g'risida hisobot tayyorlash;

7) o'qituvchining bajarilgan topshiriqlarini va talabalarning tegishli malakalarini o'zlashtirish darajasini baholash.

Laboratoriya ishlari va amaliy mashg'ulotlar reproduktiv, qisman izlanuvchi va izlanuvchi xususiyatiga ega bo'lishi mumkin.

Reproduktiv xarakterga ega bo'lgan ishlar ularni amalga oshirishda talabalar batafsil ko'rsatmalardan foydalanishlari bilan ajralib turadi:

♦ ishning maqsadi;

♦ tushuntirishlar (nazariy qoidalar va tushunchalar);

♦ jihozlar va materiallar;

♦ ishni bajarish tartibi;

♦ xulosalar;

♦ nazorat savollari;

♦ adabiyot.

Qisman izlanuvchi xususiyatiga ega bo'lgan laboratoriya mashg’ulotlarida talabalar batafsil ko'rsatmalardan foydalanmasliklari bilan ajralib turadi, ularga kerakli harakatlarni amalga oshirish tartibi berilmaydi; bunday ishlar talabalardan material va texnikani mustaqil tanlashni va ishni bajarish usullarini tanlashni talab qiladi.

Izlanuvchi xarakteriga ega bo'lgan ishlarda talabalar o'zlari uchun mavjud bo'lgan nazariy bilimlarga asoslanib, yangi muammolar hal etishlari kerak.

Laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarni rejalashtirishda reproduktiv, qisman izlanuvchi va izlanuvchi vazifalarini birlashtirish mumkin.

Mashg’ulotlarda talabalar ishini tashkil etish shakllari: 1) frontal, 2) guruhiy, 3) individual.

Laboratoriya mashg’ulotlarini tashkil etishning **frontal shaklida** talabalar bir vaqtning o'zida bir xil vazifani bajaradilar. Talabalar tomonidan o'zini o'zi bilish maqsadida psixologik testlarni o'tkazish ushbu amaliy mashg'ulotning o'ziga xos namunasidir.

Laboratoriya mashg’ulotlarini tashkil etishning **guruhiy** shaklida bir xil ish bir necha kishidan iborat kichik guruhlarda amalga oshiriladi. Juftlarda (eksperimenter — sinov predmeti) yoki uch (eksperimenter — protocolist — sinov predmeti) psixologik eksperimentlarni o'tkazish

psixologiya bo'yicha ko'plab laboratoriya ishlarining odatiy sxemasi hisoblanadi.

Laboratoriya mashg’ulotlarini tashkil etishning **individual** shaklida har bir talaba individual topshiriqni bajaradi. Keyin ular ishni bajarish tajribalari bilan o'rtoqlashadilar.

Laboratoriya ishlari va amaliy mashg'ulotlar samaradorligini oshirish uchun uslubiy ko'rsatmalar bilan birga topshiriqlar, masalalar, mashqlar to'plamlarini ishlab chiqish tavsiya etiladi.

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savollar hamda topshiriqlar:

1. *Seminar mashg‘uloti haqida ma’lumot bering.*
2. *B.S.Badmaev seminarni qaysi turlarini ko‘rsatgan?*
3. *Seminar mashg'ulotining reproduktiv turini izohlang.*
4. *Reproduktiv turdagi seminarni o'tkazish metodikasini tushuntiring.*
5. *O‘qituvchi seminarga tayyorlanishining muhim jihatlarini ayting.*
6. *Talabalarni seminar mashg‘ulotiga tayyorlanishi haqida ma’lumot bering.*
7. *Psixologiyadan laboratoriya mashg'ulotlarining asosiy vazifalarini tahlil qiling.*
8. *Laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarning mazmuni va hajmini tanlashda nimalarga e’tibor berish kerak?*
9. *Laboratoriya mashg‘ulotlarining turlari va o‘tkazilish tartibini tushuntiring.*

14-MAVZU. PSIXOLOGIYADA O‘QITISH METODLARIGA UMUMIY TAVSIF

Tayan so‘zlar: *o‘quv mashg‘ulotlari taksonomiyasi, ma’lumotlarni idrok qilish, oddiy tafakkur operatsiyalari, murakkab tafakkur operatsiyalari, nutqiy malakalar, ijodiy tafakkur, refleksiv, og’zaki metodlar.*

14.1. Psixologiyani o‘rganishda o‘quv mashg‘ulotlari taksonomiyasi

O'quv vazifalari tegishli usul va texnikani tanlash uchun zarur bo'lgan ta'lim maqsadlarini aniqlashdan iborat. Ularning yordami bilan talabalar nimani o'rganishlari kerakligi aniqlanadi, hazm bo'ladigan kontent tahlil qilinadi.

D.A.Tollinger (1981) tomonidan o'quv vazifalarni tasniflashning qiziqarli va konstruktiv yondashuvi taklif qilindi; psixologiya ta'limiga nisbatan ushbu yondashuv V.Ya.Lyaudis (1989) tomonidan qayta ko'rib chiqilgan.

O'quv vazifalari kognitiv xususiyatlariga ko'ra olti tasnifiy guruhga bo'linish mumkin:

1) birinchi guruh bilimlarni takrorlashni talab qiladigan vazifalardan iborat;

2) ikkinchisi - oddiy aqliy harakatlarni talab qiladigan vazifalar (faktlarni tavsiflash va tizimlashtirish);

3) uchinchisi - murakkab aqliy operatsiyalar uchun vazifalar (argumentatsiya, tushuntirish);

4) to'rtinchisi - samarali fikr harakatini ifodalash uchun ma'lum nutq so'zlarini shakllantirish bilan bog'liq vazifalar (referat, insho, asl ilmiy matn)

5) beshinchisi - samarali fikrlash uchun vazifalar (muammolarni hal qilish). Har bir guruh ichida vazifalarning kichik guruhlari ajratib ko'rsatiladi;

6) oltinchi - refleksiv vazifalar.

Psixologiyani o‘qitishda ta'lim maqsadlari taksonomiyasi

1. Ma’lumotlarni	1.1Tanib olish vazifalari
	1.2.Alohida faktlarni qayta ko‘rib chiqish bo'yicha vazifalar (ma'lumotlar, tushunchalar)

idrok qilish bo'yicha vazifalar	1.3. Ta'riflarni takrorlash vazifalari (me'yorlar, qoidalar va boshqalar)
	1.4. Matnni qayta ko‘rib chiqish bo'yicha vazifalar
2. Oddiy tafakkur operatsiyalarini o'z ichiga olgan vazifalar	2.1. Faktlarni aniqlash vazifalari (o'lchov, oddiy muammolarni hal qilish va h.k.)
	2.2. Faktni hisobga olish va tavsiflash uchun topshiriqlar (ro'yxat, tartib)
	2.3. Faoliyat jarayonlari va usullarini ro'yxatga olish va tavsiflash vazifalari
	2.4. Tahlil va sintez uchun vazifalar
	2.5. Taqqoslash va farqlash vazifalari (komparatsiya, diskriminatsiya)
	2.6. Tartiblashga doir vazifalar (klassifikatsiyalash, kategoriyalash)
	2.7. Munosabatlarni aniqlash vazifalari (sabab, natija, maqsad, vosita, ta'sir, funksiya, foyda, usul va boshqalar).
	2.8. Abstraktsiya, konkretlashtirish, umumlashtirish vazifalari
	2.9. Oddiy topshiriqlarni hal etishga qaratilgan noma'lum miqdorlarni manipulyatsiya qilish va ularni tartib bo'yicha qidirish vazifalar
3. Murakkab tafakkur operatsiyalarini o'z ichiga olgan vazifalar	3.1. Transformatsiya vazifalari (tarjima, belgilarni so'zlar bilan ifodalash)
	3.2. Interpretatsiya vazifalari (maqsad, ma'no va boshqalarni tushuntirish).
	3.3. Induktsiya vazifalari
	3.4. Deduktsiya vazifalari
	3.5. Argumentatsiya vazifalari (ishonchni tasdiqlash, tekshirish)
	3.6. Baholash vazifalari
4. Bilimlarni umumlashtiruvchi va muayyan nutqiy malakalarni shakllantiruvchi vazifalar	4.1. Ko'rib chiqish vazifalari (eslatmalar, xulosalar va b.)
	4.2. Doklad, hisobot va boshqalarni tuzish vazifalari.
	4.3. Mustaqil yozma ish uchun topshiriqlar, loyihalar va b.
5. Ijodiy tafakkurni o'z ichiga olgan vazifalar	5.1. Amaliyotda qo'llash uchun vazifalar
	5.2. Muammoli vaziyatlarni hal qilish uchun vazifalar
	5.3. Maqsadni belgilash, savol berish, vazifani aniqlashtirish
	5.4. Kuzatish va aniq empirik ma'lumotlarga asoslangan evristik qidiruv vazifalari

	5.5. Mantiqiy tafakkurga asoslangan evristik izlash vazifalari
	5.6. Muammoli masalalarni hal qilish uchun yozma matnda nutqni rasmiylashtirish
	5.7. Empirik ma'lumotlarni, hodisalarni tahlil qilish va umumlashtirish vazifalari
	5.8.Ochiq tarzda guruh muammolarini hal qilish
6. Refleksiv vazifalar	6.1. Talabalarni tanib olish, yodlash, esga olish harakatlari tuzilmalariga nisbatan refleksli protseduralarni o'zlashtirishga imkon beradigan vazifalar
	6.2. Evristikaning har xil turlariga nisbatan refleksli jarayonlar
	6.3. Yozma matnni yaratish bilan bog'liq refleksiv harakatlar.(turli xil ilmiy matnlar)
	6.4. Muayyan muammolarni birgalikda va individual hal qilish strategiyasini yaratish vazifalari
	6.5. Muammoni birgalikda hal qilish jarayonida shaxslararo o'zaro ta'sir o'tkazish va aloqa usullarini tanlash bo'yicha vazifalar
	6.6. "Vaziyat hissi" ni rivojlantirish, murakkab ziddiyatli vaziyatda intuitiv echimlarni topish bo'yicha vazifalar

Ushbu taksonomiyadan psixologiyada o'quv vazifalarining tipologiyasi uchun samarali foydalanish mumkin. V.Y.Liaudis psixologiyani o'qitish bilan bog'liq holda ba'zi bir vazifalar guruhlarini, xususan, 4-5-guruhlarni kengaytirishni taklif qildi. 4-guruhning vazifalari qiziqarli, chunki ular aqliy faoliyatning reproduktiv va samarali shakllarini birlashtiradi. Shu munosabat bilan turli xil psixologik tavsif va tushuntirishlarni ajratish mumkin.

Shunday qilib, tavsiflar tushuntirish shakliga ega bo'lishi mumkin, mantiqiy munosabatlarning proektsiyasi shakli metafora va badiiy fikrlashning boshqa usullari yordamida yaratilishi mumkin. Tushuntirishlar kontseptual mantiqiy fikrlash apparati (ramzlarni talqin qilish, ramziy analoglardan foydalanish — masal, afsona, badiiy tasvir) yordamida tuzilishi mumkin.

6-guruh vazifalarining o'ziga xos xususiyati shundaki, ularni hal qilish uchun ta'limning o'zaro ta'sirining maxsus holatini yaratish zarur. Bu holat o'quvchilarga o'zlarining bilish harakatlarining usullarini amalga oshirish va ta'kidlash hamda barcha turdagi muammolarni hal qilish uchun ongli ravishda strategiyalarni ishlab chiqish zarurati bilan

duch kelishi bilan tavsiflanadi. Mavzular bo'yicha bilimlarni o'rnatishdan talabalar o'zlarining aqliy faoliyati usullarini aniqlash uchun o'rnatishga o'tadilar.

Ro'yxatda keltirilgan vazifalar turli xil ta’lim metodlari yordamida hal etiladi.

14.2. Psixologiyani o'qitishda og'zaki bayon metodlari

Yuqorida ta’kidlanganimizdek, "metod" atamasi yunoncha "methodos" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, maqsadga eltuvchi yo‘lni ifodalaydi. Ta'lim metodi —bu o‘qituvchining o‘quvchilarni o‘quv materialini o‘zlashtirishga, turli didaktik vazifalarni hal etishga yo‘naltirilgan, o‘quv-biluv faoliyatini tashkil etish yo‘lidir.

Ta'lim metodlarini bilim va ko'nikmalar manbai bo'yicha tasniflash keng tarqalgan. Bunga muvofiq quyidagilar mavjud:

1. Og'zaki bayon metodlari (bilim va ko'nikmalar manbai - og'zaki yoki bosma so'z).

2. Ko‘rgazmali metodlar (bilim va ko'nikmalar manbai - obyektlar, hodisalar, ko'rgazmali qurollar).

3. Amaliy metodlar (bilim va ko'nikmalar manbai bu talabalar tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakatlardir).

Og'zaki bayon metodlari psixologiyani o'qitish metodlari orasida yetakchi o'rinni egallaydi. Og'zaki bayon metodlarining asosiy ustunligi shundaki, ular qisqa vaqt ichida katta hajmdagi ma'lumotlarni uzatishga imkon beradi. Og'zaki bayon metodlariga hikoya, tushuntirish, suhbat, munozara, kitob bilan ishlash kiradi. Ushbu metodlardan asosan ma'ruza va seminar mashg'ulotlarida, talabalarning darsliklar, o'quv qo'llanmalar va ilmiy adabiyotlar bilan mustaqil ishlashlarida, konsultatsiyalar paytida foydalaniladi.

Talabaning idrok etadigan nutqi og'zaki yoki yozma (bosma) bo'lishiga qarab, og'zaki metodlarni og'zaki va yozma turlariga ajratish mumkin. Ularning har birining o'ziga xos afzalliklari va kamchiliklari mavjud. O'qituvchi ma'ruzalar, seminarlar va konsultatsiyalarda foydalanadigan og'zaki metodlar unga materialni yanada muvaffaqiyatli tushuntirishga imkon beradi:

♦ nutqdan tashqari vositalardan foydalanish (o'qituvchining mimikalari, imo-ishoralari, nutq intonatsiyasi, holati, pantomimikasi);

♦ o'quv materialini anglash bo'yicha talabalardan o'z vaqtida fikr-

mulohazalar olish (nutq so'zlari, savollar, talabalarning yuz ifodalari yordamida);

♦ talabalarni idrok etish va tushunishni faollashtirish.

Yozma nutqda bu imtiyozlar yetishmayapti.

Boshqa tomondan, gapirish axborot uzatish tezligi jihatidan unchalik samarasiz (nutq tezligi matn o'qish tezligidan past). Shuning uchun talaba darslikning tegishli qismini o'qituvchining takrorlashida tinglashdan ko'ra tezroq o'qishi mumkin. Shu munosabat bilan ma'ruzalarning axborot funksiyasi hozirgi paytda o'z ahamiyatini yo'qotmoqda.

Yozma ta'lim metodlari axborot uzatishning yuqori darajasi bilan tavsiflanadi. Shuning uchun ma'lumotga ega bo'lgan o'quv materiallari talabalarga bosma matnlar (kitoblar, darsliklar va o'quv qo'llanmalari, tarqatma materiallar) shaklida berilishi kerak. Talabalarlarning bosma materiallar bilan ishlashini yanada samarali yo‘lga qo‘yish uchun bir qator maxsus texnikalardan foydalanish mumkin:

♦ konspektlash - o'qilgan kontentning qisqacha bayoni;

♦ matn rejasini tuzish (oddiy yoki murakkab reja);

♦ tezislar yozish - o'qilgan matnning asosiy g'oyalari qisqacha bayoni;

♦ iqtibos keltirish - matndan so'zma-so'z parchalar yozish;

♦ annotatsiya yozish - o'qilganlarning asosiy ma'nosini qisqacha, ixcham bayon qilish;

♦ taqriz - o'qilgan materialga munosabatingizni bildirgan qisqa sharh yozish;

♦ formal-mantiqiy modelni tuzish - o'qilgan materialni og'zaki-sxematik aks ettirish;

♦ g’oyalar tezaurusni tuzish - mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarning tartiblangan to'plami;

♦ g'oyalar matritsasini tuzish - turli mualliflarning asarlaridagi bir xil obyektlar, hodisalarning qiyosiy xarakteristikasi.

O‘tgan boblarda ta’kidlaganimizdek, og'zaki metodlar o‘z navbatida dialogik va monologikka bo‘linadi.

Og‘zaki nutqning eng sodda turi dialog, ya'ni allaqanday masalalarni birgalikda muhokama qilayotgan va hal etilayotgan hamsuhbatlar tomonidan olib boriladigan suhbat hisoblanadi.

Og‘zaki nutqning ikkinchi bir turi monolog nutq bo‘lib, uni bitta

kishi boshqasiga yoki uni tinglayotgan ko‘plab kishilarga qarata gapiradi: bunga o‘qituvchining hikoyasi, o‘quvchining kengaytirilgan javobi ma'ruza va shu kabilar kiradi. Talabalarning o'qituvchi monologini anglashi ularga ma'lum qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi, ayniqsa u darslikning yozma matnini so'zma-so'z takrorlasa. Og'zaki monologik nutq tuzilishi bilan yozma nutqdan farq qiladi. O'qituvchi ushbu farqlarni bilishi kerak. Ma'ruza tayyorlashda nafaqat darslik va o'quv qo'llanma, kitob, maqoladan tegishli materialni qayta yozish, balki uni didaktik tarzda qayta ishlash va og'zaki nutq uslubi hamda sintaksisiga moslashtirish kerak.

Kitobning (yoki maqolaning) matnini oddiy takrorlash uzun gaplar va nutqning murakkab burilishlari tufayli qiyinchilik bilan qabul qilinadi. Bir guruh nemis olimlari kattalarning yarmidan ko'pi 13 so'zdan ko'p bo'lgan jumlalarni eshitish qobiliyatiga ega emasligini aniqladilar. Agar og'zaki so'zlar zanjiri 6 soniyadan ko'proq bo'lsa, tinglovchilar iboraning ma'nosini yo'qotadilar. Katta yoshdagilarning uchdan bir qismi, hatto 11-so'zni aytganda ham gapning boshlanishini unutishadi. Uzoq jumlalar (18 dan ortiq so'zlar) tinglovchilarning 15 foizi anglash va o'zlashtirishga muvaffaq bo‘ladi[1]. Shuning uchun ma'ruza tayyorlash jarayonida kitobning asl matnini quyidagi tartibda ko'rib chiqish zarur:

1) ahamiyatsiz so'zlar va bo'laklarni tashlab, jumlalar uzunligini qisqartirish;

2) murakkab gaplarni sodda gaplarga ajratish;

3) murakkab jumlalarning tuzilishini sodda va tushunarli tarzda qayta qurish;

4) talabalar motivatsiyasi va faolligini rag'batlantiruvchi savollarni shakllantirish;

5) o'qituvchining fikrlarini tushunishda qiyinchilik tug'dirishi mumkin bo'lgan atamalarni, ularning ilmiy xususiyatlarini yo'qotmasdan, sodda so'zlarga almashtirish.

O'qituvchi nutqining psixologik xususiyatlari ma'ruza samaradorligini oshirish uchun katta ahamiyatga ega. Bunday holda quyidagi ta'sirchan nutq vositalaridan foydalanish tavsiya etiladi:

1) yangi materialni talabalarning o'zlashtirilgan bilim va

[1] Карандашев В.Н. Методика преподавания психологии - М. Спб 2007, 76-ст.

tajribalari bilan bog'lash;

2) monologga kiritilgan fikrni taqdim etishning savol-javob shakli;

3) og'zaki nutq sintaksisidan foydalanish (murakkab jumlalardan sodda gaplarning ustunligi, murakkab jumlalarning aniq tuzilishi);

4) o'quv materialini taqdim etishda shaxsiylashtirish (materialga shaxsiy munosabat, shaxsiy tajribani ko‘rsatish);

5) tasviriy, nutqning illyustratsiyasi;

6) yaxshiroq tushunish uchun qayta yozish;

7) informatsion bilan bir qatorda pragmatik bayonotlardan foydalanish (o'quvchilar e'tiboriga, xotirasiga, fikrlashiga, hissiyotlariga ta'sir qiladi).

O'qituvchi nutqidan tashqari, o'quvchilarga nutqsiz ta'sir ko'rsatadi. Bunday ta'sirning asosiy vositalariga quyidagilar kiradi.

1) aloqa masofasi (makon joylashuvi nuqtai nazaridan);

2) vizual aloqa;

3) mimika;

4) vaziyat;

5) jistlar;

6) nutqning fonitik xususiyatlari (temp, ohang, kuch, ritm, kuchlanish, pauza, intonatsiya).

Yuqoridagi nutq vositalaridan va nutqdan tashqari ta'siridan muvaffaqiyatli foydalanish monologning og'zaki o'qitish metodi sifatida samaradorligini oshiradi.

Talabalarning faol pozitsiyasi tanqidiy fikrlash bilan bir qatorda kuchli bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. Dialoglik metodning ushbu afzalligi katta darajada seminar va konsultatsiyalarda amalga oshiriladi, chunki dialog va munozara ushbu mashg'ulotlar shakllarining asosidir. Ularning samaradorligi savollarning qanday berilishiga bog'liq. Bu shunday bo'lishi mumkin:

1) reproduktiv faoliyatni rag'batlantiradigan savollar: "eslab qolish", "aytib berish", "tavsiflash", "tavsif berish", "ochish", "qo'shish";

2) samarali faoliyatni rag'batlantiradigan savollar: "taqqoslash", "qarama-qarshilik", "umumlashtirish", "xulosa chiqarish", "tahlil qilish", "ta'kidlash", "ular qanday bog'liq".

Y.A.Samarin quyidagi turdagi savollardan foydalanishni tavsiya

qiladi:

1) talabaning psixologik tushunchaning mohiyatini o'ylashga o'rgatadigan savollar, masalan, " qiziqish va qiziquvchanlik o'rtasidagi farq nima?"»;

2) muayyan psixologik hodisalar va qonuniyatlarni aks ettiradigan hayotiy misollarni keltirishni talab qiladigan savollar;

3) talabalarning ta'lim faoliyati va xatti-harakatlari bilan bevosita bog'liq savollar, masalan, "o'quv materialini o‘zlashtirishning qaysi usulini o'zingiz uchun eng yaxshi deb bilasiz va nima uchun".

Javoblarni tinglagandan so'ng o'qituvchi munozara tashkil qilishi mumkin.

Klassik dialogik o'qitish metod - evristik suhbat. Bunday suhbat davomida o'qituvchi talabalarning mavjud bilimlari va tajribalariga tayanib, puxta o'ylangan savollar tizimi yordamida ularni yangi bilimlarni anglashga, o'zlashtirishga va xulosalarni shakllantirishga olib keladi. Bunday birgalikdagi tadbirlar natijasida talabalar o'zlarining mulohazalari orqali bilimlarga ega bo'ladilar. Ushbu metoddan Suqrot mohirona foydalangan va hozirgi kunda "Suqrotcha metod" nomi bilan mashhur. Ta’limning dialog usulidan psixologiya fanlaridan seminar mashg’ulotlarini tashkil etish jarayonida keng foydalaniladi. Savol va topshiriqlarni shakllantirish o'quv kursining mazmuni, maqsad va vazifalari, shuningdek dasturda tavsiya etilgan darslik va o'quv qo'llanmalari asosida belgilanadi. O'qituvchilarga yordam sifatida ko'plab darsliklarda seminarda muhokama qilinishi mumkin bo'lgan mavzular va savollar berilgan. Biroq, o'qituvchi ularni erkin tanlaydi. U boshqa qo'llanmalardan ham foydalanishi mumkin.

Hikoya—o‘quv materiali mazmunini jonli, obrazli, ta'sirli ravishda bayon qilishdir. Hikoya qilib berish mahoratini egallagan o‘qituvchi o‘quvchilarni bilimlarni muayyan tizimda o‘zlashtirishlarini ta'minlaydi, ularni fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Predmetning xususiyatlariga qarab hikoya qilib berish o‘zgarishi mumkin.

Ifodali hikoya—voqealarni bayon etish, yozuvchilarning va tarixiy arboblarning hayoti haqida gapirib berish.

Tasvirli hikoya—o‘simliklar tuzilishini, moddalar tarkibini tasvirlashdir.

Hikoya qilib berishning rejali bo‘lishi, uning puxta tuzilishi,

ta'sirchan hamda obrazli bo‘lishi o‘qituvchi hikoyasining zarur fazilatlaridir. Hikoyaning ta'sirchanligi o‘quvchilarga katta tarbiyaviy ta'sir ko‘rsatadi.

Tushuntirish o‘quv materialining o‘qituvchi tomonidan muntazam va mantiqiy izchillik bilan bayon qilinishidan iboratdir. O‘qituvchining tushuntiri- shida hamisha ko‘plab mulohazalar, xulosalar, dalillar bo‘ladi. Tushuntirish hamisha o‘qituvchining o‘quvchilarga savollar berib turishini va ularni tushuntirish jarayonini kuzatib turishga majbur etishni, o‘z fikrlarini aytishlarini taqozo qiladi. Tushuntirishning oxirida o‘qituvchi xulosani, qoidani aniq ta'riflab beradi. Tushuntirishdan foydalanilgan darsning majburiy elementi-material o‘zlashtiri- lishining sifatini tekshirish, o‘quvchilar keltirgan faktlar va misollarni tahlil qilishdan iboratdir.

Suhbat o‘qituvchi va o‘quvchining o‘zaro ta'siri shaklida amal qiladigan ta'lim metodidir. Suhbat paytida o‘qituvchi o‘quvchilarni bilimiga tayanib hamda savollardan foydalanib o‘quvchilarni yangi bilimlarni tushunish va o‘zlashtirish sari olib boradi. Suhbat jarayonida o‘quvchilarning mustaqil fikr yuritishlari, mulohazalarini aytishlari uchun imkoniyat yaratib berish zarur. Suhbat mohiyatiga ko‘ra evristik va noevristik turlariga bo‘linadi.

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savollar hamda topshiriqlar:

1. Psixologiyani o‘rganishda o‘quv mashg‘ulotlari taksonomiyasi haqida ma’lumot bering.

2. Ma’lumotlarni idrok qilish bo'yicha vazifalarni tasniflang.

3. Oddiy tafakkur operatsiyalarini o'z ichiga olgan vazifalar qaysilar?

4. Murakkab tafakkur operatsiyalarini o'z ichiga olgan vazifalarni izohlang?

5. Bilimlarni umumlashtiruvchi va muayyan nutqiy malakalarni shakllantiruvchi vazifalarga nimalar kiradi?

6. Ijodiy tafakkurni o'z ichiga olgan vazifalarni tushuntiring.

7. Refleksiv vazifalar nima?

8. Psixologiyani o'qitishda og'zaki bayon metodlari haqida ma’lumot bering.

9. Psixologiyani o'qitishda og'zaki bayon metodlarini tasniflang.

15-MAVZU. PSIXOLOGIYA FANLARINI O‘QITISHDA KO‘RGAZMALI VA AMALIY METODLAR

Tayanch so‘zlar: *ko‘rgazmali metodlar, predmetli, tasviriy, nutqiy, badiiy tasvir, simvolik, matnli, amaliy metodlar, psixologik eksperimentni modellashtirish, laboratoriya mashg‘ulotlari.*

15.1. Psixologiyani o‘qitishda ko‘rgazmali metodlar

Ko‘rgazmali metodlarni uch guruhga ajratish mumkin: predmetli, tasviriy va og'zaki.

Predmetli - bu haqiqiy narsalar, hodisalar va jarayonlarning namoyishi. Psixologiyani o'qitishda namoyishning bu turidan asboblar va miya maketlaridan foydalanib, demonstratsion eksperimentlar va namoyish tajribalari o'tkazilganda qo'llaniladi. Psixologiyani o'qitishda o'qituvchining asosiy vazifasi muayyan psixologik hodisa va qonuniyatlarni aniq namoyish etishdir. Bu yaxshi tushunishga va yodlashga yordam beradi. Taniqli maqolda "Yuz marta eshitgandan bir marta ko'rgan afzal", deb bejiz aytilmagan.

Tasviriy - bu obyektlar, hodisalar, jarayonlar tasvirlari va ular haqidagi nazariy bilimlarni mashg’ulotda namoyish etish. Bu namoyishning uch turi mavjud: badiiy, ramziy va matnli.

Badiiy tasvir obyekt yoki vaziyatni barcha tafsilotlari bilan namoyish etish. Ushbu turdagi tasvir fotosuratlar, rasmlar, filmlar va videofilmlarni namoyish qilishni o'z ichiga oladi. Fotosuratlarda, masalan, turli xil hayotiy sharoitlarda bo'lgan odamlar, his-tuyg'ular ifodasi, psixologik tajribalar holatlari tasvirlanishi mumkin, shuningdek taniqli psixologlarning portretlari bo'lishi mumkin. Tasviriy namoyish vositasi sifatida filmlarni ikki turga bo'lish mumkin: ilmiy-ommabop va badiiy. Ilmiy-ommabop filmlar klassik psixologik tadqiqotlarni namoyish etadi. Badiiy filmlar (yoki ulardan parchalari) odamlarning ayrim psixologik holatlarini va ularning munosabatlarini, psixologik tahlil qilish uchun vaziyatlarni aks ettirishi mumkin.

Ramziy (sxematik) tasvir - bu obyektlar yoki hodisalarning muhim xususiyatlarini, alomatlarini va bog’likliklarini aks ettiruvchi tasvirlar. Ramziy (sxematik) tasvirga jadval, diagramma, sxema va grafikalarni namoyish etish kiradi. Ular ma'lum nazariy g'oyalar va aqliy hodisalarning tuzilishi, miqdorlar va tushunchalarning nisbati, ba'zi

parametrlar o'rtasidagi bog'liqlik to'g'risida tizimlashtirilgan bilimlarni namoyish etadi.

Matnli tasvir - ma'ruzaning eng muhim qismlarini, olimlarning ismlarini, sanalarni, terminlar va eshitilishi qiyin bo‘lgan tushunchalarni sinf taxtasiga yozish yoki boshqa vositalar yordamida namoyish etish. Axborotni parallel ovozli va ko‘rgazmali tarzda taqdim etish muvaffaqiyatli va xatosiz idrok etilishga yordam beradi. Talabalar o'zlari ko'rgan narsalar haqida xulosa chiqarishga moyildirlar. Tajribali o'qituvchilar biladiki, o'qituvchi doskaga qancha ko'p yozsa, talabalar daftarida shuncha ko'p ma'lumot qoladi.

Og'zaki namoyish - tasvirlarni nutq shaklida ifoda etish. U biron bir sababga ko'ra predmetli yoki tasviriy ko‘rsatish imkoni bo'lmagan hollarda qo'llaniladi. Bunday hollarda o'qituvchi psixologik eksperiment holatini aniq tasvirlab beradi, muayyan psixologik hodisalar va voqialarni tavsiflovchi badiiy asarlardan misollar keltiradi.

Ko'rgazmali metodninig samaradorligini oshiruvchi talablar:

1) namoyish etiladigan ko‘rgazma materialning mazmuniga mos bo‘lishi;

2) obyekt barcha talabalarga aniq ko'rinishi;

3) illyustratsiya, diagramma va jadvallarni namoyish qilishda asosiy jihatni aniq belgilash;

4) namoyish davomida berilgan tushuntirishlarni batafsil ko'rib chiqish.

15.2. Psixologiyani o‘qitishda amaliy metodlar

Amaliy metodlar o'quvchilar (talabalar) bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga qaratilgan amaliy faoliyatni nazarda tutadi. Amaliy metodlar guruhiga shunday metodlar kiradiki, ulardan foydalanishda o'quvchilar nafaqat tinglaydilar (og'zaki metodlar singari), ko‘radilar (ko‘rgazmali metodlar singari), balki ta'lim muammolarini hal qilishga qaratilgan ma'lum bilim harakatlarini ham amalga oshiradilar. Psixologik fanlarini o'qitishda quyidagi amaliy metodlardan foydalanadilar:

1) psixologik eksperimentlarni modellashtiruvchi laboratoriya mashg’ulotlari;

2) psixodiagnostik vazifalar va psixologik testlarni bajarish;

3) psixologik muammolarni hal qilish;

4) mashq qilish;

5) guruh muhokamasi;

6) o'rganilayotgan jarayonlarga taqlid qiluvchi didaktik va ishbilarmon o'yinlar.

Laboratoriya ishlari psixologik eksperimentlar modeli sifatida quyidagilar uchun amalga oshirilishi mumkin:

1) talabalarga ma'lum psixologik qonuniyatlarni namoyish etish;

2) psixologik eksperiment metodikasini o'zlashtirish.



Psixologiyani o‘qitishda amaliy metodlar

Psixologik testlar psixodiagnostik qobiliyatlarni rivojlantirish yoki o'z-o'zini anglash uchun amalga oshirilishi mumkin.

Shu bilan birga, psixologiyani o'qitishning maqsadlariga qarab testlarni sinchkovlik bilan tanlash va ulardan to'g'ri foydalanish muhim ahamiyatga ega. Psixologiyaning amaliy mashg'ulotlarida foydalanish imkoniyatlariga qarab testlarning bir nechta turlarini ajratish mumkin.

1. Murakkab professional testlar (masalan, MMPI intellekt testlari, Veksler intellekt shkalasi). Mazkur testlarni o'tkazish jiddiy psixologik kompetentlikni talab etadi.

2. Nisbatan oddiy umumpsixologik testlar (masalan, komunnikativlik va tashkilotchilik qobiliyatlarni aniqlovchi testlar). Ularni amalga oshirish uchun unchalik jiddiy bo'lmagan psixologik tayyorgarlik talab etiladi.

3. Kasbiy faoliyatning muayyan sohalari uchun mo'ljallangan psixologik testlar (masalan," Boshqarish uslubi so'rovnomasi","Oilaviy tarbiya uslubi testi").

4. Ko'ngilochar testlar (masalan, "Boshqalar sizni yaxshi ko'rishadimi?"). Mazkur testlarni o‘tkazish juda sodda bo‘lib, jiddiy ilmiy asoslarga ega emaslar.

Psixologik muammolarning yechimi nazariy bilimlarni mustahkamlashga yoki amaliy muammolarni hal qilishda ushbu bilimlardan foydalanishga qaratilgan bo'lishi mumkin. Bunga nazariy tushunchalar, qonunlar va ulardan foydalanish misollari o'rtasida moslikni o'rnatish bo'yicha vazifalar bo'lishi mumkin yoki adabiy qahramonlar va taniqli odamlarning xatti-harakatlarini psixologik-mantiqiy tahlil qilish bo'yicha vazifalar, shaxsiy hayot yoki ta'lim holatlarini psixologik tahlil qilish uchun vazifalar kiradi.

Mashqlar talabalarda ko'nikmalar va tadqiqot qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon beradi. Masalan, matematik statistik yoki amaliy psixologik ishlarning ba'zi metodlarini qo'llashda, masalan, konsalting ko'nikmalarini egallashda mashqlardan foydalaniladi.

Guruh muhokamasi va ishbilarmonlik o'yini psixologiyani o'qitishning amaliy metodi sifatida muayyan kommeunikativ yoki kasbiy ko'nikmalarni o'zlashtirishga qaratilgan. Psixologik maslahat asoslari, mehnat psixologiyasi, boshqaruv psixologiyasi kabi fanlarni o‘qitishda talaba-psixologlar guruhlarida o'tkazilishi mumkin.

15.3. O‘quvchilarning bilish faoliyati tavsifiga ko‘ra ta’lim metodlari tasnifi

Ta’limning turli metodlari talabalarning bilish faoliyati xarakteriga har xil ta'sir ko'rsatadi. Shu munosabat bilan M. N. Skatkin va I. Ya.Lerner tomonidan taklif qilingan usullarning tasnifi qiziqish uyg'otmoqda. Unga muvofiq quyidagi o'qitish usullari ajratiladi;

1) Axborotli-namoyish etish;
2) reproduktiv;
3) muammoli bayon etish;
4) qisman-izlanish;
5) Izlanuvchanlik.

O‘quvchilarning bilish faoliyati tavsifiga ko‘ra ta’lim metodlari tasnifi (I.Ya.Lerner va M.N.Skatkin).

Ta’lim metodining nomlanishi	O‘qituvchi faoliyati	O‘quvchi faoliyati
Axborotli-namoyish etish	O‘quv axborotini uzatish, o‘rganilayotgan ob’ekt bilan o‘quvchi harakatini tashkil etish	Bilimlarni idrok etish, anglash va yodda saqlash.
Reproduktiv	Bilimlar hamda aqliy va faoliyat usullarini hosil qilishga doir topshiriqlarni tuzish va taqdim etish	Namuna asosida bilimlarni hamda aqliy va faoliyat usullarini egallash.
Muammoli bayon etish	Muammoni qo‘yish va uni hal etish usullarini ochib berish	Topshiriqni idrok etish va uni qismlarga ajratish. Topshiriq qismlarini mustaqil hal etish va o‘z-o‘zini nazorat qilish
Qisman-izlanish	Muammoni qo‘yish va uni hal etishga doir qadamlar ketma-ketligini rejalatirish. O‘quvchilar faoliyatini boshqarish	Qo‘yilgan vazifa bilan bog’liqlikda muammoni hal etish yo‘llarini mustaqil izlash va o‘qituvchining qisman ko‘magi yordamida muammoni hal etish
Izlanuvchanlik	Mustaqil hal etishga doir muammoli vazifalarni shakllantirish. Muammoni hal etilish jarayonini nazorat qilish	Muammoni mustaqil hal etish.

1. Axborotli-namoyish etish metodi. Bunda bilimlar o‘qituvchi tomonidan tayyor holda beriladi. O‘quvchi talabalarga muammo to‘g‘risida ma’lumot beriladi va misollar keltiriladi, bayon etilayotgan pedagogika faniga oid muammolar to‘g‘risidagi axborotni tinglaydilar, namoyish etgan pedagogik hodisani ko‘radilar va ularni xotiraga saqlashga harakat qiladilar. Bayon etilayotgan pedagogik hodisani ko‘radilar va ularni xotiraga saqlashga harakat qiladilar. Bayon etilayotgan pedagogik hodisa muammoli vaziyatni sodir qilish orqali amalga oshirilsa samara yaxshi bo‘lishi mumkin.

2. Reproduktiv metod. Bu metod o‘quvchi talaba bilimini chuqurlashtirish va kengaytirishni nazarda tutadi bunda talaba pedagogika fanidan berilgan o‘quv topshirig‘ini oldin egallangan

ma’lum darajada esda qolgan namunaga qarab bajaradi o‘quvchi o‘rganuvchi namunani darslikdan yoki boshqa manbalardan o‘qituvchi ko‘rsatmasiga qarab oladi.

3. Izlanuvchanlik metodi bu meyodning mohiyati shundaki pedagog masalaga doir muammoni o‘qituvchi mashg‘ulot jarayonida talabalar oldiga qo‘yadi ammo muammoni yechish yo‘llarini ko‘rsatmaydi va maslahat ham bermaydi. O‘quvchilarning har biri muammoni mustaqil hal qilish uchun izlanadi, ijodiy faoliyat ko‘rsatadi. Muammoni aqliy faoliyat asosida yechgan o‘quvchilarda bilim faolligi va ijodiy izlanish malakalari hosil bo‘ladi.

4. Evrika yoki qisman izlanish metodi o‘quv mashg‘ulotlarida o‘qituvchi o‘quvchilar fikrini qo‘yilgan o‘quv vazifasi (muammosi)ni hal qilishga yo‘llashni nazarda tutadi. Bunda o‘qituvchi turli vositalarni namoyish etib yangi ma’lumotni izlab topishni vazifa qilib qo‘yadi. Buning uchun dastlab o‘qituvchi yangi bilimlarning muayyan bir qismni, o‘quvchilarga ma’lum qiladi va muammoning qolgan qismini topshiriqlar berish orqali o‘quvchilarning faoliyatini yo‘lga qo‘yadi hamda ularning o‘zlashtirishlarini ta’minlaydi.

5. Muammoli bayon qilish metodi - o‘qituvchi talabalar oldiga ma’lum bir muammoni qo‘yadi, muammoli vaziyat yaratish orqali o‘quvchilar aqliy faoliyatlarini yuzaga keltiradi, ammo hal qilish yo‘llari ko‘rsatilmaydi. Har bir o‘quvchi qo‘yilgan muammoni hal qilish uchun izlanadi, o‘qituvchining yo‘naltiruvchi savollari asosida vazifani bajaradi. Ta’limning bu metodi o‘quvchilar tomonidan o‘quv materialini o‘qituvchi rahbarligida mustaqil yechish va tahlil qilish bilan xarakterlanadi.

Bunda talabalarda mantiqiy mulohaza yuritish natijasida ijodiy fikrlash rivojlanadi.

6. Tadqiqot (ijodiylik) metodi. Bu metod ta’lim oluvchilarning to‘la ijodiylikka, tadqiqotchilikka ega bo‘lishlarini ta’minlaydi. Bunda o‘qituvchi taklif etgan masalani talabalar mustaqil mustaqil tadqiq etadilar. Bu jarayonda zaruriy bilimlar, talabalar tomonidan mustaqil ravishda o‘zlashtiriladi. Tavsiya etilgan topshiriqni bajarish jarayonida, o‘quvchilar ilmiy bilish metodlarini o‘zlashtirib, tadqiqotchilik faoliyatini egallaydi.

15.4. Masofaviy ta’lim.

Zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalarini ta’lim jarayoniga kirib kelishi an’anaviy o‘qitish usullariga qo‘shimcha ravishda yangi o‘qitish shakli - masofaviy o‘qitish yaratilishiga omil bo‘ldi. Zamonaviy ta'limni rivojlantirishning muhim tendensiyalaridan biri masofaviy ta'lim texnologiyalarini keng joriy etish hisoblanadi. Yangi tahrirdagi “Ta'lim to'g'risida”gi Qonunda ham masofaviy ta’lim tushunchasi joy olgani naqadar dolzarb ekanligini bildiradi. Qounda “Masofaviy ta’lim o‘quv rejalari va o‘quv dasturlariga muvofiq ta’lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko‘nikmalarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan hamda Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalangan holda masofadan turib olishga qaratilgan.”[1] deb keltirilgan.

Masofaviy o‘qitish barcha ta’lim olish istagi bo‘lganlarga o‘z malakasini uzluksiz oshirish imkonini yaratadi. Bunday o‘qitish jarayonida talaba interaktiv rejimda mustaqil o‘quv-uslubiy materiallarni o‘zlashtiradi, nazoratdan o‘tadi, o‘qituvchining bevosita rahbarligida nazorat ishlarini bajaradi va guruhdagi boshqa «vertikal o‘quv guruhi» talabalari bilan muloqotda bo‘ladi.

Oldindan tasmaga muhrlangan videoma’ruzalar talabalarga ma’ruzalarni tinglash va ko‘rish imkonini bersa, faksimal aloqa, xabarlar, topshiriqlarni tarmoq orqali tezkor almashinish talabalarga o‘zaro teskari aloqa orqali o‘qitish imkonini beradi.

Masofaviy ta’lim an’anaviy ta’lim turidan quyidagi xarakterli xususiyatlari bilan farqlanadi[2].

✓ Moslashuvchanlik – ta’lim oluvchiga o‘ziga qulay vaqt, joy va tezlikda ta’lim olish imkoniyatining mavjudligi.

✓Modullilik – bir biriga bog‘liq bo‘lmagan mustaqil o‘quv kurslari to‘plamidan - modullardan individual yoki guruh talabiga mos o‘quv rejasini tuzish imkoniyati mavjudligi.

✓Paralellik – o‘quv faoliyatini ish faoliyati bilan birga parallel ravishda, ya’ni ishlab chiqarishdan ajralmagan holda olib borish imkoniyati mavjudligi.

---

[1] “Таълим тўғрисида”ги Қонун. (Қонун хужжатлари маълумотлари миллий базаси, 24.09.2020 й., 03/20/637/1313-сон)

[2] О.Д.Рахимов, Қ.О.Мустафаев, Н.И.Зоиров Масофавий таълимнинг дидактик таъминоти. Ўқув қўлланма. Қарши-2012й., 45 бет

✓Keng qamrovlilik – ko‘p sonli talabalarning bir vaqtning o‘zida katta o‘quv (elektron kutubxona, ma’lumotlar va bilimlar bazasi va boshqalar) zahiralariga murojaat qila olish imkoniyati. Bu ko‘p sonli talabalarning kommunikatsiya vositalari yordamida o‘zaro va o‘qituvchi bilan muloqotda bo‘lish imkoniyatining mavjudligidir.

✓Iqtisodiy tejamkorlik – o‘quv maydonlari, texnika vositalari, transport vositalari va o‘quv materiallaridan samarali foydalanish, o‘quv materiallarini bir joyga yig‘ish, ularni tartiblangan ko‘rinishga keltirish hamda ulardan ko‘p sonli foydalanuvchilarni tashkil qilish imkoniyati.

✓Ijtimoiy teng huquqlilik – ta’lim oluvchining yashash joyi, sog‘lig‘i va moddiy ta’minoti darajasidan qat’iy nazar hamma qatori teng huquqli ta’lim olish imkoniyati.

✓Internatsionallilik – ta’lim sohasida erishilgan jahon standartlariga javob beradigan yutuqlarni import va eksport qilish imkoniyati.

15.5.O‘zlashtirilgan ma’lumotlarni mustahkamlash metodlari

Psixologiya darslarida o‘zlashtirilgan ma’lumotlarni mustahkamlash amaliy topshiriqlarni takrorlash yoki bajarish orqali amalga oshiriladi. Takrorlash uchun o'qituvchining o'zi fikr, tezis, ta'rifni bir necha bor takrorlaganda talabalar o‘zlashtirilgan ma’lumotlarni mustahkamlasb oladi. Ushbu takrorlash samaradorligi odatda past bo'ladi, chunki talabalar passiv bo'lib qoladilar. Takrorlashning eng yaxshi usulilariga oddiy takrorlash, qisqacha takrorlash, takrorlashni tizimlashtirish kiradi. Bundan tashqari, tafakkurni rivojlantirish va o'qituvchining hikoyasida yoki kitob matnida mavjud bo'lgan ma'lumotlarning ma'nosini tushunish qobiliyatini rivojlantirish uchun takrorlashning oxirgi ikki turi ko'proq ahamiyatga ega.

Mashg‘ulot jarayonida talabalar bilan suhbatlashish bilimlarni o'zlashtirishni boshqarish va mustahkamlashga xizmat qiladi. Maktabda so‘rashning odatiy shakli batafsil og'zaki javob bo'lib, bitta o'quvchi doskada javob beradi, qolganlari esa tinglaydi. Bunday holda, juda ko'p miqdordagi o'quv materialini taqdim etishni talab qiladigan savollar qo'yiladi. So'rovnomaning yana bir turi - bir guruh talabalar

o'rtasida o'tkazilgan og'zaki yoki yozma so'rov. Bunday holda nisbatan qisqa javobni talab qiladigan aniqroq savollar qo'yiladi.

O'rganilayotgan materialni reproduktiv mustahkamlashdan tashqari, uni ijodiy mustahkamlashdan ham ahamiyatlidir. Buning uchun turli xil amaliy vazifalar, masalan, badiiy asarlarning psixologik tahlillari, psixologik muammolarni hal qilish taklif qilinishi mumkin. So'nggi yillarda tajriba, harakat va o'z-o'zini tahlil qilish tajribasi orqali psixologik bilimlarni mustahkamlash ommalashdi.

O'qituvchi ta’lim metodlarini tanlashda bir qator omillarga tayanadi:

1) ta'lim dasturining maqsadlari;
2) o'quv materiali tarkibining xususiyatlari;
3) ushbu o'quv materialini o'rganish uchun ajratilgan vaqt;
4) talabalarning tayyorgarlik darajasi;
5) o'quv jarayonining moddiy jihozlanishi.

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savollar hamda topshiriqlar:

1. Psixologiyani o‘qitishda ko‘rgazmali metodlar qaysi guruhlarga ajartiladi?
2. Ko'rgazmali metodninig samaradorligini oshiruvchi talablarni aytib bering.
3. Psixologik fanlarini o'qitishda qaysi amaliy metodlardan foydalanadilar?
4. Psixologik testlar haqida ma’lumot bering.
5. O‘quvchilarning bilish faoliyati tavsifiga ko‘ra ta’lim metodlarini tasniflang.
6. Muammoli bayon qilish metodini tushuntiring.
7. Masofaviy ta’lim nima?
8. O‘zlashtirilgan ma’lumotlarni mustahkamlash metodlari mazmunini tavsiflang.

16-MAVZU. O‘QITISHNING TA’LIMIY METODLARI

Tayanch so‘zlar: *interfaol usullar, interfaol o‘qitish, faol metodlar, dasturlashtirilgan ta’lim, interaktiv ta’lim, dasturlash-tirilgan ta’lim, muammoli ta’lim, muammo, muammoli ta’lim, muammoli vaziyat*

16.1. O‘qitishning interfaol usullariga tavsif

O‘qitish jarayonida e’tiborni, birinchi navbatda, tinglovchilar o‘zlarini o‘quv materiali bilan birday xis etishlariga, o‘rganilayotgan vaziyatga kirishadigan, faol harakatlarga undaydigan, muvaffaqiyat-larga intilishga chorlaydigan metodlarni qo‘llashga qaratmoq lozim. O‘qitishning interfaol metodlari aksariyat hollarda bu talablarning barchasiga javob beradi.

O‘qitishning interfaol metodlariga tayangan o‘quv jarayoni, o‘quv guruhning barcha tinglovchilarini bilish jarayoniga jalb qilishni inobatga olgan holda tashkil etiladi. Birgalikdagi faoliyat deganda, har bir kishi o‘zining alohida, o‘ziga xos hissasini qo‘shishi tushuniladi, ish jarayonida bilim, fikr, faoliyat usullari bilan o‘zaro almashuv amalga oshiriladi. Individual, juftlik va guruh bilan, hujjatlar va boshqa axborot manbalari bilan ishlash tashkil etiladi. Interfaol metodlar o‘zaro aloqadorlik, tinglovchilarning faolligi, guruh tajribasiga tayanish, qaytma aloqa prinsiplariga asoslanadilar . O‘zining ochiqligi, qatnashchilarning o‘zaro aloqa-dorligi, ular keltirgan dallilarning tengligi, bilimlarni birgalashib to‘planganligi, o‘zaro baholash va nazorat qilish imkoniyatlari bilan tavsiflanadigan ta’lim muloqoti muhiti yaratiladi.

O‘qituvchi yangi bilimlar berish bilan birgalikda tinglovchilarni mustaqil izlanishlarga chorlaydi. O‘qituvchining faolligi tinglovchilarning faolligiga yon beradi, tinglovchilarning tashab-buskorligi uchun sharoit yaratish o‘qituvchining vazifasi hisobla-nadi. O‘qituvchi o‘quv axborotini o‘zidan o‘tkazuvchi o‘ziga xos filtr rolidan voz kechib, ma’lum bir axborot manbai bilan ishlashda yordamchi vazifasini bajaradi.

Shu o‘rinda har bir o‘qituvchi tinglovchilarning o‘quv materialini eslab qolish, tahlil qilish, amalda qo‘llash yoki bajarish qobiliyatlarini shakllantirishda quyidagilarga e’tibor qaratishi lozim:

Ta’lim jarayonida o‘qituvchi va tinglovchilar o‘zaro munosabatining umumiy uchta shakli mavjud bo‘lib, keng qo‘llanilib kelinmoqda. Ular quyidagilardir[1]:

1) sust metodlar;
2) faol metodlar;
3) interfaol metodlar.

Bularning har biri o‘ziga xos xususiyatga ega.

Sust (passiv) metod– bu o‘qituvchi va tinglovchi o‘zaro munosabatining shunday shakliki, unda o‘qituvchi harakatdagi asosiy shaxs bo‘lib, darsning borishini boshqaradi, tinglovchi esa o‘qituvchining ko‘rsatmalariga bo‘ysunuvchi darsning sust qatnashchisi rolida ishtirok etadi. Sust shakldagi darslarda o‘qituvchi va tinglovchi o‘rtasidagi o‘zaro aloqa so‘rovlar, mustaqil nazorat ishlari, testlar va boshqalar vositasida amalga oshiriladi. Tinglovchilarning o‘quv materialini o‘zlashtirish samaradorligi va zamonaviy pedagogik texnologiyalar nuqtai nazaridan sust metod kam samarali hisoblanadi, biroq shunga qaramay ushbu metodning ham bir qator afzal tomonlari mavjud. Bu o‘qituvchining mashg‘ulotga nisbatan osonroq tayyorgarlik ko‘rishi va tinglovchilarga mashg‘ulotning chegaralangan vaqti doirasida nisbatan ko‘proq o‘quv materialini yetkazish imkoniyatining mavjudligidir.

Faol (aktiv) metod– bu o‘qituvchi va tinglovchi o‘zaro munosabatining shunday shakliki, unda tinglovchi va o‘qituvchi mashg‘ulot jarayonida birgalikda harakat qiladi va tinglovchi bu yerda sust qatnashchi emas, balki faol ishtirokchidir. Agar sust metod birgalikda harakat qilishning avtoritar uslubini taqozo qilsa, faol metod demokratik uslubni taqozo qiladi.

Ko‘pchilik faol va interfaol metodlarni teng deb hisoblashadi, biroq ularning o‘zaro o‘xshash jihatlari borligiga qaramay ular bir biridan farq qiladi. Interfaol metodni faol metodlarning zamonaviy shakli sifatida ko‘rib chiqish mumkin.

Interfaol metod. Interfaol («Inter» – o‘zaro, «act»– harakat qilmoq) – birgalikda harakat qilmoq. Faol metodga qaraganda interfaol metod tinglovchilarning nafaqat o‘qituvchi, balki o‘zaro faol faoliyatiga va tinglovchilarning mashg‘ulot jarayonida faolligini

[1] Расулев А. А., Хайдаров М. М. Ўқитишнинг интерфаол методлари: Ўқувуслубий қўлланма. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2015.– 47 б.

oshirishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Interfaol mashg‘ulotlarda o‘qituvchining o‘rni tinglovchilar faoliyatini mashg‘ulot maqsadiga erishish uchun yo‘naltirishga qaratilgan bo‘ladi.

O‘qitishning interfaol shakllarining vazifalari quyidagilar:

— tinglovchilarda qiziqish uyg‘otish;

— o‘quv materialini samarali o‘zlashtirish;

— tinglovchilar qo‘yilgan o‘quv vazifalarini yechish uchun yo‘nalish va variantlarini mustaqil izlashlari (berilgan variantlardan birini tanlash yoki shaxsiy variantini ishlab chiqish va qarorini asoslantirish);

— tinglovchilar orasida o‘zaro ta’sirni o‘rnatish, guruh bo‘lib ishlashga, har qanday nuqtai nazarga sabrli bo‘lishga, boshqalarning fikrini hurmat qilishga o‘rgatish;

— tinglovchilar dunyoqarashini kengaytirish va fikrlash qobiliyatini shakllantirish;

— hayotiy va kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirish.

Interfaol shakllardan foydalanishda o‘qituvchining roli keskin o‘zgarib, u faqatgina jarayonni boshqaradi va uni tashkillashtirish bilan shug‘ullanadi, oldindan kerakli topshiriqlar tayyorlaydi va guruhda muhokama qilish uchun savol va mavzularni shakllantiradi, maslahatlar beradi, vaqtni va mo‘ljallangan rejaning bajarilish tartibini nazorat qiladi. Tinglovchilar – o‘zlarining va boshqa insonlarning tajribalariga murojaat qiladilar, shu bilan birga ular birbiri bilan fikr almashinishga kirishadilar, qo‘yilgan vazifalarni birgalashib yechadilar, nizolarni yengadilar, ularni o‘zaro bog‘laydigan umumiy nuqtalarni izlaydilar, murosaga keladilar.

O‘qitishning interfaol shakllari asosida o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida o‘qituvchining oldida nafaqat aniq mavzu bo‘yicha o‘qitishning eng qulay va samarali shaklini izlash masalasini turishiga, balki tinglovchilarning yaxshiroq o‘zlashtirishlariga ko‘maklashadigan o‘qitishning bir nechta metodlarini mujassamlashtirish imkoniyatlarining mavjudligiga alohida etibor qaratmoq lozim. Qo‘yilgan vazifalarni bajarish borasida o‘qitishning turli xil interfaol shakllarini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz.

Interfaol mashg‘ulotlarda ishlash prinsiplari:

— mashg‘ulot – ma’ruza emas, balki umumiy ish;

— barcha ishtirokchilar yoshi, tajribasi, ish joyidan qat’iy nazar teng;

— har bir ishtirokchi har qanday savol bo‘yicha shaxsiy fikrga ega bo‘lish huquqiga ega;
— shaxs tanqid qilinishga yo‘l qo‘yilmaydi (faqatgina g‘oya tanqid qilinishi mumkin);
— mashg‘ulotda aytilgan fikrlar – faoliyat uchun asos emas, balki fikrlash uchun ma’lumot.

Interfaol mashg‘ulotni o‘tkazish algoritmi:

1. Mashg‘ulotga tayyorgarlik ko‘rish.

O‘qituvchi mavzuni, vaziyatni, definitsiyalarni (ta’rif) tanlaydi (barcha ibora, tushunchalar va h.k.lar tinglovchilarning barchasi uchun tushunarli bo‘lishi lozim), mazkur guruhda va mazkur mavzu bo‘yicha samarali ishlash uchun interfaol mashg‘ulotning aniq shaklini tanlaydi. Interfaol mashg‘ulotlarni o‘tkazishda quyidagi holatlarga alohida e’tibor qaratishni tavsiya qilamiz:

1) mashg‘ulot qatnashchilari, mavzu:
— qatnashchilarning yoshi, ularning qiziqishi, bo‘lg‘usi mutaxassisligi;
— mashg‘ulot o‘tkazishning vaqt chegarasi;
— ushbu guruhda ilgari mazkur mavzu bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘tkazilganligi;
— guruhning ushbu mashg‘ulotdan manfaatdorligi;
2) zaruriy sharoitlar ro‘yxati:
— mashg‘ulot maqsadi aniq belgilab olinishi shart;
— tarqatma materiallar tayyorlangan;
— texnik vositalar bilan ta’minlangan;
— qatnashchilar belgilangan;
— asosiy savollar va ularning ketmaketligi belgilangan;
— hayotdan amaliy misollar tanlab olingan;
3) har bir mashg‘ulotga tayyorgarlik ko‘rishda:
— yechilishi lozim bo‘lgan muammoni aniqlashtirib olish;
— olingan bilimni amalda qo‘llash istiqbollarini belgilash;
— mashg‘ulotning amaliy qismini belgilash (guruh mashg‘ulotda nima bilan shug‘ullanadi);
4) tarqatma materiallar:
— mashg‘ulot dasturi;
— tarqatma materiallar tinglovchilar auditoriyasiga moslashtirilgan bo‘lishi shart;
— material tizimlashtirilgan bo‘lishi shart;

— grafik, sxema va belgilardan foydalanilishi.

2. Kirish.

Mashg‘ulot mavzusi va maqsadi haqida axborot berish:

– tinglovchilar taqdim etilgan vaziyat bilan, hal etilishi kerak bo‘lgan muammo bilan, shuningdek ko‘zlanayotgan maqsad bilan tanishadilar;

– o‘qituvchi barcha tinglovchilarni vaqt chegarasi, guruhda ishlash qoidalari bo‘yicha xabardor qiladi, mashg‘ulotda tinglovchilar harakatlanishi mumkin bo‘lgan doira bo‘yicha aniq ko‘rsatmalar beradi;

– zarur hollarda tinglovchilarni birbiriga tanishtirishi lozim (agar mashg‘ulot guruhlararo yoki fanlararo o‘tkazilayotgan bo‘lsa);

– ibora, tushunchalarni va boshqalarni yagona semantik (ma’noviy) tushunilishiga erishish. Buning uchun savol va javoblar yordamida o‘qitilayotgan mavzuga oid ishchi ta’riflar va tushunchalar apparatini aniqlashtirib olish lozim. Tushunchalar apparatini aniqlashtirib olish tinglovchilarda faqatgina tushunarli bo‘lgan iboralar bilan ishlash, yaxshi tushunib bo‘lmaydigan so‘zlardan foydalanmaslik, muntazam ravishda turli ma’lumotlar beradigan yordamchi adabiyotlardan foydalanish odatini shakllantiradi.

Guruhda ishlashning namunaviy qoidalari:

— faol bo‘lish;

— qatnashchilarning fikrini hurmat qilish;

— xayrixoh bo‘lish;

— puxta va mas’uliyatli bo‘lish;

— fikrni bo‘lmaslik;

— hamkorlik uchun ochiq bo‘lish;

— manfaatdor bo‘lish;

— haqiqatni aniqlashga intilish;

— belgilab berilgan vaqt (reglament)ga rioya qilish;

— ijodkorlik qobiliyati (kreativlik);

— guruhda ishlash qoidalarini hurmat qilish.

3. Asosiy qism.

Asosiy qismning o‘ziga xosligini interfaol mashg‘ulotning tanlangan shakli belgilab beradi va o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

3.1. Tinglovchilarning fikrlarini aniqlash;

3.2. Auditoriyani kichik guruhlarga bo‘lish (segmentatsiya) va guruhlararo (segmentlararo) aloqadorlikni tashkillashtirish. Bunda har

bir guruhning fikrlarini umumiyligi bo‘yicha maqsadli guruhlar shakllantiriladi, turli tinglovchilar orasida muayyan masala yuzasidan o‘xshash fikrlarni umumlashtirish amalga oshiriladi, mashg‘ulot mavzusi doirasida ko‘rib chiqilayotgan masalalar bo‘yicha yagona yo‘nalishlar shakllantiriladi va auditoriya tarkibidan turli fikrlarga ega bo‘lgan guruhlar tashkil qilinadi , so‘ng guruhlararo aloqadorlik o‘rnatiladi. Agar mashg‘ulot katta auditoriyada o‘tkazilsa, ushbu bosqich eng samarali deb hisoblanadi: bu holatda kichik guruhlarga bo‘linish aloqadorlikning samaradorligi va unumdorligini oshirish vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

3.3. Interfaol yo‘nalish to‘rt bosqichni o‘z ichiga oladi: 1) auditoriyaning fikrlarini aniqlash ; 2) ushbu fikrlarning umumiy mazmunini anglab olish; 3) ularga yangicha mazmun berish; 4) yangi mazmun asosida yangi fikrlarni shakllantirish.

4. Xulosa (refleksiya).

Refleksiya (fikr yuritish) mashg‘ulot davomida qatnashchilarning emotsional holati, xis etgan tuyg‘ulariga tinglovchilarning e’tibrini qaratishdan boshlanadi. Mashg‘ulotning refleksiv tahlilining ikkinchi bosqichi – baholovchi (tinglovchilarning mashg‘ulot davomida foydalanilgan metodlarning mazmuni, tanlangan mavzuning dolzarbligi va boshqalarga bo‘lgan munosabatini aniqlash) bosqich. Refleksiya o‘qituvchining umumiy xulosalari bilan yakunlanadi.

Refleksiya o‘tkazish uchun namunaviy savollar ro‘yxati:

— sizda nima ko‘proq taasurot qoldirdi;

— mashg‘ulot jarayonida vazifani bajarishda nimalar sizga yordam berdi, nimalar halaqit qildi;

— mashg‘ulot davomida sizni nimadir hayratga soldimi;

— qaror qabul qilish jarayonida siz nimalarga tayandingiz;

—guruh qatnashchilarining fikrlarini o‘zingizning harakatlaringizda hisobga oldingizmi;

— o‘zingizni va guruh harakatlarini qanday baholaysiz;

— agarda siz mazkur o‘yinda yana bir bor qatnashsangiz xulqingizda nimani o‘zgartirgan bo‘lar edingiz.

Interfaol o‘qitish bir vaqtning o‘zida bir qancha vazifalarni hal etish imkonini berib, eng muhimi, tinglovchilarning o‘zaro fikr almashinuv qobiliyati va ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Mazkur o‘qitish tinglovchilar orasida emotsional aloqalar o‘rnatishga yordam beradi,

tarbiyaviy vazifalarni ta’minlaydi, chunki jamoada ishlashga, o‘rtoqlarning fikrlariga quloq solishga o‘rgatadi, bilimlar mustahkamligini, ijodkorlikni, faol hayotiy pozitsiyasini, o‘zini namoyon qilish erkinligini, o‘zaro hurmatni ta’minlaydi. Amaliyotning ko‘rsatishicha, o‘qitish jarayonida interfaol shakllardan foydalanish tinglovchilarning ruhiy zo‘riqishini yo‘qotadi, ularning faoliyat shaklini o‘zgartirish imkonini beradi, diqqate’tiborini mashg‘ulot mavzusining asosiy tayanch savollariga qaratadi.

Kafedra o‘qituvchisi o‘qitishning mazkur turini chuqur o‘zlashtirishi zarur. Aniq fan (mavzu) bo‘yicha qo‘llaniladigan interfaol o‘qitishning u yoki bu shakli o‘qituvchining ish rejasida, mashg‘ulot o‘tkazishning texnologik xaritasida aniq ko‘rsatilgan holda o‘z aksini topishi kerak.

16.2. Dasturlashtirilgan ta’lim

Ilmiy pedagogik ma’lumotlarning xabar berishicha Rossiyada pedagogik texnologiyaga e’tibor 1965 yildan boshlandi. Bunda, asosan, ta’limni ishlab chiqarish bilan qo‘shib borish nuqtai nazaridan yondashildi va shu yili “Maktab jihozlari va O‘TVITI” markazi tashkil etildi hamda “Maktab va ishlab chiqarish” jurnali chop etila boshlandi. Shunga qadar buni rus pedagogi A.S.Makarenko: “Metodlarni texnologiyalashtirish, bu tarbiya va o‘qitish jarayonining qurilmasini texnologiyalashtirishlardan iborat”, deb tariflagan edi.

Mazkur yo‘nalishning dastlabki hosili ayni paytda pedagogik texnologiyaning poydevori hamda taraqqiyoti maxsuli sifatida maydonga kelgan **dasturlashtirilgan ta’lim** maydonga keldi. Uning asoschilaridan biri amerikalik olim pedagog B.F.Skinerning fikricha dasturlashtirilgan talimda o‘quv malumotlari uncha katta bo‘lmagan, ammo bir-biri bilan mantiqiy bog‘langan o‘quv dasturlarining muayyan blokini dozalarga bo‘lingan holda o‘zlashtirish demakdir. Dasturlashtirilgan ta’limning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, unda o‘quv maqsadlari aniqlanib, ularni qo‘lga kiritish ketma-ket va izchillik bilan amalga oshiriladi. Natijada, o‘qishning ketma-ketlik, izchillik, uzluksizlik, tizimlilik kabi didaktik prinsiplariga amal qilinadi va ta’limda aniqlikdan-noaniqlikka, oddiydan-marakkabga, osondan-qiyinga koidalariga tayaniladi hamda o‘quv ma’lumotlari dozalarga ajratiladi va o‘zlashtiriladi. Ma’lum

dozadagi o‘quv ma’lumotlarining o‘zlashtirilganiga ishonch hosil qilgach, o‘quvchilar diqqatiga yangi dozadagi o‘quv ma’lumotlarini o‘rganish havola qilinadi. “Dasturlashtirilgan o‘qitish o‘quv materialining o‘qituvchi, vosita yordamida boshqariladigan o‘zlashtirishidir”. ... dasturlashtirilgan o‘quv materiali o‘quv axborotini bir necha uncha katta bo‘lmagan bo‘laklaridan (“qatorlar”, “fayllar”, “qadamlar”) iborat bo‘lib, ma’lum ketma – ketlikda taqdim etiladi”.

AQSh maktablarida dasturlashtirilgan ta’lim bo‘yicha o‘tkazilgan tajribalarning dastlabki natijalariga asoslanib, amerikalik pedagog U.Shramm qo‘yidagilarni ma’lum qilgan edi: “Dasturlashtirilgan ta’lim o‘ziga xos avtomatik repetitor hisoblanib, u o‘quvchilarni 1) mantiqiy bog‘langan, qisqa yo‘llardan shunday olib boradiki, oqibatda 2)o‘quvchilar deyarli xato qilmaydilar, 3) va o‘quvchi shunday to‘g‘ri javoblar beradiki, 4) ularni natijani ma’lum qilish bilan mustahkamlash imkoniyati yaratiladi hamda, 5)ta’lim maqsadini to‘la amalga oshirish sari yana yangi qoidalarga qadam qo‘yiladi”

16.3. Muammoli ta’lim

Pedagogik manbalarda ta’kidlanishicha muammoli ta’limga XX asrning 20-30-yillarida asos solindi. Dastlab Amerikalik filosoflar, psixologlar va pedagoglar ta’limning ijtimoiy, konstruktiv, ilmiy-tadqiqiy xususiyat va asoslaridan kelib chiqib muammoli o‘qitish to‘g‘risida fikr yuritdilar. Keyinchalik 50-yillarda V. Okon, (Polsha), 70-yillarda M.M.Maxmutov (Rossiya), 90-yillarda N.Avliyoqulov, N.Azizxo‘jaevalar muayyan darajada muammoli ta’limning ilmiy-nazariy va pedagogik asoslarini ishlab chiqdilar.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda muammoli o‘qitish to‘g‘risida takliflar, karashlar bayon etilgan. Masalan, M.I.Maxmudov- muammoli o‘qitish mantiqiy fikrlar tadbirlari, tahlil, umumlashtirish hisobga olingan o‘rgatish va dars berish usullarini qo‘llash qoidalari va talablarning tadqiqot faoliyatlari qnuniyatlarining tizimi, deb izohlaydi.

Professor N.Azizxo‘jaev muammoli ta’lim asosidagi qo‘yida ta’riflagan, yangi muammoli vaziyat talablarga ma’lumotlar bilimlar bilan yangi dalillar, hodisalar, vaziyatlar orasidagi didaktik qarashiliklar bo‘lib, ularni tushunib olish uchun ilgari o‘zlashtirgan bilimlarning yetishmasligidir. Bu qarama-qarshiliklar

(tushunmovchiliklar) ijodiy bilimlarni o‘zlashtirish uchun harakat etuvchi kuch bo‘lib xizmat qiladi deb o‘qtiradi.

T.V.Kudryavsev muammoli o‘qitishning mohiyati qo‘yidagicha izohlaydi. Muammoli o‘qitish o‘quvchilar oldida muammoli vaziyatlarni yaratishda o‘quvchilarning mustaqilligida va o‘qituvchining umumiy rahbarligi ostida amalga oshadigan hamda maktab o‘quvchilarining o‘qituvchi bilan birgalikdagi asosiy hisoblangan faoliyati bo‘lib u vaziyatlarni aniq qabul qilish va hal qilishda asosiy hisoblanadi. Biroq bunday aniqlash muammoli o‘qitishni tushuntirishning butun hajmini ask etirrmaydi. Bundan tashqari, ba’zan o‘qitishning tadqiqot usullari guruhi ham muammoli o‘qitish deb yuritiladi.

Metodist olim A.K.G‘ulomovning ta’kidlashicha muammoli ta’lim qo‘yidagi hollarda yuzaga keladi:

- yangi ma’lumotlar o‘quvchilarga noma’lum bo‘lib, uni izohlash uchun mavjud bilimlar yetishmay, ma’lum qiyinchiliklarni bartaraf etishga to‘g‘ri kelsa:
- bilimlarni yangi vaziyatda qo‘llash zaruriyati tug‘ilsa:
- muammoli topshiriq bilan uni bajarish usuli o‘rtasida nomunofiqlik paydo bo‘lsa.

Bugungi kunda, qaysikim o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, ijodiy faoliyat ko‘rsatishlariga e’tibor kuchayganda o‘quvchi ta’lim sub’ektiga aylangan bir davrda muammoli o‘qitishning ahamiyati kuchaydi. Zero, muammoli ta’lim ilmiy bilish, pedagog tomonidan yaratilgan muammoli vaziyatlar va ularni yechishga qaratilgan o‘quvchining mustaqil faoliyati, ijodiy qobiliyatini o‘stirish orqali o‘quv natijalarini maqsadli o‘zlashtirishga qaratilgan ta’limdir. Muammoli ta’limni tashkil qilish yordamida o‘quvchining tadqiqot, o‘quv-biluv faoliyatini yo‘lga qo‘yish va shu asosda o‘quv predmetidagi ma’lumotlarni, xulosalarni mustaqil tahlil qilish, yangi bilimlarni ijodiy mushohada qilish, xulosa chiqarish operatsiyalari amalaga oshiriladi. Muammoli o‘qitishda o‘qituvchi faoliyatining mazmuni shundan iborat bo‘ladiki, u eng murakkab tushunchalarni, faktlarni tushuntira borib zarur daqiqalarda muammoli vaziyatni vujudga keltiradi va muammoni hal qiladi. Muammoni yechishga o‘quvchining o‘zini yo‘llaydi. Oqibat, natijada o‘quvchilar faoliyati shunday tashkil qilinadiki, bunda ular faktlarni tahlil qilish orqali

mustaqil ravishda xulosa chiqaradilar, umumlashmalar hosil qiladilar. Tushuncha, qoida, teoremalar, qonuniyatlarning ifodalanishini aytib berishdan, o‘quvchilarda yangi vaziyatlarda rejalashtirish, konstruksiyalash, ixtiro qilish yoki insho yozish, matn tuzish, she’r yozish, rasm chizish kabi ishlarni mustaqil qo‘llash malaksi hosil bo‘ladi va diqqat, iroda, ijodiy tasavvur, faraz qilish, tahlil qilish rivojlanadi. Shunday qilib, muammoli o‘qitish ijrochilikdan, ijodiylikka qarab boruvchi ta’limdir. Shu nuqtai nazardan masalaga yondashilganda muammoli o‘qitishning tuzilmasini quyidagicha izohlash mumkin:

Muammoli o‘qitish yunalishlari	Muammoli ta’limning didaktik xususiyatlari	Muammoli vaziyatni yaratish yullari
O‘quv ma’lumotlarini faol idrok etish		Muammoli vaziyatni savo, tajriba, topshirik tarzida vujudga keltirish
Mustaqil ijodiy o‘qish usullarini kullash		Tadkikod, izlanish, tajriba tarzidagi topshiriklarni bayyon etish
Ijodiy kobilt ilmiy tafakkurni rivojlantirish		Takkoslovchi, umumlashtiruvchi, xulosalar chikaruvchi vaziyatlar yaratish
Muammoli vaziyatlar va yechimlar blokini shakllantirish		Muammoli xolatlar va jarayonni takomillashtirish uchun kiyosiy topshiriklar berish
Ilmiy farazlar keltirish va ularning moxiyat mazmunini ochib berish		Bilimlarni Amalda kullashga doir amaliy ishlar tashkil etish
Ilmiy bilim va amaliy ko‘nikma va malakalarga o‘quvchilarni ega kilish		Muammoli bayon kilish orqali mantikiy fikrlashga urgatish.

Muammoli ta’limning mazkur tuzilmasi ta’lim islohotlari hujjatlarda kayd etilgan kuyidagi vazifalarni xal etish va uzluksiz ta’lim muassasalarida pedagogik jarayon samaradorligini ta’min-lashga amaliy yordam beradi.

Demak, muammoli o‘qitish mazmunida o‘qituvchining bayoni o‘z xususiyatiga ko‘ra o‘quvchilar oldiga qandaydir masalani muammo tarzida shakllantirib, o‘quvchilarni o‘ylash, fikrlash, izlanishga majbur etadigan ta’lim bo‘lib, u asosan fikrlarni mantiqiy tahlil qilish va bayyon etishga undaydi. Shu ma’noda muammoli o‘qitish bilimlarni egallash jarayonida tafakkurga murojaat qilish lozimligini nazarda tutadi. Chunochi, tafakkur - inson oldiga turgan masala va muammolarni fikrlash ijodiy o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan idrok,

sezgilardan tashkil topgan bulib muammoli vaziyat yaratish orqali muammoli echimga qaratilgan psixologik holatdir.(S.L. Rubiniski). Bunda muammoli vaziyat insonni fikrlashga tahlil qilishga, mustaqil ijodiy ishlashga yo‘naltiradi va ilmiy bilimlar o‘zlashtirishdagi ziddiyatlarni vujudga kelishi hamda ularni yechish usullarini qayta to‘qnashish natijasida hal bo‘ladi.

Qayta to‘qnashish natijasida muammoli masallarni belgilash usullaridan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, muammoli ta’lim deyilganda:

1. O‘qituvchi rahbarligida muammoli vaziyat yuzaga keltirilib, mazkur muammo o‘qituvchi-talabalarning faol mustaqil faoliyati natijasida bilim, ko‘nikma va malakalarni ijodiy o‘zlashtirish va aqliy faoliyatni rivojlantirishga imkon beradigan ta’lim jarayonini tashkil etish nazarda tutiladi.

2. Shuningdek, muammoli o‘qitishning mohiyatini o‘qituvchi tomonidan o‘quvchi-talabalarning o‘quv ishlarida muammoli vazitni yuzaga keltirish va o‘quv vazifalarni, muammolarni va savollarni hal qilish orqali yangi bilimlarni o‘zlashtirish bo‘yicha ularning bilish faoliyatini boshqarishni tashkil etish tushuniladi.

Muammoli ta’lim vazifalari quyidagilardan iborat deb hisoblaymiz:

- talabalarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish;
- ijodiy fikrni rivojlantirish;
- o‘zlashtirish jarayonining faol bo‘lishini ta’minlash;
- muammolarning yechimini topish, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish;
- darsda o‘rganiladigan mazmunning murakkab qismini o‘zlashtirishda o‘qituvchining faoliyati qanday bo‘lsa, o‘qituvchining o‘quvchi faoliyatini ham shu darajaga yetkazish muammoli ta’limning asosiy maqsadidir.

Maummoli o‘qitishda ta’lim samaradorligini to‘rtta asosiy sharti mavjud.

- muammo mazmuniga qarab yetarli qiziqish o‘ygotishni ta’minlaydi;
- o‘qituvchi va o‘quvchi orasidagi munosabat xayrixohlik ruhida kechishi, ya’ni o‘quvchilar tomonidan bildirilgan barcha fikr va farazlar e’tibor va rag‘batsiz qolmasligi zarur.

- muammoni yechishda olingan axbarotni o‘quvchilar uchun muhimligi.

- muammoni yechimidagi har bir bosqichda paydo bo‘ladigan ishlarni bajara olish mumkinligini ta’minlash (ma’lum va noma’lumlar nisbatining maqbulligi).

Muammoli ta’lim vazifalarini hal etish va o‘qitish samaradorligini yaxshilashda o‘qituvchi va o‘quvchining faoliyati qo‘yidagi ko‘rinishda bo‘ladi.

Pedagog (O‘qituvchi)	**Talaba (O‘quvchi)**
Talabalarga savol topshiriq tarzida muammoli vazifa bilan murojat kiladi	Muammoni idrok qiladi, o‘rganadi, uni yechishi yo‘llarini anglay boshlaydi.
Qo‘yilgan muammoni hal etish yo‘llari ustida fikr yuritishga undaydi.	Talabalar muammoni bajarishga kiritish, uni hal etish yo‘llarini qidirish.
Qo‘yilgan muammolarni yechish yo‘llari to‘g‘risidagi farazlarni aytishni taklif qiladi.	Topshiriqlarni aniq hal yetishga qaratilgan farazlarni ishlab chiqadi.
Farazlar to‘g‘ri bo‘lsa, uni egallash, yangi bilimlar bilan dalillash, xulosalar chiqarishni taklif etish.	Egallagan yangi bilimlar buyicha xulosalar chikarib fikrlarini tizimga soladi, umumlashtiradi.
Takliflar noto‘g‘riligi sezilsa, xatoni topish tavsiya etiladi, aniqlashtiruvchi savollarni beradi.	Vazifalarni to‘g‘ri hal etish yo‘llarini izlab topishga kirishadi.
Muammoni talabalar aniqlagan vazifalarni umumlashtiradai, muvaffaqiyatli rag‘batlantiradi, muammoli fikrlashni takomillashtirishning yangi variantlarini taklif qiladi.	Mavzu bo‘yicha xulosalarni o‘zlashtiradi, uning ta’limiy, tarbiyaviy jihatlarni ochishga harakat qilishadi.
Chiqarilgan xulosani amaliyotga qo‘llashni taklif qiladi	Xulosallarni fikrlash orqali dalillaydi, o‘z-o‘zini nazorat qiladi.

Ta’lim yangilanish jarayonida pedagogik texnalogiya muammolarni tula amalga oshirishga qodir bo‘lgan muammoli ta’lim qo‘yidagi vazifalarni xal etishda amaliy yordam kursatadi:

a) o‘quvchilarni mustaqil fikrlash va ijodiy kobilyatlarni ustiradi;

b) ilmiy bilimlarni qo‘lga kiritish va amalda qo‘llash usullarini o‘zlashtirishning imkonini yaratadi.

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savollar hamda topshiriqlar:

1. Ta’lim jarayonida o‘qituvchi va tinglovchilar o‘zaro munosabatlari shakllarini tasniflang.
2. Interfaol metod haqida ma’lumot bering.
3. Interfaol mashg‘ulotni o‘tkazish algoritmini tushuntiring.
4. Interfaol mashg‘ulotlarda ishlash prinsiplari nimalardan iborat?
5. Dasturlashtirilgan ta’lim nima?
6. Muammoli ta’limning didaktik xususiyatlarini tasniflang.
7. Muammoli ta’lim vazifalari nimalardan iborat?
8. Muammoli ta’lim vazifalarini hal etish va o‘qitish samaradorligini yaxshilashda o‘qituvchi va o‘quvchining faoliyatining ko‘rinishlari haqida ma’lumot bering.

17-MAVZU. O‘QITISHNING INTERFAOL USULLARI

Tayanch so‘zlar: *o‘qitishning interfaol usullari, evristik suhbat, bahs usuli, aqliy hujum, davra stoli, ishbilarmonlik o‘yini usuli, ijtimoiy psixologik trening*

17.1. Pedagogik va psixologik fanlarni o‘qitishda qo‘llaniladigan interfaol usullar

Pedagogik fanlarni o‘qitishda qo‘llaniladigan zamonaviy ta’lim texnologiyalarining interaktiv usullari, talaba- yoshlar savodxonligi, ilm darajasini oshirish bilan birga, qobilyatlarini rivojlantirishga, raqobatbardor, yuksak malakali mutahasis bo‘lishlariga hamda ularda yetuk kasbiy fazilatlarni tarbiyalashga ko‘maklashadi . Shuning uchun ular faol usullardir, shuning uchun ulardan maqsadli foydalanishlari mumkin.

Tajribaning ko‘rsatishicha interaktiv medodlarda olib borilgan mashg‘ulotlar talabalarda:

-erkin va mustaqil fikrlashni ;

-talabalar jamoasida o‘zini erkin his qilishni;

-esda qolishni qat’iylashtirishni;

-bilim doirasini kengaytirish va chuqurlashtirishni :

-ijtimoiy foydali faoliyatga aktiv qatnashiahni ;

-muomila madanyatini ijobiylashtirni ;

-og‘zaki va yozma nutqini o‘stirishni;[1]

-o‘z fikrini erkin, ijodiy, mazmunli bayon etishni;

-o‘z kursdoshlari, ta’lim beruvchilar bilan hamkorlikda, hamjihatlikda ishlashni yo‘lga qo‘yishni tarbiyalaydi.

Interaktiv o‘qitish metodlarini o‘z mazmun-mohiyati, didaktik vazifalarni amalga oshirishga ko‘ra quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. “Aqliy hujum” usuli. Mavzu bo‘yicha keng va har tomonlama fikr yuritish, muammoni mustaqil tushunish va muammoni yechishda talabalar motivatsiyasini uygo‘tishga o‘rgatadi. Ilm oluvchilarni o‘z bilimi va ijodiy tafakkuriga tayanib ish yuritishga undaydi.

Aqliy hujum – bu:

– muammoni yechishning novatorlik metodi;

---

1 Saidahmedov N. “Yangi pedagogik texnologiyalar : nazarya va amalyot. T.” Moliya “ nashiryoti 2003 93 bet

– qisqa vaqt ichida juda ko‘p fikrlar;

– fikrlashda erkinlik, o‘z xatti-harakatidan mamnun bo‘lish (qanchalik kutilmagan fikr bo‘lsa shuncha yaxshi);

– tanqidning mavjud emasligi (fikrni har qanday baholash keyinga qoldiriladi);

– bu o‘zining va boshqalarning fikrini rivojlantirish, uyg‘un-lashtirish va o‘zgartirish.

Ushbu metod quyidagi ketma-ketlikni qamrab oladi:

1) mavzu tanlanadi;

2) mavzuning asosiy tavsifi yoki qismlarining ro‘yxati tuziladi; 3) har bir tavsif yoki uning qismini bajarishning barcha imkoniyatlari sanab o‘tiladi; 4) ob’ektning barcha qismlarini bajarish bo‘yicha eng qiziqarli variantlar tanlab olinadi.

1. Mashg‘ulotga tayyorgarlik ko‘rish:

O‘quv guruhi tinglovchilari ichidan takliflarni ishlab chiquvchi kichik guruh shakllantiriladi (qoidaga ko‘ra 5-10 kishi) va ular tomonidan ilgari surilgan fikrlarni tahlil qilish va eng yaxshi-larini tanlab olish uchun o‘quv guruhining qolgan tinglovchilaridan ekspertlar guruhi tashkil etiladi (taklif ishlab chiquvchilarning o‘zi takliflarni ishlab chiqqanidan so‘ng ekspert sifatida ishtirok etishi mumkin).

Mashg‘ulotdan bir -ikki kun oldin ishtirokchilarni mavzu va vazifa mazmuni bilan qisqacha tanishtiradi (bu kimdir mashg‘ulotga tayyor fikrlar bilan kelishiga sharoit yaratadi).

Fikrlarni yozish va ro‘yxatini namoyish qilish uchun barcha zaruriy narsalarni tayyorlab qo‘yish talab etiladi. Masalan,

– doska va mel;

– varaq va ruchkalar;

– turli rangdagi stikerlar;

– proektorga ulangan noutbuk.

2. Kirish:

Barcha fikrlarni qayd etish uchun bir yoki ikki tinglovchini belgilab olish.

Birinchi bosqich (takliflar ishlab chiqish) davomiyligini belgilash.

Ishtirokchilar vaqt chegaralanganligini va ular tomonidan qis-qa vaqt ichida iloji boricha ko‘proq fikrlar bildirilishi lozimli-gini

bilishlari shart. Bu ularni bor imkoniyati doirasida harakat qilishga majbur etadi.

Shu bilan birga , vazifa ham qo‘yilishi kerak. Aqliy hujum oqibatida qanday aniq natijalarga erishish lozim? Vazifani shunday yozish kerakki, natijada u har doim ko‘rinib tursin.

Ishtirokchilar qanday muammoni yechishlari lozimligini aniq tasavvur qilishlari shart. Aqliy hujumda fikrlar tartibsiz bo‘lishi mumkin, biroq vazifalar tartibsizligiga yo‘l qo‘yilmaydi.

3. Asosiy qism:

«Aqliy hujum»ning birinchi bosqichida guruhga muhokama uchun muayyan muammo beriladi, ishtirokchilar muammo yechimi yuzasidan navbatma-navbat qisqa va aniq shaklda har qanday takliflarini bildirishadi, o‘qituvchi barcha takliflarni (ularni amalda qo‘l-lashga yaroqliligini tanqid qilmagan holda) yozib boradi (doskaga, plakatga).

«Aqliy hujum»ning ikkinchi bosqichida muammo yechimi yuzasidan bildirilgan takliflar muhokama qilinadi. Guruh bildirilgan takliflar ichidan xohlagan birini amalda qo‘llash imkoniyatini topishi yoki uni takomillashtirish yo‘lini belgilashi kerak. Mazkur bosqichda diskussiyaning turli shakllaridan foydalanish mumkin.

«Aqliy hujum»ning uchinchi bosqichida guruh oldindan kelishilgan prinsipga ko‘ra natijalarni e’lon qiladi:

– eng yaxshi yechim,

– bir muncha nisbatan yaxshi takliflar;

– eng noodatiy yechim va hokazo.

O‘qituvchi bildirilgan fikrlarga o‘z munosabatini bildiradi. «Aqliy hujum»ni amalga oshirish uchun ishtirokchilarni bir nechta guruhlarga bo‘lish mumkin:

– takliflarni ishlab chiquvchilar (ular muammoni yechishga yo‘naltirilgan turli fikrlarni bildirishadi);

– tanqidchilar (ular bildirilgan takliflardan salbiy jihat-larni topishga harakat qilishadi);

– tahlilchilar (ishlab chiqilgan takliflarni (tanqidiy fikr-larni inobatga olgan holda) aniq real sharoitlar bilan bog‘laydi-lar) va boshqalar.

Muammoning yechimi yoki uning muhokamasi uchun 10-15 daqiqa vaqt chegarasini belgilash maqsadga muvofiq.

«Aqliy hujum»ni boshqarib boruvchi o‘qituvchi:

– shovqin-suron bo‘lmasligi uchun takliflarni ishlab chiquvchilarga navbatma-navbat so‘z beradi. Aqliy hujum ishtirokchilari o‘z fiklarini bildirishlari uchun teng imkoniyatga ega bo‘lishlarini nazorat qiladi;

– hushmuomalalik, lekin qat’iyat bilan taklif ishlab chiquvchi tinglovchi tomonidan bildirilayotgan fikrlar boshqa tinglovchilar tomonidan tanqid qilinishiga barham beradi.

Fikrni o‘ldiruvchi (idea killers) odatiy gaplar va ularga qanday javob berish kerak:

– Bundan hech narsa chiqmaydi. — «Albatta, bu fikr shakllantirilmasa, undan hech narsa chiqmaydi».

– Bu haddan tashqari. — «Nima qilibdi?».

– Buning nimasi o‘ziga xos? — «Buning o‘ziga xosligi bu tak-lifni ilgari hech kim bildirmaganligida».

– Buni xohlagan odam o‘ylab topishi mumkin. — «To‘g‘ri!» va hokazo.

2. “Fikriy hujum” (mozgovaya ataka) usuli. Mashg‘ulotda talabalar faolligini ta’minlash, erkin fikr yuritish, ijodkorlikka intilishni yuzaga keltiradi. Muayyan mavzu bo‘yicha rangba-rang go‘yalarni to‘plash muammoni yechishning dastlabki bosqichidagi ayrim fikrlarni yengishga o‘rgatadi.

3. “Yangi fikriy hujum” usuli. 20, 40, 60 nafar talabalar bilan o‘tiladigan mashg‘ulotga qo‘llaniladi. Yangi go‘yalarning o‘rtacha talabalar tomonidan qo‘yilishi bilan farqlanadi. 5-6 nafar guruh talabalariga 15 daqiqada ham etiladigan topshiriq beriladi. Bu ijodiy topshiriq aytilgan vaqt ichida ijodiy hal etiladi. Bajarilgan topshiriq darajasiga qarab guruhlar baholanib boriladi.

4. “Fikrlarning shiddatli hujumi” usuli. Pedagogik fanlarni o‘qitishda qo‘llaniladigan ushbu usul talabalarning fikrlashi, qobilyati va mulahaza yuritish imkoniyatini rivijlantirishga ko‘maklashadi. Ta’lim oluvchining guruh tomonidan ilgari surilgan fikrga qarashi o‘z g‘oyasini dalillash uchun qo‘llaniladi. Topshiriqlar yechimi bir necha bosqishda amalga oshirilishi nazarda tutiladi.

5. “Namoyish” usuli. Mashg‘ulotga xaritalar, plakatlar, kartochkalar, magnitofon, televizor, lingafon kabi tasvirli materiallardan keng foydalanish mumkin. Bu bilimlarni ko‘nikma va

makagaga aylantirish maqsadida qo‘llaniladi. Bunda talaba eshitadi, ko‘radi, kerakli ma’lumotlarni yozib boradi.

6. “Kitob bilan ishlash” usuli. Talabalarning manbalarda mustaqil ishlashlari, berilgan topshiriqni matndan topishi, o‘z-ozini tekshirishi maqsadida qo‘llaniladi. Shuningdek, vazifani to‘liq va ongli o‘zlashtirishni ta’minlaydi.

7. “Ma’ruza-suhbat” usuli. Sector malakaga ega bo‘lsa, fanni mukammal bilsa, masalani bayon etish jarayonida ayrim savollar bilan tinglovchilarga murojaat qilishi nazarda tutiladi. Unda talabalar eshitgamlarini chuqur mulohaza qiladilar va mulohazaga kirishadilar.

8. “Suhbat” usuli. Talaba o‘quv stollariga davra qurib o‘tiradilar, bir-birlariga yozma tarzda savollar beradilar. Mashg‘ulot diolog tarzda o‘tkaziladi. Suhbat individual yoki guhuh shaklida tashkil etilishi mumkin.

9. “6x6x6” usuli. Talabalar 6 kishidan iborat guruhlarni tashkil qiladilar. Berilgan topshiriq belgilangan vaqtda bajariladi, so‘ngra guruhlar qayta shakllantiriladi va bu guruhda oldingi guruhning bir ishtirokchisi qatnashadi va u yangi guruhga o‘z jamoadoshlarining javobini taqdim etadi va mu’lum muammo yechimi birgalikda muhokama qilinadi. Bunda:

-guruhlarning har bir a’zosini faol bo‘lishi ta’minlanadi;

-ilgari surilgan fikrni boshqalar tinglaydi va mulohaza yuritadi;

-guruhlarning fikrlari umumlashtiriladi va aniq bir xulosa qilinadi.

10. “Klaster” (tarmoqlar) usuli. Fikrlarning tarmoqlanishi nazarda tutilgan ushbu metod mavzuni chuqur o‘rganish, mavzuga oid tushuncha yoki aniq fikrni erkin, ochiq bayon qilishga ko‘maklashadi. Bunda har bir talaba mavzuga taalluqli bo‘lgan fikrni ketma-ketlikda, mantiqiy bog‘langan tarzda tarmoqlanishiga yordam beradi. Mavzuni chuqur o‘rganish, fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun bu usul qulay hisoblanadi.

11. “Pinbord” usuli (inglizcha, pin - muhtahkamlash, board – doska ma’nosini anglatadi). Bu usulda o‘quv mavzusi yoki o‘quv suhbati kabi o‘quv usullari yordamida bayon etiladi. Bu usulning afzalligi shundaki, u rivojlantiruvchi, tarbiyalovchi funksiyalarning bog‘lanishini ta’minlaydi. Bu usl yordamida talabalarda muloqotga kirishish, fikr yuritish, munozara olib boorish, o‘z nuqtai nazarini faqat

og‘zaki emas, balki yozma bayon etish mas’uliyati shakllanadi. Tizimli-mantiqiy fikrlash rivojlantiriladi va mustahkamlanadi.

PINBORDNING TEXNOLOGIK JADVALI

Ish bosqichlari	Pedagog	Talaba
1-bosqich tayyorlov	Mavzuni tanlaydi,maqsadini belgilaydi,faoliyat natija va baxolash mezoni tuzib chiqadi. qiziqtiruvchi (munozarali)savol va asosiy fikrlarni shaklantiradi	Tinglaydi, topshiriqlarni eshitadi va qabul qiladi
2- bosqich mavzuning ustida ishlash	Mavzu mazmunini loyihalaydi, o‘z mulohazalarni bildiradi va o‘quvchilardan mavzu yuzasidan fikr, mulohazalarni bayon etishni taklif etadi “pinbord” usulining mazmuni tushuntiradi. savollar beradi	Munozara jarayonida mavzu bo‘yicha mavzularni ishlab chiqadi
3- bosqich o‘z xulosalarini yozishma bayon etish	Kuzatadi	Munozara vaqtida shakllangan fikrlarni asosiy xulosa tarzida qog‘oz varaqiga yoki kartatekalarga yozib doskaga ilib qo‘yiladi
4-bosqich umumlashtirish	Maslahat beradi ko‘maklashadi majburiy tarzda emas erkin xolatda yordam beradi, yo‘naltiradi	Guruh talabalaridan 2-3 a’zo jamoa bilan kelishib,maslahatlashib ma’lumotlarni mavzu bo‘yicha tartiblaydilar,strelka chiziq beldilar yordamida ularning o‘zaro munosabatini bir butun yoki qarama-qarshi fikrlar bayon etiladi
5- bosqich yakunlash, taxlil qilish va natijani baxolash	Talabalar tomonidan amalga oshiriladigan faoliyatga yakun yasaydi taxlil qilinadi va baholaniladi	o‘z-o‘ziga baho berish amalga oshiriladi

12. “Munozara” usuli . Bu usul o‘quvchi – talabalarning o‘z fikrlari nuqtai- nazarlari, g‘oyalarini asoslash, o‘zaro fikr almashish,bahs ishtirokini ta’minlash,maqsadida tashkil etilib va u pedagogik turkum fanlarning seminar mashg‘ulotlarini tashkil etadi. Buning uchun avvalo, pedagogning o‘zi munozara to‘g‘risida muayyan darajada tushunchaga ega bo‘lishi kerak, chunki bu usul yordamida muammoli mavzu o‘tiladi. Dastlab munozaraga kirishuvchilarga munozaraning maqsadi tushuntiriladi, ular mavzudan chetga chiqib ketmasliklarini nazorat qilib turadi. Bunda har bir talaba tomonidan aytilgan fikr doskaga yozib boriladi va munozara oxirida qo‘yilgan

savollarga berilgan javoblar taxlil qilinib, yagona, to‘g‘ri xulosaga keladilar.

Munozaraga barcha o‘quvchilar jalb qilinishi har bir topshiriq bo‘yicha barchani tinglash yo‘lga qo‘yilishi lozim. Zero, munozara-faol, qiziqarli qizg‘in bahs, ehtirosli suhbat asosida o‘tishi kerak.Buning uchun mavzu va unga doir topshiriqlar savol tarzida ishtirokchilarga oldindan e’lon qilinishi va ishtirokchilarning puxta tayyorgarlik ko‘rishlarini e’tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Talabalarning mavzu bo‘yicha o‘z bilimlarini va g‘oyalarini erkin namoyish etilishi uchun imkon yaratilishi lozim. Boshqaruvchi munozarani to‘g‘ri borishini kuzatib boorish, mavzudan chetga chiqiladigan bo‘lsa uni darxol o‘z yo‘nalishiga solib qo‘yishi talab qilinadi.

13.Matbuot (konfrensiya) usul. Talabaning ilmiy amaliy ma’ruzalari, reforat **ishlari,** seminar yoki amaliy mashg‘ulotlarda o‘tkazilgan mavzularni muhokama qilish uchun o‘tkazilgan usul hisoblaniladi. Mashg‘ulotda ilmiy amaliy tatqiqotning borishi amalda qo‘lanilgan natija amaliy ish mashqlari analiz –sintez qilinadi. Xulosalar chiqarilib, yangi ishlar rejalashtiriladi.

14. “Tanqidiy fikrlar” usuli. Bu usul amerikalik psixolog va pedagog Dgion Dyuning “ Insoning sharoitlar va temperamentga nisbatan tanqidiy fikrlashigina shaxs istagi va qiziqishlarini to‘g‘ri yo‘lga sola oladi “ aqidasiga rioya qilib, talim oluvchining o‘z bilimi, jismoniy, ruhiy tayyorgarlik darajasini tanqidiy o‘lchovlar, fikrlar orqali yechish, bahs-munozaraga to‘g‘ri ishtirok etish ko‘nikmasini hosil qilish maqsadida qo‘laniladi. Bu usul o‘quvchi- talabalarga o‘zgalar fikrini tinglash, o‘z fikrlarini taqqoslash, muloqot olib boorish, yechimlarni to‘g‘ri topishga to‘l ochib beradi va ularda analitik fikrlash, to‘g‘ri hukm chiqarish qobilyatini rivojlantirishga yordam beradi. Bu usul yordamida talabalar o‘z fiklarini erkin bayon etib, fikrlarni oydinlashtish, ilmiy – amaliy asoslash, o‘zgalar fikrlarini o‘rganish, o‘z fikrining tahlili asosida to‘g‘ri xulosa chiqarish va aniq natija,qaror qabul qilishni o‘rganadilar.

“Mantiqiy fikrlash “ uch bosqichda–davat, mazmuni anglash, fikrlash bosqichlarida amalga oshiriladi. Mantiqiy bosqichda yangi mavzuga oid tushunchalar, oldin o‘rganilgan ma’lumotlarga tayangan xolda aniqlanadi. Aniqlik bosqichida bilaman, bilmoqchiman,qonuniga

asoslanib bilimlar, fikrlar taqoslaniladi . Fikrlash bosqichida yangi o‘rganilgan bilimlar, tanqidiy fiklar yordamida g‘oyalar, axborotlar mustahkamlanadi, to‘ldiriladi. Bunda talabalarga matn bilan ishlash malaksi takomilashadi shahsiy sifatlar rivojlanadi.

15. “Ajurli arra” usuli. (Ajur fransuzcha “ajour” so‘zidan olingan bo‘lib, ikki tomoni ochiq, bir tomondan ikkinchi tomnga o‘tish manosini anglatadi). Bu usul topshiriq yoki matnning bir necha qismiga bo‘lib berilishi yordamida tashkil qilinishi lozimligini talab etadi. Ekspremеntlar belgilanadi. Har bir guruhda o‘quvchi topshiriqni avval o‘z guruhida, so‘ngra ekspremental guruhda o‘rganadi. O‘z guruhida bildirilgan fikrga qo‘shilmagan o‘quvchi,ikkinchi guruh fikriga qo‘shilsa, u o‘sha guruh tomonga o‘tib ularning fikriga qo‘shilishi mumkin . Bu usul yordamida talabalar pedagogik ma’lumotlarni egallashda hamkorlikda ishlaydilar va qisqa vaqt ichida katta hajmdagi ma’lumotga ega bo‘ladilar.

16. “Videotopishmoq” usuli. So‘nggi yillarda pedagogik faoliyatda turli axborot vositalar (kompuyuter, televidinya, radio,nusha ko‘chiruvchi qurulma,slayt,video va audio magnitafonlar) yordamida ta’lim jarayoni tashkil etishga alohida etibor qaratilmoqda. O‘qituvchilar oldida ta’lim jarayonida turli axborot vositalaridan o‘rinli va maqsadga muofiq foydalanish vazifasi turibdi . Videotopishmoq metodidan foydalanishda quydagi harakatlar amalga oshirilda:

-taxsil oluvchilar etiborida o‘rganilayotgan mavzu mohiyatini tasviriy yoritishga yordam beruvchi bir necha videolavha namoyish etiladi.

17.“Yumaloqlangan qor o‘yini” usuli. Bu metod ham mavzuning muayyan qismlarida bo‘lgan xolda o‘zlashtirish imkonini beradi hamda taxsil oluvchilarda guruh hamda juftlikda ishlash ko‘nikmalarni shakllantirishga hizmat qiladi. Metodni qo‘llash jarayonida quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

-tasvirli kartochkalar tayyorlaniladi;

-ularning orqa tomonida mavzuni o‘zlashtirishga oid o‘n beshdan variantdan iborat topshiriqlar yoziladi;

-sinf taxsil oluvchilari ikki yoki uch guruhga bo‘linadilar(guruhlarni hosil qilishda tasvirli kartochkalardan foyadalaniladi)

-har bir guruh azolari bir necha juftlikga biriktiriladi;

-har bir juftlik bir variantdagi topshiriqni bajaradi;

-jarayon yakunida umumiy xulosalar chiqaradilar;

“Yumaloqlangan qor o‘yini” metodidan muayan bo‘lim yoki boblar bo‘yicha o‘zlashtirilgan nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlash maqsadida fotdalanish nihoyatda qulay.

16 “Zakovatli zuko” usuli. Mavjud bilimlarni puxta o‘zlashtirishda taxsil oluvchilarning fikrlash, tafakkur yuritish layoqatlariga egaliklari muxim axamyatga ega. “Zakovatli zuko” metodi taxsil oluvchilarda tezkor fikrlash ko‘nikmalarni shakllantirish, shuningdek,ularning tafakkur tezliklarini aniqlashga yordam beradi. Metod o‘z xohishlariga ko‘ra shaxsiy imkoniyatlarni sinab ko‘rish istagida bo‘lgan taxsil oluvchilar uchun qulay imkoniyatlarni yaratadi. Ular o‘qituvchi tomonidan berilgab savollarga qisqa mudatlarda to‘g‘ri va aniq javob qaytara olishlari zarur. Savollarning murakablik darajasiga ko‘ra har bir savolga ko‘tarilgan to‘g‘ri javob uchun ballar belgilaniladi. Yakuniy ballarning o‘rtacha arifmetik qiymatini toppish asosida taxsil oluvchilarning tafakkur tezligi aniqlanadi.

Ballarning belgilanishi tahsil oluvchilarning shaxsiy imkoniyatlari to‘g‘risida aniq tasvurga ega bo‘lishlarini taminlaydi.

Metod tahsil oluvchilar bilan yakka tartibda,guruhli va ommaviy ishlashda birdek qo‘llanilishi mumkin.

19. “Qarama- qarshi munosabat” usuli. Metod o‘z mohiyatiga ko‘ra o‘zlashtirilgan bilimlarni tahlil va sintez qilish asosida asosiy hamda ikkinchi darajali ma’lumotlar sifatida guruhlarga ajratish imkonini beradi. Metodni qo‘llashda quydagi harakatlar amalga oshiriladi:

-mavzuning umumiy mazmuni yodga olinib, uning axamyatini yorutuvchi tayanch tushunchalar aniqlanadi;

-ular muayyan ketma-ketlikda qayt etiladi;

-tushunchalar shaxsiy yondashuv asosida muhim va u qadar muhim bo‘lmagan tushunchalar tarzida guruhlanadi;

-jadval yaratilib, uning birinchi ustuniga muhim bo‘lgan, ikkinchi ustunida muhum bo‘lmagan tushunchalar yoziladi;

-kichik guruhlar asosida shaxsiy yondashuvlar muhokama qilinadi;

-jamoaning umumiy fikriga ko‘ra yakuniy xulosani ifoda etuvchi jadval yaratiladi;

Tahsil oluvchilar faoliyatining samaradorligini taminlash uchun ularning e’tiborlariga quydagi jadvallarni taqdim etish maqsadida muvofiqdir:

1. Yakka tartibda ishlash jarayonida foydalanish uchun:

MAVZUNING AHAMIYATI

№	Muhim tushunchalar	№	Muhim bo‘lmagan tushunchalar
1. 2. 3.		1. 2. 3.	

2. Jamoa asosida ishlash jarayoni uchun

MAVZUNING AHAMIYATI

№	Jamiyatning ijtimoiy (iqtisodiy-madaniy) hayotidagi roli (o‘rni)	Shaxs hayotidagi roli (o‘rni)
1. 2. 3. 4. 5.		

20**. “Sinkveyn” (axborotni yig‘ish) usuli.** bu usul pedagogika turkumi fanlaridan olingan bilimlarni yig‘ish maqsadida o‘tkaziladi. Bu usul o‘rganilmagan, ammo bo‘lajak tarbiyachi-o‘qituvchi uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlar mazmunini chuqur o‘rganish jarayonida o‘rganiladi va fikrlar kengaytiriladi. Ushbu usul o‘quvchi (talaba)larga o‘z fikrlarini to‘plash, ularni qisqa va aniq ifodalash, mulohazalarni sintezlash hamda o‘z mulohazalarini takomillashtirishga yordam ko‘rsatadi. Asosan, “sinkvey” usuli olingan ma’lumotlarni to‘plash, fikrlarini umumlashtirish, muomala vaziyatini yechish, tafakkurini rivojlantirish maqsadida tuziladi. Misol uchun, talabalar “Umumiy pedagogika” fanidan “Ta’lim to‘g‘isida”gi qonun yuzasidan “Nimani bilasiz?” savoli yuzasidan o‘qituvchi yozuv taxtasiga uzluksiz ta’lim turlari ta’lim mazmunini belgilovchi ko‘rsatmalar va O‘zbekiston ta’limida qaysi sohalarga e’tibor qaratilgan v.h.k savollar nimani anglatishini so‘raganda tinglovchilar va ta’lim oluvchilar ta’lim

strukturasi DTS, reja, dastur, darsliklarni, o‘rta maxsus, kasb-hunar, oliy ta’limda bular to‘g‘risida ma’lumotlar umumlashtiriladi va sintezlashtiriladi.

21. **“Tayanch signallar” usuli.** bu usul mavzu bo‘yicha tayanch manbalar, bilimlarni eslatuvchi signallar yozib qo‘yiladi. O‘quvchi (talaba) shu signallardan foydalaib javob topadi va mavzuni to‘liq o‘zlashtirib oladi. “Tayanch signallar” usulidan foydalanilganda pedagogik atamalar tushunchalariga doir signallar (belgilar) yozuv taxtasida yoki ko‘rgazmali vatmanlarda yozib qo‘yiladi. Talabalar shu belgilarni nazarda tutib qo‘yilgan topshiriq va savollarga javob topadilar, mavzuni to‘liq o‘zlashtirib oladilar. Bunda pedagogika fanlarning tarkibiy bo‘limlari yordamida kod bilan ifodalaniladi . Manashu ifodalarga qarab talaba nima to‘g‘risida so‘z borayotgan-ligini anglaydi va uning mazmunini ochib beradi.

22. “Insert” usuli. Bu usul talabalar faolliyatini yuqori darajada bo‘lishini taminlash va ta’lim – o‘qish, o‘rganish jarayonida o‘z bilimini,aniqlab olingan malumotlarni bilimlar ularga taxlily yondashib olishlari, ko‘nikmalarni shakllantirish yo‘lga qo‘yiladigan usul hisoblanadi. Ma’lumki, ko‘p hollarda o‘quvchi – talabalar mavzu matnini, avvalidan oxirigacha o‘qib gap nima haqida borayotganligini eslay olmasliklari mumkin. Chunki, ularning diqqati matn mazmuniga qaratilgan bo‘lib, yoritilayotgan masalalar mazmunini anglash va uni kuzatish nazarda tutilmagan bo‘ladi . Bu usulni qo‘llash talaballarni faollashtirilishi, ularning mantiqiy fikrlashlarini yo‘lga qo‘yish, anglab kuzatgan hodisalarni erkin aytib berishlarni taminlash, yozma va og‘zaki nutqlarining yanada rivojlanishi uchun imkon yaratish ishlari amalga oshiriladi.

23. “Qarorlar shajarasi” usuli. Ushbu usul qiyin va turlicha murakkablikga ega bo‘lgan fanlardan (murakkab mavzularni o‘zlashtirish, ma’lumotlarni tahlil qilish va ular yuzasidan muayyan xulosalarga kelish, hamda yakuniy eng to‘g‘ri fikrni toppish maqsadini oqilona hal etishga yordam beruvchi usul hisoblanadi. Bu usul bir necha ta’lim oluvchilarning to‘g‘ri javoblarini jamlash va baholash imkonini beradi. Usul mashg‘ulot jarayonida bildirilgan fikrlardan oqilona qaror qabul qilish, javoblarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri jihatlarini tahlil qilish orqali amalga oshadi. Mashg‘ulotning boshlang‘ich bosqichida mavzu mazmuni bo‘yicha biror muammo belgilab olinadi va o‘quvchilar

guruhlarga bo‘linadi(har guruh 5-6 kishini tashkil qilishi muhim) muammo yuzasidan o‘z javoblarini ya’ni fikrlarini bildiradilar va muayyan qarorga keladilar.

Mashg‘ulotda o‘quv-biluv faoliyati quyidagicha bo‘ladi:

1.Mavzu bo‘yicha muammo belgilanadi.

2.Talabalar guruhi kichik guruhlarga bo‘linadi.

3.Vaqt belgilab olinadi.

4.Guruhlarning javoblari guruhda muhokama qilinadi.

5.Vaqt tugagach har bir kichik guruh sardori o‘z guruhining savoli bo‘yicha qarorini e’lon qiladi.

6.Javob(fikr)lar muhokama qilinib, yagona qaror qabul qilinadi.

Xulosa qilib aytganda oliy o‘quv yurtlarida o‘quv fanlarini, ayniqsa, “Pedagogika nazariyasi va tarixi” fanini o‘rganishda yig‘ish, ma’lumotlarni tarqatish olib boriladi hamda o‘tmishdagi buyuk pedagoglar siymosi teatrlashtirilgan holda namoyish etiladi.

24. “B.B.B.(Bilaman. Bilishni xohlayman. Bilib oldim.)” usuli.

Mazkur usul pedagogik fanlarni o‘qitish metodikasini fani bo‘yicha egallagan bilimlar darajasini aniqlash imkonini beradi. Bunda o‘quvchilar guruh bo‘lib yoki jamoada ishlashlari mumkin. Buning uchun yozuv taxtasida uchta chizma aks ettiriladi.

Masalan:

Taxminan bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim
1.	1.	1.
2.	2.	2.
3.	3.	3.

Usuldan foydalanish uch bosqichda amalga oshiriladi. Dastlab talabalar didaktik o‘yin asosida guruhlarni tashkil etadilar. O‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha har bir guruh o‘zaro hamkorlikda “Taxminan nimani bilamiz” ustunini to‘ldiradilar. Bu ustunga butun jamoaning javoblari mavzu mazmuni bo‘yicha mantiqiy ketma-ketlikda jamlanadi. Masalan, “Umumiy pedagogika fanidan ta’lim mazmuni” mavzusi o‘rganilayotgan ta’lim mazmunini belgilovchi hujjatlar ta’lim mazmunini ijtimoiy ehtiyojlar davlatning o‘quv yurti oldiga qo‘yilgan talablari orqali belgilanadi, ularni o‘quv reja, o‘quv dasturi va o‘quv

qo‘llanmalariga oid tushunchalar, ma’lumotlar yoziladi, so‘ngra guruh a’zolari muayyan ketma-ketlikda mavzu bo‘yicha o‘zi qiziqtirgan savollarni’ ehtiyojlarini “Bilishni xohlayman” ustuniga yozib chiqadilar. So‘ngra talabalarga mavzu yuzasidan ma’ruza matni yoki qo‘shimcha adabiyotlar bilan tanishib chiqish tavsiya etiladi. Savollarga topilgan aniq javoblar uchun “Bilib oldim” ustuniga joylashtiriladi. Mobodo talabarni qiziqtirgan savollarga javob topilmay qolsa unga javob toppish uchun talabalarga qo‘shimcha aniq ma’lumotlar tvsiya etiladi, yoki o‘qituvchining o‘zi javobni to‘ldirishi ham mumkin.(Izoh:Bu usuldan foydalanishning tavsiloti to‘liq holda amaliy mashg‘ulotning texnologik xaritasi, yani dars ishlanmasidan keltiriladi.)

Biz yuqorida mamlakatimiz pedagog olimlarining ilmiy-nazariy va amaliy xulosalariga tayanib, uzluksiz ta’lim tizimida, jumladan oliy ta’lim maktablarining ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan va qo‘llanilayotgan zamonaviy o‘qitish jarayonining interfaol usullarining ayrimlari xususida fikr yuritib, ularni oliy o‘quv yurtlarida o‘qitiladigan pedagogik turkum fanlarini o‘qitish jarayonida qo‘llash xususida fikr yuritildi. Mazkur interfaol usullarning tarmog‘i keng foydalanish mavqei chegarasiz. Biz tasniflab o‘tgan va oliy ta’limning nazariy va amaliy mashg‘ulotlarida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan interfaol metodlar haqida turli manbalardan ma’lumot olish mumkin. Ular talabalar faolligini oshirish, o‘quv tarbiya jarayonini jadallashtirish, mustaqil ijodiy fikrlashni o‘stirish bilan birga bo‘lajak tarbiyachi-o‘qituvchilarga yuksak kasbiy mahorat, ma’naviy-axloqiy salohiyat va ilmiy dunyoqarashning rivojlanishiga katta yordam beradi.

17.2.Ijtimoiy psixologik trening

Shaxs tarbiyasi bilan shug‘ullanish uni kelgusidagi murakkab va xilma-xil muloqot jarayonlariga psixologik tayyorlaydi. Bunday tayyorgarlik, barcha soha mutaxassislari uchun muhim, chunki ular o‘z kasblari tufayli turli muloqot vaziyatlariga duch keladilar va har bir vaziyatda ulardan nihoyatda o‘tkir didlilik, odob va kishilar psixologiyasini bilgan holda ularni to‘g‘ri tushunish malakasi talab qilinadi. Ijtimoiy psixologiyaning bu borada noyob usuli bor, u ham bo‘lsa, ijtimoiy psixologik treningdir.

Trening usulining ijtimoiy-psixologik mohiyati shudaki, bu usul orqali odamlarda muloqot malakalari hosil qilinib, ular turli ijtimoiy

sharoitlarda o‘zini to‘g‘ri tutishga odatlantiriladi. Boshqacha qilib aytganda, trening muloqotga o‘rgatishdir. To‘g‘ri, odam kishilar jamiyatida yashar ekan, kundalik muloqot jarayonida turli muloqot shakllariga o‘rganib, o‘zida ma‟lum muloqot malakalarini shakllantirib boradi. Lekin insonda bunday malakalar stixiyali tarzda yoki maqsadga qaratilgan holda ham hosil qilinishi mumkin. Oxirgi holat hozirgi zamon kishisining turli ishlab chiqarish va muomala sharoitlarida to‘g‘ri moslashishiga yordam beradi. Bu narsa insonda, ijtimoiy aql-zakovatning shakllanishiga olib keladi. Ma’lum bir muammolarni xal qilishda psixologik trening deb ataluvchi o‘yin va mashqlar to‘plamidan iborat mashg‘ulotlar yordam beradi. Shuni alohida qayd etish lozimki, trening jarayonida muammolarni yechish ham, bu boradagi bilim, ko‘nikma va malakalarni hosil qilish ham trenerdan shaxs psixologiyasi, shaxsning individual psixologiyasi bilan ishlashni taqozo yetadi. Shuning uchun psixologiyada bunday treninglar psixologik treninglar deb ataladi. Har qanday psixologik treninglarni tashkil etish qo’yidagi bosqichlardan tashkil topdi:

 guruhni tashkil etish yoki yig‘ish bosqichi - trening guruhini, ya’ni treningda ishtirok etuvchilar guruhini yig‘ishga qaratilgan bosqich;

 boshlang‘ich bosqich – guruh normalarni ishlab chiqish bosqichi. Guruhiy normalar guruhda mashg‘ulotning dastlabki soatlaridanoq samimiylik, o‘zaro ishonch, o‘zaro hurmat muhitini vujudga keltirish maqsadida qabul qilinadi. Guruhiy normalarni ishlab chiqish jarayonida ishtirokchilar bilan bu normalarga albatta rioya qilish kerakligi tug‘risida kelishish va har bir a‟zoning roziligini olish kerak;

 ishni olib borish bosqichi - bu trening jarayonini va mashg‘ulotlarning qanday olib borilishi, ularning turlari, trening jarayonida qo‘llaniladigan usullardan iboratdir;

 yakunlash bosqichi – trening yopilishini yuqori hissiy to‘lqinlarda yakunlash tadbirini tayyorlash va o‘tkazish, har bir ishtirokchiga qulay sharoit yaratish, ularga birgalikdagi faoliyatlari uchun o‘zaro tashakkur bildirishlariga imkon berish, ulardan bo‘lib o‘tgan trening samarasi haqida fikrlarini so‘rash, hamda ishtirokchilarga nisbatan o‘z moyilligini namoyon etish, guruh

ishtirokchilari bilan bo‘lib o‘tgan trening mashqlariga yakun yasash hamda erishilgan natijalar bo‘yicha xulosa qilish bosqichi.

Trening-inglizcha “maxsus rejim, trenirovka” degan ma‟noni bildiradi. Kishilarda muloqot malakalari tasodifan yoki ta‟lim mahsuli sifatida shakllanib boradi. Ijtimoiy psixologik treninglar ikki xil vazifani:

1) muloqot va pedagog muomala qonuniyatlarini o‘rganish;

2) pedagogik kommunikatsiya texnologiyasini egallash, kasbiy pedagogik muomala ko‘nikma va malakalarini shakllantirishni tahminlaydi.

Ijtimoiy psixologik trening muammosining nazariy va amaliy tomonlari ajratib ko‘rsatiladi. Amaliy tomoni trening ishtirokchilar bilan bo‘ladigan muloqot ko‘nikmalari va malakalarini egallashga va ularni chiniqtirishga qaratilgan mashqlar:

darsning barcha bosqichlarida izchillik bilan harakat qilish malakalarini, pedagogik ish davomida mushaklarning zo‘riqishini so‘ndirish malakalarini, ixtiyoriy diqqatni taqsimlash malakasini shakllantirishga, kuzatuvchanlikni namoyon qilishga qaratilgan mashqlarni taqozo etadi.

Ijtimoiy aql-zakovatga ega bo‘lgan shaxs o‘zini ham, o‘zgalarni ham, ularning o‘zaro munosabatlarini ham to‘g‘ri anglaydi hamda turli muloqot shakllarini bashorat qila oladi. Ana shunday aqlning bo‘lishi uchun psixologlar maxsus tayyorgarlik guruhlari yoki trening guruhlari tashkil etishni taklif qilib chiqishgan. Shunday maqsadlarda G‘arbda mashhur bo‘lgan T-guruhlar tashkil etilib,unga ixtiyoriy muloqot jarayonida ma’lum qiyinchiliklarni his qilayotgan shaxslar taklif etiladi. Ijtimoiy psixologik treningning asosiy metodlariga guruhiy munozaralar, rolli o‘yinlar va psixologik sezgirlikni oshiruvchi treninglar kiradi. T-guruh a’zolari odatda 7 kishidan 15 kishigacha bo‘lib, mashg‘ulotlar bir necha kundan bir necha oylargacha davom etadi. T-guruhning ahamiyati shundan iboratki, u birinchidan, odamlar o‘rtasida iliq o‘zaro munosabatlarning shakllanishiga olib kelib, shaxsda birovni tushunishga intilish, uning manfaati yo‘lida o‘z qarashlarini ham qayta analiz qilish ehtiyojini paydo qiladi.

Ikkinchidan, T-guruh a’zolari o‘rtasida shunday umumiy “psixologik til” paydo bo‘ladiki, ular tez orada o‘zgalarni va o‘z his-kechinmalarini anglabgina qolmay, balki bir-birlariga ham ijobiy ta‟sir

ko‘rsatish qobiliyatiga ega bo‘ladilar. Ularda muloqot mobaynida o‘zini “o‘zgalar” o‘rniga qo‘yish, ularning ichki olamini to‘g‘ri tushunish qobiliyati va istagi tarbiyalanadi. Uchinchidan, T-guruhdagi mashg‘ulotlar muloqot jarayonining turli murakkab qirralaridan tashqari, uning mazmuniy tomonlari bo‘yicha ham ishtirokchilarni chiniqtiradiki, ular muomaladagi har bir ibora va imo-ishoraning tub ma‟nosini tushunishga erishadilar. Masalan, “xayr, yaxshi qoling” iborasini uning qanday ohangda, qay holatda aytilishiga qarab, suxbatdoshning “yashirin” niyatlarini o‘qib olish va shunga ko‘ra harakat qilishga o‘rgatadi.

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savollar hamda topshiriqlar:

1.Interaktiv medodlarda olib borilgan mashg‘ulotlar talabalarda qaysi sifatlarni shakllantiradi?
2. “Aqliy hujum” metodi haqida ma’luumot bering.
3. “Kitob bilan ishlash” metodi nima?
4. Psixologik fanlarni klaster metodi asosida yoritib bering.
5. “Insert” metodiga doir misollar keltiring.
6. Ijtimoiy psixologik trening nima?
7. Psixologik treninglarni tashkil etish qaysi bosqichlardan tashkil topdi?

18-MAVZU. PSIXOLOGIYA FANLARIDAN BILIMLARNI NAZORAT QILISH VA BAHOLASHNI TASHKIL QILISH

Tayanch so‘zlar: *nazorat turlari, ta’lim maqsadining masshtabi, ta’lim bosqichlari, nazorat, o‘zini o‘zi nazorat qilish, tekshirish, baholash, obyektivlik, validlik, ishonchlilik, differensiallashganlik, tizimlilik, muntazamlilik, maxfiylik.*

18.1. Psixologiya fanlaridan nazorat turlari

Bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirish va baholash joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar orqali amalga oshiriladi.

Joriy nazorat va baholash kurs uchun ajratilgan o'quv mashg'ulotlari doirasida amalga oshiriladi. Uning shaki va tipini o'qituvchi belgilanadi.

Oraliq nazoarat va baholash o'quv kursini birqismi yoki butun kursni o'rganish natijalari asosida amalga oshiriladi. Uning shakli va tipi ta'lim muassasasi tomonidan belgilanadi. Bu yozma ish, test, imtihon bo'lishi mumkin. Oraliq nazoarat ko'pincha o'quv kursini olib borgan o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Yakuniy nazoarat va baholash attestatsiya paytida, talaba butun o'quv dasturini o‘zlashtirilgandan so'ng amalga oshiriladi. Uning shakllari va tartibi ta'lim muassasasi tomonidan belgilanadi va komissiya asosida o‘tkaziladi.

Ta'lim jarayonida bilim, ko'nikma va malakalarni nazorat qilish va baholashning asosiy funksiyalari:

1. Yo‘naltiruvchi. Ushbu funksiya quyidagicha amalga oshiriladi: joriy baho talabaga ma'lum bilim, ko'nikma va malakalarni qanchalik muvaffaqiyatli egallaganligini aniqlaydi va shu bilan ularni tuzatish va takomillashtirishga hissa qo'shadi. Ushbu funksiya odatda joriy tekshirish va baholash orqali amalga oshiriladi.

2. Rag'batlantiruvchi (stimullashtiruvchi). Ma'lumki, tekshirish va baholash ko'p hollarda talaba tomonidan o'quv materialini o'rganish uchun zarur bo'lgan rag'batlantiruvchi omil hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, nazoratlarning tizimliligi va muntazamligi muhim ahamiyatga ega. Imtihon yoki yozma ishlarida foydalaniladigan

mezonlar o‘qituvchining talabalarga "nimani" va "qanday" o‘qitganini belgilaydi.

3. Attestatsiya (nazorat qilish). Ushbu funksiya talabalarni mashg'ulotning ma'lum bir bosqichida o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlashda namoyon bo'ladi. Bu ularning keyingi bosqichda o'qish yoki ishlashga tayyorligini aniqlash uchun zarur. Nazorat tegishli ta'lim dasturining maqsadlariga erishish va ta'lim sifatini ta'minlash uchun mo'ljallangan. Bu oraliq va yakuniy attestatsiya orqali amalga oshiriladi. O'qituvchi talabani oraliq baholash jarayonida unga ma'lum bir belgi qo'yish orqali talabaning tegishli kurs bo'yicha bilimlarni egallaganligiga kafolat beradi. Talaba tomonidan o'rganilgan mavzularning jami va olgan baholari uning ushbu ta'lim dasturiga tayyorlik darajasini tavsiflaydi. Davlat attestatsiya komissiyasi tomonidan o'tkaziladigan yakuniy attestatsiya paytida tekshirish va baholash mustaqil monitoringni o'tkazish va talabaning ta'lim dasturining maqsadlariga erishganligini ta'minlash uchun mo'ljallangan.

18.2. Psixologiya fanlaridan bilimlarni nazorat qilish va baholash tamoyillari

Ko'plab o'qituvchilar bilimlarni sinash va baholashni o'quv jarayonidagi eng qiyin pedagogik vazifalardan biri deb hisoblashadi. Keling, qaysi turdagi ta'lim muassasasi va qaysi ta'lim dasturi doirasida ishlashidan qat'iy nazar, psixologiya o'qituvchisi rahbarlik qilishi kerak bo'lgan nazorat va baholashning asosiy tamoyillarini ko'rib chiqamiz.

1. Obyektivlik. Bu baholovchining sub'ektiv fikridan qat'iy nazar talabalarning bilimlarini baholash zarurligidan iborat. Turli nazorat jarayonlari turli darajadagi obyektivlikni ta'minlaydi:

1) aniq belgilangan vazifalar umumiy va noaniq vazifalaridan yaxshiroqdir;

2) yozma og'zakidan yaxshiroqdir;

3) noaniq kriteriyalar orqali bayon qilgan javobdan ko‘ra aniq kriteriyalar orqali bayon qilgan javob yaxshiroq;

4) bitta imtihonchidan ko‘ra mustaqil ekspertlar yaxshiroq.

O'qituvchining talabaga nisbatan ilgari ma'lum omillar ta'sirida shakllangan pedagogik munosabatlari bilim va malakalarni baholashga

ta'sir qiladi. Shuning uchun o'qituvchining muhim vazifasi, buni anglab etish, ularning sub'ektiv munosabatlari ta'sirini minimallashtirishdir.

2. Validlik. Bu talabaning bilim, ko'nikma va malakalari to'g'risida ishonchli ma'lumot olishni ta'minlash zarurligidan iborat. Buning uchun o'qituvchi nazorat topshirig'ini talaba tomonidan mustaqil ravishda (tashqi yordamisiz) bajarganligiga, u aynan shu talabaning bilimini tavsiflashiga ishonch hosil qilishi muhimdir. Javobni oldindan berish, ko'rsatmalar va plagiatni oldini olish asosiy pedagogik muammo hisoblanadi.

3. Ishonchlilik. Baho olgan talabaning bilimlari uzoq vaqt davomida saqlanib qolishini ta'minlash zaruriyati mavjud. Ushbu tamoyilni amalga oshirish qiyin, chunki bilimlarni baholash jarayoni odatda bir marta amalga oshiriladi.

4. Differensiallashganlik. Talabalarning olgan baholari ularning darajasi va sifatini farq qiladigan tarzda bilimlarni baholash zarurligidan iborat. Differentsiya darajasi, albatta, uning zaruriyati va maqsadga muvofiqligiga bog'liq. Ba'zi hollarda, ayrim topshiriqlarning bajarilishini yoki bajarilmasligini baholashda “o‘tdi-o‘tmadi” belgilari etarli. Boshqa holatlarda "a'lo", "yaxshi", "qoniqarli", "qoniqarsiz" belgilarini o'z ichiga olgan yanada differentsiyalangan tizim zarur. Ba'zan belgilangan belgilarni katta farqlash zarurati tug'iladi. Buning uchun boshqa mezonlar ishlatiladi. Haqiqiy amaliyotda (norasmiy ravishda) 5- (5 minus bilan), 4+ (4 plyus bilan) va boshqalar tez-tez ishlatiladi, ehtimol ularga rasmiy maqom berish mantiqan to'g'ri keladi.

5. Tizimlilik. Bu talabalarning darsning barcha bo'limlari va mavzulari mazmuni, shuningdek, o'quv materialining barcha tarkibiy qismlari (empirik material, psixologik nazariyalar, tushunchalar, misollar, tasniflar, qonuniyatlardan foydalanish, ushbu qonuniyatlarni amalda qo'llash, bilimlarni yangi ob'ektlar va tushunchalarga o'tkazish) bo'yicha bilimlarini baholashdan iborat. Ushbu prinsipga rioya qilmaslik imtihonning "lotereya" ga aylanishiga olib keladi. Muvaffaqiyatli etkazib berish ehtimolga aylanadi; shunday qilib baho ob'ektivligini yo'qotadi. Izchillikka erishish uchun protseduralarni baholash, savollarni shakllantirish va topshiriqlarini belgilashning har xil turlaridan foydalanish kerak. Natijada, ular yuqorida sanab o'tilgan bilimlarning barcha asosiy tarkibiy qismlarini aniqlay olishlari, ham alohida mavzular, ham tushunchalar haqidagi bilimlarini tavsiflashlari

va ayrim mavzular mazmuni bir-biri bilan bog'liqligini tushunishlari mumkin.

6. Doimiylik (yoki muntazamlik). Bu kurs davomida muntazam va vaqti-vaqti bilan baholashni amalga oshirish zarurligidan iborat. Bu talabalarning muntazam ravishda mustaqil ta'lim faoliyatini rag'batlantirishni va mavzu bo'yicha bilimlarni muntazam ravishda to'plashni ta'minlaydi. Har bir keyingi mavzuni o'rganib chiqib, dasturning bir qismini to'ldirgandan so'ng, shuningdek, butun kurs oxirida tekshirish ishlarini olib borish maqsadga muvofiqdir. Shu yo'l bilan universitetlar ta'lim tizimining eski kamchiliklari - "sessiyadan sessiyaga ..." bartaraf etish mumkin.

7. Maxfiylik. O'qituvchi baholash natijalari faqat o'zi, talaba va ta'lim dasturining rahbari uchun ma'lum bo'lishi uchun zarur choralarni ko'rishi kerak.

Boshqa fanlar kabi psixologiyada ham bilimlarni baholashda baholashning ikki turidan foydalanish mumkin:

1) normativ baholash;

2) natijalarni taqsimlash asosida baholash.

Normativ baholash imtihon oluvchilar tomonidan oldindan belgilab qo'yilgan ma'lum normalarga asosan o'quvchilar (talabalar) bilimlaring darajasini baholashni nazarda tutadi. Shu bilan birga, talaba qanchalik to'liq, aniq, chuqur bilimga ega ekanligi baholanadi.

Natijalarni taqsimlash asosida baholash. Amerika ta'limidagi ushbu baholash strategiyasi "egri chiziq bo'yicha baholash" deb nomlanadi. "Egri chiziq" deganda biz ushbu kursning barcha talabalari olgan ballar taqsimotining egri chizig'ini tushunamiz. Ushbu egri chiziqqa muvofiq, talabalarning ozgina qismi o'rtacha darajadan past (masalan, "qoniqarli") baholarni oladilar, yana bir kichik ulush - o'rtacha qiymatdan yuqori (masalan, "a'lo"), aksariyat o'quvchilar egri chiziqning markaziy qismiga tushib, o'rtacha baholarni oladilar (masalan, "yaxshi"). Shunday qilib, bitta talabaning bahosi va darajasi boshqalarning darajasiga bog'liq. Bunday baholash strategiyasi bilan qat'iy belgilangan bilim standartlari mavjud emas, ular haqiqiy baholash jarayonida o'zgaradi.

Psixologiya fanlarini o‘qitishni rejalashtirish talabalar bilimlarini nazorat qilish va baholash bo'yicha tadbirlarni rejalashtirishni ham o'z

ichiga oladi. Bu uchun o‘qituvchi qo‘yidagilarni oldindan ta'minlashi kerak:

1) talabalarning darsdagi yutuqlarini baholashda qanday mezon va ko'rsatkichlardan foydalanishi;

2) darslarga qatnashish va talabalar faolligi hisobga olinishi;

3) bilimlar tekshirish qanchalik tez-tez o'tkazilishi;

4) baholashning qaysi turlari va shakllaridan foydalanishi;

5) nazorat jarayonlarini qachon amalga oshirilishi: sanalar va vaqtlar;

6) har bir nazorat jarayonining davomiyligi qanday bo'lishi va buning uchun qanday o'quv soatlaridan foydalanishi;

7) kurs davomida har bir joriy bahoning yakuniy bahoga qo'shgan hissasi qanday bo'lishi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar talabalarni birinchi darsda xabardor qilish maqsadga muvofiqdir. Bu ularga o'zlarining ta'lim faoliyatining asosiy turlarini oldindan rejalashtirish, o'qituvchining kurs bo'yicha bilimlarni baholash talablariga o'z vaqtida moslashishga imkon beradi.

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savollar hamda topshiriqlar:

1. *Psixologiya fanlaridan nazorat qaysi turlarga bo‘linadi?*
2. *Joriy nazorat va baholash haqida ma’lumot bering.*
3. *Oraliq nazoarat va baholash nima?*
4. *Yakuniy nazoarat va baholash qachon o‘tkaziladi?*
5. *Ta'lim jarayonida bilim, ko'nikma va malakalarni nazorat qilish va baholashning asosiy funksiyalarini tushuntiring.*
6. *Psixologiya fanlaridan bilimlarni nazorat qilish va baholash tamoyillarini tasniflang.*
7. *Nazorat qilish va baholashda obyektivlik tamoyili nima?*
8. *Nazorat qilish va baholashda tizimlilik tamoyili nima?*

19-MAVZU. PSIXOLOGIYA FANIDAN BILIMLARNI BAHOLASH TIPLARI

Tayanch so‘zlar: *baholash tiplari, normativ baholash, so‘rov usuli, og‘zaki, yozma, erkin, dasturlashgan, individual, frontal, personal, ekspert, bir martalik, taqsimlangan, kollokvium, imtihon, nazorat ishi, joriy baholash, test, reyting baholash.*

19.1. Psixologiya fanidan bilimlarni baholash tiplari.

Talabalarning bilimi va ularni qo'llash qobiliyatini tekshirilishiga qarab, savollar berish va amaliy topshiriqlarni bajarish kabi turli xil nazorat turlari mavjud. Suhbatlashayotganda talabalardan empirik faktlar, nazariy pozitsiyalar, tushunchalar, misollar, tasniflar, ilmiy qonunlarni takrorlash talab qilinadi. Amaliy vazifalarni amalga oshirish ushbu bilimlarni o'quv va amaliy muammolarni hal qilishda qo'llashni nazarda tutadi.

Nazorat **og'zaki** yoki **yozma** bo'lishi mumkin. Og'zaki so'rov quyidagi afzalliklarga ega: 1) imtihonga talaba bilimiining darajasini aniqlaydigan materiallar mazmuni haqida aniq savollar berishga imkon beradi; 2) materialni takrorlashda tasodifiy kamchiliklarni bartaraf etishga sharoit yaratadi; 3) talabaning izchil monolog yaratish qobiliyatini tekshiradi. Albatta, bu imtiyozlar faqat talaba oldindan yozilgan matnni o'qimasdan, ma'lum bir masala bo'yicha hikoya qilsagina natija beradi.

Agar talabalarning fikrlari bir-biriga to'g'ri kelmasa, unda bu qarama-qarshilikning ob'ektiv echimiga erishish juda qiyin. Yozma so'rovnoma vaqt jihatidan ancha tejamli bo'lib, bir vaqtning o'zida katta o'quvchilar guruhining bilimlarini aniqlashga imkon beradi, ammo bajarilgan ishni tekshirish uchun ko'p vaqt talab etiladi. Uning asosiy shakllari: 1) auditoriyada olib boriladigan yozma nazorat ishlari; 2) uyda yozma ish (referat, konspekt). Yozma so'rovnoma bilimlarni xolisona baholashga imkon beradi, chunki talaba imtihon oluvchining bahosiga rozi bo'lmasa, u apellyatsiya berishi mumkin. Talaba tomonidan yozma matnining mazmuni bu uchun ob'ektiv asos bo'lib xizmat qiladi.

Amaliy topshiriqlar og'zaki yoki yozma ham bo'lishi mumkin.

Nazorat **erkin** va **dasturlashtirilgan** bo'lishi mumkin. Erkin nazorat keng tarqalgan savolga javob berishni o'z ichiga oladi. Bu talabaning mantiqiy izchil hikoyani og'zaki yoki yozma shaklda, ilmiy mulohazalardan foydalangan holda qurish qobiliyatini nazarda tutadi. Ushbu turdagi savollarga qo‘yidagilar misol bo'lishi mumkin: "Idrok va uning xususiyatlari", "Xotira va uning turlari", "Psixologiyada shaxs tushunchasi". Bunday so'rov natijalarini birma-bir baholash qiyin. Dasturlashtirilgan so'rov o'ziga xos savollarni berishni o'z ichiga oladi, masalan: "Tarixda birinchi psixologik laboratoriya qaysi yilda ochilgan?", "Psixoanaliz nazariyasi va amaliyotini kim birinchi marta ishlab chiqqan?", "XX asrning asosiy psixologik maktablarini nomlang". Bunday savollarga javoblar shubhasiz to'g'ri yoki noto'g'ri deb baholanishi mumkin.

Amaliy mashqlar ham erkin yoki dasturlashtirilgan bo'lishi mumkin. Birinchi holda, talabalar ularni amalga oshirishda ijodiy yondashishni o'z ichiga oladi, masalan, insho yozish, konspekt, taqriz. Ikkinchi holda, ma'lum bir algoritmni amalga oshirish kerak, masalan, tavsiflangan ruhiy hodisa qaysi psixologik tushunchaga tegishli ekanligini aniqlash.

Bilim va ko'nikmalarni tekshirish talabalar miqdoriga ko‘ra **individual** va **frontal** bo'lishi mumkin. Ikkala holatda ham tekshiruvning yuqoridagi barcha turlaridan foydalanish mumkin (so'rovnoma va amaliy topshiriq, og'zaki va yozma, ozod va dasturlashtirilgan). Sinovning frontal turi o'qituvchining vaqtini tejash nuqtai nazaridan bevosita ustunlikka ega, ammo bu talabaga individual yondashuvni etarli darajada amalga oshirishga imkon bermaydi. Ma'ruza, seminar yoki amaliy mashg'ulotlar boshida yozma frontal ekspress-so'rovdan foydalanish foydalidir. Bunday so'rovnoma o'quvchilarning (talabalarning) 5-10 daqiqada bir nechta savollarga qisqa javoblarini o'z ichiga oladi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, bunday so‘rov mashg'ulotlarga tayyorgarlik jarayonida ularning motivatsiyasini sezilarli darajada oshiradi.

Nazoratni bitta yoki bir nechta imtihonchi ishtirokida o'tkazganligiga qarab, **personal** va **ekspertli tekshirish** turlariga ajratish mumkin. Personal tekshirishni bitta imtihonchi, ekspert tekshirishni - bir guruh imtihonchilar amalga oshiradilar. Ko'rinib turibdiki, ekspert tekshiruvi bahoga ko'proq xolislik beradi. Shuning

uchun undan davlat imtihonlari va bitiruv malakaviy ishni himoya qilishda qo'llaniladi. Uni tez-tez o'tkazib turish maqsadga muvofiq bo'lar edi, ammo o'qituvchilarning ish hajmi bo'yicha bunday tekshirish juda ko'p mehnat talab qiladi.

Shuningdek, bilimlarni tekshirishni **bir martalik va taqsimlangan** turlari mavjud. Sessiya davomida mavzu bo'yicha imtihon bir martalik tekshiruvning odatiy namunasidir. Cheklangan vaqt ichida ko'p miqdordagi o'quv materiallari bo'yicha bilimlarni sinab ko'rish juda qiyin. Shuning uchun tekshirish tanlov asosida olib boriladi (masalan, imtihon biletlari asosida), shuning uchun ko'pincha imtihon "lotereya" ga aylanadi.

Taqsimlangan sinov shuni anglatadiki, tekshiriladigan barcha bilimlar to'plami ma'lum qismlarga bo'linadi. Shunday qilib, bilimlar semestr davomida turli xil savollar va topshiriqlarni o'z ichiga olishi mumkin bo'lgan bir qator test protseduralari yordamida "tarqatiladi". Ushbu baholash shakli yaqinda reyting deb nomlandi.

Reyting nazorati. “Reyting” inglizcha so‘z bo‘lib, u baholash, tartib, tasnif so‘zlari ma`nosiga to‘g‘ri keladi. Bu so‘zning dastlabki ma`nosi – “baholashni” nazarda tutib, unga quyidagicha ishchi ta`rif beramiz: reyting nazorati – bu berilgan o‘lchovlar (shkalalar) asosida o‘quvchilar bilimi, malakasi, ijodiy faoliyat tajribasi va o‘quv predmetlariga munosabatini baholash demak. Reyting nazorati o‘quvchilar o‘zlashtirishini baholash shkalalarini aniqlashdan boshlanadi. “SHkala” inglizcha “shkaling” so‘zidan olingan bo‘lib, “o‘lchash birligini aniqlash” iborasi mazmuniga tugri keladi.Baxolash shkalalari o‘rganilayotgan ob`yekt (lar) majmuini ularning barchasi uchun umumiy sanalgan mohiyat (maqsad)ga taqsimlash usulidir.

“Ta`lim etaloni” ruknida berilgan matnni yana bir bor diqqat bilan o‘qib chiqing. Shuni hech unutmangki, Etalon o‘zlashtirishning barcha pillapoyalarida erishilgan natijalarni anglash, o‘lchash, taqqoslash ta`limning borishiga o‘zgartirish, tuzatishlar kiritish, o‘quvchilar faoliyatini optimal takrorlashning o‘lchov toshidir. Ilmiy-pedagogik asoslangan etalon bo‘lmagan joyda ta`lim texnologiyasi to‘g‘risida ham, reyting haqida ham gapirish “aravani quruq olib yurishga” o‘xshaydi. etalon ta`lim texnologiyasini qo‘llab erishilgan natijalarni qo‘yilgan maqsadlarga taqqoslashning O‘lchov toshi bo‘lsa, reyting ta`limning har bir bosqichida erishilgan natijalarni sinashga oid

vosatalar usullar majmuidir, Binobarin, etalon o‘zlashtirishning hamma bosqichlarida: o‘zgarmasdan qoladigan sobit o‘lchov vositasi reyting esa o‘zlashtirishning har bir bosqichiga ko‘ra o‘zgarib turadigan usullar vositalardir. Shundan ko‘rinadiki reyting oldindan puxta o‘ylab tuzilgan etalon asosida o‘tkaziladi. Reyting davomida to‘plangan ballar etalonga chogishtirilib. umumiy baho chiqariladi. Chiqarilgan umumiy bahoda mavzu yoki bo‘lim bo‘yicha o‘zlashtirilgan bilim, malaka. ijodiy faoliyat tajribasi, o‘rganilgan bilimlarga munosabatlar aks etadi. Umumiy o‘quv maqsadini amalga oshirish yo‘li bilan erishilgan natija — undalmalarni og‘zaki va yozma nutqda tug‘ri qo‘llay olish o‘quvchining faoliyatiga o‘tib, shaxsiy sifatlar ansambilidan o‘rin oladi.

Reyting nazorat turlari

O‘tkazilish davri (payti)ga qarab, reyting nazoratining uch ko‘rinishi farqlanadi: joriy nazorat (JN), oraliq nazorat (ON), yakuniy nazorat (YAN). Nazorat turlari o‘zaro uzviy 6og‘liq, ular bir-birini to‘ldiradi. Ularning barchasini birlashtiruvchi narsa — ta`lim etalonidir. Binobarin, nazorat turlarinnig barchasida erishilgan natijalar o‘zlashtirish darajalarini hisobga olgan holda etalonga taqqoslanadi. Bolalar taqqoslash yo‘li bilan o‘zlarining nimalarni talab darajasida, nimalarni talab darajasidan past o‘zlashtirganliklarini ongli his qilishadi, mavzu, bo‘lim yuzasidan o‘qishni davom ettirish zarurligini payqaydilar. Binobarin, ta`lim texnologiyasida joriy nazorat o‘quvchini oraliq nazoratga; oraliq nazorat o‘z navbatida yakuniy nazoratga etaklaydi. Amaldagi pedagogik tajribada o‘zlashtirish va uning natijasini tekshirish alohida jarayonlar sifatida amal qilsa, ta`lim texnologiyasida reyting nazorati ta`limning o‘ziga singib ketadi. Natijada reyting nazoratini tashkil qilmasdan, ta`limni amalga oshirish, o‘zlashtirishda olg‘a siljish, ta`limni boshqarish mumkin bo‘lmay qoladi. O‘z-o‘zidan reyting ta`lim texnologiyasining tarkibiy qismiga aylanadi.

Joriy nazorat ta`limning ob`yektiv borishi bilan bog‘liq bo‘lib, yangi o‘quv materiallarini o‘rganish va mustahkamlash, takrorlash va malaka hosil qilish, bilim va malakalarni umumlashtirish jarayonlarida o‘tkaziladi. Shuningdek, uy vazifalari, qo‘shimcha topshiriqlar, mustaqil ishlar hamda bolalarning o‘z xoxish-istaklari bo‘yicha qilingan ijodiy ishlar (mas. undalmalarni ishtirok ettirib she`r yozish),

darslikdagi masala-misollarni echish, modellar yasash (mas. uy konstruktsiyasini loy, plastilindan yasash), turli chizma, jadval, diagrammalar tuzish, laboratoriya mashg‘ulotlari va didaktik o‘yinlarda ishtirok etish, buklash, qirqish, qurish kabi faoliyat usullarini hisobga olib, joriy nazorat uchun ballar to‘planadi. Qanaqa usul hamda vosita bilan ball to‘planmasin, u qabul qilingan etalonga zid bo‘lmasligi lozim.

Joriy nazorat uchun to‘planadigan ballar teskari aloqaga asoslangan bo‘lib, u bolalarni o‘rganishga rag‘batlantirish, u yoki bu o‘quv materialini, bo‘limni o‘zlashtirishda o‘zlarining qaerga kelib qolganliklarini anglash, mavzu yoki bo‘lim bo‘yicha o‘rganishni davom ettirish zarurligini sezish, o‘z kuchiga ishonch, mavzu yuzasidan biror ta`rif, aniqlik va qoidani e`tiborsiz qoldirmaslik kabi his-tuyg‘ularga mo‘ljallab olib boriladi. Shu tufayli joriy nazoratda ta`limiylik, shakllantiruvchanlik xususiyatlari ustun bo‘ladi. Binobarin, joriy nazorat natijalari “4” yoki “5” raqamlari bilan emas, aksincha, mavzu va uning bandlari bo‘yicha to‘plangan ballar asosida hisobga olinadi. Joriy nazorat uchun ballar ham etalon asosida to‘plangani tufayli mezoniy xarakterda bo‘ladi.

Joriy nazorat ballarini ikki yo‘l bilan to‘plash mumkin: ballarni o‘qituvchining o‘zi to‘plashi; ballarni o‘quvchilarning o‘zlariga to‘platish. Ikkinchi yo‘l biroz munozarali bo‘lsa-da, eng samarali sanaladi. Joriy nazorat uchun ball to‘plashni o‘quvchilarning o‘ziga yuklash ularda o‘ziga ishonchni, har bir ishni vijdonan bajarish, burchni anglash kabi shaxsiy sifatlarni tarbiyalaydi. Joriy nazorat uchun ball to‘plashni o‘quvchilarning o‘ziga yuklash o‘qituvchining pedagogik mahoratiga bog‘liq. O‘qituvchi o‘quv predmeti, uning bo‘limi yoki mavzularga pedagogik ishlov bera olsa, har bir mashg‘ulot va o‘quv topshiriqlari maqsadini o‘quvchilarga aniq etkazsa, ta`limni eng yuqori o‘zlashtirishga yo‘naltira bilsa, ta`limni motivlar, tafakkur va xotira-hodisalari ansambliga mo‘ljallab tashkil etsa, har bir o‘quvchining o‘z-o‘zini nazorat qilishi uchun vositalar tayyorlasa, ana o‘shandagina joriy nazoratning samaradorligi oshadi.

O‘quvchilarning o‘z-o‘zini nazorat qilishga oid vositalardan biri nazorat xaritasi. Nazorat xaritalari o‘zlashtirilayotgan o‘quv materiallari, uning birliklari — o‘quv elementlari asosida tuziladi. Unda o‘zlashtirilayotgan o‘quv elementlari, ularni o‘rganishga oid o‘quv

maqsadlari testga aylantirilgan maqsad, testning javobi, to‘plangan ballarga mo‘ljallangan grafalar bo‘ladi. Testga aylantirilgan maqsadlarga quyiladigan ball miqdori o‘quvchilarga oldindan aytiladi, testning yechim i (kaliti) o‘qituvchida saqlanadi.

Joriy nazorat uchun tuzilgan o‘z-o‘zini nazorat qilish xaritasida o‘zlashtirilayotgan mavzu bo‘yicha nechta o‘quv elementi ajratilgan bo‘lsa, shuncha miqdorda bolalarning o‘quv maqsadlari, shuncha miqordagi testga aylantirilgan maqsadlar bo‘lishi shart. Zero, testga aylantirilgan maqsadlarning javobini tahlil qilish yo‘li bilan har bir o‘quvchining qanday natijaga erishganini aniqlash mumkin. O‘qituvchi shuni unutmasligi kerakki, o‘z-o‘zini nazorat xaritasida keltiriladigan testga aylantirilgan maqsad o‘rganilgan hodisani tanish (mas. undalmalarni matn tarkibida tanish) darajasida bulishi lozim.

Shunday qilib, joriy nazorat ta`limning borishi bilan daxldor bo‘lib, mavzu bo‘yicha axborotlar to‘plash, to‘planganaxborotlarga dastlabki ishlov berish, o‘rganilgan hodisalarni boshqa hodisalardan farqlash, ularni taniy olish darajasida o‘tkaziladi, testga aylantirilgan maqsadlarning murakkabligi, qiyinligi o‘rganilgan bilimlarga oid hodisalarni tanish darajasida bo‘ladi.

Joriy nazorat jarayonida testga aylantirilgan maqsadlar bo‘yicha to‘plangan ballar asosida sinf jamoasi gomogen guruhlarga ajratiladi, guruhlar uchun qiyinchiligi, murakkabligi hisobga olingan topshiriqlar belgilanadi, ta`limni borishiga qo‘shimcha, tuzatishlar kiritiladi. Bular ta`limni yana bir bor takrorlashni osonlashtiradi, o‘zlashtirishning navbatdagi darajasi — malaka darajasida o‘zlashtirishga o‘tishga imkoniyatlar yaratadi.

Joriy nazorat o‘zlashtirishning birinchi darajasi (ko‘nikma darajasi)da, oraliq nazorat esa malaka darajasida o‘zlashtirilgan bilimlar asosida o‘tkaziladi. Oraliq nazorat mohiyati jihatdan o‘rganilgan axborotlarga ishlov berish jarayoniga to‘g‘ri keladi. O‘quvchilar o‘rganilgan bilimlarga rioya qilib faoliyat ko‘rsatishadi, ularni turli o‘quv va hayotiy holatlarga tatbiq qilishadi, o‘rganilayotgan ob`yekt(lar)ning yangi-yangi xususiyatlarini kashf etishadi, bilimlarni yangi sharoitlarda sinab ko‘rishadi.

Oraliq nazorat o‘rganilayotgan mavzu yoki bo‘lim bo‘yicha umumiy xulosalar chiqarish, voqea-hodisalarni tushuncha darajasida o‘zlashtirish jarayonlarida ham o‘tkaziladi, shularga ko‘ra oraliq

nazoratda testga aylantirilgan maqsadning murakkablik, qiyinlik darajasi oshiriladi. Testga aylantirilgan maqsadlarni o‘zaro taqqoslab ko‘rish uchun oldingi sahifada keltirilgan jadvalni yana bir bor takrorlaymiz.

Joriy nazoratga o‘xshab oraliq nazorat ham ta`limning borishi bilan daxldor, shu sababli ular mashg‘ulotlarning tarkibida o‘tkaziladi, ularga alohida o‘quv soatlari ajratilmasligi kerak. Bu ularning o‘xshash tomonlaridir. Ammo oraliq nazoratning o‘zigagina xos xususiyati mavjud. Taqqoslang; joriy_nazorat to‘liq o‘zlashtirishning dastlabki bosqichida (mavzu bo‘yicha axborot to‘plash jarayonida) o‘tkazilsa, oraliq nazorat axborotlarga ishlov berish — masala darajasida o‘zlashtirish, shuningdek, mavzu yoki bulim yuzasidan umumiy xulosalar chiqarish — tushuncha darajasida o‘zlashtirish bosqichlarida o‘tkaziladi. “Oraliq nazorat” iborasi uning joriy va yakuniy nazorat o‘rtasida o‘tkazilishiga ishora emas, aksincha, bilimlarni yuqori daraja (etalon darajasi)da o‘zlashtirishga yaqinlashganlikka diqqatini qaratishdir.

Hozirgi, endigina shakllanib kelayotgan ta`lim texnologiyasi pedagogik amaliyotida joriy va oraliq nazoratda uy vazifalari, qo‘shimcha topshiriqlar, ijodiy ishlarni tekshirish orqali o‘zlashtirish ballarini to‘llash moyilligi paydo bo‘lyapti. Bu ma`qul tendentsiya emas. Bizningcha, uy vazifasi, qo‘shimcha topshiriqlar, ijodiy ishlar, konstruktiv yumushlarnn ta`limning tashkiliy shakllari sifatida ajratish, maktabda o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarga ilova ishlar deb qarash ma`qulqga o‘xshaydi. Bunday ishlarning natijasi hisobga olinishi zarur. Ammo ularni bolaning ta`limni yangi sharoitlarda takrorlayotgani sifatida qarash lozim. Haqiqiy reyting testga aylantirilgan maqsadlar asosida o‘tkazilsa, nazoratning samaradorligi yanada oshadi.

Shu yerda bir hodisaga tanqidiy munosabat bildirishni joiz deb topdik. Ta`lim texnologiyasi amaliyotida mavzu yoki bo‘lim bo‘yicha to‘planishi lozim bo‘lgan ballarning ko‘p miqdori joriy va oraliq nazoratga, juda oz miqdordagi ballar yakuniy nazoratga to‘g‘ri kelyapti. Bu unchalik to‘g‘ri emas. Ish shu yo‘sinda ketaversa, eskicha protsentomaniya — foizbozlik o‘rniga, yangi “ballomaniya” — ballbozlik paydo bo‘lmaydimi? Bu birinchi. Ikknnchidan, joriy va yakuniy nazorat faqat ball to‘plash uchun emas, aksincha, bolalarni ogohlantirish o‘zlashtirishda qaerga kelib qolganlarini ularga

tushuntirish, ta`limga tuzatishlar kiritish, uni yana bir bor takrorlash. kabi tabaqalashgan-differensial ta`limning ehtiyojga aylanganini o‘quvchilarga anglatish maqsadlarida o‘tkaziladi. Binobarin, joriy va oraliq nazoratlarda ta`limiylik ustun bo‘ladi.

Yakuniy nazorat joriy va oraliq nazoratdan butunlay farq qiladi: unga alohida o‘quv soati ajratiladi: u o‘quvchilar bilim darajasi etalon darajasiga ko‘tarilgach o‘tkaziladi; unga ta`lim natijasi ta`lim jarayonidan ajratiladi. Ko‘rinadiki, yakuniy nazorat ta`limning borishi bilan emas. nuqul ta`lim natijasi bilan daxldor hodisadir. YAkuniy nazoratda bulim yoki mavzu bo‘yicha ajratilgan o‘quv elementlarining barchasini o‘zlashtirish etalonga taqqoslab tahlil etiladi, umumlashgan test yoki testlar tizimi vositasida natija tekshirilib, baholanadi. Shu tufayli uni “nazorat ustiga qurilgan nazorat” deb qaraymiz. Reyting nazorati tizimini quyidagi chizma asosida tasavvur etish mumkin.

Reyting nazorati tizimi



19.2. Psixologiyani o‘qitishda bilimlarni nazorat qilish shakllari

O'quvchilar va talabalar bilimlarini tekshirishning asosiy shakllariga quyidagilar kiradi: kollokvium, imtihon, nazorat ishlari, darsda baholash, testlar, reyting baholash, malaka ishlarini bajarish.

Kollokvium (lot. colloqium — suhbat) — ta’lim tizimida talabalarning bilim darajasini aniqlash va oshirish maqsadida o‘tkaziladigan o‘quv mashg‘uloti shakllaridan biri, talabaning o‘qituvchi bilan suhbati. Kollokviumda o‘rganilayotgan kursning, odatda, seminar va b. amaliy o‘quv mashg‘ulotlari tematikasiga kirmagan ayrim qism, bo‘lim, mavzu, masalalari hamda ta’lim oluvchilarning referat, loyiha va b. ishlari muhokama qilinadi;

Imtihon — o‘quvchi va talabalar bilimini tekshirish usullaridan biri. Imtihonlar davlat imtihoni, kirish, sinfdan sinfga (kursdan kursga) ko‘chirish, tanlov imtihon va b. turlarga bo‘linadi. Dastlab Xitoyda Xan sulolasi hukmronligi davri (mil. av. 206 — mil. 220 y.) da paydo bo‘lgan. Imtihon o‘qimishli kishilar orasidan amaldor buladiganlarni ajratib olish zaruriyatidan kelib chiqqan. Amal talabgorlari Konfutsiy kitoblari buyicha bilimdonliklarini ko‘rsatuvchi davlat imtihonni topshirish va ilmiy daraja olishlari zarur bo‘lgan. O‘rta asrdan Yevropa untlarida bakalavr yoki magistrlik darajasini olish da’vogarlarining bilimini sinash uchun kiritilgan. 19-a. boshlariga kelib, Yevropaning barcha mamlakatlariga yoyildi.

O‘zbekistondagi umumiy ta’lim maktablarida sinfdan sinfga ko‘chirish va bitirish imtihonlari topshiriladi. Ko‘chirish imtihonlari ta’lim muassasalari tomonidan ishlab chiqilgan va tegishli tashkilotlar tasdiqlagan Nizomga muvofiq o‘qishning muayyan bosqichida olinadi. Bitirish imtihonlari esa, ta’lim tizimining biror bo‘g‘inida o‘qiyotgan o‘quvchi tomonidan o‘quv yurtini tugatish paytida topshiriladi. Bitirish imtihonlarini imtihon komissiyalari qabul qiladilar. Imtihonlarning qaysi fanlardan topshirilishi, qachon, qay tarzda o‘tkazilishi muayyan huquqiy hujjatlar orqali belgilanadi. Imtihonda yozma ish mavzulari va og‘zaki imtihon savollari ta’lim tizimi faoliyatini tashkil etuvchi va yo‘naltiruvchi tashkilotlar tomonidan ishlab chiqiladi. Maktablarda imtihonga qo‘yilgan yillik va imtihon baholaridan pedagogik jamoa yakuniy baho chiqaradi. Bu baho o‘rta maktabni tugatganlik to‘g‘risidagi guvohnomaga qo‘yiladi.

Oliy ta’lim talabalari har bir semestr yoki kurs oxirida imtihon topshiradilar. Ularni bitiruvchilar esa davlat imtihoni topshiradilar. Oliy o‘quv yurtlarining bakalavriat bosqichida davlat imtihonlari bilan birga bitiruv ishi ham himoya qilinadi. Ijodiy yondashuv va alohida tayyorgarlik talab etiladigan oliy ta’limda qo‘shimcha imtihon joriy etiladi. Milliy ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida reyting joriy etilishi munosabati bilan oliy o‘quv yurtlaridagi kursdan kursga ko‘chirish imtihonlarida jiddiy o‘zgarish sodir buldi.

Talabalarning imtihonda baholashda imtihonchi odatda quyidagi mezonlarga amal qiladi:

1) savollarga javoblarning to'liqligi va mazmunliligi;

2) qo'yilgan savollarni ochib berish uchun muhim materiallarni tanlash qobiliyati;

3) savollarni ochishda izchillik va uzluksizlik;

4) faktlarni tavsiflash, nazariyalarni taqdim etish va tushunchalarni shakllantirishda aniqlik;

5) taqdim etilgan materialni aks ettiruvchi misollar keltirish qobiliyati (o'zidan tanlangan misollar ayniqsa qadrlanadi);

6) xulosa chiqarish qobiliyati;

7) javobni stilistik va grammatik jihatdan to'g'irlash qobiliyati;

8) belgilangan vaqt ichida saqlash qobiliyati;

9) tekshiruvchi tomonidan berilgan savollarga javob berish qobiliyati.

Nazorat ishlari bu talabalar tomonidan bajariladigan va ular egallagan bilim va ko'nikmalarni tekshirishga qaratilgan yozma ish. Bu berilgan savollarga javob berishni yoki ba'zi amaliy vazifalarni bajarishni o'z ichiga oladi. Nazorat ishlarida turli xil xarakterdagi savollar va topshiriqlardan foydalanish mumkin, ammo ular har doim baholash mezonlari mavjudligini (to'g'ri yoki noto'g'ri) taxmin qilishadi.

Bunday ish uchun ajratilgan vaqt o'quvchilar va talabalarning alohida e'tiborini hisobga olishi kerak. Talabalar qanchalik yosh bo'lsa, ularda ortiqcha charchoqni keltirib chiqarmaslik uchun ish shuncha kam vaqt talab qilishi kerak.

Nazorat ishlari o'quvchilarning (talabalarning) kurs yoki mavzuning ma'lum bir qismi bo'yicha bilim va ko'nikmalarini sinab ko'rishga qaratilgan bo'lishi mumkin.

Dars asosida baholash maktablarda ham, universitetlarda ham qo'llaniladi. Bu o'quvchilarning (talabalarning) sinfdagi bilim faoliyatining har xil turlarini har tomonlama baholashni ta'minlaydi. Bunday baholash tarkibiy qismlari o'qituvchining savollariga javoblar, boshqa talabalarning javoblariga qo'shimchalar, yozma va amaliy topshiriqlarni bajarish bo'lishi mumkin. Kerakli tirishqoqlik natijasida dars punkti berilishi mumkin. Shunday qilib, darssiz baholash o'quvchilar va talabalarning bilimlari va faolligini joriy baholash turidir. To'g'ri tashkil etilgan va baholash uchun aniq belgilangan mezon bo'lsa, bu muhim rag'batlantiruvchi rolga ega. O'qituvchilar darslarga asoslangan baholashdan seminarlarda, mashg'ulotlarda va darslarda foydalanishga moyildirlar, chunki ular buni o'quvchilar uchun doimiy o'quv faoliyatini rag'batlantirishning yagona usuli deb bilishadi.

Adolatli baholash shundan iboratki, har xil talabalar taqqoslanadigan javoblar va topshiriqlar uchun taqqoslanadigan baholarni olishadi. Bunga darssiz baho berish orqali erishish juda qiyin. Shuning uchun dars nuqtalari rag'batlantiruvchi funksiyani bajaradi, ammo attestatsiya funksiyasida etarlicha ob'ektiv emas.

Test. “Test” inglizcha so‘z bo‘lib, sinab ko‘rish, tekshirish ma`nolarini anglatadi. Testning eng asosiy, bosh xususiyati uning o‘quv materiallarini o‘zlashtirish darajasiga validligidir. Validlik ham inglizcha “valid” so‘zidan olingan bo‘lib, “haqiqiy”, “yaroqlik degan ma`nolarni anglatadi. Ma`nosidan ko‘rinib turganidek, o‘quv materiallarini o‘zlashtirish 1-darajasiga — dastlabki natijaga (ko‘nikma darajasida o‘zlashtirishga) o‘zlashtirishning shu xususiyatini hisobga olib tuzilgan testlargina to‘g‘ri keladi. Malaka yoki tushuncha darajasida o‘zlashtirishga yaroqli testlar o‘zlashtirishning aynan shu darajalarini hisobga olib tuziladi. Bulardan ko‘rinadiki, test tuzish va ular vositasida o‘quvchilarning bilimini tekshirishda qator psixodidaktik talablarga rioya qilinadi. Testning validligi — testda berilgan topshiriqning mazmuni o‘quv materialini o‘zlashtirishning birinchi darajasi va birinchi darajadagi faoliyat — ko‘nikma darajasidagi xatti-harakatlar, ikkinchi darajasi va ikkinchi darajadagi faoliyat — malaka darajasidagi xatti-harakatlarga, uchinchi darajasi va uchinchi darajadagi faoliyat tushuncha darajasidagi hatgi-harakatlarga mos bo‘lishi lozim. O‘zlashtirishning bu uch darajasi va ularga oid faoliyatlarni aniq chegaralash imkoniyatlari ham mavjud:

birinchi daraja va unga oid faoliyat paytida bolalar o‘ylab, qoida-ta`riflarni eslab, ayrim hollarda xatolar qilib, tuzatishlar kiritib, sekinlik bilan faoliyat ko‘rsatishadi. Shu sabablarga ko‘ra u yoki bu testlarni bajarishga nisbatan ko‘proq vaqt sarflanadi; ikkinchi daraja va unga oid faoliyat paytida qoida-ta`riflar zudlik bilan esga tushiriladi, o‘quv ishlarida tezkorlik boshlanadi, kamchilik va xatolar kamayadi, bilimlarni o‘quv holatlariga tatbiq etish avtomatlasha boshlaydi. Shularga ko‘ra test yoki testlar tizimini bajarishga oldingiga nisbatan kamroq vaqt sarflanadi; uchinchi daraja va unga oid faoliyatda xatolar bo‘lmasligi shart. Ammo bolalarning faoliyatida kamchilik, xatolar uchrashi ham tabiiy. Shuni hisobga olib, past o‘zlashtirgan o‘quvchilarni guruhlarga ajratish, har bir guruhga yoki alohida o‘quvchilarga qo‘shimcha topshiriqlar berilib, yana bir bor sinovdan o‘tkaziladi. O‘zlashtirishning eng oxirgi darajasida erishilgan natija etalon darajasida bo‘lishi, to‘liq o‘zlashtirish talablariga mutlaqo mos kelishi lozim.

O‘quv materiallarini o‘zlashtirish darajalari, faoliyatining uzluksiz rivojlanib borishini hisobga olib, testlarni ham uch toifaga ajratsa bo‘ladi: birinchi darajadagi test. Bu toifadagi test joriy nazoratga mos keladi; ikkinchi darajadagi test. Bunday test oraliq nazorat uchun vosita bo‘la oladi; uchinchi darajadagi test. Undan yakuniy nazorat paytida foydalanish mumkin.

Birinchi, ikkinchi darajadagi testlarning natijasi ballar bilan qayd etiladi baho quyilmaydi. Zero, ular ta`limni davom ettirish, binobarin, ta`lim berish, bolalarni ogohlantirish (o‘zlari etib kelgan nuqtani fahmlash, o‘z bilimlari chegarasini anglash), rag‘batlantirish (yana o‘z ustimda ishlashim zarur) kabi ichki effektlarga ega bo‘ladi. Uchinchi darajadagi testlarning natijasi baholanadi.

Testning aniqligi uning yana bir belgisidir. Test uni bajaradigan o‘quvchi uchun tushunarli bo‘lishi, unda bolaning bilimi, tayyorgarlik darajasi, real bilish imkoniyati hisobga olinishi zarur. Testning aniqligiga ko‘ra boshlang‘ich sinflarda foydalaniladigan testlar yuqori sinflarda bajariladigan testlardan farq qiladi.

Testning bir xil qimmatga egaligi ham alohida o‘rganishni (tadqiq qilishni) taqozo etadi. O‘qituvchi test vositasida bir xil natija, kelgan komissiya testdan foydalanib yana boshqacha natija olsa, bolalarning test sinoviga ishonchi ham, qarashi ham o‘zgaradi. Testning bir xil

qimmatga egaligi bola uchun ruhiy ahamiyat kasb etib, unga rioya qilish asosiy pedagogik shartlardan sanaladi.

Testning ishonchliligini ham uning yana bir xususiyati sifatida ajratsa bo‘ladi. Agar testning bir xil qimmatga egaligi uni bajaruvchi shaxs bilan, uning ruhiyati bilan bog‘liq bo‘lsa, testning ishonchliligi uning o‘ziga (testga) daxldordir. Bir xil qimmatga, qiyinlik va murakkablikka ega test vositasida aniqlangan natija shu tipdagi, , qiyinlikdagi, murakkablikdagi boshqa bir test vositasida Xuddi shunday (oldingidan) natija olinsa, ularning ikkalasi ham ishonchli test hisoblanadi.

O‘QUV materiallarini o‘zlashtirishning barcha darajalariga (birinchi daraja+ikkinchi daraja+uchinchi daraja) mos keladigan uch xil testlar to‘plami tuzildi deb tasavvur qiling. Uch xil darajaga moslab tuzilgan testlar to‘plamini “zinapoya testlar to‘plami” deb qaraymiz. Zinapoya shaklidagi testlar quyidagicha tartibda bajarildi deylik: oldin birinchi darajaga, keyin ikkinchi darajaga sungra uchinchi darajaga oid testlar. Shu tartibda bajarilgan test to‘plamlarining oldingisi keyingi to‘plamni bajarish uchun vosita bo‘ladi. Shu sababli, qiyinligi o‘zlashtirish darajasiga qarab oshirib borilgan test to‘plamlarini bir paytning o‘zida ketma-ket bajarishni “test ustida mashq o‘tkazish” deb qaraymiz.

Agar o‘quv materiali birinchi darajada o‘zlashtirilgach, testlar to‘plami shu darajani mo‘ljallab tuzilgan bo‘lsa, to‘plam faqat va faqat shu darajadagi natijalarni tekshirish omili bo‘la oladi. Joriy nazoratda Xuddi shunday testlar to‘plamidan foydalaniladi. Shunga o‘xshash ikkinchi darajaga ko‘tarilgan bilimlarga mo‘ljallab tuzilgan testlar to‘plami oraliq nazoratga, uchinchi darajaga ko‘tarilgan bilimlarga mo‘ljallab tuzilgan testlar to‘plami yakuniy nazoratga mos keladi. Test nazorati natijalarining barchasi qabul qilingan etalonga muhoyasa qilib qayd etiladi. Testlar tuplamining qachon mashq qilish qachon nazorat qilish omili bo‘la olishini quyidagi chizma vositasida tasavvur etish mumkin.

Malakaviy ish: referatlar, kurs ishlari va bitiruv ishlari. Bunday ishlarni bajarish oldingi bo'limlarda aytib o'tilganimizdek, talabalarning mustaqil ta'lim ishlarining turiga kiradi. Bularni tayyorlash jarayonida talabaning yutuqlari muhim ahamiyatga ega. Boshqa tomondan,

tayyorlangan ish kvalifikatsiyaga ega, ya'ni bu baholash ob'ekti hisoblanadi.

Malakaviy ishlarning baholashda quyidagi mezonlar tavsiya etiladi:

1. Muammo bo'yicha o'rganilgan ilmiy va o'quv adabiyotlarning hajmi.
2. Adabiyotni ko'rib chiqishda mavzuning asosiy jihatlarini ochib berishning to'liqligi.
3. Berilgan mavzu uchun zarur bo'lgan materialni tanlash, uni ikkinchi darajali manbadan ajratish.
4. Mavzuni ochib berishda izchillik va mantiqiylik.
5. Materialning analitik taqdimoti.
6. Turli xil qarashlarni taqqoslash qobiliyati.
7. Ilmiy adabiyotlarni ko'rib chiqishda umumlashtirish va xulosalarni shakllantirish qobiliyati.
8. Referativ tipdagi ilmiy fikrni stilistik jihatdan to'g'ri loyihalash.
9. Referativ tipdagi ilmiy matnni grammatik jihatda to‘g‘ri tuzish.
10. Ilmiy ishlarning talab darajasida rasmiylashtirish.

Malaka ishining empirik qismini baholashda quyidagi mezonlar tavsiya etiladi:

1. Ishning apparat qismini to‘g‘ri tavsiflash: dolzarbligi, maqsadi, vazifalari, farazlari, empirik tadqiqotlarning yangiligi.
2. Tadqiqot usullarining tadqiqot maqsadlariga muvofiqligi.
3. Belgilanadigan empirik materiallarni yig'ish bo'yicha qilingan ishlar hajmi.
4. Tadqiqot rejasi, tashkil etilishi va usullari tavsifining to'liqligi.
5. Tadqiqot natijalarini taqdim etishning to'liqligi.
6. Tadqiqot ma'lumotlarini miqdoriy va sifat jihatidan qayta ishlash usullarini taqdim etish, matematik ma'lumotlarni qayta ishlash usullaridan foydalanish.
7. Tadqiqot dalillarining ishonuvchanligi.
8. Tadqiqot natijalarining to'liqligi.
9. Tadqiqot natijalarini talqin qilish sifati.
10. Empirik tadqiqotlarni tavsiflashda va ilmiy ishlarni malakali loyihalashda ilmiy stilistikadan to'g'ri foydalanish.

Amaliy psixologiya sohasidagi tadqiqotlarni baholashda quyidagi mezonlar tavsiya etiladi:

1. Amaliy psixologiya sohasida tadqiqotlarning metodik apparatini to'g'ri tavsifi: uning dolzarbligi, maqsadlari, vazifalari, yangiligi.

2. Amaliy psixologiya metodlari va usullarining o'rganish maqsadlariga muvofiqligi.

3. Amaliy psixologik ish metodikasini ishlab chiqish (yoki moslashtirish).

4. Psixodiagnostika, maslahat berish, psixoterapiya, korreksion, rivojlanish psixologik ish yoki psixoprofilaktika va psixologik tarbiya bo'yicha bilimlarga ega bo'lish.

5. Talaba tomonidan amalga oshiriladigan amaliy psixologik ishlarning hajmi.

6. Amaliy ishlarni tashkil etish va amalga oshirishni tavsiflashning to'liqligi, ishlab chiqilgan amaliy psixologik metodikaning yangiligi va o'ziga xos xususiyatlari.

7. Amaliy psixologik ish natijalarini tavsiflashning to'liqligi.

8. Natijalarni miqdoriy va sifatli qayta ishlash.

9. O'tkazilgan amaliy psixologik ish samaradorligi tahlili, uni aprobatsiya qilish bo'yicha xulosalarning to'liqligi, argumentatsiyaning ishonarli bo'lishi, qo'llanilishdagi imkoniyatlar va cheklovlarning tavsifi, foydalanish bo'yicha tavsiyalar.

10. Ishning grammatik jihatdan to‘g‘ri rasmiylashtirish.

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savollar hamda topshiriqlar:

1. *Psixologiya fanidan bilimlarni baholash qaysi tiplarga bo‘linadi?*
2. *Dasturlashtirilgan nazorat haqida ma’lumot bering.*
3. *Bilim va ko'nikmalarni tekshirish individual va frontal turlarini tushuntiring.*
4. *“Reyting” so‘zining lug‘aviy ma’nosi nima?*
5. *Reyting nazorati haqida ma’lumot bering.*
6. *Reyting nazorat turlarini tavsiflang.*
7. *Kollokvium nima?*
8. *Imtihon qanday o‘tkaziladi?*
9. *Test haqida ma’lumot bering.*
10. *Malakaviy ishlarning baholash mezonlarini tushuntiring.*

TESTLAR

1. – muayyan voqea, hodisa va faoliyatga tegishli, qat’iy ketma-ketlikka (algoritmik xarakterga), ilgaridan o‘rnatilgan reja (qoida), tizimga aniq rioya qilish.
Metodika
Metod
Usul
Texnika

2. Pedagogikaning asosiy kategoriyalari qaysi javobda to‘g’ri ko‘rsatilgan?
Ta’lim, tarbiya, ma’lumot
Kuzatish, eksperement, modellashtirish
Tabiat, muhit, irsiyat
Prinsiplar, shakllar

3. Pedagogika fanining obyekti to‘g’ri ko‘rsatilgan javobni aniqlang
pedagogik jarayonda kechadigan tarbiyalash, ta’lim berish, rivojlantirish asosida shakllanadigan inson
bir butun yaxlitlikdagi pedagogik jarayonning qonuniyatlari va mohiyati
inson rivojlanishini ta’minlaydigan pedagogik jarayon
shaxsning shakllanishi va rivojlanish jarayoni

4. Pedagogika o‘rgasnadigan asosiy muammolar:
pedagogik jarayon qonuniyatlari mohiyatini aniqlash va tahlil etish, shaxsning shakllanishi va rivojlanishi hamda ularning ta’lim-tarbiyaga ta’sirini o‘rganish;
tarbiya, ma’lumot, ta’lim maqsadlarini aniqlash;
tarbiya, ma’lumot, ta’lim mazmunini ishlab chiqish;
ta’lim va tarbiya texnologiyalari metodlarini ishlab chiqish va tadqiq qilish.
barcha javoblar to‘g’ri

5. Aniq maqsadga yo‘naltirilgan ta’sir hisoblanib, ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o‘stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirishga yo‘naltirilgan jarayon- …..
Tarbiya
ta’lim
ma’lumot olish
Dars

6. Bilim berish, malaka va ko‘nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi.
ta’lim
Tarbiya
ma’lumot
Dars

7. Ta’lim tarbiya jarayonining natijasi orqali egallangan bilim, ko‘nikma malakalar yig’indisi va shakllangan dunyoqarashlar majmui
ma’lumot
Tarbiya
ta’lim
Tushuncha

8. Obyektiv borliqning inson ongida aks etish shakli; ilmiy bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni – bu …
Bilish
Idrok
Ma’lumot
Ta’lim

9. Aniq maqsadga yo‘naltirilgan anglash jarayoni
Idrok
Bilish
Ma’lumot
Ta’lim

10.Tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o‘zaro tashkiliy hamkorlikda faoliyat ko‘rsatuvchi barcha ko‘rinishdagi maktabgacha tarbiya, o‘rta umumiy ta’lim maktablari, o‘rta maxsus o‘quv yurtlari, oliy o‘quv yurtlari, maktabdan tashqari tarbiya muassasalarining o‘zaro uzviylikdagi tizimi
-pedagogik tizim
-dars
-tarbiya
-ta’lim

11. Sub’ekt bilan obyekt o‘rtasida qo‘yidagi aloqalar mavjud:
-Axborot xarakteridagi
-Tashkiliy faoliyat aloqalari
-Kommunikativ aloqalar
-Boshqaruv va o‘z-o‘zini boshqaruv aloqalari
-barcha javoblar to‘g’ri

12. Ta’lim-tarbiya tizimida barcha maqsad va vazifalarni, shuningdek, uning tarkibiy qismlarini kompleks hal etishga yo‘naltirilgan jarayon
yaxlit pedagogik jarayon
dars jarayoni
o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi muomala jarayoni
tarbiya jarayoni

13. O‘qituvchi (talaba) va o`quvchilarning birgalikdagi faoliyati bilan ifodalanadigan o`quv jarayoni bo`lib, uning davomida o`quv jarayonining o`zaro bog`liq ko`plab funksiyalari amalga oshiriladi.
Pedagogik fanlarni o‘qitish metodikasining obyekti
Pedagogik fanlarni o‘qitish metodikasining predmeti
Pedagogik fanlarni o‘qitish metodikasining maqsadi
Pedagogik fanlarni o‘qitish metodikasining vazifalari

14. Pedagogika o‘qitish qonuniyatlari va tamoyillarini asoslash, shuningdek, o‘qitishning maqsadi, vazifalari, mazmuni, shakllari

va usullari, o‘qituvchi va o`quvchilar faoliyatining birligidir.
Pedagogik fanlarni o‘qitish metodikasining predmeti
Pedagogik fanlarni o‘qitish metodikasining obyekti
Pedagogik fanlarni o‘qitish metodikasining maqsadi
Pedagogik fanlarni o‘qitish metodikasining vazifalari

15.Bilimlarni o‘zlashtirish jarayonining birinchi bosqichi
- idrok etish
- o‘quv materialini anglab etish
- eslab qolish va mustahkamlash
-bilim. ko‘nikma va malakalarni amaliy faoliyatda qo‘llash

16.Bilimlarni o‘zlashtirish jarayonining ikkinchi bosqichi
- o‘quv materialini anglab etish
- idrok etish
- eslab qolish va mustahkamlash
-bilim. ko‘nikma va malakalarni amaliy faoliyatda qo‘llash

17.Bilimlarni o‘zlashtirish jarayonining uchunchi bosqichi
- eslab qolish va mustahkamlash
- idrok etish
- o‘quv materialini anglab etish
-bilim. ko‘nikma va malakalarni amaliy faoliyatda qo‘llash

19.Bilimlarni o‘zlashtirish jarayonining to‘rtinchi bosqichi
-bilim. ko‘nikma va malakalarni amaliy faoliyatda qo‘llash
- idrok etish
- o‘quv materialini anglab etish
- eslab qolish va mustahkamlash

20.Didaktika deb nimaga aytiladi?
Didaktika bu o‘qitish nazariyasi;
Didaktika bu shaxsning rivojlantirilishi;
Didaktika bu bola shaxsini shakllantirish;
Didaktika tarbiyalovchi o‘qitish.

21. Ta’lim nazariyasi?
Ta’lim jarayonini ta’lim mazmunini, ta’lim metodlari, shakllari va vositalarini o‘z ichiga oladi;
Ta’lim jarayonining mohiyatini o‘z ichiga oladi;
Ta’lim metodlari, shakllari va vositalarini o‘z ichiga oladi;
Ta’lim qonuniyatlari va tamoyillarini o‘z ichiga oladi.

22. Didaktikaning asosiy tushunchalari (kategoriyalari) qaysi javobda to‘g’ri ko‘rsatilgan?
Ma’lumot, ta’lim (o‘qitish) jarayoni, ta’lim prinsiplari, ta’lim mazmuni, metodlari;
Tarbiya, ma’lumot, ta’lim;
Irsiyat, muhit, tarbiya;
Idrok qilish, fahmlab (anglaB) olish, mustahkamlash, ko‘nikma va malakalar.

23. “Ta’lim beruvchi, rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi” tushunchalari didaktikaning qaysi jihatini yoritadi?
Ta’lim funksiyasi.
Ta’lim natijasi;
Ta’lim vositalari;
Ta’lim metodlari;

24. O‘quv fani -…?
ta’lim muassasalarida o‘qitilishi yo‘lga qo‘yilgan hamda o‘zida muayyan fan sohasi bo‘yicha umumiy yoki mutaxassislik bilim asoslarini jamlagan manba.
davlat ta’lim standartlari asosida belgilab berilgan hamda ma’lum sharoitda muayyan fanlar bo‘yicha o‘zlashtirilishi nazarda tutilgan ilmiy bilimlar mohiyati.
idrok etish, o‘rganish, mashq qilish va muayyan tajriba asosida xulq-atvor hamda faoliyat ko‘nikma, malakalarining mustahkamlanib, mavjud bilimlarning takomillashib, boyib borish jarayoni;
o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida tashkil etiluvchi hamda ilmiy bilimlarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon.

25. O‘quvchilarga nazariy bilimlarni berish asosida ularda amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o‘stirish va dunyoqarashlarini tarbiyalashga yo‘naltirilgan jarayon
Ta’lim
Dars
Bilim olish
Tarbiya

26. Shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma’lum obrazlar ko‘rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma’lumotlar majmui
Bilim
Ko‘nikma
Malaka
Faoliyat

27. Malaka nima?
ongli xatti-harakatning avtomatlashtirilgan tarkibiy qismi
olingan bilimlarga asoslanib qo‘yilgan vazifalar va shartlarga binoan bajariladigan harakatlar yig’indisi
shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma’lum obrazlar ko‘rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma’lumotlar majmui
idrok etish, o‘rganish, mashq qilish va muayyan tajriba asosida xulq-atvor hamda faoliyat ko‘nikma, malakalarining mustahkamlanib, mavjud bilimlarning takomillashib, boyib borish jarayoni

28. Ko‘nikma nima?
olingan bilimlarga asoslanib qo‘yilgan vazifalar va shartlarga binoan bajariladigan harakatlar yig’indisi
ongli xatti-harakatning avtomatlashtirilgan tarkibiy qismi
shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma’lum obrazlar ko‘rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma’lumotlar majmui

idrok etish, o‘rganish, mashq qilish va muayyan tajriba asosida xulq-atvor hamda faoliyat ko‘nikma, malakalarining mustahkamlanib, mavjud bilimlarning takomillashib, boyib borish jarayoni

29. O‘quv dasturida nimalar ko‘rsatilgan?
Har bir o‘quv predmetining (fanining) mazmuni, o‘quv yillari bo‘yicha programma materiallarining (fanining) mazmuni
O‘quv yilining strukturasi;
O‘quv predmetining (faniga) ajratilgan haftalik soatlar (darslar) miqdori;
O‘quv shaxsini tarbiyalash maqsadi va vazifalari;

30. DTS ning vazifalari:
Ta’lim mazmuniga qo‘yiladigan majburiy minimal darajani belgilash;
Ta’lim oluvchilar tayyorgarligining zarur va etarli darajasini belgilash;
Ta’lim muassasalari bitiruvchilariga qo‘yiladigan malaka talablarini belgilash;
Javoblarning barchasi to‘g’ri.

31. Ta’limning qanday turlari uchun Davlat talablari (DT) joriy etiladi?
Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb – hunar, oliy ta’lim;
Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb – hunar, oliy ta’lim;
Umumiy o‘rta, maktabdan tashqari ta’lim, oliy ta’lim;
Ta’lim turlarining barchasi uchun.

32. DTSni tayyorlash qanday ta’lim muassasalari uchun majburiydir?
O‘zbekiston Respublikasidagi barcha ta’lim muassasalari uchun;
Davlat ta’lim muassasalari uchun;
Nodavlat ta’lim muassasalari uchun;
Xalq ta’limi hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tasarrufidagi ta’lim muassasalari uchun.

34. Qaysi hujjatda ta`lim muddati, o‘qitishning tuzilishi va tartibi, o‘qitiladigan fanlar ro‘yxati, har bir fanni o‘rganish

tartibi (vasht jihatidan), har bir fanga ajratilgan va har bir haftaga tegishli vaqt ko‘rsatiladi?
O‘quv rejasi
O‘quv dasturi
DTS
Malaka talablari

35. Ta’lim mazmunining barcha elementlari barcha bosqichlarda jamiyat, fan, madaniyat va shaxs rivojlanishi talablariga mos bo‘lishi tamoyili
Bu tamoyil ta’lim mazmuniga an’anaviy bo‘lgan bilim, ko'nikma va malakalar bilan birga jamiyatning rivojlanganligi, ilmiy bilim, madaniy hayot darajasi va shaxsning rivojlanish imkoniyatlarini aks ettiruvchi fanlarni kiritishni talab etadi.
Bu tamoyil ta’lim mazmunini tanlashda bir tomonlama ilmiy yo‘nalishni rad etadi. U aniq bir o'quv jarayonini amalga oshirish bilan bog'liq pedagogik haqiqatni hisobga olishni ko‘zda tutadi.
Bu tamoyil ta’lim tizimining turli bosqichlarida nazariy bilimlarning berilishi, o‘quv fani, o‘quv materiali, pedagogik faoliyat, o‘quvchi shaxsi kabi tashkil etuvchilarining o‘zaro mosligini ko‘zda tutadi.
Bu tamoyil birinchi navbatda o‘quvchilarning umuminsoniy va milliy madaniyatni faol ijodiy va amaliy o‘zlashtirishlari uchun sharoitlar yaratish bilan bog‘liqdir. Buning uchun gumanitarg‘oyalar umumiy ta’lim mazmuniga singdirilishi kerak.

36. Ta’lim mazmunining yaxlit tuzilishi tamoyili
Bu tamoyil ta’lim tizimining turli bosqichlarida nazariy bilimlarning berilishi, o‘quv fani, o‘quv materiali, pedagogik faoliyat, o‘quvchi shaxsi kabi tashkil etuvchilarining o‘zaro mosligini ko‘zda tutadi.
Bu tamoyil ta’lim mazmuniga an’anaviy bo‘lgan bilim, ko'nikma va malakalar bilan birga jamiyatning rivojlanganligi, ilmiy bilim, madaniy hayot darajasi va shaxsning rivojlanish imkoniyatlarini aks ettiruvchi fanlarni kiritishni talab etadi.
Bu tamoyil ta’lim mazmunini tanlashda bir tomonlama ilmiy yo‘nalishni rad etadi. U aniq bir o'quv jarayonini amalga oshirish bilan bog'liq pedagogik haqiqatni hisobga olishni ko‘zda tutadi.

Bu tamoyil birinchi navbatda o‘quvchilarning umuminsoniy va milliy madaniyatni faol ijodiy va amaliy o‘zlashtirishlari uchun sharoitlar yaratish bilan bog‘liqdir. Buning uchun gumanitarg‘oyalar umumiy ta’lim mazmuniga singdirilishi kerak.

37. Ta’lim mazmunini insonparvarlashtirish tamoyili
Bu tamoyil birinchi navbatda o‘quvchilarning umuminsoniy va milliy madaniyatni faol ijodiy va amaliy o‘zlashtirishlari uchun sharoitlar yaratish bilan bog‘liqdir. Buning uchun gumanitarg‘oyalar umumiy ta’lim mazmuniga singdirilishi kerak.
Bu tamoyil ta’lim mazmuniga an’anaviy bo‘lgan bilim, ko'nikma va malakalar bilan birga jamiyatning rivojlanganligi, ilmiy bilim, madaniy hayot darajasi va shaxsning rivojlanish imkoniyatlarini aks ettiruvchi fanlarni kiritishni talab etadi.
Bu tamoyil ta’lim mazmunini tanlashda bir tomonlama ilmiy yo‘nalishni rad etadi. U aniq bir o'quv jarayonini amalga oshirish bilan bog'liq pedagogik haqiqatni hisobga olishni ko‘zda tutadi.
Bu tamoyil ta’lim tizimining turli bosqichlarida nazariy bilimlarning berilishi, o‘quv fani, o‘quv materiali, pedagogik faoliyat, o‘quvchi shaxsi kabi tashkil etuvchilarining o‘zaro mosligini ko‘zda tutadi.

38. Ta’lim mazmunining ketma-ketligi tamoyili
bu tamoyil ta’lim mazmunini o‘sib boruvchi yo‘nalishda rejalashtirishdan iborat bo‘lishini anglatadi, bunda birinchi navbatda har bir yangi bilim avvalgisiga tayanadi va undan kelib chiqadi.
ta’limni gumanitarlashtirishdagi to‘siqlarni yo‘qotishga imkon beradi. U gumanitar va tabiiy-ilmiy bilimlarni birlashtirish, ketma-ketlikni o‘rnatish va fanlararo aloqalarni o‘quvchilarning idrok etish va amaliy faoliyat metodologiyasi mohiyatini anglab yetishlariga tayanishni talab etadi.
ushbu tamoyil o‘rganilayotgan bilimlar va shakllantirilayotgan malakalarni yagona tizimdagi o‘rni, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim, barcha o‘quv kurslari va yaxlit mazmunning bir-biriga hamda umuminsoniy, milliy madaniyat tizimiga kiruvchi tizim sifatida ko'rishni ko‘zda tutadi.

o'quvchilarning yosh darajasi va tayyorgarligini ko‘zda tutadi. Ularga o‘zlashtirish uchun u yoki bu bilimlar va malakalar tizimi o‘zlashtirish uchun taklif etiladi.

39. Ta’lim mazmunining o‘quvchilar yoshlari imkoniyatlariga mosligi tamoyili
o'quvchilarning yosh darajasi va tayyorgarligini ko‘zda tutadi. Ularga o‘zlashtirish uchun u yoki bu bilimlar va malakalar tizimi o‘zlashtirish uchun taklif etiladi.
ushbu tamoyil o‘rganilayotgan bilimlar va shakllantirilayotgan malakalarni yagona tizimdagi o‘rni, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim, barcha o‘quv kurslari va yaxlit mazmunning bir-biriga hamda umuminsoniy, milliy madaniyat tizimiga kiruvchi tizim sifatida ko'rishni ko‘zda tutadi.
bu tamoyil ta’lim mazmunini o‘sib boruvchi yo‘nalishda rejalashtirishdan iborat bo‘lishini anglatadi, bunda birinchi navbatda har bir yangi bilim avvalgisiga tayanadi va undan kelib chiqadi.
ta’limni gumanitarlashtirishdagi to‘siqlarni yo‘qotishga imkon beradi.

40. Qaysi hujjatda fanning nomi, ayni fan, ayrim bob va mavzu bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalar hajmi, fanni o‘rganish tartibi, har bir mavzuni o‘tish uchun belgilangan vaqt, ayni fan bo‘yicha darslik va qo‘llanmalar ko‘rsatiladi?
O‘quv dasturi
O‘quv rejasi
DTS
Malaka talablari

41.Ma’lum o‘qitish yoki metodik usullarni muvaffaqqiyatli amalga oshirmoq uchun zarur bo‘lgan yordamchi o‘quv materiallari, qurol, asbob, apparat nima deb ataladi?
Vosita
Metod
Usul
Mashq

42. ….– bu asosiy o‘quv mazmuniga ega bo‘lgan rejalar, o‘quv dasturlari, darslik va o‘quv qo‘llanmalaridir.
O‘qitishning asosiy vositalari
O‘qitishning qo‘shimcha vositalar
O‘qitishni takomillashtiruvchi dastur vositalari
O‘qitishning texnik vositalari

43. ….– bu ta’lim oluvchilardagi bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantiruvchi masalalar, mashqlar to‘plami, ma’lumotnomalar, tarqatma materiallar, ko‘rsatmali va ko‘rgazmali vositalar, disketlar, EHM va boshqalardir.
O‘qitishning qo‘shimcha vositalar
O‘qitishning asosiy vositalari
O‘qitishni takomillashtiruvchi dastur vositalari
O‘qitishning texnik vositalari

44. … – bu mutaxassislar guruhi tomonidan ishlab chiqilgan va predmetdagi tegishli mavzular bo‘yicha dars jarayonini takomillashtirishga imkon beruvchi intellektuallashtirilgan dasturlar va uni amaliyotga joriy etishga sharoit yaratuvchi dasturiy – texnik vositalardir.
O‘qitishni takomillashtiruvchi dastur vositalari
O‘qitishning asosiy vositalari
O‘qitishning qo‘shimcha vositalar
O‘qitishning texnik vositalari

45. O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini tekshirish quyidagi funksiyalami bajaradi:
bilim berish, tarbiyalash, rivojlantirish;
o‘qitish, tashkil etish, tizimlash;
nazorat qilish, o‘qitish, tarbiyalash, rivojlantirish;
e) umuminsoniy, gumanistik, demokratik.

46. O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarining yakuniy nazorati nima?
bo‘lim yakuni, chorak oxirida, yarim yil yoki o‘quv yili oxirida so‘rash;

o‘quvchilardan so‘rash;
yangi bilimlarni mustahkamlash vaqtida so'rash;
dars yakunida so‘rash.

47. Ta’lim oluvchilarning bilim va malakalarini tekshirish qanday ketma-ketlikda olib boriladi?
joriy tekshirish; takroriy tekshirish; davriy tekshirish; yakuniy tekshirish va hisobga olish;
joriy tekshirish; yakuniy tekshirish va hisobga olish;
joriy tekshirish; davriy tekshirish; yakuniy tekshirish;
joriy tekshirish; takroriy tekshirish; davriy tekshirish; oraliq tekshirish, yakuniy tekshirish va hisobga olish;

48. Pedagogikada ta’lim oluvchilarning ta’lim olganligini tashxislash va nazorat qilish qanday tamoyillari mavjud?
xolislik, tizimlilik, ko‘rgazmalilik;
obyektivlik, tizimlilik, sistemalilik;
sistemalilik, ko‘rgazmalilik, oshkoralik;
xolislik, obyektivlik, sistemalilik.

49. Baholash nima?
bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘quv dasturida ko‘rsatilgan etalon (ko‘rsatkich, qolip, o‘lchagich)lar bilan solishtirish;
o‘quvchining bilimiga baho qo‘yish;
o‘quvchining o‘zlashtirishini aniqlash usuli;
o‘quvchilarning fan bo‘yicha egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarni aniqlash.

50. O‘zlashtirishni nazorat qilish va hisobga olishning qanday vazifalari mavjud?
nazorat, o‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirish vazifalari;
nazorat, o‘qitish, tarbiyalash vazifalari
o‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirish vazifalari
ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantirish vazifalari

GLOSSARIY

Artpedagogika - san'at pedagogikasi nazariya va amaliyotni rivojlantirish bilan shug'ullanadi, badiiy rivojlanish jarayonining nazariyasi va amaliyotini rivojlantirishni, badiiy-ijodiy va ijodiy faoliyat orqali individual madaniyatning asosini tashkil etadi. San'atni rivojlantirish orqali shaxslarni tarbiyalash, tayyorlash va rivojlantirish; badiiy madaniyatning asoslarini shakllantirish va turli xil badiiy faoliyat turlari bo'yicha amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish.

Axborotlar bilan ishlash kompetentsiyasi — mediamanbalardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olishni, saralashni, qayta ishlashni, saqlashni, ulardan samarali foydalana olishni, ularning xavfsizligini ta'minlashni, media madaniyatga ega bo‘lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Badiiy pedagogika- pedagogika va adabiyotni birlashtirishga asoslangan pedagogika fanining sohasi, ta'lim va inson taraqqiyoti qonunlarini badiiy adabiyot orqali o'rganish.

Baho deb baholashning ball shaklida ko‘rsatilgan son jihatdan o‘lchamiga aytiladi.

Baholash deb bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘quv dasturida ko‘rsatilgan etalon (ko‘rstakich, qolip, o‘lcha-gich)lar bilan solishtirish.

Bakalavr, magistr — oliy ta’limning tegishli bosqichiga muvofiq dasturlarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirgan shaxslarga beriladigan akademik darajalar.

Bakalavriat — o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi negizida oliy ta’lim yo‘nalishlaridan biri bo‘yicha fundamental bilimlar beradigan, o‘qish muddati to‘rt yildan kam bo‘lmagan tayanch oliy ta’lim.

Bilim – ma’lum bir fanni nazariy o‘zlashtirishni aks ettiradigan inson g‘oyalari yig‘indisi;

Darslik — davlat ta'lim standartlariga muvofiq o‘quv dasturi asosida didaktik, metodik, pedagogik-psixologik, estetik va gigienik talablarga javob beradigan, o‘quv fanining mavzulari to‘liq yoritilgan, uning asoslari mukammal o‘zlashtirilishiga qaratilgan, o‘quv fanining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda ta'lim oluvchilarning yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab

chiqiladigan, nazariy ma'lumotlardan tashqari amaliy-tajriba va sinov mashqlarini qamrab olgan kitob shaklidagi o‘quv nashri.

Darsliklarning multimediali ilovalari — axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida o‘quv faniga oid materiallarni davlat ta'lim standarti va o‘quv dasturiga mos ravishda yorita oladigan, o‘quv fanini samarali o‘zlashtirishga, o‘quvchilarning mustaqil ta'lim olishiga ko‘maklashuvchi hamda video, ovoz, animatsiya, jadval, matn va lug‘atlarni o‘z ichiga olgan, bilimlarni nazoratdan o‘tkazish va mustahkamlashga yo‘naltirilgan, o‘quv fanining asosiy mazmunini boyitadigan qo‘shimcha materialga ega bo‘lgan yoki shu kabi manbalarga murojaatlarni o‘z ichiga olgan interaktiv elektron axborot-ta'lim resursi.

Diagnostika-(yunon tilida «dia»-shaffof, «gnosiss»-bilim degan ma’noni bildiradi) - o‘rganilayotgan obyekt yoki jarayon to‘g‘risidagi aniq ma’lumot olishning umumiy vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Dialog- o‘quv mavzusi yoki muammoni guruh sharoitida o‘qituvchi bilan birgalikda va hamkorlikda muhokama qilish yo‘lidir.

Didaktik konsepsiya (didaktik tizim) ta`limda o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatini tashkil etish maqsadi, mazmuni, vositalari, usullari, tashkiliy shakllari to‘g‘risidagi qarashlar (g‘oyalar) majmuidir.

Didaktika pedagogikaning mustaqil qismi bo‘lib, o‘qitish va ta’lim berish muammolari bilan shug‘ullanadi hamda o‘qitish jarayonining umumiy qonuniyatlarini o‘rganadi.

Elektron pedagogika - pedagogik faoliyatda kerakli interaktiv o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarni yaratish qoidalari va texnologiyalari to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lish va o‘ziga kerakli fanlar bo‘yicha elektron interaktiv darsliklar mustaqil yaratish uchun amaliy ko‘nikmalar hosil qilish to‘g‘risidagi fan.

Harbiy pedagogika - harbiy pedagogik jarayonning qonuniyatlari, harbiy kadrlar va harbiy guruhlarni o'qitish usullari, ularni muvaffaqiyatli jangovar operatsiyalar va harbiy-kasbiy faoliyat uchun tayyorlashga qaratilgan pedagogika fanining bir bo'limi.

Hisobga olish – bu o‘qitishning muayyan bir davrida o‘quvchilar va o‘qituvchi faoliyatini umumlashtirib xulosalash.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetentsiyasi — jamiyatda bo‘layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va

ularda faol ishtirok etish, o‘zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala va huquqiy madaniyatga ega bo‘lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Ijtimoiy pedagogika – ijtimoiy munosabatlar jarayonlarida pedagogik g‘oyalarning tutgan o‘rni va roli, shaxsni ijtimoiy faoliyatga yo‘naltirish muammolarini o‘rganadi.

Joriy nazorat- o‘qituvchi tomonidan talabalarning xar bir o‘quv ishini muntazam nazorat qilishni hamda ularning o‘rganilgan mavzularni o‘zlashtirish bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini tekshirishni o‘z ichiga oladi.

Ko‘nikma – egallangan bilimlarning aniq xatti-harakatdagi ifodasi, o‘zlashtirilgan bilimlarni amaliyotga qo‘llash usullarini egallash;

Kommunikativ kompetentsiya — ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda birorta xorijiy tilda o‘zaro muloqotga kirisha olishni, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, ijtimoiy moslashuvchanlikni, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Logopediya – nutqi yaxshi rivojlanmagan bolalarning ta’lim va tarbiyasi bilan shug‘ullanadi.

Ma’ruza (o‘quv ma’ruzasi)-oliy o‘quv yurti pedagogik jarayonida eng ko‘p qo‘llaniladigan shakli bo‘lib unda ta’lim oluvchilarga maksimal darajada yangi ilmiy axborotlar berish, o‘quv materialini talabalar ongiga yetkazish nazarda tutiladi. Ma’ruzalarda talaba uchun zarur bo‘lgan kasbiy, ilmiy-nazariy ma’lumotlar bayon etiladi.

Ma’ruza metodi-bu o‘qituvchi tomonida katta mazmundagi ma’lumotni og‘zaki tarzda mantiqiy izchillikda bayon qilish, talabalarning esa o‘quv materialini tinglash orqali idrok etishini nazarda tutadi.

Magistratura — bakalavriat negizida o‘qish muddati kamida ikki yil bo‘lgan aniq mutaxassislik bo‘yicha oliy ta’lim.

Malaka – avtomatlashgan, biror bir uchul bilan bexato bajarish, ko‘nikmaning takomillashgan darajasi.

Malaka amaliyoti — o‘quv jarayonining nazariy bilimlarni mustahkamlash, amaliy ko‘nikma va o‘quv hosil qilish, o‘quv rejalari

va fanlar dasturlarning ma’lum (yakuniy) qismidagi mavzu bo‘yicha materiallar to‘plash uchun o‘tkaziladigan bir qismi.

Malaka talablari — uzluksiz ta’lim tegishli bosqichi bitiruvchisining umumiy bilim va kasb tayyorgarligi darajasiga qo‘yiladigan talablar.

Mashq daftari — darslikning tarkibiy qismi hisoblanadigan, davlat ta'lim standartlariga muvofiq o‘quvchilar tomonidan egallangan bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlash hamda o‘quv fanining mavzulariga mos ravishda ishlab chiqilgan, mantiq va tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan (krossvordlar, boshqotirmalar, mantiqiy fikrlashga undovchi topshiriqlar va hokazo) topshiriqlardan iborat bo‘lgan didaktik vosita.

Maxsus pedagogika (defektologiya) - aqliy, ruhiy, jismoniy rivojlanishida nuqsoni bor bolalarni o‘qitish va tarbiyalash qonuniyatlarini, prinsiplarini, maqsadini, mazmunini, metod va vositalarini hamda shaklini o‘rganuvchi fandir.

Mehnat pedagogikasi- asosan axloq tuzatish muassasalarida jinoyatchilarni tarbiyalash va qayta tarbiyalashning shart-sharoitlari va xususiyatlarini o'rganadigan pedagogikaning sohasi.

Metodik (uslubiy) ko‘rsatma – muayyan fanning o‘quv dasturi bo‘yicha kurs ishlari, loyihalar, laboratoriya mashg‘ulotlari va amaliy ishlarni bajarish tartibi aniq ko‘rsatilgan va batafsil ifodalangan, hamda ushbu fan bo‘yicha talabalarda zarur amaliy ko‘nikma va malakalar hosil qilishga mo‘ljallangan ta’lim muassasasining ilmiy kengashi tavsiyasi asosida nashr etiladigan kichik hajmli qo‘llsnma.

Metodika – muayyan voqea, hodisa va faoliyatga tegishli, qat’iy ketma-ketlikka (algoritmik xarakterga), ilgaridan o‘rnatilgan reja (qoida), tizimga aniq rioya qilish. Metodika biror vazifani maqsadga muvofiq ravishda bajarish, o‘tkazish usullari, yo‘llari majmuasidir.

Metodika – pedagogika fani sohasida ma’lum o‘quv fanini o‘qitish qonuniyatlarini tadqiq qiladi. Masalan, tillar metodikasi, matematika metodikasi, tarbiyaviy ishlar metodikasi va shu kabilar.

Milliy va umummadaniy kompetentsiya — vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo‘lish, badiiy va san'at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, madaniy qoidalarga va sog‘lom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Monolog-ma’ruzadagii oq’ituvchining tinglovchilar yoki o‘quvchi talabalar qarshisiga chiqib nutq so‘zlashi, darsni bayon etishidir.

Musiqiy pedagogika - musiqiy ta'lim va tarbiyaning samarali usullarini, shakllarini o'rganish va rivojlantirish, shuningdek musiqa sohasida turli yo'nalishlarda ijodiy ko'nikmalarni, tajriba va amaliy malakalarni shakllantirish va rivojlantirishni o'z ichiga olgan pedagogika fanining sohasi.

Mutaxassislik — 5A-bosqichning o‘quv rejalar va fanlar dasturi bo‘yicha oliy ta’lim muassasasi bitiruvchisi tomonidan egallangan va beriladigan “magistr” akademik darajasi doirasida kasb faoliyatining muayyan turini bajarishni ta’minlovchi muayyan mutaxassislik bo‘yicha bilimlar, uquvlar va ko‘nikmalar kompleksi.

Muzey pedagogikasi - muzeylarning madaniy va ma'rifiy faoliyatining xususiyatlari, ularning turli toifalari bo'yicha shaxsga ta'sir o'tkazish usullari, muzeylarning ta'lim muassasalari bilan o'zaro munosabatini o‘rganadigan fan.

Nazorat (ta’lim jarayonida) ta’lim oluvchining bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini aniqlash, o‘lchash va baholash jarayonini anglatadi.

N**azoratning guruhli shakli-** talabalarning ma’lum bir qismi nazorat qilinadi. O‘qituvchi tomonidan talabalar guruhiga vazifa beriladi va uni shu guruh bajaradi. Lekin masalani hal qilishda boshqa talabalar ham qatnashishi mumkin.

N**azoratning individual shakli-** har bir talabaning bilim, ko‘nikma va malakasi bilan mukammal tanishish uchun foydalaniladi. Nazoratning bu shaklida odatda talabalar javob berish uchun sinf taxtasi oldiga chaqiriladi.

N**azoratning kombinatsiyalangan (biriktirilgan)shakli** - individual nazoratni ommaviy va guruhli shakllar bilan birlashtirishni taqozo etadi. Bu nazoratni hajmi katta mavzularni barcha talabalardan so‘rash kerak bo‘lgan vaqtda foydalanadi. Har bir o‘quvchiga alohida topshiriq beriladi va bir vaqtda birnecha o‘quvchini tekshirish mumkin bo‘ladi.

Nazoratning ommaviy (frontal) shakli- o‘qituvchi talabalarga materialning ma’lum bir hajmi bo‘yicha savol beradi, talabalar unga qisqa javob qaytaradi. Mazkur so‘rash ko‘pchilik talabani nazorat qilishni ta’minlaydi va butun guruhni faollashtiradi. Ammo bu

nazoratni talabalarning bilim darajasini har tomonlama aniqlash uchun qo‘llab bo‘lmaydi.

Neyropedagogika - inson miyasining ijodiy imkoniyatlarini aniqlash va amaliy (funktsional) rivojlantirish, shaxsda faoliyatga nisbatan faol, ongli munosabatni qaror toptirish, ijtimoiy xulq-atvorni psixologik korrektsiyalash, bolalar ruhiy rivojlanishni tashxislash va bashoratlashning yangi ilmiy dasturlari, samarali shakl va metodlarini, yangi turdagi maktabgacha ta’lim muassasalari faoliyatini tadqiq etadi.

Oligofpenopedagogika – aqliy jihatdan zaif bolalarning ta’lim va tarbiyasi bilan shug‘ullanadi.

Oliy ma’lumot darajasi — shaxs tomonidan oliy ta’limning muayyan o‘quv rejalari va fanlar dasturini mazkur ma’lumot haqida tegishli davlat hujjati berilgan holda, o‘zlashtirishi natijasi.

Oliy ma’lumot haqida davlat hujjati (diplom) — akkreditatsiyadan o‘tgan oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilariga beriladigan va ularning oliy ta’limning o‘quv rejalari va fanlar dasturini bajarganliklarini tasdiqlovchi davlat namunasidagi hujjat. Hujjat uzluksiz ta’limning keyingi bosqichlarida o‘qishni davom ettirish yoki olingan akademik darajaga muvofiq ishlash huquqini beradi.

Oliy ta’lim muassasasi akkreditatsiyasi — oliy ta’lim muassasasi faoliyati darajasining OT DTS mezon va talablariga javob berishining davlat tomonidan e’tirof etilishi.

Oliy ta’lim muassasasi attestatsiyasi — oliy ta’lim muassasasida kadrlar tayyorlash mazmuni, darajasi va sifatining OT DTS talablariga muvofiqligini aniqlovchi tadbir.

Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori — oliy ma’lumotli kadrlar tayyorlash uchun bakalavriat ta’limi yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining tizimlashtirilgan ro‘yxati.

Oliy ta’lim — uzluksiz ta’limning yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi mustaqil turi. Oliy ta’lim muassasalarida amalga oshiriladi.

Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti — muayyan ta’lim sohasiga (soha tarkibiga) qo‘yiladigan malaka talablari, ta’lim mazmuni, bitiruvchilar umumiy tayyorgarligining zaruriy va yetarli darajasini, kadrlar tayyorlash sifatini baholash darajalarini belgilaydigan etalon darajasi.

Oraliq nazorat – bu talabalar tomonidan mazkur fanning muayyan bob yoki bo‘limlarining o‘zlashtirilganini tekshirish. Oraliq nazoratni o‘qituvchi mashg‘ulotlar jadvali asosida mashg‘ulotda o‘quv materialining o‘ziga xos xususiyatini hisobga olgan xolda o‘tkazadi.

Oraliq nazorat – bu talabalar tomonidan mazkur fanning muayyan bob yoki bo‘limlarining o‘zlashtirilganini tekshirish. Oraliq nazoratni o‘qituvchi mashg‘ulotlar jadvali asosida mashg‘ulotda o‘quv materialining o‘ziga xos xususiyatini hisobga olgan xolda o‘tkazadi.

Pedagogik akmeologiya – o‘qituvchining kasbiy faoliyatining eng yuksak bosqichiga etish muammolarini o‘rganuvchi fan.

Pedagogik aksiologiya - pedagogik yangiliklar, innovatsiyalarning pedagogik jamoatchilik tomonidan o‘zlashtirilish darajasini baholash, idrok etish haqidagi nazariy bilimlar.

Pedagogik kvalimetriya – pedagogning faoliyat jarayonida erishadigan sifat va samaradorlik darajalarining o‘lchovi va mezonini o‘rganadi.

Pedagogik mahorat – bo‘lajak o‘qituvchilarning shaxsiy va kasbiy mahoratlarini oshirish, takomillashtirish muammolarini o‘rganadi.

Pedagogik riskologiya – pedagogik vaziyatlarda eng muhim qarorlar qabul qilish jarayonida tavakkalchilik xususiyatlarini o‘rganadi.

Pedagogika tarixi – turli tarixiy davrlarda pedagogik g‘oyalarning va tarbiyaning taraqqiyotini o‘rganadi.

Polelog- guruh ichidagi munozaradir. U tinglovchilar yoki o‘quvchilarning faolligini yanada oshirish, ulardagi ijodiy qobilyatlarni rivojlantirish maqsadida ishlatiladi.

Qiyosiy pedagogika – turli mamlakatlarning ta’lim-tarbiya tizimini, maorif taraqqiyotini taqqoslashni o‘rganuvchi pedagogikaning mustaqil sohasidir.

Reyting -baholash, tartibga keltirish, klassifikatsiyalash, bironta hodisani oldindan belgilangan shkala bo‘yicha baholash tushuniladi. Reyting nazorati o‘quvchining ma’lum bir fandan reytingini aniqlaydi.

Suhbat metodi - bilim o‘zaro so‘zlashuv (dialog) yo‘li bilan o‘rganishga sabab asosan seminar mashg‘ulotlarida, talabalarning mustaqil ishi, referatlari, o‘quv konfersiyalarida qo‘llaniladi.

Surdopedagogika – kar va soqov bolalarning ta’lim va tarbiyasi bilan shug‘ullanadi.

Ta’lim – o‘qitish jarayonida egallanadigan bilim, ko‘nikma, malakalar, fikrlash usullari tizimi;

Ta’lim maqsadi – o‘qitishning nimaga qaratilganligi, uning kuchlari kelgusida qay yo‘sinda safarbar etilishi;

Ta’lim mazmuni –o‘qitish jarayonida egallanishi lozim bo‘lgan ilmiy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalar, faoliyat, fikrlash usullari tizimi;

Ta’lim metodi - o‘qitishning maqsad va vazifalariga erishish (amalga oshirish) yo‘li;

Ta’lim natijasi - o‘quv jarayonining so‘nggi mahsuli, belgilangan maqsadlarning amalga oshganlik darajasi.

Ta’lim sifatini nazorat qilish — o‘qitish mazmuni va natijalarining davlat ta’lim standartlari talablariga muvofiqligini tekshirish.

Ta’lim vositasi - o‘quv jarayonining predmetli qo‘llab-quvvatlanishi, yangi materialni o‘zlashtirish jarayonida o‘qituvchi va talabalar tomonidan foydalaniladigan obyekt;

Ta’limni tashkil etish - qo‘yilgan maqsadni yaxshi amalga oshirish uchun unga zaruriy shaklni taqdim etadigan, aniq mezonlar bo‘yicha tartiblangan didaktik jarayon;

Ta'lim mazmuni- inson o‘qitish jarayonida egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar hajmi va xarakteri.

Tashxis – bu didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilash demak. Tashxissiz didaktik jarayonni sama-rali boshqarish, mavjud sharoit uchun optimal natijalarga erishish mumkin emas.

Teatr pedagogikasi - zamonaviy pedagogikaning amaliy jihati bo'lib, ta'lim jarayonida voqelik, yashash, shaxsiy ijodiy harakatlar va improvizatsiya tamoyillarini tatbiq etuvchi, intellektual, hissiy tuyg'ularni aks ettiradigan fan.

Test – aniq maqsad asosida, muayyan holat darajasini sifat va miqdoriy ko‘rsatkichlarda belgilashga imkon beruvchi sinov vositasi.

Texnologik jarayon– ishlab chiqariladigan mahsulotga ishlov berishning yagona jarayonini hosil qiluvchi texnologik operatsiyalarning yig‘indisidan iborat

Texnologik operatsiya– ishchi yomonidan o‘zining ish joyida bajariladigan, yakuniga yetkazilgan harakat ko‘rinishidagi jarayonning bir qismi.

Texnologik rejim-texnologik operatsiyalarni amalga oshirishni belgilovchi tartib bo‘lib, ma’lum bir mahsulotni ishlab chiqarishda bajariladigan opertatsiyalarning vaqti, shartlarini belgilaydi.

Texnologik xarita- ma’lum bir mahsulotni ishlab chiqarish texnologik operatsiyalarini ketma-ketligini bayon qiluvchi texnik hujjatdir.

Tibbiy pedagogika - shaxsga psixologik-pedagogik va tibbiy ta'sir ko'rsatishning zamonaviy vositalari va usullarini, inson ruhiyatining umumiy va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish to‘g‘risidagi fan.

Tiflopedagogika – ko‘zi ojizlarni bolalarning ta’lim va tarbiyasi bilan shug‘ullanadi.

Tizim (sistema) – tartibga solingan, o‘zaro bog‘langan va ta’sir ko‘rsatib turadigan pedagogik hodisa; tartibga solingan tushunchalar yig‘indisidir.

Tizim (sistema) –o‘zaro bog‘langan ko‘plab elementlar o‘rtasidagi mustahkam birlik va bog‘liqlik.

Turizm pedagogikasi - bu turizmning gumanitar va ijtimoiy funksiyalari kontekstida shaxsning tarbiyasi, ta'limi va rivojlanish jarayonlarini o'rganadigan fan.

Umumiy pedagogika – ta’lim va tarbiyaning asosiy qonuniyatlarini tadqiq qiladi.

Xalq pedagogikasi – turli xalq, millat va elatlarning xalq og‘zaki ijodidagi ta’lim-tarbiya to‘g‘risidagi pedagogik g‘oyalarning mohiyatini, mazmunini o‘rganuvchi pedagogikaning mustaqil sohasidir.

Yakuniy davlat attestatsiyasi — bakalavr yoki magistr darajasiga qo‘yiladigan malaka talablariga muvofiq holda, ma’lum talab va tartibotlar vositasida (fanlar bo‘yicha davlat attestatsiyasi, bitiruv malakaviy ishi yoki magistrlik dissertatsiyasi himoyasi) bitiruvchi tomonidan oliy ta’lim o‘quv reja va dasturlarining bajarilishi sifatini baholash.

Yakuniy nazorat – sesmestr va davlat attestatsiyasi sinovlari singari turlarga bo‘linadi. Yakuniy nazorat og‘zaki, yozma, test hamda amaliy topshiriqlarni bajarish metodlari asosida o‘tkaziladi.

Yo‘nalish — 5-bosqichning o‘quv rejalar va fanlar dasturi bo‘yicha oliy ta’lim muassasasi bitiruvchisi tomonidan egallangan va beriladigan “bakalavr” akademik darajasi doirasida kasb faoliyatining muayyan turini bajarishni ta’minlovchi bazaviy va fundamental bilimlar, uquvlar va ko‘nikmalar kompleksi.

Yosh pedagogikasi – turli yoshdagi bolalarni o‘qitish va tarbiyalashning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganadi. Maktabgacha pedagogika, maktab pedagogikasi, oliy maktab pedagogikasi, katta yoshdagilar pedagogikasi (andragogika)ga bo‘linadi.

Yozma tekshirish – talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish va baholashning eng samarali usullaridan biri bo‘lib, ularning ijodiy qobiliyatlarini baholash imkonini beradi.

O‘qitish sifatini nazorat qilish — talabaning bilim saviyasini tekshirish va uning o‘quv dasturini o‘zlashtirish darajasini aniqlash.

O‘qitishning me’yoriy muddati — ta’lim oluvchilar tomonidan o‘quv rejalari va fanlar dasturi o‘zlashtirilishi uchun belgilangan muddat.

O‘quv fani dasturi — ta’lim mazmuni, uning talabalar tomonidan o‘zlashtirilishining eng maqbul usullari, axborot manbalari ko‘rsatilgan normativ hujjat.

O‘quv fani — ta’lim muassasasida o‘rganish uchun fan, texnika, san’at, ishlab chiqarish faoliyatining muayyan sohasidan saralab olingan bilimlar, o‘quv va ko‘nikmalar tizimi.

O‘quv fanlari bloki — o‘quv rejalari va fanlar dasturlarining kadrlar tayyorlash jarayonida aniq maqsad va vazifalarga erishish uchun muayyan bilim sohasi yoki faoliyatning o‘zlashtirilishini ta’minlaydigan o‘quv fanlarini birlashtiruvchi tarkibiy qismi.

O‘quv rejasi — oliy ta’limning muayyan bakalavriat ta’lim yo‘nalishi yoki magistratura mutaxassisligi bo‘yicha o‘quv faoliyati turlari, o‘quv fanlari va kurslarining tarkibi, ularni o‘rganishning izchilligi va soatlardagi hajmini belgilaydigan hujjat.

O‘quv semestri — oliy ta’lim muassasasida o‘quv yilining yarmini tashkil etuvchi o‘zaro bog‘langan fanlarning ma’lum majmuini

o‘zlashtirishga mo‘ljallangan va ular bo‘yicha yakuniy nazorat bilan tugallanadigan qismi.

O‘quv yili — oliy ta’lim muassasasida bir ta’lim kursini yakunlashga mo‘ljallangan o‘quv faoliyati davri. O‘quv yili ikki kalendar yil bilan belgilanadi, masalan, 20191-2020 o‘quv yili.

O**‘z-o‘zini nazorat qilish shakli -** ta’lim jarayonida ichki aks aloqaning bo‘lishini ta’minlaydi. Nazoratning bu shakli psixologik mezonlarga asoslanadi. Uning samaradorligi o‘qituvchining kasbiy mahoratiga bog‘liq bo‘ladi.

O‘qitish – qo‘yilgan maqsadga erishishga yo‘naltirilgan pedagog bilan talabalarning tartiblangan o‘zaro harakati;

O‘qituvchi uchun metodik qo‘llanma — darslikdagi har bir mavzuni samarali o‘qitish metodikasi, qo‘shimcha sinov topshiriqlari va o‘qituvchining darsni qiziqarli tashkil etishiga oid boshqa metodik ko‘rsatmalar berilgan, har bir darsning maqsadi, darsda foydalaniladigan vositalar va ulardan foydalanish usullari, darsning mazmuni, amaliy mashg‘ulotlar, qo‘shimcha topshiriqlar va boshqalar haqida metodik ko‘rsatmalar aniq bayon qilingan kitob shaklidagi o‘quv nashri.

O‘rganish – anglash, mashq qilish, va egallangan tajribalar asosida xulq-atvor va faoliyatning yangi shakllarini egallash jarayoni, oldin egallanganlari o‘zgaradi;

O‘rgatish – o‘qitish maqsadini amalga oshirish bo‘yicha pedagogning tartiblangan faoliyati;

O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetentsiyasi — doimiy ravishda o‘z-o‘zini jismoniy, ma'naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayot davomida mustaqil o‘qib-o‘rganish, kognitivlik ko‘nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, o‘z xatti-harakatini muqobil baholash va mustaqil qaror qabul qila olish ko‘nikmalarini egallashni nazarda tutadi.

Og‘zaki tekshirish- bu metod bilimlarni nazorat qilish va baholash-ning ancha keng tarqalgan an’anaviy usullaridan biridir. Og‘zaki tekshirishning mohiyati shunda ko‘rinadiki, o‘qituvchi talabalarga o‘rganilgan mavzuning mazmunidan kelib chiqib, savollar beradi va ularni javob berishga undaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni. - T., 2020.
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqi. // Xalq so‘zi gazetasi, 2017.16 yanvar, №11
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. “O‘zbekiston”, 2017.
4. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi - inson manfaatlarini ta’minlash taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. “O‘zbekiston”, 2017.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Oliy ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida» 2001 yil 16 avgustdagi 343-son qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqidgi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 10 yanvardagi 3-son qarori. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2015 y., 2-son, 21-modda
6. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-2021 yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakat strategiyasi. 7 fevral 2017 yil.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2909-sonli «Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori, Toshkent sh., 2017 yil 20 aprel
8. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017yil, 6-son,70-modda.
9. Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risidagi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi 187-son qarori. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 14-son, 230-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 25.10.2018 y., 09/18/858/2095-son

10. Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to‘g‘risidagi Nizom. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2018 yil 9 avgustdagi 19-2018-son buyrug‘i. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 26.09.2018 y., 10/18/3069/1965-son
11. Asqarova O‘.M., Hayitboev M., Nishonov S. – T.: Talqin, 2008.
12. Alex Moore. Teaching and Learning: Pedagogy, Curriculum and Culture. USA, 2012 Routledge.
13. Avliyoqulov N.H. Zamonaviy o’qitish texnologiyalari. Toshkent. 2001. 11-bet.
14. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: Fan, 2006.
15. Бадмаев, Б.Ц. Методика преподавания психологии [Текст]: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений / Б.Ц. Бадмаев. – М.: Владос, 2001. – 304 с.
16. Benjamin L. D. A Brief History of the Psychology Course in American High Schools // American Psychologist. — 2001. — November. — P. 951-960.
17. Беспалко В.П. Слагаемые педагогической технологии. М, педагогика 1999
18. Bristol, A. S., & Gillis, J. M. Recent developments in high school psychology education: An extension of Hakala (1999). Teaching of Psychology, 2001. - 28, p. 62-64.
19. Dominowski R. L. Teaching Undergraduates. — Mahwah, N.J.: Lawrence Erlbaum, 2002. p.
20. Hasanboev J. va boshqalar. Pedagogika. – T.: Fan, 2006.
21. Hasanboev J., To‘raqulov X., Haydarov M., Hasanboeva O., Usmanov N.. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. T.: “Fan va texnologiya”, 2009, 464-bet
22. Hasanboeva O., Djamilova N. Pedagogik fanlarni o'qitish metodikasi. - T.: 2008.
23. Ibragimov X.I. Pedagogika-psixologiya – Toshkent, O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2007
24. Ibragimov X.I.., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi. - T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2008.
25. Илина Т.А. Педагогика: Курс лексий: Учебное пособие для студентов пед. ин-тов. — М.: Просвещение, 1984. - 496 с.

26. Ismoilova Z. Pedagogikadan amaliy mashg'ulotlar. – T.: Fan, 2001.
27. Карандашев В.Н. Методика преподавания психологии - М. Спб 2007
28. Карандашев В. Н. Методика преподавания психологии: Учебное пособие. — СПб.: Питер, 2006. — 250
29. Карандашев, В.Н. Методика преподавания психологии [Текст]: учеб. пособие / В.Н. Карандашев. – СПб.: Питер, 2008. с. 121
30. Коджаспирова Г. М., Коджаспиров А. Ю. Педагогический словарь. – Academia, 2005.
31. Kaldibekova A.S., Xodjaev B.X. O'quvchilarning bilish faolligini oshirish yo'llari – T.: TDPU, 2006.
32. Кукушин Б.С. Теория и методика воспитания. - Росов-на-Дону.: Феникс, 2006.
33. Leader shipguide. Seniorleaders, subject leaders and teachers in secondary schools. Pedagogy and Practice: Teaching and Learning in Secondary chools. Status: Recommended Date of issue: 09-2004.
34. Лихачев Б. Т. Педагогика. - М.: Юрайт, 2003.
35. Лернер И.Я. Дидактическая система методов обучения. –М.; «Знание», 14-15-ст.
36. Ляудис В. Я. Методика преподавания психологии. — М.: Изд-во МГУ, 1989.
37. Махмутов М. И. Современный урок. — 2-е изд. — М., 1985.
38. Ochilov M., Ochilova N. Oliy maktab pedagogikasi. Darslik. -T., «Aloqachi», 2008, 7-bet,
39. Mahkamov U.I., Xo'jayev B.Q., Tilabova N., Didaktika vositalar majmui. Toshkent 2009
40. Mavlonova R. va boshq. Pedagogika. - T.: O'qituvchi, 2001.
41. Mavlonova R., To'raeva O., Xoliqberdieva K. Pedagogika. – T.: O'qituvchi, 2001.
42. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – T.: O'zbekiston, 2001.
43. Mirsoliyeva M., Pedagogika kolleji o'quvchilarining kasbiy tayyorgarligini shakllantirish metodikasi – T.: Fan va texnologiyalar, 2011.

44. Neil Selwyn. Education and Technology: Key Issues and Debates. Australia, 2011 Continuum
45. O‘zbek tilining izohli lug’ati. T.: “O‘zbekiston milliy ensiklapediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.
46. Ochilov M., Ochilov N. Oliy maktab pedagogikasi (darslik) –T. “Aloqachi”, 2008.
47. Ochilov M. Muallim qalb me’mori. – T.: O‘qituvchi, 2001.
48. Omonov X., Xo‘jayev N., Madyarova S., Eshchonov E. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2009.
49. Pedagogika (pedagogika nazariyasi va tarixi) oily o’quv yurtlari uchun darslik. J. Hasanboyev va boshqalar Toshkent: “Nashr” 2011, 362-363-betlar
50. Pedagogika (Pedagogika nazariyasi va tarixi): o’qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani bakalavriat yo’nalishi uchun darslik (M.X Taxtaxodjayeva, S. Nishonova, J. Xasanboyev, va boshqalar) – Toshkent, 2010
51. Пидкасистый И.П. Педагогика. – Ростов-на-Дону.: Педагогика, 2003.
52. Подласый И. П. Педагогика. В 2-х кн. - М.: ВЛАДОС, 2003.
53. Princip les of Learning and Teaching. Effective pedagogy. R - 12.
54. Quronov M. , Qurboniyozova Z. Ijtimoiy pedagogika. T., «Universitet», 1994, 42-b.
55. Roziqov O. va boshqalar “Didaktika” darsligi –T.: UzR F A “Fan”, 1997
56. Roziqov O.R., Adizov B.R., Najmiddinova G.N. Umumiy didaktika. –T.:2012
57. Saidahmedov N. “Yangi pedagogik texnologiyalar : nazarya va amalyot. T.” Moliya “ nashiryoti 2003 93 bet
58. Селевко Т.К. Совримений образователни технология - М ; “Народний образавани“ , 1998
59. Селиванов В.С. Основы общей педагогики: теории и методики. – М.: Академия, 2000.
60. Сластени В.А., Исаев И.Ф. Педагогика. – М.: Академия, 2005.
61. Сластенин В.А., Исаев И. Ф., Шиянов Е. Н. Общая педагогика. В 2-х кн. – М.: ВЛАДОС, 2003.

62. Столяренко Л.Д. Общая педагогика. – Ростов-на-Дону, Феникс,
63. Столяренко А.М. С81 Психология и педагогика: Учеб.пособие для вузов. — М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2004. - 423 с.
64. Tolipov O‘.Q, Usmonova M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari –Toshkent, “Fan” 2006
65. Xarlamov I.F. Pedagogika. – M.: Gardariki, 2005.
66. Xo‘jayev B.Q. Didaktik vositalar majmui. –Buxoro. 2017.
67. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. – T.: IQTISOD-MOLIYa, 2011.
68. Xodjayev V.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik - T.: SANO-STANDART, 2017.
69. Xodjayev B.X.. ChoriyevA., SaliyevaZ.T. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi. Darslik. - T.: 1QTISOD1YOT DUNYOS1, 2018.
70. Heather Fry, Steve Ketteridge, Stephanie Marshall. A Handbook for Teaching and Learning in Higher Education. USA, 2009 Routledge.
71. Ziyomuxammedov B. Pedagogika. – T.: Turon-Iqbol, 2006.
72. Zunnunov A, Maxkamboyev U, Didaktika: Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma.-T.: “sharq” 2006
73. Рахимов О.Д., Мустафаев Қ.О., Н.И.Зоиров Масофавий таълимнинг дидактик таъминоти. Ўқув қўлланма. Қарши-2012й
74. Педагогика: Учеб. пособий для студентов пед.ин-тов/под ред. Ю К Бабанского. –М.: Просвещение, 1983, 178-203 б
75. Расулев А. А., Хайдаров М. М. Ўқитишнинг интерфаол методлари: Ўқувуслубий қўлланма. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2015.– 47 б.
76. Ro‘ziyeva D.I., Tolipov O‘.Q. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat J- T.: INNOVATSJYA-ZIYO, 2019
77. Харламов И.Ф. Педагогика: учеб. пос. 2- изд Высшая школа, 1990, 194-195-ст
78. Ҳасанбоев Ж., Тўрақулов Х., Ҳайдаров М., Ҳасанбоева О., Н.Усманов. Педагогика фанидан изоҳли луғат. Т.: “Фан ва технология”, 2009, 464-бет
79. Ҳасанбоев Ж., Тўрақулов Х.А., Алқаров И., Усмонов Н.Ў., Исъянов Р.Г., Юзликаев Ф. Педагогика назарияси (Дидактика): Олий ўқув юртлари учун дарслик. – Тошкент: Фан ва технологиялар, 2011. 105-бет.

MUNDARIJA

KIRISH	**3**
1-MAVZU. PEDAGOGIK FANLARNI O‘QITISH METODIKASI FANINING PREDMETI, MAQSAD VA VAZIFALARI	**5**
1.1. Metodika tushunchasi	5
1.2. Pedagogik fanlarni o‘qitish metodikasi fanining predmeti, maqsad va vazifalari	8
1.3. Pedagogik fanlarni o‘qitish metodikasi fanining boshqa fanlar bilan o‘zaro aloqasi	12
1.4. Pedagogik fanlarni o‘qitish metodikasi fani prinsiplari	14
2-MAVZU. PEDAGOGIK FANLAR VA ULARNING O‘ZIGA XOSLIKLARI	**24**
2.1. Pedagogik fanlar tizimi va ularning o‘zaro aloqasi	24
2.2. Pedagogika sohalarining o‘ziga xos xususiyatlari	27
3-MAVZU. ZAMONAVIY DIDAKTIK KONSEPSIYALAR	**41**
3.1. Rivojlantiruvchi ta’limning asosiy konsepsiyalari tavsifi	41
3.2.Shaxsni rivojlantiruvchi ta’lim nazariyasini ishlab chiqishga zamonaviy yondashuvlar	56
4-MAVZU. PEDAGOGIK FANLARNI O‘QITISH JARAYONI YAXLIT TIZIM SIFATIDA	**59**
4.1. Pedagogik fanlarni o‘qitish jarayoni mohiyati va uning vazifalari.	59
4.2.Ta’lim jarayonining tuzilishi	62
4.3. O‘qitish va o‘qish jarayonlari tavsifi, o‘quv jarayonida ularning o‘zaro bog‘liqligi.	65
4.4. O‘quvchilarning bilish faoliyati va uning tuzilishi	67
5-MAVZU. PEDAGOGIK FANLARNI O‘QITISH MAZMUNI	**74**
5.1.Ta’im nazariya (konsepsiya)lari mazmuni	74
5.2.Hozirgi zamon bosqichida ta’lim mazmunini belgilovchi muhim g‘oyalar (asoslar)	79
5.3.Pedagogik fanlar mazmunini tanlab olish tamoyil va mezonlari	82

5.4.Pedagogik fanlar mazmunini belgilovchi me’yoriy hujjatlar. Davlat ta’lim standarti	85
6-MAVZU. PEDAGOGIK FANLARNI O‘QITISH METOD VA VOSITALARI	**94**
6.1. Ta’lim metodi va usullari tushunchalari	94
6.2.Pedagogik fanlarni o‘qitish metodlarining tasnifi	97
6.3. Pedagogik fanlarni o‘qitish metodlari mohiyati	103
6.4.Pedagogik fanlarni o‘qitish vositalari va ularning tasnifi	112
7-MAVZU. PEDAGOGIK FANLARNI O‘QITISH SHAKLLARI	**118**
7.1. Ta’lim turlari va shakllari tavsifi. Ta’limni tashkil etish tizimi	118
7.2. Pedagogik fanlarni o‘qitishning asosiy shakllari	121
7.3.Pedagogik fanlarni o‘qitishning yordamchi shakllari	131
8-MAVZU. PEDAGOGIK FANLARNI O‘QITISHDA PEDAGOGIK VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	**136**
8.1. Pedagogik fanlarni o‘qitishda pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanishning o‘ziga xosliklari	136
8.2.Pedagogik fanlarni o‘qitishda pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanish yo‘llari	146
9-MAVZU. PEDAGOGIK FANLARNI O‘QITISH JARAYONIDA O‘QUVCHILARNING BILIM, KO‘NIKMA VA MALAKALARINI TASHXIS ETISH	161
9. 1.Ta’lim olganlikni tashxis etishning mohiyati.	161
9.2. O‘quv jarayonida nazorat va hisobga olish funksiyalari	165
9.3. Ta’lim olganlikni nazorat qilish va tashxislash tamoyillari. O‘quv faoliyati natijalarini hisobga olish turlari, shakl, va metodlari	167
9.4. Bilim, ko‘nikma va malakalarni baholash mezonlari	170
10-MAVZU. PSIXOLOGIYA FANLARINI O‘QITISH METODIKASINING PREDMETI	**173**
10.1.Psixologiya fanlarini o‘qitish metodikasining predmeti, maqsad va vazifalari	173
10.2. Psixologiya fanlarini o‘qitish metodikasining qonuniyatlari, o‘qitish tamoyillari	176
10.3.V.N.Karandashev bo‘yicha ta’lim tamoyillari	178

10.4.Eng muhim didaktik tamoyillar va oliy maktabda o‘qitish tamoyillari	181
11-MAVZU. DARS O‘QUV FAOLIYATINI TASHKIL ETISH SHAKLI SIFATIDA	**183**
11.1.O‘quv faoliyatini tashkil etish shakllari	183
11.2. Dars tiplari. Maxmutov bo‘yicha dars tiplari	192
11.3. Aralash dars	194
11.4. Yangi materiallarni o‘rganish darsi	195
11.5. Bilimlarni mustahkamlash, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish darsi	196
11.6. Umumlashtirish va tizimlashtirish darsi	197
11.7. Bilim, mahorat va ko‘nikmalarni nazorat qilish va tuzatish darsi	197
11.8. Darsga qo‘yiladigan talablar	198
12-MAVZU. MA’RUZA MAShG‘ULOTI VA UNING MAZMUNI	**201**
12.1. Ma’ruza mashg‘ulotining mazmuni	201
12.2. Ma’ruzaning tuzilishi, ma’ruza o‘qishga qo‘yiladigan talablar	203
12.3. Ma’ruza turlari	208
13-MAVZU. PSIXOLOGIYA FANLARIDAN SEMINAR VA LABORATORIYA MASHG‘ULOTLARI	**217**
13.1. Seminar mashg‘ulotining mohiyati va turlari	217
13.2. Seminar mashg‘ulotini tashkil qilish va o‘tkazish	219
13.3. O‘qituvchining seminar mashg‘ulotiga tayyorlanishi	219
13.4. Talabalarning seminar mashg‘ulotiga tayyorlanishi	220
13.5. Laboratoriya mashg‘ulotlarining mazmuni	221
13.6. Laboratoriya mashg‘ulotlarining turlari, o‘tkazilish tartibi	223
14-MAVZU. PSIXOLOGIYADA O‘QITISH METODLARIGA UMUMIY TAVSIF	**226**
14.1. Psixologiyani o‘rganishda o‘quv mashg‘ulotlari taksonomiyasi	226
14.2. Psixologiyani o'qitishda og'zaki bayon metodlari	229
15-MAVZU. PSIXOLOGIYA FANLARINI O‘QITISHDA KO‘RGAZMALI VA AMALIY METODLAR	**235**
15.1. Psixologiyani o‘qitishda ko‘rgazmali metodlar	235

15.2. Psixologiyani o‘qitishda amaliy metodlar	236
15.3. O‘quvchilarning bilish faoliyati tavsifiga ko‘ra ta’lim metodlari tasnifi	238
15.4. Masofaviy ta’lim.	241
15.5. O‘zlashtirilgan ma’lumotlarni mustahkamlash metodlari	242
16-MAVZU. O‘QITISHNING TA’LIMIY METODLARI	**244**
16.1. O‘qitishning interfaol usullariga tavsif	244
16.2. Dasturlashtirilgan ta’lim	250
16.3. Muammoli ta’lim	251
17-MAVZU. O‘QITISHNING INTERFAOL USULLARI	**257**
17.1. Pedagogik va psixologik fanlarni o‘qitishda qo‘llaniladigan interfaol usullar	257
17.2. Ijtimoiy psixologik trening	269
18-MAVZU. PSIXOLOGIYA FANLARIDAN BILIMLARNI NAZORAT QILISH VA BAHOLASHNI TASHKIL QILISH	**273**
18.1. Psixologiya fanlaridan nazorat turlari	273
18.2. Psixologiya fanlaridan bilimlarni nazorat qilish va baholash tamoyillari	274
19-MAVZU. PSIXOLOGIYA FANIDAN BILIMLARNI BAHOLASH TIPLARI	**278**
19.1.Psixologiya fanidan bilimlarni baholash tiplari.	278
19.2.Psixologiyani o‘qitishda bilimlarni nazorat qilish shakllari	286
TESTLAR	290
GLOSSARIY	302
ADABIYOTLAR RO‘YXATI	316

Jurayev Bobomurod Tojiyevich

PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK FANLARNI O‘QITISH METODIKASI

5110900-pedagogika va psixologiya sirtqi ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun o‘quv qo‘llanma

Muharrir:

Texnik muharrir:

Musahhih:

Sahifalovchi:

“Fan va ta’lim nashriyoti”

Лицензия: AI №309. 2017 йил 22 июн.
Manzil: Toshkent shaxri, Shayxontohur tumani, Navoiy ko'chasi 30-uy.

Original –maketdan bosishga ruxsat etildi: 25.12.2022

Bichimi: 60*108 1/32. “Times New Roman” garniturasida

Ofset bosma usulida ofset qog‘ozida bosildi.

9.25 shartli b.t. 8.6 hisob nashr tobog‘i.

Adadi 100 nusxa. 72-sonli buyurtma.

«Standart Polıgraf» x/k bosmaxonasida chop etildi.

Buxoro shahri, Navoiy shoh ko‘chasi, 6-uy.